


84 (50z)
Y 62

63



Odil Yagubov

DIYONAT

84(502)
Y.62



„O‘zbek adabiyoti oltin fondi“

ODIL YOQUBOV

DIYONAT

ROMAN

4

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

931050

„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“


TOSHKENT - 2019

UO'K: 821.512.133-3
KBK: 84(50')6
Y 93

Yoqubov, Odil
Diyonat / Muallif Odil Yoqubov. – T.: „Qaldirg'och
nashriyoti“, 2019. – 376 b.

Mas'ul muharrir
ASHURALI JO'RAYEV

DIYONAT




UO'K: 821.512.133-3
KBK: 84(50')6

ISBN 978-9943-5710-2-0

© O.Yoqubov
© „Qaldirg'och nashriyoti“, 2019.

BIRINCHI QISM

Birinchi bob



Otaqo'zi millioner raislarga xos viqor va dabdaba bilan qo'qqisdan „bostirib“ keldi. Domla Shomurodov mashina ovozi eshitib ko'chaga chiqqanida darvoza oldida biri oq, biri havorang ikkita „Volga“ qator turardi. Ketma-ket „Gazik“ kelib to'xtadi.

Oq „Volga“dan oldin Otaqo'zi, uning ketidan sipogina kiyingan, xushbichim bir odam, havorang „Volga“dan esa Otaqo'zining qizi Tohira tushdi.

Otaqo'zi peshanasiga do'ndirib qo'ndirgan yangi chust do'ppisini to'g'rilab, novcha, kelishgan saxt-sumbatini sal tebratib borib, domla Shomurodov bilan ko'rishdi.

– Bardammisiz, tog'a? Ayamlar yaxshimilar?.. Qani, tanishib qo'ying: Abror Shukurov, yangi kotibimiz. Yosh, lekin ishchan, prinsipial rahbar...

Abror Shukurov Otaqo'zining o'rinsizroq maqtovidan xijolat chekdimi, yo boshi xumdek bu baquvvat cholning savlati bosdimi, iymanibroq ko'rishdi.

– Yaxshimisiz, Normurod Shomurodovich... Tanishganimdan behad xursandman. Siz to'g'ringizda ko'p eshitganman...

– Rahmat, bolam, rahmat... – Normurod Shomurodov kirtaygan ko'zlarini undan uzib, kalta guldor ko'ylak kiygan, qop-qora silliq sochlari yelkasiga shaloladay quyilgan, nozikkina xushsurat qizga yuzlandi:

– Sen ham qishloqda edingmi, Tohira?

– Yo'q, imtihon... – dedi Tohira qizarib. – Davlat imtihonlari bilan bo'lib kelolmadim.

– Ha, xabar olmay qo'rganmiding bobongdan? – Ota-

qo'zi qalin qoshlarini chimirib bir qiziga, bir tog'asiga qaradi. Uning farzandlari domlani „bobo“ deb chaqirishardi.

– Mayli, zarari yo'q, zarari yo'q... – Normurod Shomurodov qandaydir taraddudlanib, mehmonga yuzlandi. – Qani, ichkariga... marhamat, o'rtoq Shukurov...

Eskiroq yo'l-yo'l pijamasining kengligidanmi, u juda baquvvat, miqti ko'rinar, yaltiroq katta boshi, ayniqsa, do'ng peshanasi uni suratlardagi qadimgi yunon faylasuflariga o'xshatar, yirik go'shtdor burni esa yonoqlari bo'rtib chiqqan keng yuziga shiddatli bir ifoda baxsh etar edi.

Mehmonlar ichkariga kirisharkan, „Gazik“ning shofyori Otaqo'zining orqasidan borib:

– Xo'jayin!– deb chaqirdi.

Otaqo'zi to'xtab qovog'ini uydi.

– Necha marta aytdim senga, „xo'jayin“, dema deb!

– Uzr, Otaqo'zi aka! – shofyor qizarib, peshanasini ishqadi. – Yuklarni nima qilay?

– Yuklarni... bir quti bodring, bir quti pomidorni shu yerga tushirasan. Qolganini aytgan joyimga eltasan, uqdingmi?–Otaqo'zi qizg'ish brezent etiklari bilan yerni gurs-gurs bosib, ichkariga kirdi. Kattagina chorburchak hovlining to'rida bir mahallar ancha hashamatli qilib qurilgan, hozir esa ustunlarining bo'yoqlari xiralashib, devorlarining ganch suvoqlari ba'zi joylaridan ko'chib tushgan dang'illama uy qad ko'targandi. Uyning ayvonida egniga ko'k shoyi ko'ylak, oyog'iga qoshiqdekkina kavush kiygan, boshiga ohori to'kilmagan oppoq doka ro'mol o'ragan, ko'zlari tegrasiga surma tortgan nozik-nimjongina bir kampir shosha-pisha ko'rpacha yozmoqda edi.

Normurod Shomurodov xuddi aziz mehmonini qayoqqa o'tqazishni bilmagan odamday:

– Qani, marhamat, o'rtoq Shukurov, – dedi kuymalanib.

– Yuqori o'tsinlar, bemalol...

Kampir esa surma tortilgan ko'zlarini yerga tikib, go'yo yosh kelinchakday qo'llarini ko'ksiga qo'yib:

– Assalom! – deb boshini egdi, so'ng pildirab borib, ayvonga chiqqan Tohiraning u yuzi, bu yuzidan cho'lp-cho'lp o'pdi.

– Voy, bo'yginangdan aylanib ketay seni. Sog'intirib qo'yding-ku ayajoningni!

Chol-kampirning sertakalluf xatti-harakatlaridan xijolat chekkan Shukurov yuqoriga o'tmoqchi edi, hovliga kirib kelgan Otaqo'zi:

– Shoshmang, shoshmang, – deb uni to'xtatdi. – Men bu kishiga kutubxonangizni ko'rsatmoqchi edim, tog'a. Maylimi?

– Bemalol, bemalol, – dedi domla shoshqaloqlik bilan. – O'zing boshla, men hozir kiranman...

Otaqo'zi etigini g'archillatib ayvonga chiqdi, undan to'rt tomonidagi naqshinkor javonlar kitobga liq to'la edi. Kitoblar faqat javonlar emas, stullar, o'rtadagi stol, qandaydir qutichalar va hatto deraza tokchalarida ham uyulib yotardi.

Eni kamida besh, bo'yiga olti metr keladigan bu keng, yorug' xona chindan ham kutubxonaga o'xshar, uning to'rt tomonidagi naqshinkor javonlar kitobga liq to'la edi. Kitoblar faqat javonlar emas, stullar, o'rtadagi stol, qandaydir qutichalar va hatto deraza tokchalarida ham uyulib yotardi.

Eshikning ikki tomonidagi javonlardan biriga „Ilmiy texnika adabiyoti“ deb yozilgan, tepasiga „Tarix va falsafa“ deb yozilgan ikkita katta javonda zamonaviy asarlardan tashqari, eski arab yozuvidagi kitoblar ham ancha bor, qolgan javonlarning hammasi badiiy adabiyot bilan to'lgan, rus va jahon klassiklarining ko'p jildli asarlari qimmatbaho muqovalarini ko'z-ko'z qilib yarqirab turardi.

– Bu faqat bir qismi!– dedi Otaqo'zi, xuddi bu kitoblarni o'zi to'plaganday g'urur bilan. – Narigi xonalarda, yerto'lada yana shuncha kitob bor. Qani, o'tiring, bitta gap bor sizga...

Abror Shukurov Otaqo'zi ko'rsatgan stulga omonatgina o'tirarkan, hamon kitoblardan ko'zini uzolmay:

– Bu kishi... asli texnika fanlari bo'yicha-ku, a?– deb so'radi.

– Ha! Asli suv bo'yicha birinchi olimlardan. Ammo madrasa ko'rgan eski ziyolilardan emasmi, qiziqmagan ishlari yo'q...

– Madrasa ko'rganlarmi?

– Ha... E, bu kishini tirik tarix desa bo'ladi! Shu Toshkentda, Beshyog'och dahasidagi mashhur Ma'dixon eshon madrasasida tahsil ko'rganlar. Keyin oq poshsho – german

urushi boshlanib, qishloqda do'kondorlik qilgan otalari „singanlar“-u, bu kishi bir kundayoq mullamirquruq mul-lavachchaga aylanib, mardikorlikka ketganlar. Mardikorlik-dan qaytgach, Moskvaga o'qishga ketib... birinchi suv inje-neri bo'lib qaytganlar.

– Yoshlari nechada?

– Narigi asrning to'qson oltinchi yili tug'ilganman, dey-dilar. Hozir yetmish to'rtinchi yil bo'lsa... yetmish olti-yet-mish yettida bo'ladilarmi? Ammo haliyam siz bilan men-dan baquvvatlar!..

– Ha, ko'rinib turibdi! – dedi Shukurov.

– Endi bitta gap bor, – Otaqo'zi katta qoramtir kaftini Shu-kurovning tizzasiga qo'ydi. – Bu kishi ko'pdan beri bir narsa-ni niyat qilib yuribdilar. Shu kutubxonamni olib, qishloqqa ko'chib borsam, deydilar. O'z qo'lim bilan yoshlarga kitob tarqatib, nima desam bo'ladi, ziyo sochib o'tirsam, deydilar...

– Juda soz-da! – Shukurovning o'ychan qo'y ko'zlari al-laqanday chaqnab ketdi. – Savob ish! Yordam berish ke-rak!.. Bu yerda ishlaydilarmi o'zi?

– Ishlaydilar. Suv xo'jaligi institutida maslahatchi bo'lib ishlaydilar, haliyam bo'lsa obro'lari katta. Lekin gap ish-da emas. U yog'ini surishtirsangiz, allaqachon nafaqaga chiqqanlar... Gap shundaki... – Otaqo'zi o'rnidan turib, qiya ochiq qolgan eshikni zich qilib yopdi. – Chol-kampir bu yerda yolg'izlanib qolishgan. Ko'rib turibsiz-ku, kelgani-mizga yosh boladay quvonib ketishdi...

– Farzandlari yo'qmi?

– Yo'q. Yolg'iz o'g'illari bor edi, Jabbor degan. Qirq uchinch yili urushda halok bo'lgan. Balki eshitgandirsiz, qahramon bo'lgan...

Otaqo'zi katta yozuv stolining ustidagi ramkali su-ratga imo qildi. Suratda yelkalariga ofitserlik pogoni taqilgan, ozg'inligidan lunjlari ichiga botib ketgan, bur-ni uzun, qop-qora bir yigit horg'ingina jilmayib turar-di. Shu horg'inlik sababmi yo egnida eski gimnastorka, boshida g'ijimlangan pilotka bo'lgani uchunmi, suratda-gi yigit Otaqo'zi tasvirlagan qahramonga uncha o'xsha-mas edi.

– Ha, ajoyib yigit edi! – dedi Otaqo‘zi xo‘rsinib. – Temiryo‘l institutining uchinchi kursida o‘qirdi. Yoz bo‘lsa qishloqqa borardi. Ov miltig‘i bo‘lardi. Qush ovlardi. Biz: „Jabbor aka, Jabbor aka“, deb u kishining ketidan yugurib yurardik. Haligi... Fazilatxon bor-ku, bizda klub mudiri... O‘shani sevardi... Yoshligida husnda tengsiz, ofatijon bir narsa edi-da, uyam!

– Shunaqami?

– Ha, ja boshqacha edi! – dedi Otaqo‘zi miyig‘ida kulimsirab. – U ham, Fazilatxonni aytaman, Toshkentda, qizlar bilim yurtida o‘qirdi. Yozda qishloqqa borganlarida men... (u mahalda kamina o‘n uch-o‘n to‘rt yashar bola edim) ularga pochtachilik qilardim... E, juda g‘alati ishlar bo‘lgan – yoshlik esdaliklaridan hayajonga tushgan Otaqo‘zi to‘satdan ko‘zlari chaqnaib, o‘rnidan turib ketdi. – Bir katta odam bor... Shu odam sabab juda g‘alati ishlar bo‘lgan.

Otaqo‘zining hayajoni Abror Shukurovga ham yuqdi-yu, toqatsizlanib:

– Xo‘sh, xo‘sh?– deb so‘radi.

– U mahalda o‘sha odam bizda ijrokom raisi edi... Jabbor akam urushdalar. Fazilatxon o‘qishdan qaytib borib, o‘qituvchilik qilardi. Oldin o‘qituvchilik qildi, keyin kolxozda hisobchi bo‘ldi. Ko‘z oldingizga keltiring-a, o‘n gulidan bir guli ochilmagan bir malak...

– Masala ravshan... – Shukurov afti burushib, o‘rnidan tura boshlagan edi, Otaqo‘zi uni qo‘lidan ushlab to‘xtatdi. – Siz o‘ylaganday ravshan emas-da, bu ish, aka! Gap ochildimi, aytib bera qolay... Fazilatxon unaqa yomon qiz emas edi. Haligi odamning xushomadlariga uchgan emas. Juda qattiq turgan. Shunda bu odamning laganbardorlari bitta xunuk ish qilishgan: Jabbor akamning xatlarini to‘xtatib qo‘yishgan.

– Qanaqa qilib to‘xtatishadi?

– Qanaqa bo‘lardi? Laganbardorlar pochta boshlig‘iga imo qilishgan. U bo‘lsa Fazilatxonga kelgan xatlarni asta yo‘q qilavergan. Gapni po‘stkallasi, u qilib-bu qilib... Fazilatxonning amakisi bo‘lardi, urushga ketgan rais o‘rniga rais bo‘lgan, o‘sha odamni o‘rtaga solib, oxiri niyatiga

yetadi. Haligi odamni aytyapman, Fazilatxonga uylanadi. Rasmiy emas, shunchaki... qishloqda uy-joy qilib berib, bo-rib-kelib turadigan bo'ladi...

Abror Shukurov dik etib o'rnidan turib ketdi.

– U yog'ini aytmasangiz ham bo'ladi...

– Yo'q!– kuldi Otaqo'zi. – Eng qizig'i endi keladi! Gap shundaki... Jabbor akam ham Xudo degan yigit ekan, bu orada qahramon bo'lib ta'tilga kep qoladi. Kelib bu gaplarni eshitadi-yu, bir kun kechasi haligi odamning ketidan poylab borib... otadi!

– Yo'g'-e! Rost gapmi?

– Qiziqmisiz? Nima, yolg'on aytamanmi man? O'zi qahramon bo'lsa... bunaqa gapni eshitib chidab turadimi? O'ziam olov yigit edi-da, ammo lekin gapni po'stkallasi, bostirib kirib, shartta otadi! Ammo uyam, haligi odamni aytaman, baxti bor ekan, o'zini derazadan tashlab qochadi. O'q tegmay qoladi...

– Voy, tavba! – dedi Abror Shukurovich ko'zlari yonib. – Tayyor bir kino-ku! Oxiri nima bo'ldi?

– Oxiriyam qiziq. Jabbor akam frontga qaytib ketdilar. Ketayotib, yuqori tashkilotlarga xat yozadilar.

U yoqdan bu ishlarni haqiqat qilgani vakil keladi. Shunda haligi odam ham bitta o'g'ilbola ish qiladi...

– O'g'ilbolaligidan o'rgildim! – dedi Shukurov tusi o'zgarib. Otaqo'zi uning gapini negadir xushlamay:

– Yo'q, rost! – dedi. – Nafsilamrini aytganda... Ayb u odamdayam emas. Hamma baloni qilgan – laganbardorlar! Bilasiz-ku, odamlarni! Xullasi kalom...

– Hozir bormi u odam?

– Bor. Siz ham taniysiz uni.

– Kim o'zi?

– E, haligi... – Otaqo'zi aytmaydigan gapni aytib qo'yib, nima qilishini bilmay qolgan odamday chaynalib, peshanasini ishqadi. – Haligi bor-ku...

Shukurovning ko'zlarida sho'x uchqunlar jilva qildi.

– Katta odam bo'lsa... qo'rsangiz, aytmay qo'ya qoling!

– Yo'g'-e! Nega qo'rqar ekanman! – dedi Otaqo'zi.

– Haligi... Jamol Bo‘riboyev-da! Tunov kuni cho‘lga bordi-ku...

– Selxoztexnika vakilimi?

– Vakil emas, boshqarma boshlig‘i! Bir-ikki yil oldin vazir o‘rinbosari bo‘lgan bu odam! Xullasi kalom, o‘shanda, byuroda, bu odam mardona bir gap qiladi. Avvalambor, qoraxatga daxli yo‘q ekanini isbotlab beradi. Fazilatxon bilan bir-birimizga muhabbat qo‘yib qovushganmiz, deydi. Agar muhabbat qo‘yish gunoh bo‘lsa... Frontga jo‘natinglar, deydi! Gunohimni qonim bilan yuvaman, deb iltimos qiladi...

– Iltimosi qabul qilinadimi?

– Qabul qilinadi...

– Jabbor akangiz frontda halok bo‘ladi?

– Halok bo‘ladi!

– Bu odam qahramon bo‘lib qaytib keladi?

– Qahramon bo‘lmasayam Berlinga boradi. Ikki marta yarador bo‘ladi! – dedi Otaqo‘zi. – Men ham uning bu qilmishlarini xushlamayman-u, ammo lekin frontda ish ko‘rsatgan bo‘lsa kerakki, urushdan ko‘ksi to‘la orden-medallar bilan qaytib keldi...

– Hm, – Abror Shukurovich chuqur xo‘rsinib, stoldagi suratga uzoq tikilib turdi-da, bir-bir bosib derazaning oldiga bordi. – Ha, juda murakkab ekan-da, bu turmush...

– E, murakkab deysiz-qo‘yasizmi? – dedi Otaqo‘zi. U o‘rnidan turib, yopiq eshikni yana bir tortib qo‘ydi, negadir ovozni pasaytirib:

– Endi gapning berdisini eshiting! – dedi. – Mana shu Fazilatxon bilan... Xudo haqqi, men uni yomon deyolmayman! Taqdir hukmiga bir nima deb bo‘lmas ekan!.. Oxir-oqibat mana shu Fazilatxon bilan quda bo‘lyapmiz, Abror Shukurovich!

– E, shunaqami? – dedi Shukurov, nima to‘g‘risidadir o‘ylashda davom etib.

– Yana qanaqa quda deng? Qarshi quda! Haligi Tohira degan qizimiz uning o‘g‘liga ko‘ngil qo‘yibdi. Bizni katta o‘g‘il, dissertatsiya yoqlayotgan mana shu o‘g‘limiz Haydar uning qizi Latofatxonni istab qopti! Xayolda yo‘q narsalar! Yoshlar o‘zlari topishgandan keyin bir nima deb bo‘lmas

ekan. Ammo chol nima derkin? Shunga hayronman, Abror Shukurovich?

Shukurov indamadi. U hovliga tikilganicha sukut saqlar, oftobda pishgan qoracha yuzi, sal qisilgan qo'y ko'zlariga chuqur o'ychanlik cho'kkan edi. Otaqo'zi nogahon o'yga cho'mgan raykom kotibining chehrasidagi o'zgarishlarni zimdan kuzatarkan:

„Tag'in o'sha-o'sha go'lligingga borib, hamma sir-as-roringni valdirab qo'ydingmi? – dedi, ichida o'zidan ranjib. – Og'ziga kuchi yetmagan xotindan beshbattar vaysading... Yangi rahbar, ko'ngling tozaligini qayoqdan biladi? Katta odam bilan quda bo'laman deb, tug'ishgan tog'asini o'ksitishdan ham toymapti-da, demaydimi? Nega demasin, uning o'rnida bo'lsang, sen ham shunday derding! Xudo bo'y berib, aql bermagan galvars! Yoshing ellikka qarab ketyapti haliyam omiliging qolmadi-qolmadi-da!“

Shukurovning rayonga kelganiga hali bir oy ham bo'lmadi. To'g'ri Oliy partiya maktabidan kelgan bu yosh, kamgap odam avvalgi raykom kotibiga, rayonda ko'p yillar ishlagan, hamma o'rganib qolgan, lekin so'nggi paytlarda jiddiy xatolarga yo'l qo'yib, ishdan olingan oldingi kotibga mutlaqo o'xshamas edi. Avvalgi kotib hamma kolxoz raislari bilan apoq-chapoq, dilkash, bir qop yong'oqday shaldir-shuldur, ochiq-yorug' bir odam edi. U kolxozlarga tez-tez chiqib turar, oyog'ida kirza etik, boshida poxol shlapa, dalalarni aylanib, paxta ilmidan yosh-u qari – hammaga saboq berib yurardi. Rost, ba'zan dala aylanib yurgan paytlarida raislarga o'z kuchini ko'rsatib qo'yishni, „qo'llari qadoq“ paxtakorlar oldida baqirib-chaqirishni, ayniqsa, byuro majlislarida o'rnilaridan turg'azib qo'yib, chapanilarcha so'kib ketishni yaxshi ko'rardi. Biroq uning bu odatlariga hamma ko'nikib ketgan, chunki byuroda so'ksa, byurodan keyin chaqirib olib askiya qilar yo dashnom yegan rais bilan bir mashinaga o'tirib kolxozga jo'nar, to'g'ri bog'ga borib, birga chaqchaqlashishni, to'qaylarda ov qilishni yaxshi ko'rar, xullas, u hammaga, hamma unga o'rganib qolgan, ko'nglida kiri yo'q, soddadil bir odam edi.

Shukurov uning tamom teskarisi. Avvalgi kotib qancha-

lik sergap, sershovqin, dali-g'uli bo'lsa, bu shunchalik kamgap, kamsuqum, avvalgi kotibning ichidagisi sirtida bo'lsa, bu aksincha, ichimdagini top, deydigan xilidan. Rayonga ishga kelganiga bir oy bo'pti, hali birorta raisni „byuroga solgani“ yo'q, o'rnidan turg'azib qo'yib, dashnom bergani yo'q. Ammo birorta raisning bog'ida mehmon ham bo'lma-di. Dalalarni aylanadi, ko'radi, odamlar bilan suhbatlasha-di-yu, mashinasiga o'tirib, jo'nab qoladi. Bog'da hovuz bo'ylaridagi shinam shiyponlarga yozilgan dasturxonlar yozilganicha, besh yulduzlik oliy nav konyaklar ochilgani-cha, so'yilgan bo'rdoqilar so'yilganicha qolib ketyapti. Ilgari-gi kotibning ayovsiz dashnomlaridan keyin ziyofatlardagi dilkashliklariga, chapanilarcha askiyalariga o'rganib qolgan raislar yangi kotibning bu qiliqlaridan ancha tashvishda. Hali-hozir hech bir rais uning ko'ngliga yo'l topolgani yo'q, bir dasturxon atrofida o'tirib, chaqchaqlasha olgani yo'q, ko'plar to'satdan paydo bo'lgan bu jumboqni yecholmay aro-satda! Shuning uchun ham kecha Otaqo'zi Abror Shukurovich bilan suhbatlashib o'tirib, uning Normurod ota to'g'risida eshitganini va hatto bir ko'rsam, deb yurganini bilib qu-vonib ketdi. Eng muhimi – bu suhbat vaqtida u Abror Shu-kurovichning professor Vohid Mirobidovga kuyov bo'lishini bilib oldi.

Vohid Mirobidov o'g'li Haydarning ilmiy rahbari. Ota-qo'zi uni yaxshi biladi, hatto bordi-keldilari ham bor. Le-kin tog'asi bilan Vohid Mirobidov nosoz, shunchalik nosoz-ki, Haydar Mirobidovga shogird bo'lganidan keyin domla Otaqo'zi bilan anchagacha hatto gaplashmay yurdi. Shu sababdan, Otaqo'zi avval biroz cho'chigan, Mirobidov ku-yoviga cholni yomonlamaganmikin, deb hadiksiragan edi. Yo'q, Shukurov qaynatasini tilga olmadi. U otaning suv mu-ammolari to'g'risidagi qaysi bir kitobini o'qib, nihoyatda mamnun bo'lgan ekan, shuni aytdi.

Otaqo'zi raykomga o'g'li Haydarning himoyasiga borib kelish uchun ruxsat so'ragani borgan edi. Shukurov ham Toshkentga tushmoqchi bo'lib turgan ekan, birga ketishdi. Yo'lda tog'asi bilan tanishtirib qo'yishni taklif qilgan edi,

Shukurov ham ko'ndi-qoldi. Shu-shu, Otaqo'zi ochilib ketib, mana, o'rinli-o'rinsiz ko'p gaplarni gapirib yubordi...

Abror Shukurovich hovlidan ko'zini uzib:

– Ha, albatta, – dedi o'ychan tovushda. – Bunaqa ekan, otaning ko'ngli og'rishiyam mumkin.

– To'g'ri. Ammo men nima qilay, o'rtoq Shukurov?

Yoshlar o'zlari topishgan bo'lsa...

– Men sizni ayblayotganim yo'q... – Abror Shukurovich yana bir xo'rsinib qo'ydi. – Domla... Ko'pni ko'rgan odam, balki tushunar... Ular, Bo'riboyev bilan Fazilatxonni ayta-man, ajrashib ketishganmi, yo...


– E, qachonlar ajrashib ketishgan! Urushdan keyin uch-to'rt yil murosqa qilishdimi, yo'qmi, keyin ajrashib ketishgan.

– Farzandlari bilan inoqmi?..

– O'g'li Qodirjon, ya'ni, bizdi bo'lajak kuyov – tuzuk, otasi bilan bordi-keldisi bor. Qizi Latofat... otasini ko'p xushlamaydi, deb eshitaman...

Otaqo'zining gapi og'zida qoldi, eshik ochilib, Normurod Shomurodov kirdi.

– Senga nima bo'ldi, jiyan? Choy sovib qoldi-ku u yoqda! – domla yaltiroq boshini silab, Shukurovga yuzlandi. – Qani, marhamat qilsinlar, o'rtoq Shukurov, marhamat qilsinlar...



Baland ko'tarilgan ishqom tagidagi stolga dasturxon yozilgan, o'rtada elektrga ulangan samovar sharaqlab qaynab turardi. Stol atrofida kuymalanib yurgan kampir mehmonni ko'rib, yana boyagiday qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

– Keling, aylanay... Ancha bo'ldi, dom-daraksiz ketdingiz, Qo'zizon?.. Kelinim Oliyaxon yaxshi yuribdilarmi? Bo'taloqlarim qalay? Biram sog'indim, biram sog'indimki...

– Sog'insangiz opketaman, – dedi Otaqo'zi. – Agar to'g'am ko'chishni paysalga soladigan bo'lsalar... yo o'zlari qolsinlar, yo boshqa bir kampir topib olsinlar! Sizni opketaman, ayajon.

– Koshkiydi, – dedi aya muloyimgina kulib.

– Shu gapingizda turasizmi? Kampir topilsa, tog'amlar-ni tashlab ketaverasizmi?

Aya ko'zlari mo'ltirab, domlaga qaradi. Otaqo'zining haziliga hazil bilan javob bergisi keldi-yu, lekin birdan ovo-zi o'zgarib:

– Qo'ying, – dedi. – Cholim bechorani tashlab qayoqqa ham boraman? Endi nima bo'lsayam birga bo'laylik...

Kampirning bu so'zlarida, surma tortilgan ko'zlarining muloyim javdirashida, kulchadekkina yumaloq yuzida ham cheksiz mehr, ham qandaydir nozik ichki bir dard, ko'p yillar birga bo'lib, bir-biriga suyanib qolgan keksalardagina bo'ladigan sal g'amgin bir alomat bor edi. Abror Shukurov yuragi „shig“ etib, domla Shomurodovga qaradi, gapni boshqa tomonga burish uchun:

– Juda ajoyib kitoblar yig'ibsiz, – dedi. – Kutubxonaga bog'liq yaxshi niyatingiz bor ekan, niyatingizga yeting...

– Ha endi... – dedi domla Shomurodov. – Chol-kampir qarigan chog'imizda kindik qonimiz to'kilgan joylarga bor-sak deymiz.

– O'n yil bo'ldi, aytasiz-qo'yasiz, aytasiz-qo'yasiz... – Aya iltijoli ko'zlarini Abror Shukurovga tikdi. – Jon bo-lam, otangizga ayting, ko'chadigan bo'lsalar, ko'zim tirigida ko'chsinlar...

Shukurov yana boyagiday yuragi uvushib:

– Marhamat, – dedi. – Ko'chib borsalaringiz hamma shart-sharoitni yaratib beramiz. To'g'rimi, rais?

– E, bu gaplarni yuz marta aytganman! – dedi Otaqo'zining ham zardasi qaynab. – Uy-joy – hammasi tayyor. Kolxoz o'zi joy ajratib beradi!

Domlaning keng yuzida xuddi qoyaday qo'nqayib turgan katta burni g'alati qimirlab, do'ng peshanasi qizarib ketdi.

– Men kolxozingga tirik tovon bo'lishni istamayman! – dedi keskin. – Ko'chib boradigan bo'lsam... o'z pulimga uy-joy qurib olaman...

Otaqo'zi to'satdan xaxolab kulib yubordi. „Ko'rib qo'ying, qanaqa odam!“ degandek, yer ostidan Shukurovga bir qarab oldi.

– Kim aytdi sizni tirik tovon bo'ladi, deb! Pulingiz san-

diqqa sig'mayotgan bo'lsa kaminaga bering, men o'zim shohona uy-joy qurdirib beraman!

– Hay, bir gap bo'lar, jiyan... – domla kampirga, „ovqatingga qara“, degan ma'noda imo qildi-da, Abror Shukurovichga yuzlandi: – Xo'sh, o'rtoq Shukurov, shunday qilib, bizni rayonga boribsiz-da! Juda yaxshi bo'пти-da, juda yaxshi bo'пти... Ilgari qayerda ishlagan edilar?

– Dastavval Surxondaryoda. Keyin Qarshi cho'lida... Aytmoqchi, o'sha paytlarda sizning Mirzacho'l to'g'risidagi kitobingizni o'qib chiqqandim. O'shanda bir narsa meni juda hayratga solgandi...

– Xo'sh? Xo'sh?

– Nahot hukumatning Mirzacho'lni o'zlashtirish to'g'risidagi Qarori o'ttiz yettinchi yilgacha noma'lum bo'lgan?

– Nega ajablanasiz?

– Bu Qarorni siz topganmisiz?

– Yo'q, Qarorni o'zi bo'lgan-u, lekin biz o'sha paytlarda yosh edik, ko'p narsadan bexabar edik. Masala shundaki, agar o'sha Qaror bo'lmaganda... ehtimol, kaminaning holi voy bo'lardi...

– Nega?

– Negaki, o'sha paytlarda o'zlarini o'ta pok qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan ba'zi odamlar, Mirzacho'lni o'zlashtirish kerak, degan kaminaga o'xshagan kishilarni dushmanga chiqarib qo'yishlariga oz qolgan!..

Shukurov butun gavdasi bilan oldinga talpinib:

– Yo'g'-e! – deb yubordi.

Albatta, bu gaplar hozir sizga juda g'ayritabiiy tuyuladi. Ammo o'ttizinchi yillarning oxiridagi ba'zi gazetalar-ni varaqlab ko'ring. Kaminaga qarshi qilich yalang'ochlab chiqqan maqolalarni o'qish baxtiga muyassar bo'lasiz...

– Sizda bordir bu maqolalar?

– Yo'q! – domla Shomurodovning ovozi kutilmagan bir qahr bilan yangrab ketdi. – Men unaqa... fisq-u fujur gap-larni yig'ib yuradigan odatim yo'q!

Gap kim ustida borayotganini bilgan Otaqo'zi beixtiyor o'rnida bir qo'zg'alib qo'ydi, xayolidan: „Choli tushmagur... hozir ismini-yam aytib yubormasa edi!“ – degan fikr o'tdi.

Abror Shukurovich negadir rangi o'chib:

– Hozir bormi o'sha odamlar?– deb so'radi.

– Bor, – domlanning lablariga istehzoli kulgi yugurdi. – Mana, jiyanim biladi...

Shukurov yalt etib Otaqo'ziga qaradi. Otaqo'zi nima deyishini bilmay:

– Qo'ying shu gaplarni, tog'a, – dedi. – O'tgan ishga salavot...

– Men ham o'tgan ishni qo'zg'amoqchi emasman! O'rtoq Shukurov so'raganlaridan keyin aytyapman-da! – domla jiyaniga bir o'qrayib qaradi-da, Abror Shukurovichga yuzlandi. – Kechirasiz, bu odam meni tergov qilyapti-ku, demaysiz, asl kasbingiz?..

– Men biologman...

– Ilmiy darajangiz ham bordir?

– Qayoqda deysiz. Aqlimizni tanibmizki, tashkiliy ishlar bilan bo'lib...

– E, bu kishi kandidat bo'lmasayam, o'nta kandidatni bir cho'qishda qochiradi! – Otaqo'zi o'z gapidan o'zi zavqlanib xaxolab kuldi. – Bu kishi Moskvadagi Oliy maktabni bitirib kelganlar...

Domla Shomurodov, xuddi jiyanining bu gapidan xijolat chekkanday, katta boshini silab:

– Biolog bo'lsangiz, – dedi, – men sizga bitta kitob beraman... Meni ko'pdan beri o'ylantirib yurgan bir muammo bor, ximiya muammosi.

– Ha, hammaniyam tashvishga solyapti bu muammo, – dedi Shukurov peshanasini ishqab.

– Hammani deysizmi? Bilmadim, mana, mening jiyanim, mashhur kolxoz raisi, har yili behisob dori ishlata-di, lekin buning oqibatlari nima bo'ladi, buni o'ylayapti-mi-yo'qmi, bilmayman.

Otaqo'zining ko'zlari qisilib, jag' paylari turtib chiqdi.

– Bu masala... siz o'ylagandan ming chandon chigalroq, tog'a!– dedi u va Shukurovning sinovchan tikilib qolganini ko'rib, beixtiyor ko'zini olib qochdi.

– Men senga murakkab emas, dedimmi? Murakkab bo'l-

gani uchun hamma tashvishda, deyaipman-da! – dedi domla titragan qo'llari bilan dasturxonni tuzatgan bo'lib. – Qani, yuring, men sizga haligi kitobni beray. Mashhur bir biologning kitobi. Yaqinda Moskvada nashr etilgan.

Domla bilan Abror Shukurov sertavozelik bilan bir-biriga yo'l berishib, uyga kirib ketishdi.

Otaqo'zi joyidan jilmadi, choyi sovib qolgan piyolani qo'lida aylantirganicha o'yg'a toldi. U hozir o'zidan ham, tog'asidan ham norozi edi. U yangi raykom kotibining oldida o'zini yosh boladay tutib, og'ziga kuchi yetmagan xotinday, xo'p vaysadi, go'yo xushomad qilayotganday bo'ldi. Yo'q, Otaqo'zi hech qachon, hech kimga xushomad qilgan emas! Bugun unga bir nima bo'ldi. Hadeb qosh qo'yaman deb, ko'z chiqaryapti! Tog'asi bo'lsa... uni har gapida bir kesatib battar yerga uryapti!

Otaqo'zi o'rnidan turib ketib, hovlini bir aylanib chiqdi. Tog'asining kesatib-muqatib gapirishlari yangilik emas. Umuman, tog'a-jiyanlar bir-birini dildan yaxshi ko'rishsa ham bu mehr-oqibatni hech qachon oshkor qilishmas, aksincha, bir-birini sal chaqib turishga odatlanishgan. Lekin hozir negadir, ehtimol, so'nggi paytlarda maqtov va ulug'lashlarga o'rganib qolgani uchundir, tog'asining qochiriq-uchiriqlari Otaqo'ziga malol keldi. Bu ham mayli, eng og'ir gap oldinda turibdi hali! U hali tog'asi bilan ertaga bo'ladigan marosim to'g'risida, Vohid Mirobidov rahbarligida o'tadigan himoya to'g'risida gaplashishi kerak. Ajabo, chol bu voqeadan boxabarmikin, yo'qmikin? Boxabar bo'lsa, nima derkin? Agar chol insofga kelib, ilgarigi qahridan tushgan bo'lsa... unda Otaqo'zi to'ydan gap ochadi, tushmagan bo'lsa... nima qilishini o'zi ham bilmaydi.

Albatta, Haydarjon cholsiz ham yoqlaydi. Hatto bir hisobda choldan yiroq yurgani ham ma'qul, lekin aytmasa, xafa bo'ladi, ayniqsa, shaharda ziyofat berib, tog'asini taklif qilmasa yana bo'lmaydi. To'y haqida, Fazilatxon bilan quda bo'layotgani to'g'risida-ku, aytmassdan sira iloji yo'q.

Shukurov bilan ota til topishib qolishdi shekilli, ulardan hamon darak yo'q edi. Oshxonadan aya chiqdi.

– Ovqat tayyor, suzaveraymi?

– Shoshmaʼng, chiqishsin bular. Keling, birpas damingizni oling...

Kampir ohista yurib kelib, stulga omonatgina oʻtirdi, surma tortilgan muloyim koʻzlari javdirab Otaqoʻziga tikildi.

– Haydarjonni zashchitasiga keldingizmi? – kampir „zashchita“, „dissertatsiya“, „fan kandidati“ degan soʻzlarni Otaqoʻzidan ham yaxshiroq bilardi.

– Zashchita boʻladi, deb kim aytdi? Tohiradan eshitdinizmi?

– Haydarjon oʻzi keldi...

– E, shunaqami? – dedi Otaqoʻzi birdan yengil tortib. – Togʻam nima dedilar?..

Gulsara aya javdirab turgan dardli koʻzlarini yerga tikdi, koʻk shoyi koʻylak ichidagi nimjon koʻksi bir koʻtarilib tushdi.

– Bilmasam... togʻangizni bilasiz-ku, Qoʻzijon!.. – dedi sekin xoʻrsinib.

„Tagʻin oʻsha Mirobidov! Qachon tugarkin bu bemaʼni raqobat? Ikki oʻrtada oʻgʻlim pand yemasa edi!.. Qoyilman bunaqa togʻaga!“

Otaqoʻzi togʻasining feʼl-atvorini yaxshi bilardi. Togʻasi Normurod Shomurodov hech qachon oʻz gapidan qaytmas, oʻzini haq deb bilgan joyda hech kimni ayamas edi.

Haydarjon Mirobidovga shogird boʻlib tushgandayoq togʻasi undan allaqanday „sovib“ ketgan, Haydar ham oʻshandan beri bu xonadonga koʻp kelavermas, u ham Normurod otani koʻp xushlayvermas edi. Bu „sovuqchilik“ Otaqoʻzini koʻp qiyinar, u bir-ikki marta oʻgʻli bilan togʻasini yarashtirmoqchi ham boʻlgan, lekin bu urinishlari zoye ketgan edi. Normurod ota Haydarni yengiltak, deb xushlamasa, Haydar uni zamondan orqada qolgan, qoloq bir olim, deb hisoblar edi. Shunday boʻlsa ham Otaqoʻzi oʻgʻli bilan togʻasi oʻrtasidagi bu gina-kudurat koʻpga choʻzilmas, deb umid qilar, qar qalay, togʻasi bunchalikka bormas, deb oʻylardi.

Otaqoʻzi birdan qaynab-toshdi-yu, sovib qolgan bir piyola choyini bir koʻtarishda boʻshatdi.

931050

– Tog'amga hayronman! Axir nahot o'sha... Mirobidovni deb o'z jiyanining oyog'iga bolta ursa?

Kampirning piyola tutgan qoqsuyak qo'llari titrab ketdi.

– Men ham tog'angizga shuni aytdim. Bilasiz-ku, tog'angizni...

– Bilaman! – Otaqo'zi shaxt bilan o'rnidan turdi. – Hayronman! Bunaqada... bilmadim endi, qarindosh-urug'chilikni yig'ishtirib qo'ya qolamiz shekilli?..

Ayaning doka ro'mol o'ralgan boshi pastroq egildi, u xuddi Otaqo'zidan qo'rqib ketganday stulda g'ujanak bo'lib o'tirardi.

– Nima qilay, Qo'zijon? Tog'angizga aytaverib charchadim, yaxshi kuningizgayam, yomon kuningizgayam yarayotgan shu bitta jigaringiz, dedim. Uniyam ranjitib, qarigan chog'ingizda yakkamoxov bo'p qolmoqchimisiz, dedim... Nima qilay, o'rgilib ketay sizdan? – kampir to'satdan ozg'in yelkalari titrab, piq-piq yig'lab yubordi...

Otaqo'zi shoshib qoldi.

– Xudo haqqi, sizdan gina qilayotganim yo'q, ayajon. Biroq men ham nima qilay axir? Qadr bilmas qarindoshdan qadr bilgan yot yaxshi, degandek, doim dilozorlik qilaverganlaridan keyin... har qanaqa odam ham dod deb yuborar ekan, ayajon! – Otaqo'zi kampirning yoniga o'tirib uning nimjon yelkasini siladi. Ayaning ko'z yoshidan ko'ngli erib, „To'ym aytsammikin, yo'qmi?“ dedi ichida. U, odatda, tog'asiga aytishga qiynaladigan gaplarni ayaga aytar, aya cholni silab-siypab, xiyol „yumshatganidan“ keyin, tog'asiga gap uqtirishga jur'at etardi... Fazilatxon bilan qarshi quda bo'layotganlari to'g'risida Otaqo'zi tog'asi u yoqda tursin, hali ayaga ham og'iz ochishga yuragi betlamagan, lekin bunaqa gaplarni sir tutish amri mahol, chol-kampir o'zlari eshitgan bo'lishlari ham mumkin.

– O'zingizdan qolar gap yo'q, ayajon, – dedi Otaqo'zi eshikka ko'z qirini tashlab. – Men sizdan sir-asrorimni yashirgan emasman...

– Bilaman, aylanay...

– Endi... bu yoshlar qiyin ekan, ayajon. Balog'atga yet-

gandan keyin ota-ona bir yoqda qolib, o'z bilganlarini qilishar ekan...

Kampirning mittigina qo'llari dasturxon silashdan to'xtadi.

– Mayli, aylanay, – dedi u sekin. – Omon bo'lishsin ish-qilib...

– Eshitdingizmi?

– Hozir gap yotadi deysizmi, Qo'zizon?


– Tog'amlar... nima dedilar?

– Tog'angiz... nima ham derdilar? Shunchaki... ko'ngillaridagi eski dard.. – kampirning ma'yus ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. – Biz bir nima deganda... Jabborjonimiz qaytib kelarmidi? Mayli, umrlari uzoq bo'lsin, yoshlar qo'sha qarishsin...

Aya buni shunday bir dard-u hasrat bilan aytdiki, Otaqo'zi to'ydan so'z ochgani uchun o'zidan ham xafa bo'lib ketdi. U mana endi, har bir so'zi, ovozi, g'amgin nigohidan mehr yog'ilib turgan bu mittigina kampirning ko'ngil faryodini eshitganidagina bu to'y-tomosha chol-kampirga qanchalik og'ir botishini his etdi...

– Nima qilay, ayajon, – dedi u beixtiyor ovozi titrab. – Zamon o'zi shunaqa ekan...

Otaqo'zi uydan chiqqan tog'asi bilan Shukurovni ko'rib, bo'g'ziga kelgan gapni ichiga yutdi.



Abror Shukurovning qo'lida bir dasta kitob, u ham, tog'asi ham qandaydir hayajonlangan, bir-biriga boyagidan ham seriltifot, sertakalluf edilar. Ular dasturxon ustida ham quyuq suhbatlashib, bir-biriga gap bermay o'tirishdi. Gap-lari hamon boyagi mavzuda – giyohlar, bog'-rog'lar, buloq va daryolarni pok tutish, meva va poliz ekinlariga dorini suiiste'mol qilmaslik, xullas, tabiatni e'zozlash ustida bo-rardi. Normurod Shomurodov bu sohaga oid yangi kitoblarni nomma-nom aytar, odatdagidan ham battar qizishib, yonib gapirar, Shukurov esa, xuddi mashhur donishmandning so'zini tinglayotgan yosh talabadek, hadeb bosh irg'ardi.

Otaqo'zi bu gaplarni tog'asidan ko'p eshitgan, domla

qishloqqa borgan chog'larida ham bu ishlarni surishtiraverib joniga tegardi. Bir tomoni shundan, bir tomoni xayoli hamon ayaning ko'z yoshlarida bo'lganidan, u suhbatga aralashmay, loqaydgina quloq solib o'tirar, lekin tog'asi u bilan hech qachon bunday samimiy gaplashmagan uchunmi, bu suhbat dilida qandaydir hasad aralash iztirob uyg'otmoqda edi. Shukurovning xatti-harakatlari, Normurod Shomurodovning gaplariga mahliyo bo'lganday ko'zlari chaqnab o'tirishi, tog'asining tabiat zararkunandalariga qarshi dori ishlatmay, „biologik uslub bilan kurashish“ to'g'risidagi falsafa so'qishlarini go'yo jon-dili bilan qo'llayotganday tinimsiz bosh tebratishlari uning g'ashini keltirmoqda edi. Bu odam shu topda masalaning butun murakkabligini tushunadigan mas'ul rahbar emas, go'yo mashhur bir notiqning otashin nutqiga maftun bo'lib qolgan yosh o'spirinni eslatardi.

„Tog'amning mehrini qozonmoqchi! – dedi Otaqo'zi ichida g'ijinib. – Bu yerda tabiatning jonkuyari bo'lib, oliyjanob gaplar gapiradi, umuminsoniy masalalar to'g'risida falsafa so'qadi-yu, erta bir kun do'ppi tor kelganda... bizga o'xshaganlarga: „Qani, doringni sep!“– deb buyruq beradi. Buyruqni u kishi beradilar-u, kaltak bizning boshimizda sinadi!“

Yaxshiyam aya bir lagan qovurdoq ko'tarib chiqdi-yu, gap uzilib qoldi. Ovqatdan keyin Shukurov otadan ruxsat so'rab, xayr-ma'zur qildi. Normurod Shomurodov olimlik salobati va yoshiga nomunosib bir sermulozamatlik bilan uni ko'chagacha kuzatib chiqdi, ikki qo'li ko'ksida, har gapining birida: „Tanishganimizdan bag'oyat xursandman. Kep turing, o'z uyingizdek ko'ring!“– deb qayta-qayta xayrlashdi. Domla doim shunday qilar – sertavoze, sertakalluf kishilarni jini suymaydigan odam, o'zi birovni yoqtirib qolsa, uning oldida yer bo'lib ketardi.

Otaqo'zi tog'asining ketidan hovliga qaytib kirarkan, gapni nimadan boshlashni o'ylab, yuragi uvushib ketdi.

Xayriyat, tog'asi uning ishini yengil qilib, gapni o'zi boshlab berdi. Ular hovliga kirib, stol atrofiga o'tirishlari bilan ota miyig'ida kulimsirab:

– Bu-u, – dedi choʻzib. – Meva-chevani togʻday uyub kepsan, odamlarning ogʻzini moylamoqchimisan?

Otaqoʻzi zoʻrma-zoʻraki kulgan boʻldi.

– Hamma moylab turganda bitta biz moylamasak...

Domla Shomurodov jiyaniga oʻqrayib qaradi.

– Bilib-bilmay, hammaga tuhmat qilaverma!.. Toʻy boʻlmasdan nogʻora chalmoq qabilida ish tutib, kimga kerak bu taraqa-turuq?

– Odamlar farzandining diplomiga toʻy qilyapti-yu, men nega qarab oʻtirar ekanman?

– Hamma deganing kim?

– Endi odamlarni aytyapman-da!..

Normurod ota sekin uf tortib:

– Mayli, – dedi. – Bilganingni qil, qarogʻim.

Normurod Shomurodov, odatda, birovni xushlamasa, darhol „qarogʻim“, „chirogʻim“lab qolardi. Otaqoʻzi togʻasining bu odatiga koʻnikib ketgan boʻlsa ham, bu safar gap oʻgʻli toʻgʻrisida borayotgani uchunmi, otaning „qarogʻim“i unga ayildek botdi.

– Oʻgʻlimning ishini koʻrdingizmi oʻzi? U bechora... Haydarni aytaman, oldingizga kepti-ku?

– Ha, keldi, koʻrib chiqdim ishini... – domla Shomurodov xuddi eski charm bilan qoplanganday gʻadir-budur yaltiroq boshini silab, chuqur xoʻrsindi. – Qoʻy, chirogʻim, meni shu ishga aralashtirma!

Otaqoʻzi yuragining tagidan dafʻatan vulqonday qaynab kelgan gʻazabni zoʻr-bazoʻr toʻxtatib qoldi. Zum oʻtmay bu gʻazab, togʻasiga qarshi dilida joʻsh urgan bu isyon qandaydir alamli bir tuygʻu bilan almashdi-yu, uzoq mum tishlab qoldi. U cholning nega bunday qilayotganini yaxshi bilardi – hammasiga uning eski raqibi professor Mirobidov sababchi. Yo tavba! Tugʻishgan togʻa boʻlsa-yu, eski raqibiga pand berish uchun oʻz jigarini ham ayamasa!.. Insof-u adolat qani? Togʻasining shu odati sabab, oʻgʻli Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi. Bir yilda bir marta yo kelishadi, yo kelishmaydi! Otaqoʻzi boʻlsa... yaxshi boʻlsin, yomon boʻlsin, tugʻishgan togʻam-ku, befarzand, koʻngli nozik odam-ku, deb cholning qiliqlari jonidan oʻtib

ketgan chog'larida ham shaharga kelsa kirmay ketmaydi. Chol-kampir qishloqqa borishsa, boshiga ko'taradi, uyining to'rini shularga bo'shatib beradi. Bu odam bo'lsa... Otaqo'zi bir nima desa nuqul prinsipdan keladi! Ammo... tashakkur! Otaqo'zi bunaqa haqgo'ylikni, hatto o'z jigariga qarshi bo-radigan bunaqa prinsipiiallikni tushunmaydi va tushunish-ni ham istamaydi.

Bu o'ylar Otaqo'zining miyasida quyunday charx urdi-yu:
– Shunaqami?– dedi hansirab. – Bu ishga bosh qo'sh-maysizmi hali?

Domla qandaydir horg'in qo'l siltadi:

– Mayli, meni tinch qo'y, jiyan...

– Bu ham prinsipiiallikka kiradimi?

Normurod Shomurodov yalt etib qaradi. Uning chehra-sidagi boyagi ranjish ifodasi ohista so'nib, kirtaygan ko'zla-ri birdan chaqchayib ketdi, – ha, prinsipiiallikka kiradi!..

– Prinsipiiallik! – dedi Otaqo'zi bo'g'ilib. – Siz uchun... bu soxta prinsip turganda... qarindosh-urug', yor-do'st, hech kim kerak emas sizga!

Domla Shomurodovning tuksiz yaltiroq boshi jigarrang tus oldi, yalpoq yuzida qo'nqayib turgan katta burnining uchi g'azab bilan yuqori ko'tarildi.

– Nega endi men... qarigan chog'imda... sening o'g'-lingni deb, o'z vijdonim... vijdonimga qarshi ish tutar ekanman?

Otaqo'zi qo'llarini stolga tirab, butun gavdasi bilan ol-dinga engashdi:

– Siz... nima deyapsiz o'zi? Sizning vijdongingiz qiyna-ladigan nima ish qildi mening o'g'lim? Yo odamxo'rlikni targ'ib qilyaptimi u o'z dissertatsiyasida?

Domla Shomurodov ko'zini yumib, yana qattiq uf tortdi.

– Mayli, endi... tushunmaganingdan keyin...

– Tushunmas emish! Hamma baloga tushunib turibman men! Hammasini bilib turibman men! Isoning alamini Mu-sodan olib... o'sha eski raqibingiz Vohid Mirobidovni deb qilyapsiz bu ishlarni!..

Otaqo'zining gapi domlaning usiz ham bezillab turgan yarasiga tuz sepganday bo'ldi-yu:

– Nodon! – dedi qandaydir alamli tovushda. – Nodon...

– Mayli! Sizga qolsa hamma nodon, yolgʻiz siz dono bu dunyoda! Lekin... – Otaqoʻzi stullarni sharaq-shuruq surib, oʻrnidan turdi, turarkan, oshxonadan chiqqan ayani koʻrdi. Ularning dahanaki jangini eshitgan aya eshikda rangi oʻchib, boshini sarak-sarak qilib turardi. – Lekin! – dedi Otaqoʻzi ovozi doʻrillab, – bunaqa boʻlsa... bir-birimizni qadrlash oʻrniga oyoqdan oladigan boʻlsak, unda togʻa-jianlikni ham yigʻishtirib qoʻya qolaylik!

Normurod Shomurodov birdan titroq bosib stolga musht urdi.

– Kim oyogʻidan olyapti oʻgʻlingni, ahmoq?

– Qulluq! – dedi Otaqoʻzi, otaning gapiga quloq solmay. – Bunaqa ekan, bordi-keldini ham yigʻishtirib qoʻya qolaylik! Oʻlik-tirikda, toʻy-u azamizdayam qoramizni koʻrsatmay qoʻya qolaylik!

Otaqoʻzi shunday dedi-da, olma shoxiga osib qoʻygan kastumini yulib olib, darvoza tomon yoʻnaldi. U darvozaga yaqinlashib qolganda orqadan ayaning:

– Qoʻzijon! Ayang oʻrgilsin, Qoʻzijon! – degan nidosini eshitdi, ammo toʻxtamadi, hatto qayrilib ham qaramadi, yon eshikni bir tepib ochdi-da, shitob bilan yurib koʻchaga chiqib ketdi.

Ikkinchi bob



Eshik taraqlab yopilishi bilan Normurod ota yalt etib kampirga qaradi. Gulsara aya zinaga oʻtirib qolgan, uning surma qoʻyilgan koʻzlari bedavo kasalga chalingan odamlarning koʻzlarida boʻladigan alamli bir iztirob bilan moʻl-tirab turar, oʻziyam allaqanday bukchayib, bir hovuchgina boʻlib qolgandi.

Normurod Shomurodov koʻzini uning ayanchli nigohidan olib qochdi, ogʻir qoʻzgʻalib, oʻrnidan turdi, turarkan, ayaning:

– Tag'in nima qilib qo'ydingiz, domlajon? – degan zorli xitobini eshitib, ulkan boshini osiltirganicha bir zum to'xtab qoldi.

– Holimizdan xabar olib turgan bitta-yu bitta odam... umridan baraka topkur shu Qo'zjon edi. Endi undan ham ayrilib, bu savil hovlida... boyo'g'lidek yolg'iz qolmoqchimisiz, domlajon?..

Normurod ota urishqoq qo'chqorday o'jar boshini egib, hamon xo'mrayib turar, u ayaga qarashdan, uning dardli nigohi bilan to'qnashishdan qo'rqardi.

– Mayli, azizim! – dedi u nihoyat. – Aqling yetmagan ishga aralashma! Iltimos...

– Haliyam aqlim yetadi, deyapganim yo'q. Shunchaki... Siz hamma narsaga aqlingiz yetganda nima bo'ldingiz? Prinsipal bo'laman deb... – aya o'pkasi to'lib, „qult“ etib yutindi. – Prinsipal bo'laman deb, hammadan ayrilib, bir uyda bir o'zimiz so'ppayib qoldik-ku, domlajon?

– Bo'ldi! Bas! – Normurod Shomurodov gurzidek mush-ti bilan stolni gursullatib urdi. Keng yuziga qon tepib, ko'zlari vahimali chaqchayib ketdi: kampir uning eng nozik tuyg'ulariga nish urgandi. – Gapirma degandim senga bu gaplarni! Padariga la'nat unaqa... to'g'ri gapga teskari bo'ladigan tug'ishganlarni! Qozilashgan qarindosh bo'lmas, deb... kerak emas menga unaqa o'z jig'ildonini deb qozilashib yuradigan... nopoklar! Tushundingmi, yo'qmi?

Kampirdan sado chiqmadi. U bir narsadan qo'rqib ketgan boladay, iyagini tizzasiga qo'yib, zinada bir siqimgina bo'lib o'tirardi.

Domla Shomurodov hansirab nafas oldi-da, yerni o'pirib yuborgudek gurs-gurs bosib, ayvonga chiqdi, eshikni yulqib ochdi, lekin shu payt orqadan yana o'sha yurakni timdalovchi zorli nido keldi:

– Hamma nopok, hamma egri, yolgiz siz to'g'ri! Bunaqada hali... o'lsak o'ligimizni ko'madigan bir odam topilmas!..

Dahlizga kirgan domla yana shitob bilan o'girilib qaradi, ko'zlari yana boyagiday ola-kula bo'lib:

– Qo'rqma! – dedi. – Sen o'lsang men o'zim ko'maman!

Men o'lsam, mayli! O'sha... xudbin qarindosh-urug'larim-siz o'ligim ko'chada qolsa... qola qolsin!

Domla eshikni qarsillatib yopdi-da, boshi aylanganday bo'lib, devorga suyandi. Uning ko'z oldida zinada yig'lab o'tirgan uvoqqina aya turar, u hozir juda katta shafqatsizlik qilganini tushunar, bir ko'ngli chiqib kechirim so'ragisi, kampirning ozg'in yelkalarini silab ovutgisi kelar, lekin bunga nimadir monelik qilardi...

Normurod Shomurodov eshikni sekin ochib kutubxonaga kirdi, go'yo birov ko'rib qolishidan qo'rqqanday, oyoq uchida yurib, derazaga yaqinlashdi.

Gulsara aya hamon zinada g'ujanak bo'lib o'tirar, boshidagi ohori to'kilmagan oppoq doka ro'moli bir tomonga og'ib, kulrang siyrak sochlarining farqi ochilib qolgan, nimjon, qoq suyak yelkalari hamon ohista titrar, aftidan, hamon o'pkasini bosolmay yig'lar edi...

Domla a'zoyi badani bo'shashib o'zini kresloga tashladi... U bilardi – kampirning dardi hech qachon oshkora aytilmaydigan, biroq qalbida so'nmas bir dard bo'lib qolgan yolg'iz o'g'illari Jabborga borib taqalardi. Agar Jabbor hayot bo'lganda, agar u urushda o'lib ketmaganda, kampir hozir shu ahvolda o'tirarmidi, uning o'zi, kimsan Normurod Shomurodovning o'zi ham bu ko'yga tusharmidi?.. Har safar ko'ngli bir narsadan ozor cheksa darrov xayoliga keladigan bu fikr zaharli tikan bo'lib ko'ksiga yana sanchildi-yu, lablarida nordon tomchi his etib, shosha-pisha cho'ntagidan ro'molcha oldi.

Ha, chol-kampir qarib qolishdi chog'i, bu o'y, „o'g'limiz hayot bo'lganda shu ahvolga tusharmidik, o'rdaday bu hovlida mung'ayib o'tirarmidik“, degan bu armonli o'y so'nggi yillarda tez-tez eslariga tushadigan, har tushganda yuraklarini tilka-pora qilib ketadigan bo'ldi... Kim bilsin, Jabbor hayot bo'lganda, balki bugun jiyani Otaqo'zi ham bunchalikka bormasmidi! Jabbor hayot bo'lganda...

U, bugun ham tirik bo'lishi mumkin edi. Judayam mumkin edi! Axir Jabbor eng birinchilardan bo'lmasa ham, har qalay, o'zbeklardan chiqqan ilk qahramonlardan edi, ta'tilga kelgandi! O'shanda, Jabbor qahramon bo'lib, ta'tilga kelganda, uni kutib olgani Toshkent vokzaliga

nafaqat oddiy kishilar, balki hukumat rahbarlarigacha to'planishgan, behisob o'quvchilar guldastalar ko'tarib chiqishgan edi.

Jabbor, yelkasida zarrin pogonlar, ko'ksida Oltin Yulduz, sochlari to'zg'igan, qoramtir mardonavor yuzida tortinchoq tabassum, vagondan tushib kelganda, birdan orkestr yangrab, „ura“ sadolari osmon-u falakni titratgan edi!..

Tantananing zo'ridan Jabbor guldasta tutgan qizlar, guvullagan olomon qurshovida qolib ketib, chol-kampir uni yarim soatlardan keyingina arang quchishga muyassar bo'lishgandi.

Qahramon farzandini cheksiz quvonch bilan kutib olgan poytaxt bu olqishlarni yana davom ettirmoqchi edi, biroq Jabbor bu shodiyonalar, maktablar, o'quvchilar saroylaridagi uchrashuvlar, zavodlardagi mitinglar – hammasini orqaga surib, ertasigayoq qishloqqa, urush arafasida topishgan qizi... Fazilatxonni ko'rgani jo'nab ketdi. Ikki kundan keyin esa... Toshkentga mudhish xabar yetib keldi: „Jabbor sevgilisini yo'ldan urgan Jamol Bo'riboyev degan odamni to'pponcha bilan otibdi! Baxtiga otgan o'qi tegmay qolib, Jamol Bo'riboyev o'zini derazadan tashlab qochibdi! Shundan keyin Jabbor hatto Toshkentga qaytishga ham toqati bo'lmay, qishloqdan to'g'ri frontga jo'nab ketibdi!“ O'g'illarining diydoriga to'ymagan ota-ona esa uni xuddi tushlarida ko'rganday bo'lib, dod deganlaricha qolaverishdi...

Normurod Shomurodov o'g'lining ko'nglini rom qilgan bu qizni yaxshi bilmasa ham uning onasi Oynisani yaxshi tanirdi. Husnda tengsiz bu juvon bir mahallar Qudratxo'ja degan do'kondor boyning kenja xotini bo'lgan, eri quloq qilingandan keyin kambag'alning qizi deb, domla uni faollar qatoriga tortgan edi. Biroq Oynisa to'g'ri yo'ldan yurmasdan, egri ko'chalarga kirib, oxiri og'ir fojiaga uchragan edi. Buni yaxshi bilgan Normurod Shomurodov o'g'lining tilagiga uncha ro'yixushlik bermagan edi. Lekin yoshlar keksalar tajribasini hisobga olishmas ekan. Jabbor otasining gapiga kirmadi, kirmadi-yu, o'z joniga jabr qildi... Rost, qizni yo'ldan urgan Jamol Bo'riboyev ham jazosiz qolmadi. Ammo hayot shafqatsiz ekan!.. Jabbor, haqiqat uchun, Vatan uchun

jonini ayamaydigan otashqalb Jabbor sal o'tmasdan jangda mardona halok bo'ldi, urushda qon kechib yurgan bir azamatning qallig'ini yo'ldan urgan bu nobakor esa urushdan keyin ko'ksi orden-medallarga to'lib, eson-omon qaytib keldi!..

Yo'q, domla Shomurodov hech kimga o'lim tilamaydi. Kim bilsin, balki u chindan ham o'z qilmishidan pushaymon bo'lgandir, balki urushda chindan ham katta jasorat ko'rsatib, o'z gunohlarini yuvgandir, turmushda nimalar bo'lmaydi? Lekin hayotning yana bir o'yinini qarangki, bundan besh-olti yil muqaddam, o'g'li Jabborning umriga zomin bo'lgan bu odam kelib-kelib domla ishlaydigan sohaga vazir muovini bo'lib keldi.

U mahalda ota institutda cho'llarni o'zlashtirish muammolariga bog'liq eng yirik bo'limlardan birini boshqarar edi. Ish va turmush sabab, ular bir necha marta qattiq to'qnashishdi. Normurod Shomurodov bu oppoq, xushsurat odamdan qattiq ranjib, darg'azab bo'lgan paytlari, hatto ba'zi prinsipial masalalarda eng yuqori idoralargacha chiqqan mavridlari ham bo'ldi. Yaxshiyam, sal o'tmay Jamol Bo'riboyev bir nimadan pand yeb, boshqa sohaga o'tib ketdi, aks holda, Normurod Shomurodov o'zi institutni tark etish fikriga ham borgan edi. Bu tentak jiyani bo'lsa: „O'tgan ishga salavot, hamma bilan murosai madora qilib ketavering!“ demoqchi bo'ladi. Ammo u... yo'q, Normurod Shomurodov bunday qilolmaydi! Jamol Bo'riboyev bilan uning fan sohasidagi ayni nusxasi bo'lmish Vohid Mirobidovlar bilan hech qachon murosai qilgan emas va qilmaydi ham! Jiyanining gapi to'g'ri bo'lsa to'g'ridir, biroq u Vohid Mirobidovni o'ylaganida, og'zi to'la tilla tishlarini doim yarqiratib, doim kulib turadigan bu xushchahchah, xushsurat, baxtiyor odamni o'ylaganida, urushdan oldin gazeta-da bosilib chiqqan bir maqola, to'g'rirog'i, bu maholaning yirik harflar bilan terilgan sarlavhasi lop etib ko'z oldiga keladi. Respublika gazetasida e'lon qilingan bu maqola „Dushmanlikmi yoxud nodonlik?“ deb atalardi.

Mana, bu voqeaga o'ttiz yildan oshib ketdi. Ammo Normurod Shomurodov bir zum ko'zini yumsa nigohi oldida

cho'g'day yongan o'sha harflar, o'sha mash'um sarlavha paydo bo'ladi!

Maqolada gap Mirzacho'l haqida borar, to'g'rirog'i, Mirzacho'lni o'zlashtirish kerakmi, yo'qmi, degan fikr ilgari surilib, unga qat'iyon rad javobi berilardi. Mirzacho'lni o'zlashtirish mumkin, deb hisoblagan Yer Ishlari Xalq Komissarligining suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i Normurod Shomurodov esa ilmiy nodonlik va hatto dushmanlikda ayblanardi. Eng dahshatlisi – maqolaning tagida... shu boshqarmaning bosh injeneri, Davlat suv xo'jaligi institutining sirtidan o'qiydigan aspiranti... Vohid Mirobidovning imzosi turardi!

Hamon yodida. Urushdan avvalgi murakkab yillar. O'sha kuni ishga borganida Normurod hali maqolani o'qimagan, hech narsadan xabari yo'q edi. Kechasi bilan Xalq Komissariga doklad tayyorlagan Normurod ishga sal kechikib bordi, bordi-yu, g'alati bir ahvolga tushib qoldi: idorada unga duch kelgan va, odatda, quyuq salomlashadigan odamlar uni ko'rishlari bilan xuddi Azroilni ko'rgandek o'zlarini to'g'ri kelgan eshikka urishar, ba'zilar sovuq bosh egib qo'ya qolishar, ba'zilar g'alati ishshayib qo'yishardi. Normurodga qarashli boshqarma xodimlari esa... uni vahimlari bir sukut bilan kutib olishdi.

Normurod Shomurodov allaqanday shubhadan yuragi zirqirab, o'z kabinetiga kirdi. Derazalariga og'ir darpardalar tutilgan katta kabinetning to'ridagi ko'k movut yopilgan stol ustida... ichki sahifalari ochiq bir gazeta yotardi. Normurod qo'lidagi papkasini stolga tashlab joyiga o'tirarkan, gazetaning qariyb bir betini egallagan o'sha maqolaga, to'g'rirog'i, uning mudhish sarlavhasiga ko'zi tushdi: „Dushmanlikmi yoxud nodonlik?“ Ko'zi tushdi-yu, beixtiyor yuragi „shig“ etdi.

U, salkam bir bet maqolaning mazmunini bir zumda, bir qarashdayoq ilg'ab oldi. Ha, albatta, asrlar davomida qaqrab yotgan bu sho'rxok dashtga suv chiqarib, uni o'zlashtirish haqida aytilayotgan gaplar, yozilayotgan kitoblar – gap uning, Normurod Shomurodovning kitobi haqida borardi – iqtisodiy jihatdan tamoman asoslanmagan bir safsatadir! Bu fikrni yo iqtisod fanidan tamom bexabar bir

nodon, yoxud... mamlakatimiz iqtisodiyotiga zarba berish niyatidagi sinfiy dushmanlarga ilgari surishi mumkin! Isbot? Mirzacho'lni o'zlashtirib bo'lmaslik masalasi bu isbot talab qilmaydigan bir haqiqatdir! Sho'r bosgan bu giyohsiz cho'l-u biyobon asrlar davomida inson tomonidan chetlab kelinishining o'zi, Mirzacho'lni o'zlashtirib bo'lmaslikni ta'kidlovchi eng katta hayotiy dalildir! Boshqarma boshlig'i Normurod Shomurodovning bu masalada Mirzacho'lga suv chiqarishga uringan chor mustamlakachi yer egalariining tajribasiga suyanmoqchi bo'lgani esa... uning fikri nopok ekanini ko'rsatuvchi yana bir yorqin misoldir, xolos.

Normurod bu gaplarni hammadan kutsa ham, o'zidan ancha yosh, kulganda og'zi to'la tilla tishlari yarqirab ketadigan... yo'q, u mahalda Vohid Mirobidovning og'zida tilla tishlari yo'q edi! U mahalda tilla tish tugul tilla soat taqishning o'zi katta gunoh hisoblanardi!

O'sha kundan boshlab, gazetada Vohid Mirobidovning maholasi e'lon qilingan kundan boshlab Normurod Shomurodovning hayoti alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Maqolaga bag'ishlangan uzluksiz majlis va muhokamalar axiri uning ishdan chetlatilishi bilan tugadi. Normurod boshda o'z fikrini, Mirzacho'lga suv chiqarib uni o'zlashtirish mumkin, degan fikrini yoqlashga urinib ko'rdi, lekin sal o'tmasdanoq bu urinishlar befoyda ekanini tushundi!

Bir oy o'tdi. Ishdan haydalgan Normurod ayani qishloqqa jo'natib uyda, partiya safida qolish-qolmaslik masalasining hal bo'lishini kutib yotardi. Bir kun kechasi to'satdan telefon jiringlab qoldi. Bir oy jim turgan telefonning bexosdan jiringlashi dahshatli bo'larkan.

Kitob mutolaa qilib o'tirgan Normurod bir sapchib tushdi-yu, qo'rqa-pisa telefonga qo'l cho'zdi.

– Bu kim? Normurod, senmisan? Bu men, Mahmudjon-man!

Mahmudjon – Normurodning eski qadrdoni edi. U Moskvada, professura institutida o'qirdi.

– Qachon kelding?

– Shu bugun, hozir! – dedi Mahmudjon. U nimagadir

hayajonlanar, go'shakdan hansirab nafas olayotgani eshilib turardi. – Hozir poyezddan tushdim. Vokzaldan gapiryapman. Men hammasini eshitdim. Sen to'g'ringdagi maqolani Moskvadayoq o'qidim. Lekin sen qo'rqma! Eshityapsanmi, qo'rqma. Haqiqat sen tomonda...

– Bilaman, – dedi Normurod. – Haqiqat men tomonda. Biroq...

– To'xta! Men umuman sen haqsan, deyapganim yo'q. Hukumatning Qarori bor! Bu hujjatdan xabaring bormi?

– Qanaqa hujjat?

– Hukumat Mirzacho'lni o'zlashtirish to'g'risida Qaror qabul qilgan ekan. O'n sakkizinchi yili... Eng og'ir yillarda bu ish uchun ellik ming so'm tilla pul ajratgan ekan!

Normurod betoqat bo'lib:

– Bu hujjatni topsa bo'ladimi?– deb so'radi.

– Gap shunda-da! Bu hujjat yaqinda topildi. Men bir nusxasini ko'chirtirib opkeldim! Eshityapsanmi? Bu ahmoqona maqolani o'qigandan keyin bir nusxasini ko'chirtirib opkeldim. Eshityapsanmi, do'stim?

Normurod javob berishga chamasi kelmay, go'shakni changallaganicha devorga suyanib qoldi.

– Normurod! Nega indamaysan, Normurod?

– Ablah! – dedi Normurod sekin. – Shunday hujjat qo'lingda bo'lsa-yu, vokzalda safsata sotib o'tirsang! Opkelmaysanmi, nodon!

Ertasiga Normurod kechasi yuz marta o'qib, ko'zlariga surtib chiqqan bu hujjatni avval Xalq Komissarining, keyin, byuro bo'lishidan yarim soat oldin, raykom kotibining oldiga qo'ydi. Bu hujjat uni dahshatli choh yoqasidan qaytardi!..

Otaqo'zi bo'lsa: „O'tgan ishga salavot deb, hamma bilan muros qilib ketavering“, demoqchi bo'ladi!

Yo'q, Normurod Shomurodov haliyam bo'lsa Vohid Mir-obidov bilan da'volashmoqchi emas! Da'volashaman desa ham da'volasholmaydi. Chunki, ajabo, bir mahallar Mirzacho'lni o'zlashtirib bo'lmaydi, deb na'ra tortib chiqqan bu odam keyinchalik Mirzacho'lni o'zlashtirishning ahamiyati to'g'risida o'nlab maqolalar yozdi, sho'r yerlarni yu-

vish muammolariga bag'ishlangan kandidatlik va doktorlik dissertatsiyalarini yoqladi. Mayli, yoqlasin! Normurod Shomurodov bunga g'ashi kelayotgani yo'q. U, hatto o'sha xoinligini, razil maqola yozib, ishdan haydattirganlarini ham Vohid Mirobidovning yuziga solgan emas. Faqat bir marta, urushdan keyin, elliginchi yillarning o'rtalarida hayotda ro'y bergan katta o'zgarishlardan keyin, o'shanda-yam bu odam Mirzacho'lni o'zlashtirish ishining eng sodiq targ'ibotchisiga aylanib, otashin nutqlari bilan nishonga tekkan paytlarida, bir safar chidab turolmadi, ilmiy kengash majlisida qizishib ketib, o'sha mash'um maqolasini eslatdi. Lekin Mirobidov shundayam sirtiga suv yuqtirmadi. O'sha davrning murakkabligini, vaziyatning og'irligini, bu maqolani yozish to'g'risida qayerdandir, kimdandir topshiriq olganini aytib, obidiyda qilib, qutulib ketdi. Hatto uning ko'z yoshini ko'rib, achinganlar ham bo'ldi... Mayli! Normurod Shomurodov qo'yniga tosh solib, o'ch olish payida yuradiganlardan emas. Faqat bir narsaga loqayd qarab turolmaydi: bu odam, doim og'zida oftob charaqlab, doim kulib turadigan bu fan doktori ilmni o'z manfaati yo'lidagi bir vosita deb biladi! O'z maqsadi oldida har qanaqa haqiqatni shu bugun, shu soniya qurbon qilishga tayyor bu odam!

Jiyanlari Otaqo'zi bilan Haydarjon bo'lsa... Nafsilamrini aytganda, Haydar yomon yigit emas. Boshda, o'qishga kelgan paytlarida kamtargina bir o'spirin edi. Lekin bora-bora, avval otasidan, keyin ilmiy rahbari Vohid Mirobidovdan yuqdi shekilli, gap-so'zlari ustozining gap-so'zlariga, qiliqlari qiliqlariga o'xshaydigan bo'ldi. Hovliqma rahbarining maslahati bilan hali kam o'rgatilgan, kam tekshirilgan, nihoyatda nozik bir mavzuni tanladi, bir-ikki yil ichida yumaloq-yostiq qilib, pala-partish bir narsa yozdi-yu, mana endi shu ishini himoya qilmoqchi bo'lyapti!


Haqiqatan, Haydar tanlagan mavzu – sho'r yerlarni yuv-ganda zovurlarga yig'iladigan oqova suvni qayta ishlatish muammosi – nihoyatda qaltis muammo. Bu suv yerning sho'rini oshirib yuborishiga shubha yo'q. Dissertatsiyadagi tajribalar diagrammasi va bu diagrammalarda keltiril-

gan raqamlar esa qandaydir noaniq, mavhum. Normurod Shomurodov bu diagrammalarga ko'z yugurtirib chiqdi-yu, dissertatsiyani o'qishga yuragi dov bermadi. Chunki o'qib chiqib, uning xulosalaridan shubhaga tushsa, buni aytmasdan iloji yo'q. Aytadigan bo'lsa, o'z jigariga jabr qiladi!..

Otaqo'zi bo'lsa... o'g'limning ishini o'qimading, o'qimasdan turib, chippakka chiqaryapsan, ilmiy rahbariga adovat qilaman, deb o'g'limning oyog'idan olyapsan, deb ta'na qilyapti! Yo... jiyani haqmikin? Balki chindan ham adovat tuyg'usi uni adolatsizlikka undayotgandir? Bir mahallar Vohid Mirobidov qilgan yomonlik, qalbida hamon g'ubor bo'lib turgan o'sha mash'um maqola bamisoli bir qora parda yanglig' uning ko'zini to'sib turgandir?

Normurod Shomurodov bir Otaqo'zidan ranjisa, bir o'zidan ranjib, xayolan o'zi bilan o'zi bahslashib, uzoq o'tirdi, keyin bu o'ylardan miyasi g'ovlab, o'rnidan turdi-da, bir-bir bosib, derazaga yaqinlashdi. Kampir ishkombi tagida das-turxon yig'ishtirmoqda edi. Lekin uning stol atrofida kuy-malanib yurishida, horg'in harakatlarida, butun vujudida shunday bir g'am, shunday unsiz bir dard bor ediki, domlanning esiga yana o'g'li to'g'risidagi boyagi alamli o'y tushib, a'zoyi badani zirqirab ketdi...

Uchinchi bob



Abror Shukurovich domla Shomurodovning uyidan g'alati bir holatda chiqdi. Domla Mirzacho'lni o'zlashtirishga qarshi maqolalar yozgan baddokhlar to'g'risida gapirganda u gap qaynatasi to'g'risida ketayotganini payqab qolgandi. Buni allaqanday ichki bir tuyg'u bilan ilg'ab oldi-yu, ko'ngli g'ash bo'ldi. U, domlanning gapiga o'xshash bir gapni ilgari-lari ham kimdandir eshitgan edi. Ha, agar yanglishmasa, qaynatasi Vohid Mirobidov o'zi bir safar Normurod Shomurodovdan qattiq noligan, bir mahallar oramizdan o'tgan mayda-chuyda gaplar uchun bu odam meni hamon ko'rol-

maydi, hamon ta'qib etadi, degan ma'noda hasrat qilgan edi. Biroq unda Shukurov masalaning bu qadar qaltisligini tasavvur ham etmagan edi!

Qaynatasi Vohid Mirobidov Mirzacho'lni o'zlashtirish muammolariga bag'ishlangan yostiqday-yostiqday kitoblar, o'nlab risolalar yozgan, u hozir Mirzacho'l desa, og'zidan bol tomardi. Shukurov murakkab raqamlarga to'la bu qalin kitoblarni sinchiklab o'qimagan bo'lsa ham ularni kitob javonining eng ko'zga tashlanadigan joyida asrar, umuman, qaynatasini juda hurmat qilar, bu shirinsuxan, quvnoq, xushfe'l olimga kuyov bo'lganidan ichida faxrlanib yurardi. Shu boisdanmi, domlaning gapi daf'atan unga qattiq botdi. Xayolidan: „Qachon tugarkin bu raqobat, bu bema'ni adovat?“ – degan fikr o'tdi. Lekin... qaynatasining hasratlari sabab, u domla Shomurodovni sal boshqacharoq tasavvur etgandi. Yozgan kitobi ma'qul tushgan bo'lsa ham uning o'zini o'ta zahil, mayda, kekchi bir odam, deb o'ylagandi. Domla esa...

„Yo'q! Men unaqa fisq-u fujur gaplarni yig'ib yuradigan odatim yo'q!“

Shukurovni hayratga solgan narsa ham Normurod Shomurodovning mana shu mardona va mag'rur xitobi bo'ldi!

Aya ham uning nigohi oldidan ketmay qoldi. Mungli ko'zlari mehrga to'la bu nozik kampir Shukurovga mardona buvisini eslatdi. Urushning uchinchi yili dadasidan qoraxat kelib, onasi boshqa er qilib ketganidan keyin to'qqiz-o'n yashar Abrorjon buvisining qo'lida qolgan, to kampir olamdan o'tib, bolalar uyiga tushmagunicha uning tarbiyasida bo'lgandi. Bugun, domla Shomurodovning uyidan chiqqandan keyin, o'sha bolalik yillari, sababi tirikchilik, yozda buvisi bilan dashtda mashoq terib, qishda go'yo dadasi tuyqusdan kirib keladiganday, tiq etgan tovushga quloq solib o'tkazgan uzun tunlar, mushtipar buvisining xuddi ayanikiga o'xshagan serajin yuzi, mo'ltiragan ko'zlari, ertaklari, hatto jahli chiqqandagi qarg'ishlarigacha yodiga tushib, juda g'alati bo'lib ketdi. Faqat idorama-idora yurib, ishga sho'ng'ib ketgandagina bu o'ylar sal yodidan ko'tarilib, xayoli boshqa narsalarga alahsidi.

Shukurovning Toshkentga tushishdan bir maqsadi – anchadan beri ota-onasining uyida mehmon bo‘lib turgan xotin, bola-chaqasini olib ketish, qolaversa, ba’zi tashkilotlarga uchrab, bir-ikkita dolzarb masalalarni hal qilish edi. Bu masalalar orasida eng muhimi – rayon uchun biroz o‘g‘it va qurilish materiallari undirish edi. Bu ishlar uning vazifasiga kirmaydi, albatta. Lekin avvalgi hovliqma kotib rayon imkoniyatlarini hisobga olmay, va’dani katta bergan ekan, endi Shukurov qaysi rais bilan gaplashmasin, hammasi xuddi och qolgan palaponlarday „o‘g‘it, o‘g‘it“, deb og‘izlarini katta ochishadi. Obodonchilikdan gapirsa ham shu – nuqul „yog‘och-yog‘och“, deb chirqillashadi.

Shukurov birinchi galda „Uzselxoztexnika“ rahbarlarining oldiga kirmoqchi edi, lekin u yerga borsa go‘yo Jamol Bo‘riboyevga duch keladiganday, go‘yo bu turqi sovuq odamga (Otaqo‘zining hangomasi unda xuddi shunday taassurot qoldirgandi!) yalinib-yolvorishga to‘g‘ri keladiganday tuyuldi-yu, ishni Gosplandan boshlashga ahd qildi.

Shukurov Toshkentda bir ish bitirish, ayniqsa, katta tashkilot rahbarlarining qabuliga kirish oson emasligini yaxshi bilardi. Biroq birda „cho‘l“ va „cho‘lquvar“ so‘zlarini pisanda qilib (Shukurov borgan rayonning bir che-ti, azim sahroga taqalar, u yerda yangi sovxozlar tashkil bo‘lib, katta ishlar qilinmoqda edi), birda beruxsat „bostirib kirib“, ishni xiyla jadallashtirdi. Ayniqsa „cho‘lquvar“ so‘zi qo‘l keldi. Shu so‘z bahona Gosplanda ham Qishloq qurilishi va Suv xo‘jaligi vazirligida ham uni navbatsiz qabul qilishdi, iltimoslarini bir joyda inobatga olishib, bir joyda inobatga olishmasa ham, har qalay, yaxshi muomala qilishdi.

Shukurov qishloq qurilishi vazirligidan chiqqanda soat ikkiga yaqinlashib qolgan, „Selxoztexnika“ga borishdan foyda yo‘q, ovqat vaqti boshlangan edi. Bir lahza o‘ylanib turgach, u qaynatasinikiga ketdi.

Shukurov borgan qaynatasining tepasi boloxonali havorang darvozasi oldida yangi oq „Volga“ turardi. „Otaqo‘zi akayam keptilar-da!“ dedi Shukurov ichida, dedi-yu, ish bilan bo‘lib, xayolidan ko‘tarilgan noxush o‘y-

lar qayta yopirilib keldi. U ko'ngli g'ash bo'lib mashinadan tusharkan, darvozaning yon eshigi ochilib, qaynatasi Vohid Mirobidov chiqdi.

Odatdagiday bashang kiyingan, oyog'idagi tuflilari ko'zguday yaltillab turgan, boshidagi siyrak sochlari silliq taralgan Vohid Mirobidov, quloch yozib kuyovining istiqboliga yurdi.

– E-e, o'g'lim Abrorjon! Shahrimizga tashrif buyurganlarini eshitib, ertalabdan beri intizor bo'lib kutamiz! Qayoqlarda yuribsiz, azizim?

Vohid Mirobidov kuyovi bilan ko'rishib bo'lar-bo'lmas darvozaga qarab chopdi.

– Mahbub! Bibim! Qaydasanlar? Mehmoni tabarruk keldilar! Karnay-surnaylar chalinsin! Qo'ylar so'yilsin!..

Tabiatan dilkash odam – Vohid Mirobidov kuyovini doim mana shunday shod-xurram qarshi olar, uning bu qiliqlari Shukurovga ham juda yoqar edi, ammo bugun qaynatasining qiliqlari negadir bachkanaroq tuyulib, sal ensasi qotdi.

Eshikda elliklardan oshganiga qaramay pardoz-andozni joyiga qo'ygan, oq-sariqdan kelgan, yum-yumaloq Nazokatbibi ko'rindi. U pildirab kelib, kuyovining yelkasiga qoqdi.

– Muncha kuttirmasangiz, kuyovto'ra? Sog'inib somon bo'p ketdik-ku, girgitton?..

– Mahbub qani, bibim? Mahbub! – qichqirdi Vohid Mirobidov.

Nazokatbibi bitta-bitta terilgan qoshlarini noz bilan chimirdi.

– Mahbub araz kuyovingizdan! Bir haftadan beri intiq-intizor kutsa-yu...

– Tanqid to'xtatilsin, bibim! Kuyovni payg'ambar siylagan, deyдилar!..

Vohid Mirobidov, og'zida quyosh charaqlab, darvozaning bir tavaqasini ochdi.

– Mahbub! Qaydasan, qizim?

Shukurov qaynana-qaynatasi ko'targan xushnud shovqin-suron ostida kulimsirab hovliga kirdi.

Kamida olti sotix keladigan katta hovlining o'rtasida favvorali hovuz, hovuzning o'ng tomonida poydevori odam

bo'yi ko'tarilgan muhtasham uy, chap tomonida havorang bo'yoqqa bo'yalgan ulkan yozgi shiyp on qad ko'targan, hovuz tevaragidagi atirgullar barq urib ochilgan, shiyp on oldidagi tok yaproqlari bitta-bitta qaychilangan, hamma yoq saranjom-sarishta edi.

Shukurov hovliga kirishi bilan o'ng tomondagi uyning eshigi ochilib, Mahbuba ko'rindi.

Nazokatbibining qoshlariday ingichka qoshlari biri past, biri yuqori ko'tarilgan, chetlariga nafis ko'kimtir bo'yoq surtilgan, ko'zlari yoqimtoy ginaxonlik bilan suzilgan Mahbuba, xuddi Toshkentda emas, kurortda dam olganday ochilib ketgan edi.

– Mahbub! Qizim! Qani, shiyp onga joy qilinglar!.. Siz ham choyga qarang, bibim! – Vohid Mirobidov, go'yo oshiq-ma'shuqlar visoliga xalaqit bergisi kelmagan odamday, Nazokatbibini qo'ltiq lab, shiyp on yonidagi yozgi oshxona tomon burildi.

Shukurov o'zini qandaydir noqulay sezib, xotiniga yaqinlashdi.

– Salom, xonim!

– Kechirasiz, men siz bilan ko'rishmayman!– Mahbuba tirnoqlariga xina qo'yilgan oppoq qo'llarini orqasiga yashirdi...

– Bir qoshiq qonimdan keching endi! – kuldi Shukurov.

– Yo'q, kechib bo'pman!

– Nega endi?

– Chunki... bir hafta bo'ldi, aqalli bir martayam xabar olmadingiz, xotinim qayoqlarda yuribdiyam demadingiz!..

– Demagan bo'lsam... mana endi opketgani keldim! Tayyormisiz?

– Eshikdan kirmasdan turib, ketishni o'ylaysiz-a? Hech qayoqqa ketmayman bugun! O'tirishimiz bor bizning!

– Qanaqa o'tirish? – Shukurov endigina Mahbubaning juda o'zgacha kiyinib olganini, nafis oq matodan nozik did bilan tikilgan yangi ko'ylak, yangi oq tufli uning chiroyiga chiroy qo'shib yuborganini payqadi, payqadi-yu, yuragida rashkka o'xshagan yomon bir narsa g'imirladi. U doim shunday bo'lar, Mahbuba Toshkentga, ota-onasining oldiga tushib ketgan paytlarida hamisha rashki qo'zirdi.

– Hozir birga o'qigan dugonalarim kelishadi. Dilbar o'tirish bo'ladi. Ichida ja... ofatijonlari bor! – Mahbuba dadasiga o'xshab, qiyqirib kuldi. Uning bu hazilida ham o'ziga ishonch, ham „sizni hech kimga rashk qilmayman“, degan bir ma'no bor edi, bu ma'no negadir Shukurovning hamiyatiga tegdi-yu, g'ashi kelib: „Bo'pti! Bo'lmasa siz qoling, men bolalarni olib, o'zim ketaveraman. Bolalar qani?“ demoqchi edi, biroq shu payt shiyponda telefon jiringladi, ketma-ket qaynatasining: „Abrorjon!“ – degan ovozi keldi.

Aftidan, dilbar o'tirish katta bo'lsa kerak, shiyponda dasturxon to'kin: bir-biriga ulangan stollar lagan-lagan somsalar, tortlar, yaxna go'sht, tovuq va meva-chevaga to'lib ketgan edi.

To'lda o'tirgan Vohid Mirobidov kuyoviga joy ko'rsatib, bir piyola choy uzatdi.

– Og'aynim Otaqo'zi... U bilan tanishdingizmi, Abrorjon?

– Ha.

– O'ziyam borgan rayonigizdagi eng zo'r raislardan-da! Xo'roz yigit! Sizga aytuvdim-ku, biz eski qadrdonmiz deb! Ertaga o'g'li Haydarjonning himoyasi. Shunga kelgan ekan, mashinasini yuboribdi. Hozir yana telefon qildi. Kutib o'tirgan emish. Birga borib kelamizmi?

Shukurovning esiga negadir hozirgina Qishloq qurilishi vazirligida bo'lib o'tgan bir gap tushdi. Uni vazirning o'zi qabul qildi. Juda yaxshi qabul qildi. Ammo qanday xushmuomala qilgan bo'lsa, shunday xushmuomalalik bilan yordam berishdan bosh tortdi. Uning aytishicha, rayon bu yilgi fondlarni ortig'i bilan olib bo'lgan ekan!

Shukurov bu gapga ishongisi kelmay hujjatlarni surishtirgan edi, qog'ozlar orasidan bir necha joyda Otaqo'zining nomi chiqdi. U oblastdan xat olib kelib (bu xatga obkomning qishloq xo'jaligi bo'yicha kotibi Bekmurod Xolmurodov imzo chekkan edi) rayonga tegishli qurilish materiallari hisobidan katta bir qismini o'marib ketgan ekan.

Abror Shukurov ishga borgan kunlari Otaqo'zi boshqargan kolxoz va kolxoz markazidagi yangi qishloqni borib ko'rgan edi. Butun respublikaga dong'i ketgan bu ko'rkam qishloq to'g'risida u ko'p eshitgandi, biroq o'z ko'zi bilan

ko'rganlari gazetalarda maqtalgandan ham oshib tushdi-yu, Shukurov Otaqo'zini chin ko'ngildan tabrikladi. O'shanda u azbaroyi quvonib ketganidan, Otaqo'zi endilikda eng yaxshi maslahatgo'yim, suyangan tog'im bo'ladi, deb o'ylagandi. Otaqo'zi bo'lsa...

– Yo'q, borolmayman, – dedi Shukurov.

– Bo'lmasa, kamina birrov borib kelaman! Rais asabiylashyapti. Uning bir tog'asi bor, aytuvdim shekilli? Zamondan orqada qolgan, o'ta qo'rs, o'ta badfe'l odam. Nazarimda, oralaridan gap qochganga o'xshaydi. Yonib ketibdi og'aynim!

Qaynatasining og'zidan chiqqan „badfe'l“ so'zi domla Shomurodovning boyagi mag'rur xitobi oldida shunday xunuk eshitildiki, Abror Shukurovich beixtiyor yuzi burushib, yerga qaradi, boyagi shod qiyqiriqlardan sal iligan ko'ngli qayta muzlab:

„Sizga nima kerak shu gap? U odam nima yomonlik qildi sizga?“ – deb so'ramoqchi bo'ldi, biroq shu payt oshxona tomonda ona-bolaning xurram qahqahasi yangradi. Bu quvnoq qahqaha Shukurovga yana domla Shomurodovning uyida bo'lib o'tgan gaplarni eslatdi, chol-kampirning hazin mehr bilan yo'g'rilgan imo-ishoralari ko'z oldida qayta jonlandi-yu, yuragi achishib ketdi. Ularning g'amgin ruhiyati bilan hozirgina yangragan xurram qahqaha o'rtasida, qaynatasining mamnun ko'rinishi, umuman, bu serfayz, serzavq, baxtiyor oila o'rtasida qandaydir... pinhoniylar adolat-sizlikdan dalolat beruvchi katta bir tafovut bor edi. Bu xonadonga xos bo'lgan va ilgari Shukurovga juda yoqadigan bu baxt va mamnuniyat tuyg'usi hozir nechundir, ehtimol domla Shomurodovdan eshitganlari ta'siridadir, ta'bini xira qilmoqda, ilgari ko'ziga yaxshi ko'ringan narsalar endi boshqacha, soxta va nosamimiy ko'rinmoqda edi.

Vohid Mirobidov piyolani xontaxtaga qo'yib, o'rnidan turarkan, kuyoviga sinovchan tikildi:

– Sizga nima bo'ldi, Abrorjon?

„Rostdanam, unga nima bo'ldi o'zi? Nega bunaqa zarda qiladi? Bu xushfe'l odam, bu quvnoq oila nima yomonlik qildi unga? Doim ochiq chehra bilan kutib olishsa, izzat-ik-

romini bajo keltirib, o'z farzandlariday e'zozlashsa-yu, u bo'lsa... uning to'ngligiga sabab domla Shomurodovning aytganlarimi? Lekin domlanning gaplariga ishonishga nima asos bor unda? O'rtada nimalar bo'lganini qayoqdan biladi u?"

– Bir nimadan xafaga o'xshaysizmi?

– Yo'q, charchabman, – dedi Shukurov.

– Charchagan bo'lsangiz dam oling!..

– Rahmat, ish ko'p. Hali „Selxoztexnika“ga borishim kerak.

– „Selxoztexnika“ bo'lsa... uniyam kaliti Otaqo'zida-ku!

– deb kuldi Vohid Mirobidov. – Yo'q, behazil! U yerda Jamol Bo'riboyevich degan bir og'aynimiz bor. Ilgari bizda vazir muovini bo'lgan. Otaqo'zining qilo'tmas qadrdoni!

– Bilaman! – dedi Shukurov. – Bugun bir gap eshitdim bu odam to'g'risida...

– Qanaqa gap?

– Ha, shu... – dedi Abror Shukurov istar-istamas.

Vohid Mirobidov kuyoviga o'g'rincha bir qarab oldi, uning lablaridagi tabassum so'nib, qip-qizil yumaloq yuzida g'amgin bir ifoda zohir bo'ldi.

– Mayli, o'zingiz bilasiz. Aql yoshda emas, boshda, deydilar. Yosh bo'lsangiz ham katta bir rayonga rahnamosiz, Abrorjon. Ammo... qari bilganni pari bilmas ham deydilar. Otaqo'ziga o'xshagan odamlar sizgayam asqatadi hali! Oralarindan ko'ngilsiz gap o'tmadimi mabodo?

– Yo'q...

– Balli! Siz to'g'riso'z yigitsiz, bilaman! Ammo...yoshlik qilib, Otaqo'ziga o'xshagan odamlar bilan chaplashib qolmasangiz, deb qo'rqaman, Otaqo'zi – o'z og'aynim, men uni yomonlamoqchi emasman, ammo lekin siz – o'z farzandimsiz! Yodingizda bo'lsin, bu odamlar har narsaga qodir. Mabodo bir gap bo'lsa hech narsadan tap tortmaydi bu odamlar, bo'tam. Shuni bilib qo'ying, demoqchiman, xolos!


Shukurovdan sado chiqmadi. U Otaqo'zining qudrati-yu, uning g'alati fe'l-atvorini birinchi ko'rishdayoq bilgan edi, nimalarga qodirligini esa bugun yana bir ko'rdi. Qaynatasi haq, u yoqda Bekmurod Xolmurodov, bu yoqda Jamol Bo'riboyevday og'aynilari bo'lgan, yulduzni benar-

von uradigan bunaqa odamlardan hayiqmoq kerak, albatga!..

Shukurov ko'nglining bir chetida allaqanday yoqimsiz shubha, vahimaga o'xshash sovuq bir tuyg'u g'imirlab qolganini sezdi-yu, stullarni sharaq-shuruq surib, o'rni-dan turdi. U qaynatasiga: „Qo'ying, ko'p aralashavermang mening ishlarimga!“ – demoqchi edi, biroq Vohid Mirobidovichning ovozidagi samimiyat bo'g'ziga kelgan gapni ichiga yutishga majbur etdi.

– Mayli, dada, bir gap bo'lar! – Abror Shukurov soatiga qaradi, ovqat vaqti tugagan, „Selxoztexnika“ga boraversa bo'lardi.

Qaynata-kuyov uydan birga chiqishdi. Vohid Mirobidov uning qaytib kelishini qayta-qayta tayinladi. Shukurov indamadi. Garchi Mahbubani qoldirib ketgisi kelmasa ham qaytib kelish-kelmasligini o'ziam bilmas, hamon ko'ngli g'ash edi.



Odatda, olim yo ijod kishisi birorta yirik ishni nihoyasiga yetkazganda ruhida katta bir yengillik sezadi. Asar tugaganda jamoatchilik muhokamasiga topshirilgan. Garchi hozircha qilingan ishning taqdiri noaniq bo'lsa ham yillar davomida yelkani bosib turgan yuk uloqtirib tashlangan. Kishi o'zini qushday yengil sezadi, bu sezgi dilida ham quvonch, ham ishonch uyg'otadi, olam keng, yorug', kelajak beg'ubor va porloq bo'lib ko'rinadi.

Haydar shu kecha-yu kunduzda ana shunday nash'ali bir damlarni boshidan kechirmoqda edi. Uni salkam uch yil qiynagan va ochig'ini aytganda, boshdayoq ko'ngliga uncha o'tirmagan, lekin dadasining: „Temirni qizig'ida bos, deydilar, mavridi kepti, foydalanib qol, o'g'lim!“ – degan gapi bilan boshlangan og'ir ish, mana, nihoyat, intihosiga yetdi. Bundan bir oy muqaddam ishga nuqta qo'yildi. Rahbari Vohid Mirobidov bilan rasmiy va norasmiy opponentlar taftishidan o'tib, avtoreferatlar tegishli tashkilotlarga jo'natildi-yu, Haydar „uf“, deb erkin nafas oldi. O'zi-

yam qanchalik charchaganini ishini tarqatib bo'lgandan keyin tushundi. Ham o'qish, ham daladagi tajribalar, ham dissertatsiya yozish va uni yoqlashga bog'liq mayda-chuyda rasmiyatchiliklar uni shunday sulaytirib qo'ygan ediki, Haydar, avtoreferatni tarqatib bo'lganidan keyin bir haftagacha boshini yostiqlardan ko'tarolmadi. Uyquga to'yib, sal o'ziga kelgandan keyin rosa yallo qildi. Bir hafta qishloqqa borib dam oldi, bir hafta yor-do'stlari bilan tog'larga chiqib yayrab-yozilib keldi. Endi faqat yoqlash qoldi. Lekin Haydar yoqlash shunchaki rasmiy bir narsa ekaniga ko'zi yetar, dissertatsiyasi yaxshi o'tishiga imoni komil edi.

Boya qishloqdan dadasi keldi. Dadasi nimadandir asabi buzilib, qovog'idan qor yog'ib kirib keldi-yu, o'g'li bilan ko'rishib bo'lmasdanoq Vohid Mirobidovga telefon qildi. Domla odatdagiday qip-qizil yuzi moylanganday yaltillab, ko'zlari o'ynab kirib kelgan edi, dadasi uni qo'ltiqlab, ichkarigi xonaga olib kirib ketdi. Haydar favqulodda noxush bir gap chiqib qolmadimikin, deb cho'chigan edi, yo'q, birozdan keyin qaytib chiqishdi. Ikkovi ham xushnud, bir-biriga mehribon, xushmuomala edilar. Shundan keyin gap eng muhim va eng yoqimli masalaga – himoya marosimi emas, yo'q, shu marosim munosabati bilan ertaga bo'ladigan ziyofatga ko'chdi.

Rost, ular Haydarni bu xushnud ishdan ozod qilishdi, dokladingni yana bir ko'rib chiq, deb ichkariga qamab qo'yishdi. Lekin, birinchidan, doklad tayyor, ikkinchidan, qo'shni xonada qadahlar jarangi askiyaga, askiya qahqahaga ulanib, nihoyatda yoqimli bir mavzu – ziyofatga joy tanlash, kimlarni taklif qilib, dasturxonga qanaqa taomlar tortish muammolari muhokama qilinayotgan bir paytda qo'li ishga bormas, uning ko'zi yozuvda-yu, qulog'i qo'shni xonadagi munozarada edi.

Vohid Mirobidov bir gapirib, o'n kulganicha dasturxon kamtarroq bo'lishini, hozir katta ziyofatlar taqiq etilganini, ilmiy kengash a'zolari banketga kelishga haqlari yo'q ekanini tushuntirmoqchi bo'lar, bunga dadasi:

– U yog'ini kaminaga qo'yib berasiz, domla! – deb e'tiroz bildirardi. – To'ng'ich farzandim fan kandidati bo'ladu-yu, kimsan, respublikaga dong'i ketgan millioner kolxoz

raisi bitta ziyofat berolmaymanmi? Ilmiy kengash a'zolaringiz boshqalarning ziyofatiga borishmasa borishmas, ammo kaminaning ziyofatiga kelishadi. Direktoringiz o'zi boshlab keladi hammani! O'zingiz alyor aytasiz, domla!

– Qoyil! Qoyil! – Vohid Mirobidov uyni boshiga ko'tarib kulardi. – Millioner raisga yarashadigan gap qildingiz!

– Xullasi kalom, jo'raboshi o'zlari bo'ladilar. Boshqa odam qidirib yurmaymiz!

– Qulluq! Sizday vohidi zamon rahbarning gapini qaytarib bo'ladimi? O'g'lingizga ilm berishda xizmat qilgan odam, uning ziyofatida ham xizmat qilsak qipmiz-da!

Haydarga domlaning dadasiga qilayotgan bu xushomadlari-yu, xaxolab kulishlari ham, otasining sal qo'rs, chapanilarcha gap-so'zlari ham, ziyofatni qaysi restoranda o'tkazish va unga kimlarni taklif qilish to'g'risidagi bahs-munozaralar ham – hammasi xush yoqar, buning hammasi uning qalbini qandaydir cheksiz bir g'ururga to'l-dirmoqda edi. U dokladni chetga surib qo'yib, qo'shni xonada bo'layotgan shodiyonaga quloq solib o'tirarkan, har safar u yerdagi qahqahaga qo'shilib bir jilmayib qo'yar, o'ziyam go'yo shu qahqahalar qanotida parvoz qilayotgan-ga o'xshar, chunki shu topda uning, xususan, dadasining qo'lidan kelmaydigan bir ish yo'qligini, dadasi hozir ko'kka qo'l cho'zsa qo'li yulduzga yetishini his etar va bu his bamisoli burgut qanotiday uni go'yo osmon-u falakka olib chiqib ketmoqda edi.

Haydar dadasini yaxshi ko'rardi. Ayniqsa, uning cho'rtkesarligini, mardligini, har qanaqa vaziyatda ham dovdirab qolmasdan, yeng shimarib ishga kirishib ketishlarini, dangalligi va hatto chapanilarcha qiliqlarini, hammasini xush ko'rar va hamma narsada dadasiga taqlid qilgisi kelardi.

Haqiqatan, dadasining qo'lidan kelmaydigan ish yo'q.

Haydar institutni tugatgandan keyin dadasi aspiranturaga kiritib qo'yaman, dedi, kiritib qo'ydi. Eng zo'r, eng babobro' olimning qo'lida ilm o'rganib, fan kandidati bo'lasan, dedi, aytganini qildirdi. Tohira ikkisiga shahardan uy olib beraman dedi, olib berdi. Uylansang, bu uy senga qoladi, kerak bo'lsa, Tohiraga boshqa hovli-joy to'g'rilab beraman,

dedi va bu gapining ham ustidan chiqadi albatta. Faqat bit-ta narsa, bitta-yu bitta narsa borki, Haydarning ko'nglini xiyol xijolat qiladi, u ham bo'lsa... to'y masalasi, Latofat masalasi. Dadasi bir yil avval aytib qo'ygan: „Qachongacha so'qqabosh bo'lib, bo'yingni qisib yurasan, dissertatsiyani yoqlagan kuning ertasigayoq to'yni boshlab yuboraman“, degan. Endi uning to'yiga singlisining to'yi ulanib, birvara-kayiga qo'sh to'y bo'lmoqchi.

Singlisi Tohira Latofatning akasi Qodirjon bilan topish-di. Qodirjon Haydar bilan bir institutda o'qigan, hozir o'z dadasi Jamol Bo'riboyevning qo'lida ishlayapti.

Tohira dadasining suyukli qizi. Dadasi uni o'tqazgani joy topolmas, yer-u ko'kka ishonmas va agar u Fazilatxon bilan qarshi quda bo'lishga rozilik bergan bo'lsa, buni Haydar uchun, to'ng'ich farzandining „tinchib ketishi“ uchun qildi, xolos. Chunki Latofat... bulturidan beri Latofatga bir nima bo'ldi. Nima bo'lganini Haydar o'ziyam tushunolmaydi, biroq ko'ngli sezadi – bir nima bo'ldi unga! Ilgari Haydarni ko'rganda sevinchdan porlab ketadigan jodu ko'zlarida endi kishini tahqirlovchi sovuq bir ifoda paydo bo'ladi, ilgari hayajondan entikib, goh shod, goh g'amgin kulimsirab turadigan qiz, endi ichimdagini top, qabilida ish qiladi. Uchrashuvlarga kelavermaydi, kelganda ham...

Qo'shni xonadan dadasining:

– Bas! – degan xitobi eshitildi. – Bas! Odamni qon qilib yubordi-ku, bu himoya degan dardisaringiz! Shu boshog'riq ishdan qutulsin o'g'lim! Bir haftadan keyin to'yni boshlab yuboraman! Kelindi ko'rganmisiz, domla?

– Qayoqda deysiz? Qallig'ini ko'rsatarmidi feodal o'g'lingiz? – Vohid Mirobidovning kulgisidan servantdagi billur idishlar yana zirillab ketdi.

– Ammo duyonda tanho kelinim bor! U ham o'qishni bitiryapti! Qo'sh to'y qilaman bu yil! – dedi dadasi va negadir shivir-shivirga o'tdi.

Haydar ichida bir kulib qo'ydi. Dadasining gapi, „qo'sh to'y qilaman bu yil“ degan xitobi uning ko'nglidagi hamma shubhalarni to'zg'itib yuborgandi. Haqiqatan, dadasi salomat bo'lsa hal bo'lmaydigan ish yo'q. Hammasini qoyillatadi dadasi!..

di-da, qovog'ini uydi. U ertangi marosim va bu marosimning mutasaddisi bo'lmish professor Mirobidov uchun ust-ustiga qadah ko'targandan keyingina xiyol chehrasi ochildi, so'ng Qodirjonni Vohid Mirobidovga tanishtirib, bo'lajak „qo'sh to'y“ uchun ham alyor aytdi. Qodirjon ham bo'sh kelmadi. Uchi dahaniga qarab egilgan qirg'iy burnini g'alati qimirlatib, o'rnidan turdi. U do'sti Haydar uchun, qoloq bir xo'jalikni mashhur millioner kolxozga aylantirgan, eski, xaroba qishloq o'rnida butun bir shaharcha bunyod etgan Otaqo'zi akadek yetuk rahbar uchun, umuman, bu ajoyib, ahil, mehnatkash va zahmatkash oila uchun, bu oilani tebratib turgan Oliyaxon opaday mehri daryo ona uchun qadah ko'tarishni taklif qildi.

Haydar bo'lg'usi kuyovi Qodirjonning „balo“ ekani-ni bilsa ham uning bunchalik shirinsuxanligidan bexabar edi. Qodirjon bitta qadahda shuncha odamni ulug'laganidan tashqari, so'z orasida o'z otasi Jamol Bo'riboyevni ham qistirib ketdi... Uning aytishicha, otasi bu ajoyib oila bilan yaqinlashayotganidan benihoya mamnun emish...

Otaqo'zi Jamol Bo'riboyevning nomini eshitganda, bir zum yana qovog'ini uydi, go'yo noxush bir narsa yodiga tushganday, qoramtir yuzi burushib, kalta, uchburchak mo'ylovini qimirlatib qo'ydi, biroq bu holat bir lahzagina davom etdi-yu, keyin kulimsiraganicha o'rnidan turib, bo'lajak kuyovi bilan qadah urishtirdi. Vohid Mirobidov ham o'rnidan turib ketdi. Boyadan beri Qodirjonni uncha pisand qilmay o'tirgan odam, u bilan qadah urishtirarkan, yarim hazil, yarim chin:

– O, bilmas ekanmiz-da, rais! – deb xitob qildi. – Bu yog'iyam zo'r deng! Eski qadrdonimiz bilan quda bo'layotgan ekansiz-da, og'ayni! Sobiq bo'lsayam vazir muovini!

Otaqo'zi katta qoramtir mushti bilan stolni gursullatib urdi. U ham yarim hazil, yarim chin qilib:

– Men emas, o'sha sobiq muovinigiz kamina bilan quda bo'layotganidan faxrlansin! – dedi. – Siz haliyam bo'lsa Otaqo'zi Umar o'g'lining qadrini bilmas ekansiz, domla!..

Vohid Mirobidov qo'llarini boshi uzra ko'tarib qarsak chalib yubordi.

– Qoyil, rais! Qoyil! Qadr-qimmatingizni mana, kuyov-xonto‘ra ta‘riflab berdilar-ku!

Tohira uyalgan bo‘lib, oshxonaga chiqib ketdi. Uning ketidan Qodirjon ham qo‘zg‘algan edi, Otaqo‘zi qo‘qqisdan:

– Pitirlayvermay joyingizda o‘tiring, kuyov! – dedi, birdan rangi o‘chib. – Bizdi kechirasiz, akasi. Ammo yigit degan unaqa... yaltoqlanib qiz bolaning ketidan yuguravermaydi! O‘z izzatini bilmog‘i kerak yigit degan! Avval to‘y qiling! Nikohlab oling qizimni! Ana undan keyin qilasiz jilpang-piljang-u hiring-hiringingizni! Nima deysiz, domlajon?

Vohid Mirobidov gapni hazilga burmoqchi bo‘lib:

– Sizga bir nima deb bo‘ladimi, rais, – deb kuldi. – Siz hamisha haqsiz, ammo lekin yoshlar...

– Men yoshlarga qarshi emasman, domla! O‘ynab-kulishsin! Zamon shularniki – bilaman. Ammo quyushqondan chiqishmasin-da, aka. Afv etasiz, Qodirbek. Biz keksalar shunaqa pand-u nasihat qilib turishni yaxshi ko‘ramiz, xafa bo‘lmaysiz.

– Yo‘q, yo‘q, nega endi xafa bo‘lar ekanmiz, dada? – dedi Qodirjon go‘yo hech narsa bo‘lmaganday jilmayib.

– Xo‘p, bu gap tamom! – Otaqo‘zi o‘zini stulning suyanchig‘iga tashlab, o‘g‘liga yuzlandi. – Qani, sen ham bir nima deysanmi, yo‘qmi?

Haydar o‘ng‘aysizlanib domlasiga qaradi.

– Men nima ham deyman?

– To‘g‘ri. Gap bilmagandan keyin nima ham deysan? – dedi Otaqo‘zi ensasi qotib. – Shu shogirdingizdan uncha xursand emasman-da, domla!

– Nega endi, rais?

– Sal bo‘shroq-da, bo‘shroq! – Otaqo‘zi Vohid Mirobidovning sharafiga yana bir qadah ko‘tardi-da, dasturxonga fотиha qildi. Haydar dadasining dag‘alroq qilig‘ini tekislab yuborish niyatida domlasini kuzatib qo‘ymoqchi bo‘lgan edi, Otaqo‘zi:

– Sen ishingni qilaver! – dedi e‘tirozga yo‘l qo‘ymaydigan bir ohangda. – Mashina tayyor. Domlani, mana, Qodirbek oborib qo‘yadi!

Otaqo'zi shunday dedi-da, Vohid Mirobidov bilan ko'chaga chiqib ketdi. Sal o'tmay u qaytib kirdi, qo'llarini orqasiga qilib, uyning o'rtasida to'xtadi.

Otaqo'zi, odatda, bir narsadan qattiq darg'azab bo'lsa shunday qilar, qo'llarini orqasiga yashirib, oyoqlarini kerib turib olardi. Dadasining bu odatini bilgan Haydar hayron bo'lib o'rnidan turdi.

– Bu bola, – dedi Otaqo'zi salmoqlab. – Ja... haddidan oshib ketibdi. Kuyovto'rani aytyapman, singling bilan ja... oshkora muomala qiladigan bo'пти! Aytib qo'ysang bo'lmaydimi?

Haydar peshanasini ishqab, qizarib kuldi.

– Men nima deyman? O'zlari topishgan. Qizingiz...

– Mening qizim bo'lsa, sening singling! Ikkoviniyam bundoq... tizginini tortib qo'yishing kerak edi. Bo'riboyevning o'g'li bo'lsa, o'ziga! Agar sen... singlisini demaganingda, meni unga beradigan qizim yo'q edi!..

– Bilaman.

– Bilsang... o'z ishlaring nima bo'lyapti?..

– O'z ishlarim... – Haydar yelkasini qisdi. – Domla ayt-dilar-ku, hammasi joyida deb...

– Men bu ishingni aytayotganim yo'q! – Otaqo'zining dardli ovozi tor xonani yangratib yubordi. – Men anavi ishlaringni aytyapman. To'y qilamizmi axir?

Haydar qo'llarini yozib, zo'raki kuldi.

– Bilmasam endi...

– Nimani bilasan? – dedi Otaqo'zi boshini buqaday egib. – Lapashang! Qo'lingdagi qushni birovga oldirib qo'ymadingmi, ishqilib? Nega indamaysan? To'g'risini ayt menga!..

– Unaqa narsani sezganim yo'q...

– Sezmasang... nega akasi bu yerda yuribdi-yu, singlisi yo'q! Sen ertaga himoya qilsang-u, kelin bo'lsa... U nega kelib xizmat qilmaydi?

Boya dadasining to'y haqidagi gaplari Haydarga qanchalik yoqqan bo'lsa, bu gaplari yigitlik hamiyatiga tegib, sekin rangi o'cha boshladi.

– Uyam yaqinda diplom yoqladi. O'zi bilan o'zi ovora...

– O‘zi bilan o‘zi ovorami yo... bir gap o‘tdimi oralarindan? – Otaqo‘zi ko‘zlari yonib, o‘g‘liga sinchkovlik bilan tikildi. U ilgari o‘g‘lidan pinhona faxrlanib yurardi. Haydar unga juda o‘xshar, kelishgan bo‘y-basti, qoramag‘iz cho‘zinchoq yuzi, chiroyli qirg‘iy burni – hammasi Otaqo‘zining o‘zginasi edi! Shunday yigitmisan yigit, uchto‘rt yildirki, bir qizning ketida ivirsib yursa! Rost, bo‘lg‘usi kelini juda ko‘hlik. Yoshlikdagi ofatijon Fazilatxonning o‘zginasi! Shuning uchun ham Otaqo‘zi boshda o‘g‘lining xohishiga uncha ro‘yixushlik bermagan, hatto: „Arqog‘ini ko‘r-da, bo‘zini ol, onasini ko‘r-da, qizini ol“, deb o‘g‘lini bu niyatidan qaytarmoqchi ham bo‘lgan, biroq Haydar, o‘laman oblo shu qizni deyman, deb oyog‘ini tirab turib oldi. Turib olishga oldi-yu, allaqachon ishini bitirib, tinchib ketish o‘rniga shu aql, shu qad-qomat bilan hanuz ketida sudralib yuribdi!

– Shunaqami? U kishiyam diplom yoqladilarmi? – dedi Otaqo‘zi kesatib. – Diplom yoqladilarmi yo...

– Mayli! – dedi Haydar. – Bir gap bo‘lar, dada...

– Yo‘q! – Otaqo‘zi bir hatlashda eshikka tomon yurgan o‘g‘lining yo‘lini to‘sdi. – Menga bunaqa lattachaynar gaplar ketmaydi! Men bu yil qo‘sh to‘y qilaman deb, yurtga ovoza qilib qo‘yganman! Hamma eshitgan bu gapni! Endi shu bitta qizni ko‘ndirolmay el-yurt oldida mulzam bo‘ladigan odam yo‘q! Agar sen ko‘ndirolmasang men o‘zim...

– Nima?.. – dedi Haydar. Ota o‘g‘li, u ham favqulodda titroq bosib, ko‘zlari o‘t chaqnab dadasiga qaradi. – Endi bir qilmaganingiz shu ish qoluvdi!

Otaqo‘zining qoramtir yuzidagi qahr to‘satdan mamnun tabassum bilan almashdi, lablariga kulgi yugurdi.

– Xullas, o‘zing pishitasan ishni!

– Kerak bo‘lsa...

– Kerak! Ana, mashinani ol! Borib gaplash. Ammo... – Otaqo‘zi qo‘lini cho‘qmorday qilib, boshi uzra ko‘tardi... – Gapdan qaytish yo‘q. To‘yga ko‘ndirasan. Ertaga kelib xizmat qilsin! Shu! Tamom-vassalom!



Latofat yotoqxonada yo'q edi. Birga turadigan dugonalaridan hech kim ko'rinmadi, qo'shni xonalardagi qizlar esa tuzukroq bir javob berisholmadi.

Tarvuzi qo'ltig'idan tushib orqaga qaytgan Haydar eshikda „shig'-shig'“ terlab, novvot choy ichib o'tirgan qorovul xotinga murojaat qildi-yu, baloga qoldi.

– Sakson oltinchi xonadagi qizni aytyapsizmi? Qaysi biri? Haligi... ja-a... ketvorgan, hamma yigitlar orqasidan yugurgan xumor ko'z nozanindi aytyapsizmi? To'xtang, ukajon. U qiz anavi... laylakka o'xshagan qiltiriq domla bor-ku, sal duduqroq? O'sha domla kelib opketdi, mashinasiga solib!

Haydar gap so'raganiga pushaymon bo'lib, cho'rt buriilib ketarkan, qorovul xotinning:

– Zamonaning qizlarigayam hayronsan kishi! – deganini eshitdi. – Lochin desa degudek shunday yigit turib, qayoqdagi qalang'i-qasang'ilar bilan yurishadi!

Yotoqdan shitob bilan otilib chiqqan Haydar qayoqqa borishini bilmay birdan qadamini sekinlatdi.

Quyosh botgan bo'lsa ham tevarak-atrof hali yorug'. Odatda, doim gavjum, sershovqin bo'ladigan maydon va xiyobonlarda, gulzor o'rtasidagi kumushrang favvora atrofida hozir odam siyrak, faqat har joy-har joyda, daraxt tagidagi rang-barang skameykalarda shivirlashib, piq-piq kulishib o'tirgan bitta-yarimta qiz-yigitlar ko'zga chalinardi...

Haydar bir-bir bosib, yotoqxona oldidagi gulzor tomon yurdi. Yo'q, u Latofatni birovga rashk qilmaydi. Zotan, Latofatda ko'hlik qizlarda ko'p uchraydigan va odatda „yengiltaklik“, deb ataladigan xulq-atvordan asar ham yo'q. Agar u sal shaddod, sal sho'xroq, sal quvnoqroq bo'lsa, Haydar qaytaga sevinar edi!

Haydar qishloq muhitidan, ota-onasining qattiq nazoratidan qutulib chiqib, o'zlarini batamom qo'yib yuborgan qizlarni ham ko'p ko'rgan. Ular ba'zan xuddi to'g'on sohili-ni o'pirib ketgan bebosh oqimga o'xshaydi. Sokin turmushdan keyin ular sershovqin, serjilo, serlazzat hayotga suvga sho'ng'iganday sho'ng'ishadi-yu, goho aql-hushlarini yo'qotib qo'yishadi. Haydar shunaqa qizlardan bir-ikkita-

sini yaxshi biladi, ular bilan topishib, hatto bittasini yaxshi ko'rib qolgan paytlari ham bo'lgan. O'sha qiz sabab, Latofatning g'alati xulq-atvoridan bezib, undan voz kechish fikriga ham borgan, lekin „ko'ngil o'lgur“ – uning ixtiyoridan ustun kelgan!

So'nggi paytlarda, ayniqsa, Latofatga „bir balo“ bo'lganini sezganidan keyin esa, ko'ngli sovish o'rniga yuragidagi cho'g', ko'zlari katta-katta bu ma'yus qizni ilk bor ko'rganidayoq qalbiga tushgan cho'g', aksiga olib, battar yallig'landi!..

Dadasi uni, umuman qiz zotidan cho'chiydigan bir lapashang, deb o'ylaydi. Haydar esa, istagan qizni „gah“ deb qo'liga qo'ndira oladi, qo'ndirib yuribdi ham!.. Latofatga g'azabi kelgan paytlarda tasalli qidirib, ba'zan o'shalarning og'ushiga ham kiradi, ammo... tasalli topolmaydi, eng erkin, eng zamonaviy nozaninlarning ehtirosli bo'sasidan yonib yotgan paytlarida ham Latofat esiga tushsa, bas, tomirlarida ko'pirgan qon birdan so'nib, o'rnidan turib ketadi... Kim bilsin, ehtimol, bu g'ayritabiiy bir kasaldir. Ehtimol, qizni egib ololmagan yigitning g'olib g'ururi ko'rsatayotgan shunchaki bir o'yindir!.. Latofat bo'lsa... kim bilsin, balki haligi qorovul xotin haqdir. Balki „lochinday yigit“ turib, bu qurumsoq savdoyini yoqtirib qolgandir! Inson ruhini, ayniqsa, ayol zotining ichini bilish qiyin-ku!..

Yoshi o'ttizlarga borib qolgan bu fan kandidati biofakda qandaydir hasharotlar, o'rgimchakkanalar bilan shug'ullanadi, o'ziyam ilmiga o'xshash ipirisqiroq bir odam. Haydarga hammadan ko'ra mana shunisi – Latofatning kelib-ke-lib, shu ko'rimsiz bir xayolparast bilan inoqlashib qolgani alam qiladi! Inoqlashishiga sabab – bu daydi-devona qurt-qumursqalar haqidagi qandaydir aql bovar qilmaydigan balandparvoz gaplari bilan Latofatning boshini aylantirdi. Go'yo bu ishlar, bu qurt-qumursqa-yu, kapalak-mapalaklar olamshumul ahamiyatga ega, go'yo kelgusida ularni buyuk kashfiyotlar kutayotganmish! Eng yomoni, bu haqda Latofatga gapirib bo'lmaydi. Latofat bu darvishnamo xayolparast to'g'risida aytilgan har bir gapni, hatto hazil-mutoyibani ham ko'tarolmaydi, darhol qovoq-tumshug'i osilib ketadi!

Yotoqxonada oldidagi gulzor kimsasiz va jimjit bo'lsa ham olisroqdagi yoshlar kafesidan orkestr ovozi kelar, yaqinda chiqqan va darhol mashhur bo'lib ketgan „Yali-yali“ kuyi eshitilardi. Bu lapar, chinqirgan jaz ovozi Haydarga yaqinda, Latofat diplom yoqlagan kuni shu kafeda bo'lib o'tgan bir ko'ngilsiz voqeani eslatdi.

Latofatning diplom yoqlash marosimiga kursdosh yor-do'stlaridan tashqari, akasi Qodirjon, Haydar, Tohira, hatto dadasi Jamol Bo'riboyev ham dasta-dasta gul ko'tarib kelishdi.

Haydar bilardi, Jamol Bo'riboyev qizini yaxshi ko'rar, ko'pdan beri o'rtadagi sovuqlikka barham berish payida edi. Lekin Latofat otasi bilan murosa qilishni istamas, hamon yotsirab yurardi. Akasi Qodirjon dadasi tugul, o'gay onasi bilan ham topishib, apoq-chapoq bo'lib ketgan, dadasi ham unga ko'p yordam berar, Latofat esa dadasi tugul akasi Qodirjonning ham gapiga kirmas, hamon o'jarlik qilib kelardi.

Latofatning diplom ishi o'sha mash'um qurt-qumursqalar to'g'risida, bu qurt-qumursqalarning tabiatni muhofaza qilishdagi olamshumul ahamiyati to'g'risida edi. Agar bio-fak domlalarining o'sha kungi gaplari rost bo'lsa, Latofat bilan uning ipirisqi ustozlari ilmda buyuk kashfiyotga erishgan, olamda ularning qurt-qumursqalaridan muhimroq, undan foydaliroq narsa yo'q edi! O'sha kuni aytilmagan faqat bitta gap qoldi, u ham bo'lsa Latofatning diplom ishi doktorlik dissertatsiyasi bilan barobar deyilmadi, xolos!

Xullas, diplom yoqlash marosimidan keyin Latofatni tabriklashga yig'ilgan yor-do'stlari tantanali vaziyatda hozir orkestr ovozi eshitilayotgan mana shu kafega ravona bo'lishdi.

Katta ziyofat hidini sezgan xushnud jamoat betinim kulgi ostida kafega yaqinlashganida, ichkaridan... Jamol Bo'riboyevning rafiqasi chiqdi. Qoramag'izdan kelgan, nozik did bilan kiyingan bu ko'hlikkina juvon uchun shu topda o'gay qiziga gul ko'tarib chiqishdan og'ir haqorat yo'qligi yuzida shundoq aks etib turardi. Rangi o'chgan, entikib nafas olgan o'gay ona, ko'zlari bejo, labida soxta tabassum, Latofatga allaqanday jur'atsizgina yaqinlashib,

o'pishgani labini cho'zdi. Go'yo mudhish bir narsani ko'r-ganday birdan oqarib ketgan Latofat ham o'zini yo'qotib, talmovsirab qoldi. U o'gay onasi tutgan guldastani olishga oldi-yu, biroq o'pishmadi, yuziga sovuq niqob kiyganicha uning yonidan o'tib, kafega kirib ketdi. O'pishish uchun la-bini cho'zgan o'gay ona ko'zlari pirpirab eriga qaradi. Jamol Bo'riboyev, o'zini ko'rib ko'rmaganlikka oldi-da, xotinini „podruchka“ qilib, ichkariga boshladi. Lekin ziyofatga rax-na tushgan edi, hatto birinchi qadahlardan keyin raqsga tushgan Tohira bilan Qodirjon ham o'tirishga jon kiritol-madi. O'zini bosib, yuziga mag'rur niqob kiyib olgan o'gay ona sal o'tmay erini yetaklab chiqib ketdi. Domlalar ham bitta-bitta tarqala boshlashdi, yolg'iz qurt-qumursqalar piri bo'lmish Soqijon Obidovning vaqti chog' edi. U ichdi, kayf qildi, kayf qilgandan keyin esa, ajabo, dudug'i ham tarqab, Latofat uchun ust-ustiga qadah ko'tardi, shunday... go'zal, sahibjamol bir qizning ba'zi sirti yaltiroq, ichi qalti-roq, ko'rinishda ulug', ammo ilmida mirquruq yigitlarning xushomadiga uchmay, o'zini ilm-fanga bag'ishlaganini maqtab, qayta-qayta qo'llarini o'pdi... Uning qiliqlari ham, gap-so'zlari ham o'ziga o'xshash telba-teskari edi. Haydar chidab o'tirdi-o'tirdi-yu, oxiri stulni bir tepib o'rnidan turdi va Obidov domlani „bir minutga tashqariga“ chaqirdi. La-tofat ikkisining o'rtasidagi nizo ham o'shandan boshlandi, to'g'rirog'i, ilgarirog' boshlangan olovga o'sha kuni lampa moyi sepildi. Chunki...

...Yotoqxonaning oldiga taksi kelib to'xtadi. Taksidan, oldin katta papka ko'targan Soqijon Obidov, uning ketidan Latofat tushdi.

Latofat bilan Obidov domla Haydarni ko'rmas, chun-ki yon-verlariga qarashmas, go'yo olamda ulardan boshqa hech kim yo'qday, nima to'g'risidadir qizg'in bahslashmoq-da, to'g'rirog'i, Soqijon Obidov duduqlana-duduqlana bir narsalarni tushuntirmoqda, Latofat esa boshini bir tomon-ga sal egib, muloyim kulimsiraganicha uning va'ziga qu-loq solib turardi. Nihoyat, Latofat, bir nima deb kuldi-da, Obidovga qo'lini uzatdi. Lekin Obidov go'yo uning ketib qolishidan qo'rqqanday, bilagidan ushladi.

– To‘xtang, Latofatxon! Yana bitta gap!

Bu telba domla hozir Latofatga sevgi izhor qiladiganday tuyuldi-yu, Haydar qanday qilib:

– Latofat! – deb yuborganini o‘ziyam sezmay qoldi.

Obidov bilan Latofat baravar o‘girilib qarashdi. Soqijon Obidov, xuddi g‘ayritabiyy bir hodisa ro‘y berganday, og‘zi ochilib, taajjub bilan tikilib qoldi, Latofat esa, sal rangi o‘chib, qoshlarini chimirib oldi.

– A-a... s-sizmisiz?.. – dedi Obidov. – K-keling.

Latofat qo‘lidagi bir dasta rayhonni lablariga bosib (qayoqdan oldiykin bu rayhonni?) hamon tuflisi bilan yer chizib turar, aftidan, Haydarni ayg‘oqchilik qilib yuribdi, deb o‘ylasa kerak, qovog‘i soliq edi.

– Kechirasiz, domla, – dedi Haydar. – Latofatxonga bir og‘izgina gapim bor.

Obidov Latofatga bir qarab oldi, uning indamay labini tishlab turganini ko‘rib, yelkasini uchirdi:

– Marhamat... Xo‘p, x-xayr...

Latofat bilinar-bilinmas bosh irg‘ab javob berdi-da, indamasdan boya Haydar o‘tirgan skameykaga qarab ketdi.

Uning egnida arzonligina matodan tikilgan, tizzalari-ga yetar-yetmas guldor ko‘ylak, oyog‘ida poshnasi qalin, to‘ng‘iztumshuq tufli. U o‘rta bo‘yli, nozikkina qiz edi, lekin poshnasi baland tufli kiygani uchunmi yo tashlab qo‘ysa beliga tushadigan yo‘g‘on, tim qora sochlarini boshi uzra baland qilib turmaklab olgani uchunmi, novchagina ko‘rinardi.

Ular borib o‘tirishi bilan simyog‘ochlardagi tayoqsimon uzun lampochkalar pir-pir qilib yondi-yu, chor atrof sutday yorishib ketdi.

Uzun, kelishgan oyoqlarini jips qilib olgan Latofat ko‘ylagining kaltaligidan iymandi shekilli, rayhon ushlagan qo‘llarini tizzasiga qo‘ydi. U hamon indamas, go‘yo „ichimdagini top“, deganday, hamon bir nuqtaga tiki-lib o‘tirardi. Qizning cho‘zinchoqdan ko‘ra sal yumaloqqa moyil bug‘doyrang yuzi, bitta-bitta terilgan qosh va kipriklarining nafisligi, baland turmaklangan sochlarining allaqanday viqorli ko‘rinishi, ayniqsa, kataklari keng qir-

ra burni uning chehrasiga chindan ham juda kibor bir ifoda baxsh etar, agar yonoqlaridagi chuqurchalarining ajib muloyimligi-yu, katta-katta serkiprik ko'zlarining yurakni jiz etkazuvchi ma'yusligi bo'lmasa, bu ifoda Latofatning go'zalligini kishini cho'chitadigan sovuq go'zallikka aylantirardi... Lekin xiyol qalin lablarining chetidagi bu mayin chuqurchalar, ayniqsa, doim ma'yus boqadigan bu katta-katta ko'zlar... Haydar har safar qizning shu g'amgin ko'zlariga, lablarining tegrasidagi shu muloyim kulgichlariga qarashi bilan ko'nglidagi hamma gina-kuduratlari to'zg'ib ketib, qalbini iliq bir mehr chulg'ab olardi. Biroq bugun bu savdoyi domla bilan qaylardadir tentirab yurgani sabab bo'ldimi, yuragidagi muz erimadi.

– Eshitaman, – dedi Latofat. – Ayting gapingiz bo'lsa...

Haydar bo'g'ziga kelgan: „Qayoqlarda sang'ib yuribsiz bu mahmadona bilan?“ degan nidoni zo'r-bazo'r ichiga yutib:

– Xabaringiz bor, – dedi. – Ertaga himoya qilyapman. Borasizmi?

Latofat qo'lidagi rayhonni yuziga bosdi.

– Mening borishim shartmi?

Uning bu savolida haqoratomuz bir ma'no bor edi. Haydar yana o'zini zo'rg'a bosib:

– Nima, birorta maqsadingiz bormi? – deb so'radi.

– Qanaqa maqsad? Tushunmadim gapingizga...

– Nimasiga tushunmaysiz? Siz bilan... ikkimizning maqsadimiz jiddiymi axir? Agar jiddiy bo'lsa, niyatimiz yaxshi bo'lsa, nahot men dissertatsiya yoqlasam-u, siz bu marosimga borib, bir og'iz tabriklashniyam istamasangiz? Axir men... nima bo'lgandayam shuncha yil mehnat qildim-ku! Shu padar la'nat ishni deb adoyi tamom bo'ldim-ku, axir! – dedi Haydar o'ksib, dedi-yu, ichida so'kindi: „Endi bir kamim yalinib-yolvorib mehringni qozonish qoluvdi!“

Latofat yerga qaraganicha:

– Kechirasiz, – dedi eshitilar-eshitilmas bir tovushda. Uning ovozi tuyoqdan paydo bo'lgan bu samimiyat Haydarning ko'nglidagi alamni achchiq faryodga aylantirdi.

– Axir nega bunday qilasiz, Latif? – dedi u qizning qo‘li-ni olib. – Nima bo‘ldi o‘zi? Bu... savdoyi odam, bu ipiriski domla qay go‘rdan paydo bo‘ldi o‘zi?

Latofat qo‘lini Haydarning qo‘lidan ohista chiqarib oldi.

– Sizdan o‘tinib so‘rayman: bu gapingizni, „ipiriski“ de-gan so‘zingizni ikkinchi ayt mang! – Latofatning ovoqidagi boyagi samimiyat so‘nib, yuzida yana avvalgi sovuq ifoda paydo bo‘ldi.

– Nega aytmas ekanman? Ipiriski bo‘lmay nima? Nima-si bor uning? Ishongani kandidatligimi?

– Kandidatligini pesh qilayotgani yo‘q-ku! Agar bilsan-giz... oltin odam u! Uning maqsadlarini bilsangiz edi! Bu odam nimalar haqida o‘ylab yurganini, niyati nima ekanini bilsangiz edi uning!

– Bilib turibman niyati nimaligini! Balandparvoz gaplar bilan boshingizni aylantiryapti-yu, siz bo‘lsangiz...

– Mayli, keragi yo‘q!

Latofat ko‘ziga yosh olib, pirpirab uchgan lablarini tish-ladi.

„Mayli, keragi yo‘q!“ – uning bu gapni qayta-qayta takrorlashida yana o‘sha, „Ichim to‘la dard-ku, aytolmay-man-da!“ – degan kishini tahqirlovchi bir ma‘no bor edi. Haydar qalbida jo‘sh urgan tug‘yon bilan olisharkan:

– Dardingiz bo‘lsa ayting, axir!.. – dedi bo‘g‘ilib.

– Dardim... Mana hozir o‘zingiz aytdingiz. Men ham odamman-ku, degan ma‘noda gapirdingiz. Men ham sizga shuni aytmoqchiman. Men ham odamman-ku, axir! – La-tofat rayhon hidi ufurgan ro‘molchasi bilan ko‘zlarini arttdi. – Boshqasini aytmay qo‘ya qolay. Agar mening ko‘nglimga qarasangiz, u kuni, diplom yoqlagan kunim shunday qilar-midingiz?

– Nima qildim?

– Nima qildim deysiz? Axir... siz mening dadamlar bilan gaplashmasligimni bilar edingiz-ku! U kishi keptilar. Mayli. Nima ham derdim? Biroq uning xotini... bu ichi qora xotin-ning kafeda ziyofat berishi!.. Bunaqa ekan, nima qilard in-giz boshda ziyofatni bo‘yningizga olib?

– Latif! – Haydar qizning tirnoqlariga xina qo‘yilgan

mayin kaftini ushladi. – Men bitta emas, yuzta ziyofatga tayyor edim. Men qayoqdan bilay? Axir u kishi, nima bo'lgandayam, dadangiz-ku?

– Men ham shuni aytyapman! Shuncha yil birga bo'lib, birga yurib, bir og'iz, ko'nglingda nima darding bor, deb so'ramadingiz? Dada bo'lmish bu odam... sho'rlik oyimlarning boshlariga ne kulfatlar solganini bilmaysiz! Chunki... sizga baribir! Chunki bilasiz – men hech qayoqqa ketolmayman, chizgan chizig'ingizdan chiqolmayman!.. Dadangiz mashhur odam. Hamma narsaga qodir!..

Latofatning so'nggi so'zlari Haydarning eriy boshlagan ko'ngliga misoli bir sovuq shabada bo'lib tegdi-yu, a'zoyi badani yaxladi-qoldi.


– Dadamlarga til tekkizmang! – dedi u kutilmagan bir qahr bilan. – Dadamlar birovga yomonlik qilgan odam emaslar. Umuman... bu gapingizni qandoq tushunsak bo'ladi? Agar men sizni... qo'l-oyog'ingizni bog'lab, majbur qilib olayotgan bo'lsam, agar sizning ko'nglingiz boshqada bo'lsa...

– Men sizga ko'nglim boshqada dedimmi?

– Boshqada demasangiz...

– Bo'pti! – dedi Latofat, to'satdan ko'zlari allaqanday charaqlab. – Ertaga boraman himoyangizga! Bo'ldimi?

– Rahmat! Borasizmi, yo'qmi – ixtiyor o'zingizda!– Haydar shitob bilan o'rnidan turdi. Uning sabr kosasi to'lgan edi. – Bormasangiz... bilganingizni qiling! – u shunday dedi-da, shartta burilib katta yo'lga qarab ketdi.



Latofat hamon novvot choy ichib „shig'-shig“ terlab o'tirgan qorovul xotinning: „Qayoqlarda yuribsiz, aylanay, yigitlar so'rayverib miyamni qoqib qo'limga berishdi-ku?“,– degan ilmoqli gapiga javob bermay, o'z xonasiga o'tib ketdi.

Uning hamsoyalari ta'tilga chiqib ketishgan, xona bo'm-bo'sh edi.

Ko'chadan to'lib kirgan Latofat chiroqni o'chirdi, u o'z karavotiga o'tib yotmoqchi bo'ldi-yu, ko'zi bir zum os-

mon to'la yulduzga tushib, ochiq deraza oldida to'xtadi. Bu yerda, zavod va fabrika dudidan yiroq shahar chekkasida, osmon xuddi sahrodagiday musaffo, ko'kish jilo sochgan yulduzlar esa artib qo'yilganday tiniq edi. Oppoq neon chiroqlariga cho'mgan shaharcha, pastdagi gulzor, gulzor o'rtasida nafis tovlangan favvora, olisroqdan g'iz-g'iz uchib o'tayotgan mashinalar – hammasi bu so'lim oqshomda boshqacha, notanish va sirli ko'rinardi. Qayerdandir, olisdan, yotoqxonaning ortidagi kafedan yengil kuy va lapar eshitilar, go'yo butun olam shod-xurram, yolg'iz u, Latofatgina notinch va g'amgin bir kayfiyatda edi. Kursdosh yigitlar uni mana shu g'amginligi tufayli „g'alati“ga chiqarishgan, ba'zilar hatto „qish oftobi“, deb laqab ham qo'yishgan, go'yo u qish oftobiday yarqirab turarmish-u, biroq isitmas emish!

Mayli, tanasi boshqa dard bilmas deb, uning dard-u hasratlarini bilmaganlar nimalar demaydi? Faqat bo'lg'usi yori, ishongan tog'i ham ko'nglida qat-qat bo'lib yotgan alamlarini bilmasligi yuragini o'rtayapti Latofatning!

„Men qayoqdan bilay? Nima bo'lgandayam o'z otangiz-ku, deydi-ya! Latofat esa, „o'z otasi bo'lmish“ bu odam to'g'risida o'ylaganda negadir doim uch-to'rt yashar go'daklik chog'lari esiga tushadi, tushadi-yu, tirnoqlarigacha zirqirab ketadi...

U mahalda Latofat bu odamdan, doim yaltiroq qora charm palto, qora charm furajka kiyib, katta qora papka ko'tarib yuradigan Jamol Bo'riboyevdan Azroildan qo'rqqanday qo'rqar, uni ko'rganda murg'ak qalbi yaproqday titrar, chunki har safar bu o'ktam, basavlat odam kelib ketgandan keyin oyisi gohida yer quchoqlab, gohida uni, uch-to'rt yashar qizchasini bag'riga bosib uvvos tortib yig'lardi... Odatda, soatlab davom etadigan, uyni zir titratadigan bu achchiq faryod go'dakning yuragini tilka-pora qilardi. Keyinroq, katta bo'lganida esa, oyisi to'g'risidagi gaplarni, kishini tahqirlovchi mudhish mish-mishlarni eshitib, battar ezildi, battar yer bo'ldi. Bu mish-mishlar shunday xunuk, shunday mudhish ediki, Latofat qishloqdan bosh olib chiqib ketmoqchi bo'lgan vaqtlari ham bo'ldi.

Esida bor, sakkizinchidan to'qqizinchiga o'tib, sevgi to'g'risida, o'z muhabbati yo'lida o'limdan ham qaytma-gan ma'shuqalar, dor tagigacha borib yorini qutqazib qol-gan Kumushbibilar haqidagi kitoblarni „chaynamay yu-tib“ yurgan paytlari edi. Bir kuni oyisi to'g'risida yana bir gap eshitib, uylariga to'lib qaytdi. To'lmay nima ham qil-sin, oyisini pok sevgi bilan sevgan, mardlikda, oliyjanob-likda tanho bo'lgan Jabbor Normurodovday yigit frontdan qahramon bo'lib qaytsa-yu, qishloqdagi qabih voqealarga chidab turolmay yana frontga ketib, urushda mardona ha-lok bo'lsa! Kim bilsin, ehtimol, qishloqda bu xunuk voqea yuz bermaganida, oyisi esa o'z ahrida qattiqroq turganida, ehtimol, bunday bo'lmasmidi, ehtimol, bu oliyjanob yigit frontda o'lib ketmay, eson-omon qaytib kelarmidi? Shunda Latofat ham bu nopok odamdan emas, balki undan, Jabbor Normurodovday oliyjanob yigitdan tug'ilarmidi?

Hozir biologiya fanining murakkab sirlarini o'rgangan Latofat o'sha paytlarda uni larzaga solgan bu o'ylar esi-ga tushsa, ichida bir kulib qo'ya qoladi. Lekin u mahalda, dahshatli mish-mishlarni eshitib yer bo'lib ketgan Latofat eshikdan kirdi-yu, o'zini hovlidagi yog'och karavotga tash-lab o'kirib yubordi. Oyisi u paytlarda idorada ishlardi. Kech qaytdi. Qaytdi-yu, karavotda yuztuban tushib, yum-yum yig'layotgan sevikli qizini ko'rib, qo'rqib ketdi.

– Senga nima bo'ldi, qizginam? – deya ona karavotga chiqib, qizining yoniga o'tirdi. Biroq Latofat, xuddi tanasi-ga kaltakesak tekkan odamday, nariroq surilib o'tirdi, o'tir-di-yu, ko'zlari chaqnab (ha, ha, Latofat buni yaxshi biladi, ko'zlari o't yonib) oyisiga qaradi:

– Nega bunday qildingiz? Nega?

Latofatning savoli qo'qqisdan berilgan bo'lsa ham Fazilat qizining gapini ilg'ab oldi, ayollarga xos nozik bir tuyg'u bilan ilg'ab oldi-yu, birdan rangi o'chib, lablari zo'r-bazo'r pichirlab:

– Nimani aytyapsan, qizalog'im? – deb so'radi.

Latofat o'rnidan sapchib turdi.

– Hamma narsani bilib turib yana so'raysiz! – dedi u, yoshlikka xos bir ayovsizlik bilan. – Bilaman, hozir ham-masini yolg'onga chiqarasiz! Hamma aybni ana u nopokka,

Jamol Bo'riboyevga to'nkaysiz! Ovora bo'lmang, ishonmayman. Agar siz o'z so'zingizda turganingizda... va'dangizga vafosizlik qilmaganingizda... u yigit, Jabbor Normurodov urushda o'lib ketmas edi!

– Qizim! – dedi Fazilat. – Qizginam!

U xuddi yuz-ko'ziga yog'ilayotgan shafqatsiz qamchidan o'zini to'smoqchi bo'lganday, qo'llarini ko'tarib iltijo qilar, xuddi norasidaning ko'zlariday mo'ltiragan ko'zlari shafqat tilardi. Lekin u mahalda, o'tday lovullab turgan Latofatda shafqat nima qilsin?

– Qo'ying! Gapirmang. Baribir ishonmayman! Men sizdan... hazar qilaman! Hazar! – Latofat shunday dedi-yu, karavotdan sakrab tushib, uyga kirib ketdi.

Oldin hovliga qandaydir qo'rqinchli og'ir sukunat cho'mdi. Keyin xuddi ovloqdan kelayotgan nay ovozi hazin bir yig'i eshitildi. Oyisi allanimalarni pichirlab, bamisoli ko'nglidagi armonini birovlariga arz qilayotganday, bir nimalarni aytib, ohista yig'lar edi. Boshqa payt bo'lganda Latofat, ehtimol, bu faryodga, go'yo ko'kka qaratilgan bu nidoga chidab turolmas, go'daklik chog'laridagiday, onasining bo'ynidan quchoqlab, qo'shib yig'lagan bo'lardi. Lekin o'sha daqiqada qabih mish-mishlardan muzlagan yuragini baxti qaro onaning toshni erituvchi nolasi ham yumshatolmadi.

Akasi Qodirjon qayoqqadir ketgan, yo'q, Toshkentda, o'qishda, katta hovli bo'm-bo'sh, uy zimiston edi.

To'satdan hovlida „ship-ship“ qadam tovushi eshitildi, yon tomondagi og'ilning eshigi g'ichirlab ochildi-yu, qayta yopildi. Sakrab turib, derazaga otilgan Latofat, g'ira-shira qorong'ilikda og'ildan chiqayotgan oyisini ko'rib qoldi. U qo'lida bir quloch arqon, yugurganicha ko'chaga chiqib ketdi. Latofatning ko'nglidan dahshatli fikr o'tdi: „Bir balo qilmoqchi o'zini!“

Latofat jon holatda, qanday o'tirgan bo'lsa shunday – yalangoyoq, yalangbosh, uydan yugurib chiqdi.

U mahalda yangi qishloq hali qurilmagan, hovlilarining yon tomonidan soy bo'yidagi eski tegirmonga olib bora-digan sertuproq tor ko'cha bo'lardi. Oyisining qayoqqa

chopib ketganini ko'rmsa ham, Latofat, qandaydir ichki tuyg'uga bo'ysunib, shu ko'chadan chopib ketdi, chopib bo'rarkan, vujudini boyagidan ham dahshatliroq vahima bosdi: „Tegirmon noviga otmoqchi o'zini!“

Latofatning qalbi uni aldamagan edi. U yalang oyoq, yalangbosh, qorong'ida oyoqlarini qora qon qilib, soyga yetib borganida, tegirmon tepasidagi nov oldida bir nimalarni timirskilayotgan oyisini ko'rdi.

Fazilat qo'lidagi arqon bilan bo'yniga tosh bog'lamoqda edi. Latofat buni keyin bildi, toshni ham keyin ko'rdi, o'sha daqiqada esa, o'zini yerga urib, oyisining oyoqlarini quchoqladi-yu, eski tegirmonni zir titratib dod-faryod chekdi:

– Kechiring, oyijon! Behuda ozor berdim sizga! Toshbag'ir qizingizni kechiring, oyijon!

O'sha kecha ona-bola, soy bo'yida, nov suvining bir me'yorda shovullashiga quloq solib o'tirib, tun yarmigacha hasratlashishdi. Otasining, katta lavozimlarga ko'tarilgan bu basavlat, baobro' odamning hamma kirdikorlarini Latofat o'sha kecha, eski tegirmon ortidagi qora o'pqon bo'yida dardlashib o'tirganlarida bildi. Onaizorining, o'z etini o'zi yeb, adoyi tamom bo'lgan, afsus va nadomatlardan qirqqa kirmasdanoq sochlari oqarib ketgan mushtipar volidasining bitmas-tuganmas dard-alamlarini ham Latofat o'shanda, oyisini mudhish choh yoqasida to'xtatib qolgan kechasi bildi, tag-tugigacha bildi.

Shu-shu, otasini ko'rish u yoqda tursin, nomini ham eshitgisi kelmaydi. Shu boisdan akasi Qodirjon bilan ham anchagacha gaplashmay yurdi. Akasi Toshkentga o'qishga kelgan zahotiyiq dadasi bilan topishib, apoq-chapoq bo'lib ketdi. Farzandlari voyaga yetguncha „ahvollaring qalay“, demagan Jamol Bo'riboyev ham er yetgan o'g'lini ko'rib, to'satdan juda mehribon bo'lib qoldi. U Qodirjonga institutga kirishda ko'maklashdi, o'qish davomida ko'p yordam berdi, institutni bitirgandan keyin esa Toshkentda ishga olib qoldi. Qodirjonning otasi bilan apoq-chapoq bo'lib ketganini eshitgan oyisi bechora ko'p iztirob chekdi, ichichidan ezildi.

Jamol Bo'riboyev Latofatni ham bag'riga tortishga ko'p

urindi. Qizi voyaga yetguncha aqalli bir marta xabar ol-magan odam, Latofat Toshkentga o'qishga kelgandan keyin negadir mehri tovlanib ketdi. O'rta solmagan odami qol-madi. Har bayram Qodirjon orqali, ba'zan boshqalar orqali sovg'a-salomlar yuborib turdi, moddiy yordam taklif qil-di, necha marta uyiga chaqirdi. Latofat hammasini rad etdi. Pulga muhtoj bo'lgan paytlarida ham, yaxshi kiyinib, yaxshi turadigan kursdosh dugonalariga havasi kelgan chog'lari-da ham na pulini oldi, na qimmatbaho sovg'a-salomlari-ni! Uyiga esa faqat bir marta, unda ham dadasining betob bo'lib qolganini eshitib bordi.

Jamol Bo'riboyev shahar chekkasida, Toshkent zilzila-sidan keyin qurilgan ikki qavatli, oldi bog', ko'rkam kottej-da turardi. Latofatni o'gay oyisi kutib oldi. Egnida guldor ipak xalat, oyog'ida zardo'zi kavush, qorachadan kelgan bu viqorli juvon quvonganini ham, ranjiganini ham bilib bo'l-maydigan bir bosiqlik bilan qarshi olib, dadasining oldiga o'zi boshlab kirdi.

Jamol Bo'riboyev derazalari anhorga qaragan keng, ser-hasham xonaning to'ridagi divanda qo'sh-qo'sh paryostiqlarga suyanib yotardi. U ham xotiniga o'xshab, o'ta shod-ligini ham, uncha xushlamaganini ham bilib bo'lmaydigan bir muomala qildi. Eng yomoni – Latofat o'sha kuni juda g'alati, juda ayanchli bir hodisaning guvohi bo'ldi. Dadasi xotini uydan chiqishi bilan birdan o'zgarib qolar, Latofat-ning oldida allaqanday gunohkorona biltanglab, hol-ahvol so'ray boshlar, „qizim, qizginam“, deb choyga, ovqatga qis-tar, xotini kirib kelishi bilan darhol labidagi tabassumini „ichiga yutib“, yuziga sovuq niqob kiyib olardi.

Latofat ko'p o'tirmadi, bir piyola choyni naridan beri ichib, xayr-ma'zur qildi. Lekin dadasining shu bitta xatti-haraka-ti uning uchun ulkan bir kitob bo'ldi. Bu kitobdan u Jamol Bo'riboyevning butun hayotini, turish-turmushini, bu oila-dagi, o'z xotini oldidagi mavqeyini – hammasini bilib oldi!

Shundan keyin Latofat bu uyga ikkinchi qadam bosmadi, akasi qancha qistamasin, qancha urishib-so'kmasin – borma-di. Akasi-ku, mayli. Dadasi bilan apoq-chapoq bo'lib ketishdan ko'zlagan maqsadi bor. Biroq u-chi? Haydar-chi? Uning nima

maqsadi bor? Nahot u Latofatning yuragida zil bo'lib yotgan dard-u hasratlarini bilmasa? Uning ko'ngliga qaramasa?

Ha, nega ham qarasin? Axir u Latofatning qanoti qirqilgan bir qush ekanini, bu qush qancha talpinmasin uning qo'lidan chiqib ketolmasligini yaxshi biladi-ku? Yaxshi bilgani uchun ham uning ko'ngliga qaray-chi, bafurja o'tirib bir gaplashay-chi, arzi holini eshitay-chi, demaydi. Bu o'y yetti uxlab tushiga ham kirmaydi.

Boya Haydar domla Obidov to'g'risida gapirdi. Qandaydir ijirg'anib, go'yo shu ham odam bo'ldi-yu, degandek qilib, menday yigit turganda bu lapashang bilan so'zlashib yurib-sizmi hali, degandek qilib, kesatib-muqatib gapirdi. Latofat esa... Yo'q, Haydar shubha qilmasa ham bo'ladi, uning rashk qilishga hech bir asosi yo'q. Latofat ko'ngil qo'yan emas unga! Shunday bo'lsayam, uning etagida namoz o'qishga tayyor Latofat!

Soqijon Obidov kafedraga bultur qishda, Moskva universitetining aspiranturasini bitirib keldi. Uning ishi tabiatni biologik usul bilan muhofaza qilish muammolariga bag'ishlangan. Soqijon Obidov ilk bor fakultetda paydo bo'lgan paytlarida undan kulmagan odam bo'lmadi. Ayniqsa, qizlar. U chindan ham juda g'alati, aft-angori, soch-soqoliga qaramas, kiygan kiyimlari qoq suyak tanasida qopdek osilib turar, poshnalari yeyilib, bir tomonga qiyshayib ketgan tufllilari yomg'irsiz yoz kunlari ham botmon-botmon loy bo'lib yurardi. O'ziyam duduq, nutqi yo'q edi. Faqat ilhom kelgan paytlarida, ayniqsa, sevimli mavzusida gap ochgan chog'larida ko'zlari chaqnab, nutqi ham kutilmagan bir ravonlik kasb etardi. Obidovning suyakli mavzusi esa vafodor ma'shuqning sevgisiday tanho – u ham bo'lsa butun odamzodni ximiya malomatidan qutqaradigan o'sha qurt-qumursqalar edi! Domla bu haqda gapirganda otashin shoir, buyuk notiq bo'lib ketardi. Rost, qizlar uning bu ehtirosli nutqlaridan, qurt-qumursqalarni madhlovchi otashin dostonlaridan ham kulib yurishdi, hatto qurt-qumursqalarni qosh-ko'zlariga surtib, o'pib o'tirgan domlanning suratlarini chizgan „rassomlar“ ham bo'ldi. Lekin qishloqda katta bo'lgan Latofatga Obidov domlanning bu madhiyalari chi-

nakam she'riy doston bo'lib eshitildi. Shu dostonlar sabab poshnasi qiyshiq tufllilaridan yozda ham loy arimaydigan bu qop-qora, qiltiriq domlaning o'ziyam ko'ziga juda issiq ko'rinib ketdi.

Bultur ko'klamda u diplom praktikasini shu domla rahbarligida o'tdi. Obidov Namangan tomonlardan edi. Bahor payti, beda ko'rpa bo'lganda, Namangan tevaragidagi ko'm-ko'k bedazorlarda „xon qizi“ va „oltin kuz“, degan qo'ng'izlarni ov qilishdi. Bir qo'llarida shisha idishcha, bir qo'llarida matrapcha, bedazorma-bedazor yurib, kapalak ovlashdi.

Latofat, qishloq qizi bo'lsa ham ko'm-ko'k bedazorlarning qandaydir beqiyos go'zalligini, uning tillarda doston bo'lgan sal taxir, xushbo'y hidini o'shanda, shudring bilan yuvilgan poyonsiz bedazorlarni kezib yurganida his etdi. Obidovning kimligini ham o'shanda, bedazorlarga dori sepmoqchi bo'lgan agronomlar bilan olishib, dori sepadigan traktorlar tagiga o'zini tashlagan paytlarida bildi. Keyin qishi bilan laboratoriyada birga ishlashdi. Kapalak tuxumlarini asrash, ayniqsa, ko'sak qurtining kushandasi bo'lmish–„Trixogramma“ degan kapalak va uning urug'i-ni ko'paytirish muammolari ustida bosh qotirishdi. Ovqat tugul, uyqu eslaridan chiqib, laboratoriyada tong ottirgan paytlari ham bo'ldi. Bu yil yozda birorta yirik xo'jalikda tajriba o'tkazishlari kerak. Umuman, Obidov uni hech qayoqqa yubormay, universitetda olib qolmoqchi... Haydar bo'lsa... Haydarning qulog'iga to'ydan boshqa gap kirmaydi. To'ydan keyin esa qaynatasi uning qishloqda qolishini, qishloqda qolib, bir yil-yarim yil „xizmat qilib berishini“ istayapti. Haydar bir kuni yarim hazil, yarim chin qilib:

– Dadamlar sizni borgan zahotingiz maktabga direktor qip qo'yaman deyaptilar-ku, nima deysiz? – deb qoldi.

Bu gap Latofatga g'alati tuyulsa ham bildirmay:

– Mayli, – deb kuldi. – Agar men direktor bo'lib, siz qo'l ostimda oddiy o'qituvchi bo'lib ishlashga rozi bo'lsangiz, yo'q demayman.

– Bo'pti. Ammo... siz direktor bo'ladigan maktabda fan kandidatiga ish topilarmikan?

– Bo‘lmasa o‘rtoq fan kandidati shaharda ishlab, biz bechora fuqaro qishloqda qolar ekanmiz-da!

Haydar uning yelkasidan quchib, erkaladi.

– Qishloqda tursangiz, besh-olti oy turasiz-da, azizim. Ular ham orzu-havas ma’nosida aytyaptilar-da, buni! Uch-to‘rt oy oldimizda tursa, kelinimizning xizmatini ko‘rsak, deyaptilar-da, jonginam...

Latofat qishloqdan qo‘rqmaydi, xizmatdan ham qochayotgani yo‘q, bolalikda mehnat bilan suyagi qotgan qiz, u hamma narsaga aqli yetadi, ota-onaning „orzuhavas“, degan gaplariga ham tushunadi. Faqat universitetni bitirgandan keyin kafedrada, hatto rektoratda bo‘layotgan gaplar, takliflar..

Eshik taqillab, Latofat bir cho‘chib tushdi.

– Mumkinmi?

„Obbo! Yana keldilarmi?“– Latofat ixtiyorsiz suratda ko‘ylagining etaklarini to‘g‘rilab, eshikka qaradi.

– Marhamat...

Yo‘lakda haqiqatan ham domla Obidov gunohkorona bosh egib turardi.

– Keling, domla...

– Rahmat. Xonangizga kirish man qilingan emish. Eshikdan qaytmasam milisa ch-chaqirarmishlar. O‘zingiz chiqa qoling, Latofatxon. T-tashqarida kutib turaman.

Latofat uning nima deyishini, yana o‘sha eski gapni qo‘zg‘ashini bilar, biroq o‘zi unga nima deb javob berishini yaxshi bilmas edi. Shu boisdan Obidovning ketidan darrov chiqa qolmasdan, ancha hayallab qoldi.

Obidov fontan yonida, boya Haydar o‘tirgan skameykada o‘tirardi. Latofatni ko‘rib o‘rnidan turdi, negadir yana qo‘l berib ko‘risharkan, ayni Latofat kutgan savolni berdi.

– Xo‘sh, nima bo‘ldi? G-gaplashdingizmi?

– Nimasini gaplashaman? Hammasi ravshan. To‘y bo‘ladi. Shu.

– Tabriklayman! – yasama xushnud kuldi Obidov. – Dovrug‘i jahon to‘y! Shohi atlaslar! Kimxob go‘shangalar-u, alvido, ilm-fan, yaxshi qol, universitet! Big‘-big‘ chaqaloq! Porloq kelajak! Qahramon ona unvoni!.. Chin yurakdan tabriklayman! – Obidov, xuddi oyoqlariga g‘ildirak o‘rna-

tilganday, g'izillaganicha, fontanni bir aylanib keldi, keldi-yu, qo'llarini ko'ksida qovushtirib, Latofatning ro'parasida to'xtadi.

– Men hayronman! – dedi go'yo monolog o'qiyotgan buyuk artistday boshini mag'rur ko'tarib. – Bizdayam ulug' orzular, b-buyuk maqsadlar bilan yashaydigan, katta niyatlar yo'lida o'zlarini qurbon qilishga tayyor ulug' zotlar ch-chiqadimi, yo'qmi? Iste'dodli yoshlardan bittasi siz bo'lsangiz – ilm-fan to'g'risida, katta kashfiyotlar to'g'risida o'ylash o'rniga halitdan to'y, oila, bola-chaqa t-to'g'risida o'ylaysiz! Axir, nahot tushunmasangiz? Nahot, gap katta bir ish to'g'risida, oliyjanob, mo'tabar bir insoniy burch to'g'risida borayotganini t-tushunmasangiz! Gap o'zbek dehqoniga, zahmatkash o'zbek paxtakoriga unutilmas bir yaxshilik qilish ustida ketyapti-ku! Nahot, bunga aqlingiz yetmasa? Yo bu ishning ro'yobga chiqishiga shubha qilasizmi?

– Gap shubhada emas...

– Bilaman! Hozircha mening gaplarim shunchaki bir xomxayol! Lekin bu xomxayol bo'lsayam, kishi o'z umrini bag'ishlasa arziydigan xomxayol! Bu yo'lda o'zini baxshida qilsayam mehnati zoye ketmaydi kishining! Nahot, shu qalb, shu aql-farosatingiz bilan bu oddiy haqiqatga tushunmasangiz! Agar siz... iste'dodli qiz bo'lmaganingizda, agar shunchaki chiroyli bir qo'g'irchoq bo'lganingizda men sizga bu gaplarni aytib o'tirmas edim! Nahotki tushunmasangiz, Latofatxon?

Latofat negadir ko'ziga yosh oldi.

– Men-ku, tushunib turibman, siz tushunmayapsiz, domlajon.

– Nimani tushunmayapman? Nima gap o'zi? To'yingiz bir yil keyin bo'lsa... bu olifta yigit boshqaga uylanib oladi, deb qo'rquapsizmi?

– Mayli, domla, – dedi Latofat sekin. – Foydasi yo'q endi!

– Bo'pti! Foydasi bo'lmasa... bas qildik! Bu o'yindan chiqdik biz! – Obidov shaxt bilan burilib, boyagiday g'izilab ketdi, nariroqqa borib nimagadir qoqilib, daraxt shoxlarini ushlab oldi-da, qorong'ida g'oyib bo'ldi.

Latofat boshini kaftlari orasiga olganicha kimsasiz guldorda uzoq o'tirdi.

To'rtinchi bob



Vohid Mirobidov Otaqo'zining ziyofatidan nihoyatda mamnun, nihoyatda vaqti chog' bo'lib qaytdi.

Otaqo'zi bilan u ko'pdan beri tanish, kolxoz yerlarida tajriba o'tkazib yurgan paytlaridayoq tanishgan, Haydar-ni shogirdlikka olganidan keyin esa bu tanishlik chinakam do'stlikka aylandi. Otaqo'zi har yili bo'lmasa ham bir-ikki yilda bir marta Vohid Mirobidovni mehmondorchilikka chaqiradi, ba'zan oilasi bilan olib ketib, bir-ikki hafta mehmon qiladi, tog'da, go'zal joylarda qurdirgan dam olish uyini er-xotinning ixtiyoriga berib qo'yadi. Mana endi kuyovi Abrorjon ham o'sha rayonga birinchi kotib bo'lib bordi. Vohid Mirobidov bugun Otaqo'zini uyiga taklif qilib, kuyovi bilan tanishtirib qo'ymoqchi edi. Lekin Abrorjon negadir unamadi. Vohid Mirobidov kuyovining bu odatini – odamlar bilan tez til topishib, apoq-chapoq bo'lib ketavermasligini, dilkashlik, ko'ngilxushliklardan o'zini tortib yurishlarini yaxshi bilardi. Tabiatan xushchaqchaq, shirinsuxan, ziyofatlarda chiroyli nutqlar irod qilib, hammani qoyil qoldirib yuradigan odam, kuyovining bu kamsuqumligini uncha xushlamaydi, ammo uni hurmat qiladi. Haqiqatan, kuyovi Abrorjon kechagina yoshlar tashkiloti ishlari bilan yugurib yurgan qotmagina, qorachagina, kamtargina bir yigitcha edi. Hatto boshda qizlari Mahbuba bu tortinchoq, indamas yigit bilan topishib qolganda er-xotin ancha xafa ham bo'lishgan, uni qizlariga ravo ko'rishmagan edi. Ajabo, salkam o'n yil ichida bu kamgap, kamsuqum yigitcha ulkan bir rayonning rahnamosi darajasiga ko'tarildi! Agar shu ketishda o'sib boraversa, kim biladi, hali kim bo'p ketadi!

Vohid Mirobidov yo'l-yo'lakay shu xayollar bilan bo'lib, uyga juda xushnud kayfiyatda kirib keldi, keldi-yu, avji xursandchilikning ustidan chiqib, tamom yayrab ketdi.

Katta hovlining to'ridagi tanish shiyponda – Vohid Mirobidov bu shiyponni faqat ziyofatlar, go'zal o'tirishlar uchun qurdirgan – bazmi jamshid avjida, u yerga o'n chog'li yosh

juvonlar yig'ilishgan, yengil kuy yangramoqda, xushqad, xushsurat bir juvon raqs tushmoqda, boshqalari qarsak chalishib, qiyqirishib, chaqchaqlashib o'tirishardi...

Vohid Mirobidov darvozadan kirgan joyida to'xtadi-yu, zebolar o'tirishidan ko'zini uzolmay uzoq turib qoldi...

Mana, davradagi juvon bir nima deb kuldi-da, chetroqda qarsak chalib turgan Mahbubani o'rta taga tortdi. Mahbuba bir zum o'zini olib qochgan bo'ldi, so'ng, oqqushning bo'yniday oppoq, nozik qo'llarini o'ynatib, davraga tushdi. Xiyol to'lisha boshlagan, lekin bo'ydor bo'lgani uchun bu to'laligiya o'ziga yarashgan, ichilgan sharobdanmi, xursandchilikdanmi, gul-gul yashnagan qizini ko'rganida Vohid Mirobidovning dili otalik g'ururiga to'lib, bir jilmayib qo'ydi-da, oyoq uchida yurib, katta uyga o'tdi. U zinalardan ko'tarilayotganda qo'lida childirmaday tort, ichkaridan xotini Nazokatbibi chiqdi. Bibi yum-yumaloq baqaloq gavdasiga mos tushmagan bir chaqqonlik bilan orqaga chekinib, eriga yo'l berdi.

– Tezroq kira qoling, qizlar ko'rib qolishsa uyalishadi.

– Xo'p bo'ladi, xonim. Kuyoving keldimi?

– Be, kuyovingizni bilmaydigan odamday gapirasiz-a! Ko'chadan telefon qipti: bugun ketmasa bo'lmas emish. Tavba! Birov mushugini pisht demasa...

– Ke, qo'y bu gaplaringni!

– Siz ham g'o'daymasdan panaga o'ting deyapman! – Nazokatbibi yana boyagiday baqaloq gavdasiga mos tushmagan bir harakat bilan erini turtib, parda orqasiga o'tkazdi, ko'zlari hayrat bilan porlab, raqs tushayotgan qiziga tikildi:

– Voy, bo'yginangdan onaginang o'rgilsin, oppoqqinam! Tovus bo'p ket-e, tovus! – Nazokatbibi, bitta ham ajin tushmagan oppoq yuzi allaqanday tovlanib, eriga o'girildi. – Tovusginamning bitta tukiga ham arzimaydi suyukli kuyovingiz!

– Qizingni bozorga solmoqchimisan, muncha maqtaysan? Bor, bor, kaminagayam bir choynak choy opke, ishla-moqchiman, – yoshligi qo'zigan Vohid Mirobidov xotini-ning biqinidan bir chimchib, qiqirlab kuldi-da, kabinetiga kirib ketdi.

Devorning bir tomonini naqshinkor kitob javonlari egallagan, dub yog'ochidan yasalgan yaltiroq yozuv stoli va charm qoplangan og'ir kreslolar qo'yilgan, keng, bahavo ishxonaning derazalari ko'chaga qaragan bo'lsa ham hovli etagida bo'layotgan o'yin-kulgi, sho'x kuy, yosh juvonnarning shavqli qiyqiriqlari bu yerda ham eshitilib turardi. Shu sababdanmi, boshqadanmi, Vohid Mirobidov anchagacha qo'li ishga bormay, kabinetni ohista aylanib yurdi. Zotan, uning yomon bir odati bor – hayotdan mamnun, vaqti chog' paytlarida qo'li ishga boravermaydi, aksincha, bir narsadan xafa bo'lsa yo ishi orqaga keta boshlasa, o'chakishib qattiqroq ishlaydi.

Aslini olganda bugun Vohid Mirobidovning oshig'ich ishi ham yo'q. U ertaga shogirdi Haydarning himoyasida gapiradigan nutqini qog'ozga tushirmoqchi, xolos. Vohid Mirobidov bu nutqida so'nggi yillarda o'zi ishlayotgan institutga topshirilgan va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan katta bir muammo ustida to'xtab o'tmoqchikim, buning uchun puxtaroq tayyorlanish lozim.

Ittifoq vazirligi qarori bilan institutga yuklangan bu topshiriqda Ob va Yenisey daryolarining suvini O'rta Osiyoga keltirish ustida gap ketardi. Katta bir guruh mutaxassislar institut direktori rahbarligida bir-ikki yildan beri bu masalani o'rganmoqda, bu to'g'rida ular ma'lum bir to'xtamga ham kelgan, lekin masala nihoyatda murakkab bo'lgani uchun hali-hozir o'z qarorlarini uzil-kesil e'lon qilganicha yo'q.

O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining uzoq kelajagigina emas, yaqin kelajagini o'ylaganda ham bu joylarni asrlar davomida ta'min etib kelayotgan ikki azim daryoning suvi endilikda kamlik qilayotgani ayon. Qurilgan ulkan suv omborlari, yirik inshoot va to'g'onlarni hisobga olgan taqdirda ham hamma suv manbalari ko'pi bilan yana bir necha million gektar yer o'zlashtirish imkonini beradi, xolos. Holbuki, aholi misli ko'rilmagan sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Shu ketishda birgina O'zbekiston aholisi 20-asr oxirida yigirma-yigirma besh millionga yetish ehtimoli bor. Umuman, hayot sur'atining talablari shundaykim, iqtiso-

diy taraqqiyot sur'ati undan orqada qolishi mumkin emas. O'rta Osiyo sharoitida esa bu taraqqiyot suvga, faqat suvga bog'liq. Holbuki, suv manbayi cheksiz-chegarasiz emas, hamma suv manbalari, hamma imkoniyatlarni hisobga olganda ham shu asrning to'qsoninchi yillariga bormasdanoq iqtisodiy taraqqiyotni ta'min etish qiyinlashadi. Undan u yog'i-chi? Undan u yog'iga O'rta Osiyodagi boy iqtisodiy rayon rivojini hisobga olganda yiliga o'ttiz milliard kubometr suv, sodda qilib aytganda, Sirdaryo bilan Amudaryo ko'lamidagi yana bir ulkan daryo kerak bo'ladi! Bu suvni qayoqdan olish mumkin? Ikki daryo baravaridagi bu obi hayotni faqat sersuv Sibir daryolari berishi mumkin, xolos! Avval boshda olimlar orasida bu suvni Ob daryosidan olish fikri bor edi. Lekin yuz milliard kubometr suv oqadigan Ob daryosidan o'ttiz milliard suv olish, ya'ni, daryoning uchdan birini O'rta Osiyoga burish aqldan emas. Shu boisdan avval Yenisey daryosining bir qismini Obga quyish kerak, shundan keyingina Obdan o'ttiz milliard kubometr hajmi-da suv olish mumkin, degan qarorga kelindi. Boshqacha qilib aytganda, masala nihoyatda murakkablashib ketdi...

Hayot ilgari surgan bu murakkab muammoning yana bir nozik tomoni bor, u ham bo'lsa yurtda nom chiqargan bir guruh mashhur olimlar Ob va Yenisey daryolaridan suv olishdan avval bu ish Sibir iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi – oldin shu muammoni o'rganib chiqmoq lozim, degan fikrni ilgari surmoqdakim, bu fikrni Normurod Shomurodovga o'xshagan ba'zi olimlar ham qo'llab-quvvatlashmoqda.

Normurod Shomurodov bilan institutdagi uning tarafdorlarining fikricha, bu masalada shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, avval Sibir daryolari muammosini chuqur o'rganmoq, so'ngra Ob suvini qabul qilib olishga puxta tayyorlanmoq lozim, ungacha esa, har bir tomchi suvni tejab ishlatmoq kerak. Chunki bu muammo hozir, shu kecha-yu kunduzda hal bo'lgan taqdirda ham Ob va Yenisey suvi o'n-o'n besh yilsiz kelmaydi. Negaki, Sibirdan O'rta Osiyoga keladigan bo'lg'usi kanal yo'lini o'rganib chiqib, muayyan loyihani tayyorlashning o'ziga kamida besh-olti yil ketadi! Kanalning o'zini qurish esa, hozirgi texnika qud-

ratini hisobga olgan taqdirda ham o'n yilsiz amalga oshmaydi. Bu degan so'z, hamma mavjud suv inshootlarini tubdan yangilash, qayta qurish, ariq va kanallarni betonlash, iloji bo'lsa bir tomchi suvni ham behuda ketkazmay lotok va shlanglar yordamida ekinning ildizigacha yetkazib berish lozim, degan so'zdir!

Vohid Mirobidov hozir Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish ishlarining targ'ibotchisi bo'lish naqadar katta imtiyozlar keltirishini bilsa ham – u bu to'g'rida kichikroq bir kitobcha ham yozdi – har qalay, bu haqda boshqa olimlarning uzil-kesil fikrini kutish foydadan xoli emasligiga ham aqli yetardi. Shu sababdan hozircha bu masalada o'rtacha bir yo'l tutishga urinar, Haydarjonning dissertatsiyasiga rahbar bo'lishining boisi ham shunda edi. Zotan, Vohid Mirobidovning qalbida kurtak yozib, Haydarning dissertatsiyasiga asos bo'lgan g'oyani ham aslida hayot o'zi ilgari surgan. Haqiqatan, sho'r yerlarni yuvganda zovurlarda yig'iladigan oqova suvdan qayta foydalanish masalasi bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda! Shuning uchun ham Vohid Mirobidov ertaga bo'ladigan marosimdan ko'p narsani kutmoqda, bu marosimda faqat Haydar emas, ishning ilmiy rahbari, ya'ni, uning sha'niga ham ko'p yaxshi gaplar aytilishiga amin. Rost, Haydarning dissertatsiyasi bilan tanishib chiqqan ba'zi olimlar orasida, hatto rasmiy opponentlar orasida ham sal-pal e'tiroz bildirgan ayrim kishilar bor, xususan, ilmiy ishning xulosasiga nisbatan shubha bildirayotganlar yo'q emas. Lekin, birinchidan, Vohid Mirobidov shaxsiy suhbatlarda bu odamlarni o'z fikrlaridan qaytardi, rasmiy opponentlardan Haydarning ishida ilgari surilgan g'oyani yuksak baholovchi taqrizlar oldi. Ikkinchidan, hayot o'zi ko'ndalang qo'ygan bu muhim ilmiy xulosaga qarshi chiqishga jur'at etadigan kaltabinlar topiladigan bo'lsa, Vohid Mirobidov ularni „yanchib“ tashlashga qodir!

Vohid Mirobidov Otaqo'zining o'z tog'asidan qilgan shikoyatlarini eslab, miyig'ida bir kulib qo'ydi.

Bir mahallar Vohid Mirobidov domla Shomurodovni jini suymas edi, endi faqat achinadi. Haqiqatan, hayotda

hech narsaga erisholmagan, turmush o'zi egib, ikki bukib qo'ygan bu takabbur odamga nisbatan adovat nima qilsin unda? Rost, otdan tushsa ham egardan tushmaydigan bu odam uni hamon mensimaydi, hamma unvon va lavozimlarga osongina erishgan bir mansabparast, deb hisoblasa ham ajab emas. Lekin, birinchidan, Normurod Shomurodovning bunday deyishiga o'ttizinchi yillarda sodir bo'lgan ko'ngilsiz bir voqea sababkim, Vohid Mirobidov buning uchun o'zini ayblay olmaydi. O'sha murakkab davr undan shuni talab qilgan, u esa bu talabga bo'ysunishga majbur bo'lgan, tamom-vassalom! Ikkinchidan, fan va ijod sohasida to'pori va iste'dodsiz odamlar o'zlaridan o'zib ketgan, ilmda va ijodda katta muvaffaqiyatlarga erishgan kishilarni nopok va g'irrom deb hisoblashadi, mansabparast deb o'ylashadi. Va shu bilan ovunishadi! Haqiqatan, o'zini o'ta halol, prinsipial olim va adolatparvar inson deb biladigan bu takabbur odamni Vohid Mirobidov qirq yildan ortiq biladi! Shu davr ichida bu odam nimalarga erishdi? Nima kashfiyotlar qildi? Bor-yo'q qilgan ishi – bitta kandidatlik dissertatsiyasini yoqladi. To'g'ri, „professor“ degan nomi ham bor. Lekin bu nomni shunchaki... suv xo'jaligi va pedagogika sohasida qilgan ko'p yillik mehnati hisobiga amal-taqal qilib olib berishgan. Aslida esa, bu, g'o'daygan odam doktorlik dissertatsiyasini ham nihoyasiga yetkaza olmadi. Yigirma yil sudrab yurib, oxiri yoqlay olmay tashlab qo'ydi!.. U esa, shu davr ichida halol ishlab, peshana teri to'kib, doktorlik dissertatsiyasini yozdi va o'z sohasida birinchilardan bo'lib texnika fanlari doktori degan unvon oldi, professor bo'ldi, ko'p yillardan beri ulkan institutning eng muhim, eng katta bo'limlaridan birini boshqarib kelyapti. Bu davr ichida o'nlab kitoblar, shu jumladan, bir necha yirik monografiyalar e'lon qildi. Ayniqsa, Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish muammolariga bag'ishlangan so'nggi kitobchasi ancha shuhrat qozondi.

Vohid Mirobidovning nomi endilikda faqat o'z kasbdoshlari orasidagina emas, umuman, ilmiy jamoatchilik orasida ham ancha mashhur bo'lib qoldi. U-chi? Raqibi Normurod Shomurodov-chi? Yo'q. Vohid Mirobidov uni

hech qachon „raqib“ deb hisoblagan emas. Aksincha, Normurod Shomurodov uni o'ziga „raqib“ deb biladi. Avvalo yoshlikda, Moskvada, VASXNIIL da o'qib yurgan paytlarida, keyinroq esa respublikaga qaytib, Yer Ishlari Xalq Komissarligida birga ishlab yurgan paytlarida raqobatga o'xshash allanmalar bo'lib o'tgan, albatta, lekin yoshlikda, yurakda katta orzular jo'sh urgan mahalda ilm va ijod ahli orasida nimalar bo'lmaydi, nimalar o'tmaydi! Sababi yoshlik, qiziqqonlik, har ishda, har jihatdan birinchi bo'lish istagi bilan sodir bo'lgan bu voqealar Vohid Mirobidovning esidan ham chiqib ketgan. U bu besh kunlik o'tkinchi dunyoda takabburlik ketmasligini, hamma yomon, yolg'iz men yaxshi, yolg'iz men adolatparvarman, deb yashab bo'lmasligini allaqachon tushungan, aksincha, iloji boricha odamlar bilan kelishib, murosa qilib ketavermoq kerakligini allaqachon bilgan. Bilishiga esa... yana shu eski qadrdoni Normurod Shomurodovning hayoti, uning bosib o'tgan yo'li, ilmiy va ijodiy taqdiri sabab bo'lgan! Agar hamma narsada men haqman, men pokman, deb ko'kragiga uradigan, ulkan muammolargina emas, eng mayda, arzimagan masalalarda ham doim prinsipial bo'laman, degan odam katta obro' va katta martabalarga erishsa... mana shu Normurod Shomurodov erishardi! Ammo oqibati nima bo'ldi? Nimaga erishdi u? Rost, har xil majlis va ilmiy konferensiyalarda uni albatta prezidiumga chiqarishadi, hurmat bildirishadi. Lekin Vohid Mirobidov biladi: bu hurmat uning ijodiy yutuqlari, ilmiy kashfiyotlari uchun emas, keksaligi hurmati, eski partiya a'zolari hurmati shunday qilinadi, xolos...

Ha, Vohid Mirobidov so'nggi paytlarda bu odamni o'ylasa, unga achinadigan, rahmi keladigan bo'ldi. Bir mahallar Normurod Shomurodov deganda qoni qaynar, g'ashi kelar, hatto raqobat qilardi. Bu to'g'ri. Endi esa faqat rahmi keldi. Chunki har ishda, har masalada tayoqday to'g'ri bo'laman, degan bu odam faqat ilm-fan sohasidagina emas, hayotda ham juda-juda chaqilib qoldi. Lekin (vo ajabo!) shunda ham aql kirmadi bu odamga. Hayotning bu saboqlaridan o'zi uchun tuzuk bir xulosa chiqara olmadi. Hamon otdan tushsa ham egardan tushmaydi, hamon „tayoq to'g'ri, men

to'g'ri" qabilida yo'l tutadi. Aks holda ahvoli ruhiyatidan xabar olib turadigan bitta-yu bitta jiyani Otaqo'zi bilan uning farzandlarini o'zidan bezdirib yuborarmidi? Nihoyat, agar bu odam turmushning bu saboqlari, bu zarbalaridan jindak ko'zi ochilib, jindak hushyor tortgan bo'lsa... tug'ishgan jiyanining dissertatsiyasini rad qilib o'tirarmidi?

Xo'p, o'z mulohazangni yozib berging kelmasa, yozib berma, lekin loaqal o'qib chiqib, ko'pchilikning oldida bo'lmasayam, aqalli o'ziga ikki og'iz yaxshi gap aytib, yosh olimning ko'nglini ko'tarib qo'ysang o'tirgan taxtingdan tushib qolasanmi, hey, takabbur chol!

Mayli, bir tomondan, uning shunday qilgani ham yaxshi bo'ldi. Otaqo'zi ham, Haydarjon ham bilib qo'yishsin tog'alarining kimligini! Nima bo'lgandayam jigar emasmi, Otaqo'zi bir mahallar Vohid Mirobidovga pand-u nasihatlar qilib, go'yo oradagi nizolarga u aybdorday, tog'asi bilan „yarashtirib“ qo'yishga ko'p uringandi.

Vohid Mirobidov o'shanda ham yo'q demagan: „Men tog'angiz oldida nima gunoh qilganimni bilmayman, biroq mayli, u kishi xo'p desalar, yarashishga tayyorman!“ – deb kulgan edi. Biroq Normurod Shomurodov o'shandayam „yaqinlashishga“ uncha rag'bat bildirmagan edi. Mana, endi yaxshi bo'ldi. Otaqo'zi bilan Haydarjon tog'alarining kimligini yana bir marta bilib qo'yishdi.

Vohid Mirobidovning o'ylarini: „Ha, do'st! O'rgilib ketdim, bo'yginangizdan!“ – degan qiyqiriqlar bo'lib yubordi.

Shiyponda o'yin-kulgi avjiga chiqqan edi. Agar davrada o'z tengdoshlari va ularning rafiqalari bo'lganda Vohid Mirobidov hozir qo'liga dutorni olib eshib chalar, o'ziyam o'ynab, xonimlarniyam davraga tortib, toza qizdirardi o'tirishni! Yor-birodarlari bilan bo'ladigan o'tirishlarda, „yeyiladigan gap“larda Vohid Mirobidov hech qachon mashhur olimman, professorman deb o'tirmaydi, dutor bo'lsa dutor, setor bo'lsa setor, g'ijjak bo'lsa g'ijjak, nima to'g'ri kelsa shuni chalib, g'azallar o'qib, qiziqchilik qilib, barchani xushnud etadi. Shu boisdan, uni hamma yaxshi ko'radi, hurmat hiladi. Shu boisdan, mana, shukur, keksaygan chog'idayam yomon bo'lmadi. Faqat ilm sohasida emas, hayotda,


turmushda ham yomon bo'lmadi. Shukur, o'g'il-qizlarining hammasi odam bo'lib, o'z yo'llarini topib ketishdi. Biri ota kasbini quvgan olim, biri injener, kenja qizi Mahbuba esa mana, raykom kotibida, o'zi shifokor... Hovli to'la nevara.

Ha, Vohid Mirobidov hayotdan mamnun bo'lsa arziydi. Bir bandayi mo'minning baxti shunchalik bo'lar, shukur qilmoq kerak.

Boya Otaqo'zining uyida ichilgan bir-ikki rumka konyakning kuchimi yo hovlidagi kutilmagan bazm-u jamshid sababmi, Vohid Mirobidov, qancha urinmasin, ishga qo'li bormadi. U katta olimlarga munosib did va salobat bilan bezatilgan keng, bahavo xonasida vazmin odimlab yana uzoq yurdi. Axiri bugun ishlay olmasligiga, yuragini chulg'ab olgan allaqanday sababsiz g'ulu uni stolga o'tqazmasligiga ko'zi yetdi-yu, tikka turgan holda ertaga gapiradigan gaplarini uchtagina qism qilib bloknotiga yozib qo'ydi. Yozarkan, xayolidan to'satdan: „U kishi-chi, eski qadrdonim Normurod Shomurodov hazratlari-chi? Ertaga tashrif buyurarmikanlar, yo'qmi? – degan xayol ko'nglidan o'tdi. – Basharti kelsa-chi, kelib, tarki odat – amri mahol, eski odatini qilsa-chi, mashhur prinsipiialligini ko'rsatsa-chi?“

Vohid Mirobidov bloknotiga nuqta qo'yib, qaddini rostladi.

„Mayli, kelsin! Gapirsin! Unga qolsa, qarshi gapirsin! Jiyanlari oldida o'zi sharmandayi sharmisor bo'ladi!“



Otaqo'zi himoya marosimini umrida birinchi marta ko'rayotgani yo'q. Lekin bu safar o'z o'g'li yoqlayotgani uchunmi, institut binosiga qadam qo'yarkan, negadir yuragi bir hapriqib qo'ydi.

Otaqo'zi o'z mashinasida qizi bilan bo'lg'usi kelini Latofatni olib keldi. Qizlar yo'lda bozorga kirib, quchoqqa sig'maydigan ikki guldasta olishdi. Ikkovi ham yosh, go'zal, ikkovi ham bir xil tufli, bir xil atlas ko'ylakda, qo'llarida quchoq-quchoq guldasta, institut binosi oldida mashinadan tushayotganda, hammaning e'tibori ularga tushib, ko'plar beixtiyor chekinishib yo'l berishdi.

Yoqlash marosimi bo'ladigan zal ancha katta, yorug', muhtasham edi. Egniga oq ko'ylak va yangi qora kastum-shim kiyib, guldor galstuk taqib olgan Haydar Qodirjon yordamida sahnaga murakkab formulalar, uncha-muncha odamning tishi o'tmaydigan raqamlarga to'la qandaydir diagrammalar, suratlarni osishmoqda edi. Qodirjon qizlar qurshovida zalga kirgan qaynatasini ko'rib, qo'lini silkitib tabrikladi, Haydar esa bosh irg'ab, kulimsirab qo'ya qoldi.

Qubbasimon keng derazalari institut hovlisiga qaragan katta zalda hali odam siyrak, Otaqo'zi Qodirjonning taklifi bilan o'ng tomonga o'tib, derazaga yaqinroq joyga o'tirdi. Institutning serdaraxt hovlisiga suv taqsimlovchi qandaydir to'g'on va to'g'onchalar qurilgan, to'g'on atrofida katta-kichik qum uyumlari, qandaydir uskunalar, mashinalar, temir-tersaklar qalashib yotar, nariroqda esa buldozer va skreperlar, Otaqo'zi umrida ko'rmagan antiqa mashinalar qatorlashib turardi.

„Institut emas, butun bir zavod-ku, bu!“ – xayolida dedi Otaqo'zi, dedi-yu, yuragiga quyilib kelgan qaynoq tuyg'u vujudini jimirlatib yubordi. Mana, uning farzandi, to'ng'ich o'g'li shunday katta ilm dargohida fan sirlarini o'rgandi, endilikda fan kandidati bo'lyapti, kelajakda o'zbek xalqi faxrlansa arziydigan bir olim bo'lib ketishiyam hech gap emas!

Otaqo'zi birdan ko'ngli ravshan tortib, zalga yopirilib kira boshlagan odamlarga, ilmga daxldorligi tepakal boshlaridan, ko'zoynaklaridan, kiyimlarining pala-partishligidan bilinib turgan institut xodimlariga qirg'iyqarash qilib bir qarab qo'ydi, yuragini to'ldirgan shu iftixor tuyg'usi bilan qizi va keliniga ham zimdan razm soldi.

Qizi Tohira nimadandir behad shod, oyisining yuziday uzunchoq, yoqimtoy yuzi lov-lov yonib, yelkasiga tushgan tim qora sochlarini tez-tez to'g'rilab, atrofiga betinim alanglar, go'yo akasining taqdiri hal bo'ladigan jiddiy marosimga emas, teatrga, yangi qo'yilayotgan pyesaning premýerasiga tushganday, ko'zlari charaqlab, hammaga kulib boqardi.

Bo'lg'usi kelini Latofat esa, uning tamom aksi, tirnoqlariga xina qo'yilgan oppoq, nozik qo'llarini tizzasidagi guldastaga horg'in tashlab, katta-katta ma'yus ko'zlarini bog'ga tikib, o'yga tolgan, o'ylari ham ko'zlariday g'amgin, go'yo u bu yerga bo'lg'usi hayot yo'ldoshining quvonchiga sherik bo'lish uchun emas, o'zi istamagan bir marosimga majbur bo'lib kelgan, go'yo kelishni tilamagan-u, birovlar qistab, sudrab olib kelishgan...

„Nimaga motam tutib o'tiribdi bu!“ – Otaqo'zining ko'ksida yomon bir narsa g'imirladi-yu, o'zini bosdi: bu qizning – bo'lg'usi kelinining bor-yo'g'i o'zi shu! Sira chehrasi yorishmaydi. Otaqo'zi o'ziyam hayron – o'g'lining baxti ochiladimi bu motamsaro qiz bilan, yo'qmi?.. O'g'liga, qo'ya qol shuni, deb aytay desa, yoshlik ekan, husn-malo-hatiga qiziqib...

Otaqo'zining xayolini qizining:

– Jamol aka! Jamol Bo'riboyev keldilar, dada! – degan ovozi bo'lib yubordi.

Jamol Bo'riboyev, o'ziga o'xshagan uch-to'rtta salobatli sheriklari qurshovida, yo'lakdan vazmin odimlab, ularga yaqinlashib kelardi.

Otaqo'zi o'rnidan turaman deguncha bo'lmadi, Jamol Bo'riboyev yetib kelib, qo'lini uzatdi.

– E-e, rais akamlar ham keptilar-da! Qoyil, qoyil!

Sochlarining oqligi va sal to'lisha boshlagani bo'lmasa burungiday basavlat, oppoq yuzlari sip-silliq, burungiday xushnud, burungiday bekam-u ko'st kiyingan Bo'riboyev avval Otaqo'zi bilan, so'ngra qizlar bilan qo'l berib ko'rishdi. Latofat bilan ko'risharkan:

– Yaxshimisan, qizim, – deb qo'ydi.

Latofat o'rnidan turib salomlasharkan, duv qizarib ketdi. Lekin Otaqo'zi payqadi – uning qizarishi uyalganidan emas, o'zini qandaydir noqulay sezganidan edi.

Jamol Bo'riboyev, sobiq bo'lsa ham vazir o'rinbosari degan nomi bor emasmi, rais bilan ko'rishib bo'lmagan ham edi-ki, sahnada ivirsib yurgan novcha, ko'zoynakli odam zalga sakrab tushib, beso'naqay lapanglab yugurib keldi-da:

– Qani, marhamat, oldinga o'tsinlar, o'rtoq Bo'riboyev, oldinga, – deb mulozamat ko'rsatdi. – E-e, siz ham sho'tta-misiz, rais aka?.. Qani, marhamat qilsinlar, marhamat!

Notanish odamning lapanglab kelib, „yuqoriga“ taklif qilishi xush yoqib tushsa ham Otaqo'zi Jamol Bo'riboyevga qo'shilmay, joyida qoldi. Bir hisobdan unga qo'shilmagani ham yaxshi bo'lgan ekan, sal o'tmay, zalda yana shivir-shivir boshlandi-da, institut direktori Artyom Proxorovich Polikarpov boshliq ilmiy kengash a'zolari kirib kelishdi, kirib kelishdi-yu, yo'lakdan o'tayotib, yana Otaqo'zining yonida to'xtashdi.

Otaqo'zi Polikarpovni yoshligidan yaxshi tanir, u kolxozga chegaradosh o'rmon xo'jaligining qorovuli, bir qulog'i yo'q bo'lgani uchun ismi „Proxor chinoq“ bo'lib ketgan, o'zbek yurtiga inqilobdan oldin kelib qolgan g'alati odamning o'g'li edi. Bir necha yildan beri institut direktori bo'lib ishlayotgan Artyom Polikarpovning bolaligi va yoshligi hozir Otaqo'zi boshqarayotgan kolxoz tuprog'ida sersuv, serbuloq, serdaraxt, go'zal qishloqda o'tgan, u ham Otaqo'zini yaxshi tanir edi. Lekin gap tanishlikda emas, gap uning hozir, shu topda, ilm ahliga to'lgan shu zalda ko'rsatgan o'zgacha iltifotida edi.

O'ta jiddiy, o'ta salobatli, chehralarida qandaydir tantanali ifoda bilan kirib kelgan ilmiy kengash a'zolari orasida novcha bo'y-basti, yoshligi va hatto ust-boshining oddiyligi bilan ham ajralib turgan Polikarpov Otaqo'zi bilan eski qadrdonlarday quyuq so'rashdi.

Direktorning muomalasini ko'rgan boshqa ilmiy kengash a'zolari ham qovoqlari ochilib, kulimsirashib, hatto bir-ikkitasi: „E, rais keptilar, ziyofat quyuq bo'lar ekan-da“ – deb hazillashib ham qo'yishdi, kechagidan ham yaxshi kiyingan, allaqanday yosharib ketgan Vohid Mirobidov esa qip-qizil, yumaloq yuzi go'yo tilladan jilo berilganday yal-tillab: „Hammasi joyida, xotirjam bo'ling!“ – degan ma'no-da ko'zini bir qisib qo'ydi.

Otaqo'zi institut direktorining qistashlariga qaramasdan, oldinga o'tmadi, lekin uning e'tibor va iltifotidan keyin ko'nglidagi jindakkina g'ulu ham tarqab, olam ko'ziga yana ham yorug'roq ko'rinib ketdi.

Himoya boshlandi. Boya sahnada ivirsib yurgan ko'zoy-nakli odam ilmiy kotib ekan, birinchi bo'lib so'zga chiqdi. Avtoreferat kimlarga va qaysi ilmiy muassasalarga yuborilgan, kimdan va qaysi tashkilotlardan qanday taqriz va yozma mulohazalar olingan – shu haqda yurakni xun qiluvchi bir ezmalik bilan uzoq ming'irlab gapirdi, shunday uzoq va shunday ming'irlab gapirdiki, u minbardan tushib, ilmiy kengash raisi Polikarpov Haydarga so'z berganida yolg'iz Otaqo'zi emas, butun zal yengil tortganday bo'ldi. Kun is-siq bo'lishiga qaramasdan egniga qora kastum-shim kiygan Haydar, qo'lida uzun tayoq, xuddi muhim ilmiy ish emas, shunchaki bir leksiya o'qiydiganday, yengil va ishonchli odimlar bilan minbarga chiqdi. Biroq hali so'z boshlamagan ham ediki, Polikarpov o'rnidan turib:

– Normurod Shomurodovich! – deb chaqirdi.

Hamma, hamma qatori Otaqo'zi ham baravar orqaga o'girilib qaradi. Zalning etagida ko'tarilgan shov-shuv orasidan sal xirildoq tanish ovoz eshitildi:

– Rahmat, rahmat! Davom etavering, etavering...

– Yo'q-yo'q! – dedi institut direktori. – Bu yoqqa o'ting. Marhamat! Iltimos qilaman, Normurod Shomurodovich!

Domla Shomurodov, egnida yo'l-yo'l oq ko'ylak va qopday osilib turgan eskiroq shim, baland qaddi sal bukchayib, xijolatdan tomoq qira-qira yo'lakdan sahnaga qarab o'tdi. U Otaqo'zining yonginasidan o'tdi, lekin jiyanini ko'rmadi shekilli, qayrilib qaramadi. Uning chakkalari siyrak oq tuk bilan qoplangan xumday katta boshi, chiroyli do'ng peshanasi „shig'-shig'“ terlagan, chehrasi horg'in, ko'zlari xuddi bir oy uxlamagan odamning ko'zlariday kirtayib qolgandi.

„Cholga nima bo'ldi?“ xayolida dedi Otaqo'zi. Institut direktorining muomalasidan keyin tamom tinchigan ko'ngliga to'satdan noaniq bir g'ulg'ula tushdi. Gapi uzilgan Haydar yana gapga kirishdi. Lekin Otaqo'zining nazari-da, uning ovozida asabiy ohanglar, ko'ngilni g'ash qiluvchi qandaydir bir taraddud paydo bo'lganday tuyuldi.

Institut direktorining yonidan joy olgan Normurod Shomurodov katta, yalpoq kaftlarini ko'k movut yopilgan stolga tashlab, serajin qovoqlari orasida miltirab turgan

horg'in ko'zlarini zalga tikdi. Chol chindan ham bo'shashgan, rangi sarg'aygan, yalpoq yuzida qoyaday qo'nqaygan katta burni battar qo'nqayib qolgan. Zaldagi odamlarga horg'in tikilarkan, u to'satdan, xuddi mudhish bir narsani ko'rib qolgan odamday xiyol oldinga egildi-yu, kirtaygan ko'zlari charaqlab ketdi. Buni sezgan Otaqo'zining yuragi bir sapchib tushdi – tog'asi Jamol Bo'riboevni ko'rib qolgandi!

Domla Shomurodov bir zum, bir daqiqa Jamol Bo'riboev o'tirgan joyga tikanday qadalib qoldi, so'ng o'zini stulning suyanchig'iga tashlab, ko'zini yumdi.

Yo rab! Tog'asi Jamol Bo'riboevni ko'rganda shunday qilsa, keyinchalik, Otaqo'zining u bilan qarshi quda bo'lga-nini eshitganda nima qilarkin?

Otaqo'zining ko'z oldiga kampirning kulchadekkina yum-yumaloq yuzi keldi, quloqlari ostida muloyim va siniq ovozi yangraganday bo'ldi:

„Tog'angiz bechora nima ham derdi? Sal ko'ngli o'ksiydi demasangiz, nima ham qilardi tog'angiz?“

Zalda to'satdan g'ovur-g'uvur bo'lib, orqada bir necha odam o'rnilaridan turib ketdi. Otaqo'zi shundagina Haydarning gapi tugaganini bildi. U hayron bo'lib qoldi: nazarida, himoya degan narsa bunaqa oppa-oston bo'lmasligi kerak, bu ish qandaydir boshqacharoq, salobatliroq, ulug'vorroq bo'lishi kerak edi. Hozir esa... nazarida, o'g'li ilm ahlini qoyil qoldiradigan katta bir masalani ko'tarib chiqolmaganday, hatto bundoq bir yolchib-yozilib gapirolmaganday tuyuldi.

Institut direktori o'rnidan turib, dissertantga savollar bormi, yo'qmi, deb so'radi. Bir lahza davom etgan shivir-shivirdan keyin ilmiy kengash a'zolaridan bir nechta savollar tushdi. Savollarning ba'zilariga tushunsa bo'lar, ular yerning sho'rini yuvish uslublari, tik zovur bilan go-rizontal zovurlarning mohiyatiga oid edi. Ba'zilarini esa tushunish mushkul, ular matematik formulalarga bog'liq edi.

Har safar savol tushganda Otaqo'zi tizzasida qizining issiq kaftini sezar, Tohira xuddi hozir yomon bir narsa ro'y beradiganday, otasining pinjiga kirib olardi. Bu tuyg'u

Otaqo'ziga ham o'tgandi, hatto loqaydgina o'tirgan Latofat ham butun vujudi bilan oldinga talpinib, stulning suyanchig'ini mahkam changallab olgandi.

Otaqo'zi o'g'lidan mamnun edi. Haydar hamma savollarga yaxshi javob berdi. U, aftidan, boyagi taraddud va ishonchsizlikdan qutulgan, ovozi vazmin yangrar, o'ziyam allaqanday dadillashgan, xatti-harakatlarida otasiga xos bir qat'iyat va o'ktamlik paydo bo'lgandi.

Otaqo'zi o'g'lining ilhom va hayajondan qizarib ketgan xushbichim qoramtir yuziga, kelishgan bo'y-bastiga tiki-lib, tiniq yangragan ovoziga quloq solib o'tirarkan, yuragini yana boyagi iftixor hissi chulg'ab oldi.

Ha, uning farzandlari yomon bo'lmadi. Yetimlikda o'sgan, otasi frontda halok bo'lib ketgan Otaqo'zi tirishib-tirmashib yurib o'ziyam odam bo'ldi, farzandlarini ham odam qildi. Mana, o'g'li, pushti kamaridan bo'lgan to'ng'ich farzandi shunday zalda, dunyoga dong'i ketgan mashhur allomalar davrasida katta ilmiy ishni yoqlayapti, qo'lida uzun tayoq, goh minbarga chiqib, goh devorga osilgan diagrammalarga murojaat qilib, uncha-muncha odamning aqli yetmaydigan murakkab formula va raqamlarni pista chaqqanday chaqib, ilhom bilan yonib gapiryapti! Bir mar-ta ham gapidan chalg'imadi, bir joyda ham qoqilmadi. Bal-li, o'g'lim! Bergan tuz-nonimdan roziman!

Otaqo'zi nogahon ko'ziga yosh kelganini sezib ichida bir kulimsirab qo'ydi. Xayoliga negadir „Attang, onasiniyam opkelsam bo'larkan-da! Onasi bechorayam ko'rgan-da-ku!“ – degan fikr keldi.

Savol-javob tugab, Haydar yuzidagi marjon-marjon ter-larini artib, qarsaklar ostida pastga, Jamol Bo'riboyev bilan Qodirjon o'tirgan joyga tushib o'tirdi.

„Yasha, o'g'lim, tog'amni ham boplading! Indamasdan boplading!“

Haydardan keyin so'z uning ilmiy rahbari Vohid Mirobi-dovga tegdi.

Otaqo'zi bu shirinsuxan, xushchaqchaq odam bilan ilk bor tanishgandayoq u ham o'ziga o'xshagan „tanti yigit“ ekaniga amin bo'lsa ham tog'asining ta'sirida bo'lsa kerak,

ko'nglining bir chetida uni yengiltakroq, quruqroq bir olim deb o'ylardi. Vohid Mirobidovning, odatda, ilm-fan to'g'risida kam gapirib, o'yin-kulgi, dilkashlik, maishat to'g'risida o'ylashlari, ziyofat va o'tirishlarda g'azal o'qib, dutorni eshib chalishlari, olimlik salobatini yig'ishtirib qo'yib, raqsga tushib ketaverishlari, ilmiy muammolardan ko'ra har xil tesha tegmagan latifalarga zo'r berishlari ham Otaqo'zining shu qarorga kelishiga sabab bo'lgandi.

Bugun Otaqo'zi birinchi marta uning faqat xushchaq-chaq, oqko'ngil bir insongina emas, ayni zamonda katta olim va zo'r notiq ekaniga ham iqror bo'ldi.

Bachkanalashmagan holda, juda sipo, yoshlarday bekam-u ko'st kiyinib, olimlik salobatiga salobat qo'shgan Vohid Mirobidov, ko'zida oltin bandli ko'zoynak, minbarga vazmin odimlab chiqqanida va nihoyatda bosiq ovozda gap boshlaganida, Otaqo'zining hamma shubhalari to'zib, hurmati yana ham oshib ketdi.

Vohid Mirobidov fan doktoriga xos teranlik bilan gapni uzoqdan boshladi. U avvalambor, O'rta Osiyo uchun eng muhim muammo bo'lgan suv muammosiga to'xtaldi, to'xtalganda ham bu muammoning uzoq tarixiga, hayotda ko'p fojialar tug'dirgan o'tmishiga bir nazar tashladi. So'ngra bu muammoning sovet davrida qanday hal etilgani va hozir qanday hal bo'layotganini yoritib berdi. Professor Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish masalalarini ham e'tibordan chetda qoldirmadi. U bu masalaning butun murakkabligi, ko'lam va mohiyatini ildiz-ildizigacha ochib berdiki, olim shu haqda gapirayotganda butun zal suv quyganday jimjit bo'lib qoldi.

Otaqo'zining o'ziyam, garchi o'g'li orqali bu ishlardan ozmi-ko'pmi xabardor bo'lsa ham, domlaning nutqini maroq bilan tingladi. Chunki, birinchidan, bu muammoning qiyinligini tasavvur etsa ham uning butun murakkabligini, bu masala ilm ahli orasida juda katta va qizg'in munozaralarga sabab bo'layotganini yaxshi bilmas edi. Eng muhimi, endilikda suv muammosi yildan yilga og'irlashib borishini va bora-bora eng chigal masalalardan biriga aylanib qolishini bu qadar aniq tasavvur etmas edi.

Xullas, Vohid Mirobidov suv tanqisligiga bog'liq qiyinchiliklarni ro'yirost ko'rsatib berganidan keyingina shogirdining dissertatsiyasiga va yosh olim ishining mohiyatiga o'tdi.

Otaqo'zi ham shundagina Vohid Mirobidovning maqsadiga tushundi. Uning otashin nutqidan keyin Haydarning ishi xuddi yuzidan changi artilgan nodir buyumday yarqirab ketdi.

Otaqo'zi bir mahallar o'g'liga: „Xo'sh, mirob, ishlar qalay? – deb hazillashar edi. – Besh yil o'qib mirob bo'lasanlarmi, a? Ota-bobolarimiz bir kun o'qimasdanoq gazcho'p bilan suv taqsimlab, miroblikning uddasidan chiqishardi. Senlarni besh yil umrlaring ketadimi, a? Qoyil-e! Qoyil!“– derdi.

Otaqo'zi, garchi bu gaplarni hazillashib aytsa ham, garchi katta suv omborlari-yu, to'g'onlarni o'g'li Haydarga o'xshagan injenerlar qurishini bilsa ham, bu sohada ishlaydigan olimlarni xiyol mensimas, ko'nglining bir chetida „shu ham ilm bo'ldi-yu“, degan fikr yurardi. Endi bilsa...

Hammomdan chiqqanday qizarib ketgan, lekin xushchaqchaq, mamnun Vohid Mirobidov minbardan tushib joyiga borib o'tirdi. O'tirishi bilan bir necha kishi – Otaqo'zi buni kuzatib o'tirardi – sekin uning qo'lini qisib, tabriklab qo'yishdi. Yolg'iz tog'asi Normurod Shomurodov ilgarigiday bukchayib, kirtaygan ko'zlarini zalga qadab o'tirar, eski raqibining muvaffaqiyati unga yoqdimi, yo'qmi, buni bilib bo'lmas, u go'yo zaldagi odamlarni ko'rmas, qandaydir o'z tashvishi, o'z g'ami bilan band bir musofirga o'xshardi.

Vohid Mirobidovdan keyin so'z rasmiy opponentlarga tegdi. Lekin Otaqo'zi endi xotirjam edi. Haqiqatan, kecha Vohid Mirobidov aytganidek, har ikkala rasmiy opponent ham Haydarni yaxshigina qo'llab-quvvatlab, faqat ilmiy ishi emas, o'zi to'g'risida ham, iste'dodi to'g'risida ham ancha iliq gapirishdi. Rost, ikkinchi opponent gapirayotganda Tohira yana dadasining pinjiga kirib oldi, chunki bu paka-na, zahil, aftidan, turmushdan norozi odam, biroz tanqid ham qildi, ayniqsa, sho'r yerlarni yuvganda to'planadigan oqova suvlarni qayta ishlatish masalasida birmuncha e'ti-

rozlar bildirdi, lekin umumiy xulosasi yomon bo'lmadi. Nihoyat, juda uzoq tuyulgan bu og'ir damlar ham intihosi-ga yetib, Tohira otasining pinjidan chiqdi, Otaqo'zi esa „uf“ deb, yengil nafas oldi.

Rasmiy opponentlarning chiqishidan keyin: „Gapirishni istovchilar bormi?“ – degan savolga yana bir necha qo'l bavarar ko'tarildi. Biroq Otaqo'zi bundan cho'chimadi. U o'z hayotiy tajribasidan bilar, tanqid qilishni istovchilarning qo'li bunchalik tez ko'tarilmas, balki ancha ikkilanishlardan keyin jur'atsizgina ko'tarilardi.

Haqiqatan qo'l ko'targan notiqalar Haydar to'g'risida ham, yosh olimga yaxshi g'amxo'rlik qilgan Vohid Mirobidov to'g'risida ham, ayni ko'ngildagi gaplarni gapirishdi.

Ilmiy kengash boshlanganiga salkam ikki soat bo'ldi. Zal isib ketib, odamlar betoqat bo'la boshladi. Uchinchi notiq gapirib bo'lib, Polikarpov, yana kim gapiradi, deganda, har joy-har joydan: „Yetarli, bo'ldi! Munozara to'xtatilsin!“ – degan xitoblar eshitildi.

Ammo xuddi shu payt, hamma gap, hamma maqtovlar me'yoriga yetgan bir mahalda xayolga cho'mib o'tirgan Normurod Shomurodov to'satdan bir narsa esiga tushgan odamday oldinga talpinib, shosha-pisha qo'lini ko'tardi.

Zalda norozi shov-shuv ko'tarildi. Boshqa vaqt va boshqa odam bo'lganda-ku, bu norozilik e'tiborga olinardi. Lekin domlani hurmat qilgan Polikarpov zalga qaramay:

– Gapirmoqchi bo'lsangiz – marhamat! – dedi cholgayuzlanib.

– Yo'q, yo'q, men gapirmoqchi emasman. Men faqat... birgina savolim bor... – Normurod Shomurodov gapirishga gapirib qo'yib, endi pushaymon chekayotgan odamday, ikkilanib o'rnidan turdi. – Mening savolim dissertantga emas, uning rahbariga, hurmatli professor Vohid Mirobidovga... – domla Shomurodov hamon dovdirar, xuddi Otaqo'zining ko'ziga ko'zi tushishdan qo'rqqanday, zalga qaramas edi. – Demoqchimanki, dissertantning ishi yomon emas. Yosh olim, unga yordam bermoq kerak. Qo'llab-quvvatlamok kerak, albatta. Lekin mening bitta savolim bor. Muhtaram olimimiz Vohid Mirobidovga...

– Marhamat, marhamat, – dedi institut direktori, go‘yo unga dalda bermochi bo‘lganday.

– Ilmiy ishning asosiy xulosalaridan biri oqova suvlardan qayta foydalanish muammolariga bag‘ishlangan, ya‘ni bu suvlar... mineral tuzlar miqdori besh foizga chiqquncha... ularni ishlatish mumkin, degan yakun yasalgan. Shunaqami?

Vohid Mirobidovning og‘zi oftob chiqqanday yarq etdi.

– Shunaqa.

– Bu suv, ya‘ni besh foizgacha mineral tuzlari bo‘lgan bu oqova suvlar yerga qanday ta‘sir etarkin? Demoqchimanki, yerning sho‘rini battar oshirib yubormasmikin? Masala shundaki... bu yerda keltirilgan diagrammalar sal noaniq, mavhumroq emasmikin? Demoqchimanki...

Domla Shomurodov bir zum gap topolmay duduqlanib qoldi, so‘ng go‘yo birovdan najot tilaganday javdiragan ko‘zlari bilan zalga qaradi, qaradi-yu, nigohi Otaqo‘zining nigohiga tushdi. Otaqo‘zi nimadandir seskanib, ko‘zini olib qochdi. Shu payt orqadan kimningdir: „Choli tushmagur-ey, ja nozik joyidan oldi-ku!“ – deb qiqirlab kulgani eshitildi.

– Demoqchimanki, bu fikr tajribada, amalda puxta sinalganmi?

– Sinab ko‘rilgani, qachon, qayerda tajribadan o‘tgani dissertantning ishida aniq aytilgan-ku, Normurod Shomurodovich?

– Ha-ha, aytilgan, aytilgan! – dedi Normurod Shomurodov xuddi Mirobidovning gapidan qo‘rqib ketganday. – Ammo dissertant yosh, ya‘ni, turmush tajribasi oz. Siz bo‘lsa... tajribali odam, fan doktori...

– Boshqacha qilib aytganda, siz yosh olim o‘tkazgan tajribalarga, umuman, uning ilmiy ishiga shubha bildirmoqchisiz? – Vohid Mirobidovning ovozi favhulodda tahdid bilan yangradi. Lekin qiziq. Bu tahdid Normurod otaga boshqacha ta‘sir etdi. U to‘satdan ikki bukilgan suyakdor qaddini rostlab, katta, yaltiroq boshini keskin burib qaradi, chuqur botgan horg‘in ko‘zlari qahr bilan olayib:

– Gap shubhada emas! – dedi. – Xalqimizda yetti o‘lchab bir

kes, degan gap bor! Xuddi shu muammo, masalan, Amerika ham bor. Ammo ularda shunday qonun mavjudkim, suvdagi mineral tuzlar miqdori bir foizdan oshsa... bu suv ishlatilmasligi lozim!..

– Mumkinmi, Artyom Proxorovich? – Vohid Mirobidov shitob bilan o'rnidan turdi. Polikarpov Normurod otaga yuzlandi.

– Siz gapirib bo'ldingizmi, Normurod Shomurodovich?

– Ha, ha, bo'ldim, bo'ldim... – dedi domla Shomurodov, keyin boshini sarak-sarak qilib, joyiga o'tirdi.

Vohid Mirobidov polni g'arch-g'urch bosib minbarga chiqdi, ikki qo'llab uzoqdan deyarli tuksiz ko'ringan, aslida siyrak qo'ng'ir sochli yumaloq boshini silab qo'ydi.

G'ala-g'ovur tinib, zal yana boyagiday – suv quyganday jimib qoldi. Otaqo'zi kaftida qizining issiq, titroq kaftini sezib, uni ohista siladi. U hozir tog'asiga ham, unga zarba berishga hozirlangan va, aftidan, zarba berishga qodir bo'lgan Vohid Mirobidovga ham qaramas, ikki ko'zi boshi osilib, to'satdan allaqanday cho'kib qolgan o'g'lida edi. Miyasida esa yolg'iz bir gap, alamli bir fikr aylanar edi: „O, tog'ajon, tog'ajon! Rahmat sizga! Ming rahmat!“

– Albatta!.. – Vohid Mirobidov hayajonini bosish uchun minbarda turgan stakandan bir ho'plam suv ichdi. – Albatta, hurmatli Normurod Shomurodovichning savoliga dissertant o'zi javob berishi lozim edi. Lekin, modomiki, otaxon olimimizning savoli kaminaga qaratilgan ekan, javob berishga harakat qilaman... Aslini olganda, kimki bu savolga qiziqsa, dissertatsiyadan to'la javob olishi mumkin. Hech qanday shubhaga o'rin qolmaydigan darajada to'la javob olishi mumkin. Endi Amerika masalasiga kelsak... Men hayronman. Nega endi biz G'arbga qarab ish tutar ekanmiz? Qachondan beri G'arb biz uchun namuna bo'lib qoldi?..

„Yashang domla. Bopladiniz!“ – Otaqo'zi yalt etib prezidiumda o'tirgan tog'asiga qaradi-yu, unga rahmi kelib ketdi. Normurod Shomurodov allaqanday pitirlab, yana bukchayib, ko'zlari javdirab qolgandi. Lekin xuddi shu mahal orqadan kimningdir zaharli kinoyasi eshitildi:


– Ilmni siyosatga aylantiryaptilar! Qoyil!.. Hi-hi...

Otaqo'zi xuddi birov biqiniga bigiz sanchganday, butun gavdasi bilan o'girilib qaradi. U bilan baravar Latofat ham qayrilib qaradi. Ikki odam birdan burilib qaragani uchunmi yo Otaqo'zining vajohati qo'rqqulik edimi, hihilab kulgan yosh yigitcha o'tirgan joyida serrayib qoldi.

– Peshanangizga yozib qo'ying, uka! Ilm bilan siyosatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi! Tushundingizmi, og'ayni, – azbaroyi alangayi otash bo'lib ketgan Otaqo'zi o'tirgan stulini sharaq-shuruq qilib o'rnidan turdi. U shaytonga hay bermay bekor qilganini bu harakati bilan hamma-ning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilayotganini o'rnidan turib bo'lganidan keyingina tushundi. Lekin qayta joyiga o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi-yu, tikilib qolgan o'nlarча nigohlar ostida polni g'arch-g'urch bosib, eshikka tomon yo'naldi. U eshikka yaqinlashib qolganda, Vohid Mirobidovning bir zum uzilgan ovozi yana boyagi tahdid va salobat bilan yangradi:

– Biz faqat siyosat bobidagina emas, ilm bobida ham keskin farq qilamiz! Bizning iqtisodimiz ham, ilmiy izlanishlarimiz ham tamom boshqa prinsiplar asosida qurilgankim, professor Normurod Shomurodov buni bilmog'i lozim edi...

Otaqo'zi zaldan chiqaverishda to'xtab, domlaning gapi- ni eshitgisi keldi, biroq yuzlarcha ko'zlar uni hamon ta'qib qilayotganini payqadi-yu, yana to'xtashni o'ziga ep ko'rma- di. Eshikkacha shitob bilan yurib borgan odam uni shiddat bilan ochib, ko'chaga chiqib ketdi.



Yo'q, Normurod Shomurodov savol berish u yoqda tur- sin, hatto bu anjumanga bormoqchi ham emas edi. Lekin, birlamchi, Gulsara aya yig'lab qo'ymadi, ikkilamchi, bir shaharda, bir institutda bo'layotgan jiyanining himoyasiga bormaslik, nima bo'lgandayam quyushqonga sig'mas edi.

Normurod Shomurodov kechasi bilan o'ylab, oxiri ilmiy kengash majlisiga borishga qaror qildi. U yashirin ovoz ber-

ganida Haydarni qo'llab-quvvatlashga, lekin gapirmaslikka, og'ziga tolqon solib, tek o'tirishga jazm qildi. Shu qat'iy qaror bilan uydan chiqdi, chiqdi-yu...

U nega shunday qilganini, qanday qilib qo'l ko'targanini, sira o'ylamagan bir mahalda bu savol og'zidan qanday chiqib ketganini o'ziyam bilmay qoldi. Avvalambor, bu betamiz odamning, Xudo miya o'rniga suyaksiz til, ilm o'rniga gap bergan bulbuligo'ning balandparvoz gaplari, aravani quruq olib qochishlari g'ashiga tegdi. Qolaversa... bu mo'rt xulosa!..

Normurod ota, garchi bu ishga o'zi qo'l urmagan bo'lsa ham, dehqonchilikdan voqif odam, sho'r suv yerni battar sho'rlantirishini yaxshi biladi. Albatta, yildan yilga suv tanqisligi ortib borayotgan bir mahalda zovurlarga yig'ilgan sho'r suvlarni qayta ishlatish, ehtimol, kerak bo'lar. Ammo tuzlar miqdori besh foizga yetgan suvlarni ishlatib bo'ladi deyish! Sinovdan o'tgan dalillar o'rniga bu pala-partish diagrammani keltirish!.. Yo'q, bunga e'tiroz bildirmay iloji yo'q edi! Haydarjon-ku, yosh. U, shoshgan, o'tkazgan tajribalarini chuqurroq tekshirib ko'rmagan bo'lishi ham mumkin. Lekin Mirobidov-chi!.. Mirobidov esa... bu ish hozir unga katta obro' keltirishini, ba'zi xo'jalik rahbarlari va shoshma-shoshar jurnalistlar bu g'oya uchun uni ko'klarga ko'tarib maqtashlarini biladi. Juda yaxshi biladi. Shu boisdan bu ishni ulug' kashfiyot sifatida targ'ib qilyapti, shaxsan o'zi targ'ib qilyapti. O'zi shov-shuv ko'taryapti. Bu ulug' kashfiyotning oqibati nima bo'ladi, tabiatga, aziz tuproqqa, ona-yerga zarar yetkazmasmikin? Bu gap xayoliga ham kirib chiqmaydi! Unga shu bugungi maqtov, shu bugungi izzat-ikrom kerak. Tamom- vassalom!

Topgan gapini qarang ablahning! Qachondan beri Amerika biz uchun namuna bo'lib qoldi emish! Normurod Shomurodov ham Amerikani namuna qilib ko'rsatayotgani yo'q! Ko'rsatmaydi ham! U faqat yaqinda rus tiliga tarjima qililib, chop etilgan bir kitobda o'qigan gapni o'rta tashladi, xolos!..

Zotan, sut bilan kirgan – jon bilan chiqadi, deganlaridek, o'z raqiblari pand berish odatini go'rga kirganida ham qo'ymaydi shekilli bu Mirobidov! U Sibir daryola-

ri muammosi ko'tarilganida ham bir marta oyog'idan olib ko'rgandi: go'yo u, Normurod Shomurodov, bu ulug' g'oyaga uncha ro'yixushlik bildirmagan, go'yo unga shubha bilan qaraganmish! Holbuki, Normurod Shomurodov bu fikrga hech qachon qarshi bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Respublika rahbarlari bu masalani ko'tarib chiqqanida u birinchilardan bo'lib tabriklamaganmidi? Keyinroq esa, yoshi yetmishdan oshganiga qaramasdan yosh olimlar bilan birga Ob va Yenisey havzalarini borib ko'rdi, bu muammoga bog'liq murakkab hisob-kitob ishlarida qatnashdi, hatto qadim zamonlarda shimolga emas, janubga qarab oqqan bu ikki azim daryo tarixiga oid eski manbalargacha o'rganib chiqdi... Normurod Shomurodov faqat bir narsaga qarshi, u ham bo'lsa, bu masalada shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Boz ustiga Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burishdan avval mahalliy suv tarmoqlarini yangilab chiqmoq, ularni mustahkamlamoq, qisqasi, keladigan suvni qabul qilib olishga ham hozirlik ko'rmoq kerak, deb hisoblaydi, xolos!..

Ha, boshqa payt bo'lganda, Vohid Mirobidov unga qarshi maqolalar yozib, dushmanga chiqargan paytlar bo'lganda... uning bugungi gapi yana bir qabih ishni qilardi. U zamonlar o'tib ketganini Normurod Shomurodov bugun yana bir marta tushundi. Garchi Vohid Mirobidovning makkorona safsatasiga qarshi hech kim gapirmagan bo'lsa ham ovoz berishning natijasi otaning fikrini ta'kidladi: ilmiy kengash a'zolarining o'ttiz foizi dissertatsiyaga qarshi ovoz beribdi! Ammo xuddi mana shu narsa, Vohid Mirobidovning safsatabozligi o'tmaganligini ko'rsatuvchi xuddi mana shu raqam Normurod Shomurodovni, ayniqsa, qattiq iztirobga soldi. Haqiqatan, ota uzoq mulohazalardan so'ng, nihoyat, bu mash'um savolni o'rtaga tashlaganida Haydarjonga zarba berish fikri yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi. Avvalambor, u yosh olimga kelgusida puxta bo'lishni, yetti o'lchab, bir kesishni maslahat qilmoqchi, qolaversa, osmonga chiqib ketgan Vohid Mirobidovni jindak „yerga tushirib“ qo'ymoqchi edi xolos... Ish bunday chappasidan ketishini bilganida...

– Oxiriga keldik, ota, tushmaysizmi?

Domla Shomurodov shoshqaloqlik bilan o'rnidan turib, yon-veriga qaradi. Shaharda yaqindagina paydo bo'lgan va „Ikarus“ deb atalgan saroyday keng, katta avtobus bo'm-bo'sh, u notanish bir joyda to'xtab turar, derazadan ko'k, pushti rang, qizg'ish balkonli ko'p qavatli binolar ko'rinar, bekatdagi odamlar avtobusga yopirilib chiqa boshlagan edi.

Domla dovdirab konduktor xotinga qaradi.

– Qayerga kep qoldik, qizim?

– Yunusobodning oxiri bu, ota. Siz qayerda tushasiz o'zi?

– Ishchilar shaharchasida...

– Voybo'-o', to'rt bekat o'tib ketibsiz... Shoshmang, shoshmang, o'tiravering, hozir qaytamiz...

Normurod Shomurodov qayta joyiga o'tirib ko'zini yumdi, yumdi-yu, hamma narsa – avtobusga yopirilib kirayotgan odamlar, derazadan ko'rinib turgan ko'p qavatli binolar, jazirama issiq – hammasi yodidan ko'tarildi, xayolini yana o'sha pushaymon aralash noxush fikrlar egallab oldi.

Ha, yaxshi bo'lmadi. Yaxshi bo'lmaganini domla Shomurodov majlisda o'tirganidayoq, munozara tugab, ovoz berish marosimi boshlangan zahotiyoyoq tushundi!

Boshda, ovoz berish paytida, yonida Polikarpov bor edi. Keyin ular qayoqqadir chiqib ketishdi-yu, Normurod Shomurodov yolg'iz qoldi. Uning yoniga bir kishiyam yo'lamadi. Odamlar, go'yo u bilan gaplashayotganlarini Vohid Mirobidov yo Haydar, yoxud Otaqo'zi ko'rib qolishidan qo'rqqanday, yoniga yo'lashmas edi. Haydarning o'zi esa unga hatto qayrilib ham qaramadi. U ikki qo'li cho'ntagida, Vohid Mirobidov bilan Jamol Bo'riboyev davrasida gaplashib turar, o'zini parvoyi falak qilib ko'rsatish uchun bir gapirib, o'n kulardi. Faqat keyin, yashirin ovozning natijasi e'lon qilingandan keyingina u birdan qandaydir bo'shashib, mung'ayib qoldi.

Normurod Shomurodov Haydarni uncha xushlamasa ham dadasiga o'xshagan bu qaysar, manmanroq jiyanining birdan mung'ayib qolishi negadir yuragini ezdi-yu, vujudini pushaymon tuyg'usi qamrab oldi.

Rost, natija e'lon qilingandan keyin bir guruh odam-

lar Haydarni o'rab olishib, tabriklay ketishdi, singlisi Tohira bilan yana bir o'ta ko'hlik qiz guldastalar tutishdi. Chetda yolg'iz qolgan Normurod Shomurodovning qulog'iga: „Parvo qilma. VAK uchun yuz foiz o'tgandan ko'ra yetmish foiz o'tganiyam yaxshi! – degan xitoblar chalindi. – Bu narsa dissertatsiyaning chinakam munozara tug'dirganini ko'rsatadi!“

Domla Shomurodov ham Haydarni tabriklamochi edi. Ham tabriklab, ham... ro'y bergan anglashilmovchilikni tushuntirib qo'ymoqchi edi. Biroq o'zini noqulay sezganidan anchagacha ikkilanib turdi, keyin bu jur'atsizlikni yengib, endi yoniga boraman deganda, Haydarni qurshab olgan to'da tashqariga qarab yo'naldi...

Domla zaldan hammadan keyin chiqdi. U chiqqanida jiyani Otaqo'zi ko'chada saf tortib turgan mashinalarga odamlarni taklif qilmoqda, aftidan, ziyofatga olib ketmoqda edi. Tog'asini ko'rib, tap-tap yurib oldiga keldi.

– Rahmat, tog'a, – dedi, kalta, uchburchak mo'ylovining uchlari pirpirab. – Toabad esdan chiqmaydigan bir yaxshilik qildingiz. Rahmat sizga, tog'ajon!..

Agar Otaqo'zi bu „rahmatlar“ni qahr-u g'azab bilan aytganida Normurod Shomurodov unga nima deb javob berishini o'zi bilardi. Ammo jiyani unga yot bo'lgan bir iztirob bilan o'ksib gapirdi-yu, otaning dami ichiga tushib ketdi...

Ha, yaxshi bo'lmadi. Yo'q, umuman olganda-ku, Normurod Shomurodovning vijdoni pok. U o'z vijdoniga xilof ish qilgani yo'q. Ammo lekin uning bu gapi, bexosdan og'zidan chiqib ketgan bu savoli... yosh niholning ildiziga bolta urish qabilidan bo'ldi... Boshqalar ham shunday deb o'ylasa kerak, na birov uni ziyofatga taklif qildi, na kuzatib qo'ydi, Normurod Shomurodov bukchaygancha avtobus bekatiqarab qarab bir o'zi ketdi...

– Qayoqdasisiz, ota? Keldik, ishchilar shaharchasiga...

– Rahmat, qizim, hozir, hozir...

...Darvoza lang ochiq edi. Gulsara aya hovliga kirgan joyda, ariq bo'yidagi sadarayhonlarning tagini bo'shatib o'tirar, to'g'rirog'i, qo'lida tesha, taxtadan yasalgan pastakina stulchada xayolga cho'mib o'tirardi.

Hovlida oyoq sharpasini eshitib, o'girilib qaradi. Bir parchagina qoracha yuzida, tegrasiga surma tortilgan dardli ko'zlarida cheksiz alam, lablarida unsiz ta'na...

Normurod Shomurodov tuyqusdan selday yopirilib kelgan yomon bir tuyg'udan yuragi zirqirab, kampirning yoniga keldi.

– Senga nima bo'ldi, Sora?

– Hech nima... O'zingiz-chi?

– Menga nima qipti?

– Otaqo'zi keldi... Bir narsasi qolgan ekan, opketdi...

– kampirning ko'zi jiqqa yoshga to'lib, lablari yosh bolaning lablariday pirlirab uchdi. – Axir o'z bilganingizdan qolmabsiz-da...

– Nima qipman? – Normurod otaning yuragini chulg'ab olgan cheksiz mehr asta so'nib, qo'nqaygan burni yuqori ko'tarildi.

– Nima qipman deysiz, – dedi kampir kipriklaridagi yosh tomchilarini artib. – Yolg'iz jiyaningizdan ayrilib...

– Bas! Qozilashgan qarindosh bo'lmas, deb boya aytdim-ku, kerak emas unaqa to'g'ri gapga tumshug'ini buradigan nodon jiyan!

– Mayli, o'z bilganingizdan qolmang! Sira...

– Bas, dedim senga! – Normurod Shomurodov cho'q-morday og'ir, qoramtir mushtini osmonga ko'tardi. – Tinch qo'lasanmi meni, yo'qmi? Hiqildog'imga keldi bu da'vo-yu dostonlaring! – qichqirdi u, qichqirdi-yu, qora mushtini boshi uzra ko'targancha joyida qotib qoldi.

Qo'lidan teshasi tushib ketgan aya bir nima demoqchi bo'lib tamshandi, lekin deyolmadi, pastakkina stuldan shilq etib, sadarayhonlar ustiga ag'darilib tushdi...

Domla Shomurodov ko'zlari olaygancha, turgan joyida ulkan qoyaday bir zum qotib qoldi, so'ng a'zoyi badani muzlab, yerga cho'kdi, qaltiroq qo'llari bilan kampirning boshini ko'tardi.

Gulsara aya, mo'ltiragan ko'zlarida beadam alam, unga jimgina tikilib yotardi...

– Sora! – dedi chol titrab. – Senga nima bo'ldi? Nima qilyapsan? To'xta! Ayt, nima bo'ldi, azizim?

Beshinchi bob



Otaqo'zi dastlab raislikka saylangan paytlarida bita yaxshi odat chiqargandi: ishi yurishmay xunobi oshsa yo bir narsadan to'lib ketsa, goh dalaga, goh tog'larga, cho'pon-cho'liqlar orasiga chiqib ketardi-da, o'z iborasi bilan aytganda, yuragining chigilini yozib kelardi.

Bu safar ham shunday qildi. Shahardan, o'g'lining hi-moyasidan xit bo'lib qaytganidan keyin qishloqda turmadi. Idoraga kirib, xo'jalik faoli Xolidaxon bilan ikki og'iz gaplashdi-da, tinchlik ekanini bilgach, Naimjon degan bosh mexanigini olib, to'g'ri dashtga yo'l oldi.

Mana, ikki yildan oshdi, Otaqo'zining bir oyog'i qishloqda bo'lsa, bir oyog'i sahroda.

Avvalgi yili dashtga kanal keldi deguncha, Otaqo'zi uch-to'rt ming gektar yer o'zlashtirish majburiyatini olib, u yerda butun bir shaharcha quradigan bo'ldi.

Uning bu tashabbusini yuqori tashkilotlar ham ma'qullab, shaharcha qurish, ariq qazish va yo'l o'tkazish ishlari turli vazirliklar va ularning joylardagi tashkilotlariga yuklatildi. Bu to'g'rida gazeta va jurnallarda ocherk va maqolalar yozildi, sahroda qad ko'taradigan shaharchaning poydevoriga birinchi g'isht qo'yilayotganda bu marosim katta bayramga aylanib, hatto televizorlarda ko'rsatildi.

Burnog'i yil kuzda kolxoz bir necha yuz gektar joyga ko'chat, oltmish gektar joyga tok o'tqazdi, bultur makka ekib, ancha hosil oldi, bu yil ko'klamda esa uchta brigada tuzib, salkam yetti yuz gektar yerga chigit ekdi. Hozir dashtda, shaharcha qurilishida, bo'lg'usi bog' va paxtazorlarda salkam ikki yuz kishi qamish kapa va yerto'lalarda yashab, mehnat qilmoqda. Paxta yomon emas, ming azob bilan bo'lsa ham chigit undirib olindi, kanalga suv kelishi bilan o'tqazilgan nihollar odam bo'yi bo'lib qoldi, lekin qurilishning mazasi yo'q. Boshda, gazeta va jurnallar shov-shuv ko'targanda ishni yaxshi boshlagan qurilish tashkilotlari bu yil juda paysalga solishyapti. Shu sababdan Otaqo'zi

sahroda shtab tashkil qilib, har kuni bir kishi navbatchilik qiladigan tartib o'rnatdi. O'ziyam bir kun qishloqda bo'lsa, bir kun sahroda, shtabda tunaydi. U o'zi shtabda turgan paytlarida qurilish tashkilotlarining vakillari bilan urishib-so'kishib, hatto ba'zan yoqa bo'g'ishib bo'lsa ham ishni to'xtatmas, lekin bir kun yo'q bo'lsa, yo'qligi bilinib qolar, ish darhol orqaga keta boshlardi.

Bu safar Otaqo'zi uch-to'rt kun yo'q bo'ldi. Ajabo, dashtdagi ishlar nima bo'ldiykin?

Mana, so'nggi qir bilan to'silgan katta qishloq, kechasi sevalab o'tgan yomg'irdan yashnab ketgan tutash bog'lar, shudring bilan yuvilgan yam-yashil bedazorlar, paxtazorlar ortda qolib, oldinda hadsiz, cheksiz-chegarasiz bir sahro namoyon bo'ldi.

Hozirgina ortda qolgan bog'lar, shudring bilan yuvilgan bedazorlardan keyin olis ufqlarga tutashib ketgan bu giyohsiz sahro, o'lik dengizni eslatuvchi bu kulrang qum uyumlari kishini cho'chitar, yurakka g'ulg'ula solardi.

Otaqo'zi ufqqa yonboshlagan oftobdan ko'zini to'sib, yon-veriga tikilib qararkan, nazarida, qum uyumlari xuddi ikki yondan xuruj qilib kelayotganday, xuddi asfalt yo'lni yutib yuborishga chog'lanayotganday tuyulardi. Ayni zamanda, kinolardagi oy sathiga o'xshagan bu jonsiz, ruh-siz sahroda bog'-rog' yaratib, shaharcha quraman deb, bel bog'laganidan ichida bir g'ururlanib qo'ydi. Rost, kanalga suv kelgandan keyin sahroda bir nechta yangi sovxoz tuzildi. Lekin ularning yo'rig'i boshqa. Sovxozlarni davlat tuz-yapti. U bo'lsa... o'zi o'zlashtiryapti!

Ana, oldinda, osmon ufqqa tutashib ketgan joyda qandaydir uylar, qizg'ish qo'rg'onlar ko'zga chalindi, bu - bo'lajak shaharchaning ilk binolari! Sal o'tmay, asfalt yo'lining ikki yonidagi qum uyumlari chekinib, xuddi askarday saf tortgan nihollar ko'rindi. Bir-ikki yildayoq avj olib qolgan bu tol, terak va chinor nihollari ortida... yam-yashil paykallar, paykallarda o'rmalab yurgan traktorlar, ketmonlarini oftobda yarqiratib, chopiq qilayotgan qiz-yigitlar ko'rindi.

Otaqo'zi rulda o'tirgan Naimjonga „to'xta“, deb buyurdi-da, ko'ngli bir xil bo'lib, mashinadan tushdi. Ha, bun-

dan bir oy muqaddam bo'lib o'tgan dovuldan keyin qayta ekilgan g'o'zalar bir qarich bo'lib, gurkirab o'smoqda edi. Otaqo'zini ayniqsa daraxt ihtolari quvontirdi. Burnog'i yil kuzda, nihol o'tqazish paytida, „bilag'on“ odamlar ihtolar oralig'i besh yuz metrdan kam bo'lmasin, deb maslahat berishgandi. Ammo Otaqo'zi qum uyumlarining beboshligini hisobga olib, masofani ikki barobar qisqartirgan edi. Bilag'onlarning gapiga kirmay, o'z kallasi bilan ish qilgani yaxshi bo'lgan ekan, gurkirab o'sayotgan bu nihollar g'o'za paykallarini misoli bir lashkar yanglig' asrab turardi.

Otaqo'zi ko'ngli suv ichganday yorishib, mashinaga o'tirdi. U qurilishda ham ish sal yurishgan bo'lsa kerak, deb umid qilgandi, chunki Toshkentga ketishdan avval kerakli tashkilotlar bilan ancha qattiq gaplashgandi. Ammo ish tamom teskarisi bo'lib chiqdi: g'isht zavodidan g'isht kelmay, quruvchilar oyoqlarini osmonga cho'zib yotishar, zovur qaziyotgan irrigatorlarning buldozerlari ehtiyot qismlar bo'lmay to'xtab qolgan, yo'lchilarning shag'al tashiyotgan beshta mashinasidan faqat uchasi ishlardi...

Otaqo'zi yonib ketdi. Haqiqatan, bechora paxtakorlar bu sahroyi jahannamda issiqni issiq, sovuqni sovuq demay g'o'za o'stirishsa, bog'-rog' yaratamiz, deb o'lib-tirilib yotishsa-yu, bu zahmatkashlarga shart-sharoit yaratib beradigan qurilish tashkilotlari parvoyi falak bo'lsa! Bu tashkilotlar uchun, ularning tepasida o'tirgan rahbarlar uchun hukumat bormi o'zi yo hukumatgayam bo'ysunmay qo'yishganmi ular?..

Otaqo'zi bir o'zi shartta mashinaga o'tirib rayonga bormoqchi, Abror Shukurovning oldiga kirib, ko'nglidagi bordardini aytib, yorilmoqchi bo'ldi. Qo'lidan kelsa yordam bersin, qo'lidan kelmasa bilib qo'ysin uning ne azobda ish qilayotganini!

Otaqo'zi Toshkentda, tog'asinikida birga bo'lganlaridan keyin Shukurovni ko'rmadi. Haydarning ziyofatida kayfi oshib qolgan Voqid Mirobidov qizi bilan kuyovi to'g'risida bir nimalar dedi, kuyovini bir maqtab, bir nolib gapirdi, keyin qizini birga olib ketishini so'radi.

Otaqo'zi ziyofat tugamasdanoq jo'nab ketmoqchi edi.

Vohid Mirobidovning shu iltimosi bilan yo'lga chiqmay tunab qoldi, ertalab esa Mahbubaxonni bir qiz, bir o'g'ilchasi bilan mashinasiga solib, birga olib keldi.

Mahbubaxon unga juda yoqdi. U aft-angorigina emas, gap-so'zlari, xulq-atvori, qiliqlari bilan ham xuddi otasi-ning o'zginasi, xushchaqchaq, shirinsuxan, ochiq-yorug' bir juvon edi. Ikki yuzi qip-qizil, ko'kimtir bo'yoq bilan nafis bo'yalgan ko'zlarida sho'x tabassum, qandaydir juda yoqimtoy bu yosh juvon Toshkentdan rayonga yetib kelguncha chakagi tinmadi, qah-qah otib, o'ziyam kulib, Otaqo'zi bilan shofyor yigitniyam kuldirib keldi. U qo'yarda-qo'ymay Otaqo'zini uyiga olib kirdi, biroq Shukurov yo'q ekan, Otaqo'zi o'tirmadi. Xayrlashayotganida Mahbubaxon:

– O'rtog'ingizni olib, alohida bir kelasiz, Otaqo'zi aka!– dedi. – Dadamlar bilan yaxshi tanish ekansiz. Biz ham tanishaylik, bordi-keldi qilishaylik. Yashagan joyingizda... dardlashib turadigan bir odam bo'lmasayam qiyin ekan. Goho to'lib ketasiz-u, hasratlashadigan bir kimsa yo'q...

Hozir raykomga bormoqchi bo'lgan Otaqo'zining esiga shu gap tushdi-yu, xotini Oliyaga telefon qilishga ahd qildi: ozgina sovg'a-salom hozirlab, tayyor bo'lib tursin. Bahona bilan tanishib oladi. Xotinlar til topishsa zarar qilmaydi, gap ko'p xotin zotida!

Otaqo'zi shtabga kirib, endi telefonga qo'l cho'zgan edi, nogahon eshik-derazalar sharaq-shuruq bo'lib ketdi-yu, shtab joylashgan fincha uyni zirillatib yubordi. Ketma-ket shtabga Naimjon yugurib kirdi:

– Bo'ron boshlanyapti, rais aka! Qora bo'ron!

Otaqo'zi irg'ib turib, tashqariga otildi. Haligina charaqlab turgan oftob ufqqa ko'tarilgan mudhish bo'tana ortida qolgan, osmon-u falakka chiqqan bu bo'tana sahroni qora to'fonga burkab, beshafqat bostirib kelardi. Ufqqa tutashib ketgan kulrang tepaliklar go'yo jonli maxluqlarday g'imirlab qayoqqadir o'rimalay boshlagan, hadsiz sahro og'zidan qum purkagan ayovsiz girdibod ostida qolgandi.

– Shtabda kim bor? Brigadirlar qayda? Naimjon! Dalaga chop! Odamlarni surishtiringlar. Hech kim qumda qolmasin. Hamma yerto'lalarga kirsin! Hamma!

Odamlar, Otaqo'zi aytmasdanoq, o'zlarini pana-panaga ura boshlagan, ko'plar shtab tomon yopirilib kelardi.

Zum o'tmay, osmon-u falakni qoplagan qora dovul butun qahri, qum va to'zoni bilan shtabga kelib yopirildi-yu, uyni larzaga soldi. Zulfinlari uzilib ketgan eshik-derazalar qarsillab, chil-chil singan oynalar ming tikan bo'lib yuzlarga sanchildi. Chiroqlar o'chib, hamma yoq zimiston bo'ldi-qoldi.

Qayoqdandir taxta va faner topib kelgan quruvchilar singan derazalarni to'sib, ustidan ko'rpa yopishdi, kimdir lampa yoqdi.

Otaqo'zi o'z joyiga borib o'tirdi. Endi u yoq-bu yoqqa chopish, biror ish qilishga urinishning foydasi yo'q, bo'ron tobora quturib, sahro mudhish bir girdibodga aylangan edi. Bu girdibod orasida qolgan shtab go'yo ayovsiz dovulda qolgan ayanchli kemaday chayqalar, eshiklar g'ichirlar, yog'och devorlar mana-mana ag'anab tushib, to'fon qo'ynida g'arq bo'ladigandek tuyulardi...

Biror soatdan keyin birinchi brigada boshlig'i Ali mo'ylov bilan Naimjon kirib kelishdi. Yuz-ko'zlaridagi qiyiqchalarini yechib, og'izlaridan qum tupurib, raport berishdi: sahroda qolgan odam yo'q, hamma yerto'lalarga joylashdi!

Otaqo'zi xiyol yengil tortdi. Biroq, sal o'tmay, odamlardan tinchigan ko'nglini boshqa o'y, boshqa bir alam chulg'ab oldi. Bu dovul birinchi bo'layotgani yo'q. Bundan bir oy muqaddam, aprel oyining oxirida ham shunday bir qora to'fon ko'tarilib, ne azoblar bilan undirilgan chigitlarni ildiz-pildizlari bilan ko'kka sovurib, ariq va zovurlarni yemirib ketgandi. O'shandayam bor kuchni ishga solib, uch kecha-yu kunduz mijja qoqmay, chigitni qayta ekib, yemirilgan paykallarni qayta tekislab, ariq va zovurlarni qumdan qayta tozalab chiqishgandi... Bu safar beshbattar bo'lyapti. Bu safar yetti yuz gektar g'o'zadan yetmish gektari qolsa ham katta gap!.. Ish shu yo'sinda ketaversa, oqibati nima bo'ladi? Otaqo'zi bu masalada biroz shoshmadimikin? Avval nihollarni yaxshi parvarish qilib, yashil ihotalarni mustahkamlab olib, keyin g'o'za eksa bo'lmasmidi? Shunday qilsa yaxshi bo'lardi-ya, ammo ishni paxtadan

boshlamasa, kim unga mablag' ajratadi, kim unga texnika beradi? Umuman, kim uni odam deb, ulkan rejalari, katta maqsadlariga yo'l ochadi?..

Bo'ron hamon quturar, yog'och uyni zir titratib, eshik va derazalarni qum bilan savalab, betinim o'kirar, bepoyon sahro ummon qa'riga batamom g'arq bo'lganga o'xshardi.

Otaqo'zi tirsaklarini stolga tirab, boshini changallab oldi.

„Ha, bulturidan beri qilayotgan hamma ishi zoye ketdi, hamma urinishlari tabiatning bitta zarbasi bilan nes-nobud bo'ldi! Yolg'iz tabiatningmi? Hukumat topshirig'ini bajarmay, qilinadigan ishlarni paysalga solib kelayotgan vazirliklar-chi? Qurilish tashkilotlari-chi? Shu kecha-yu kunduzda kamida yigirma uy qurib bitirilishi kerak edi. Hozirgacha bittasiyam bitmadi! Agar bu uylar bitganda bu dashti karbaloda jon ayamay mehnat qilayotgan zahmat-kash qiz-yigitlar hozir yerto'lalarda biqinib yotmas, uning qarshisida polda bir-biriga suyanishib, mudrab o'tirishmas edi! Kanaldan keladigan vodoprovod-chi? Asfalt yo'llar-chi? Zovurlar-chi? Allaqachon qurilib ishga tushadigan yopiq zovurlardan hali bir metri ham qurilmadi. Ochiq zovurlar esa bugun qazilsa, ertaga qum bosadi. Esiz mehnat!

Boya Otaqo'zi arzi dod qilib, Abror Shukurovga bormoqchi edi. Lekin unga borishdan nima foyda? Qurilish tashkilotlari rayon rahbarlariga bo'ysunishmaydi. Boradigan bo'lsa obkomga borishi, obkom kotiblariga kirishi kerak!

Ha, to'g'ri, obkomga borishi kerak. Ammo lekin... kim uni bu ishga majbur etdi? Kim unga bu sahroyi biyobonda qo'riq och, dedi?

Boshda kichkinagina bir kolxozga rahbar bo'lgan odam, keyinchalik besh-oltita kolxozni birlashtirib, gigant xo'jalikka rahbar bo'ldi. Paxta maydonining o'zi salkam uch ming gektaga yetdi. Uncha-muncha shahardan qolishmaydigan ko'rkam qishloq qurib, dong'i butun mamlakatga ketdi. Tag'in nima yetmadi unga? Bitta kami „geroy“ degan nom bo'lsa, uniyam olar axir bir kun! Eski qadrdoni, obkomning qishloq xo'jalik bo'yicha kotibi Xolmurod Bek-

murodov uzoq yili hatto „geroy bo‘lding“, deb tabriklagan ham edi. Biroq nimadir bo‘lib, bu ish yuqoriroq joylarda to‘xtab qoldi-yu, Otaqo‘zi, rostini aytganda, sal o‘chakishdi. Endi o‘ylab qarasa, bu ishni ham o‘chakishib qilibdi!

Ha, bu yerda bu ishni, qishloqda, „Mingbuloq“ degan go‘zal, sersuv, sero‘t to‘qayzor tepasida yirik chorva majmuasini qurmoqchi bo‘lyapti. U ham bir dunyo tashvish! Ammo birov majbur qilgani yo‘q uni, o‘zi sotib oldi bu tashvishlarni! Dovruq uchun, nom chiqarish uchun, shon-shuhrat uchun boshladi bu ishlarni. Bo‘lmasa... salkam ellikka borganida shon-shuhrat nima kerak senga? Shuncha shon-shuhrating kamlik qildimi, Otaqo‘zi? Shu topda bu behalovat cho‘lda diqqinafas bo‘lib o‘tirguncha, boriga shukur qilib, rohatijon bog‘ingda, issiq to‘shakda, xotiningning qo‘ynida gashtingni surib yotsang bo‘lmasmidi, og‘ayni? Soching oqarib, yoshing bir joyga borib qolganda bu o‘tkinchi shon-shuhrat ketidan yugurib nima qilasan, Otaqo‘zivoy?”

...Otaqo‘zi kimdir yelkasiga qo‘lini qo‘ygani sezib, boshini ko‘tardi. U stolga mukka tushib, pinakka ketgan ekan, ko‘zini bazo‘r ochdi.

Tepasida Naimjon turardi.

– Bo‘ron tindi. Tong otib qoldi, turing, rais aka!

Lampaning xira shu‘lasi uyni zo‘rg‘a yoritar, odamlar polda bir-birlarining pinjlariga kirib, xurрак otib, uxlab yotishar, shtabni og‘ir, qo‘lansa hid tutgandi.

Otaqo‘zi qayerda, qanday uxlab qolganini arang ilg‘ab oldi-da, uvishib qolgan oyoq-qo‘llarini uqalay-uqalay o‘rni-dan turdi.

Bo‘ron chindan ham tingan, osmon oppoq, yirik yulduzlarga to‘lib ketgandi. Poyonsiz sahro shunday osuda, osmon shunday musaffo, yulduzlar shunday tiniq charaqlab turardiki, hozirgina bu yerlarda qora dovul quturib, borliq qora bo‘tana orasida qolganini tasavvur qilish qiyin edi. Faqat shtab zinalarida o‘tovday uyulib yotgan qum uyumlarigina boya ayovsiz selday bostirib kelgan mudhish bo‘rondan dalolat berardi! Biroq tongdan hali darak yo‘q, agar ufqda yarqirab turgan Zuhro yulduzi bo‘lmasa, teva-

rak-atrof hali qorong'i, faqat qayerdadir juda ovloqda goho-goho xo'roz qichqirar, itlarning vovullashi quloqqa chalinardi.

Ajoyib yigit-da, Naimjon! Bir qarashda juda beso'naqay ko'ringan bu naynov yigit ish desa jonini beradi. U mexanizatorlarni yig'gan ekan, nariroqda, o'tovday bo'lib uyulib qolgan qum uyumlari yonida besh-olti odam gangir-gungur gaplashib turardi.

Otaqo'zining sovuqdan junjikkanini payqagan Naimjon ichkaridan kimningdir fufaykasini olib chiqib yelkasiga tashladi, qo'l fonarini yoqib, raisning yuziga tikildi.

– Nima qilamiz, rais aka? Dalaga chiqaylik, deyishyapti yigitlar.

– Qorong'ida nimani ko'ramiz?

– Tong otib qoldi-ku! Kerak bo'lsa, fonuslar bor...

Nariroqda turgan yigitlar ham qo'l fonarlarini yoqib, yaqinroq kelishdi.

– Baribir uyqu kelmayapti, rais aka... Nima bo'ldi, nima qoldi, bir ko'raylik...

Otaqo'zi a'zoyi badanini iliq bir to'lqin qamrab, zinadan tushdi.

– To'g'ri, baribir uyqu yo'q. Ketdik, yigitlar!

Qorong'ida timirskilanib asfalt yo'lda tepa-tepa bo'lib uyulib qolgan qum uyumlari orasidan o'tib, paxtazorga chiqishdi. Qo'l fonarlari, fonuslarni yoqib, zovurlar, ariqlardan o'tishdi. Otaqo'zining taxminlari to'g'ri, hamma yoqni qum bosgan, zovur va ariqlar ko'p joylarda to'silib qolgan, kechagina yashnab turgan paxtazorlarni tanib bo'lmas edi. Sal o'tmay, osmon oqarib, atrof yorisha boshladi-yu, tungi qora dovulning qabih ishi butun dahshati bilan namoyon bo'ldi: paykallar tamom yemirilgan, salkam yetti yuz gektar paxtazordan qolsa, ikki yuz gektari omon qolgan, g'o'zalargina emas, nayza bo'yi keladigan bo'liq nihollar-gacha qum bosgan, agar shu nihollar bo'lmaganda ehtimol hech narsa qolmas edi!

Vo darig'! Bu ofatga najot bormi?

Otaqo'zi hamma unga jimgina tikilib turganini, undan gap kutayotganini sezar, u bo'lsa kechagina yashnab tur-

gan, hozir esa batamom nobud bo'lgan paykallardan, qum bosgan nihollardan ko'zini uzolmas, nazarida, qum tagida uchlari zo'rg'a ko'rinib turgan nihollar madad so'rab to'lqinlar orasidan qo'l cho'zayotgan bolachalarga o'xshar, yurak-bag'ri ezilar edi.

Nima qilish kerak? Nahotki hamma ishni boshdan boshlashga to'g'ri kelsa? Boshdan boshlaganda foydasi bo'larmikin? Bu qora to'fon erta-indin qayta xuruj qilib, hamma ishni tag'in barbod etmasmikin?

– Nima qilamiz, rais aka? – nariroqda bir guruh mexanizatorlar bilan gaplashib turgan Naimjon eski do'ppisini boshiga ishqay-ishqay yaqinroq keldi. – Yo men qishloqqa borib kelaymi?

Otaqo'zi uzun qo'llarini qayoqqa yashirishni bilmay iymanib turgan bu beso'naqay yigitga taajjub bilan tikildi. Naimjonning ko'zlari dag'al yuziga mos tushmagan bolalarcha bir samimiyat bilan porlab turardi.

– Qishloqda nima bor?

– Odam opkelaymi deyman-da! Chigitni qayta ekamizmi axir?

Otaqo'zi bilq-bilq qum kechib, asfalt yo'lga chiqdi.

– Qani, shtabga boraylik-chi avval!

Shtabga yaqinlasharkan, Otaqo'zi bir narsaga hayron qoldi.

Quruvchilar allaqachon ishga tushgan, buldozer va skreperlar asfalt yo'lni qum uyumlaridan tozalab bo'lgan, endi shtab atrofidagi qumlarni surmoqda edi. Ular birovdan buyruq kutib o'tirmay, xuddi odatdagi vazifalarini bajaryotganday bamaylixotir ishlamoqda edilar.

Otaqo'zi shtabga kirib, o'z joyiga o'tib o'tirarkan, to'plamayotgan odamlarga zimdan razm soldi.

Yoshlar, ust-boshlari chang-tuproq, ko'zlari kirtaygan, lekin kulishib, gangir-gungur gaplashib, hatto askiya aytishib shoshilmay, bamaylixotir kirib kelishardi.

Cho'lquvarlar stullarni sharaq-shuruq qilib, joylashib olishlari bilan Otaqo'zi o'rnidan turdi, miyig'ida kulimsirab:

– Hozir... eshikdan askiya qilib kirgan kim?– deb so'radi. – Sizmi, mo'ylov?

Xuddi sahroda emas, kurortda yurganday ikki yuzi qip-qizil Ali mo'ylov taqasimon uzun murtini silab, o'rni-dan turdi.

– Bu naynov mexanigingiz ja askiyabop yigit-da, rais!– Ali mo'ylov Naimjonga imo qildi. – Qo'l-oyoqlariga bir qarang, cho'ldagi saksovulga o'xshaydi! Qishda o'choqqa qalansa o'n tandir nonga yetadigan cho'g' bo'ladi-da, o'ziyam!

„Gur“ kulgi ko'tarildi. Naimjon chindan ham saksovulga o'xshagan uzun qo'llari bilan boshidagi eski do'ppisini to'g'rilab, bir nima dedi-yu, gapi zo'r qahqaha tagida qolib ketdi.

– Yashang! – dedi Otaqo'zi. – Mana shunday mushkul paytda qiziqchilik qilib, hammani kuldirib yurgani uchun... kolxoz pravleniyesi birinchi brigada boshlig'i Ali mo'ylovni bosh-oyoq sargo bilan mukofotlaydi!

Bu safar qiyqiriq bo'lib ketdi. Otaqo'zi kulgi bosilishini kutib turdi-da, qovog'ini uyib:

– Bugun yigirma birinchi may, – dedi. – G'o'za eksak bo'ladimi, bobodehqonlar?

Bir lahza jimlikdan so'ng, har joy-har joydan:

– Bo'ladi!.. Bundan keyin ekan paytlarimiz ham bo'lgan! – degan ovozlari eshitildi. Ovozlar ko'ngildagiday dadil emas edi. Buni sezgan Otaqo'zi: „Siz nima deysiz, Mo'ylov?“ – demoqchi bo'ldi-yu, gapni cho'zib o'tirgisi kelmay:

– Yaxshi, – dedi. – Bo'lmasa bunday qilamiz: men hozir... rayonga chigitga ketaman. Naimjon, siz hozir tezda qishloqqa borasiz. Xolidaxonga aytasiz. Har brigadadan o'n kishidan olib yuz kishi to'plasini. Tushga qolmay odamlarni mashinaga solib, besh-oltita traktor bilan bu yerga yetib kelasiz! Ali mo'ylov! Siz Naimjon kelguncha odamlarga bosh-qosh bo'p turasiz. Ariq va zovurlarni tozalab, chigit ekishga tayyorlanaverasiz. Vazifa oydin-mi? Oydin bo'lsa – gap tamom. Ishni boshladik!

Majlis tugab, odamlar endi tarqalisha boshlagan edi, tashqariga chiqib ketgan Naimjon negadir shoshib qaytib kirdi.

– Raykom kotibi keldilar, rais aka!

Naimjon gapirib bo'lmasdanoq, Abror Shukurovich o'zi

kirib keldi. Oyog'ida qizil brezent etik, boshida poxol shlapa, qo'lida tol xipchin.

– Hormang, rais!.. – Shukurov tez yurib kelib Otaqo'zi bilan ko'rishdi. – Majlis bo'пти-da!

– Ha, shu... picha gaplashib oldik.

– Xo'sh?

– Dalalarni ko'raylik, – dedi Otaqo'zi, – Agar vaqtingiz bo'lsa...

– Ko'rib kelyapman! Nima to'xtamga keldilaring, xo'sh?

O'zi usiz ham qon bo'lib turgani uchunmi, Shukurovning gapi Otaqo'ziga biroz malol keldi.

– Nima to'xtam bo'lardi?– dedi u ichida g'ijinib. – Ahvolni ko'rib turibsiz. Agar ruxsat bersangiz, bu yil g'o'za ekmaymiz!

– Majlis qarori shu bo'ldimi?

– Yo'q...

– Bo'lmasa nima qilasiz bu gapni gapirib?–dedi Shukurov sal rangi o'chib. – Bilasizki, men bunday buyruq berolmayman. Hech kim berolmaydi bunday buyruqni!

Oyog'ida zo'rg'a turgan Otaqo'zi yalt etib Shukurovga qaradi, qaradi-yu, uning ham ko'zlari qizarib ketgani ko'rib, indamay joyiga o'tirdi. Aftidan, Shukurov ham kechasi bilan mijja qoqmagan, u ham qayerlardadir yurib chiqqan edi. „Yo'q, bu odam bilan hazillashib bo'lmaydi!“– dedi xayolida Otaqo'zi. U ichki tug'yonini jilovlab, majlis qarorini gapirib berdi: hamma choralar ko'rilyapti, u o'zi chigit izlab oblastga ketyapti!

Abror Shukurovning ko'nglidan: „Chigitniyam qurilish materiallariga o'xshab o'marib kelmoqchimisiz?“ – degan fikr o'tdi. Biroq Otaqo'zining oyoqda zo'rg'a turganini sezdi-yu, ko'ngliga kelgan gapni ichiga yutib, o'rnidan turdi:

– Chigit masalasida siz ovora bo'lmang! Men oblast bilan gaplashdim. Narigi sovxozlarga ham chigit kerak. Hammasini o'zlari yetkazib berishadi. Siz o'z ishingizni qilavering. Men rayonga ketyapman. Hozir yana gaplashaman. Kechqurun yo'l-yo'lakay yana ko'rib o'taman!

Otaqo'zi uni mashinagacha kuzatib qo'yarkan, ichida bir kulib qo'ydi: „Ha, bu odam bilan o'ynashib bo'lmaydi.

O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar... degan gap esingizdan chiqmasin, Otaqo'zivoy! Ha!"



Chigitni uchinchi kuni kechqurun, kun botib, qosh qoraya boshlaganda ekib bo'lishdi. Ikki kecha-yu kunduz oyoqda tik turib, yurishga majoli qolmagan Otaqo'zi so'nggi chigitni ekib bo'lganlaridan keyin raport bergani shtabga bordi. U qo'l fonari bilan yo'lni yoritib, shtabga yaqinlashib qolganida, ro'parasidan qorovul chol chiqdi.

– Sizni telefonga chaqirishyapti, o'g'lim. Kelinga o'xshaydi...

Otaqo'zi allaqanday yomon bir sezgidan yuragi orziqib, shtabga kirdi. Trubkani olishi bilan telefonda xotining hayajonli tovushi eshitildi.

– Allo! Bu kim? Allo...

– Men, – dedi Otaqo'zi. – Nima gap? Tinchlikmi?

– Otaqo'zi aka! – Oliya o'pkasini bosolmay, piqillab yig'lab yubordi. – Ayamlar... ayam bechora...

– Nima? Gapirsang-chi, axir!

– Olamdan o'tibdilar...

Otaqo'zi a'zoyi badani muzlab:

– Qachon? – dedi. – Kim aytdi...

– Hozir Tohira telefon qildi. Shu bugun ertalab bo'pti... Tog'amlar... bechora tog'amlar nima qilishni bilmay arosatda qolganmishlar!

Oliyaning yig'lab aytgan so'zlari Otaqo'zining tomog'iga misoli bir tosh bo'lib tiqildi. Ko'z oldiga lop etib uchto'rt kun avval ko'rgan aya keldi. O'sha kuni Otaqo'zi tog'asining uyiga borish u yoqda tursin, ostonasiga ham qadam qo'ymoqchi emas edi. Bir kun burun jahl ustida papkasi esidan chiqib qolgan ekan, dissertatsiya g'avgosidan keyin bir zum kirib o'tdi, o'shandayam tog'asini uchratmasligini, chol hali yo'lda ekanini bilgani uchun kirib o'tdi. Otaqo'zi borganida aya bir o'zi hovlida o'yga tolib o'tirgan ekan, uni ko'rib, apil-tapil o'rnidan turdi, ko'zlari mehr bilan porlab:

– Nima bo'ldi? Eson-omon o'tib oldimi Haydarjon? – deb so'radi.

Otaqo'zi kampirning savoliga javob bermay:

– Kecha papkam esimdan chiqib qolgan ekan, – dedi. – Opchiqib bering, aya!

Aya, go'yo bir nimadan qo'rqib ketganday, cho'chib:

– Hozir-hozir, – deganicha uyga kirib ketdi. Uydan Otaqo'zining katta papkasini ko'tarib chiqarkan, kirtaygan ko'zlari ayanchli mo'ltirab:

– Nega indamaysan, Qo'zivoy? – dedi. – Yaxshi bo'ldimi Haydarjonning ishi?

– Nima bo'lganini tog'amlardan so'raysiz, aya! U kishiga aytib qo'ying: bu uyni endi yelkamning chuquri ko'radi! – Otaqo'zi shunday deb, shartta burilib chiqib ketdi. U kampirning qay holatga tushganini ko'rmadi, lekin hozir, xotinidan bu mudhish xabarni eshitganida ko'ngliga yomon bir vahima tushdi-yu, jon-jahdi bilan bu vahimani xayolidan haydadi.

„Yo'q, yo'q, unda aya tuppa-tuzuk edi! Nima bo'lsayam keyin bo'lgan, keyin bo'lgan!...“

– Nega indamaysiz? – dedi Oliya. – Otaqo'zi aka, nega...

– Bunday! – Otaqo'zi chuqur tin olib, qo'lidagi trubkani qattiq g'ijimladi. – Hozir idoraga chiq. Xolidaxonni top. Avtobazaga telefon qilib, bitta „Latviya“ mashinasini gaplashib qo'ysin. Meni aytdi desa, berishadi! Yana uch-to'rtta yengil mashina topsin! Sen ham uyda tayyorligingni ko'raver. Kampir sho'rlik... menga vasiyat qilgandilar... – Otaqo'zi tomog'i g'ip bo'g'ilib, bir zum jim qoldi. – O'lsam, suyagimni qishloqqa qo'yinglar, deb vasiyat qilgandilar. U kishini opkelamiz. Hamma marosimni sho'tta o'tkazamiz. Tushundingmi? Gap shu!

Cho'ldan qishloqqacha yigirma chaqirim, qishloqdan Toshkentgacha – ikki yuz ellik. Hozir soat to'qqizdan oshyapti. Agar u qishloqqa borguncha mashinalar taxt bo'lib tursa... kechasi soat ikkilarda Toshkentga kirib borish mumkin. Shofyorlarga bir soat dam berib, soat uchlarda yo'lga chiqilsa... ertalab bomdodga qolmay qishloqqa yetib kelishadi...

Xolidaxon yosh bo'lsa ham balo, Otaqo'zi borguncha hamma ishni o'rniga qo'yib, mashinalarni taxt qilib qo'yib-

di. Otaqo'zi qishloqda bir daqiqa ham turmadi, yig'layverib ko'zlari shishib ketgan xotiniga so'nggi topshiriqlarni ber-di-da, yo'lga chiqdi. U „Volga“ning orqa o'rindig'ida yos-tiqqa suyanib ko'zlarini yumib o'tirar, butun a'zoyi badani zirqirab og'rir, biroq ko'zidan uyqu qochgan, xayoli sergak edi.

Mana, bu shum xabar yetib kelganiga bir soatdan osh-di, ammo xayolidan o'sha kungi mash'um voqealar chiq-maydi, ko'z oldidan ariq bo'yida rayhon chopib o'tirgan ayaning mittigina bo'y-basti, g'am cho'kkan dardli ko'zla-ri ketmaydi. Buni eslashi bilan ayaning o'limiga go'yo o'zi aybdorday bo'ladi-yu, yuragi muzlab, bu fikrni jon-jah-di bilan haydashga urinadi, xayolini boshqa narsalarga chalg'itmoqchi bo'ladi, lekin zum o'tmay o'ylari yana shu sertikan so'qmoqlarga burilganini o'ziyam sezmay qoladi. Yaxshiyam aya o'sha yerda, o'sha daqiqada qulab qolmab-di! Balki shunday bo'lgandir ham, balki u eshikni qarsilla-tib yopganidayoq yiqilib tushgandir-u, keyin kasalxonada... Yo'q, yo'q, unday bo'lishi mumkin emas! Boshqa bir narsa bo'lgan unga. Keyingi paytlarda aya o'zi charchab qolgan, yolg'izlikdan ezilib, o'g'lini o'ylayverib, adoyi tamom bo'l-gandi. U bo'lsa, Otaqo'zi bo'lsa, butun zahrini shu mush-tipar kampirga, bu bebaho dunyoning g'am-g'ussasidan qaddi dol bo'lib qolgan shu ko'ngli siniq kampirga sochdi! Ha, o'sha kuni yaxshi qilmadi Otaqo'zi! Avvalambor, tog'asi savol berganda zalda yig'ilgan barcha ilm ahlining yuziga oyoq qo'yib, shartta turib chiqib ketdi, keyin cholga achchiq qilib, odamlar orasida basharasiga tuplagandan beshbattar qildi! Rost, tog'asiyam yaxshi qilmadi. Ming to'g'ri, ming haqgo'y bo'lganda ham Haydar yetti yot begona emas, o'z jigari-ku, axir! O'sadigan el – bir-birini botirim der, degan gap bor-ku, axir? Ammo lekin... padariga la'nat o'sha dis-sertatsiyasining! Nima, o'g'li Haydar kandidat bo'lmasa osmon ag'darilib yerga tusharmidi? O'sha kuni Otaqo'zi bu gapni o'g'li bilan kuyoviga, to'g'rirog'i, bo'lg'usi kuyo-viga ham aytdi. Olim bo'laman, deb professorlarga yugur-dak bo'lib, bunaqa xor bo'lib yurguncha, cho'lga boringlar, dedi! Cho'lda olam bino bo'ptiki, bo'lmagan, misli ko'ril-

magan katta ishlar bo'lyapti, dedi. Bu yerda kandidat bo'lib, ikki yuz so'm maosh uchun ivirsib yurguncha belni bog'lab maydonga chiqinglar, dedi! Agar bir-ikki yil shamol-u to'zonlarga chidab, ter to'kib mehnat qilsalaring, u yog'i uloqni opketasanlar, dedi. Bu yil to'y qilib, uylab qo'yaman, keyin sahroga haydayman, dedi. Lekin buning hammasini u ziyofatdan keyin, ayni jo'shib turgan bir mavridda aytdi. Ziyofat vaqtida esa, tog'asining gapidan ko'ngli gash, „qittaygina“ otib olib, ancha o'yin ko'rsatdi, qo'rslik qilib odamlarni ranjitdi, hatto Vohid Mirobidovni ham siltab tashladi. Vohid Mirobidov-ku, uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib qulog'ining yonidan o'tkazib yubordi, biroq boshqalar...

Esida bor, o'sha kuni Otaqo'zi olimlar sog'lig'iga qadah ko'tardi. Ilmiy munozaralarda ro'yiost gapirishdan qochadigan, ammo ovoz berishda zimdan oladigan ulug'allomayi davronlar sog'lig'iga ichishni taklif qildi, bunaqa dili boshqa, tili boshqa buyuk olimlar turganda haliyam dunyoni yer yutmaganiga hayron ekanini aytib, otashin nutq so'zladi. Ziyofatga yig'ilgan yoshlar, Haydar bilan Qodirjonning yor-do'stlari bu tagdor g'aplardan og'izlari quloqlarida, uning so'zlarini qarsak va qiyqiriq bilan kutib olishdi. Ammo keksaroq olimlar shundan keyin o'rinlaridan turib chiqib ketishdi...

Ha, o'sha kuni u hovliqdi, judayam hovliqdi, shunday hovliqdiki, ziyofatdan keyin bir o'yi tog'asinikiga borib, chol bilan „bir gaplashib qo'ymoqchi“ ham bo'ldi. Yaxshiyam qizi Tohira: „Qo'ying, dadajon, bobomlardan burun ayamlarni qon qilasiz!“– deb yo'ldan qaytardi. Xayriyat. Agar o'shanda Tohira bo'lmaganda, agar kayf ustida tog'asinikiga kirib borganda nima bo'lardi?

Otaqo'zi xuddi bo'g'ilib ketayotganday boshini mashina derazasidan chiqarib, yuzini shabadaga tutdi.

Qator tizilgan mashinalar qandaydir osuda qorong'ilikka cho'mgan hadsiz sayhonlikda uchib borar, baxmalday tiniq osmon yulduzga to'lib ketgan, ularni hovuchlab olsa, hovuchlab sochsa bo'lardi... Lekin aya, bu bebaho dunyodan baxt ko'rmay o'tib ketgan aya!..

Otaqo'zi betoqat bo'lib, o'zini yana orqa o'rindiqqa tashladi. Ko'zini yumarkan, negadir urushdan keyin o'qishga borgan dastlabki yillari esiga tushdi. ...Urush yillari Toshkentga yetim-yesirlar ko'chib kela boshlaganda, Normurod Shomurodov hovli-joyini shahar kengashiga topshirib, o'zi shu joyga ko'chib o'tgandi. Kitoblar bilan liq to'lgan bu nimqorong'i, zax xonadan Otaqo'ziga ham joy topilgan, kechasi u pechkaning orqasiga yig'ma karavot qo'yib yotar, kunduzi karavotini yig'ib, hovlidagi mittigina o'tinxonaga olib chiqib qo'yardi.

Tog'asi erta yotib, erta turar, odatda, sahar paytlari ishlardi. Aya ham uning bu odatiga o'rgangan edi. Lekin Otaqo'zi o'qishga borganidan keyin aya bu odatini tark etgan, Otaqo'zi institutdan qaytmaguncha, unga ovqat yedirib bo'lmaguncha yotmas, aksariyat, uni kutib, pechka yonida g'ujanak bo'lib uxlab qolardi. Otaqo'zi kech qaytgan kunlari ayani uyg'otib yubormaslikka harakat qilar, biroq tiq etgan tovushga quloq solib yotadigan aya sharpani sezib, albatta uyg'onib ketar, ovqatni o'zi isitib, o'z qo'li bilan oldiga qo'ymaguncha ko'ngli to'lmas edi... Bu hol besh yil davom etdi, besh yil!..

Talabachilik. Sirti yaltiroq, ichi qaltiroq, mul-la mirquruq paytlar. Olgan stipendiyasi bir haftaga ham yetmaydi. Ko'pni ko'rgan aya Otaqo'zining ahvoli-ni yaxshi tushunar, uning o'ziga bildirmasdan har kuni cho'ntagiga bir so'm-ikki so'm solib qo'yardi. Keyinroq kursdosh bir qizga oshiq-u beqaror bo'lib, „yigitlik-ni qo'ldan bermaslik“ payti kelganda esa „Otaqo'zining kunlik nafaqasi“ o'z-o'zidan uch-to'rt so'mga chiqib qoldi. Bu ishni ham aya o'zi qildi.

„Qiz bola bilan yurganda yigitning cho'ntagi quruq bo'lsa qiyin-da, qulunim, – derdi rahmatlik. – O'zingni boyvachcha qilib ko'rsataman, deb chiranmagin-u, har nechuk, kino-pinoga tushganda, suv-puv ichganda qiz boladan pul chiqartirmagin. Ko'p yemasak oz yeb, tog'ang-ning topganini bir amallab yetkazarmiz, ziqna bo'lmagin, bolajonim...“

Aya bechoraning uni o'z farzandiday yaxshi ko'rishi-

ning bitta siri bor, u ham bo'lsa, Otaqo'zi yosh bo'lsa ham Jabborning sirdoshi bo'lgan, bolalik chog'ida Jabbor bilan Fazilatxon o'rtasida pochtachilik qilgandi!

Aya bechora o'g'li bilan Fazilatxon o'rtasidagi munosabatlar haqida – Bo'riboyev sabab qabih voqealar haqida emas, yo'q, ikki yoshning urushdan avvalgi beg'ubor munosabatlari to'g'risida eshitishni yaxshi ko'rardi. Fazilatxonni yo'qlab, o'g'lining qishloqqa borganlari, qizga yozgan xatlari, qizning unga bergan javoblari, oshiq-ma'shuqlarning qachon, qayerda, qay vaziyatda uchrashganlari – aya sho'rlik bu voqealarni jon qulog'i bilan tinglar, har bir gapni ipidan ignasigacha surishtirar, birda g'amgin kulib, birda ko'ziga yosh olib:

– Ha-ya! – deb qo'yardi. – U safar buni aytmovding. Shunaqa bo'lgan demaysanmi, qo'zichog'im?

O'z onasiday mehribon, beg'ubor inson! U umrining so'nggi daqiqasigacha o'g'lidan umidini uzmad. O'g'lining xayoli, uning dardi bilan olamdan o'tdi!

Otaqo'zi talaba bo'lib, ayaning yaxshiliklarini ko'p ko'rgan chog'larida yuragi qaynoq mehrga to'lib, toabad chol-kampirga iltifot ko'rsatishga qasam ichar, abadulabad ularning xizmatida bo'lishga ahd qilardi. Qani o'sha ahdlari? Chol-kampir qarigan chog'larida bellariga quvvat bo'ladigan, ko'ngillariga taskin-u tasalli beradigan nima ezgulik qildi? Hayot ekan. O'ziyam bola-chaqalik bo'lgandan keyin yoshlikda, yurak samimiy istaklar, ezgu niyatlar bilan to'lib-toshgan paytlarda bergan va'dalar, ichgan qasamlar – hammasi yodidan ko'tarilib, mayda-chuyda tashvishlar, bu dunyoning bitmas-tuganmas ishlari bilan o'ralashib qoldi. O'ralashib qolgan bo'lsayam mayli, iz-zat-nafsga, manmanlikka ketib, bu ikki g'arib-u g'uraboning dardiga hamdard bo'lish o'rniga ko'ngillarini o'ksitib, dilozorlik qildi! Shu ham insof, shu ham adolat bo'ldimi? Odamgarchilik qayda qoldi? Otangga rahmat-e, Otaqo'zi!"

Shaharga yaqinlashgan sari bu o'ylar, yurakni kemi-ruvchi bu achchiq pushaymon tobora avj olib borardi. Ha, unda azaldan shunday bir odat bor – ba'zan to'satdan insofga kelib, o'zini ayovsiz qamchilaydi, xudbin qiliqlaridan

soqit bo'lish istagida yonadi! Bu narsa, odatda, biror qiyinchilikka duch kelgan yo boshiga ish tushgan paytlarida bo'ladi. Lekin qiyinchiliklar orqada qolib, ishi sal yurishgudek bo'lsa, o'ziga bergan va'dalari, ichgan ontlari yana esidan chiqib, yana hovliqa boshlaydi... Bema'ni, beqaror odamlarga xos bir subutsizlik!..

Qishloqdan chiqqanda Otaqo'zi to'g'ri tog'asinikiga kirib bormoqchi edi. Lekin shaharga yaqinlashgan sayin noxush xayollar ta'sirida ko'nglidagi ishonchsizlik ortib boraverdi. Aya bechora nima bo'lgan, nima qilgan? Otaqo'zi buni bilmaydi. Mashinalarni qatorlashtirib to'g'ri kirib borsa, tog'asi nima deydi hali? Cho'rtkesar, qaysar odam: „Qilg'ilikni qilib qo'yib, endi belingni bog'lab keldingmi!“ – deb o'shqirib bermasmikin? „Tirigida qadri ni bilmovding, o'lganida obidiyda qilmay qo'ya qol!“ – deb uyidan haydab chiqarmasmikin? Har nimani kutsa bo'ladi bu choldan!..

Haydar turadigan uy katta yo'ldan uzoq emas edi. Otaqo'zi shofyorga orqadagi mashinalar yetib kelguncha to'xtab turishini buyurdi-da, hammasini ergashtirib, Haydarnikiga burildi.

Otaqo'zi tanish uy oldida mashinadan tushganda soat ikkidan chorak o'tgan, Haydarning derazalarida chiroq ko'rinmas edi. Yo u ham tog'asinikiga ketganmikin?

Eshikni bo'lajak kuyovi Qodirjon ochdi. Ichgan bo'lsa kerak, ko'zlari shishinqiragan, sochlari hurpaygan Qodirjon Otaqo'zini ko'rib, pitirlab qoldi.

– Uyda kim bor?

– Haydar ikkimiz... boshqa hech kim yo'q.

– Haydar qani?– Otaqo'zi shitob bilan yurib ichkariga kirdi. Gumoni to'g'ri, stolda bo'shagan konyak shishalari tizilib turar, qolgan-qutgan ovqatlar, chaynab tashlangan bodringlar uyulib yotardi. Yotoqxonaning eshigi ochilib, Haydarning boshi ko'rindi.

– Tohira qani? – dedi Otaqo'zi yuragida jo'sh urgan g'azab bilan olishib.

– Tog'am... tog'amlarnikida.

– Nima bo'пти o'zi? Eshitdingmi?

– Nima bo'lardi? Ayb cholning o'zida. O'sha kuni... momlar bir nima degan ekanlar... o'shqirib beribdi. Mom bechora... yuragi xasta emasmi, o'sha yerdayoq yiqilib qopti. Keyin kasalxonada ikki kun yotib... o'ziga kelolmay... olamdan o'tibdilar.

Otaqo'zi birdan yengil tortdi-yu, o'zidan ijirg'anib ketdi.

– Olamdan o'tgan bo'lsalar... sen bu yerda nima qilib yotibsan?

Haydar to'zg'igan sochlarini silab, yerga qaradi.

– Shuncha gapdan keyin... men bu cholingizni...

– Nima? Nima deb valdirayapsan?

– Nega valdirar ekanman? Tog'angiz... himoyam kuni qilgan yaxshiligi...

– Ablah! – Otaqo'zi bir hatlashda o'g'lining yoniga bordi, bordi-yu, qulochkashlab u yuzi, bu yuziga ikki tarsaki tushirdi. – Nokas! Tug'ishgan tog'angning boshiga shunday musibat tushadi-yu, sen bo'lsang... dissertatsiyani o'ylaysan! Padariga la'nat bunaqa dissertatsiyaning! Qani, bo'l! Darhol ki-yin! Sen ham, – Otaqo'zi ko'zlari ola-kula bo'lib Qodirjonga yuzlandi. – Agar odamgarchilik degandan zig'irdak qolgan bo'lsa... darhol kiyinib pastga tushlaring!

Otaqo'zi eshikni sharaqlatib yopib, uydan chiqdi.

...Tog'asi xuddi Otaqo'zi o'ylaganday, belini bog'lab, darvoza oldida bukchayib o'tirar, yonida qo'ni-qo'shnilar bo'lsa kerak, yana bir-ikki odam ko'rinardi.

Ko'chaning boshidayoq mashinani sekinlatishni buyurgan Otaqo'zi ko'cha chirog'i shu'lasida bukchayib o'tirgan tog'asini ko'rdi-yu, negadir marhum validasining vafoti yodiga tushdi. O'shanda, telegramma orqali xabar topgan tog'asi hovlidan tobut ko'tarib chiqayotganlarida yetib borgandi. Boshida shlapa, egnida qimmatbaho makentosh, tog'asi tobutni ko'rib birdan sherday o'kirib yuborgandi. Ancha yiroqdan: „Mehribonim, jigarim! Yolg'iz opam, dilbandim!“ – deb bo'zlab kelayotgan bu salobatli qariyani ko'rganda hatto tobutkashlar ham to'xtab, yosh-u qari bab-baravar ho'ngrab yuborgan edi.

Otaqo'zi hozir o'sha manzarani esladi-yu, sekin yurib borayotgan mashinadan sakrab tushib o'ziyam bo'zlab yubordi:


– Ena o'rnida ena bo'lgan ayajonim! Yolg'iz o'g'li dog'ida kuyib o'tgan ayajonim! Bag'ri kabob ayajonim!

Normurod ota timirskilanib o'rnidan turdi, qaltiroq qo'llarini cho'zib:

– Qaydasan, jiyayim? Ayirilib qoldim-ku, ayajoningdan! – deb xitob qildi-da, yosh boladay ho'ngrab, o'zini Otaqo'zining quchog'iga otdi.

IKKINCHI QISM

Birinchi bob



Bir oydan keyin qishloqda ayaning qirqi bo'lib o'tdi.
Oydin, osuda bir tun edi.

Qorovultepa yonbag'ridagi qabriston chetiga kelib to'xtagan mashinadan Otaqo'zi tushdi. U orqa eshikni ochib, tog'asining qo'ltig'idan olarkan:

– Men nima qilay? Kutib turaymi? – deb so'radi.

Domla Shomurodov negadir shlapasini olib, oydinga mis barkash yanglig' yaltillab ketgan xumday boshini siladi.

– Yo'q, ketaver. O'zim... keyinroq tushib boraman.

Otaqo'zi qorong'ida sekin yo'talib qo'ydi.

– Qiziq bo'ldi-ku...

– Nimasi qiziq? – Normurod Shomurodov to'xtab o'giri-lib qaradi.

– Har qalay... marosim tugagani yo'q. Odamlar fotihaga kep-ketib turishibdi. Siz bo'lsangiz... kechayam shunday qildingiz, bugun ham...

– Mening o'z dardim o'zimga yetadi, jiyan. Tinch qo'yinglar meni!

– Mayli, tagin o'zingiz bilasiz, – dedi Otaqo'zi itoatkorlik bilan, biroq tog'asining qo'rsligi ko'nglini og'ritdi shekilli:

– Qur'on o'qimoqchimisiz? – deb so'radi.

Otaqo'zi bu gapni aytmassligi kerakligini aytib bo'lganidan keyin tushundi, tushundi-yu, tilini tishladi. Lekin gap og'zidan chiqib ketgan, endi uni qaytarib bo'lmas edi. Tog'asi yalt etib qaradi. Oydinga uning qoramtir yuzi qandaydir vahimali tuyuldi.

– Mening Qur'onim ham, imonim ham mana bu yerda! – ota yo'g'on, baquvvat mushti bilan ko'ksiga gurs-gurs urdi. – Bor, ishingni qil!..

Otaqo'zi indamadi, eshikni shaxt bilan ochib, qarsillatib yopdi-da, mashinaga gaz berdi.

Qabristonga yot o'kirish tungi sukunatni buzdi, mashina faralarining o'tkir nuri qorong'ilikni qilichday kesib, tepada tanho turgan cholning sal bukik, ammo hamon baquvvat qomatini bir zum yoritdi-da, o'zi sochgan yorug'lik qa'riga sho'ng'igancha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Domla Shomurodov boshini osiltirganicha bir lahza o'yg'a toldi. U jiyaniga noo'rin qo'rslik qilganini tushundi, lekin shu zahotiyoyq buni unutdi-da, yakkam-dukkam qabrlarni oralab, yuqorilab ketdi. U hozir mayda-chuyda tuyg'ularga e'tibor beradigan holda emas, to'g'rirog'i, istamas edi.

Atrofi tut, qayrag'och, qurib-qovjirab qolgan chinorlar bilan o'ralgan ulkan qabriston oydinda allaqanday g'arib va mudhish tuyulardi. Qabrlarni tikan bosgan, hamma yoq changalzor, faqat kekxa daraxtlargina emas, ularning ildizlaridan unib chiqqan yosh nihollar ham qurib qolgan. Biroq domla bunga ham e'tibor bermadi. Rost, bundan qirq kun muqaddam, Gulsara ayani dafn etgani olib chiqqanlarida, tashlandiq qabriston manzarasi, shoxlari chollarning qoq suyak qo'llarini eslatuvchi tut va qayrag'ochlar bir zum ko'nglini vayron qilib, hayratga solgandi uni. Kecha kampirning qirqidan keyin – bu orada Otaqo'zi tog'asini shahardan bus-butun ko'chirib ham keldi. – Normurod Shomurodov qabristonga yana chiqdi. Ammo bu safar tashlandiq go'riston manzarasi ilgorigiday ko'ngliga g'ashlik solmadi. Albatta, qabristonga qarab turishsa, daraxtlarni ko'kartirib, gullar ekib, o'lganlar xotirasiga xotira toshi qo'yishsa yomon bo'lmas edi. Ammo aslini olganda... o'lim oldida, hayot va tabiatning bu shafqatsiz hukmi oldida xotira toshi qo'yildi nima-yu, qo'yilmadi nima? Zotan, nihoyasiz vaqt oldida, asrlar va ming yillar qarshisida bu bir parcha tosh emas, ulug' maqbaralar, muhtasham daxmalar o'zi nima? Ular ham inson hayotiday o'tkinchi va ayanchli bir narsa emasmi?

Domla Shomurodov ko'pni ko'rgan kekxa olim sifatida o'limga faylasuflarcha qarar, o'lim haq ekaniga iqror va undan qo'rqmas, o'limni u inson umrining tabiiy va qonuniy bir yakuni deb bilardi. Ayni zamonda o'lim odamlar boshiga mislsiz musibat keltirishini ham anglar edi. Lekin har ikkala haqiqatga iqror bo'lgani holda, o'limga faylasuflarcha qaragani holda, kampirning vafoti uning qaddini bunchalar bukib qo'yadi, deb sira o'ylamagan edi!..

Domla, nihoyat, o'z xilxonalarini, xilxona orasidan Gulsara ayaning kichkinagina qabrini topdi-da, qabr yon-boshiga kimdir qo'yib ketgan g'adir-budur cho'ng toshga bemajol cho'kdi, cho'karkan, negadir kampirning kitoblar orasidan chiqqan xatlari esiga tushdi-yu, butun baquvvat gavdasi bilan silkinib, piq-piq yig'lab yubordi...

Avvalgi kuni, kitoblar orasidan tasodifan chiqib qolgan bu maktublar, ayaning urush yillari frontda yurgan yolg'iz o'g'illariga yozgan xatlari edi.

O'g'illari Jabbor, bu xatlarni, aftidan, qirq uchinchi yili ta'tilga kelganida tashlab ketgan edi. Lekin gap bu maktublarning qanday asrab qolinishida emas, gap kampir bilan uning, Normurod yozgan xatlarning mazmunida edi...

Bu xatlarda gap, asosan, bir masala ustida, urushda yurgan o'g'illari Jabborning sevgilisi Fazilat degan qiz haqida borardi.

Domla Shomurodov Fazilatni, Fazilatnigina emas, uning ota-onasigacha yomon ko'rardi. Shuning uchun ham yolg'iz farzandiga yozgan xatlarida bu qizning o'zinigina emas, avlod-ajdodlarigacha qoralab, ularning nomunosib odamlar ekanini olimlarga xos bir mantiq va ezmalik bilan isbot qilib yozgandi. Kampirning chalasavod xatlarida esa: „Dadangdan ranjimay qo'ya qol, bolam. Iloyim boshing omon bo'lgay. Omon qaytsang, istaganing bilan qovusharsan. Dadang bechora nima ham derdi? Ishqilib, boshing toshdan bo'lgay, Ollohga topshirdim, bolajonim!“– degan oddiygina so'zlar yozilgandi.

Bu oddiy so'zlarda qandaydir cheksiz bir donolik bor edi. Onalik mehridan tug'ilgan bu teran donolikni ham, kampirning ko'z yoshlari bilan sug'orilgan bu tiniq so'zlar

oldida o'z xatlarining butun mudhish shafqatsizligini ham domla Shomurodov mana endi, bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda turganda tushundi. Rost, uning gaplari, qiz haqidagi bashoratlari ro'yobga chiqdi. Fazilat yaxshi qilmad, qahramonlik unvoni olib ta'tilga kelgan o'g'illari Jabbor qon qaqshab qaytib ketdi...

Lekin... garchi o'shanda Fazilat haqida qilgan bashorati ro'yobga chiqqan bo'lsa ham frontda qon kechib yurgan yolg'iz farzandiga uning sevgilisi to'g'risida shunday sovuq va shafqatsiz xatlar yozishi o'taketgan nodonlik emasmidi?

Ha, nodonlik edi! Chunki o'g'liga yozilgan bu xatlarining murakkab sabablari bor edi. Normurod Shomurodov u mahalda, urushda yurgan o'g'liga xat yozayotgan mahalda, buni o'ylamagan, aksincha, yolg'iz farzandining baxti va kelajagi uchun qayg'urayotganiga imoni komil edi. Biroq endi, Gulsara ayaning qabri tepasida o'zini aldashni istamaydi. Fazilat to'g'risida yozilgan bu xatlarning tub sababi – bir mahallar uning o'zi ham Fazilatning onasi Oynisaga ko'ngil qo'ygani, ammo murodiga yetolmagani edi!

Eng yomoni – bu mashmasha Gulsaraga uylanganidan keyin, hatto farzand ko'rganlaridan keyin sodir bo'lgan, Gulsara bechora esa uning bu nomardligini ham kechirgan edi. Ha, domla endi o'ylab qarasa, Gulsara sho'rlik unga tegib, tuzukroq bir hayot kechirmabdi... Uning sertashvish, serg'alva, behalovat turmushini baham ko'raman deb, umri g'urbatda o'tib ketibdi.

Ajabo, hayot ularni ikki marta yaqinlashtirdi, qalblarida bir-biriga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat uyg'otdi. Biri yoshlikda, hatto bolalikda, bahor chog'lari tegirmon sohili-da, ariq bo'ylarida yalpiz terib yurgan paytlarida sodir bo'ldi. Biri so'nggi uch-to'rt yil davomida, Normurod Shomurodov nafaqaga chiqqandan keyin yuz berdi... Ayniqsa, so'ngi paytlarda chol-kampir bir-biriga suyanib qolishgan edi.

Gulsara aya xastalanib qolsa, Normurod domla juda talmovsirab, qo'rqqanidan o'zini yo'qotib qo'yar, har safar:

– Sen shoshma, ayasi, avval men ketay, keyin sen borarsan, – derdi, go'yo bu dunyodan kim oldin, kim keyin ketishi kampirning irodasiga bog'liqday.

– Qo‘ying, shu gaplaringizni! – deyardi aya yolvorib. – Sabab unday deysiz, domlajon?

– Sababi... Sen ketsang menga kim qaraydi?

– Menga-chi?

– Sen ayolsan. Har qalay, o‘zingni o‘zing eplaysan. Men dardisarga kim qaraydi?..

Bu gaplar ko‘ngillaridagi eski dog‘ni, frontda halok bo‘lgan o‘g‘illari Jabbor dog‘ini qayta qo‘zg‘ardi-yu, aya-ning kirtayib qolgan nursiz ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lardi. Domla esa... Domla keyingi paytlarda qiziq bo‘lib qolgandi: bu gaplar qo‘zg‘alishi bilan o‘zini tutolmay, butun gavdasi bilan silkinib, yosh boladay piq-piq yig‘lab yuboradigan bo‘lib qolgandi...

Ha, domla Shomurodovning qalbida betaskin bir dard, so‘nmas bir alam bo‘lib qolgan narsa ham shu – suyangan tog‘ini o‘zi yiqitdi! O‘sha hammaga ma‘lum va mashhur qo‘rsligi, manmanligi, diydasi qattiqligi sabab o‘z hayot yo‘ldoshini, umrbod uning xizmatini qilib o‘tgan bu ulug‘ insonni o‘z qo‘li bilan urib yiqitdi hisob!..


Gulsara aya bir qulaganicha tili gapga kelmay dunyodan ko‘z yumdi. Domla ikki kecha-yu kunduz uning yonidan jilmadi, og‘ziga suv tomizib, javdiragan ko‘zlariga tikilib o‘tirdi. Oллоhni dilidan tark etgan odam, ayaning tilga kirishini, tilga kirib bir og‘izgina so‘z aytishini so‘rab, ko‘kka tavallo qildi. Yo‘q, tilga kelmay olamdan o‘tdi. Ko‘zlarida esa, dardli mo‘ltiragan ko‘zlarida esa yolg‘iz bir o‘y, bir tashvish: „Sizning holingiz nima kechadi? Sizga qiyin bo‘ldi-ku endi, domlajon?“ – degan bir nido bor edi, xolos.

Normurod Shomurodov tildan qolgan kampirining shu ko‘zlarini, ko‘zlaridagi shu unsiz iztirobn har eslaganda yuragi tuzdek achishib ketardi. Mana hozir ham o‘pkasi to‘lib, lablariga tekkan nordon tomchilarni artarkan, xayolan yana ayaga murojaat qildi:

„Meni afv et, azizim. Bilaman – men seni ko‘p o‘ksitdim, senga ko‘p dilozorlik qildim. Men bilan turmush qurib hech bir ro‘shnolik ko‘rmading. Hammasini bilaman. Lekin nachora? Yoshlikda, tegirmon sohillarida yalpiz terib yurgan paytlarimizda tasavvur etgandek oson emas ekan bu

hayot... Shafqatsiz ekan hayot deganlari... Kechir, azizim. Men ham yoningdan joy tanlab qo'ydim. Yaqinda kelaman. Bitta-yu bitta orzum – tezroq yoningga kelib yotsam-u, yuragimni timdalayotgan bu beadam o'ylardan, alamli xotiralardan forig' bo'lib, orom olsam....

Normurod Shomurodov tagidagi cho'ng toshga qo'llarini tirab bazo'r o'rnidan turdi...



Domla yantoq va kakra bosgan so'qmoq yo'ldan bir-bir bosib orqaga qaytdi. Qorovultepa ustida bezrayib turgan bir tilimgina oy shu'lasida ulkan go'riston allaqanday g'ayritabiiy, yot bir olamga o'xshardi. Jimjit. Faqat chigirtkalar chirillaydi, pastda, oydinda o'rmonday qorayib ko'ringan qishloq tomonda baqalar qurullaydi, o'qtin-o'qtin itlar huradi...

Normurod Shomurodov „Kuygan ota“ qabri tepasidagi qo'shtutga yaqinlashganda ko'ksiga shabada tekkanday, qulog'iga yaproqlarning mayin shitirlashi eshitilganday bo'lib, boshini ko'tardi. Ajabo! Go'riston tevaragidagi hamma daraxtlar qurib-qovjirab qolgan-u, bir-biriga chirmashib o'sgan va kamida yuz yil umr ko'rgan bu ikki tut hamon yaproq yozib, hamon ko'karib turardi!..

Domlaning bolalik chog'larida it qopib quturganlar aqlidan ozganlarni „Kuygan ota“ mozoriga tavof qildirgani olib kelishar va shu tutlarga zanjirband qilishar, jinnilarining vahshiyona o'kirishlari kechalari bolalar, qizlar, yosh juvonlarni zir titratardi...

„Sog' odamni jinni qiladigan bu vahimali qabristonga jinnilarni olib kelishlari g'alati“, deya ko'nglidan o'tkazdi domla, o'zi ham nimadandir seskanganday bo'lib. U qo'shtut tagidan chiqib qadamini jadallatdi. Shu payt yana bir uzoq esdalik yodiga tushdi, tushdi-yu, xayolidagi boshqa hamma o'ylarini surib chiqardi.

O'n oltinchi yilning kech kuzi... Qishloqdan mardikorlikka olingan yuz yigit, ketishlaridan bir kun avval, namozgar paytida go'ristonni ziyorat qilgani chiqishdi. U payt-

larda shunday odat bo'lar – uzoqqa otlangan har bir kishi ketishidan oldin go'ristonga chiqib, avliyolar qabrini tavof qilardi.

O'z farzandlari o'rniga kambag'allardan yigit yollagan qishloq zodagonlari qabriston chetiga qozon qurdirib, qurbonlikka qo'y va ho'kiz so'yishgan edi.

Namozdan keyin yigitlarga laganlarda shavla tortildi, shavladan keyin Qur'on o'qilib, oq fotiha berildi. Shu payt, oq fotiha o'qilib, yigitlar endi qo'zg'ala boshlaganda, o'sha mahalda chapaniligi bilan qishloqda nom chiqargan O'roz xo'roz degan yigit:

– Hoy, xaloyiq! – deb olomonni og'ziga qaratdi. – Eshitishimga qaraganda, qishloq biylari bizga Vohidxo'janing o'g'li Quدراتxo'jani yuzboshi qilib tayinlashmoqchi emish. Quدراتxo'ja kim o'zi? Xo'jazodaman, deb kerilgani bo'lmasa, nima karomat ko'rsatyapti? Mening gapimga quloq sol-salaring, yigitlar, yuzboshi qilib, og'aynimiz Normurodni saylaymiz! Yaxshi otaning bolasi! Madrasa tahsilini olgan, shahar ko'rib, oq-qorani tanigan insofli yigit! Hammamiz taniymiz!.. Xo'sh, bu gapga nima deysanlar, mo'minlar!

Har joy-har joydan:

– To'g'ri!

– Bilamiz Normurodni!

– Diyonatli yigit!– degan xitoblar eshitildi.

O'linga mahkum etilganlarning so'nggi tilagi rad qilinmaganidek, mardikorlikka otlangan O'rozqulning taklifini ham hech kim, hatto qishloq ahlini bitta gap bilan yotqizib-turg'izadigan kazo-kazolar ham rad qilolmadi. Shu-shu, Normurod mardikorlikka ketayotgan qishloq yigitlarining yuzboshisi, Rossiyaga, Penzaga borib tushganlaridan keyin esa, yelkasiga pogon taqqan „sotnik“ bo'lib ketdi.

Ayaning vafotidan keyin domla Shomurodov turmush to'g'risidagi: „Dunyoga kelib nima ko'rdim?.. Ko'zimni ochdim-u yumdim!“ – degan eski naqlni ko'p eslagan edi. Endi o'ylab qarasa, u ne-ne balolarni boshidan kechirgan, necha to'fon va dovullardan eson-omon o'tib, hamon sudralib kelayotgan „qari tulki“ ekan!..

Ha, O'rozqul haq, Normurod bundan oltmish yil

muqaddam, mardikorlikka ketadigan o'sha mash'um ilon yilidan oldinoq shahar ko'rgan, bir necha yil Toshkentda bo'lib, Beshyog'och dahasidagi mashhur Ma'dixon eshon madrasasida tahsil olgan mullavachchalardan edi.

Normurod Shomurodovning bobolari asli toshkentlik bo'lib, bu joylarga savdo ishlari bilan kelgan-u omadi yurishib, qolib ketganlardan. Uning otasi Shomurod boyvachchaning qishloqda attorlik do'koni bo'lar, u o'ziga to'q, ilmga, kitobga qiziqadigan, ayni zamonda asli toshkentlik ekanligidan kerilib yuradigan, kalondimog', xushqomat, xushsurat odam edi. U o'g'li Normurodni qishloqda savodi chiqishi bilan chirqiratib Toshkentga, kimsan Ma'dixon eshon madrasasiga olib borib topshirganining boisi ham shunda edi. Lekin oqpodsho – german urushi boshlandi-yu, Shomurod boyvachchaning ishlari orqaga keta boshladi, mollari kasodga uchrab, sindi-da, o'ziyam kasalga chalinib, ko'rpa-to'shak qilib yotib oldi. Boyvachchaning eng so'nggi yaxshiligi, o'n oltinchi yili yozda, Normurodni Toshkentdan chaqirtirib olib, ko'zi tirik chog'ida sevgan qizi Gulsaraga uylantirib qo'ydi. Otasi bu ishni xuddi bilganday qilgan ekan, chunki to'y bo'lib, karnay-surnay sadolari tinmasdanoq olamdan o'tdi. Qiz-kelinchaklarning yor-yori judolik faryodiga ulanib ketdi...

To'y va motam marosimlari tugatugamasdanoq bu xonadonning ahvoli ham oppa-oydin bo'ldi-qoldi. Kechagina kimsan Shomurod boyvachchaning o'g'liman, deb kerilib yurgan Normurod, qulog'igacha qarzga botib, kafangado bir yigitga aylandi-qoldi.

Ilon yili. Ko'klamda bir tomchi yog'in bo'lmay, dehqonlar sepgan urug'larini ham yig'ib ololmagan, mollar qirila boshlagan bu mudhish qahatchilikda oilani ochlik-yalang'ochlikdan asrab qolishning bitta-yu bitta yo'li bor, u ham bo'lsa oqpodsho e'lon qilgan mardikorlikka borish edi.

Mardikorlik ham xuddi oqpodsho o'ylab topgan behisob soliqlarga o'xshardi. Unga har olti xonadondan bir yigit borishi kerak, bu olti xonadon mardikorlikka ketadigan yigitni kiyim-kechak va yo'l ozig'i, oilasini esa o'lmas ovqat bilan ta'min etmog'i lozim edi... Shu tariqa Normurod ke-

chagina chimildiqqa kirgan yosh qallig'ining faryodiga, oltmishdan oshgan onaizorining ko'z yoshlariga quloq solmay, mardikorlikni tanladi...

Domla Shomurodov qabriston chetidagi changalzordan o'tib, sertuproq katta yo'lga chiqib oldi, yo'l tobora pastlab borgani uchun yurish osonlashdi, faqat oyoq ostidagi tuproq bilq-bilq qilib, dimog'iga chang hidi gup-gup urardi... Oldinda birinchi uylar, paxsa devor bilan o'ralgan hovlilar, bog'lar ko'rindi, yuziga salqin shabada tegdi... Lekin domla hatto shabadani ham sezmedi. Bir-biridan tiniq, bir-biridan o'tkir xotiralar, xuddi shu bugun ko'rgan yorqin tushday, butun fikr-zikrini band etgan edi...

Tun. Jihozlarining hammasi sotilib bo'lgan, to'g'rirog'i, bir qadoq-ikki qadoq arpa yo jo'xori unga almashtirila-almashtirila ship-shiydam bo'lgan katta, chorxari uyning bir burchagida, hamon yig'ishtirib olinmagan chimildiq ichida, qora dud aralash ko'tarilgan ingichka moychi-roq shu'lasida, Gulsara tovushsizgina titrab yig'laydi. O'rta bo'yli, nozikkina yosh kelinchak, Normurodning nazarida, kimdandir aziyat chekib, o'ksib-o'ksib yig'layotgan kichkinagina qizchaga o'xshaydi... Normurod uni bag'riga bosib, rayhon hidi taratgan silliq sochlarini silaydi, quloqlariga allanimalarni shivirlaydi, lekin Gulsara yosh bilan yuvilgan yuzini uning alamli ko'ksiga bosib, battar yig'laydi, ozg'in yelkalari yaproqday titraydi.

Nimqorong'i chorxari uydan, Gulsaraning yosh to'la ko'zlaridan xayoli bir sakrab temiryo'l vokzaliga o'tadi...

Gotik uslubida qurilgan, nimasi bilandir eski rus cherkovlarini eslatgan vokzal oldidagi maydon va uning ortidagi ufqlarga cho'zilgan hadsiz dasht odamga, „bo'h-bo'h“-lagan tuyalarga, qo'qonarava-yu hangragan eshak, kishnagan otlarga to'lib ketgan. Birov og'asini, birov inisini, birov o'g'lini quchoqlab yig'laydi, boshlariga sallasimon o'dana o'rab olgan, yuzlari ochiq qirg'iz kampirlar xuddi motam ustida bo'zlaganday, o'lan aytib bo'zlaydi, kimdir xuddi azon aytayotgan muazzinday, ovozining boricha baqirib, Ollohg'a tavallo qiladi...

Mana, nihoyat, qizil vagonlarga chiqishni talab qilib,

otasharava chinqiradi, cherkovsimon vokzal tepasidagi qo'ng'iroqlar daranglaydi, qamchi o'ynatgan shopmo'ylov kazaklar otlari bilan yigitlar ustiga bostirib kelib, vagon tomon suradi, suradi-yu, mislsiz faryod osmon-u falakka chiqadi....

Bu mash'um voqealarning bo'lib o'tganiga yarim asrdan oshibdi, biroq Normurod Shomurodovning ko'z oldida xuddi kecha bo'lganday turibdi: otasharava so'ng bor chinqirib hisobsiz qizil vagonlar sharaq-shuruq qilib qo'zg'alganda hamon bo'zlab, hamon faryod chekkan olomon ham eshelon bilan baravar qo'zg'aldi. Yayovlar yayov, otliqlar otda, eshaklilar eshakda, tuya va hatto ho'kiz mingan odamlar, go'yo otasharavani to'xtatib qoladiganday, baravar chopib boshishar, vagondagilar olomonga, olomon vagondagilarga qarab talpinar edi.

Sal o'tmay, yayov yugurganlar, ayollar, chollar, chollar-dan keyin ho'kiz va tuya minganlar ortda qola boshladi. Faqat bir nechta otliq va nortuyasini lapanglatib chopgan qirg'iz chol eshelonni shahar chekkasidagi o'tovlargacha, cherkovsimon vokzal binosi ko'zdan g'oyib bo'lguncha quvib bordi, keyin ular ham bitta-bitta qolib ketishdi...

Qiziq, bir qarashda bir zum, bir qarashda ming yil o'tganday tuyulgan o'sha davrdan, mardikorlikka birga borgan o'sha yigitlardan kimlar bor? Ko'plar yo'q, juda ko'plar – joylari jannatda bo'lsin – olamdan o'tdi. Tiriklarini barmoq bilan sanash mumkin. Mana u, Normurod bor, uni yuzboshilikka saylagan o'sha O'rozqul hayot. Ha, aytmoqchi, o'shanda yuzboshilikdan mahrum bo'lgan Vohidxo'ja-ning o'g'li Qudratxo'ja ham tirik. G'alati narsa ekan dunyo. Bu odam mardikorlikdan keyin o'zini savdoga urgan, qishloqda do'kon ochib, NEP davrida juda boyib ketgan edi. O'ttizinchi yillarning boshida hayot ikkisini yana bir to'qnashtirdi: Normurod uni quloq qildi. Qayoqqadir surgun qilingan Qudratxo'ja suvga cho'kkan toshday bedarak bo'lib ketgan edi, elliginchi yillarning o'rtalarida eson-omon qaytib keldi. O'shandan beri qishloqda. Giyohvand. O'zini darvishlikka solib yuradi. O'g'ri qarisa, so'fi bo'ladi, degan-dek, Normurodni ko'rsa... nuqul „falsafa to'qiydi...“ Yana

kim bor? Ha, aytmoqchi, mardikorlikda tilmochlik qilgan Proxor chinq ham tirik. Tog'da, o'rmon xo'jaligida ishlaydi.

Proxorning taqdiriham juda qiziq. U bu yerlarga Nikolay – german urushidan avval, sababi ochlik, poyezdga yopishib kelib qolgan-u, shahar bozorida meshkobchilik qilib yurib, „sartchani“ suv qilib ichib olgan. „Chinq“ deyilishi esa dastlab kelgan paytlarida ochlikdan qovun-tarvuz o'g'irlayotgan joyida qo'lga tushgan, qo'lga tushib, bir qulog'idan ayrilgan-u, o'sha-o'sha laqabi „Proxor chinq“ bo'lib ketgan... Proxor u paytlarda juda yosh bo'lgan, lekin mardikorlarga tilmoch topilmay turgan dolzarb bir paytda kimningdir esiga tushib qolgan-u yigitlarga qo'shib, vagonga bosib yuborishgan. Proxor bechorayam Normurodni ko'rsa, „o'lib“ qoladi, o'sha mash'um, ammo nimasi bilandir yuraklarini qitiqlaydigan mardikorlik chog'larini eslab, yotib dardlashadi...

Motor ovozig a o'xshash guvullagan ovoz domlaning xayolini bo'ldi. Bu – tegirmon novidan tushib, parraklarga urilayotgan suvning guvullashi edi.

Normurod Shomurodov soyga yaqinlashganini bilib to'xtadi. Erta bahorda toshqin kelib, asov daryoday ko'pirib yotadigan daryo o'zani hozir ko'm-ko'k ajriqzorga aylangan, soyda eshaklar, tushovlangan otlar, to'yanidan hansirab yotgan sigirlar qorasi ko'rinar, o'zanning narigi betida esa eski tegirmon guvullardi...

Domla boshini sal egib, tegirmonni ko'rishga harakat qildi. Biroq o'rmonday qorayib turgan bog'lar orasida tegirmon ko'rinmas, faqat tarnovdan tushayotgan suvning bir me'yordagi tiniq guvullashi tobora ravonroq eshitilmoqda edi.

Balanddan tushib, tegirmon parraklarini aylantirayotgan bu suv, bolalikdan tanish bu guvullash cholning miyasidagi allaqanday murvatlarni boshqa tomonga burib yubordi-da, dilida oy shu'lasiday musaffo esdaliklar uyg'otdi...

Hozir deyarli keraksiz bo'lib qolgan bu tegirmon Gulsaralarning tegirmoni edi. Gulsaralarning tegirmonidan sal

yuqoriroqda, to'g'on boshida, ularning, Shomurod baqqolning tegirmoni bo'lar, qishloqda bu joylarni „Qo'shtegirmon“ deb atashardi... Qo'shtegirmon tepasidan tevarak-atrofdagi har bir uy, har bir hovli, aylanasi baland devor bilan o'ralgan ko'hna qal'a, qal'a ichidagi gumbazli machit va machitga ulanib ketgan qator do'konlar, rastalar, qo'yingki, butun qishloq kaftday ko'rinardi.

Qishda ular eski qal'a ichidagi tor, zax uylarda yashashar, ko'klamda, soyga toshqin kelib, daraxtlar kurtak yoza boshlaganda esa, tegirmon bo'yidagi mana shu bog'larga ko'chib chiqishardi.

Ular ko'chib chiqqan mahalda ariq bo'ylari go'yo yuvib qo'yilganday tiniq, yam-yashil maysalar bilan qoplanar, olamni chuchmoma va yalpiz atri tutar, tollar sarg'ayib, bargak yoza boshlar edi. Faqat bir narsa ularning g'ashini keltirib, ijirg'antirar, kunlar ilib, yer qiziy boshlashi bilan ariq bo'ylari, ayniqsa, tegirmon sohillari g'uj-g'uj ilonga to'lib ketardi.

Har bittasi bilakday keladigan ko'k-sarg'ish ilonlar bir-biriga chirmashib, xuddi odamlarday oftob shuvoqqa chiqib yotar, daraxt ildizlari, hatto tegirmon parraklarini o'rab olardi. Bu ilonlar negadir „qut“ hisoblanar, kattalar ularga tegmas, ilonlarning sovuq ko'rinishidan dahshatga tushgan bolalar esa: „Shoshmanglar, laylak kelsin, ko'ramiz!“ – deyishardi.

Haqiqatan, kunlar isib, osmonda laylak paydo bo'lishi bilan ilonlar bir kundayoq qaygadir gumdon bo'lardi...

U mahalda qishloqdagi har bir bog', bog'lardagi har bir terak, har bir chinor, ayniqsa, qabristondagi keksa sadalar tepasida, hatto machit minorasida ham ulkan tandirlarni eslatuvchi laylak uyalari bo'lar, erta bahor osmon-u falak juft-juft bo'lib uchuvchi oppoq, go'zal laylaklarga to'lib ketardi.

Qo'shtegirmonda ham ikkita laylak uyasi bo'lar, biri Gulsaralarning hovlisida, biri Normurodlarning bog'idagi oq terak tepasida edi.

Esida bor – Normurod Toshkentda turib, uch yil Ma'dixon eshon madrasasida tahsil ko'rganida u hammadan

ko'ra mana shu soy, mana shu tegirmon bo'ylarini sog'inar, yuragi terak uchlariga uya qo'ygan go'zal laylaklarga qarab talpinar, ularni tushlarida ko'rib chiqardi. Uch yildan keyin, oqpodsho – german urushi boshlanib, qishloqqa qaytib kelganida esa... fojiali bir voqeaning ustidan chiqqan – otasi tamom sinib, ko'rpa-to'shak qilib yotib qolgan, tegirmonlarini sotib olgan Vohidxo'janing odamlari to'g'on sohilidagi oq teraklarni qirqqani kelishgan edi...

Hali-hali ko'z oldida turibdi: oftob terak bo'yi ko'tarilgan, osmon bulutsiz, beg'ubor, iliq bir kun edi. Bellarini arqon bilan bog'lab olgan odamlar oybolta va arralarini ko'tarib, laylak uya qo'ygan oq teraklar tagiga borganda, uyadagi laylaklar, xuddi mash'um hodisani oldindan sezganday, zorli chag'chag'lashib, osmon-u falakka parvoz qilgandi. Sal o'tmay qo'shni bog'lar, machit minorasi va hatto qabriston bog'idagi laylaklar ham uyalaridan ko'tarildi-yu, osmon-u falak allaqanday tahdidli chag'chag'lagan oppoq laylaklarga to'ldi. Bu voqeaga ellik yildan oshdi, lekin kecha bo'lganday esida turibdi uning. Shu payt pastki tegirmon tomondan qiz bolaning: „Normurod! Normurod aka! – degan zorli nidosi eshitildi. – Qo'y deng ularga! Qo'y deng!“

Bu – Gulsara edi! U o'z teraklarini quchoqlab olgan, go'yo bu bilan qirqilayotgan teraklarni asrab qoladiganday chinqirib yig'lardi. Lekin Normurodlarning arralanib bo'lgan oq teragi bir tomonga og'a boshlagan edi. U butun qudrati, bulutlarga qo'l cho'zgan beqiyos gavgasi bilan yon-ve-ridagi boshqa daraxtlar, tol va qayrag'ochlarni yanchib, sindirib, olamni larzaga keltirib gursullab quladi. Terak shoxlaridan ajragan laylak uyasi esa osmonda bir zum, bir daqiqa muallaq osilib qoldi-yu, keyin allaqanday xas-cho'p, qush patlari, ilon po'stlarini to'zg'itib, karaxt bo'lib qolgan Normurodning oyoqlari ostiga kelib tushdi...

Yana esida...

„Bas! Nima qilasan, xasta yuragingni tilka-pora qiladigan bu esdaliklar bilan o'zingni egovlab? Endi kimga kerak bu alamli xotiralar? Oshingni oshab, yoshingni yashab bo'lding! Endi qolgan besh kunlik umringni beg'alva-be-

tashvish o'tkazishni o'ylasang-chi, Normurodvoy! Mana, mol-dunyong, kitob-pitoblaring bilan ko'chib kelding. Dunyoga kelib orttirgan eng katta boyliging – shu kitoblar! Salkam o'n ming jild kitob! O'shalarni o'qib, mutolaa qil. Yoshlarga ulash. O'qishsin. Bahramand bo'lishsin. Oxirgi paytlardagi eng ulug' orzung shu edi-ku. Shu ish bilan o'zingni ovuntir, taskin-u tasalli ol. Bu chirkin o'ylar bilan dilingni namozshom qilishdan ne foyda, og'ayni?"

Ha, domla Shomurodov so'nggi yillarda bu to'g'rida chindan ham ko'p o'ylar edi... Qishloqqa ko'chib borsam, otameros joyimda bir-ikki xonali boshpana qurib olsam-u, xonalarning bittasini kutubxona, bittasini qiroatxona qilib, yosh-yalanglarga kitob tarqatib, ko'rgan-kechirganlarimdan gapirib berib o'tirsam, ularning dilida fanga, san'atga ishtiyoq uyg'otsam, g'o'fillarning ko'zini ochsam, iste'dodli yoshlar uchrasa – ularning boshini silasam, qo'llab-quvvatlasam, deb orzu qilardi. Lekin bu haqda o'ylarkan, yonida hamisha ayani ko'rardi. Xayolida u o'zi ko'ziga ko'zoynak taqib, kitob so'rab kelgan yoshlar bilan suhbatlashib o'tirar, aya esa, choy-poyga qarar, ularning uylari, to'g'rirog'i, kichkina kutubxonasi qishloq ahlining eng sevimli joyiga aylanardi.

Mana, nihoyat, domla ezgu niyatiga yetdi. Jiyani Otaqo'zi o'zi bosh-qosh bo'lib, bir kunda ko'chirdi-keldi. Lekin, hayhot. Gulsara bechora dunyodan o'tganda bo'ldi bu ish!

„Nachora, erta-indin sen ham olamdan o'tasan. Hech kim ustun bo'lgan emas bu dunyoga. Ammo ungacha sabot qilmog'ing, sababi tirikchilik, qimirlab turmog'ing darkor. Bu afsus-nadomatlarga chek qo'y, Normurod chol. Oq-u qorani tanigan qariyasan. Tushunmog'ing kerak. To o'lgu-ningcha, toki so'nggi nafasing chiqquncha chizgan rejalar-ring, o'ylagan o'ylaringni ro'yobga chiqarmog'ing kerak. Besabr bo'lma, Normurod chol, besabr bo'lma...,

Ikkinchi bob



Otaqo'zi qabristondan to'g'ri uyiga qaytdi.

Marosimga kelganlar tarqab ketishgan, o'ng tomondagi oldi ayvon qator xonalarning faqat bittasida – yotoqxonadagina chiroq bor, biroq hovlining etagidagi Haydar uchun qurilgan uyning hamma derazalari charog'on, u yerdan magnetofonga yozib olingan yengil kuy eshitilardi.

„Yoshlar tushmagur! – dedi Otaqo'zi kulimsirab. – Birikki kun sabr qilib turishsa nima bo'lardi?“

U oyoq uchida yurib ayvonga chiqdi, yotoqxonada, shundoq derazaning yonida, xotini Oliya boshini bir tomonga egib, pastki labini tishlab kiyim dazmollardi. Oliyaning qizlik chog'idan tanish bu odati, og'irroq bir ish qilganida pastki labini tishlab, pichirlab ishlash odati, Otaqo'zining dilida to'satdan iliq bir mehr uyg'otdi. Oliya yoshi qirqdan oshib, to'rt farzand – ikki o'g'il, ikki qiz tug'ib bergan bo'lsa ham hamon yosh juvonday nozik ko'rinar, bir mahallar, universitetda o'qib yurgan paytlarida ko'p yigitlarni shaydo qilgan jamoli hanuz so'lmagan, faqat qirra burnining chetlarida, peshanasida ingichka ajinlar paydo bo'lgan, o'ychan ko'zlariga qandaydir chuqur horg'inlik cho'kkan...

„Bu bechoragayam oson tushmadi bu marosim!“

Otaqo'zi eshikni sekin ochib, ichkariga kirdi.

Oliya bir zum qo'li ishdan to'xtab, eriga qaradi.

– Tog'amlar qanilar?

– Qabristonda qoldi...

– Tag'in-a?

– Ha... Yoshlikdagi gunohlari uchun yangamdan kechirim so'ramoqchilar... – Otaqo'zi xaxolab yuboray dedi-yu, xotinining jiddiy tikilib turganini ko'rib, kulgisini ichiga yutdi, yoniga borib, ozg'in yelkasidan quchdi.

Rahmat senga, azizim!

– Nega?– dedi Oliya ko'zlarini katta ochib.

– Negaki... sengayam oson bo'lmadi. Bir oydan beri keldi-ketdi, uyda halovat yo'q...

– Mayli, – Oliya o‘ychan ko‘zlarini yerga tikdi. – Bizdan boshqa suyanadigan kimi ham bor bechora cholning. O‘g‘illari hayot bo‘lganda... kechasi o‘ylab, yana xo‘rligim keldi.

– O‘g‘illari bo‘lmasa, o‘g‘illaridan ziyod qildik! – dedi Otaqo‘zi qovog‘ini uyib. – Hamma mamnun. Qishloqdayam, rayondayam rahmat demagan odam yo‘q! Xo‘p. Dazmolingni qo‘yib tur. Bu yoqqa kel. Bir gaplashib olaylik, – Otaqo‘zi vazmin odimlab, to‘rdagi divanga o‘tib o‘tirdi. Uning oftobda qorayib ketgan shiddatli ot yuzi bugun qandaydir juda muloyim ko‘rinar, charchoqdan, uyqusizlikdan kirtaygan qo‘y ko‘zlarida sho‘x tabassum jilva qilardi.

– Xo‘sh, bu yog‘i nima bo‘ldi, xonim?

– Nimani aytasiz?

– Nimani bo‘lardi – to‘yni aytaman-da!

– Bilmasam... – Oliya ko‘zlari mo‘ltirab eriga qaradi. – Tog‘amlarning ko‘ngillari og‘rimasmikan?

– Nega endi og‘rirkan! Yetmishdan oshgan kampir! Hamma rasm-rusumlarni bekam-u ko‘st bajo keltirdik! Tog‘amlar bilan o‘zim gaplashaman. Xo‘sh, bu yog‘i tayyormi? Yoshlar nima deyishyapti?

– Yoshlar... – Oliyaning oq-sariqdan kelgan kulcha yuziga qizillik yugurdi. – Kuyovingiz uyda o‘tiribdi. Tavba! Juda qiziq bo‘p ketyapti-ya, bu yoshlar! Qaynana, qaynata degandan uyalish degan gap yo‘q! Boya... o‘g‘lingiz bilan birga boshlashib keldi!

– Qizing qayoqda?

– Uyam o‘tiribdi chaqchaqlashib!

Otaqo‘zining qalin qoshlari bir zum qahr bilan chimirildi-yu, yana yozildi.

– Mayli! Zamon shularniki! Bilganlarini qilishsin! – U to‘satdan mehri tovlanib, xotining ozg‘in yelkasidan quchdi. – Attang! Yigirma yil keyin tug‘ilganimizda-ku, biz ham shularga o‘xshab yallo qilib, ayshimizni surib yurarkanmiz! Xo‘sh, kelining-chi, uyam keldimi?

– Yo‘q...

– Nega? Yo bular zamonaning ilg‘orlari-yu, kelining senga o‘xshagan qoloqmi?

– Bilmasam...

– Xo‘p bitta gapni topib olibsan – bilmasam, bilmasam!

Otaqo‘zi kalta, uchburchak mo‘ylovini o‘ynatib, shitob bilan o‘rnidan turdi, novcha, kelishgan bo‘y-bastini rostlar-kan:

– Bo‘pti! – dedi. – O‘g‘lim bilan o‘zim gaplashaman. Ammo sen ham qudangga aytib qo‘y. Agar qizi g‘idi-bidi qilsa... meniyam unga beradigan qizim yo‘q! Boshda qarshi quda bo‘lishga kelishdikmi, kelishdik! Endi dumini likillatmasin!..

– U bechoraga qolsa-ku...

– Bechora bo‘lmay o‘lsin! Yoshlikda hamma qilg‘ilikni qilib, endi... – Otaqo‘zi nimanidir eslab, miyig‘ida bir kulib qo‘ydi. – Yo‘q, rost aytaman. Agar qizi o‘yin ko‘rsatadigan bo‘lsa... men ham berib bo‘pman qizimni!

– Shoshmang, qayoqqa ketyapsiz?

– Hozir kelaman.

– Qo‘ying, uyaltirasiz yoshlarni!

– Hozir sen bilan mendan uyaladigan yoshlar bormi?– Otaqo‘zi kinoyali kulimsirab uydan chiqdi.

Boya ko‘kda yarqirab turgan bir tilim oy daraxtlar panasiga yashiringan, osmon bir-biridan tiniq, bir-biridan yirik, oppoq yulduzlarga to‘lib ketgan, o‘rdaday keng hovli, to‘g‘rirog‘i, yarim gektar keladigan bog‘ zim-ziyo edi. Bu qorong‘ilikda bog‘ning etagidagi uy yana ham yorug‘roq, yana ham charog‘on ko‘rinar, u yerda hamon sho‘x, yengil kuy yangrardi...

Otaqo‘zi odam bo‘yi keladigan anorlar orasidan o‘tib, ochiq derazaga yaqinlashdi.

Uyning qoq o‘rtasida xuddi Oliyaga o‘xshagan, oq-sariqdan kelgan nozikkina, xushbichim Tohira qornini changallab, peshanasiga tushgan jingalak sochlarini silkitib xaxolab kulardi. Xuddi Otaqo‘zining o‘ziga o‘xshagan, xushqad, barvasta Haydar oyoqlarini chalishtirib, devorga suyanib turar, bo‘lajak kuyovi esa uning ro‘parasida kresloga cho‘kib o‘tirar, aftidan, o‘g‘li bilan kuyovi nima haqidadir bahslashar, Tohira esa ularning gapiga qotib-qotib kulardi.

Bo'lajak kuyovi Qodirjon uncha kelishgan yigit emas, jussasi chog'roq, o'ziyam... qirg'iy burni o'roqday egilgan, zanjiday qop-qora yigit. „Hayronman! – dedi Otaqo'zi qizining kulgisiga g'ashi kelib. – Bu... o'roqburun yigitning nimasi yoqib qoldiykin unga? Tavba, bir ota, bir onadan ikki xil farzand! Biri osmon-u biri yer!“

Otaqo'zining esiga shu bugun ertalab, idoraning oldida nogahon uchrab qolgan... kelini Latofat tushdi. U shahar qizlariday po'rim emas, egnida odmigina chit ko'ylak, oyog'ida oddiy shippak, biroq bo'y-basti, husn-latofati yoshlikdagi Fazilatning o'zginasi edi.

Mayin, qo'ng'ir sochlari baland qilib turmaklangan, nozik, xushbichim yuzi xuddi umrida oftob tegmaganday tinliq, bitta-bitta terilgan qop-qora qoshlarining tagida katta, serkiprik ko'zlari g'alati porlab turardi.

Latofat bo'lg'usi qaynatasini ko'rganda birdan „duv“ qizarib, shart burilib ketdi. Otaqo'zi ham negadir o'ng'ay-sizlanib, qadamini tezlatarkan: „Bu ham onasiga o'xshab o'yin ko'rsatmasa edi hali!“ – degan fikr ko'nglidan yana o'tdi.

Haqiqatan, keyinroq eshitsa, kelini „yana o'qiyman“, degan gap chiqaribdi, qandaydir tajriba o'tkazamiz deb, qaysi bir domlasini boshlab kelibdi.

„Qani, g'idi-bidi qip ko'rsin-chi, men ham qizimni berib bo'pman!“ – Otaqo'zi bo'lajak kuyovining bachkana qiliqlariga ichida bir g'ijinib qo'ydi-da, sekin yurib uyning orqasiga o'tdi.

Bog'ning etagidan qo'shni hovliga yo'lak ochilgan bo'lib, Otaqo'zi bu hovlini to'rt xonali dang'illama uyi bilan tog'asi uchun bo'shattirib qo'ygan edi.

Bu hovlida kolxozning bosh mexanigi Naimjon turardi. Otaqo'zi unga chekkaroqdagi yangi uylardan bittasini olib berdi. Sodda, oqko'ngil yigit Naimjon lom-mim demadi, biroq uning shaddod xotini avval ko'chmayman, deb turib oldi, keyinroq ko'ngan bo'lsa ham ko'chayotgan kuni dod-faryod ko'tarib, ancha shallaqlik qildi, bunday tomoshani pulga sotib oladigan do'st-dushman oldida Otaqo'zini yomon xijolatga soldi...

Otaqo'zi uning bunchalikka borishini bilganda bu ishni qilmas, tog'asiga boshqa joydan boshpana topib bergan bo'lardi. Biroq unday desa... cholning ahvolidan kim xabar olib turadi? Issiq-sovug'iga kim qaraydi? Qarigan chog'ida kim unga g'amxo'rlik qiladi?

Otaqo'zi qorong'ida devorni paypaslab chiroqni yoqdi.

Yaqindagina ta'mirdan chiqqan uy hali yaxshi qurimgan edi, dimog'iga gup etib moy va ohak hidi urdi. Keng dahlizning o'ng tomonidagi chog'roq xonaga gilam va ko'rpachalar to'shalgan, divanlar, servantlar qo'yilgan, chap qo'ldagi katta mehmonxonada esa... kitoblar tog'day uyulib yotardi.

Sarg'ish qalin qog'ozga o'ralib, kanop bilan bog'langan kitob dastalari shiftga tegadi, ular hali tartibga solinib javonlarga terilmagan.

Otaqo'zi to'p o'ynasa bo'ladigan bu katta xonadagi tog'-tog' kitoblarga xuddi birinchi marta ko'rayotganday hayrat bilan tikilib qoldi. Asl kasbi tarixchi bo'lgan Otaqo'zi kitobni, ayniqsa, tarixiy kitoblarni yaxshi ko'rardi. Ko'p o'qirdi. Xotini Oliya ham kitobning qadrini biladi. Lekin er-xotin yig'gan kitoblar chol yig'gan kitoblarning o'ndan biricha ham kelmaydi.

Ha, g'alati odam-da, tog'asi! Ilmning koni. Arabcha-yu, forschani suv qilib ichib yuborgan! Ammo... Otaqo'zi o'z qadrdon tog'asiga uncha tushunolmaydi.

Tog'asi har yili bo'lmasa ham ikki-uch yilda bir marta qishloqqa kelib, bir oy-yarim oy dam olib ketadi. Lekin har safar uning kelishi Otaqo'zi uchun katta bir tashvish bo'ladi. Odatda, tog'asi aralashmagan ish bo'lmaydi, chol uning har bir qadamini tergagani-tergagan, dashnom bergani-bergan. Faqat jiyan emas, ba'zan yetti yot begonalarini ham ranjitib, qon qaqshatib ketadi.

Qishloqda cholning O'roz xo'roz, Proxor chinqoq, Aziz-zoda degan oshnalari bor. Chol qishloqqa tashrif buyurishi bilan eski qadrdonlari darhol uni yo'qlab kelishadi. Tog'asi, odatda, qishloqqa kelgan kunlari uyma-uy yurib, olamdan o'tgan tanish-bilishlarga fотиha o'qiydi, biroq ta'ziyada ham tinch o'tirmaydi.

Masalan, og'aynilarini ergashtirib, kimningdir fotihasi-ga boradi. Kimsan falonchi professor kelayotganini eshitgan azadorlar oyoqqa turadi. Tog'asi yonidagi sheriklari bilan to'rga o'tadi, qori tilovat qiladi. Non ushatilib, suhbat boshlanadi. Shunda tog'asi suhbatni bo'lib, qoriga murojaat qiladi.

– Taqsir... – u birovni yoqtirmasa, albatta „taqsir“, deb chaqiradi, – taqsir, hozir tilovat qildingiz, Qur'on o'qidingiz...

– Shunday, – deydi qori qo'l qovushtirib.

– Bu... o'qigan oyatingizning ma'nosi nima, taqsir?

– Ma'nosi? – qori talmovsiray boshlaydi, najot istab yon-veriga qaraydi.

– O'qigan narsangizning ma'nosi bormi axir, taqsir?

– Ma'nosi... ma'nosini bilmasak, domla...

– Bilmagani narsangizni o'qib nima qilasiz, taqsir?

Yoshlar piq-piq kulishadi, qori ranjib, ketishga shoshiladi, faqat qori emas, fotihaga kelgan boshqa qariyalar ham shosha-pisha o'rinlaridan turishadi, azadorlar xafa bo'lishadi...

Otaqo'zi tog'asiga necha marta aytdi, shu ishga aralashmang, keksalarni ranjitmang, deb necha marta yalib-yolvordi, yo'q, ko'nmaydi.

– Men qariyalarga emas, chalasavod qoriga qarshiman! – deydi tog'asi o'dag'aylab.

– U bechora sizga o'xshab madrasa ko'rmagan bo'lsa, Qur'onning mag'zini qanday chaqsin?

– Chalamulla kofirast, degan gap bor eskida. Qorilik qilib non yeydimi, loaqal halollab yesin-da! – bo'sh kelmaydi chol...

Bu gaplardan keyin Otaqo'zi qo'lini siltab qo'ya qoladi. Qo'ya qolmasin-chi! Chol uning tilini tishlatib qo'yadi.


Tog'asining fe'l-atvorini yaxshi bilgan Otaqo'zi uni ko'chirib kelishdan oldin ko'p o'yladi, ko'p ikkilandi. Biroq chol sho'rlikning undan boshqa suyanadigan bir kimsasi yo'q. Onasi rahmatlik hayot vaqtida aytguvchi edi: „Yolg'iz tog'ang bor. Befarzand, ko'ngli o'ksik. Qarigan chog'ida farzandsizligini bildirmay duosini ol, bolam!..“

Mana, rahmatlik onasining soʻzini yerda qoldirmay koʻchirib keldi. Yangasining taʼziyasini, hamma rasm-rusmlarini oʻz gardaniga oldi, tik turib xizmat qildi. Ammo lekin...

Kimdir chaqirganday boʻldimi? Ha, Haydarning ovozi...

– Dada! Telefon! Obkomdan!..

– Hozir! – Otaqoʻzi chiroqlarni oʻchirib, uydan chiqdi.



Oliya ayvonda kutib turardi.

– Xolmurodov! – dedi u shivirlab.

– Kutib turibdimi?

– Yoʻq, oʻzingiz telefon qilar ekansiz.

„Tun yarmida yana nima ish chiqib qoldiykin? Yo xatimni oldimikin?“

Otaqoʻzi bundan bir hafta oldin qurilish tashkilotlaridan shikoyat qilib, dashtdagi ahvol toʻgʻrisida katta bir xat yozib yuborgan, bultur sahrodagi boʻlgʻusi shaharchaning poydevoriga birinchi gʻishtni Bekmurod Xolmurodovich oʻz qoʻli bilan qoʻygani uchun ham undan umidi katta edi.

Otaqoʻzi negadir koʻngli gʻash boʻlib, telefon buyurtma qildi-da, divanga yonboshladi. Zum oʻtmay, quloqni qomatga keltirib, shaharlararo telefon jiringladi.

Obkom kotibi chindan ham kutib oʻtirgan ekan chamas, goʻshakni oʻzi oldi. U telefonda uzoq gaplashishni koʻp xushlamas, odatda, darhol maqsadga oʻtib qoʻya qolardi. Bu safar negadir sogʻligʻini, hol-ahvolini, bola-chaqasini surishtirdi, ayaning marosimini eshitgan ekan, koʻngil soʻradi va shundan keyingina xatini olganini aytib, dashtdagi ishlarga oʻtdi.

Otaqoʻzi hayajonini yashirishga tirishib:

– Bir qoshiq qonimdan kechasiz, Bekmurod Xolmurodovich, – dedi. – Men sizni bezovta qilmoqchi emas edim. Ammo lekin... boshda oʻzingiz shu ishga bosh-qosh boʻlgansiz. Poydevorga birinchi gʻishtni oʻzingiz qoʻygansiz.

Mana endi... juda qiynalib ketdim. Jonim halqumimga keldi...

– Yaxshi-yaxshi, – dedi Xolmurodov. – Siz hamma da'volaringizni qog'ozga tushirib tayyor bo'p turing. Bir-ikki kundan keyin qurilish tashkilotlari rahbarlarini yig'ib dashtda „letuchka“ o'tkazamiz. O'shanda hamma arzingizni aytasiz.

– Rahmat, – dedi Otaqo'zi. – Ming rahmat sizga!.. – U „xayr, yaxshi tushlar ko'ring“, deyishga og'iz juftladi-yu, obkom kotibining tomoq qirganini eshitib, sergaklandi.

– Yana bir gap bor. Eshityapsizmi, Otaqo'zi aka?

– Eshityapman, eshityapman...

– Gap shundaki... Balki shu kunlarda kolxozingizga komissiya borib qolar... Mabodo siz...

Otaqo'zining yuragi „shig“ etib:

– Nima masalada? – deb yubordi.

– U yog'ini borganda bilasiz. Ammo... – telefonda Bekmurod Xolmurodovichning bir nimadan chaynalib, asta yo'talgani eshitildi. Otaqo'zining esiga lop etib yaqinda raykomda bo'lib o'tgan bir gap tushdi.

– O'rtoq Shukurovdan chiqqan gap emasmi? U kishi beruxsat qurilish materiallari opsan deb...

– Yo'q-yo'q! – dedi Bekmurod Xolmurodovich. – U gapdan cho'chimang. Men Shukurov bilan gaplashganman. Bu shunchaki... aytyapman-ku, arzimagan bir narsa deb! Komissiya borishi shart emas edi, ammo shikoyat birinchining qo'liga tushgan ekan... siz xafa bo'lmang. Eshityapsizmi?

– Bekmurod Xolmurodovich! O'rtoq kotib! – Otaqo'zi birdan qandaydir xo'rliqi kelib, tomog'i g'ip bo'g'ildi. – Meni shu ishdan ozod qiling. Iltimos qilaman...

– Ana xolos!..

– Yo'q, rost aytaman. Xudo haqqi, halqumimga keldi bu komissiyalar!

– Bas! Bu gaplarni qo'ying! – obkom kotibi stolga musht urdi shekilli, go'shakda „gurs“ etgan tovush eshitildi. – Ikkinchi eshitmay bu gapni! Yosh bola emassiz! Komissiya degan so'z sizga ishonmaslik degan so'z emas! Men sizga

ishonganim uchun aytib bo'lmaydigan gapni aytyapman. Ko'nglingiz cho'kmasin, deb aytyapman...

– Rahmat sizga...

– Bo'pti! Ishda ilgarigi shiddatni qo'ldan bermang! Xo'p, xayr...

Otaqo'zi „xayr“, deguncha telefonda „g'uv-g'uv“ ovoz eshitildi. Shu-shu, Otaqo'zi tong otguncha mijja qoqmadi, qulog'idan esa telefonning „g'uv-g'uv“i ketmadi...

Otaqo'zining rais bo'lganiga yigirma yildan oshdi. Yigirma yil hordiq nima, huzur-halovat nima – bilmadi! Bir mahallar „Yig'lagan ota“ degan ko'rimsiz qishloqning qing'ir-qiyshiq ko'chalari, kultepalari, nurab turgan uylari, machitlari, eski qal'adan qolgan xaroba devorlari, sassiq hovuzlari, otxona-yu molxonalari – hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o'rniga bog'-rog'ga ko'milgan, ko'chalari o'qday to'g'ri, oppoq, ko'rkam qishloq barpo qildi. Uzoq yili esa, suv kelgan qo'shni dashtdan yana uch-to'rt ming gektar yer o'zlashtirish majburiyatini olib, qurilish ishlarini boshlab yubordi. Niyati – sahroda ham yangi shaharcha barpo etib, cho'lni bog'-bo'stonga aylantirish! Ha, u shuncha ter to'kdi, kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qildi, shu kolxozni deb hatto kasalga ham chalindi, ammo... qulog'i tinchimaydi! Arz ustiga arz, shikoyat ustiga shikoyat! Yaxshilikni bilmas ekan odamzod! Dastlabki paytlarda Otaqo'zi bu shikoyatlarga ham, ularni taftish qilgani keladigan komissiyalarga ham parvo qilmas edi. Lekin endi, shu qishloq, shu kolxozni deb hatto sog'lig'idan ham ayrila boshlagandan keyin og'ir botar ekan bu gaplar! U ham toshdan yaralgan emas, u ham odam axir!..

Otaqo'zi bu fisq-u fasod gaplarni kimlar yozishini, „mehnatkashlar“ nomidan ularni kimlar uyushtirishini yaxshi biladi. Ilgarigi mayda kolxozlarni boshqarib kelgan, to'g'rirog'i, boshqarib emas, kemirib kelgan kalamushlar, yulg'ichlar, bir mahallar otda yurib, endi yayov qolgan nopoklar yozishadi. Quruq tuhmat qilib emas, uning „nozik joylarini“ topib yozishadi. Otaqo'zi buni inkor etmaydi. Ish bo'lgandan keyin nuqsonsiz bo'lmas ekan. Bu ko'rkam shaharcha, bu qurilishlar, keng ko'lamdagi bu ishlar osonlik-

cha bunyod bo'lgani yo'q. Turmush boshqa, qonun boshqa ekan. Ba'zan noilojlikdan qonunga chap beradigan paytlar ham bo'lar ekan. Chap bermay qonunni mahkam ushlab o'tiraversangiz ish joyidan jilmas ekan. Otaqo'zi buni hech kimdan yashirmaydi. Ammo... qiziq ekan – shikoyat tushgandan keyin uni tekshirmasdan iloj yo'q ekan. Bu fisq-u fasod gaplarni tirnoq ostidan kir qidiruvchi g'iybatchilar qo'zg'ayapti-ku, degan fikr qech bir bandayi mo'minning xayoliga kelmas ekan. Hech kim... axir uyam, Otaqo'ziyam odam-ku, asab degan narsa unda ham bor-ku, agar biror joyda qonunga sal chap bergan bo'lsa, buni o'zi uchun emas, shu xalq, shu kolxozni deb qilyapti-ku, deydigan bir mard topilmas ekan!

Tunov kuni Abror Shukurovich uni chaqirib, qonunsiz qurilish materiallari olibsiz, deb ta'na qilgan edi, Otaqo'zi bu gaplarni unga ham aytdi. Azbaroyi yonib ketib, sal oshirib ham yubordi, buni keyin o'ziyam sezib qoldi. Biroq aytmay desa... jonidan o'tib ketdi-ku bu nohaq ta'na-malomatlar!

Bu alamli o'ylar Otaqo'zining yuragidagi eski dardni: „Menga nima keragi bor bu mashmashaning? Hammasini yig'ishtirib qo'yib, o'z ishimni qilsam, ko'p yemasam, oz yeb, sog'lig'imni o'ylab, beg'alva-betashvish yursam bo'l-masmidi?“ – degan eski dardni qayta qo'zg'adi.

Otaqo'zi kolxozga kelishdan oldin o'qituvchilik qilgan, maktab direktori bo'lib ishlagan edi. O'ziga o'zi xo'jayin, o'ttiz-qirq kishilik o'qituvchilar jamoasi juda ahil, totuv edi. Tog'asining tarbiyasini olgan tarixchi, u ko'p o'qir, ko'p narsani bilar edi. Kolxozga rais bo'ldi-yu, tarixniyam, kitobniyam yig'ishtirib qo'ydi. Tarix o'rniga hisob-kitobni o'rgandi, yoshi o'ttizdan oshganda qishloq xo'jalik institutiga kirib o'qidi. Mana endi, rahmat o'rniga... taftish ustiga taftish!..

Otaqo'zi uxlay olmasligini sezib, tong palla o'rnidan turdi, garajga telefon qilib, mashinasini chaqirtirdi-da, oyoq uchida yurib uydan chiqdi.



Otaqo'zi shofyorning maoshini tejab, ko'p yillar mashinani o'zi haydagan edi, ammo keyingi paytlarda tez toliqadigan bo'lib, shofyor oldi. Raisning buyrug'ini imo-ishorasidanoq biladigan „uchar“ laqabli bu yigit uning og'ziga qaradi. Otaqo'zi avval qisqa qilib „dasht“, dedi-yu, keyin to'satdan: „Shoshma, avval qishloqni bir aylantirgin-chi!“ – deb iltimos qildi.

Xo'jayinning gapiga hech qachon hayron bo'lmaydigan Ucharbek bu safar yalt etib qaradi:

– Qaysi qishloqni aytyapsiz?

– Qaysi bo'lardi, o'zimizning qishloqni-da, – dedi Otaqo'zi. – Idoradan boshla, hamma ko'chalarga bir-bir kirib chiqamiz!

Uchar, „g'alati gap bo'ldi-ku“, degandek, yelkasini uchirdi-da, mashinaga gaz berdi.

Osmonning kun chiqish qismi endi oqara boshlagan, lekin hatto barvaqt turadigan qishloq ahli ham hali uyquda, bog'larga yashiringan uylar, serdaraxt ko'chalar jimjit, kimsasiz.

Uchar, rais buyurganday, idora oldidagi maydonga qarab ketdi. Chim yotqizilib, yo'lka chetlariga atirgullar o'tqazilgan kattagina maydonning o'rtasida marmartoshlar uyulib yotar, kranlar, samosvallar qatorlashib turar, bu yerda Vatan urushida halok bo'lgan qishloq yigitlariga haykal qurilmoqda edi.

Ikki qavatli kolxoz idorasining bir tomonida univermag, bir tomonida maishiy kombinat binolari, qarshida – kolxoz klubining shahar teatrlarini eslatuvchi yuksak peshtoqlari ko'kka bo'y cho'zgan.

Mashina keng maydonni bir aylanib, klub yonidan o'ng qo'lga burildi. Kengligi kamida o'ttiz metr keladigan o'qday to'g'ri ko'chaning ikki tarafidagi sarvlar go'yo qo'l bilan bitta-bitta terilgan shamlarday saf tortib turar, sarvlar ortida esa go'yo kechagina oqlanganday bejirim, ko'rkam uylar oqarib ko'rinardi.

Otaqo'zi mashina oynasini pastga tushirdi, yuziga kuch

bilan urilgan tong shabadasi sochlarini to'zg'itib yubordi, u bu ko'chalar, kechagina qurilganday tuyulgan bu uylarga xuddi birinchi marta ko'rayotganday suqlanib tikilardi...

Shamday tizilgan sarvlar yonidan uchib o'tgan „Volga“ chapga burildi-da, o'rlab borib baland tepalikka, to'g'rirog'i, tepalik ustidagi katta maydonga chiqdi.

– To'xta, Ucharvoy! – Otaqo'zi eshikni sharaqlatib ochib, mashinadan tushdi.

Ro'parada, Otaqo'zi tushgan joydan ikki yuz qadamcha narida, yangi oynaband maktabning uch qavatli binosi yarqirar, o'ng qo'lda „Paxtakor“ stadionini eslatuvchi stadion, chap tomonda o'tgan yili maktab o'quvchilari kuchi bilan barpo bo'lgan mevazor bog'ning yosh nihollari shovullab turardi...

Hozirgina baxmalday qorayib turgan osmon sof ko'kimtir rangga kirgan, qishloq uyg'ona boshlagan edi. Bu yerdan chor atrof – pastdagi ko'chalar, daraxt panasidagi uylar, olisroqdan o'tgan soy, soyning u yuzidagi tutash bog'lar, bog'lar ortidagi ulkan qabriston, qabriston ustidagi Qorovultepa – hamma-hammasi kaftday ko'rinardi, o'ng qo'lda esa osmono'par qorli cho'qqilar, cho'qqilar etagida Mingbuloqning yam-yashil tolzorlari ko'zga chalinar, yaqinda u yerda ham yana bir katta qurilish, yirik chorva majmuaning poydevori qo'yilishi kerak edi.

Otaqo'zi bu bog'lar, ulkan tepalikni qurshab olgan bu ko'rkam qishloqni go'yo birinchi marta ko'rayotganday suqlanib qarar, go'yo o'z yurti, kindik qoni to'kilgan bu zamin bilan vidolashayotganday yuragi bezillab og'rir-di. Tarixchi sifatida Otaqo'zi yaxshi bilar: bir mahallar, qadim-qadim zamonlarda butun qishloq hozir u turgan tepalikka joylashgan, bu tepalik baland devor bilan o'ralgan mustahkam qal'a bo'lgan. Qishloq ahli tinch, osoyishta kunlarda tevarak-atrofdagi bog'larga, polizlarga chiqib ishlagan, dashtdan yov bostirib kelganda esa qal'aga yashirib jon saqlagan...

Otaqo'zi qal'a ichidagi tor ko'chalar, bir-biriga tutashib ketgan uylar, do'ppidekkina hovlilar, machitlar, do'konlar, xo'roz va qo'chqor urishtiradigan bozor maydonlari-

ni elas-elas eslaydi. Hozir mana bu oynaband maktab qad ko'targan joyda gumbazli g'ishtin machit bo'lardi. Uni birovlar qisqa qilib „gumbaz“ der, birovlar „eshonning machiti“ deb atardi. Chap tomondagi mevali bog' o'rnida bir-biriga yopishgan mitti do'konchalar rastasi, stadion o'rnida esa, yana bitta machit bo'lar, umuman, qishloqda nima ko'p, machit ko'p, qal'a tevaragidagi mahallalar ham o'z machit, o'z qavmlariga ega edi. Rost, Otaqo'zi esini taniganda eski qal'aning devorlari yemirilgan, qal'a ichidagi machitlar, tor ko'chalar, uylar, rastalar xarobaga aylangan, urushdan keyin, Otaqo'zi o'qishdan qaytganda esa, ko'hna qo'rg'on o'rnida oddiy bir kulteplani ko'rgandi... O'qishdan qaytganda emish. Bundan o'n besh-yigirma yil muqaddam, u rais bo'lgan paytlarda ham qal'a atrofidagi ulkan qishloq ko'rimsiz, ko'chalari qing'ir-qiyshiq, uylari guvaladan qurilgan yarim xaroba bir joylar edi.

O'n-o'n besh yil ichida, atigi o'n-o'n besh yil ichida Otaqo'zi bir o'zi bu yerlarni jannatga aylantirdi. Butun bir shahar qurdi! Kim qurdi? Otaqo'zi qurdi!

Otaqo'zi to'satdan ko'zlari yonib, mashinada o'tirgan shofyoriga yuzlandi.

– Ucharboy, bundan o'n besh yil avval bu yerlar qanaqa edi? Esingda bormi?

– Nega bo'lmasin? Esimda bor. Xaroba bir joy edi, kultepla edi.

– Otangga rahmat! Ketdik cho'lga!

Uchar mashinaga gaz berib, katta yo'lga chiqarkan:

– Bir nimadan xafaga o'xshaysizmi, rais aka? – deb so'radi. – Nima bo'ldi?

– Yo'q, shunchaki bir gap-da! – dedi Otaqo'zi, lekin Ucharning savoli negadir yana xo'rligini keltirdi.

„Nega ham xo'rligi kelmasin? Salkam yigirma yil bir kun orom bilmay ishlasa, olamga dovrug'i ketgan ishlar qilsa-yu, yana uning ustidan shikoyat ustiga shikoyat tushsa! Rost, bu shikoyatlarni oqko'ngil, oddiy kishilar emas, otdan tushsa ham egardan tushmagan mansabparastlar, yog'liq joylaridan ayrilib qolgan yulg'ichlar yozishyapti. Hamma narsaga aqli yetadigan ba'zi rahbarlar bo'lsa, og'zi

bilan yuradigan bu fosiqlarning tanoblarini tortib qo'yish o'rniga, komissiya ustiga komissiya yuborsa... bu uning, Otaqo'zining shuncha mehnatini yerga urish, izzat-nafsini koyitish emasmi? Tirnoq ostidan kir qidiradigan o'sha nopoklarning bo'htonlariga ishonish emasmi bu, o'rtoq Shukurov?


Yo'q, bunaqa ekan, uyam taxta-o'qlog'isini yig'ishtiradi! Rahmat! Shuncha ishlagani, sog'lig'idan ayrilib, asablari qaqshab, adoyi tamom bo'lgani ham yetadi. U qo'ldan kelgan hamma ishni qildi. Endilikda o'rniga kim kelmasin, xalq, oddiy kishilar uning nomini, uning qilgan xizmatlarini yodlaridan chiqarishmaydi. Bu kolxoz, bu qishloq tuprog'idagi har bir uy, har bir binoga uning nomi toabad bitilgan!...„

Qishloq chekkasidagi ko'm-ko'k paxtazorlar orasidan qushday uchib o'tgan mashina g'izillab qirga chiqdi.

Qir etagidagi suvsiz o'zanning u tomonida uzoq ufqlarga tutashgan hadsiz sahro yastanib yotardi. Mashina dera-zalaridan xuddi oy sathiday jonsiz, g'ayritabiiy ko'ringan bu kulrang o'lik dengizga Otaqo'zi hayajon bilan tikildi, tikildi-yu, go'yo bu hadsiz sahro qa'rida barpo bo'layotgan bog'larni ko'rganday yuragi jo'sh urib ketdi.

„Yo'q, – dedi u to'satdan, tog'asiga xos bir qaysarlik bilan. – Kechib bo'pman! Avval sahroda qura boshlagan ana shu shaharchamni qurib tugataman. Avval niyatimga yetaman. Ana undan keyin, marhamat, istagan odamiga bo'shatib beraman o'rnimni!“

Uchinchi bob



Qizi Latofat bilan uzoq gaplashib, uyqusi qochgan Fazilat eshik tiqirlaganini eshitib, boshini ko'tardi.

– Uyg'oqmisiz, oyi?

– Hozir, bolam! – Fazilat qorong'ida timirskilanib, shipagini oyog'iga ildi-da, chiroqni yoqdi. Ostonada nimaga-dir kulimsirab o'g'li Qodirjon turardi.

– Yeydigan biror narsa topiladimi?
– Osh bor, isitaymi?
– Mayli. Kuyovingiz keldi... Haydarni aytaman...
– Voy o‘lmasam! Hali to‘y bo‘lmasdan...
– Bo‘ladi! Bilasiz-ku, kampirning qirqini kutishayotgan edi bular. Mana, qirqiyam o‘tdi. Dadamlar aytganmishlar...
– „dadamlar“, deganda Qodirjon yana bir kulimsirab qo‘ydi.
– Shu oyning oxiriga qolmasdan to‘yni boshlab yuboraman deb. Latofat bilan gaplashdingizmi?

Latofatning ismini tilga olishi bilan uning lablaridagi tabassum so‘ndi, jag‘ paylari turtib chiqib, ko‘kimtir ko‘zlarida sovuq bir ifoda paydo bo‘ldi,

„Otasi! Xuddi otasining o‘zginasi!“ – xayolida dedi Fazilat.

– Gaplashdim...
– Nima deydi?
– Aniq bir nima demadi. Bilmasam endi...
– Nima balo? Bitta-yarimtasi bilan topishib qoldimi u yoqda?

Fazilat yalt etib to‘rdagi eshikka qaradi.

– Qayoqdagi gaplarni topasan-a, bolam?
– Qayoqdagi gaplar emish! – Qodirjon uchi egik o‘roq burnining parraklari kerilib, onasiga yovqarash qildi. – Uning bunaqa bo‘lishiga... siz ham aybdorsiz! Qizingizni yo‘lga solish o‘rniga o‘z fe‘lingiz bilan uni... ja!.. – Qodirjon qo‘lini bir siltab, eshik tomon yurdi-yu, yana to‘xtadi.

– Menga qarang, oyi! Hozir... Haydar ketsin, o‘zim gaplashaman u bilan!

Fazilat o‘g‘lining xuddi otasinikiga o‘xshagan sovuq nigohidan ko‘zini olib qocharkan, yolvorgan tovushda:

– Tong otsin, bolam, – dedi. – Ertaga gaplasharmiz.
– Yo‘q! Ertaga qoldirib bo‘lmaydi bu gapni! Bugun gaplashaman, ovqatingizni isiting!..

Fazilat ishkom tagida o‘tirgan Haydardan yuzini to‘sgan bo‘lib, oshxonaga o‘tdi. Gaz plitani yoqib kechqurundan qolgan oshni ilitdi, tovaga besh-oltita tuxum chaqib, quymoq qildi. So‘ng, o‘g‘lini imlab chaqirdi-da, plov bilan quymoqni berib, uyga kirdi.

Qodirjonning gaplari, ayniqsa, „qizingizni yo‘lga solish o‘rniga o‘z fe‘lingiz bilan uni...“ degan so‘zlari yurak-yuragidan o‘tib ketgandi. „Nahotki uning o‘z o‘g‘li, ko‘krak berib katta qilgan o‘z farzandi o‘tmishini yuziga solsa?“

Fazilat Qodirjon aytmasdanoq qizining fe‘l-atvoridan yuragi bezillab yurardi. Bezillamay ham ko‘rsin! O‘rtada Otaqo‘zi bor axir.

U Otaqo‘zidan ham cho‘chir, ham uni qandaydir opalar-cha bir mehr bilan yaxshi ko‘rardi.

Fazilatning dilidagi bu mehr urushdan oldingi mas‘ud yillaridan, Normurod Shomurodovning o‘g‘li Jabbor unga ko‘ngil qo‘yib, allaqanday nur bilan yo‘g‘rilgan iliq xatlar yozib yurgan paytlardan qolgan, chunki bu xatlarni mana shu Otaqo‘zi tashir, yalangoyoq, yalangbosh, sho‘x ko‘zlari mug‘ambirona chaqnab turuvchi bu bola ularning maxfiy pochtachisi edi. Keyin urush boshlandi. Jabbor frontga ketdi, ketdi-yu, Fazilat har eslaganda yuraklari qon qaqshaydigan mash‘um ishlar yuz berib, beg‘ubor qizlik orzulari chil-chil sindi. Ilk muhabbat qanotida qushday uchib yurgan u baxtiyor yillardan faqat bir dasta xat, Jabborning qo‘li bilan bitilgan va har bir satridan bahor oftobining mayin harorati ufurgan bir dasta xat qoldi, xolos.

O‘sha mash‘um ishlar bo‘lgan mahalda, kimlardir tashkil qilgan qoraxat yolg‘on chiqib, „qahramonlarcha halok bo‘lgan“ Jabbor nogahon eshikni qoqib kirib kelganida... Fazilat ko‘kdan faqat bir narsani tilagan, u ham bo‘lsa o‘lim edi. Lekin kishi o‘laman, degan bilan o‘la olmas ekan. Hayotning o‘z qonunlari bor ekan. Keyinchalik Jabbor (nado-matlar bo‘lsinkim) chindan halok bo‘lib, „gunohini yuv-gani“ frontga ketgan Bo‘riboyev esa, sog‘-salomat qaytib kel-gandan keyin... Fazilat unga turmushga chiqishga majbur bo‘ldi.

Turmush emish! Turmush qurish emas, uning yashirinchasi, ikkinchi xotini bo‘lishga majbur bo‘ldi. Chunki bu orada mana shu Qodirjon, hozirgina ayovsiz so‘zlar bilan qamchilab chiqib ketgan mana shu Qodirjon tug‘ilgan edi...

U mahalda frontdan qo‘sh-qo‘sh ordenlar taqib qaytgan Jamol Bo‘riboyev oblast ijroiya komitetida ishlar, oyda,

ba'zan ikki oyda bir marta pachaqroq bo'lsayam, el-yurt oldida mavqeyini oshiradigan „Villis“ mashinasiga minib kelar, egnida qora charm plash, boshida harbiy furajka, qo'lida katta qora portfel, kelishgan saxt-sumbatini vazmin tebratib, qishloq ko'chalaridan o'tganda undan hayiqmagan, qo'l qovushtirib salom bermagan bir kimsa bo'lmas edi.

Jamol Bo'riboyev qishloqda bir kun-ikki kungina turar, so'ng Fazilatning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, „Villis“i bilan ko'cha changini osmon-u falakka ko'tarib, jo'nab qolardi.

Fazilat tishini tishiga qo'yib chidar, chidamasdan iloji ham yo'q, chunki bu paytga kelib ikkinchi farzandi, mana shu Latofat tug'ildi.

O'sha yili, Latofat dunyoga kelgan yili, Bo'riboyevning birinchi xotini allaqanday kasalga chalinib vafot etdi. Shunda Fazilat el-yurt oldida yuzim yorug' bo'lar-mikan, deb o'yladi. Bo'riboyevni yaxshi ko'rgani uchun emas, odamlarning malomatidan qutularmikanman, degan umidda Bo'riboyevdan yaxshi gap kutdi. Lekin mal'un mal'unligini qildi. Qayta uylandi. Bu safar olgan xotini juda tag-tugli chiqdi shekilli, katta ishga ko'tarilib, Toshkentga ko'chib ketdi.

Shu-shu Fazilat Bo'riboyev bilan aloqani uzdi, hatto nafaqasidan ham voz kechdi. O'z kunini o'zi ko'rdi. Ikki farzandini o'zi boqib, o'zi katta qildi.

Bundan yigirma yil oldin, Otaqo'zi rais bo'lib kelganda Fazilat idorada ishlar, hisobchi edi.

Otaqo'zi ilgari mash'um voqealarni esladimi yo gap-so'z bo'lishdan hayiqdimi – u paytlarda Fazilat haliyam manaman degan yigitlarning yuragiga cho'g' solsa solgudek yosh juvon edi – idoradan bo'shatib, sabzavot brigadasiga tabelchi qilib yubordi. Fazilat lom-mim demadi. Sabzavotchilik brigadasida salkam o'n yetti yil ishladi. Bundan bir-ikki yil muqaddam Otaqo'zining o'g'li qizi Latofatga ko'ngil qo'ygani sabab, rais uni chaqirib klubga boshliq qilib qo'ydi.

Bultur o'g'li Qodirjon bilan Otaqo'zining qizi Tohira

ham til topishib qolishgandan keyin esa, rais unga kutubxonani ham topshirib, maoshiga maosh qo'shib berdi. O'ziyam shundan beri Fazilatni „qudag'ay“ deb chaqiradigan, ko'rganda kulib ko'rishadigan, majlislarda hatto prezidumlarga saylaydigan bo'ldi.

Bundan bir-ikki oy avval Otaqo'zi uni idoraga chaqirtirdi.

Fazilat borganda kabinetda odam ko'p edi. Otaqo'zi qog'ozlarga naridan beri qo'l qo'yib, hammani chiqarib yubordi-da, kulimsirab, Fazilatning yoniga o'tib o'tirdi.

– Qalaysiz, qudag'ay?

– Shukur, – dedi Fazilat.

– Xo'sh, nima qilamiz? To'yni boshlayveramizmi?

– Ixtiyor sizda...

– Ixtiyor menda bo'lsa, shu bugunoq boshlab yuboraman! – Otaqo'zi qo'llarini beliga qo'yib, qirg'iyqarash qildi. – Mana, Tohirayam o'qishni bitirdi. Erta-indin keladi. Xo'sh, bu... kelinposhsha nima deyapti? Diplomini optimi? Qachon kelarmish?..

– Latofat... – Fazilat bir daqiqa duduqlanib qoldi. O'sha gapdan bir hafta oldin Fazilat qizidan xat olgan, xatda Latofat oyisining to'y haqidagi gaplariga javob bermay, o'qishni bitirganini, lekin domlalar unga o'qishni davom ettiring, deb maslahat berishayotganini yozgan edi.

– Xo'sh? – dedi Otaqo'zi.

– Diplomini olgan-olmaganini bilmadim-u, domlalari unga yana o'qigin, deb maslahat berayotganmish.

– Shunaqami? – Otaqo'zi iyagini silaganicha kabinetini bir aylanib chiqdi-da, Fazilatning ro'parasiga kelib to'xtadi.

– Bunday, qudag'ay... Xabaringiz bor, o'g'lim Haydar yaqinda dissertatsiya yoqlaydi. Shunday bo'lsayam o'g'limga aytdim. Dashtda katta ishlar bo'lyapti, dedim. Qishloqning o'zida, Mingbuloqning tepasida, xabaringiz bor, katta chorva kombinati qurmoqchimiz... Men Haydargayam, o'g'lingiz... Qodirjongayam aytdim. Shahar qochmaydi, dedim. Bu yoqqa kelib, bir-ikki yil mana shu qurilishlarda ishlanglar, dedim. Ha, kelib bir-ikki yil ishlashsin, xalqqa ko'rsatishsin o'zlarini! Qarabsizki, biri kombinat direktori, biri bosh injener! – Otaqo'zi uchburchak mo'ylovini silab,

bir kulimsirab qo'ydi-yu, yana jiddiylashdi. – Gap mansab-martabada emas! Men ish o'rganishsin, katta qozonda qaynab, odam bo'lishsin, deyaqman. Men bu gapni qizim Tohiraga ham aytdim. Siz ham qizingizga xat yozing! O'qish bo'lsa qochmaydi! Kelib bir-ikki yil ishlasin. Men sizga so'z beraman: ikki yildan keyin kelinim... qizingiz maktabga direktor bo'ladi! Eri kombinat boshlig'i, o'zi o'rta maktab direktori! Xo'sh, bunga nima deysiz, qudag'ay?

Qandaydir qimtinib, bir nuqtaga tikilib qolgan Fazilat iymanibgina boshini ko'tardi: yo'q, Otaqo'zi kulmas, u qo'llarini ko'ksida qovushtirib, deraza oldida qaqqayib turar, bu gaplari hazil emas, puxta o'ylangan metin bir reja ekani qoramtir yuziga shundoq muhrlanib qo'yilgan edi.

– Men nima ham deyman...

– Demasangiz, darhol xat yozing! Hamma gapni tushuntiring! Men sizni o'zimniki deb aytyapman. So'zim noo'rinmi?

Otaqo'zining toshday salmoqli gaplaridan g'ujanak bo'lib qolgan Fazilat o'zini jilmayishga majbur etdi.

– Yo'q, nega noo'rin bo'lsin?

– Noo'rin bo'lmasa sal bundoq... kulib boqing, qudag'ay! Ha, balli! Gap mana bunaqa bo'pti! – Otaqo'zi Fazilatni eshikkacha kuzatib bordi-yu, yana to'xtatdi.

– Ha, aytmoqchi, bir gap esimdan chiqibdi... Lekin... ko'nglingizga hech narsa kelmasin, qudag'ay. To'yga men... Jamol Bo'riboyevni ham taklif qilmoqchiman!

Fazilat, xuddi terlab turganda sovuq epkin tekkan odamday, junjikib:

– O'zingiz bilasiz, – dedi. – U kishini chaqirish... shunchalik zarurmi?

– Zarur! Juda zarur, qudag'ay.


– Bilmasam. Qizimning ham... u kishiga toqati yo'q...

– Tushuntirish kerak! – dedi Otaqo'zi sal yumshab. – To'g'risini aytsam, men ham u odamni ko'p xushlamayman. Ammo lekin... hayot siz bilan biz o'ylagandan murakkabroq, qudag'ay. Mana, institutdan keyin o'sha odam o'g'lingizni ishga olib qoldi. Yordam berdi. Siz bilan menga bo'lmasayam, har qalay yoshlarga kerak shu odam!

Fazilat o'sha kuniyoq Latofatga xat yozib yubordi.

Latofat uning so'zini yerda qoldirmadi, mana, keldi. Biroq bir o'zi emas, gap-so'zlari sal g'alatiroq bir domlasi bilan bir-ikkita dugonalarini boshlab keldi. Kolxozda tajriba o'tkazarmish. O'ziyam burungi Latofat emas. Unga bir nima bo'lgan!.. Ko'nglidagini ochiq aytmaydi. Fazilat to'ydan so'z ochsa, darhol gapni chalg'itadi, so'z so'rasa, yaxshi javob bermaydi. Fazilat esa qizi bilan ochilibroq gaplashishdan qo'rqadi. Unga „bir balo bo'p qolganidan“ cho'chiydi, qizining fe'li aynab yurganini Otaqo'zi eshitib qol-sa nimalar bo'lishini o'ylab, tirnoqlarigacha muzlab ketadi.

Tashqarida eshik taraqladi. Hovlidagi chiroq o'chib, gurs-gurs oyoq tovushi quloqqa chalindi. Eshik ochilib, uyga Qodirjon kirdi.



– Latofatni uyg'otdingizmi?

– Bolam, – dedi Fazilat.

– Uyg'oting! Boya aytdim-ku, o'zim gaplashaman, deb!

„Otasi! Gap-so'zlari, qiliqlari – hammasi otasining o'z-ginasi!“

Fazilat yuragi uvushib o'rnidan turdi, lekin shu payt to'rdagi eshik ochilib, Latofatning o'zi chiqib keldi.

Egnida guldor qizg'ish xalat, oyog'ida yengil latta ship-pak, kunduz baland qilib turmaklangan sochlari bir o'rim bo'lib, bo'liq ko'kraklari o'rtasiga tushgan, sal rangi o'chga-ni uchunmi, tim qora ko'zlari xuddi xatar sezgan kiyikning ko'zlariday bejo...

Latofat uyquda peshanasiga, yuziga tushgan mayin soch tolalarini tuzatib, bir onasiga, bir akasiga qaradi.

– Nima bo'ldi? Tinchlikmi o'zi?

Qodirjon kimgadir taqlid qilib, qo'llarini ko'ksida qo-vushtirdi, qirg'iy burnini ishqab:

– Tinchlikmi, yo'qmi – sendan so'ramoqchimiz! – dedi.
– O'tir!

Latofat itoatkorlik bilan onasining yoniga cho'kdi.

– Xo'sh, sen nega bunaqa... har xil o'yin ko'rsatyapsan?

– Qanaqa o‘yin? – Latofat ma’sum ko‘zlari javdirab Fazilatga qaradi.

– O‘zingni bilib-bilmaganlikka olma! To‘y... to‘yni boshlayveramizmi, yo‘qmi? Shuni so‘rayapman sendan!

Latofat akasining g‘azabli ko‘zidan ko‘zini olib qochdi. Titroq qo‘llari bilan xalatining etagini tuzatarkan:

– To‘y bo‘lsa... qilavering, – dedi. – Sizga birov...

– Bu to‘y senga bog‘liq! Sening roziligingga bog‘liq!

– Men... men istamayman.

– Nima? Nima deding?

– Shu... o‘qiyman hali...

– O‘qish bo‘lsa qochmaydi! Haydar sening o‘qishingga qarshilik qiladigan yigit emas!

– Mayli, meni tinch qo‘ying, aka...

– A? Labbay?

Qodirjon mushtini tugib, sekin o‘rnidan turdi.

– Gapni chalg‘itma bunaqa! Agar... u yoqda bitta-yarimtasi bilan topishib qolgan bo‘lsang, ochig‘ini ayt hozir!

– Ayajon! – Latofat yuzini kaftlari orasiga yashirib, o‘tirgan joyida ikki bukilib oldi.

– Bolam! – dedi Fazilat, o‘g‘liga iltijo bilan termilib. – Shoshmagin-chi, bolam.

– Siz to‘xtang, oyi!– Qodirjon qo‘llarini cho‘ntaklariga tiqib, Latofatning tepasiga keldi. – Men hayronman senga! Avval boshda o‘zing topishib, endi nimasi yoqmay qoldi bu yigitning? Ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘lmasa! Aql-hushi joyida bo‘lsa... Bir yigit shunchalik bo‘lar... Tag‘in nima kerak senga?..

Latofat indamadi. U hamon yelkalari titrab, yuzini kaftlari orasiga yashirib o‘tirardi.

– Ish pishgan bir paytda... Bu yoqda biz, u yoqda dadamlar...

– Dadamlar! – Latofat to‘satdan yalt etib unga qaradi, ko‘zlari allaqanday chaqnab, lablari titrab:

– Dada bo‘lsa, sizga dadadir! – dedi. – Kerak emas men-ga unaqa dada! U odamni dada deyishdan oldin... bizlarni, oyim bechorani qanchalar xo‘rlaganini, qanchalar haqorat qilganini bir o‘yladingizmi?

– O'tgan ishga salavot...

– Sizga salavot bo'lsa salavotdir, menga salavot emas! Qishloqdagi gap-so'zlar, oyimlarning ko'z yoshlari, odamlarning ta'na-malomatlari – hech biri esimdan chiqmaydi! Hammasi yodimda turibdi...

Qodirjon stulga o'tirib, boshini changallab oldi, qandaydir ishonchsiz ovozda:

– Turmush bo'lgandan keyin... bo'lar ekan-da, – dedi.

– Turmush! – Latofat yana boyagiday ko'zlari chiroyli porlab, bir akasiga, bir ko'rpachada mung'ayib o'tirgan onasiga qaradi. – Aybni turmushga ag'darmang. Men bila-man, sizga uning mansabi kerak!

– Bas! – Qodirjon chayon chaqqanday o'rnidan sapchib turdi. – Universitetda o'qiyman deb, ja aqlli bo'p ketibsan. Biroq ilm boshqa, hayot boshqa! Oyimlarni ayta-san!.. Oyimlarni o'ylasang... bu gaplaringning oqibati nima bo'lishiniyam bir o'ylab ko'rdingmi? Sen Otaqo'zi akani bilasanmi o'zi? Kim bilan o'ynashayotganingni tasavvur qilasanmi o'zi?

– Bilaman! Qo'lidan har nima keladi u kishining! Og'ayningiz Haydar ham shunday deb o'ylaydi! Tegmasa... zo'rlab olsam ham olaman, deb o'ylaydi!

– Oladiyam! Qo'l-oyog'ingni bog'lab bo'lsayam oladi! Yo hammamizni kasr-u kasofatingga qoldirmoqchimisan? Bizniyam o'yla! Meni o'ylamasang, oyimlarni o'yla!

– Meni qo'y, bolam! Oyi bo'lmay o'la qolay men, o'la qolay! – Fazilat boshiga musibat tushgan qishloq ayollari-day tizzalarini mushtlab, uvvos tortib yig'ladi. – Seni baxti qaro qilguncha, o'la qolganim yaxshi, qizginam...

– Oyi! – Qodirjonning ovozi tokchalardagi idish-tovoqlar-ni jaranglatib yubordi. – To'yni azaga aylantirmang, oyi! Ahmoqlik qilyapti qizingiz! Ahmoq bo'lmasa Haydarday yigit...

– Mayli! – Latofat shartta o'rnidan turdi. – Mayli, og'ay-ningizga ayting – men roziman! Biroq bilib qo'ysin, men unga... ko'ngil qo'yib emas, zo'ravonligidan qo'rqib, otasi-ning qudratidan qo'rqib... rozi bo'lyapman! Agar u zo'ravonlik qilib uylanishdan uyalmasa – mayli, boshlayversin to'yni! – Latofat shunday dedi-da, cho'rt burilib, uyga kirib

ketdi. O'rtaga cho'kkan ancha sukutdan so'ng Qodirjon yer ostidan oyisiga xo'mrayib qaradi.

– Demak, gap shu! Latofatning roziligini oldik. To'yni boshlayverasiz! Qo'ying shu obidiydangizni! To'yni azaga aylantiryapsiz yana! – U shartta borib chiroqni o'chirdi. – Bo'ldi, yotib uxlang! Ertadan to'y taraddudini boshlaysiz!..

– O'g'lim!

Qodirjon uning chaqirganini eshitmadi yo eshitsa ham o'zini eshitmaganlikka oldimi, javob bermay uydan chiqdi.


„Nahotki Latofat, yolg'iz qizi, bu yolg'on dunyoga ke-lib ko'rgan bitta-yu bitta quvonchi Latofat uning o'ziday suymagan odamiga turmushga chiqib, uning o'ziday baxti qaro bo'lsa?“ Fazilat o'tirgan joyiga „shilq“ etib tushdi-da, yuzini yostiqa bosdi.

U qizi oldida o'zini azaldan gunohkor sezardi. Qizi to'g'risida o'ylasa, doimo odamlarning; „Onasini ko'r-da, qizini ol, arqog'ini ko'r-da, bo'zini ol“, degan gapi esiga tushar, nazarida, odamlar bu gapni go'yo Latofat uchun o'ylab chiqarganday, go'yo uning, Fazilatning o'tmishiga shama qilayotganday tuyulardi. U qizi bilan onalarcha samimiy gaplashgisi, to'yib-to'yib yorilgisi kelar, biroq bunga yuragi dov bermas, chunki qishloqdagi gap-so'zlar qizining g'ururini bukib qo'rganini bilardi. Shu mish-mishlar sabab, Latofat yozgi ta'til paytlarida boshqa qizlarday ko'chalarni to'ldirib yurmas, to'ylarni, qizlar bazmini ko'p xushlamas, aksariyat uyda bo'lar, kecha-yu kunduz boshini kitobdan ko'tarmas, qandaydir g'amgin, pinhoniylar xayollar og'ushidan chiqmas edi. Rost, bu ma'yuslik unga allaqanday yarashar, ko'rgan kishining yuragini jiz ettirib, o'ziga rom qilib olar, biroq Fazilat bundan cho'chir, qizining taqdirini o'ylasa, olam qorong'i bo'lib ketardi unga...

„Demak, gap shu... To'yni boshlayveramiz!“

Yo'q, Fazilat qiziyam uning o'ziday baxti qaro bo'lishini istamaydi. Bunga sira yo'l qo'ymaydi. Biroq... kimga boradi? Dardini kimga aytadi? Otaqo'zigami? Yo'q, Otaqo'zi bilan bu to'g'rida gaplashishni o'ylashining o'zi dahshat! Yo bo'lmasa... domla Shomurodovga borsamikan? Dilidagi dard-u hasratlarini unga to'kib, yordam so'rasamikan?

Normurod Shomurodovni eslashi bilan ko'nglining eng tub qa'rida yotgan mash'um xotiralar yana xuruj qilib keldi-yu, xayollari to's-to'polon bo'lib ketdi.



Fazilat har safar Jabbor to'g'risida o'ylaganida ilk tanishgan mas'ud onlari, qishloq bog'larida o'tgan pinhoniylar va pinhoniylar bo'salar emas, urush boshlangandan keyin Toshkentda, Yoshlar xiyobonida bo'lgan va allaqanday tahdidli ruh bilan yo'g'rilgan g'amgin uchrashuv yodiga tushadi.

Urush boshlanganiga bir haftadan oshgan, o'sha kunlari bu mash'um xabar yuraklarni larzaga solgan...

U mahalda Yoshlar xiyoboni endi ochilgan, har kuni kechqurun unda ulkan xalq sayli bo'lar, nog'oralar taraklab, karnay va surnaylar yangrar, ko'l bo'yiga tikilgan dorlarda dorbozlar tomosha ko'rsatishardi.

Fazilat va'dalashgan joylariga, choyxona ro'parasidagi majnuntollar tagiga odatdagidan bir soat oldin bordi. Xiyobonda go'yo hech narsa o'zgarmagan – har kungiday odam gavjum, har kungiday nog'oralar gumburlar, karnay va surnaylar na'ra tortar, dorlar ostida betoqat bolalar to'polon qilishardi. Biroq Fazilatga hamma narsa o'zgarganday, karnay va surnaylar dam ko'z yoshi aralash nola qilayotganday, dam xalqni zafarga chorlab, na'ra tortayotganday tuyulardi. U Jabborni ko'rib yuragi orqasiga tortib ketdi. Jabborning egnida qora gimnastorka, oyog'ida g'arch-g'urch xrom etik, belida kamar, faqat yalang bosh, qalin, xiyol jingalak sochlari hurpaygan, o'ziyam qandaydir salobatlashgan, iyagi sal oldinga turtib chiqqan ot yuzida Fazilatga notanish, shiddatli bir ifoda paydo bo'lgandi.

Fazilat yuragi uvushib, unga peshvoz chiqdi.

– Sizga nima bo'ldi? Urush... urushga ketyapsizmi?

– Yo'q, hozircha qurilishga ketyapmiz, – dedi Jabbor.

– Lekin... tezda chaqirib olishlari kerak. Voenkom shunday dedi! – Jabbor qizning ko'zlariga termilib, uning qo'lini oldi. – Sen nima qilmoqchisan?

– Men... imtihon tugasa, qishloqqa ketaman.

– To'g'ri! – dedi Jabbor. – Sen... men qaytguncha, urushdan qaytgunimcha qishloqda bo'p turganing ma'qul.

Fazilatning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

– Siz... xuddi bugun ketayotganday gapirasiz?

– Chunki baribir ketaman! Institut ushlab turgan taq-dirdayam... Baribir ketaman. O'qigan qizsan, tushun-mog'ing kerak...

– Endi... endi ko'rishmaymizmi? – dedi Fazilat lablari pirpirab.

– Hozir bir narsa deyolmayman, Fazilat. Agar chaqirib qolishsa... seni ko'rib ketishga harakat qilaman! Bir kun, bir soatga bo'lsayam borib kelishga harakat qilaman. Biroq buning iloji bo'ladimi, yo'qmi – hozir bir nima deyolmay-man!

Jabbor uning iyagidan ushlab, yosh bilan yuvilgan yu-zini kaftlari orasiga oldi. – Shuni bilib qo'y, Fazil! Qayer-da bo'lmay, doim yodimda turasan. Agar urushga ketsam... dushman bilan seni deb olishaman, seni deb janglardan omon chiqishga harakat qilaman. Seni deb eson qaytishni orzu qilaman!

Jabbor shunday deb, uni bag'riga bosdi-yu, lablaridan, ko'zlaridan o'pdi, ehtiros va alamdan yonib, entikib o'pdi...

Ertasiga u qandaydir qurilishga – Jabbor o'sha yili te-miryo'lchilar institutining ikkinchi kursini tugatgan edi – ketdi, Fazilat esa so'nggi imtihonni topshirib, qishloqqa jo'nadi.

Urush nafasi qishloqqa ham yetib borgan edi.

Har kuni bo'lmasa ham haftada bir-ikki marta qishloq yigitlari urushga ketardi. Odatda, yigitlar qishloq o'rtasi-dagi tepalikka, gumbazli machit oldidagi maydonga yig'i-lishar, ularni jo'natgani tumonat odam to'planar, ko'hna devor bilan o'ralgan qadimiy qal'a xotin-xalajning yig'isi, oq yo'l tilab, duo qilgan chollarning „ilohi omin“i, bola-chaqalarning qiy-chuvi, aravakashlarning hayqirig'idan larzaga kelardi... Ayni zamonda deyarli har kuni, har oqshom qishloqda to'y bo'lar, urushga ketayotgan yo ketishi mu-qarrar bo'lgan yigitlar o'z tanlaganlari bilan qovushishga

shoshilar, bir kun, bir kecha bo'lsa ham birga bo'lishni istashar edi. To'ydan so'ng, childirmaning gijbanglari, karnay-surnay na'rasi, qiz-kelinchaklarning ko'z yoshi aralash aytgan yor-yorlaridan keyin, yigitlar yana o'sha tepalikka, eski qo'rg'on devorlariga chiqishib, tong otguncha qo'shiq aytishar, xiyol shirakayf ovozlarda aytiladigan va kelgusi hijron dog'lari bilan yo'g'rilgan, cheksiz mung bilan sug'orilgan bu qo'shiqlarni eshitganda yig'lamagan bir qiz, urushga ketgan yo erta-indin ketadigan yorini o'ylab zir titramagan biror-bir kelinchak bo'lmas edi!

Fazilat g'am va judolik sharpasi hokim bo'lgan bu to'y-larga ko'p boravermas edi. Lekin kechalari amakisining uyida, bu mungli yor-yorlarga, tepadan taraladigan yigitlar qo'shig'iga quloq solib yotarkan, Jabborni o'ylab yuragi zirqirar, nazarida, u ham allaqachon urushga ketganday bo'lardi.

Jabbor hamon temiryo'l qurilishida ishlardi. Undan har kuni bo'lmasa ham ikki kunda bir xat kelar, uning bo'salariday qaynoq, konvertidan chiqadigan dasht giyohlarining hididay hazin, visol orzusiga to'la bu xatlarni Fazilatga yashirincha Otaqo'zi olib kelib berar, chunki amakisi uni juda qattiq tergar, har bir qadamini kuzatardi.

Oktabrning oxirlari edi shekilli, bir kun kechasi, Fazilat, yuragi g'ash, uyqusi qochib, yettinchi lampa shu'lasida kitob varaqlab o'tirgan edi, nogahon kimdir derazani chertdi.

Kitobni otib yuborib, derazaga intilgan Fazilat qorong'ida oynaga yuzini tirab turgan Otaqo'zini ko'rdi.

– Akam keldilar! Sizni kutyaptilar...

Fazilat yorug' uyda hech narsani ko'rmay, dam qoziqdagi ro'moli, dam sandiqdagi kamzuliga yugurib, yelkasiga ildi-da, yalangoyoq, yalangbosh tashqariga otildi.

Jabbor uni huvullab qolgan yarim yalang'och bog'ning ortida, ariq yoqasida kutib turardi. Ular bir-birlariga qarab talpindilar-u, unsiz quchoqlashganlaricha jimgina qotib qoldilar.

Bir parchagina sovuq oy ko'kdagi siyrak qora bulutlar orasida goh ko'rinib, goh yo'qolar, tog'dan yoqimsiz izg'irin esar, yarim yalang'och bog' notinch guvullardi. Nihoyat,

Fazilat boshini Jabborning ko'ksidan uzib, uning soqol bosgan va qorong'ida qandaydir notanish va tahdidli tuyulgan yuziga tikildi.

– Nima bo'ldi? Ketyapsizmi? Axir temiryo'lchilar...

– Yo'q! – dedi Jabbor uni quchog'idan qo'yib yubormay.

– Men... qoldirishsayam qololmayman. Aqling yetadi-ku!..

– Qachon? Qachon ketyapsiz?

– Ertaga. Lekin bu yerdan... hozir, darhol jo'namog'im kerak. Soat o'n ikkida o'tadigan poyezdga yetib bormasam bo'lmaydi...

Fazilat go'yo judo bo'lishlariga endigina ko'zi yetgan-day, uning bo'yniga osilib, o'kirib yubordi.

– Fazilat – dedi Jabbor. – Fazilat meni qiynama! Men hozir... darhol jo'nashim kerak. Darhol. Men seni bir ko'ray deb keldim, bir on, bir daqiqa bo'lsayam diydoringni ko'ray deb kelgandim, mana, ko'rdim. Roziman. Ming marta roziman sendan! – U Fazilatning iyagidan ushlab, o'ziga qaratdi, yana yozdagiday yuzini kaftlari orasiga oldi. – Tunov kuni ko'lda aytgan gaplarim esingdami? O'sha gapim gap! Men seni deb jang qilaman. Seni deb omon qaytishga harakat qilaman! Kutasanmi? Toki bir gap bo'lguncha...

– Jabbor aka! – dedi Fazilat o'pkasi to'lib, – Jabbor aka...

– Boshqa gapim yo'q! – Jabbor butun yigitlik kuchi, yigitlik ehtirosi bilan uni yana bag'riga bosdi, ko'z yoshidan nordon bo'lgan yuz-ko'zlaridan o'pdi. O'pkasini zo'rg'a bosib hansirab gapirdi: – Xayr, Fazilat. Jonginam, azizim, yolg'izim, sabr qil! Sabr-toqat bilan kutgin. Qaytaman. Albatta qaytaman!.. Otaqo'zi! Qaydasan? Kennoyingga qara! – Jabbor shunday deb, Fazilatning qo'llarini kuch bilan yozdi-da, bir hatlashda ariqdan o'tib, qorong'ida kutib turgan otliq do'stlari tomon chopib ketdi.

Orqasidan yuguraman deb yiqilib tushayozgan Fazilatni Otaqo'zi ushlab qoldi...

Jabbor avval Qozog'istonning shimol tomonidagi bir shaharda, tankchi komandirlar tayyorlaydigan kursda o'qidi. So'ng, qirq ikkinchi yilning fevral oylarida, frontga jo'nadi...

Besh oy davomida undan kelgan xatlar salkam bir sandiq bo'ldi. Birda oddiy qora qalam bilan yozilib, so'zlari xi-

ralashib qolgan, birda xotirjamlik bilan siyohda yozilgan bu uchburchak maktublar Fazilatning tashna qalbiga xuddi yozgi yomg'irday ta'sir etar, bir yig'latib, bir kuldirar edi... Lekin Jabbor jangga kirdi-yu, bir oycha xat uzilib qoldi. Qaygadir g'oyib bo'lgan, Fazilatni ko'rsa qochadigan bo'lgan Otaqo'zi rappa-raso bir oy deganda yalangoyoq, yalangbosh, qo'lida uchburchak xat, Fazilat dars berayotgan sinfga otilib kirdi.

– Akam tirik! Yarador bo'пти. Gospitalga tushibdi!

Fazilat, gapirishgayam majoli yetmay Otaqo'zining ustarada qirilgan taqir boshini ko'ksiga bosib, yig'lab yubordi.

Jabbor jangda oyog'idan yarador bo'lib, gospitalga tushgan, xatiga qaraganda ruhi tetik, „nasib qilsa ko'rishib qolarmiz“, degan gaplari ham bor edi.

Nasib qilsa ko'rishib qolarmiz!

Shu umid bilan yana bir-ikki oy o'tib, yoz keldi. Qishloqda hamma sog'lom yigitlar urushga ketgan, mehnatning og'iri xotin-xalajga, chollarga, maktab bolalariga qolgan edi.

Bu orada kolxoz raisi ham ketib, o'rniga Fazilatning amakisi rais bo'ldi. Bir kuni u Fazilatni chaqirib:

– Endi maktabingni qo'yib tur, bolam, – dedi. – Bu ahvolda hisobchiyam ketadiganga o'xshaydi. Uning yoniga kiritib ish o'rgan, bolam...

Fazilat itoatkorlik bilan idoraga borib, hisobchidan ish o'rgana boshladi. Xuddi o'sha mahalda to'satdan qishloqda Jamol Bo'riboyev paydo bo'lib qoldi.

Bir kuni Fazilat idorada yolg'iz cho't qoqib o'tirgan edi, ot tuyoqlarining dupuri eshitildi. Fazilat o'rnidan turib, derazani ochdi. Idora oldida qo'sh ot qo'shilgan katta fayton turar, undan sakrab tushgan, barvasta, xushqad bir yigit unga tomon shaxdam qadam tashlab kelardi. Xuddi hozirgina frontdan qaytgan komandirday, egniga gimnastorka, boshiga furajka, oyog'iga xrom etik kiygan bu odamni ko'rganda, Fazilatning xayoliga: „Jabbor!“ – degan fikr keldi-yu, oyoq-qo'llari bo'shashib ketdi.

Faytondan tushgan xushqad odam deraza ro'parasida to'xtab, Fazilatga tikildi.

- Idorada kim bor?
- Hech kim... – zo'rg'a javob bera oldi Fazilat.
- Rais qani?
- Dashtda. O'roqda...
- Siz kim bo'lasiz?
- Men... hisobchiga yordamchi...
- Hisobchiga yordamchi... – jangchiga o'xshagan odam boshidan furajkasini olib, xuddi hozirgina suvga sho'ng'ib chiqqanday sip-silliq, yaltiroq sochlarini silarkan, Fazilatga boshdan oyoq razm solib, miyig'ida kulimsiradi:
- Balo chiqdi-ku, bu rais! Odam tanlashni bilarkan!
- Fazilat bir qizarib, bir bo'zardi.
- U kishi... amakim bo'ladilar...
- E, shunaqami? Shunday jiyanlari bor ekan-u, bizdan yashirib yurgan ekanlar-da! Ismingiz nima, go'zal qiz?
- Fazilat...
- Fazilatxon deng? Hmm... qani bo'lmasa, qog'oz-qalamlaringizni yig'ishtirib, faytonga chiqing, Fazilatxon...
- Fazilat negadir yuragi orqasiga tortib:
- Voy, nima qilaman faytonda? – deb yubordi.
- Bir o'ynatib kelaman! – Harbiy kishi xaxolab kuldi-da, darhol lab-lunjini yig'ishtirdi. – Men, – dedi salmoqlab. – Bo'riboyev bo'laman. Jamol Bo'riboyev. Eshitganmisiz?
- Voy, rayijrokom raisi...
- Bo'riboyev mamnun jilmaydi:
- Bilar ekansiz-ku! Qani bo'lmasa, dashtga yo'l ko'rsatib qo'ying, Fazilatxon. Tezroq bo'ling. Vaqt ziq! – Bo'riboyev shunday dedi-da, harbiychasiga yerni tap-tap bosib, faytonga qarab ketdi.
- Usti soyabonday ko'tarilib, oq mato bilan qoplangan keng faytonda Bo'riboyevdan boshqa hech kim yo'q, oldingi baland o'rindiqlarda o'tirgan mo'ysafid otlar bilan band edi. Fazilat, hamon nimadandir ko'ngli g'ash, faytonning burchagiga suqilib olgan edi. Bo'riboyev unga tomon surilib hazillashdi:
- Mening familiyam Bo'riboyev bo'lsayam, o'zim bo'ri emasman, Fazilatxon. Qo'rqmang, agar o'zingiz iltimos qilmasangiz, yeb qo'ymayman!

Bo'riboyev yo'l-yo'lakay har xil hangomalarni gapirib, Fazilatni kuldirishga, uni suhbatga tortishga harakat qilib ko'rdi. U birda sharaqlab kular, birda ko'zlariga ma'yuslik cho'kib, ovozi samimiy titrar, Fazilat javob bermasa, go'yo qattiq tahqirlanganday qovog'ini uyib olardi.

Fazilat uni zimdan kuzatib, hamon allanimadan seskanib o'tirarkan, dam: „Katta odam-ku, muncha titramasam“, deb o'zini o'zi koyir, dam yomon yo'lga kirib qolganday tuyulib, vahima bosardi. Lekin Bo'riboyevning gapiga kirib, xato qilganini o'roqchi xotinlarning ularni ko'rib shivirlashib qolishganini payqaganda, ayniqsa, xirmonda Otaqo'zi bilan uchrashganida tushundi.

Ko'ylagi yoqavayron, shimining pochalari tizzasigacha shimarilgan, boshiga almisoqdan qolgan kigiz qalpoq kiyib olgan Otaqo'zi xirmonda xo'ptir haydardi. Bo'riboyev bilan birga faytondan tushayotgan Fazilatni ko'rganda Otaqo'zi qo'lidagi xipchini yerga tushib, bir on angrayib qoldi, keyin ko'zlari qahr bilan yonib, cho'rt burilib ketdi.

O'shanda, qiz-kelinchaklarning shivir-shivirini eshitib, Otaqo'zining qahrli nigohi bilan to'qnashganida, Fazilat ikkinchi marta Bo'riboyevni yoniga yo'latmaslikka ahd qildi. Biroq Fazilat Bo'riboyevdan o'zini qanchalik olib qochsa, Jamol Bo'riboyev unga yaqinlashishga shunchalik urinaverdi. U to'satdan qishloqqa serqatnov bo'lib qoldi, har keldanda idoraga kirmay ketmas, idoraga kirganda esa, Fazilat bilan uchrashmay, undan hol-ahvol so'ramay, hazillashib bir kuldirmasdan ketmas edi. Sal keyinroq esa u „ishga qarashvorish“ bahonasida Fazilatni tez-tez rayonga chaqirtirib oladigan, har xil, ko'pincha arziyas topshiriqlar bilan bir hafta-yarim hafta ijrokomda ushlab qoladigan bo'ldi. O'sha kunlari u bir necha marta Fazilatga „birga bo'lish“ haqida shama qildi, ziyofatlarga olib borishga urinib ko'rdi. Ammo Fazilat ko'nmadi.

Fazilat har kuni bo'lmasa ham haftada bir-ikki marta Jabbordan xat olar, uning ta'tilga kelishini orziqib kutardi. Lekin Jabbor kelmadi. Uch oy gospitalda yotgandan keyin „frontga ketyapman“, degan xat keldi. Undan keyin erta-indin jangga kiramiz, degan ma'noda yana bitta xat

keldi. Bu uning so'nggi xati bo'ldi... Ikki oydan keyin, oktabrning oxirlarida, bir kuni vaqtincha raislik qilayotgan amakisi uni bir chetga chaqirib uzoq suhbatlashdi. Amakisi gapni aylantira-aylantira yana o'sha Bo'riboyevga olib borib taqadi, uning niyati pok ekanini, Fazilatni deb hatto birinchi xotinidan ajrashishga ham tayyor ekanini aytdi.

Fazilat o'zini karavotga otib yig'ladi, yig'i aralash ko'nglidagi bor gapni aytdi. Jabborni deganini, ikki oy tugul, ikki yuz yil o'tsa ham uni kutajagini, o'lib qolsa ham Bo'riboyevga tegmasligini aytdi. Amakisi eshikni qars yopib chiqib ketdi.

Yana bir oy o'tdi. Noyabrning oxiri, dekabrning boshlari edi. Bir kun ertalab ishga borgan Fazilat stolda yotgan konvertni ko'rdi. Bu odatdagi uchburchak xatlardan emas, katta muhr bosilgan, to'rtburchakli chinakam konvert edi!

Fazilat sovuq ter bosib, konvertni ochdi, ochdi-yu, xatni yaxshiroq o'qishga ham majoli yetmay, stulga, stuldan yerga ag'anab tushdi. U yanglishmagan, to'rtburchakli bu konvert – qoraxat, Jabbor haqida, uning jangda qahramonlarcha halok bo'lganligi to'g'risida edi!

Birinchi dahshatli kunlar o'tib sal hushiga kelganidan keyin Fazilat bu mash'um qoraxat Jabborning qarindoshlariga yoki Toshkentdagi ota-onasiga emas, unga kelganini o'ylab hayron bo'ldi, biroq pochtagilar tushuntirib qo'yishdi: – Jabborning cho'ntagidan sening surating bilan sening adresing chiqqani uchun senga yuborishgandir-da! – deyishdi. Otaqo'zidan esa hamon darak yo'q, xirmondagi to'qnashuvdan keyin u Fazilat bilan salomlashmas edi.

Bir oy o'tdi. Bir oydan keyin Fazilat amakisining qistovlariga yon berdi. U endi hamma narsaga loqayd qaraydigan bo'lib qolgandi.

Bo'riboyev Fazilatni shaharga olib ketmadi, qishloqda uyushtirilgan pinhoniyl ziyofatdan keyin uni idora yonidagi ikki xonali bir uyga ko'chirib olib borib qo'ydi.

Bo'riboyev oldin har kuni qatnab yurdi. U kelgan kunlari aksariyat „faollar“ ham yig'ilar, bu yig'inlar goho tongotar bazmga aylanib ketardi. Bu hol bir-ikki oy davom etdi, keyin Bo'riboyevning kelishi siyraklasha boshladi. U, odatda,

kechalari, ko'pincha tun yarmidan og'ganda, g'arch-g'urch qor bosib, qamchisi bilan etigini, egnidagi pochapo'stini ni chars-churs savab, eshik zulfinlarini betoqat sharaqlatib kirib kelardi.

Uning Fazilatga ayniqsa qattiq botadigan bitta odati bor – ko'z yoshini, xafagarchilikni jini suymasdi. Agar yer depsi-nib kirib kelganida Fazilat kulib qarshi olmasa yo keyinroq bir narsadan o'ksib ko'ziga yosh olsa, tuklari tig' bo'lib:

– Motam tutmang, xonim! – deb o'shqirib berardi. – Shu kecha-kunduzi ne-ne odamlar jang maydonlarida o'lib ketyapti! Ne-ne qiz-kelinchaklar tul qolyapti. Siz bilan biz eson-omon yuribmiz, o'ynab-kulib qolmoq kerak. Qani, ovqatni opkeling. Mana shu nozik qo'llaringiz bilan bir pi-yola sharob tuting, ko'zidan akasi!..

Fazilat unga gap-so'zsiz itoat qilar, hamma talablarini unsiz bajo keltirar, u Bo'riboyevdan bo'ridan qo'rqqanday qo'rqar edi. Ko'ziga yosh olish u yoqda tursin, haftalab yo'q bo'lib ketgan paytlarida ham aqalli ginaxonlik qilishgayam qo'rqar, zotan, undan o'pkalash fikri xayoliga ham kirib chiqmas edi. Ba'zan unga qandaydir bosh-keti yo'q bir tush ko'rayotganday, tuman orasida hadsiz bir sahroda adashib yurganday tuyulardi...

Yanvarning boshlari edi. Qirq uchinchi yil yanvari. Qishloqni qalin qor bosgan, uylar, ko'chalar – hammasi qor tagida qolib, allaqanday cho'kib, jimib qolgan. Butun qish-loqda faqat bir joyda, kolxoz idorasida radio bor, u ham bor-yo'g'i bir soatgina gapirar, gazetalar haftada bir marta kelardi. Lekin ikki odamning boshi qo'shilsa front to'g'risi-da, Stalingrad to'g'risida gap ketar, hammaning og'zida shu bir so'z – Stalingrad edi!

O'sha kuni Fazilat sovuq idorada bir o'zi cho't qoqib o'tirardi. To'satdan hovli tomondan yugurishib o'tgan uch-to'rtta bolalar ko'rindi, so'ng, eshiklar taraq-turuq ochilib, bolalar xonaga yopirilib kirishdi. Oldinda Otaqo'zi! Qo'lida „Qizil O'zbekiston“ gazetasi, ko'zlarida ham hayrat, ham nafrat!

– Mana! – Otaqo'zi qo'lidagi gazetani boshi uzra aylan-tirdi. – Akam tirik! Akam qahramon! Ko'rib qo'ying – butun

Toshkent kutib oldi uni! Sizdan o'n marta yaxshi, yuz marta chiroyli qizlar... gullar bilan kutib oldi!

Otaqo'zi o'tirgan joyida tosh bo'lib qotib qolgan Fazilatning oldiga gazetani otib yubordi-da, eshikdan mo'ralab turgan do'stlarini boshi bilan suzib, tashqariga otildi.

Uning gapi to'g'ri – gazetada vagondan tushayotgan Jabbor va uni gullar bilan qarshi olayotgan qizlar surati bosilgan, surat tepasiga yirik harflar bilan: „O'zbek xalqi qahramon farzandini qutlamoqda!“ – degan so'zlar yozilgan edi...

O'sha kuni kechqurun qosh qorayar-qoraymas Jamol Bo'riboyev kirib keldi. Shirakayf. Yurishlari alpong-talpong. Ko'zlari bejo.

Yig'layverib holdan toygan Fazilat, bir uyda bir o'zi, karavotda shiftga tikilib yotardi, uyga qor aralash bir qop sovuq olib kirgan Jamol Bo'riboyev po'stinini ham yechmasdan:

– Eshitibdilar-da, xonim? – deb so'radi.

Fazilat javob berish o'rniga ko'ziga jiqqa yosh oldi.

Bo'riboyev qori qoqilmagan po'stinni bir siltashda yechib, chetga irg'itdi, po'stinining ustiga qunduz telpagini otib, mushti bilan stolni qarsillatib urdi.

– Bas! O'lmasimdan burun aza tutmang! Mehringiz toshib ketgan bo'lsa... o'lganimdan keyin yig'laysiz! Qoraxat qani?

– Qoraxat?

– Bu yigit to'g'risida kelgan qoraxatni olganmidingiz axir? O'shani aytyapman – qani?

U mash'um xat Fazilatning yodida ham yo'q, uni o'sha zahotiyoyq g'ijimlab qayoqqadir otgan edi...

– Yaxshi! – dedi Bo'riboyev. U qo'llarini orqasiga qilib, uyni bir aylanib chiqdi. – Gap bunday, xonim! Bunaqa voqealar, ya'ni, oldin qoraxat kelib, keyin tirik bo'p chiqayotganlar bitta bu yigit emas! Juda ko'p bo'lyapti bunaqa voqealar. Sababi urush! Buning uchun birovni ayblab bo'lmaydi. Sizdan iltimos. Bu odam ta'tilga kelganmish. Mabodo Toshkentdan bu yoqqa o'tsa... siz meni tanimaysiz, men sizni! Qo'rqmang! U ketguncha, xolos! Agar, mabodo gap

kovlashtiradigan bo'lsa... siz meni yaxshi ko'rib tekkansiz! Qattiq muhabbat qo'yib tekkansiz. Tushundingizmi gapimga?

Negadir burchakka qisilib, mum tishlab olgan Fazilat ortiq chidab turolmadi. Birdan ovozing boricha uvvos tortib yig'lab yubordi...

Bo'riboyev uning tepasida haykal bo'lib qotib turar, Fazilat ko'z yoshi aralash uning qattiq siqilgan mushtlarini, qor kechib yaltillab ketgan etigini ko'rib turar, oynaday yaltillagan shu etiklari bilan tepib yuborishini kutar, lekin bundan qo'rqmas, aksincha, uning urib yiqitishini, ustiga chiqib tepkilashini, shafqatsiz tepkilab, bo'g'ib o'ldirishini istardi! Ammo Bo'riboyev odatdagiday baqirib-chaqirmadi, aksincha, qo'lini uning yelkasiga qo'yib, to'zg'igan sochlarini tuzatmoqchi bo'ldi, hatto Fazilat, xuddi ilondan seskanganday seskanib, chetga surilganda ham o'shqirmadi. Tepasida anchagacha sukutga cho'mib turgach:

– Qo'rqmang, azizim, – dedi ohista. – Buning hammasi – vaqtincha bir narsa. Biz... u odam qaytib ketguncha shunday qilishga majburmiz. Keyin... keyin hammasi o'rninga tushadi. Men... munosabatlarimizni rasmiylashtiraman. Sizni shaharga ko'chirib opketaman. Axir bilasiz-ku, sizsiz turolmayman. Faqat, bitta iltimos: haligi gap esingizda bo'lsin! Biz bir-birimizga muhabbat qo'yib qovushganimiz. Tamom-vassalom! Aks holda, ikkimizgayam yaxshi bo'lmaydi. Men-ku, erkakman. Bir yo'lini toparman. Sizga yaxshi bo'lmaydi. Ko'z yoshidan foyda yo'q. Aql bilan ish tutaylik, jonginam! – Bo'riboyev bir nuqtaga tikilib qolgan Fazilatning yelkasini silagan bo'ldi-da, po'stinini kiyib uydan chiqdi.

Bo'riboyev ketgandan keyin bir-ikki soat o'tmasdanoq eshik yana taqilladi. Fazilat eshikni ochmasdanoq bildi, ayollarga xos qandaydir ichki bir tuyg'u bilan sezdi – Jabbor!

Oldin dahliz, so'ngra mehmonxona eshigi shitob bilan ochilib, ostonada... egnida zarrin pogonli yashil shinel, boshidagi furajkasi shiftga tegay-tegay deb turgan... Jabbor, uning ketida Otaqo'zi ko'rindi.

Qoshlari bir-biriga tutashgan, qisilgan ko'zlari to'rdan surat bo'lib qolgan Fazilatga qadalgan, lunjlari ichiga botib ketgan qoramtir yuzida g'azab emas, yo'q, qandaydir cheksiz bir alam muhrlangan.

– Men hammasini eshitdim! – Jabbor ko'zlarini Fazilatdan uzib, yaxlab qolgan derazaga qaradi. – Siz... uch oy mendan xat olmabsiz.

„To'rt oy! Uch oy emas, to'rt oy!“

Fazilat buni ovoz chiqarib aytdimi yo faqat xayolidan o'tkazdimi – o'ziyam bilmaydi. Faqat xayolidangina o'tkazgan bo'lsa kerak. Chunki Jabbor derazaga qaragancha bo'g'i ovozda davom etdi:

– Men buning sabablarini surishtirib bilaman. Ertaga-yoq hammasini aniqlayman. Chunki... Sizga xat yozmagan kunim bo'lmagan edi! Har kuni xat yozar edim sizga, har kuni!..

– Men-chi? Mening xatlarim-chi?

– Yo'q, olganim yo'q! Men buniyam surishtirib bilaman. Lekin gap bu xatlarda emas. Siz go'yo... mening qismimdan qoraxat olgan emishsiz! Qani o'sha qoraxat?

Fazilat javob berish o'rniga yerga tiz cho'kib, yuzini kaftlari orasiga yashirdi.

– Qoraxat!.. Boya u so'ragan edi bu xatni, endi siz!

– „U“ deganingiz kim? Bo'riboyevmi?

– Ha...

– Berib yubordingizmi unga?

– Yo'q! – dedi Fazilat ingrab. – Men uni... men uni o'shandayoq yirtib tashlaganman! Parcha-parcha qilib yirtib tashlaganman. Siz nimani ham bilasiz? – Fazilat yuztuban tushganicha yerni mushtlab faryod chekdi.

Anchadan keyin uning qulog'iga Jabborning „xo'p, mayli“, degan ovozi, so'ng etiklarning biri og'ir, biri yengil g'arch-g'urchi eshitildi.

Fazilat kechasi bilan mijja qoqmadi, kelgusi kuni ham ertalabdan kechgacha karavotda shiftga tikilib yotdi. Hatto chiroqni ham yoqmadi. Kechasi allamahalda hovli eshigi taraqlab, kimdir kirdi.

– Fazilat, qaydasan, bolam? Nega lampani yoqmading?
– amakisi qorong'ida timirskilanib yurib, lampani yoqdi, uni boshi uzra ko'tarib, karavotda yuztuban tushib yotgan Fazilatning yoniga keldi.

– Senga nima bo'ldi, bolam? O'rningdan tur. Kiyin. Uyga boramiz. Kennoying ovqat qilib kutib o'tiribdi.

Fazilat indamay o'rnidan turdi, indamay talabalik chog'laridan qolgan paltosini kiydi, indamay amakisining ketidan tashqariga chiqdi.

Ko'chada qo'sh ot qo'shilgan Jamol Bo'riboyevning tanish faytoni turardi. Amakisi oldinga, fayton haydaydigan cholning o'rniga, Fazilat esa orqasiga o'tirdi, o'tirarkan, muyulishdan chiqib kelgan ikki kishining qorasini ko'rdi.

– O'rtoq Bo'riboyev! Shoshmang, bir og'iz gap bor!

Bu Jabbor edi! Uni amakisi ham tanib qoldi, chamasi, sovuq havoni chars-chars kesib, otlarga ust-ustiga qamchi bosdi-yu, qordan to'fon yasab, faytonni surib ketdi...

Fazilat, to'g'rirog'i, uning soyasi yetib borganida, Jamol Bo'riboyev shiftiga o'ttizinchi lampa osilgan mehmonxonada, lablari nimanidir pichirlab, betoqat aylanib yurar, o'rtadagi xontaxtada og'zi ochilgan bir shisha araq, non, olma-anor, bir choynak choy turardi.

Eshikda Fazilatni ko'rib, Bo'riboyev tez yurib uning yoniga keldi, ammo ketma-ket dahlizga kirgan amakisi uni imlab chaqirdi. G'ira-shira dahlizda bir daqiqa gangir-gungur gaplashib turgandan keyin Bo'riboyev qaytib kirdi-da, karavotda yotgan po'stinini kiydi, kamarini bog'larkan, Fazilatga yaqinlashdi.

– Menga qarang, azizim. Haligi odam bugun raykomga kiribdi. Pochtani tekshiribdi. Ehtimol, ertaga sizni raykomga chaqirib qolishar. Agar mabodo chaqirib qolishsa, o'sha gap – gap!

Uning so'zi og'zida qoldi, chunki shu payt eshik sharaqlab ochilib, dahlizda Jabbor bilan yana bir notanish yigit ko'rindi.

Bo'riboyev, xuddi qafasga tushgan qushday pitirlab qoldi. Jabbor qo'li bilan amakini chetga surib, ichkariga kirdi-da, gavdasi bilan eshikni to'sib oldi.

– Ha, o‘rtoq Bo‘riboyev! Kun bo‘yi qidirib yuribmiz, qorangizni ko‘rsatmaysiz? Biroz gapimiz bor edi sizga!

Bo‘riboyev titroq barmoqlari bilan kamarini to‘g‘rilar-kan, hayajondanmi, qo‘rquvdanmi, duduqlanib:

– G-gapingiz bo‘lsa... idoraga b-boring, – dedi. – Men duch kelgan joyda gaplashadigan odatim yo‘q.

– Yo‘q, kechirasiz. Boshqalar bilan bo‘lmasayam, men bilan gaplashasiz!.. Men bultur oktabrdan boshlab urush-da, frontda qon kechib yurganda yozgan xatlarim qani?

– Iye, siz... siz juda g‘alati ekansiz-ku! Men qayoqdan bilay sizning xatlaringizni!

– Shunaqa deng? Bu gaplardan bexabarman deng? Mening xatlarimni, har kuni yozgan xatlarimni yo‘q qilgan boshqalar deng! Birovga kelgan qoraxatdan foydalanib, mening nomimga qoraxat uyushtirgan ham boshqalar deng? To‘xta! Gapimni bo‘lma, ablah! Axir men... biz u yoqda, frontda, Vatan uchun, xalq uchun tizzadan qon kechib yursak-u, senga o‘xshagan iblislar bu yerda qiz-juvonlarni yo‘ldan urib, eng razil ishlar bilan shug‘ullansalaring! Tirik ofitserni o‘ldiga chiqarib, qoraxat uyushtirish!.. Bu... eng qabih... palidlar ham qilmagandir bu ishni! – Jabbor boshini buqaday egib, Bo‘riboyevga qarab yurdi.

Bo‘riboyev qo‘llari bilan devorni paypaslab deraza tomon o‘tdi.

Ammo derazaga yopishish o‘rniga chapdastlik bilan xontaxtada turgan shishani olib, shiftdagi o‘ttizinchi lampaga otdi-da, bir tepishda derazani ochib, o‘zini tashqariga otdi.

– To‘xta, xoin! – qorong‘ida o‘rtadagi xontaxtani ag‘darib, derazaga sakragan Jabbor Bo‘riboyevni oyog‘idanmi, po‘stinining etagidanmi ushladi shekilli, qochoq bog‘ga gumburlab quladi.

– To‘xta, otaman! – yulduzlar ko‘ringan deraza bo‘shlig‘ida Jabborning novcha qomati bir daqiqa ko‘rindi-yu, zimiston bo‘shliqqa sakradi. Tapir-tupur oyoq tovushlaridan keyin zulmatga cho‘mgan bog‘ ortida „qars-qars“ etgan to‘pponcha ovozi yangradi...

Fazilat poygakka behush yiqilarkan, amakisining:

– Tamom, uyim kuydi xotin! – deb ingraganini eshitdi.

U o'ziga kelib ko'zini ochganida... yettinchi lampa shulasida yerda tiz cho'kib o'tirgan amakisini va uning ro'parasida, ag'darilgan xontaxtaning tepasida turgan Jabborni ko'rdi. Ovloqdan, juda ovloqdan Jabborning zil-zambil so'zlari qulog'iga kirdi:

– Ajali yetmagan ekan, qochib qutuldi! U-ku, vijdonsiz bir mal'un ekan. Lekin siz... ko'z oldingizda bo'lgan bu yovuzlikka qanday chidadingiz, amaki? Insof-u diyonat degandan zig'ircha bormi sizda yo hammasini jig'ildonga urganimisiz?

– O, uka! Bilmaysiz! Ko'p narsani bilmaysiz!

– Bilaman! Siz o'z boshingizni asrash payidasiz! Ammo bunday qilib asragan boshni qanday qilib el-yurt orasida ko'tarib yurasiz? Mayli! Mening gapim tamom. Biroq bilib qo'ying: bu razolatni menga nisbatan qipsiz, boshqa yigitlarga qila ko'rmang. Esingizda bo'lsin – qasosli dunyo bu!

Jabbor ag'darilib yotgan xontaxtani aylanib o'tib, uydan chiqa boshladi-yu, Fazilatning sekin ingraganini eshitib, to'xtadi, unga qaramay, zimiston dahlizga tikilganicha dedi:

– Mayli, omon bo'ling! Omon bo'ling, Fazilatxon!

Bu uning so'nggi so'zi bo'ldi. Ertasiga Fazilat uning urushga ketganini, hatto Toshkentga ham tushmasdan, to'g'ri frontga jo'nab ketganini eshitdi... U bir oygacha uydan chiqmadi, to'shak yozib yotib oldi. Bir oygacha Bo'riboyevdan ham darak bo'lmadi, bir oydan keyingina qishloqda mish-mish gap tarqaldi; yuqoridan bu ishlarni tekshirgani odam kelganmish, Jamol Bo'riboyev qamalgan emish... Bu mish-mishlar rostmi, yolg'onmi – buni surishtirib o'tirishning hojatiyam bo'lmadi. Xuddi o'sha kuni, „Jamol Bo'riboyev qamalibdi“, degan gap tarqalgan kuni kechqurun u o'z oyog'i bilan kirib keldi.

Bo'riboyev deyarli o'zgarmagan, faqat pochapo'stini-ning o'rniga shinel, qunduz qalpog'ining o'rniga furajka kiygan-u, salgina rangi olingan edi, xolos.

Jamol Bo'riboyev ko'p o'tirmadi, mayda-chuyda buyumlarini yig'ishtirdi-da, o'rnidan turdi.

Urushga ketyapman, – dedi, u hamon to'shakda yotgan Fazilatga. – Bilmadim... agar sizga muhabbat qo'yib gunoh qilgan bo'lsam... bu gunohimni qonim bilan yuvmoqchiman. Omon bo'lsak, ko'risharmiz hali!..

Fazilat Jamol Bo'riboyevning frontga ketish tarixini ke-
yinroq eshitdi.

Jabbor jo'nab ketgandan keyin Bo'riboyevning ishi ob-
kom byurosida muhokama bo'libdi. Muhokamada Bo'ribo-
yev Fazilatga aytgan gapini ta'kidlabdi: qizni yo'ldan urish
xayolimda ham yo'q, biz bir-birimizni qattiq sevib qovush-
ganmiz, agar sevgi jinoyat bo'lsa, meni frontga jo'natish-
laringizni so'rayman, gunohimni jangda yuvaman, deb arz
qilibdi. Byuro unga qattiq hayfsan e'lon qilib, iltimosini
qondiribdi.

Bu dunyo o'zi shunday teskari dunyo ekan. Sal o'tmay,
Jabborning Xarkov ostonasidagi shiddatli janglarda qah-
ramonlarcha halok bo'lganligi to'g'risida qarindoshlariga
qoraxat keldi. Nadomatlar bo'lg'aykim, bu mash'um xat
bu safar qalbaki emas, rost bo'lib chiqdi. Jamol Bo'riboyev
esa... qirq beshinchi yilning yozida eson-omon qaytib kel-
di. Uning urushda nimalar qilgani Fazilatga qorong'i, biroq
„gunohlarimni qonim bilan yuvaman“, degan gapining us-
tidan chiqqan bo'lsa kerak, yelkasida katta leytenantlik po-
goni, ko'ksida qo'sh-qo'sh orden va medallar, eng muhimi –
ikki marta yaralanganligini ko'rsatuvchi belgi bor, mardona
ko'krak kerib kirib keldi...

Fazilat bo'lsa... Jamol Bo'riboyev urushga ketgandan
keyin bir-ikki oygacha odamlarning ko'ziga ko'rinolmay,
uydan chiqmay yotdi. Bir-ikki marta o'zini o'ldirish xayol-
lariga ham bordi, biroq ko'ksi tagida pitirlagan farzand uni
choh labidan qaytardi. Nogiron bo'lib tug'ilgan bu to'ng'ich
farzand baribir turmadi, uch yoshga to'lar-to'lmas vafot
etdi. Biroq shu farzand tufayli u o'limdan qoldi, shu far-
zand tufayli Fazilat keyinchalik, Jamol Bo'riboyev frontdan
eson-omon qaytib kelgandan keyin uning inon-ixtiyoriga
bo'ysundi...


Odam loydan yaralgan, deganlari yolg'on ekan, tosh-
dan yaralgan ekan odam! Fazilat boshiga tushgan hamma

ko'rgiliklarga dosh berdi. Usti butun, ichi tutun, Fazilat ikki farzandini ne hasratlarda boqib katta qildi. Farzandlari, shukur, yomon bo'lishmadi, qing'ir-qiyshiq yo'llardan ketishmadi, ilmi-bilimli bo'lishdi. Rost, o'g'li Qodirjon – boshi toshdan bo'lsin ilohim, xiyol otasiga tortdi, biroq qizi Latofat! Latofat, Xudo umrini bersin, aql-hushi joyida, mehribon, jonkuyar, insofli qiz bo'ldi.

Nahot, suyukli qizi ham uning o'ziga o'xshagan baxti qaro bo'lsa? Nahot uning boshiga tushgan musibatlar qizining ham boshiga tushsa? Tushmasin desa... kimga boradi? Beadad hasratlarini kimga aytadi?.. Bitta-yu bitta boradigan odam – domla Shomurodov bo'lsa... bo'lib o'tgan shuncha gaplardan keyin Fazilat qaysi yuz, qaysi vijdon bilan undan madad so'rab boradi? Cholning yuziga qanday qaraydi?

Fazilat tong otguncha mijja qoqmadi.

To'rtinchi bob



Domla Shomurodov so'nggi yillarda, ayniqsa, keksalik yenga boshlagandan beri yangi odat chiqargan – u tunda ishlab, kunduzi dam olardi. U, odatda, kechasi soat ikki-uchgacha, ba'zan tong pallagacha kitob mutolaa qilar, yozib-chizib o'tirar, keyin yotib, kunduz soat o'n bir-o'n ikkigacha uxlar edi. Marhum aya erining bu odatiga o'rganib qolgan, u ham allamahalgacha uxlamay choliga choy damlab berib, mayda-chuyda ish bilan o'zini ovutib o'tirardi. Kampirning vafotidan keyin hamma narsa ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Normurod Shomurodov endi o'qisa o'qib, o'qimasa xayolga cho'mib, allamahalgacha o'tirar, lekin burungiday uzoq uxlay olmas, saharmardon uyg'onib ketardi-yu, qayta ko'zi ilinmas edi.

Bugun ham shunday bo'ldi.

Domla Shomurodov uyg'onganida uy hali qorong'i,

ochiq derazadan yulduz to'la bir parcha osmon ko'rinar, ammo tong yaqin bo'lsa kerak, qayerdadir yiroqda, aftidan, qabriston tomonda eshaklar hangrar, ahyon-ahyonda xo'rozlarning qichqirig'i eshilib qolardi.

Domla stulning suyanchig'iga osilgan kiyimlarini olib kiydi, choynakdan bir ho'plam choy ichdi, so'ng chiroqni yoqib, kitoblar qalashib yotgan mehmonxonaga chiqdi.

U biroz ishlamoqchi, kitoblarni tartibga solmoqchi edi. Lekin uyning shiftiga tegib tog'day uyulib yotgan bu kitoblarni bir o'zi qanday eplaydi?

Domla Shomurodov eshik yonidagi kresloga o'tirib, bir dasta kitobni yechmoqchi bo'ldi-yu, yechmadi. Esiga negadir yana kampiri tushib, yuragi zirqirab ketdi.

Ha, so'nggi yillarda yolg'izlikdan qiynalib qolgan chol-kampirning ko'p umidlari shu kitoblarga bog'liq edi. Aya sho'rlik cholining bu umidlarini, qishloqda kutubxona ochish to'g'risidagi gaplarini xuddi ertak eshitgan yosh boladay quvonib eshitar, qishloqqa ko'chadigan kunlarini orzilib kutardi. Marhumaning shu bitta-yu bitta orzusi ham ro'yobga chiqmadi, mana endi Normurod Shomurodov bu ishni kampirsiz amalga oshirmoqchi bo'lyapti, ammo bir odamning qo'lidan nima keladi, kelganda ham bu ish avval o'ylaganiday alamli qalbiga taskin-u tasalli bera olarmikin?

Domla bir-bir bosib tashqariga chiqdi. Bog'day katta, serdaraxt hovli hanuz g'ira-shira qorong'i, lekin qishloq uyg'onmoqda, qo'shni hovlida chaqaloq yig'lar, sigir-buzoqlarning mo'-mo'lashi, qo'y-qo'zilarning ma'rashi eshitalardi.

Domla Shomurodov ko'ngli bir xil bo'lib, qo'sh qanotli darvoza yonidagi eshikni ochdi. Ko'cha kimsasiz, jimjit edi. Biroq... ajabo! Darvoza yonidagi supada kimdir boshiga eski choponini burkab, yoniga shlapasini qo'yib uxlab yotardi.

„Kim ekan bu, kechasi uning uyini qo'riqlab yotgan?“ Domla bir o'yi indamay qaytib kirib ketmoqchi bo'ldi-yu, eshigida notanish odamning yotishi g'alati tuyulib, sekin turtdi. Choponiga burkanib olgan odam, xuddi shuni kutib yotganday, dik etib o'rnidan turdi.

Qudratxo'ja!

Siyrak sochlari to'zg'igan, lunjlari ichiga botib, kam-

pardahan bo'lib qolgan Qudratxo'ja uyquli ko'zlarini qisib, ishshayib turibdi.

– Iye, senmisan, Qudratxo'ja?

– Ofarin! Taniding! – Qudratxo'ja boshiga shlapasini qo'ndirib, mamnun iljaydi. – Kechasi kampingga bir fotiha o'qib ketay deb kelsam, darvozangda otning kallasiday qulf. Uxlab qolgan bo'lsa bezovta qilmay, deb sho'tta yotib qola qoldim.

Normurod Shomurodov nima deyishini bilmay g'o'dayib turardi. Uyga taklif qilay desa, Qudratxo'janing „falsafa so'qib“ miyasini qoqib qo'liga berishini bilar, taklif qilmay desa... fotihaga kelgan odamni eshikdan qaytarish odobdan emas.

– Fotihaga kelgan bo'lsang... uyga kir!

– Xudoga inonmas eding, Qur'on o'qisam qahring kelmaydimi?

Domla ro'parasida dildirab turgan bu mushtdekkina odamga o'qrayib qaradi.

– Menga qara, Qudratxo'ja! Hozir sen bilan safsata sotib o'tirishga na vaqtim bor, na toqatim! Xohlasang kir, xohlamasang tuyog'ingni shiqillat!

Qudratxo'ja boshidagi qimmatbaho shlapasini to'g'ri-lab:

– Tarki odat amri mahol! – dedi. – Profisor bo'lsang ham qomapti-da, beodobliging! Fotihaga kelgan odamga ham tuyog'ingni shiqillat, deydilarmi? Xo'p, Gulsarabibini arvohi uchun kiran, ammo shishaning tagida bo'lsayam bormi qolgan-qutgani? Bor bo'lsa, jindak quyib ber. Maza yo'q, profisor...

Domla Shomurodov: „Ichmasam, qayoqdan kelsin qolgan-qutgani?“ – deb koyib bermoqchi bo'ldi-yu, ko'chib kelgan kuni yuk tashigan yoshlardan qolgan shishalar esiga tushib: „Yur“, deb hovliga boshladi.

Qudratxo'janing baxtiga oshxonadagi shishalarning birida ozgina araq, patnisda qattiq non, qush cho'qilagan bir-ikki bosh chillaki uzum bor edi.

Qudratxo'ja irodasiga bo'ysunmagan qaltiroq qo'llari bilan shishaga yopishdi, „ba niyati shifo“, deb pichirla-

di-da, piyolaga quyishga ham sabri chidamay, shishaning og'zidan qultullatib icha boshladi.

Normurod Shomurodov Xo'janing xatti-harakatlarini ijirg'anib kuzatarkan, ko'z oldiga lop etib boshqa bir manzara keldi-yu, g'alati bo'lib ketdi.

Ming to'qqiz yuz yigirma to'qqizinchi yilning sovuq kuz kunlaridan biri, qishloq o'rtasidagi bozor maydonida, mashhur gumbazli machit oldida, odam tirband: qishloq quloqlari surgun qilinmoqda!

Qop-xurjunlari aravalarga ortilib, jo'natilishga shaylangan bir guruh boylar, quloqlar, ruhoniylar orasida Qudratxo'ja ham bor. Boshida chaqmoq telpak, egnida og'ir pochapo'stin, oyog'ida xrom etik, qotma, shopmo'ylov Qudratxo'ja sheriklariga o'xshab, obidiyda qilayotgani yo'q, yig'ilgan olomonga, biri yurak yutib, biri hadiksirab kelgan qarindosh-urug'lariga nola qilayotgani yo'q, go'yo surgunga emas, ko'pdan orzu qilib yurgan sayohatga ketayotganday, mo'ylovini dikkaytirib ko'krak kerib turibdi. Ro'paradagi olomonga, maydonni qurshab olgan otliq militsionerlarga, Normurodga o'xshagan qishloq faollariga go'yo: „Shoshmanglar, ko'ramiz hali, oqibati nima bo'ladi buning!“ – degandek, ko'zlarini qisib, jag' paylarini o'ynatib, yovqarash qiladi...

To'satdan bozor maydonini ayol kishining achchiq far-yodi zir titratdi. So'ng chekinib yo'l bergan olomon orasida... paranjisi bir tomonga og'ib ketgan, bechachvon ochiq yuzi yosh bilan yuvilgan bir qiz... yo'q, go'zallikda tengsiz bir yosh juvon ko'rindi. Juvon parishon sochlarini havoda qora baxmalday hilpiratganicha qushday uchib kelib Qudratxo'janing bo'yniga osildi.

Yuzi oftobday tiniq, tim qora sochlari to'pig'iga tushgan, husn-malohatda tengsiz bu juvon – Oynisa edi.

Qudratxo'ja uni quloq bo'lishidan bir yil oldin, qo'lidagi uch-to'rt yashar qizchasini chirqiratib, bir kambag'al yigitdan tortib olgandi, uning quloq qilinib, qishloqdan badarg'a bo'lishiga shu aybi – kambag'al yigitning yosh xotinini tortib olgani ham sabab bo'lgandi. Oynisa esa... qishloq ahlining fikricha, Qudratxo'janing tuzog'iga tushib,

aziyat chekayotgan Oynisa esa, uvvos tortib, uning bo'yniga osilib yig'lardi!

Bu g'alati manzaraning shohidi bo'lgan bozor maydoni g'ala-g'ovur bo'lib ketdi. Oynisaning qilig'idan tuklari tig' bo'lib ketgan Normurod militsionerlarga: „Haydang bu yot unsurlarni!“ – deb buyruq berdi, buyruq berarkan, Qudratxo'ja aqalli endi, faryod chekkan go'zal xotinini ko'rganida o'zgarar, dod deb yuborar, deb o'yladi. Ammo yuzi cho'yanday qorayib ketgan Qudratxo'ja, xotinining oppoq qo'llarini bo'ynidan shartta uzib, o'zidan itarib yubordi-da, birinchi bo'lib otliq militsionerlar oldiga tushdi. Eri siltaganida yerga yiqilib tushgan Oynisa esa... qushday pitirlaganicha, bozor maydonida yer tishlab qoldi.

Oynisaning xatti-harakati o'shanda chindan ham butun qishloq ahlini darg'azab qildi. Shunday bo'lsa ham Normurod Qudratxo'janing firibgarligiga uchgan yosh juvoning ko'zini ochib, uni tarbiyalash kerak, deb unga yordam qo'lini cho'zdi, oldin faol xotin-qizlar safiga tortdi, keyin Toshkentga o'qishga olib tushdi, hatto oshiq bo'lib Gulshara bechoradan ajralish fikrigacha bordi. Yaxshiyam Oynisa ro'yixushlik bermadi. Biroq qishloqqa ham qaytib kelmadi. Birinchi eridan qolgan qizi Fazilatni, o'sha, urush yillari Jabborning yuragiga cho'g' solib, keyin aynib ketgan qizi Fazilatni qarindoshlariga qoldirib, boshqa er qildi. Ammo bu safar ham baxti chopmadi. Eri bilan Xorazm tomonlarga ketdi – u mahalda Xorazmga poyezd ham bormas edi – shu ketganicha nom-nishonsiz yo'qoldi.

Ha, taqdirning tagiga yetib bo'lmas ekan kishi. Oynisa-ku, dom-daraksiz ketdi, bu esa, nimalarni ko'rmagan, quloq bo'lib, badarg'a qilingan Qudratxo'ja esa, tegirmondan butun chiqib, hamon sudralib yuribdi. Balki uning bu yurishida, „yuz gramm“ning bandasi bo'lib, bunchalar past ketishida ma'no yo'q bo'lsa yo'qdir, ammo ne-ne odamlar allaqachon olamdan o'tib ketganda bu badbaxtning hamon oyoq ostida ivirsib yurishi ham telba taqdirning g'alati o'yinlaridan emasmi?

Go'yo bir qultum araq emas, bir piyola obizamzam ichganday jonlangan chuvak yuziga qon yugurib, xira ko'zlari

mug'ambirona qisilgan Qudratxo'ja siyrak mo'ylovini artib, bitta qurutni og'ziga otdi:

– Ha, nega qoqqan qoziqday qaqqayib turibsan? O'tir! Yo bu olamga ustun bo'lmoqchimisan, profisor?

Domla Shomurodov, miyig'ida kulib, karavot yonidagi to'qima kresloga cho'kdi. Bir qultum araq bilan tirilib qolgan Qudratxo'janing shirakayf xatti-harakatlari uni qiziqтира boshlagan edi.

– Boshqa narsaga aqlim yetmasa ham bu dunyoga hech kim ustun bo'lolmasligiga aqlim yetadi, Qudratxo'ja!

– Yo tavba! – dedi Qudratxo'ja, og'zidagi qurutni lunjlarida aylantirib. – Sengayam aql kiribdi-da, bo'lmasa!

Normurod Shomurodov gapning nishabi qay tomonga og'ayotganini sezsa ham kulib javob berdi:

– Aql... hech kirmagandan ko'ra, kech kirganiyam yaxshi, Xo'ja!

– Ha, bu dunyo o'zi shunaqa ekan, profisor! Bani odam avval ko'zi ko'r, aqli noqis bo'lib tug'ilar ekan. Ko'zi ochilib, oq-u qorani tanib, bundoq yon-veriga qarasa... go'r tepasida turibdi! Go'rni ko'rganda aqli kirarkan, osiy banda!

Normurod Shomurodov Suqrotning boshiday ulkan boshini silaganicha bir daqiqa jim qoldi. U Qudratxo'janing nima demoqchi ekanini go'rdan gap ochishidanoq ilg'ab oldi. U o'limni ro'kach qilib, kishilar diliga g'ussa solishni yaxshi ko'radigan, bu bilan ham o'ziga taskin-u tasalli berib, ham g'ururi g'olib raqiblariga tahdid qilishni xushlaydigan „faylasuf“larni ko'p ko'rgan, ko'p uchratgan. Bu „falsafa“ning butun chirkinligiga aqli yetgani uchun ham Normurod Shomurodov, odatda, bu odamlar bilan bahs-munozara qilib o'tirishni o'ziga munosib ko'rmas, ularning „ulug' falsafa“siga ichida bir kulib qo'ya qolardi. Lekin hozir „eski qadrdoni“ning ilmoqli gaplari qalbining allaqanday nozik joylariga tegib ketdi-yu:

– Menga qara, Qo'dratxo'ja! – dedi hansirab. – Bu siyqasi chiqqan gaplarni qo'zg'ashdan muroding nima? Inqilob qilib, bizga o'xshagan boy-quloqlarning ildiziga bolta urib nima orttirding, demoqchimisan? Baribir sen ham go'r og'zida turibsan, demoqchimisan?

Qudratxo'ja g'alati ishshayganicha, po'rim shlapasini bir ko'tarib qo'ydi.

– Yo'q! Bu gapingga qaraganda sen o'lmaysan! Sen abadulabad ustun bo'lib qolasan bu dunyoga!

– Balki sendan oldin men o'larman. Ammo lekin...

– Vo darig'! Ashaddiy bolshevik ham o'limga iqror ekan-da?..

– Ha, iqror! Hayot ham, o'lim ham tabiat qonunidir. Ammo sen meni o'lim bilan qo'rqitib, pushaymon qildiraman, deb o'ylasang... noma'qul buzoqning go'shtini yebsan, Xo'ja!

– Domla Shomurodov hayajonlanganidan o'rnidan bir turib, qayta o'tirdi, xayolidan: „Menga nimaga kerak bu subutsiz bangi bilan safsata sotib o'tirishning?“ – degan fikr o'tdi.

– E, aqlim qursin! – dedi Qudratxo'ja peshanasiga bir urib. – Metin irodali bolshevik yuragidagi dardini ochmasligi kerak edi-ku, axir! Ayniqsa, kaminaga o'xshagan yot unsurlardan pinhon tutmog'i kerak edi-ku, dardini!

– To'g'ri! – Normurod Shomurodov beixtiyor bir kulib qo'ydi. U Qudratxo'janing „falsafa to'qishga“ moyilligidan voqif bo'lsa ham uning ancha „savodli faylasuf“ ekanidan bexabar edi. – Chin bolshevik, ayniqsa, senday ashaddiy dushmanlardan pinhon tutmog'i kerak yurak dardlarini!

– Voy tavba! – dedi Qudratxo'ja yoqasini ushlab. – Odam degan ham shunaqa bo'ladimi?

– Qanaqa bo'pman?

– Ellik yil oldin qanday bo'lsang, hanuz shundayсан! To'nka bo'p ket-e!

Qudratxo'ja, go'yo askiyani qoyillatib qo'yganday, tizzalariga shapatilab, hiringlab kuldi. Lekin uning kulgisi, hatto „to'nka“ degan haqoratomuz so'zi ham bu safar Normurod Shomurodovning qahrini keltirmadi, aksincha, qandaydir sho'xligini qo'zg'atdi.

– Sen-chi? Sen o'zgardim, deb o'ylayapsanmi, Xo'ja?

– O'zgarmabmanmi? Yopiray, a?..

– Yo'q... afti basharang-ku, o'zgarmoq tugul g'ajilgan oshiq bo'p ketibsan-u, ammo fikr-zikring, diling!.. Yo tavba! Inqilobdan keyin Sho'ro hukumatiga qanday kek saqlasang, hanuz shunday...

– To‘xta! – Qudratxo‘ja stoldagi patnisni nariroq surib, oldinga engashdi, o‘laksa tovuqning bo‘yniday ingichka kekirdagini cho‘zib:

– Sen meni bunaqa siyosiy gaplar bilan qo‘rqitma! – dedi o‘qrayib. – Sendaqalar quloq qilgan bo‘lsayam, hukumat ozod qildi meni!

– To‘g‘ri, hukumat seni ozod qildi, erk berdi-yu, ammo sen hamon dilingda kek saqlaysan, hamon...

– Hukumatga ginam yo‘q manim. Ammo sen... Esdan chiqadigan ish qildingmi o‘shanda sen? Yodingdami, meni qishloqdan badarg‘a qilgan kuni tepada, gumbazli machit maydonida... bechora Oynisa dod solib kelib bo‘ynimga osilganda... – Qudratxo‘ja ko‘zlari pirpirab o‘rnidan turdi, chuvak yuzining qat-qat ajinlariga, chuqur botgan lunjlariga quyilgan ko‘z yoshlarini artdi. – Qon yig‘lab kelib bo‘ynimga osilganda... esingdami, jindak rahm-shafqat o‘rniga... shafqat o‘rniga, „Haydang bu unsurlarni!“ deb hayqirganing yodingdami, Normurod?!

Domla Shomurodov o‘z ko‘zlariga ishonmay qoldi. Nazarida, hozir uning oldida boya supada gadoga o‘xshab g‘ujanak bo‘lib yotgan, bir qultum sharob uchun tiz cho‘kib, yer o‘pishga hozir, mast-alast Qudratxo‘ja emas, o‘sha, bundan qirq yil muqaddam bozor maydonida husnda tengsiz yosh xotini bo‘yniga osilib yig‘laganda ham pinagini buzmagani, otdan tushsa ham egardan tushmagan, kalondimog‘ boyvachcha Qudratxo‘ja turganday tuyuldi. U o‘zidagi bu g‘ayritabiiy tuyg‘uni arang yengib:

– Xo‘sh? – dedi. – Sening fikringcha, biz nima qilishimiz kerak edi o‘shanda? Xalqning qonini kanaday so‘rgan senday boy-quloqlarga mehr-shafqat qilishimiz kerakmidi o‘shanda? Xotinchasi yig‘lab keldi deb, biz ham obidiyda qilib, qo‘yib yuborishimiz kerakmidi seni? Biz shafqat qilsak...

– Shafqat! Shafqat nima qilsin senda?

– To‘g‘ri! Sendaylarga shafqat qilganimizda, sen... senlar bizni nima qilardilaring?

– Menmi?

– Ha, sen?

– Otar edim! – dedi Qudratxo‘ja. Uning yoshli ko‘zlari

tuyqusdan qandaydir hayrat aralash bir nafrat bilan charqalab ketdi. – Gumbazli machitning mehrobiga tirab, beshotarning tig'ini mana shu xumkallangga to'g'rilab... otar edim qarsillatib!

Domla Shomurodov beixtiyor bir sapchib tushdi-yu, peshanasidan chiqqan sovuq terni artib, zo'rma-zo'raki jilmaydi.

– Mardona tan olding, qoyilman senga! Ammo so'zingda mantiq yo'q-ku, Xo'ja! Sen meni mehrobga tirab otsang, men sening peshanangni silab, mehr-shafqat qilmog'im kerakmidi o'shanda?

– To'xta! Gapdan chalg'itma meni, profisor! – Qudratxo'ja qaltiroq qo'llari bilan shishani og'ziga tutdi, tutdi-yu, uning bo'sh ekanini ko'rib, g'azab bilan boshidan oshirib otdi, olma shoxlarini shatirlatib o'tgan bo'sh shisha devorga tegib chil-chil sindi. – Nima demoqchi edim? Ha! Bu dunyoda arshi a'loga yetganingni ko'rib turibman. Ammo lekin bilib qo'y, profisor, boradigan joyimiz bitta! Al qasosul minal haq! Men ham edim sendek, sen ham bo'lursan mendek! Tongla mahsharda uchrashamiz hali! Pulsirotdan birga o'tamiz hali, Normurod eshon! Ha!

„Tag'in eski hammom, eski tos! Miskin-u majruhlarni, g'arib-u g'urabolarga mo'ljallangan diniy-mistik safsata!“

Domla Shomurodov bor-budini boy berib, adoyi tamom bo'lgan bu daydi-devona bilan bahs-munozara qilib o'tirishning butun bachkanaligini yana bir his etdi, lekin uning pulsirotni to'g'risidagi gapi yana g'ashiga tegib:

– Hey, Xo'ja! – dedi to'satdan tahdidli o'qrayib, – bila-sanki, men sening bu chirkin safsatalaringga inonmayman. Agar-chi, sen pulsirotni deb, insof-u adolatga shama qilayotgan bo'lsang, shuni bilib qo'y – mening vijdonim pok! Mening pulsirotni imon-u e'tiqodimda! O'zim inongan ulug' g'oyalarda! Men hech qachon bu g'oyalarga, imon-u e'tiqodimga xiyonat qilgan emasman! Hech qachon vijdonimni sotgan emasman, insof-u adolatni unutgan emasman! Agar sen aytgan pulsirotni ko'prigi bor bo'lsa, agar undan gunohsiz bandalar o'tib, gunohkorlari jahannamga yiqiladigan bo'lsa... men undan sen bilan barobar o'tishga rozi-

man! Kim o'tib, kim yiqiladi – ko'ramiz hali! – Normurod Shomurodov buning hammasini nafas olmay jo'shib gapirdi-yu, o'rnidan turib ketdi. U Qudratxo'jaga qarab: Bas! Bo'ldi! Ko'tar jiyda xaltangni!“ – demoqchi edi, biroq shu payt besh-olti yashar o'g'ilchasini yetaklab darvozadan kirib kelgan yosh juvonne ko'rib, tilini tishladi.

Hovliga kirgan yosh juvon, qo'lidagi savatini yerga qo'yib, bosh egib salom berdi.

– Keling, qizim...

– Oshxonada mayda-chuydalarim qolgandi, olsam maylimi, otaxon?

Domla Shomurodovning xayolidan: „Shu uyning egasi!“ – degan fikr o'tdi.

– Bemalol, qizim, bemalol.

Yosh juvon o'g'ilchasini yetaklaganicha, o'dag'aylashib turgan ikki cholning yonidan yozgi oshxona tomon o'tib ketdi.

Qudratxo'ja qandaydir ma'noli tirjayib:

– O'rozquldi kelini, tanidingmi, profisor, – deb so'radi.

– Qaysi O'rozqul?

– E, o'sha, faqirdan yuzboshilikni tortib obergan og'ayning O'roz xo'roz bor-ku, xotirangdan ko'tarildimi? O'sha-ning kelini. Eri mexanizator. Bu joy shularniki edi. Jiyaning Otaqo'zining bitta pisandasi bilan shundoq joylarini senga bo'shatib berishdi! Tenglik-da, tenglik!

Domla Shomurodov negadir birdan bo'shashib boshini xam qildi. U jiyaning Otaqo'zidan bunaqa dang'illama uy-joy so'ramagan, zotan unga, bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda turgan qariyaga o'rdaday hovli-joyning zarurati ham yo'q, xususan, birovlarini o'ksitib, issiq joyidan qo'zg'atishning hojati yo'q edi!..

Oshxonaning eshigida o'g'ilchasini yetaklab olgan yosh juvon ko'rindi. O'g'ilchasi oyog'ini yerga tirab g'ingshir edi.

– Oyijon! Bog'imiz yaxshi! Ketmaymiz bog'imizdan!

– Jim bo'l, zumrasha! Ana, rais buvang kelyapti! Naq o'ldiradi eshitib qolsa!

Qudratxo'ja yana yoqimsiz hiringlab kuldi:

– Rais buva! Hi-hi... Burunda: „Ana olabo'ji!“ deb qo'rqitishardi. Endi mana... taqsirimning jiyanlarini aytib

qo'rqitishadigan bo'lishdi odamlar!..

Domla Shomurodov indamay o'rnidan turdi. U titrar edi.

Yosh juvon ko'zlari allaqanday chaqnab, katta serdaraxt hovliga, oqlangan devorlarga, havorang bo'yoqlari nafis tovlangan oynaband ayvonga qaradi.

– Yaxshi ta'mirlabsizlar. Biz ham bu yil ta'mirlaymiz, deb rejalab qo'yuvdik...

Qudratxo'ja boshini mastona likillatib:

– Xafa bo'lma, qizim Nodira! – deb g'o'ldiradi. – Baribir boradigan joyimiz bitta...

Nodira unga javob bermay, Normurod Shomurodovga yuzlandi:

– Mayli, buyursin, domla! Men shunchaki... o'n yil turib, o'rganib qolgan joyimiz edi. Bu hovlidagi har bir daraxt, har bir gulni o'z qo'lim bilan parvarish qilganman. Shunga... ko'ngil o'lgur...

Domla Shomurodov xijolat chekib, tomoq qirdi:

– Men tushunib turibman, qizim, hammasiga tushunib turibman...

– Mayli, buyursin... – Nodira bir qo'liga savatini olib, bir qo'li bilan hamon hiqillab yig'layotgan o'g'ilchasini yetaklab hovlidan chiqdi.

Qudratxo'ja tilini taqillatib:

– Ana insof-u, ana adolat! – deb xitob qildi. – Adolat qachon bo'ptiki, endi bo'lsin...

Normurod Shomurodov yalt etib qaradi. Qudratxo'janing sovuq kulgisi go'yo xazon to'zg'itgan kuzgi shamolday, uning dilidagi barcha shubhalarni to'zg'itib yubordi.

– Yo'q! – dedi u qaddini rostlab. – Bo'lgan adolat! O'sha, sen qishloq o'rtasida rasta-rasta do'kon ochib, kambag'alarni shilib kafangado qilgan mahallarda bo'lgan diyonat! Bir bechora yalangoyoqning yosh xotinini qo'ynidan tortib olgan paytlaringda bo'lgan adolat! Esingdami, Xo'ja, o'shanda, kechasi yollangan kallakesarlaring bilan Oynisani olib qochganingda, uning eri... qo'y og'zidan cho'p olmagan bir mo'min yigit... o'zini qabrison chinoriga osib

qo'ygani esingdami, boyvachcha?..

– Esimda, profisor, esimda. Ammo lekin...

– Yo'qol ko'zimdan! – o'shqirdi Normurod Shomurodov. – Endi haligi... ishonib yurgan pulsirotni ko'prigingda duch kelmagunimizcha qorangni ko'rmay sening!

Uning vajohatidan qo'rqqulik edi. Quadratxo'ja yaltoqlanib ishshayganicha darvoza tomon tisarildi. Normurod Shomurodov mushtini boshi uzra ko'targanicha uning ketidan bir-ikki qadam yurdi-da, holsizlanib zinaga o'tirib qoldi. Garchi raqibi Quadratxo'jaga ko'nglidagi bor gapi, bor alamini to'kkan bo'lsa ham, garchi uni uyidan haydab chiqargan bo'lsa ham, dilida qandaydir bir g'ubor qolgan, u o'zidan norozi edi. Domla so'lg'in nigoh bilan serdaraxt hovliga, kuni kecha ta'mirdan chiqqan havorang ayvon ustunlariga qaradi, qaradi-yu, ko'nglidagi g'uborga sabab shu hovli-joy ekanini tushundi. Boya xayolidan o'tgan o'y: „Oshimni oshab, yoshimni yashab bo'lganimda men nima qilardim bu shohona uy-joyini?“ – degan fikr yana ko'ngliga keldi. U yuragi qattiq sanchib, devorga suyandi. Xayriyat, shu payt Otaqo'zining bog' eshigi ochilib, kelini Oliya ko'ringdi. Oliya cholning ahvolini ko'rib, chopqillab yoniga keldi.

– Yuragingiz sanchyaptimi? Dori beraymi, tog'ajon?

– Yo'q, yo'q, hozir bosilib qoladi... Otaqo'zi uydami?

– Yo'q, tong palla cho'lga ketuvdilar. – Oliya Normurod otaga azaldan xush yoqadigan qandaydir juda tabiiy bir ibo bilan boshini bir tomonga sal egib, mehr bilan tikilib turardi. – Siz tashvishlanmang, tog'ajon, Otaqo'zi akamlar kitoblarni tartibga solishni tayinlab ketganlar. Hozir klubdan odam kelishi kerak. Qizlar ham bo'sh. Bugun hammasini tartibga solamiz.

– Men kitoblarni o'ylayotganim yo'q! Otaqo'zini ayta-man... Bu uyning egalarini rozi qilganmidi u?

Oliyaning boshi pastroq egildi.

– Ha, boshqa yerdan... xuddi shunday uy-joy olib berganlar. Faqat... yangi joy bo'lgani uchun vodoprovd o'tmabdi hali.

– O'tmagan bo'lsa... issiq joylaridan qo'zg'atib nima qilardi bularni?

– U kishi... sizni o‘yladilar... – Oliya ko‘zini yerdan uzib domlaga qaradi. Domlaga juda yoqadigan iboli ozg‘in yuziga qizillik yugurib: – Axir sizga ham oson emas-da, – dedi „qult“ etib yutinib. Uning bu so‘zi-yu, „qult“ etib yutinishi cholning yuragini „shig““ ettirdi.

– Sizga rahmat, qizim, – dedi u ko‘ngli erib. – Siz o‘ylamangki, qilgan yaxshiliklaringizni qadrlamaydi, deb meni! Qadrlayman. Judayam qadrlayman, bolam. Ammo meni deb Otaqo‘zining gap-so‘z bo‘lishini xohlamayman! Mayli, bolam, sizga aytadigan gap emas bu. Otaqo‘zi bilan o‘zim gaplasharman.


Oliya „yaxshi“ deganday, bosh irg‘adi-da:

– Choyga chiqasizmi, tog‘ajon? – deb so‘radi. – U yoqda O‘rozqul otamlar kelib, kutib o‘tiribdilar.

– E, shunaqami?

„Buyam uy to‘g‘risida kelgan! Otaqo‘zidan arz qilib kelgan... Ko‘chib kelmasimdan turib, boshim g‘avg‘oga qoldi...“

– Xo‘p, bolam, – dedi domla Shomurodov. – Hozir chiqaman.



Normurod Shomurodov O‘rozqulni yaxshi ko‘rardi. Qishloqqa kelganda uni ko‘rmay, bir-ikki kun uning bog‘ida bo‘lib, tongotar suhbatlar qurmay ketmas edi. Kishi o‘z tengdoshlarining, yoshlikda birga o‘sgan yor-birodarlarining qadrini keksayganda bilar ekan. Bu tengdoshlardan biri shu O‘rozqul, biri mardikorlikda tilmochlik qilgan, hozir tog‘da, o‘rmon xo‘jaligida ishlayotgan Proxor Polikarpov, eskicha aytganda Proxor chinoq. Yana biri... haligi piyanista faylasuf Qudratxo‘ja. Bor-yo‘g‘i to‘rt kishi qolibdi!..

Domla Shomurodov qishloqqa kelganida O‘rozqul ham uni albatta yo‘qlab kelar, aksariyat, eski qadrdonlarning boshini qo‘shib, ko‘rgan-kechirganlardan gurunglashib o‘tirishni yaxshi ko‘rardi. Umri mehnat bilan o‘tgan bu cholning allaqanday sho‘x ko‘zlarida, jonoqi olmaday qip-qizil yuzida, haliyam oqidan qorasi ko‘p murtining chetlarida

go'yo „parr“ etib uchishga tayyor qushchaday mug'ambirona bir ifoda doim yashirib turardi.

Mana, hozir ham ayvonda choy ichib o'tirgan O'rozqul uni ko'rdi-yu, taqasimon murtini qimirlatib, siyrak qoshlarini uchirib, sho'x kulimsiradi.

– Qaddingizni sal rostlab yuring, mulla Normurod! Bu ahvolda kim tegadi sizga?

– Labbay? – dedi domla, uning qochirig'iga tushunmay.

– Qulog'iga sariyog'dek yoqadi-yu, go'llikka oladi-ya, o'zini! Sal qaddingizni tutib yuring, deyapman sizga! Hozir kampirlar ham mol-dunyoga emas, qad-qomatga qarab tegadigan bo'lishgan, ha!

Domla Shomurodov hadiksirab oshxonaga qaradi: Oliya gaz plitada jaz-buzga kirishgan edi.

– Qariganda topgan hazilingni qara-yu!

– Nima? Umiding yo'qmi bu dunyodan?

– Umidim... tezroq kampirimning yoniga borsam.

– Bu ahvolda Gulsarabibi boshiga uradami seni? Sal tetikroq chol kerak ungayam! – O'rozqulning sal qiyg'och ko'zlari sho'x qisilib, qadrdoniga boshdan oyoq razm soldi-da, tuyqusdan:

– Qani, bo'lmasa lash-lushingdi yig'ishtir! – dedi. – Uyda Gulsarabibini dardini chekaverib, adoyi tamom bo'psan! Tog'ga chiqib shamollab kelamiz...

Domla Shomurodov g'amgin jilmaydi.

– Hamma kampirlar tog'ga chiqib ketibdimi?

O'rozqulning oftobda xo'p pishgan, qoramag'iz yuziga yana tabassum yugurdi:

– Gulsara, Gulsara deysan-u, o'zing ham topolmay turgan ekansan-da, bunaqa gaplarni! Og'aynimiz Proxornikiga qaymoqday oppoq o'ris kampirlar kepti. Proxor aytdi, opkel, ko'rsin shularni, dedi!

– Hazilingni qo'y!

– Rostim shuki, Proxor sho'rlikning tobi qochib qopti. Ham ziyorat, ham tijorat. Ko'rib kelamiz. Shoyad ko'ngli ko'tarilib, o'rnidan turib ketsa... – O'rozqulning lablaridagi sho'x uchqunlar so'nib, ko'ziga ma'yuslik cho'kdi. – Markikorlikda bo'lgan yor-birodarlardan kimlar qoldi? Ana u

bangini hisobga olmaganda, bor-yo'g'i uchovimiz qopmiz. Bir-birimizdan xabardor bo'p turaylik!

– Nimada chiqamiz tog'ga? Ko'lik bormi?

– Bor. Ikkita „Volga“ shay bo'p turibdi.

– „Volga“da chiqsa bo'ladimi?

O'rozqulning munchoq ko'zlari yana mug'ambirona qisildi.

– Boshqa „Volga“larni bilmadim-u, ammo O'rozquldi „Volga“si chiqolmaydigan tog' bo'lmaydi, og'ayni!

U uy to'g'risida lom-mim demadi. Shunday bo'lsa ham qadrdonlar orasida g'ubor bo'lishini istamaydigan odam, domla Shomurodov uy to'g'risida o'zi gap ochgisi keldi-yu, O'rozqulning dasturxonga fotiha o'qiganini ko'rib, indamay qo'ya qoldi. „Qancha gap bo'lsa yo'lda gaplasharmiz“, deb o'yladi u.

Domla Shomurodov uydan mayda-chuydalarini olib, kiyinib chiqqanida O'rozqul xachirday keladigan ikkita kulrang hangini shay qilib, darvozada kutib turardi.

Eshaklarni ko'rgan Normurod Shomurodov professorligi esiga tushib, bir lahza ikkilanib qoldi, keyin ichida o'zidan kulib („Endi professor bo'lding nima-yu, bo'lmading nima!“), jilovni qo'liga oldi.

– Qoyilman „Volga“laringga! Ammo tog'ga qachon yetib boramiz bu „Volga“larda?

– Sen, minaver! – dedi O'rozqul. – Nari borsa o'n chaqirim yo'l, birpasda boramiz!

Oftob terak bo'yi ko'tarilgan, ertalab mashinada suv sepilgan asfalt yo'llar saqichday yaltillab turar, ko'chaning ikki yuzidagi uchlari chirmashib ketgan chinor va oq teraklar yerga tangadek ham nur o'tkazmas edi.

Ikki chol, ko'chada g'iz-g'iz uchgan mashinalarni, kuchanib o'kirgan samosvallar, unsiz sirpangan yengil „Moskvich“larni chetlab, yo'l yoqasidan yo'rtib borardi. Bir mahallar mashina o'tganda angrayib qaraydigan odamlar endi eshak mingan bu ikki mo'ysafidga ajablanib qarashar, yoshlar bir-birlarini turtib qo'yishardi.

Qariyalar eski qal'a o'rnidagi tepaga chiqib, chapga bu-rildilar. Eski qal'adan asar ham qolmagan, hozir bir tomoni xiyobon, bir tomonida oynaband maktab qad ko'targan bu

tepalikdan tog' tomonga cho'zilgan serdaraxt ulkan qishloq, hatto xiyla yiroqdagi, qishloq bilan tog' o'rtasidagi Mingbuloq tolzorlari ham ko'zga aniq chalinardi.

Domla Shomurodov bolalik chog'larida ko'hna qal'a devoriga minib, qishloq bog'lariga, o'zan bo'yidagi tegirmonlarga, tegirmon bo'yidagi oq teraklarga uya qo'ygan laylaklarning ko'k qa'rida oq yelkanday ohista suzishiga tikilib, xayol surishni yaxshi ko'rardi. Hatto ancha keyin, olim bo'lib shaharga ko'chib ketgandan keyin ham ora-sira qishloqqa kelgan paytlarida, tepaga chiqib, tanho o'tirishni sevardi. Endi qishloq tamom o'zgarib ketgan, bir-biriga tutashgan pastqam uylar, do'konlar, tepalikdagi rasta va machitlar, qo'qonarava zo'rg'a o'tadigan tor ko'chalardan asar ham qolmagan. Hozir qadimgi qal'a o'rnidagi tepalikdan to'rt tomonga o'qday to'g'ri ko'chalar o'tgan, asfalt bilan qoplangan bu keng, chiroyli ko'chalarning ikki yonida oppoq, muhtasham uylar saf tortgan. Biroq ajabo! Yangi qishloq otaning qalbida galati hislar uyg'otmoqda edi. U aqlan bu o'zgarishlar yaxshi bo'lganini tushunar, tor ko'chalar, pastqam va zax uylar, ko'rimsiz rastalar, eski machitlar o'rnida qad ko'targan bu muhtasham binolarning qadriga yetar, lekin qalbi... qalbi go'yo aziz bir narsasidan ayrilganday betinim achishar edi... Ko'ngil tushmagur bolalik yillari o'tgan joylarni, bahor kunlari varrak uchirgan tomlarni, kechalari allamahalgacha bekinmachoq o'ynab, yashirinib yurgan ko'hna uylar, somonxonalar, umbaloq oshib o'ynagan Qo'shtegirmon sohillarini qo'msar, ularni yana bir ko'rgisi kelardi... Qiziq narsa ekan inson! Bolalik chog'lari qanchalik g'arib, qanchalik yupun bo'lmasin, keksayganda uni qo'msayverar ekan kishi!

Asfalt yo'l, kechasi ota o'tgan eski tegirmon yaqinidan o'tib, o'zan yoqasida uzildi. Ikki qariya tagida bir hovuchgina suv jildiragan o'zan bo'ylab o'ngga, tog'ga qarab ketishdi.

Normurod Shomurodov loaqal qishloqdan chiqqach, mashina kamayar, chang va benzin hididan qutulib, sal erkin nafas olarmiz, deb o'ylagan edi. Yo'q, aksi bo'ldi, Shag'al yuklangan samosvallar, qandaydir qurilish materiallari ortilgan og'ir „Maz“lar Mingbuloq tomon uzluksiz

o'tar, jo'rttaga qilayotgandek o'kirib, ertalabki sof havoni benzin va qora dud hidiga to'ldirib o'tardi.

Domla Shomurodov boshini asabiy saraklatib:

– Bu nima gap o'zi? – dedi. – Tog'da kon-pon topilgan emasmi, O'rozqul?

Ko'k ranglisini xix-xixlab sal oldinda ketayotgan O'roz xo'roz o'girilib qaradi.

– Iye, Mingbuloqqa ulkan molxona tushyapti-yu, xabaring yo'qmi hali?

Domla qishloq bilan tog' oralig'ida katta chorva kompleksi qurilmoqchi bo'layotganini eshitgan, hatto borib ko'rmoqchi ham bo'lgan, biroq keyinchalik o'z dardi bilan bo'lib, bu gaplar xayolidan ko'tarilgan edi.

„Yo tavba. Bu osmon tagida boshqa joy qurib qoldimi?“ – dedi u, ichida kimdandir astoydil ranjib.

Uning ranjishi bejiz emas, Normurod Shomurodov uchun eng aziz bolalik esdaliklaridan biri suyukli qo'shtegirmon sohillariga bog'liq bo'lsa, biri mana shu Mingbuloq jiydazorlariga bog'liq edi.

Inson qo'li bilan emas, tabiat o'zi yaratgan bu yarim yovvoyi to'qayzorning bir tomoni adirlarga, bir tomoni tog'ga tutashib ketardi.

Uning chor atrofi tol va terak, qayrag'och, archa va jiyda bilan o'ralgan, ichida esa behisob buloqlar, ko'zguday tiniq, musaffo chashmalar qaynab yotardi. Suvi tishni kesadigan bu buloqlardan oqib chiqqan ariqchalar bir-biriga qo'shib, serkamar hovuzchalar, serbaliq to'g'onchalar hosil qilardilar, atrofi jiyda va tol bilan o'ralgan bu hovuzchalarga bir sho'ng'ib chiqqan odam saratonda kun bo'yi diydirdirab yurardi. Behisob buloqlarning orasi esa tizzangdan keladigan va hech qachon, hatto yozgi jaziramada ham sarg'aymayingan yam-yashil o'tloq bo'lar, kolxoz bu o'tlarni yoz bo'yi o'rib tugatolmas edi...

Domla Shomurodovning bolalik paytlarida Vohidxo'jaga o'xshagan kazo-kazolar yozda Mingbuloqqa ko'chib chiqar, eng katta, eng sersuv buloq bo'ylariga qo'shni qirg'izlardan sotib olgan oq o'tovlarini tikib, bo'liq pichanzorlarga oq biyalar bog'lab, qimizxo'rlik qilishar, kechqurunlari esa,

ayniqsa, kuz faslida, Mingbuloq ortidagi qirlarda uloq chopilar, otlar dupuri, chavandozlar qiyqirig'i yer-u ko'kni larzaga solardi...

Mingbuloqdagi qushlar-chi? Teraklarga uya qo'yadigan laylaklar, pichanzorlarni to'ldirib yuradigan behisob bedanalar, har jiyda, har changal tagiga yashiringan bulbullar, eng xilvat joylardan, qamishzorlar orasidan par-par uchadigan o'rdaklar, g'ozlar, adirlardan, shuvoqzorlardan chaqnab tushadigan tustovuqlar, bulduriqlar, qo'ying-chi, olamda qush zoti yo'q ediki, Mingbuloqda bo'lmasin, Mingbuloqqa uya qo'ymasin!.. Mingbuloq jiydalarining hidi-chi? Bu oppoq kumushrang jiydalar yoz arafasida qiyg'os gullar, shunda faqat Mingbuloq emas, butun qishloq, butun ro'yi zaminni boshqa hech bir daraxt, hech bir gul hidiga o'xshamaydigan, xushbo'ylikda tengsiz jiyda atri tutib ketardi!

Domlaning esida: yigirmanchi yillarning oxirida, yer islohotidan sal keyinroq, qishloqda kambag'allar uyushmasi tashkil bo'lgan paytlarda, Qo'shchi ittifoqiga rais bo'lgan Normurod yozda o'tov tikib, Mingbuloqqa ko'chib chiqqandi. Rost, bu ish uchun, Mingbuloqqa o'tov tikib, burungi zamon boylariday „gerdayib yurgani uchun“ keyinchalik u ko'p malomatlariga qolgandi. Lekin Mingbuloqda o'tgan o'sha yoz, har subhidam shudring bilan yuvilgan bo'liq o'tloqlarda biya yetaklab yurgan onlari, o'g'ilchasi Jabbor bilan pichanzorlarga tuzoq qo'yib, bedana tutgan damlari, tushda, bug'doy o'rog'idan horib qaytganda o'zini muzday buloqlarga otib, uning shakar desa shakardek tiniq suvlarini hovuchlab ichgan daqiqalari hali-hali esida turibdi! Yolg'iz Normurod emas, bu aylanada uning buloqlaridan do'ppi-do'ppi suv ichmagan, yozda jiyda hididan yayrab, kuzda qo'yinlarini to'ldirib jiyda terib yemagan, saratonda uning soya-salqin joylarida, archa hididan mast bo'lib uxlamagan, qushlar nag'masidan zavqlanmagan tirik bir jon yo'qdir! Nahot, molxona qurmoqchi bo'lgan donolar tabiat o'zi yaratgan bu so'lim joydan boshqa joy topolmagan bo'lsalar?

Domla Shomurodov to'satdan qattiq sanchigan ko'ksini asta silab, boshini ko'tarib yoni-veriga qaradi. O'zan tugab, Mingbuloq tolzorlari boshlangan edi.

O'rozqulning gapi lofmi yo tevarak-atrofdagi odam qorasi ko'rinmagani uchunmi, Mingbuloq hech o'zgarmaganday tuyuldi otaga. Terak bo'yi ko'tarilgan oftob shu'lasida bir tomoni dasht adirlari, bir tomoni tog' archazorlariga tutashib ketgan bu hududsiz chakalakzor xuddi bahordagiday yashnab yotardi. Go'yo yoz bo'lmagan, go'yo dasht tomondagi qir va adirlarni kuydirib kul qilgan saraton oftobining tig'i Mingbuloqqa tegmagan. Ba'zi joylari o'rilgan, ba'zi joylari o'rilmagan pichanzorlar, ko'zguday yarqiragan chashmalarni qurshab olgan majnuntollar, kumushrang jiydalar, qo'l bilan qaychilanganday bejirim tuyulgan sadaqayrag'ochlar, xushbo'y archalar go'yo hozirgina buloq suviga sho'ng'ib chiqqanday yashnab ketgandi!

Yo'l Mingbuloqni chetlab, tog'ga o'rlab ketdi. Shu payt oldinda borayotgan O'rozqul to'xtab, orqasiga qaradi:

– Ko'rdingmi?

Domla eshagining jilovidan tortib, O'rozqul aytgan tomonga qaradi. Mashina qatnayotgan shag'al yo'l Mingbuloqni tikka kesib o'tib, g'arbdagi adirlarga ulanib ketgan, u yerda, qirda, qator tizilgan mashinalar, g'imirlab yurgan odamlar ko'zga chalinardi.

Pastda, Mingbuloqni qilichday kesib o'tgan shag'al yo'lning ikki tomonida qirqilgan daraxtlar uyulib yotar, bu daraxtlar ko'p bo'lmasa ham, otaning nazarida, go'yo butun Mingbuloq oyoqosti bo'lganday, go'yo hamma yoq qiyratilgan, maysalar toptalgan, buloqlar bulg'anganday tuyuldi.

Domla Shomurodov shag'al yo'l chetida qulab yotgan bu daraxtlarga ko'zi tushishi bilan uzoq yili Proxor bergan bir tarixiy hujjat yodiga tushdi, tushdi-yu, xuddi egarda emas, tikanda o'tirganday pitirlab qoldi.

Aslini olganda, Proxor bergan bu g'alati hujjat boryog'i 30–40 so'zdan iborat qisqagina telegramma edi, biroq uzuq-yuluq telegraf tili bilan bitilgan bu mash'um hujjat zamirida O'rta Osiyo tabiatiga nisbatan yovuz bir munosabat yotardi.

Nikolay poshshoga atalgan bo'lib, andijonlik mashhur Mirkomilboy bilan millioner zavodchi Morozov janoblari imzo chekkan va Turkiston general-gubernatori oq foti-

ha bergan bu telegrammada poshsho hazratlari endilikda temiryo'lni toshko'mir bilan ta'minlashdek og'ir vazifadan o'zlarini ozod deb hisoblayverishlari mumkin ekanligi e'tirof etilgan edi. Toki rus ishchilar sinfining tinimsiz ish tashlashlari sabab, imperiyada ko'mir tanqisligini hisobga olgan uning sadoqati zohir fuqarolari bo'lmish Mirkomilboy bilan Morozov janoblari tog' archalaridan million-million kubometr ko'mir tayyorlash chorasini ko'rmishlarkim, quvvati jihatidan eng oliy nav toshko'mirdan qolishmaydigan bu archa ko'miri otash aravalarni o'n yillar davomida ta'min etishga qodirdur!

Proxor o'rmon xo'jaligining qaysi bir kovagidan topib olgan bu telegrammani domlaga berarkan, tez orada o'tkir bir maqola yozib, o'tmishda ko'p qarshiliklarga uchragan „sho'rlik tog' archasi“ga nisbatan odamlarda yaxshi bir mehr-muhabbat uyg'otishga yordam ber, deb tayinlagan edi. Chunki o'shanda o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmagan Mirkomilboy bilan Morozovga o'xshagan zavodchi boylar chindan ham archa bechorani beshafqat qirib, butun qurama tog'larini ship-shiydam qilib chiqqan ekan.

Domla bu mudhish telegrammani ko'rganida o'ziyalarzaga tushib, katta bir maqola yozishga chog'langan edi, biroq, olim sifatida bu hujjatning oqibatlarini o'rganarkan, tog' archalarining „boshiga tushgan boshqa ko'p qatl-u qirg'inlar“ga duch kelib, oddiy maqola emas, butun bir kitob yozishga jazm etgandi. Chunki bu qirg'inlarning tarixi juda uzoq, uning bir uchi hatto mash'um Chingizxon istilosiga borib taqalardi. Haqiqatan, Chingizxon lashkarlari bu tuproqqa qora to'fon, yo'q, qora chigirtka yanglig' bostirib kirganda nafaqat ko'rkam shaharlar, obod qishloqlar, hatto tabiat, ayniqsa, tog' archalari ayovsiz qirilgan ekan..

Domla bu hujjatlarni ipidan ignasigacha o'rganarkan, tog' archalarining suv muammolari bilan chambarchas bog'liq tomonlarini ham aniqladi-yu, maqolani yig'ishtirib qo'yib, kitob yozishga o'tirdi. Biroq u bo'lib, bu bo'lib kitob cho'zilib ketdi. Hozir borganda Proxor undan maqolani so'raydi, albatta, tunov kuni ayaning fotihasiga kelganda ham shama qilgandi. Domla bo'lsa...

– Voy tavba! – dedi O‘rozqul, xuddi uning o‘ylarini ilg‘ab olganday. – Bu dunyoda nima ko‘p – yer ko‘p! Boshqa joy qurib qoldimi molxona quraman deyishsa?

„Ha, zararkunandalik bu! Dushmannning ishi bu! – dedi domla, kesilgan daraxtlarga tikilib, lekin shu zahotiyoq bu mudhish ayblar bir mahallar uning o‘ziga ham taqilgani esiga tushib, o‘zini koyidi. – Yo‘q, dushmanga balo bormi bu yerda? Kalta binlarning o‘z yurti, ona tabiati, yer-suvi-ning qadrini bilmagan befarosat nodonlarning ishi bu!“

Domla Shomurodov yuragi yana boyagiday qattiq sanchganini sezib o‘zini koyidi: „Besh kunlik umring bormi, yo‘qmi, bilmaysan-u, Mingbuloqqa kuyunasan! Mingbuloqni o‘ylayman deb, eshakdan yiqilib, yer tishlab qolmagin tag‘in, Normurod chol!“

– Qani, arg‘umog‘ingga „chuh“ de, og‘ayni! – dedi O‘rozqul. – Ana, kep qoldik og‘aynimizning uyiga!

Proxorning turadigan joyi Mingbuloqdan uzoq emas, o‘rtada faqat bitta qir bor, bu qirning u tomoni ham ko‘m-ko‘k soy bo‘lib, bu soy tog‘ yonbag‘ridagi bodomzorlarga tutashib ketar, Proxor yashaydigan o‘rmon xo‘jaligining ikki-uch uydan iborat maskani shu bodomzor va archazorlar qo‘ynida edi...

Ikki qariya har joy-har joyiga o‘tov tikilgan, biyalar tushovlangan ko‘kalamzor soyni kesib o‘tib, bodomzorga yaqinlashganlarida, pastda sharqirab oqayotgan irmoq bo‘yi-da turgan ikkita „Gazik“ka ko‘zlari tushdi, „Gazik“lar tevaragida uch-to‘rt ziyolinamo odamlar gaplashib turishardi.

Shu payt bodomzor ortida kimdir qattiq so‘kindi, keyin: „Yo‘q, rahmat. O‘lsam o‘ligimgayam kelmay qo‘ya qol!“ degan chiyildoq ovoz eshitildi-yu, so‘qmoq yo‘lda... Artyom Polikarpov ko‘rindi. Bir nimadan sarosimaga tushgan, go‘yo hozirgina hammomdan chiqqanday qizarib ketgan Artyom Proxorovich mashhur professorni eshak mingan holda ko‘rib, bir zum angrayib qoldi, keyin jadallab kelib ko‘rishdi.

– E, salomatmisiz, bardammisiz, Normurod Shomurodovich?

– Rahmat, o‘g‘lim... Tinchlikmi o‘zi?

– Tinchlik, tinchlik, – dedi Polikarpov shoshib. – Og‘ay-

ningizni bilasiz-ku, fe'li tez. Bir narsani so'ragan edilar, iloji yo'q desam, qaynab ketdilar.

– Nima gap o'zi?

– Mayli, – dedi Polikarpov xijolat chekib. – Og'ayniniz o'zi aytib berar. Kechirasiz, Normurod Shomurodovich, cho'lni ko'rgani keluvdik. Katta odamlar bor. Kutib qolishdi. Kechirasiz, yana ko'risharmiz...

Institutdan gap ochib, o'z kitoblari to'g'risida maslahatlashaman, deb turgan domlaga Polikarpovning muomalasi, ayniqsa, xayr-ma'zurni ham nasiya qilib, kutib qolgan „kattalar“ yoniga chopib ketishi malol keldi. U ko'ngli o'ksib, eshagini sekin xixladi.

Bodomzorning orqasida, archa, yong'oq, do'lana va yovvoyi olmalar chirmashib ketgan tog' yonbag'rida o'rmon xo'jaligiga qarashli uch-to'rtta uy oqarib ko'rinar, birinchi uyning oldidagi ulkan sada tagida... mallarang sochlari patak bo'lib ketgan, o'rta bo'yli, qoq suyak bir chol, qo'llarini beliga tirab, g'o'dayib turardi.

– Ha, Proxorvoy! – dedi O'rozqul. – Biz seni betob deb, hol-ahvol so'ragani kelsak, otday kishnab yuribsan-ku, og'ayni!

Proxor O'rozqulning askiyasiga javob bermay qo'lini bir siltadi-da, og'ir kirza etigini gursullatib kelib, mehmonlar bilan ko'rishdi, ko'risharkan, kemtik qulog'ini ushlab-ushlab qo'ydi.

– Ha, bunaqa xunob bo'lish odating yo'q edi-ku! – dedi domla Shomurodov. – Tinchlikmi o'zi?

Polikarpov: „Ke, qo'y, shu gapni“, degandek qo'lini siltab, sada tagidagi so'riga tomon yurdi-da, to'satdan to'xtab:

– Mingbuloqni ko'rdingmi? – deb so'radi.

– Xo'sh?

– Ko'rsang... o'g'limga shuni aytuvdim. Shu ish bekor bo'lyapti, molxona uchun boshqa joy qurib qoldimi, dedim. Katta odamsan, yuqorilarga ayt, desam...

– Endi, foydasi yo'q, dedimi?

Proxor kemtik qulog'ini ushlaganicha og'aynisiga taajjub bilan tikildi.

– Sen qayoqdan bilding?

– Bilaman-da!

– Yo‘q, bilmaysan! – Polikarpov ko‘kimtir ko‘zlari chaqchayib, sarg‘ish mo‘ylovi dikkaydi. – Foydasi bormi, yo‘qmi ammo men bu ishni shundoq qo‘ymayman. Yozaman! Albatta yozaman. Aytmoqchi... – Proxor to‘satdan kemptik qulog‘ini silaganicha domlaga qadalib qoldi – Aytmoqchi, maqola nima bo‘ldi?

– Maqola, – dedi domla chaynalib, – bo‘lyapti maqola...

– Bitta maqolani ikki yil yozasanmi? Bu yoqda, Mingbuloq ustidagi archalar qirg‘in bo‘layotganda-ya? Balli, sendaqa professorga! Undan ko‘ra, o‘rtada jiyanim bo‘lgani uchun yozolmayapman maqolani, deb qo‘ya qol!

– Menga qara, Proxor.

– Qarab bo‘ldim, rahmat. Ammo lekin... burungi Normurod o‘libdi-da, bundan chiqdi! Burungi Normurod indamay turmas edi! Jiyan tugul, o‘g‘li bo‘lsayam indamay turmas edi. Ammo Otaqo‘ziga ham hayronman. Shunday aqlli odam...

– Kimni aytyapsan? Otaqo‘zinimi? – eshaklarni tushovlab kelgan O‘rozqul qandaydir yoqimsiz hiringlab kuldi. – Ha, topibsan arzingga quloq soladigan aqlli odamni!

Normurod Shomurodov yalt etib qaradi. Uning xayolidan: „Kosa tagida nimkosa bor. O‘g‘lining uyiga shama qilyapti“, degan fikr o‘tdi. Garchi O‘rozqulning ranjishga haqqi bor ekaniga iqror bo‘lsa ham og‘aynisining gapi, ayniqsa hiringlab kulishi unga og‘ir botdi.

– Xo‘sh, nima demoqchisan? – dedi u, to‘satdan ko‘zlari o‘qrayib. – Darding bo‘lsa kesatmasdan ochig‘ini ayt!

O‘rozqulning iyagi, iyagi bilan birga oppoq cho‘qqi soqoli qahr bilan dikkaydi.

– Namuncha jizillab qolding, Normurod? Jiyaning Otaqo‘zi burungi Otaqo‘zi emas, desam yolg‘on bo‘ptimi? Mana, Proxor ham aytyapti-ku!

Normurod og‘aning ko‘z oldiga negadir hozirgina ko‘rgan qishloq ko‘chalari, ko‘cha yuzidagi oppoq uylar keldi, keldi-yu, ikkala og‘aynisidan ham ranjib:

– Insof yo‘q ekan senlarda! – dedi. – Jiyanim sho‘rlik shu qishloqni deb, bir kun tinim bilmasa, hamma yoqni obod qilsa-yu...

– Obod qildim deb, odamlarni oyoqosti qiladimi?

– Oyoqosti deb, nimaga shama qilayotganingni bilaman! – domla Shomurodov qaltiroq bosib qadrdoniga yuzlandi. – Qo'rqmay qo'ya qol, qaytarib beraman o'g'lingning uyini!

O'rozqul urishqoq xo'rozday xezlanib oldinga talpindi. Proxorning „hay-hay“ lashiga qaramay, bir tutam soqoli qaltirab:

– Koshkiydi gap shu bitta uyda bo'lsa! – dedi. – O'g'limni ishdan haydagani-chi? Xotining shallaqilik qildi deb, o'z o'rnidan olib cho'lga surgun qilgani-chi? Ko'zingni ko'p olaytiraverma, Normurod. Kechirasan, Otaqo'zi senga jiyan ekani yodimdan ko'tarilibdi!

O'rozqul choponining etagini bir siltab, eshaklar bog'langan bedazorga qarab ketdi. Bu kutilmagan janjaldan garang bo'lib qolgan Proxor bir o'rtada lol bo'lib turgan Normurod Shomurodovga, bir oqsoqlanib ketayotgan O'rozqulga qaradi.

– Hoy, O'rozqul, aqlingni yedingmi qariganda?

– Yo'q! Qulluq! – dedi O'rozqul eshagining tushovini yecharkan.

Domla Shomurodov oyoqlari qaltirab, sekin yerga cho'kkaladi, ko'zlari ayanchli javdirab, og'aynisi Proxorga qaradi.

– Endi bir kami... qarigan chog'imizda urishib, yuz ko'rishmay ketishimiz qoluvdi. To'xtat u tajangni, Proxor, to'xtat...

Beshinchi bob



Ko'cha eshigini endi ochgan Abror Shukurovich orqadan xotining:

– O'rtoq Shukurov! – deb chaqirganini eshitib qoldi. Mahbuba ilk turmush qurgan paytlarida erini hazillashib shunday deb ataganicha, haliyam goh-gohida, ayniqsa, eriga yoqqisi kelgan paytlarida shunday deb chaqirardi.

Shukurov o'girilib qaradi. Hozirgina o'rnidan turgan Mahbuba, egnida nafis ipak xalat, oyog'ida hoshiyasiga zar tikilgan baxmal shippak, to'zg'igan sochlarini tuzatib, bo'liq qad-qomatini yengil tebratib, zipillab kelardi.

– Ha, o'rtoq Vohidova! – dedi Shukurov ham kulimsirab, – Nimani yo'qotdilar?

– Sizni! – Mahbuba tegrasiga ko'kimtir bo'yoq surtilgan ko'zlarini o'pkalangansimon suzib, erining yonida to'xtadi. – Ilgarilari kechasi qachon kelganingizni bilolmay dog'da qolardik, endi ketganingizniyam bildirmaydigan bo'ldingiz?

Mahbubadan issiq to'shak nafasi, atir-upa aralash qandaydir nozik gullarning tiniq bo'yi kelar, o'ziyam hozirgina uyqudan turgan oppoq go'dakday yoqimtoy edi.

– Noz uyqungizni buzgim kelmadi-da, xonim!

– Rahmat! – Mahbuba otasiga o'xshab, tilla tishlarini yarq etkazib jilmaydi. Biroq uning og'zi to'la oltin emas, faqat pastki tishlarining o'rtasi-yu, yuqori tishlarining chetlarigagina tilla qoplangani uchun o'ziga juda yarashgan, kulganda sal yumaloq, oppoq yuzi juda ochilib ketardi.

Mahbuba hamon ginaxonlik bilan termilib, yuziga, peshanasiga tushgan soch tolalarini tuzatdi. Uning bu harakati ham, ko'zlarini xiyol suzib, o'pkalab turishi ham, oppoq qo'llari, siynasi, butun vujudidan kelayotgan allaqanday ma'sumlik ham Abror Shukurovichning yuragini „jiz“ ettirdi-yu:

– Kechirasiz, xonim! – dedi ko'ngli erib. – Yana besh-o'n kun sabr qilasiz. Bu dolzarb kunlar o'tib ketadi. Keyin... har bir daqiqamizga hisobot beramiz!

– Mayli, birinchi kotibning rafiqasi bo‘lish oson emas. O‘qiganmiz. Tushunamiz.

– Balli! Mana bu boshqa gap! – kuldi Shukurov.

– Mehmoningiz nima bo‘ldi?

– Qaysi mehmon?

– Obkom kotibini aytyapman. Keladigan bo‘ldimi axir?

– Kelishi kerak. Biroq, to‘g‘ri dashtga ketamiz!

– Ketsalaringiz... dashtda qishlab qolmassizlar axir? – Mahbuba o‘z gapidan o‘zi yayrab, xandon otib kuldi. – Bu yoqda Jamol akayam keptilar. Sobiq bo‘lsayam vazir muovini...

– Siz qayoqdan bilasiz u kishini?

– Iye, nega bilmas ekanman? – dedi Mahbuba ingichka qoshlarini chimirib. – Dadamlarning eski qadrdonlari...

Toshkentda bo‘lgan uchrashuv esiga tushgan Shukurov qovog‘ini uydi. O‘sha kuni u qaynatasining uyidan chiqqanida Jamol Bo‘riboyevning oldiga kiraman, deb o‘ylamagan edi. Biroq uni qabul qilgan „Uzselxoztexnika“ raisi ishni Bo‘riboyevga oshirdi-yu, istasin-istamasin kirishga majbur bo‘ldi. Otaqo‘zining hikoyasi esida turgan Shukurov o‘shanda turqi sovuq, kalondimog‘ bir odamni ko‘raman, deb o‘ylagandi. Buning o‘rniga sal qorin sola boshlagan bo‘lsa ham hanuz bo‘y-basti kelishgan, vazmingina bir odamni ko‘rdi. Agar katta-katta ko‘kimtir ko‘zlarining sal chaqchaygani bo‘lmasa, bu oppoq, burni uzun odamni chindan ham xushsurat deyish mumkin edi.

Jamol Bo‘riboyev o‘shanda vazir bo‘lmasa ham vazir darajasiga yaqinlashib qaytgan odamlarga xos bir salobat va vazminlik bilan muomala qildi, garchi, Shukurovning hamma iltimoslariga: „Xo‘p bo‘ladi, yordam berishga harakat qilamiz“, qabilidagi umumiy gaplardan nari o‘tma-gan bo‘lsa ham juda yaxshi qabul qilib, yaxshi kuzatib qo‘ydi. Shukurov hozir uning quruq va‘dalari esiga tushgani uchunmi:

– Xo‘sh, – dedi, xotinining gapini xushlamay. – Dadangiz bilan qadrdon bo‘lsalar nima bo‘pti?

– Men bir nima bo‘pti dedimmi? – dedi Mahbuba xi-

yol ranjib. – Shunchaki, bahona bilan rayon kattalaridan bir-ikkitasini taklif qilaylik deyapman. Ko‘chib kelganimizga bir-ikki oy bo‘pti, bir odam bilan bordi-keldi qilmaymiz. Rahbar xodimlar shama qilishyapti!

Shukurovning yuragiga quyilib kelgan iliq mehr noxush bir tuyg‘u bilan almashdi.

– Qachondan beri rahbar xodimlar bu masalada sizga murojaat qiladigan bo‘lishdi?

Mahbuba „oshirib“ yuborganini sezib, hazilga burdi:

– Qo‘rqmay qo‘ya qoling. Rahbar xodimlarning o‘zlari emas, xonimlari shama qilishyapti!

– Nega endi ular sizga shama qilishadi? Kerak bo‘lsa ular sizni chaqirishsin!

– Ular bizni... birinchi bo‘lib chaqirisholmaydi!

– Nega?

– Chunki... – Mahbuba „shungayam aqlingiz yetmaydimi“ degandek, ko‘zlarini katta ochdi. – Chunki siz hammadan kattasiz. Rayonda birinchi kishisiz. Istihola qilishadi sizdan!

– Juda soz-da! Ba‘zan shunaqa istihola qilib turishganियam yaxshi! Hamma bilan apoq-chapoq bo‘laverishning ham xosiyati yo‘q! – Abror Shukurovich shunday dedi-da, shartta burilib, hovlidan chiqdi.

Ko‘cha yuzidagi mirzateraklar uchiga endigina oftob tekkan, lekin sadalar, tollar, ko‘klamda kallaklanib, endi qayta barg yozayotgan tutlar hali soyada, ko‘chada odam siyrak, faqat u yer-bu yerda xiyobonlarni supurib gulzorlarga suv sepib yurgan qorovullar, farroshlar uchrardi.

Raykom binosi uydan olis emas, qishloq ko‘chalariga o‘xshash bir-ikkita kamqatnov, sersoya ko‘chalarni kesib o‘tilsa, yo‘l yarim chaqirim ham kelmas, shu boisdan Shukurov aksari ishga yayov borardi.

Abror Shukurovich tanish ko‘chalardan o‘tib, yangicha qurilgan ikki qavatli oynaband binoga yetib borguncha butun olam oftob seliga g‘arq bo‘lib, raykom oldidagi gulzor lovullab ketdi...

Shukurov qorovuldan kalitni olib, ikkinchi qavatdagi o‘z kabinetiga chiqdi.

Obkom kotibi Xolmurodov soat 9–10 larda kelishi kerak, ikkisi birga cho'lga borishlari, u yerda qurilish tashkilotlarining rahbarlari ishtirokida letuchka o'tkazishlari, letuchkadan keyin bir nechta kolxozlarni aylanib chiqishlari lozim edi. Obkom kotibning kelishiga hali bir-ikki soat bor, ungacha Shukurov ba'zi tashkilot rahbarlari bilan gaplashib olmoqchi, ba'zi qog'ozlarni tayyorlab qo'ymoqchi edi. Lekin fikr-xayoli hamon Mahbubaning gaplarida, anchagacha qo'li ishga bormadi.

Ha, yaxshi bo'lmadi. Erkak kishiga nomunosib bir qo'rslik qildi. Yosh juvon mehmon chaqirgisi, yor-do'st orttirgisi, odamlar bilan bordi-keldi qilgisi kelsa; buning nimasi yomon? Buning nimasiga darg'azab bo'ladi u? Yosh, ko'hlik, ilmli xotini bor. Uning, erining qiyin turmushiga chidab, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq degandek, orqasidan ergashib yuribdi. Hozir-ku, yaxshi, obod rayonga kelishdi. Dasht joylarda, endi o'zlashtirilayotgan cho'l-u biyobonlarda ishlaganida ham ba'zi xotinlarga o'xshab qovoq-tumshuq qilib, ota-onasining pinjiga kirib, „qochib yurmay“, uning yonidan jilmadi-ku? Issig'iga ham, sovug'iga ham, boriga ham, yo'g'iga ham chidab kelyapti-ku? Boringki, Mahbubada unga yoqmaydigan ba'zi qiliqlar paydo bo'layotgan bo'lsin, boringki, rayon rahbarlari orasida, ayniqsa, shu doira ayollari orasida ajralib turishni xohlayotgan bo'lsin, boringki, uning bu xohishlarini rag'batlantirib bo'lmasin, lekin buni unga qo'rslik bilan emas, asta tushuntirish lozim edi-ku? Axir u yosh-ku. Bir mahallar uning hamma qiliqlari, hamma erkaliklarini ko'tarishga, hozirgi hamma kamchiliklarini fazilat deb qabul qilishga tayyor odam, nega endi uni sal narsaga siltab tashlaydigan, uning ko'ngliga qaramaydigan bo'lib qoldi?

Qiziq, Abror Shukurovich so'nggi paytlarda mana shunaqa g'alati odat chiqardi: oldin xotiniga dag'allik qilib, Mahbubaning diliga ozor berib qo'yadi-da, sal „sovib“, bir oz o'ylab ko'rgandan keyin, qilmishiga pushaymon yeb, eziladi. Shunday paytlarda negadir doim yoshlik chog'lari, Mahbubaga ko'ngil qo'yib, uning bitta tabassumi, bir kuilib boqishiga zor bo'lib yurgan paytlari esiga tushadi. Esi-

ga tushganda esa ko'nglidagi hamma g'ubor to'zg'ib, xuddi bolalikda yaxshi tushlar ko'rib uyg'onib ketgan paytlaridagiday g'alati bo'lib ketadi... Mana hozir ham Mahbuba bilan ilk bor tanishgan chog'lari, o'shanda uning kursdosh yigitlari bilan kulib turganini ko'rsayoq rashki qo'zg'ab, „yonib ketgan“ damlari, uchrashuvga kelmay qolganida chekkan iztiroblari yodiga tushib, o'zicha bir kulib qo'ydi...

Ha, so'nggi yillarda nimadir bo'ldi. Yoz oqshomiday beg'ubor munosabatlariga qandaydir g'ubor tushdi. Ayniqsa, Toshkentga borib kelganlaridan keyin bir nima bo'ldi ularga! Domla Shomurodovning hangomasidan keyin... Lekin domla gapirgan bo'lsa, qaynatasi to'g'risida gapirdi. Bu gaplarning Mahbubaga nima daxli bor? Yo'q, gap domlaning hikoyasida emas, gap Mahbubaning o'zida! U ham burungi Mahbuba emas. U ham o'zgardi, ilgari unga yot bo'lgan yangi bir odat – hammadan yaxshiroq bo'lish, boya hazillashib aytganidek, „birinchi bo'lish“ istagi paydo bo'ldi unda.

Mahbuba ayollar kasalligi bo'yicha tuppa-tuzuk mutaxassis. U hamma joyda o'z mutaxassisligi bo'yicha oddiy shifokor bo'lib ishlab kelardi. Bu yerga ko'chib kelganlaridan keyin ham rayon kasalxonasiga ishga kirdi. Tuppa-tuzuk ishlab yurgan edi, bundan bir oy avval, bir kun erining kabinetiga kirib keldi. Aqinchoq-taqinchoqlarini taqib, yasanib olgan, o'ziyam qandaydir ichki hayajondan yuzlari yonib, ko'zlari chaqnab ketgan. Qabul kuni edi. Raykomda odam ko'p. Shukurov qabuliga kelganlardan uzr so'rab, boshqa xonaga o'tdi-da, xotiniga yuzlandi:

– Keling, tinchlikmi?

– Tinchlik, – Mahbuba ingichka qoshlarini chimirib, erining kabinetidagi buyumlarni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

– O'zim bir kelib, kabinetingizni tuzatib bermasam bo'lmas ekan.

– Ha, bir kami shu edi! Xo'sh, nima gap o'zi? Ko'rib turibsizki, vaqt ziq...

– Xo'p, xo'p, o'rtoq kotib, jahlingiz chiqmasin. Bitta iltimos bilan keldim. Faqat... – Mahbuba qizarib kuldi. – Jahlingiz chiqmasa aytaman.

– Oldin iltimosingizni eshitaylik, o'ртоq Vohidova...

– Yo'q, yo'q, avval va'da berasiz, keyin aytaman, o'ртоq Shukurov.

– Xo'p, ana, va'da berdim deylik!

– Va'da bersangiz... Bizning bosh shifokorimiz ishdan ketadigan bo'пти-ku? Xabaringiz bormi?

– Xo'sh?

– O'rniga kim bo'lmoqchi? ..

– Nima, birovni taklif qilmoqchimisiz?

– Ha.

– Shunaqami! – dedi Shukurov. – Hmm... nahot sizni o'rtaga solgan odamlar bosh shifokor tayinlash raykom emas, – oblast sog'liqni saqlash bo'limining ishi ekanini bilishmasa? Labbay? Bilishsayam yuborishdimi? Xo'p, yuborishgan bo'lsa... kimni taklif qilmoqchisizlar?

– Meni!

– Nima? – Shukurov beixtiyor xaxolab kulib yubordi-da, darhol kulgisini tiydi. Mahbuba ko'zlarini sal qisib, hayajondan rangi oqarib, tez-tez nafas olardi.

– Hazilingizni qo'ying, o'ртоq Vohidova!..

– Nega hazil bo'larkan? – dedi Mahbuba va to'satdan ko'ziga yosh oldi. – Nima, meni eplab ketolmaydi, deb o'y-laysizmi?

Xotinining raykomga katta lavozim so'rab kelishi Shukurovga shunchalik g'ayritabiiy tuyuldiki, u bu gaplarni hamon hazil deb o'y-lardi.

– Menga qarang, xonim, – dedi u nihoyat o'zini bosib. – Qachondan beri siz bunaqa... baland mansablarga qiziqib?

– Mansabga qiziqayotganim yo'q. Shunchaki... boshqalardan nimam kam mening? Aqlim pastmi? Ilmim yo'qmi?

Shukurov gapni yana hazilga burmoqchi bo'lib:

– Yo'q, aksincha, xonim! – deb kuldi. – Siz boshqalardan ming chandon baland, ming chandon aqlli, go'zal, dono xotin bo'lganingiz uchun ham...

– Piching qilmang!

– Piching qilmasam... Siz ham behazil gapiryapsizmi o'zi?

– Nega endi hazil bo'larkan?

– Chunki... men bu yerda raykom kotibi bo'p turganimda siz bosh shifokor bo'lmaysiz! Nahot shuni tushunmasangiz?

– Nega boshqalarga mumkin-u, menga qolganda...

– Kim, masalan?

– Masalan, ispolkom raisining xotini. Sizning prinsipingiz bo'yicha oddiy o'qituvchi bo'lsayam bo'lardi. U bo'lsa o'rta maktabga direktor!

– Menga qolsa nega vazir bo'lmaydi! – tuyqusdan baqirib yubordi Shukurov. – Men bu yerda... raykomda ishlab turganimda, bu gapni ikkinchi qo'zg'amang! Umuman, qay go'rdan topdingiz bu mashmashani? Bosh shifokor bo'laman deb raykomga, mening oldimga kelish!.. Odamlar eshitsa nima deydi? Uyat emasmi? Sizga nima bo'ldi o'zi?

Mahbuba lablari pirpirab o'rnidan turdi.

– Bundan chiqdi, siz raykom bo'lganingiz uchun men faqat sizning xizmatkoringiz, sizning cho'ringiz bo'lishim kerak ekan-da?

– Kim aytdi sizni cho'ri deb? Bas qiling bu bema'ni savdogarchilikni! – Shukurov toqati toq bo'lib, stolga musht urdi. – Ikkinchi marta bunday gaplar bilan bu ostonaga qadam qo'ymang!

Mahbuba bir nima demoqchi bo'ldi-yu, deyolmadi, ro'molchasini ko'zlariga bosganicha kabinetdan yugurib chiqib ketdi. Abror Shukurovich bir necha kungacha odamlardan xijolat bo'lib yurdi. O'sha kuni kechqurun u xotini bilan gaplashmoqchi edi, biroq Mahbubaning da'vosi, ayniqsa, bu da'voni aytish uchun raykomga kelgani shunchalik g'ashini keltirdiki, samimiy gaplasha olmadi... Mahbuba ham bir necha kungacha qovog'ini uyib yurdi, biroq tabiatan dadasiga o'xshash xushchaqchaq juvon, keyinroq orada hech narsa bo'lmaganday bo'lib ketdi...

Unda ayb Mahbubada edi. Bu safar...

Abror Shukurovich negadir, ehtimol, o'shanda ijrokom raisining xotini to'g'risida gap ketgani uchundir, ispolkomga telefon qilmoqchi ekani esiga tushdi-da, go'shakka qo'l cho'zdi.

Ispolkom raisi ishga kelmagan shekilli, avval hech kim

javob bermadi, keyin nimadir bo'lib, telefon „shaq-shuq“ qildi-yu, bir ayol bilan bir erkakning xandon otib kulishgani eshitildi. Odatdagi gap!

Shukurov g'ashi kelib, go'shakni „shaq“ etib qo'ymoqchi edi, biroq shu payt Mahbubaning ovozi taniganday bo'lib, go'shakni changallaganicha qotib qoldi.

– Qo'ying, unaqa o'zingizni chetga olavermang, Mahbuba Vohidovna! – derdi erkak kishi, qandaydir xiyol bachkana, o'ynoqi ovozda. – Agar bizdan o'tgan joyi bo'lsa aytib, gunohimizni yuvaylik!

Go'shakni otib yuboray degan Shukurov yana xotini-ning xandon otib kulganini eshitib, to'xtadi. U o'ta bema'ni bir vaziyatga tushib qolganini anglar, lekin bu vaziyatdan chiqish yo'lini bilmas, uning irodasidan zo'r bir kuch gapni eshitishga majbur etardi.

– Yo'q, rost, endilikda yangi tartib o'rnatamiz! – derdi erkak kishi allaqanday sirli, xushomadgo'y ovozda.

– Qanaqa tartib?

– Endilikda bizga kelgan hamma yaxshi mol, avvalambor, sizning ko'rigingizdan o'tadi, istagan narsangizni tanlab olasiz, ana undan keyin savdoga chiqadi.

– Qo'ying, o'rtoq Shukurov eshitib qolsalar... naq terimni shiladilar!

– Eshittirmaymiz-da, o'rtoq Shukurovga!.. Tuya ko'rdingmi – yo'q, biya ko'rdingmi – yo'q... Eshitganmisiz?.. Yo'q, rost aytaman, bazaning eshigi siz uchun doim ochiq. Ko'zimiz yo'lingizda, Mahbubaxon...

Shukurov, go'shakni qanday otib yuborganini o'ziyam bilmay qoldi. Go'shak telefon ilmog'idan sapchib, stoldagi oynaga tushdi-yu, xona yangrab ketdi. Eshik ochilib, kotiba qizning boshi bir ko'rindi-da, yana g'oyib bo'ldi...

Abror Shukurovich vujudidagi titroqni bosolmay, deraza oldida uzoq turdi. Pastda bog'bon chol gulzordagi gullarni qaychilamoqda, shofyor yigit yangi „Volga“ning kapotini ochib, bir nimalarni tuzatmoqda edi.

Shukurov Mahbuba bilan gaplashgan odamni tanidi. Shaharda rayonlararo katta baza joylashgan, bu odam o'sha bazaning direktori. U elliklarga borib qolgan, ko'rinishidan

juda muloyim, kamgap, salobatli odam. Bu salobatli odamning qilayotgan ishini qarang! Hatto ovozi ham o'zgarib, tilidan bol tomyapti... Biroq Mahbubayam qolishmaydi. Nahot shu aql-farosati bilan bu firibgarning maqsadiga tushunmasa? Uning hiyla-nayranglarini sezmasa? Nahot uni, o'z erini noqulay ahvolga solayotganiga aqli yetmasa?..

„Qo'ying, o'rtoq Shukurov eshitib qolsalar, naq terimni shiladilar!“

Abror Shukurovich tuklari tig' bo'lib go'shakni oldi, olarkan, xayolidan: „Telefon qilganda nima deyman? Hozir baza direktori bilan gaplashgan gapingni eshitdim deymanmi? Poylab yurib tutib oldim deymanmi?“ – degan fikr o'tdi, biroq irodasiga bo'ysunmagan qo'llari uy nomerini terib bo'lgan edi. Go'shakdan Mahbubaning hamon quvnoq, mamnun ovozi eshitildi:

– Allo, kim bu?

– Bu men, xonim, – dedi Shukurov, hayajonini yashirishga tirishib. – Hozir kim bilan gaplashdingiz?

– A? – Mahbubaning tovushi birdan o'zgardi.

– Men sizdan so'rayapman – hozir kim bilan gaplashdingiz deyapman?

Mahbuba indamas, faqat uning hansirab nafas olishi eshitilib turardi.

– Menga qarang, xonim! Bu nima qiliq? Bu qanaqa... bema'nilik? Siz nima qilayotganingizni bilasizmi o'zi? Sizga nima yetishmayapti? Latta-putta kerak bo'lsa nega menga aytmaydiz? Nega o'sha... ilonning yog'ini yalagan yulg'ichga murojaat qilasiz? Sizga aytyapman, nega indamaydiz?

– Axir men... – dedi Mahbuba yig'lamsirab. – Axir siz... u odam bilan gaplashganimni qayoqdan bildingiz?

– Menmi? – dedi Shukurov, dedi-yu, o'zidan g'ijinib tishini tishiga bosdi.

– Ha, siz! – Mahbubaning ovozidagi sarosima tahdid bilan almashdi.

– Men buni qanday bilganimni kechqurun borganimda aytib beraman! Ammo... – Shukurov gap qidirib, go'shakni qattiqroq changalladi. – Ammo siz ham nima sabab-

dan bunaqa... o'zingizga nomunosib, bachkana ishlar bilan shug'ullanib yurganingizni bir o'ylab ko'ring! Yaxshilab o'ylab ko'ring – kechqurun gaplashamiz siz bilan! – U go'shakni „shaq“ etib qo'ydi-da, o'zini kresloga tashladi, u hamon titrar edi.

Shukurovning esida bor: u rayonga tayinlangan paytlarda oblastda boshqa bir raykom kotibi to'g'risida g'alati gaplar tarqagan edi. Go'yo yangi joyga yuborilgan bu kotib har xil nopoklar, yulg'ich savdo xodimlarini shafqatsiz fosh qilish maqsadida ishni bozordan boshlaganmish. Ishga borgan kuni ertasiga odmiroq kiyinib go'sht do'koniga borganmish. Borsa, navbat katta emish. Qassob, dag'al, surbet odam, xaridorlarni haqorat qilib, go'sht o'rniga suyak-sayoq tortib berayotgan emish. Yangi kotib buni sabr-toqat bilan kuzatib turibdi-yu, indamabdi, navbat bilan borib, ikki kilogramm go'sht so'rabdi. Qassob unga ham pala-partish qilib, chandir-chundur aralash so'ngak tortib beribdi. Kotib qog'oz so'rasa: „Mening qog'oz fabrikam yo'q, menga qolsa shlapangizga solib oling!“ – debdi. Kotib ham lom-mim demay shlapasini cho'zgan ekan, qassob tap tortmay, go'shtni shlapasiga solib beribdi... Kotib shlapadagi go'shtni ko'targanicha to'g'ri savdo tashkilotlarining boshliqlari oldiga kirib boribdi-yu, o'sha kuniyoq majlis chaqirib, hamma yulg'ich-pulg'ichlarning dodini beribdi.

Bu gap qanchalik rost, qanchalik yolg'on – buni aytish qiyin. Ammo, dastlab ishga kelgan kunlari Shukurov ham shunga o'xshash bir ish qilishni ko'nglidan o'tkazgan edi. Lekin o'ylab ko'rib, bu fikridan qaytdi. Chunki bu tarzda ish boshlashda qandaydir ham bachkanalik, ham el orasida soxta obro' orttirish istagidan dalolat beruvchi bir narsa bor, umuman, rahbar xodimga nomunosib edi!.. Keyinroq esa katta muammolar bilan band bo'lib, bu ishlarga e'tibor berishga fursati ham bo'lmadi...

Shukurov ishga kelgan rayon o'z maydoni, aholisi, sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'lami jihatidan katta bo'lishidan tashqari, rayonning cho'l qismida bir nechta yangi sovxozlar tashkil bo'lmoqda, u yerga suv keltirishdan keyin katta qurilishlar boshlanib ketgan edi. Shu-

kurov kelgandan beri o'tgan fursat kolxoz va sovxoz rahbarlari-yu, cho'ldagi ishlar bilan tanishishga ketdi. Bu jara-yon davomida Abror Shukurovich, birinchi navbatda, qilinishi lozim bo'lgan bir nechta muhim masalalarni belgilab chiqdi. Bu masalalar ko'proq cho'lni o'zlashtirish, qishloq qurilishi va madaniyati, umuman, obodonchilik masalalariga bog'liq bo'lgani uchun mayda-chuyda narsalarga ko'p e'tibor berolmayapti. Lekin endi o'ylab qarasa, mayda-chuyda deb yurgan bu ishlar ham mayda-chuyda emas, balki eng muhim, eng hayotiy muammolar ekan...


Shukurov Mahbubaning yig'lamsiragan ovozi eslab, o'rnidan turib ketdi.

„O, Mahbub, Mahbub! Senga nima bo'ldi o'zi? Nahot bu qalloblar seni qo'lga olmoqchi ekanini tushunmasang? Nahot ering hammaning diqqat-e'tiborida turgan nozik bir ishda ekanini bilmasang?“

Eshik sekin ochilib kotiba qiz kirdi.

– Mumkinmi?.. Bir odam... Bir qiz bilan... – sekretar negadir duv qizardi. – Kutib o'tirishibdi. Toshkentdan kelishibdi.

– Toshkentdan? – dedi Shukurov. – „Qaynatam!“ – xayolidan o'tdi uning. – Marhamat, kirishsin.



Kabinetga novcha, bo'yni cho'pday qop-qora bir odam, uning ketidan, sochlarini baland qilib turmaklagan, odmingina kiyingan, nihoyatda ko'hlik bir qiz kirib keldi.

– Mumkinmi?! – dedi, bo'yni uzun cho'pday odam, dedi-yu, tez kelib ko'rishdi. – Obidov. Dotsent!

Qiz eshikdan kirgan joyda boshini bir tomonga sal egib yerga qarab turardi.

– Marhamat, o'tirsinar... o'tiring, – dedi Shukurov qizga qarab. Qiz kalta, yengsiz chit ko'ylagining etagini to'g'rilab, eshikdan kirgan joydagi stulga ohista o'tirdi.

– Marhamat, eshitaman, domla...

– Rahmat. Sizga bitta iltimos bilan keldik... – dotsent Obidov nimagadir hayajonlanib, siyrak bo'lsa ham allaqan-

day shoirona hurpaygan mayin sochlarini silab qo'ydi. Uning shu hayajoni sababmi yo shoshib, sal duduqlanib gapirgani uchunmi, Shukurov anchagacha uning so'zlarini yaxshi ilg'ab ololmadi.

Ma'lum bo'lishicha u, ya'ni universitet domlasi dotsent Obidov, bir necha yillardan beri biologik kurash metodi ustida ish olib bormoqda ekan. G'o'za zararkunandalari-ning kushandasi bo'lgan hasharotlarni o'z laboratoriyasida urchitib, ko'paytirishga muvaffaq bo'libdi. Endi bu kushandalarni mashhur millioner raisning („millioner“ deganda u qizga qarab bir kulimsirab qo'ydi) mashhur kolxozida sinab ko'rish niyatida kelibdi. Uning millioner kolxozni tanlashiga esa... universitetni shu yil bitirgan Latofatxon degan mana shu qiz sabab bo'libdi, chunki Latofatxon shu yerlarda tug'ilib o'sgan ekan.

Domla „millioner“ so'zini qandaydir kesatib aytgani uchunmi, Shukurovning yodiga bundan uch-to'rt kun avval obkomning birinchi kotibi bilan bo'lib o'tgan bir gap tushdi.

Birinchi kotib telefon qilib, ancha gaplashgandan keyin to'satdan:

– Otaqo'zi Umarov qalay? – deb so'rab qoldi. – Ishlari tuzukmi?

– Tuzukka o'xshaydi...

– Hmm... – birinchi kotib birpas o'ylanib qoldi-da, – bunday, Abror Shukurovich, – dedi. – Bu odamning ustidan bir arz tushdi. Erta-indin Bekmurod Xolmurodovich boradilar. U kishi hammasini aytib beradilar. Sizdan iltimos: u odam bilan yaxshilab gaplashing. Katta ishlar qilayotgan, katta odam. Buni bilamiz. Ishini qadrlaymiz. Ammo... Hovliqmasin! Aytib qo'ying!

– Kechirasiz, o'rtoq Shukurov, – dedi domla Obidov. – Agar bu ishimiz sizga ma'qul bo'lmasa...

– Yo'q-yo'q, ma'qul, – dedi Shukurov shoshib. – Bu tashabbusingizni qo'llab-quvvatlaymiz. Nima yordam kerak bo'lsa, beramiz! Istasangiz, rayon o'simlikni muhofaza qilish bo'limining xodimlari bilan tanishtirib qo'yaman.

– Rahmat! – domla Obidov tirtiq labi pirpirab, yana ki-

noyali kulimsiradi. – Bu vahima tashkilotingiz bilan ko‘p gaplashganmiz!

– Vahima tashkilot?

– Vahima bo‘lmay nima? Dalada to‘rtta o‘rgimchakkana ko‘rinsa... olamni kana bosdi, deb jar solishadi. O‘ylaydilar-ki, bu vahimaning sababini hech kim bilmaydi deb!

– Xo‘sh?

– Sababi... bu tashkilot planini bajarishi kerakmi? Kerak! Planni bajarish uchun dori sepish kerakmi? Kerak! Dori sepish uchun g‘o‘zani kana bosdi deb, jar solish kerakmi? Kerak! Tamom. Vassalom!

Qiziq, domla qizishganda tirtiq labining pirpirashi ham to‘xtar, dudug‘i ham qolar, qoracha, ozg‘in yuziga qizillik yugurib, ko‘zlari ilhom bilan porlab ketardi.

Abror Shukurovich ixtiyorsiz suratda unga hayrat bilan tikilib qoldi. Bu g‘alati odam ko‘plarni, shu jumladan, uning o‘zini ham anchadan beri o‘ylantirib yurgan, lekin hali hech kim aytmagan gapni topib aytgan edi... Nogahon uning ko‘zi qizga tushdi. Qiz domlasiga qandaydir cheksiz bir mehr bilan tikilib qolgan, uning xiyol cho‘zinchoq tiniq yuzi lovullab yonar, go‘yo bu duduq domla qiz qalbidagi eng nozik torlarni chertgan edi...

– Maili, – Obidov kimgadir pisanda qilib qo‘lini siltdi. – Men sizga hozir boshqa bir masalada keldim... Mana shu yaxshi qiz... bu yil universitetni bitirdi. O‘zi nihoyatda iste‘dodli, kelgusida istasa katta olima bo‘ladigan qiz-u, ammo lekin...

Shukurov Latofatning o‘tirgan joyida pitirlab qolganini ko‘rib, gapni hazilga burdi.

– Nega lekin deysiz? Istasa haliyam bo‘ladi!

– Yo‘q! – dedi Obidov keskin. – Bu kishi... O‘qishni yig‘ishtirib qo‘yib, turmushga chiqmoqchilar... – Haligi...

– Domlajon, – dedi qiz yolvorib...

– Haligi,.. eng ilg‘or, eng ongli millioner raisga k-kelin bo‘lmoqchilar!

Shukurov yer ostidan Latofatga qaradi. Uyatdan yonib ketgan qiz uzun kipriklarini pastga qadab, bir nuqtaga ti-

kilib o'tirar, go'yo domlasiga so'z qotishga ham majoli qolmagan edi.

Shukurov domla Shomurodovning uyida bo'lib o'tgan gapni yana esladi. Demak, o'shanda.. Otaqo'zi aytgan qiz shu!.. O'shanda Otaqo'zi bu qizning, yo'q oyisining tarixini gapirib bergan, bu tarix Shukurovni titratib yuborgandi. Agar oyisi ham yoshligida qiziday ko'hlik bo'lgan bo'lsa, u yigit (ismi Jabbor edi shekilli)... u yigitning iztiroblarini tasavvur qilish mumkin!

– Mayli, nima ham deymiz! – dedi domla Obidov. Uning ovozdagi allaqanday pinhoni dard Shukurovni yalt etib qarashga majbur qildi. – Mayli, turmushga chiqsin. Qarshi emasmiz. Lekin... bu qizning katta iste'dodini hisobga olib, ba'zi imkoniyatlar yaratib bersangiz deb, iltimos qilib keldim.

– Masalan?

– Masalan... bitta laboratoriya ochib berishning iloji, bo'lasmikin?

– Qanaqa laboratoriya?

– Qanaqa bo'lardi? O'sha... g'o'za zararkunandalarining kushandasi bo'lgan hasharotlarni ko'paytiradigan, ya'ni, sun'iy ravishda ko'paytiradigan laboratoriyani ko'zda tutayapman... Albatta, bu raykomning ishi emas, aslini olganda Qishloq xo'jaligi vazirligining ishi bu! Sizda mablag' ham yo'q. Buniyam bilaman. Ammo... juda savobli ish-da, bu! Balki xabaringiz bordir, hozir butun dunyoda, jumladan, bizning mamlakatimizda ham dori ishlatmasdan biologik uslubga o'tish muammolari ko'tarilyapti...

Shukurov qizning ko'zlari yana charaqlab ketganini ko'rib:

– Albatta, – dedi. – Kelgusida biz ham shu uslubga o'tamiz. Ammo hozircha...

– Kelgusida qiladigan ishga hozir poydevor qo'yish kerak-da, axir! – xitob qildi Obidov. – Siz o'ylamangki, bu ishga juda katta mablag' kerak, deb!

– Masalan?

– Masalan... ko'p bo'lsa uch-to'rt kishi ishlaydi. Latofatxon, misol uchun, laboratoriya boshlig'i. Bitta labo-

rant-metodist, bitta agronom-etimolog... Maoshlari... qorovul-porovulni qo'shib hisoblagandayam... boringki, yiliga o'n ming bo'lsin...

– Asbob-uskuna-chi?

– E, ko'p narsa kerak emas bularga! Bitta xolodilnik, bir-ikkita tuxum ochtiradigan pechka, kolba-polba, shkaf-pshkaf degandek, boringki, bu yog'i ham o'n ming bo'lsin!

Shukurov yana hayron bo'ldi. U biologik laboratoriya deganda, garchi o'zi biolog bo'lsa ham, ancha-muncha asbob-uskuna, ancha odam va juda katta mablag' kerak, deb o'ylardi.

– Siz bu masalada vazirlikka kirmadingizmi, domla?

– Rayonda nechta kolxoz bor? – dedi Obidov, uning savoliga javob bermay.

– To'qqizta kolxoz, beshta sovxoz...

– Nahotki shuncha xo'jalik bu ulug'... bu savob ishga, yigirma ming so'm ajratib berolmasa?

– Dadamlar... – dedi qiz va qizarib ketdi. – Otaqo'zi akamlar yordam berishlari mumkin!

– Shunaqami? Lekin baribir bu masalada vazirlik bilan gaplashish kerak...

– Gaplashing-da, bo'lmasa! – dedi Obidov. – Siz, eng ilg'or raykom kotibi sifatida bu ishga bosh bo'ling-da!

– Kim aytdi meni ilg'or kotib deb?

Obidov tirtiq labini himarib ishshaydi.

– „Ilg'or“ so'zi yoqmaydigan odamni birinchi ko'rishim!


Shukurov uning haziliga hazil bilan javob beraman deganda telefon jiringladi. Bekmurod Xolmurodovich yo'ldagi „Porloq yo'l“ kolxoziga kelib, uni kutayotgan ekan. Shukurov go'shakni qo'yib, o'rnidan turdi.

– Bo'lmasa bunday qilaylik, domla. Agar malol kelmasa erta-indin yana bir kelsangiz.

– Yaxshi, – dedi Obidov. – Ammo lekin ulug' ish bo'la-di-da, shu masalani hal qilib bersangiz, o'zingiz ham...

– Tarixga kirasiz, demoqchimisiz? – kuldi Shukurov. U Obidov bilan Latofatni kuzatib qo'yib, qaytib kirdi, kirarkan, hozir Xolmurodov bilan ko'rishajagini o'ylab, ko'ngli g'ash bo'ldi. U Bekmurod Xolmurodovich bilan bundan bir

oy oldin obkomda uchrashgan, uchrashuvda qurilish materiallari to'g'risidagi o'sha mash'um xat masalasi ko'tarilib, ular biroz qizarishib qolishgan edi. Shuning uchunmi, boshqami, hozir Bekmurod Xolmurodov bilan ko'rishishga uncha xushi yo'q edi.



Bugun Otaqo'zi nihoyatda mamnun. Mamnunligiga sabab – obkom kotibi boshqargan „letuchka“ uning shtabida o'tdi. „Letuchka“dan oldin obkom kotibi qurilish tashkilotlari va boshqa idora boshliqlari qurshovida Otaqo'zining paxta dalalarini, bedazor va ekinzorlarini aylanib chiqdi. Shundan keyingina boshqa sovxozlarga o'tdi.

Otaqo'zi o'tqazgan ko'chatlar, ayniqsa, tol va terak nihollari odam bo'yi ko'tarilib qolgan, bu nihollar bilan o'ralgan va qum bo'ronlariga ham, yozgi garmiselga ham dosh bergan paxtazorlar hozir ko'rgan ko'zni quvontirib, yashnab turardi. Otaqo'zining ishlari – faqat paxtazorlari emas, yo'l va ariq bo'ylariga ekan daraxtlari, makkasi, serpalak qovun polizlari yangi sovxozlarning g'arib ekinzorlari yonida, ayniqsa, yaxshi ko'rinardi! Xuddi xunuk qiz oldida o'rtachagina qiz ham ko'hlik tuyulgani kabi, Otaqo'zining dalalari ham narigi sovxoz dalalari oldida misoli bir jannat bo'lib ko'rinardi. Rost, narigi sovxozlar undan ancha keyin, asosan, shu yil bahorda ish boshlashgan. Lekin tanqid qilish kerak bo'lgan paytda bunaqa „mayda-chuyda narsalar“ning ahamiyati bo'lmaydi.

„Letuchka“ga qurilish tashkilotlaridan tashqari rayon-dagi hamma kolxoz va sovxoz rahbarlari taklif qilingan edi, shtab binosining soyasiga odam sig'may ketdi.

Obkom kotibi Xolmurodov prezidium stoliga o'tayotib; Otaqo'zini qo'ltiqlab oldi. O'ziyam prezidiumga faqat raykom kotibi Shukurov bilan Toshkentdan kelgan „Selxoz-texnika“ vakili Jamol Bo'riboyev taklif qilinib, hatto, oblast miqyosidagi ba'zi rahbarlar ham „pastda“ qolishdi.

Xolmurodovning obkomda qishloq xo'jaligi bo'yicha kotib bo'lib ishlayotganiga uch-to'rt yil bo'ldi, Otaqo'zi u

bilan juda qadrdon, shu sababdan ham uning qo'llab-quvvatlashiga shubha qilmas edi. Lekin Bekmurod Xolmurodovich Otaqo'zi kutganidan ham „oshirib yubordi“.

Xolmurodov ham Abror Shukurovichga o'xshagan yosh, ammo unga nisbatan biroz to'laroq, basavlatroq, gap-so'zlari, yurish-turishlari ham shiddatliroq, o'ziyam juda notiq edi.

U cho'lquvarlar to'g'risida, xususan, „Sharq yulduzi“ kolxozining azamat paxtakorlari to'g'risida qandaydir ichki bir hayajon bilan gapirdi, keyin bu chinakam zahmatkashlarga g'amxo'rlik qilish, ularga shart-sharoit yaratib berish o'rniga ishni paysalga solayotgan ayrim xo'jalik va qurilish rahbarlarini shunday „savallab berdiki“, ba'zilarga sichqonning ini ming tanga bo'lib ketdi. Ayniqsa, oblast „Irsovxozstroy“ degan ariq va zovurlar quruvchi tashkilotning boshlig'i bilan oblast maishiy xizmat boshqarmasining boshlig'iga qattiq tegdi.

Otaqo'zi oblast „Irsovxozstroy“ning boshlig'i bilan ko'p olishgan, bu o'ta manman, qo'rs, tepsa tebranmas odam uni qon qilib yuborgan edi, shunday bo'lsa ham, hozir uning shoshganidan labbay topolmay, g'uldurab qolganini ko'rganida yuragi achishib ketdi. U hamma savollarga faqat bir gapni takrorlar, qo'lini ko'ksiga qo'yib, hadeb: „Bajaramiz, o'rtoq kotib! Xo'b bo'ladi, o'rtoq Xolmurodov!“ – deb bidirlar edi. Axiri obkom kotibi ensasi qotib:

– Bunaqa ekan, ishni paysalga solib nima qilardingiz? – degan edi, „Irsovxozstroy“ boshlig'i yana qo'lini ko'ksiga qo'yib:

– Xo'p bo'ladi, bajaramiz! – deb yubordi-yu, zo'r qahqaha ko'tarildi.

Oblast maishiy xizmat boshqarmasining boshlig'i ham bo'laricha bo'ldi. Yoshi qirqlarga borib qolgan bo'lsa ham o'zini yaxshi saqlagan, pardozi-andozni joyiga qo'ygan, ko'hlikkina bu ayol oldin obkom kotibidan tap tortmay, ancha dadil gapirdi, keyin, iskanjaga tushganda esa, o'z vazirligidan shikoyat qilib ketdi.

Otaqo'zi o'z quloqlariga ishonmay qoldi. Bultur ko'klamda, maishiy kombinat poydevoriga g'isht qo'yilayotgan

mahalda, o'ziga ko'p bino qo'ygan bu jonon otashin nutq so'zlab, cho'lquvarlar olqishiga sazovor bo'lgandi. Ammo o'sha-o'sha qorasini ko'rsatmay ketgan bu parivash endi hamma aybni maishiy xizmat vazirligiga to'nkab, o'zi suvdan quruq chiqishga urinmoqda edi.

Otaqo'zi, azbaroyi yonib ketganidan, o'rnidan sapchib turganini o'ziyam bilmay qoldi.

– Bu kishiga bitta savolim bor, mumkinmi, o'rtoq kotib?

– Marhamat, marhamat...

– Men bilmoqchi edim... oblast shaharlaridagi, shu jumladan, oblast markazidagi qurilishlaringiz qay ahvolda? Ular ham mana shunaqa... poydevoriga g'isht qo'yilganicha yotibdimi?

Ayol, kosa tagida nimkosa borligini sezmay qoldimi yo sezsa ham boshqa gap topolmadimi, haytovur:

– Yo'q, nega? – dedi ulangan kipriklarini pirpiratib. – Yomon emas. Har qalay, rejani bajaryapmiz.

– Shunaqa deng? U yoqda rejangizni bazarasiz-u, bu yoqda hamma ishni paysalga solasiz! Sabab bunday qilasiz, o'rtoq Shokirova?

– Sababi... – Shokirova kafti bilan chakkasiga tushgan soch tolalarini tuzatmoqchi bo'ldi-yu, yuzidagi bo'yoqlari ham surtilib, odamlarning labida tabassum uyg'otdi. – Sababi...

– Sababini men aytib bera qolay, – dedi Otaqo'zi va go'yo ruxsat so'rab obkom kotibiga yuzlandi. U hozir oblastga mashhur, qandaydir xizmatlari uchun erkato'y bo'lib qolgan bu jononga qattiq zarba berayotganini tushunib turar, biroq shafqatsiz bo'lmasdan iloji yo'q, chunki so'nggi paytlarda bu ayol uni xun qilib yuborgandi.

– Marhamat, – dedi Bekmurod Xolmurodovich yer ostidan Shokirovaga ko'z tashlab.

– Sababi, u yerda, oblast markazida ishlash oson, soya-salqinda rejani bajarish oson! Ammo lekin mard bo'lsangiz... – Otaqo'zi allaqanday pitirlab qolgan qurilish tashkilotlarining boshliqlariga bir-bir qarab chiqdi. – Mard bo'lsalaringiz mana bu yerda, bu sahroyi jizg'inakda bajaring rejalaringizni!.. Ana! – U qaddini rostlab, te-

varak-atrofdagi qum uyumlariga tikildi. – Salkam ellikta qiz, husnda sizdan kam bo'lmagan ellikta qiz bola, o'rtoq Shokirova, erta-yu kech mana shu cho'l-u biyobonda kabob bo'lib, mehnat qilyapti! Paxta o'stiriyapti! Siz u yoqda... meni kechirasiz, o'rtoq Shokirova, siz u yoqda soya-salqinda rejani oson do'ndirib, ayshingizni qilib yoting-u, bular bu yoqda... gunohi nima bularning? Yo yaxshi turmushga haqqi yo'qmi bu qizlarning?

– Men haqqi yo'q, demadim shekilli?

– Demasangiz, yuz marta bordim oldingizga! Oyog'ingizga bosh urib, sajda qilib bordim oldingizga! Siz... – Otaqo'zi Shokirovaning to'satdan ko'ziga yosh olganini ko'rib, bo'g'ziga kelgan so'zni ichiga yutdi. – Insof kerak, o'rtoq Shokirova! Insof! – dedi-da, hansirab joyiga o'tirdi. Shokirovaning ko'z yoshi uning joniga ora kirdi. Otaqo'zining so'zini davom ettirgan Bekmurod Xolmurodovichning lablariga tabassum yugurdi.

– Siz xafa bo'lmang, – dedi u Shokirovaga yuzlanib. – Hurmatli raisimiz sal qattiqroq gapirdilar-u, ammo... siz ham tushunmog'ingiz kerak, ayol sifatida tushunmog'ingiz kerak... Axir bu yoshlar ham yaxshi yashagisi, o'ynab-kulgisi, bugungi madaniy hayotning hamma imtiyozlaridan foydalangisi keladi...

Shokirovadan keyin tanqid navbati yo'l qurilishi, undan keyin aloqa bo'limining boshlig'i, aloqachilardan keyin kommunal xo'jaligi rahbarlariga keldi. Ular ham aksariyat g'oz turib:

„Bajaramiz! Xo'p bo'ladi, bajaramiz!“ – degan bitta gapni yuz marta takrorlab chiqishdi.

Otaqo'zi o'z hayot tajribasidan yaxshi bilar – bu va'dalar, bu „bajaramiz“larning foydasi kam bo'ladi. Lekin, birlamchi, kam bo'lsa ham nimadir bo'ladi, ikkilamchi, va'daboz tullaklarning cho'lda, uning shtabida askarday g'oz turib: „Xo'p bo'ladi, bajaramiz!“ – deb to'tiqushday sayrab turishlarining o'zi katta gap! Vaqti kelganda Otaqo'zi bundan yaxshi foydalanadi, ishni paysalga solishda ustasi farang bu va'dabozlarga cho'ldagi bu gaplarni eslatib qo'yadi: „Agar dashtda tik turib. „Xo'p, bajaramiz!“ – deb chest

berganlaringiz yodingizdan ko'tarilgan bo'lsa, endi obkom byurosida g'oz turasiz!" – deyishga asos bo'ladi unda!

Obkom kotibidan keyin Shukurov so'zladi. U gapga chechan emas, juda sekin gapirar, ba'zan so'z topolmay peshasini ishqab turib qolar, biroq umuman nutqi bama'ni, fikrlari salmoqli edi. Eng muhimi, u ham Otaqo'zini yoqlab, ancha ko'tarib gapirdi, cho'ldagi ishlari, daraxt ihotalarini barpo qilish sohasidagi tajribasi bu yerda tashkil bo'layotgan yangi sovxoz rahbarlari uchun bebaho bir saboq ekanini bir emas, bir necha marta ta'kidlab o'tdi. Lekin nafsilamrini aytganda, gapning o'g'il bolasini Jamol Bo'riboyev aytdi.

„Letuchka“ning oxirida so'zga chiqqan Jamol Bo'riboyev, Otaqo'zining ishlari nafaqat shu rayon, shu oblast, balki butun respublika, barcha cho'lquvarlar uchun ibrat ekanini ta'kidlab, „Uzselxoztexnika“ nomidan qo'shimcha yordam va'da qildi.

Otaqo'zi prezidium stolida, Bekmurod Xolmurodovichning yonida kamtarona bosh egib o'tirarkan, hayajonini oshkor qilishdan qo'rqib, hadeb qog'oz titkilardi. U boshini baland ko'tarib ro'parasida o'tirgan, uning ulug' rejalariga to'g'onoq bo'layotgan qurilish tashkilotlari boshliqlarining ko'zlariga qadalib qaragisi kelar, biroq hozir payti emasligini sezib, g'olib g'ururini jilovlashga harakat qilardi. Ayni zamonda uch-to'rt kundan beri ko'nglini xira qilayotgan bir g'ashlik xayolida ma'yus o'ylar uyg'otardi.

„Ha, bu sahroda umri bekor o'tmadi uning! Goh qora bo'ronlar, goh qora to'fonlar orasida qolib, goho jazirama oftob tagida jizg'inak bo'lib qilgan ishlari, qurgan va qurayotgan shaharchasi, o'tqazgan daraxtlari, barpo qilgan paxtazor va ekinzorlari, xullasi kalom, qilgan mehnati zoye ketmadi. Mana, bu mehnatining ilk mevalarini totyapti. Inson bolasi borki, shirin so'zning gadosi ekan. Bir og'iz yaxshi so'z bilan chekkan hamma azob-uqubatlari esdan chiqib ketarkan. Ishqilib, dor tagidan qochgan bir g'alamisning fisq-u fujur gaplariga ishonib, uni badnom qilishmasa, bu cho'l-u biyobonda o'tib ketayotgan umri hurmati, komissiya ustiga komissiya yuborib, uning asablarini qaqshatishmasa bo'ldi!“

Haqiqatan, ikki-uch kundan beri ko'ngli g'ash bo'lib yurgani bejiz emas ekan, „letuchka“dan keyin Otaqo'zi obkom kotibini „bir piyola choy“ga taklif qilgan edi, Holmurodov qovog'ini uyib: „Shoshmang, rais“, dedi-da, Shukurovni qo'ltiqlab, chetroqqa chiqib ketdi. Birozdan keyin obkom vakili kelib, ko'ngliga g'ulg'ula tusha boshlagan Otaqo'zini ham taklif qildi.

Shukurov bilan Bekmurod Xolmurodovich tepasi yopilmagan ikki qavatli uyning soyasida suhbatlashib o'tirishar, ikkisi ham sal qizarishgan, qovoqlari soliq edi. Xolmurodov Otaqo'ziga „o'tiring“, deb g'ishtlarga ishora qilarkan:

– Choy tayyormi o'zi, rais? – deb kulimsiradi.

– Hammasi gatop-da, o'rtoq Xolmurodov! – Otaqo'zi g'oz turib shunday dedi-yu, o'zidan xafa bo'lib ketdi: „Namuncha artistlik qilmasam!“

– Juda soz. Tayyor bo'lsa birrov kirib o'tamiz... Ammo bir gap bor... Qani, birpas o'tiring-chi! – Xolmurodov Otaqo'zining taraddudlanib qolganini sezib nigohini chetga oldi.

– Biz sizdan, sizning ishlaringizdan juda mamnunmiz, rais. Siz qishloqdayam, bu yerdayam katta ishlar qilyapsiz... Shuning uchun biz sizni ehtiyot qilishimiz kerak...

– Men nima gunoh qippan o'zi? – dedi Otaqo'zi zo'rma-zo'raki kulimsirab.

– Bu haligi... hovli-joy masalasida nima janjal bo'lgan?

– Qanaqa hovli-joy?

– Qaysi bir mexanizatorni ko'chirib, joyni tog'angizga olib beribsiz... O'zini ishdan olib, cho'lga yuboribsiz...

„Ha-a, Nodiraxon arz qipti-da! – Otaqo'zi birdan yengil tortdi. – Bitta uyga shuncha vahimami?“

– Avvalambor, men u joyni tortib olganim yo'q. Olgan bo'lsam... o'sha siz aytgan mexanizatorning roziligi bilan oldim. O'zini cho'lga yuborgan bo'lsam... u yerga yaxshi mexanizator kerak edi – yubordim! Yo haqqim yo'qmi yuborishga!

– Hech kim haqqingiz yo'q deyayotgani yo'q! Lekin... xotini arz qipti. Ko'p bolali ona ekan. Umuman... hovli-joy kerak bo'lsa... boshqa joy qurib qoldimi?

Otaqo'zining qoramtir yuzi cho'yanday qorayib ketdi, uchburchak mo'ylovi g'alati qimirlab:

– Boshqa joy to'g'ri kelmas edi! – dedi.

– Nega?

– Negaki... men hayronman, o'rtoq Xolmurodov! – Otaqo'zining ovozi to'satdan ichki bir alam bilan yangradi. – Men bu joyni olib bergan bo'lsam... shu qishloqda kolxoz tuzgan, yolg'iz o'g'li Qahramon degan unvon olib, urushda halok bo'p ketgan... keksa bir kishiga olib beribman. Nahotki, shu jinoyat bo'lsa?

– Hech kim jinoyat deyayotgani yo'q, – dedi Abror Shukurovich. – Biroq... u kishiga boshqa joydan uy bersangiz...

– Aytyapman-ku, boshqa joy to'g'ri kelmaydi deb!

– Sabab?

– Sababini bilmaydigan odamday gapirasiz-a? – dedi Otaqo'zi ranjib. – Bilasizki, u kishiga qaraydigan bir odam yo'q. Bir o'zi! Yaqinda kampiriyam vafot etib, so'qqabosh bo'lib qolgan! Hayronman, Abror Shukurovich! U kishi... katta olim bo'lsa. Salkam o'n ming jildlik kutubxonasini kolxozga in'om etgan bo'lsa-yu, shunday bebaho odamga jindak shart-sharoit yaratib berolmasak. Hamma narsani ko'rib-bilib turib tag'in bunday deysiz! Siz u kishi bilan hamsuhbat bo'lib, kutubxonasini bir ko'rib qo'ying, Bekmurod Xolmurodovich!..

– E, shunaqami? – dedi Xolmurodov birdan qandaydir yengil tortib. – Biz bu tomonini o'ylamagan ekanmiz. Bo'lmasa sizdan iltimos. – Obkom kotibi Shukurovga yuzlandi. – Shaxsan o'zingiz o'sha ayolni chaqirib bir gaplashsangiz. Umuman, uni rozi qilmoq kerak, rais...

Otaqo'zi: „E, rozi bo'lmay o'lsin u!“ – deb yuborishiga oz qoldi-yu, o'zini bosib:

– Xo'p bo'ladi, o'rtoq Xolmurodov, – dedi. – Biz uni rozi qilamiz, ammo lekin...


– Xo'sh?

– Lekin nahot qadrimiz shunchalik bo'lsa? Kecha-yu kunduz, qishin-yozin tinim bilmay ishlasak, umrimiz mana shu cho'l-u biyobonda o'tib ketayotgan bo'lsa-yu, qayoqda-

gi ortda qolgan bir... shallaqi xotin ustimizdan arz qildimi, bas, qilgan hamma toat-ibodatimiz bir pul bo'lsa!..

– Qo'ying, rais, obidiyda qilmang! Siz birovdan tayoq yeydiganlardan emassiz. Bilamiz! – Xolmurodov kulimsirab, o'rnidan turdi. – Xo'sh, choyingiz tayyor bo'lsa – ketdik! Tog'angiz uydamlar? Uyda bo'lsalar bahona bilan tanishib olar ekanmiz... Aytmoqchi, Jamol aka qanilar? U kishini ham taklif qilganmisiz? Juda soz. U kishiyam tanishib qo'ysinlar tog'angiz bilan...

Shukurov yalt etib Otaqo'ziga qaradi. Otaqo'zi miyig'ida bir kulib qo'ydi-yu, mashinasiga qarab ketdi.



Abror Shukurov hozirgina bo'lib o'tgan suhbatdan ham, o'zidan ham norozi edi. U-ku, tushgan shikoyatning mazmunini bilmagani uchun dabdurstdan qat'iy bir fikr bildirishga o'zlik qildi, lekin Xolmurodov-chi? Otaqo'zi bilan qanchalik yaqin bo'lmasin, bunchalik borishi to'g'rimi? Og'aynisining jilovini tortib qo'yish o'rniga battar shishirib yubormadimi?

Xolmurodov bilan Jamol Bo'riboyev Otaqo'zining „Volga“siga chiqishdi. Otaqo'zi Shukurovni ham taklif qildi, biroq Abror Shukurovich „siqilishib qolmaylik“, deb o'z mashinasiga mindi.

Mashina kulrang qum uyumlarini kesib o'tgan asfalt yo'lda qushday uchib ketdi. O'ng tomonda, adirlar ortidan qad ko'targan alp tog'lar quyosh selida elas-elas ko'rinar, oldinda, qumtepalar ortida, ilk bog'lar ko'zga chalinardi. Bu bog'larga hali uzoq, chor atrof faqat hadsiz qumtepalardan iborat, kishini cho'chituvchi bu jonsiz dunyo orasida Otaqo'zining yo'l bo'yiga o'tqazgan nihollarigina tiriklikdan, hayotdan dalolat berardi, xolos.

Shukurov o'zini orqa o'rindiqqa tashlab, ko'zini yumdi. Uning xayoli yana Otaqo'ziga ko'chdi. Rayonga kelganidan beri, to'g'rirog'i, bahorda Toshkentga birga tushganlaridan beri, u Otaqo'zi to'g'risida ko'p o'ylar, biroq o'ylagan sayin fikrlari oydinlashish o'rniga, battar chalkashib borardi.

Dastlabki paytlarda, ayniqsa, Toshkent safaridan keyin Otaqo'zi unga muvaffaqiyatlardan esankirab qolgan bir toifa raislarni eslatgandi. Boshda ishni yaxshi boshlab, qoloq xo'jaliklarni oyoqqa turg'azishga muvaffaq bo'lgan, ammo qandaydir sabablar bilan asta-sekin manmanlikka berilib ketgan bu odamlarga, odatda, madaniyat va chuqur falsafiy tafakkur yetishmas, shu boisdan hayotni chuqurroq mushohada qilishga o'zlik qilib qolishardi. Boshda kamtargina bo'lib, tuppa-tuzuk ishlagan bu odamlar bora-bora bosar-tusarini bilmay qolar, maishatga berilar, hashamatli uylar qurar, dabdabali to'ylar qilar, katta marosimlar o'tkazib, yurtga osh, nafaqat osh, hatto uloq berib nom chiqarishga urinishar, go'yo qonun-qoidalar ular uchun emas, boshqalar uchun yozilganday, kimki gap qaytarsa yo arz qilmoqchi bo'lsa, har xil yo'llar bilan yanchib tashlashga harakat qilishardi. Eng yomoni – ular pulning kuchiga juda ishonib ketishar, har qanaqa odamni qo'lga olish, har qanaqa qonunni chetlab o'tish mumkin, deb o'ylashar, shu boisdan boshlariga ish tushsa faqat pulga suyanib yo'l tutishardi. Va nihoyat, bu odamlarning yana bir fojiasi – ular hayot saboqlarini tushunmas, o'zlari yanglig' boshlari toshga tekkan odamlarning taqdirlarini hisobga olishmas, zotan, turmush saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga qodir emas edilar!

Abror Shukurov Otaqo'zi bilan dastlab tanishgan paytlarida u ham xuddi shu toifa odamlardan emasmikin, degan xayolga borgan edi.

Toshkentdagi gaplar, Bekmurod Xolmurodovichdan tortib, „Selxoztexnika“ bilan Qishloq qurilishi vazirligiga qadar oshna-og'aynilari borligi Shukurovning bu fikrini tasdiqlaganday bo'lgandi. Shu boisdan bir-ikki marta qizarishib ham olishdi. Lekin keyinroq bu fikridan qaytdi, chunki Otaqo'zi qandaydir boshqacharoq, murakkabroq bir odam, yechilishi qiyin bo'lgan bir ko'r tugun edi!

Shubhasiz, Shukurov kuzatib yurgan mash'um kasalning nishonalari bu odamda ham bor, xuddi o'sha kasalning o'zi bo'lmasa ham uning qandaydir belgilari bor. Shukurov bu belgilar nimadan iborat ekanini hali anglab ololga-

nicha yo'q, anglab olishiga hali imkon ham bo'lmadi, chunki Otaqo'zi birda cho'rtkesar, qo'rs tuyulsa, birda juda samimiy, oqko'ngil, hatto ojiz tuyular, birda o'z manfaati yo'lida hammani bosib, yanchib o'tishga tayyor ko'rinsa, birda ishi yurishmaganidan o'ksib, yosh boladay zorlanib qolardi...

Umuman, Otaqo'zining ishlariga, qishloqdagi qurilishlariga, cho'ldagi tashabbusiga tan bermay iloj yo'q, ammo xuddi shu fazilatlariga uchun ham tunov kuni birinchi kotib aytganidek, ehtiyot qilish kerak uni!

Boya cho'lda, uy-joy to'g'risidagi shikoyat munosabati bilan iskanjaga oladigan payt kelgandi, biroq Otaqo'zi usalik qilib „qo'ldan chiqib“ ketdi.

Biroq unday desa... Otaqo'zini ayblash, hatto mexanizatorni ko'chirib, hovli-joyini tog'asiga olib bergani uchun ham ayblash qiyin. Axir u domla Shomurodovning ahvolini biladi-ku! Ayni zamonda Otaqo'zining domlani ro'kach qilib, og'ir vaziyatdan qutulib ketishida ham qandaydir noadlatli bir narsa bor edi... Uning: „Biz tinim bilmay ishlaksak-u, bitta g'alamisning arzi bilan qilgan hamma toat-ibodatimiz bir pul bo'lar ekan-da!“, – degan gaplari-chi?

Uning bu gapida ham jon bor, albatta, uniyam „tushunish“ mumkin. Lekin shu bilan birga Otaqo'zining bu gapida Abror Shukurovichni bezovta qilayotgan „kasal“ning nafasi ham sezilib turar, bu gapi bilan u go'yo shart qo'yymoqda, „Istasalarining shu, istamasalarining, tag'in ixtiyor o'zlariningda, hamma erkaliklarimni ko'tarsalarining ishlayman, bo'lmasa, men ham qo'limni yuvib, qo'ltig'imga uraman“, degan ma'noda shart qo'yymoqda edi.

...Cho'l tugab, kulrang qum uyumlari qoramtir adirlarga tutashdi, adirlar ortidan birinchi bog'lar, yam-yashil bedazorlar, odam kirsam ko'rinmaydigan, o'rmonday tiralib turgan jo'xorizorlar ko'rindi, dimog'ga qurigan beda, kakra va yovvoyi giyohlarning sal taxir va xushbo'y hidi gup-gup ufurdi...

Oldinda ketayotgan oq „Volga“ kolxoz idorasi tomon emas, chapga, tepaga qarab burildi.

Abror Shukurovich yetib borganda, mehmonlar maktab binosi oldida mashinadan tushib, atrofni tomosha qilishar-

di. Bu yerdan, ko'm-ko'k chim bilan qoplangan baland tepalikdan pastdagi tutash bog'larga ko'milgan ulkan qishloq yanayam go'zalroq, yanayam ko'rkamroq ko'rinardi.

Xolmurodov qalin jingalak sochlarini silab, chor atrofga hayrat bilan tikildi.

– Hmm... Shahar! Chinakam shahar!.. Yashang, rais! u Otaqo'zini qo'ltiqlab, mashinalardan tushayotgan mehmonlar tomon boshladi, ko'zlari ichki bir mamnuniyat bilan porlab:

– Qalay, do'stlar? – deb so'radi.

Har joy-har joydan: „Yaxshi, yaxshi!“ – degan ovozlar eshitildi.

– Afsuski, boya hamma raislarni mehmonga chaqirmagan ekansiz, Otaqo'zi aka! – dedi Xolmurodov va Shukurovga yuzlandi. – Menda bitta fikr bor, Abror Shukurovich. Hamma kolxoz raislarini yig'ib, qurilish masalasiga bag'ishlangan bir seminar o'tkazish kerak bu yerda. Nima deysiz bunga?

Uning nimaga shama qilayotganini sezgan Shukurov:

– Juda yaxshi bo'lardi! – dedi. – Balki butun oblast miqyosida qilarmiz bu ishni!

Bekmurod Xolmurodovich uning pichingini sezib qoldi shekilli, yalt etib qaradi. Biroq shu payt Jamol Bo'riboyev:

– Butun respublika miqyosida o'tkazilsa ham arziydi!– deb xitob qildi-yu, hamma birdan kulib yubordi. Askiyani Xolmurodov „ilib“ ketdi:

– Butun mamlakat miqyosida o'tkazsak ham bo'lar-di-ku, biroq rais taltayib ketmasa, deb qo'rqaman-da!– dedi u va darhol jiddiylashdi. – Hazillashyapmiz-u, ammo lekin bu ishni qilish kerak, Abror Shukurovich!

– Bir gapim bor, aytsam bo'ladimi, o'rtoq Xolmurodov, – to'satdan qandaydir jiddiylashib qolgan Otaqo'zi obkom kotibining yuziga dadil qaradi. – Maqtovlaringiz uchun rahmat! Seminar o'tkazilishiga qarshi emasman. Ammo bitta iltimosim bor.

– Xo'sh?

– Shu ishlardan avval qishloqni gazlashtirish masalasi-da bir yordam bersangiz!

Abror Shukurovich beixtiyor: „Paytini topdi-ya! Balo bu odam!“ – deb qo‘ydi ichida.

– Gaz yo‘qmi hali?

– Suyuq gaz bor-u, tabiiysi yo‘q. Rayonga kelgan, o‘tkazish qiyin emas. Ammo... mana, kommunal xo‘jalik boshqarmasi cho‘zyapti...

– Cho‘zmasayam bo‘lmaydi-da! Sizga qolsa, gazniyam qurilish materiallariga o‘xshab o‘marib ketsangiz! To‘g‘rimi, Abror Shukurovich? – Xolmurodov Shukurovga qarab ko‘zini bir qisib qo‘ydi-da, Otaqo‘ziga yuzlandi. – Bo‘pti. Yordam beramiz. Ammo lekin... siz bizni mehmonga chaqirdingizmi, desam, gaz undirish uchun chaqirgan ekansiz-da, rais!

Otaqo‘zi go‘yo uchishga hozirlangan ulkan qushday qo‘llarini keng yozdi.

– E, kechirasiz, o‘rtoq kotib, kechirasiz... Qani, ketdik!

Mehmonlar kirib borishganda o‘rdaday katta hovlining o‘rtasidagi quduq yonida ikkita ayol gaplashib turishardi. Ularning biri – chog‘roqqina nozik juvon – kulimsiragani-cha mehmonlarga qarab yurdi, ikkinchisi – sochlariga oq oralagan bo‘lsa ham, hali juda ko‘hlik, qora qosh, qora ko‘z ayol, xuddi dahshatli bir narsani ko‘rgan odamday qo‘rqib, orqaga tisarildi-da, apil-tapil yurib, ichkariga kirib ketdi.

„O‘sha! Fazilatxon!“ – xayolidan o‘tdi Shukurovning. U yer ostidan Jamol Bo‘riboyevga qaradi. Bo‘riboyev, qalin lablarining chetida g‘alati tabassum, semiz g‘ozday ko‘krak kerganicha, vazmin odimlab borib, nozik juvon bilan ko‘rishdi:

– Yaxshimisiz, Oliyaxon? Haliyam o‘sha-o‘sha yashnab turibsiz-a?

Otaqo‘zi hovlini boshiga ko‘tarib xaxolab kuldi:

– Er yigit ikkita narsani – oti bilan xotinini qaritmaydi, deydilar, eshitmaganmisiz, o‘rtoq Bo‘riboyev! Xa-xa-xa...

Xolmurodov Oliyaxon bilan ko‘risharkan, haligi xotinga shama qilib:

– Siz nega bizdan cho‘chimaysiz-u, u kishi nechuk bizni ko‘rib qochdilar, Oliyaxon opa? – deb hazillashdi.

Otaqo‘zi yana hovlini boshiga ko‘tarib kuldi.

– U kishi mana, Jamol Bo‘ribojevichni ko‘rib hurkib ketdilar!

– Nega?!

Otaqo‘zi bu gapni aytishga aytib qo‘yib, endi o‘ziyam noqulay ahvolda qoldi:

– Ha, shu... ayb yoshlikda... Shunaqami, Jamol Bo‘ribojevich?.. Xa-xa-xa... Qani, marhamat, o‘rtoq kotib...

Hovli bilan tutashib ketgan bog‘ning bir chekkasida, shoxlari tarvaqaylab o‘sgan kekxa olma tagida, bir nechta yigit kabob pishirmoqda, nariroqda, sharqirab oqqan ariq bo‘yidagi stollarda odamning jonidan boshqa hamma narsa muhayyo edi.

Domla Shomurodov qayoqqadir ketgan ekan, Otaqo‘zi shuni aytib, mehmonlarni dasturxonga taklif qilgan edi, Xolmurodov chol o‘zi bo‘lmasa ham uning uy-joyini ko‘rish istagini bildirdi.

Domlaning hovlisi raisnikidan chog‘roq, biroq serdaxt, salqin, juda fayzli edi. Kitoblar, o‘sha Abror Shukurovich ko‘rgan kitoblar, katta mehmonxonaning shiftiga tegib, xirmonday uyulib yotar, javonlar hali joyiga qo‘yilmagan, kitoblar tartibga solinmagan edi.

Bekmurod Xolmurodovich tizza bukib, kitoblarni ko‘zdan kechirarkan:

– Hmm... – dedi. – Bu kitoblarni hozir oltinga ham topib bo‘lmaydi-ku!

Otaqo‘zining chehrasi yorishib, lablariga kulgi yugurdi.

– Erta-indin javonlarni o‘rnatib, ko‘cha tomondan eshik ochib beramiz, chol o‘zi kitob ulashib...

Otaqo‘zi gapini tugatmagan ham ediki, eshikda qorachadan kelgan, yoqimtoygina bir juvon paydo bo‘ldi...

– Mumkinmi?

– E, keling, Xolidaxon! – Otaqo‘zi nima uchundir juda quvonib ketdi. – Bu kishi bizning faollardan, ya‘ni, boshqacha qilib aytganda, komissarimiz bo‘ladilar, o‘rtoq Xolmurodov!

Xolidaxon o‘rta bo‘yli, ikki yuzida kulgichlari o‘ynab, qop-qora ko‘zlari chaqnab turgan yoshgina, yulduzi is-siqqina juvon edi. U, yoqimtoyligini biladigan yosh juvon-

larga xos bir erkinlik bilan kulib kelib, oldin obkom kotibi, keyin Shukurov bilan ko'rishdi, ko'risharkan, qoracha yuzida yana ham oqroq ko'ringan sadaf tishlarini yarq etkazib:

– Xush kelibsizlar kolxozimizga! – deb qo'ydi.

– Ha, boshimiz osmonga yetdi! – Otaqo'zi boshidagi do'ppisini to'g'rilab, obkom kotibiga qaradi. – Bu kishi, Xolidaxonni aytaman, yaqinda institutni bitirib kelgan iste'dodli agronomlardan. Ammo-lekin yosh bo'lsayam o'z ishiga pishiq. Bizni hamma siyosiy va madaniy ishlarimiz shu kishining qo'lida!

Xolidaxon, xuddi rais bilan oldindan kelishib qo'ygan-day, uning gapini ilib ketdi:

– Otaqo'zi akamlar aytgan bo'lsalar kerak. Bu uyni qishloq kutubxonasiga aylantirmoqchimiz. Erta-indin yoshlarni safarbar qilib, hammasini tartibga solamiz. Otaqo'zi akamlarning tashabbuslari bilan...

– Kolxoz kutubxonasi bilan birlashtirib qo'ya qolsalaringiz bo'lasmidi? – dedi Xolmurodov.

– Yo'q!– dedi Otaqo'zi qat'iy. – Chol xohlamayapti. U kishi o'z uyimda, o'z qo'lim bilan kitob berib, kelgan-ketganlar bilan gaplashib o'tirsam deydi.

– Yaxshi, – dedi Xolmurodov bir lahza o'ylanib turgach. – Afsuski, u kishi bilan hamsuhbat bo'lolmadik...

– Odam yuborib, oldirib kelaman hozir...

– Yo'q, rahmat, vaqt ziq. Bir piyola choyingizni ichib qo'zg'alamiz. Demak, haligi gap! Ko'p bolali ayolni chaqirib, gaplashinglar... Siz ham bilib qo'ying!– Obkom kotibi Xolidaxonga yuzlandi. – Bu uyning egasi obkomga shikoyat yozibdi...

Abror Shukurovich yer ostidan Xolidaxonga ko'z tashladi.

– Bilaman. Yaxshi xotin emas, o'rtoq Xolmurodov! – dedi Xolidaxon, yoqimtoy tabassumiga mos tushmagan bir keskinlik bilan. – Yaxshi bo'lsa shunday qilarmidi? Men Otaqo'zi akamlarni hurmat qilmaganini aytmay qo'ya qo'lay, aqalli bu uyga ko'chib kelgan keksa olimni hurmat qilsa bo'lasmidi? Shu qishloqda tug'ilib o'sgan odam bo'lsa-yu, nahot, shunday ulug' zotning ustidan arz qilib yursa, u ayol?

Xuddi shu gapni hozir, bundan atigi bir soat oldin, Otaqo'zi gapirgan edi. Shuning uchunmi, boshqami, Abror Shukurovich go'yo buni o'zi gapirganday iymajib, Xolidaxonning ma'sum ko'zlaridan ko'zini olib qochdi.

– Mayli! – dedi Xolmurodov. – Bu gaplardan qat'i nazar, u xotinni chaqirib gaplashinglar, xursand qilinglar. Ranjimasin!

Xolidaxon yana bir nima demoqchi edi, Otaqo'zi:

– Xo'p bo'ladi, o'rtoq kotib, – deb uning og'zidan so'zini oldi-da, qo'lini ko'ksiga qo'ydi. – Qani, marhamat. Choy ham sovib qolgandir.

Shukurovning xayolidan yana boyagi fikr o'tdi:

„Nima bo'lgandayam balo bu odam! Masalaning nozikligini tushundi. Boya cho'lda domlanning xizmatlarini ro'kach qilib bir yutgan bo'lsa, hozir yana bir yutdi! Mana bu jonnonni ham xo'p topibdi... Oliy ma'lumotli agronom! Yosh bo'lsayam o'z ishiga pishiq. Siyosiy ishlar bo'yicha komissar emish!.. Ammo birorta masalada o'z so'zi, o'z fikri bormikan bu „yosh komissar“ ning? Ha, balo bu odam! Rais-ku, balo bo'lgani uchun bu to'tiqushni o'ziga „komissar“ qilib olibdi, raykomdagilar qanday qilib tavsiya qilishdi buni? Nahot, „Otaqo'zi akamlar“, deb gapirganida, og'zidan bol tomgan bu go'zal jonon uning qo'lida bir qo'g'irchoq ekanini ko'rmagan bo'lsalar?“

Abror Shukurov uydan hammadan keyin chiqdi. U boya yo'lda o'ylagan „ko'r tugun“ yana ham qattiqroq tugilgan edi.

Oltinchi bob



Domla Shomurodov tog'da ko'p turmadi. Og'aynisi Proxorning: „Gulsarabibi yo'lingga ko'z tikib o'tirgan bo'l-saki, oshiqsang, biror hafta turib, qimiz-pimiz ichib damingni olib ket“, deb qistashlariga qaramasdan, uch-to'rt kun turdi-yu, uyga qaytdi.

Uni qiynagan narsa, tog'ga borgan kuni ko'tarilgan dahanaki jangdan keyin u Mingbuloqni asrash to'g'risida yozilgan xatga, qiziq ustida o'ziyam qo'l qo'yib yuborgan edi. Nafsilamrini aytganda, domla boshda imzo chekmoqchi emas edi, u faqat do'stlari qistab qo'ymagandan keyin xat yozib bermoqchi, imzoni esa Proxor bilan O'rozqul chekishi kerak edi.

Chollar avval xatni kimga yozish to'g'risida uzoq bahs-lashishdi. Proxor, pachakilashib o'tirmasdan to'g'ri Tosh-kentga arz qilaylik, dedi, domla esa, qonun-qoidani tus-huntirib, ishni rayondan boshlashga ko'ndirdi.

Domla xatni o'z qo'li bilan yozdi, o'z qo'li bilan oqqa ko'chirib, do'stlariga tutqazdi, biroq imzo chekish payti kelganda O'rozqul: „Iyanningga qayishib, o'zingni opqoch-yapsan-da!“ – deb yana bir kesatdi, Proxor bo'lsa... bu xat-ga qo'l qo'ymasligingga qaraganda archa to'g'risidagi ki-tobchani paysalga solayotganing ham bejiz emas ekan-da, degan ma'noda yana bir uzib oldi-yu, domla Shomurodov uning qo'lidan qalamini qanday yulib olib, qanday qo'l qo'yib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Aslini olganda-ku, xatning yomon joyi yo'q, unda Ming-buloqdek tabiat o'zi in'om etgan bir mo'jizaning qadriga yetilsa-yu, qurilmoqchi bo'layotgan molxonalar sal yi-roqroqqa ko'chirilsa, degan iltimosdan boshqa gap yo'q edi. Shunday bo'lsa ham, xatga imzo chekib, jo'natib yuborgan-laridan keyin, domla Shomurodov go'yo Otaqo'ziga qarshi yovuz bir xiyonat qilganday tuyulib, ko'ngli xijil bo'laverdi. Uch kungacha shunday bo'lib yurdi-da, to'rtinchi kuni er-

talab, qadrdonlari bilan tuzukroq xayr-ma'zur ham qilmasdan, barvaqtroq turib jo'nab qoldi.

Normurod Shomurodov qishloqqa oftob endi chiqqanda kirib bordi.

U eshagini xix-xixlab tepaga chiqqanida pastda, jiyanining darvozasi oldida, qator turgan qo'sh „Volga“ga ko'zi tushdi. „Mehmon bosibdi-da!“ – dedi u ko'nglida. Haqiqatan, domla darvozaga yaqinlashib qolganida zo'r qahqaha yangrab, ichkaridan Otaqo'zi boshliq bir to'p odam chiqdi. Bo'g'riqqan chehralarida chuqur mamnuniyat barq urgan, lablari hozirgina yeyilgan yog'liq ovqatlardan yaltillab ketgan bu xushchaqchaq, salobatli mehmonlar orasida... Jamol Bo'riboyev ham bor, u Otaqo'zini qo'ltiqqlab olgandi.

Domla Shomurodov go'yo yovuz bir narsaga duch kelishidan qo'rqqan odamday, eshagining boshini chetga burib, ko'cha yuzidagi do'kon panasiga o'tdi, o'tarkan, Jamol Bo'riboyevning xaxolab kulganini eshitdi:

– Siz to'y qilasiz-u, biz kelmaymizmi, rais?

– Yangamlar bilan kelasiz, Jamol Bo'riboyevich! – dedi Otaqo'zi. – Mayda-chuyda gaplarni qo'yavering, o'rtoq quda! Turmush debdilar buni! Nimalar bo'lmaydi bu dunyoda! Domla Mirobidovga ham telegramma beraman. Birga kelasizlar...

– Rahmat, rais, rahmat. Dunyo turguncha turing! Xo'p, omon bo'ling!

– Yo'q-yo'q. Chegaragacha kuzatib qo'yamiz. Lekin „Selxoztexnika“ kattalaridan bo'lganingiz uchun emas, quda bo'lganingiz uchun... Xa-xa-xa...

Domla Shomurodov mashinalar qo'zg'alib, muyulishda g'oyib bo'lguncha do'kon panasidan chiqmadi. U ko'chadan o'tayotgan yo'lovchilar ajablanib qarayotganlarini ko'rsa ham joyidan jilmadi. Faqat mashinalarning qorasi o'chgandagina eshagini niqtadi.

Domla to'satdan o'zini shunday horg'in sezdiki, egardan zo'rg'a tushdi, eshagini darvoza ustuniga zo'rg'a bog'ladi-da, uyga kirib, o'zini divanga tashladi.

Uyda hech narsa o'zgarmagan, kitoblar avvalgiday shift baravar uyulib yotardi. Domla yostiq olishga ham madori

kelmay, boshiga uch-to'rtta kitobni qo'yib, ko'zlarini yumdi... Otaning qalbida Mingbuloqni ko'rganda ko'tarilgan isyon, kitob to'g'risida Proxorga bergan va'dasi, Otaqo'zi bilan suhbatlashish tilagi, xullas, qalbiga cho'g' solgan bu o'y, bu istaklarning hammasi birdan so'ndi-yu, uning o'rnini kutilmagan bir loqaydlik chulg'ab oldi.

Haqiqatan, qarigan chog'ida, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda turgan bir mahalda unga bu g'alva, bu tashvishlar nima kerak? Umri bino bo'ptiki, to'g'ri bo'laman, deb nopoklar bilan olishdi, xo'sh, nima topdi? Nima orttirdi? Haliyam bo'lsa undan ko'ra jiyani haq! Chindan ham... turmush deptilar buni! Chindan ham nimalar bo'lmaydi bu omonat dunyoda!

Mana, yolg'iz farzandining boshiga yetgan, uning eng pok tuyg'ularini poymol qilgan bir nokas haliyam hayot, haliyam ulkan lavozimlarni egallab yuribdi! Lavozimlar ham mayli, mana endi falakning gardishi bilan uning jiyaniga quda bo'lyapti, uning qil o'tmas qadrdoniga aylanyapti!

Domla Shomurodov bu gaplardan xabari bor edi, albatta. Marhum aya buni sekin shivirlab aytgan edi. O'shanda ham – kampir sho'rlik bu gaplarni ko'z yoshi aralash shivirlab aytgan mahalda ham domla bir necha kungacha ruhi tushib, o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay yurgan, ko'nglini keng qilib, bu narsalarga falsafiy qarashga harakat qilgan edi. Ammo bugun, jiyani bilan bu odam o'rtasidagi muomalani ko'rganida, ularning hazil-mutoyibalarini eshitganida ko'nglining bir chetida yotgan betaskin alam qayta tirildi-yu, yuragini zirqiratilib yubordi. Bundan chiqdi, yolg'iz o'g'lining umriga zomin bo'lgan bu odam quda bo'lib keladi, u esa, kimsan Normurod Shomurodov esa, uning hurmatini bajo keltirishga majbur bo'ladi, go'yo o'sha mash'um voqealar sodir bo'lmagandek, qalbidagi tug'yonni jilovlab, uni qo'l qovushtirib kutib oladi, birga o'tirib suhbat quradi!..

Eshik g'ichirladimi yo unga shunday tuyuldimi? Domla istar-istamas ko'zini ochdi. Yonida kelini Oliyaxon turardi.

– Assalomu alaykum, tog'ajon! – Oliya odatdagiday qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berdi. Domla qo'llarini divanga tirab, qaddini rostlab o'tirdi.

– Uygʻotib yubordim shekilli, togʻajon. Choy-poy icha-sizmi?

– Rahmat, keyinroq... Oʻzim aytaman, bolam. Otaqoʻzi qaytmadimi?

– Yoʻq... Jiyaningiz oblastga borib kelaman, deyayotuv-dilar... Sizni koʻrgani Xolidaxon keldilar.

– Xolidaxon?

– Kolxoz faollaridan. Xolidaxon bilan... – Oliya koʻzini yerga tikib, qizarinqirab kuldi. – Klub boshligʻi... Fazilatxon opamlar... Kutubxona masalasida kelishibdi...

„Fazilat“ soʻzini eshitgan chol „yalt“ etib keliniga qara-di, qaradi-yu, uning allaqanday qimtinib turganini koʻrib, darhol koʻzini olib qochdi. Negadir oʻziyam toʻsatdan saro-simaga tushib:

– Kelishgan boʻlsa... juda yaxshi boʻpti-da! – dedi. – Marhamat, kirishsin!..

Ostonada birin-ketin ikki ayol paydo boʻldi. Domla di-vandagi kitoblarni yigʻishtirarkan, ayollarga zimdan koʻz tashladi. U bir daqiqagina qaradi, biroq shu bir daqiqa da-vomida koʻp narsani ilgʻab oldi. Kirganlardan biri qoracha-dan kelgan, xipcha bel, yoqimtoygina yosh juvon edi. U da-dil, kulib kirib keldi. Ikkinchisi, sochlariga oq oralagan boʻl-sa ham haliyam ancha koʻhlik, qorakoʻz, qalam qosh ayol, yumaloq yuzida allaqanday taraddud, boshini quyi solgani-cha, eshikdan kirgan joyda toʻxtab qoldi.

„Oʻsha, Fazilat. Axir uchrashdik. Hayot oʻzi uchrash-tirdi...“ – domla Shomurodov yuragi gurs-gurs urib, joyiga ohista oʻtirdi.

– Assalomu alaykum, Normurod Shomurodovich! – qo-rachadan kelgan yoqimtoy juvon ostonadan hatlab oʻtib, qoshiqdekkina mayin kaftini uzatdi. – Xolida Yusupova. Siz toʻgʻringizda koʻp eshitganman. Tanishganimdan mam-nunman...

Eshikda turgan Fazilatxon qanchalik jurʻatsiz, qanday-dir tashvishmand koʻrinsa, qorachadan kelgan bu nozik, yosh juvon shunchalik dadil, erkin, sergap edi.

– Rahmat, qizim, – dedi domla Shomurodov. U koʻz os-tidan Fazilatxonga yana bir qarab oldi. Ayol, rangida rang

yo‘q, hamon yerga tikilib turardi. Uning ostonada nochor bosh egib turishida iztirob aralash qandaydir cheksiz bir iltijo bor edi...

– Biz Fazilatxon opamlar bilan kitoblar masalasida keluvdik, – dedi Xolidaxon. – Fazilatxon opamlar bizda ham klub boshlig‘i, ham kutubxona mudiri bo‘lib ishlaydilar. Ijzat bersangiz, kitoblarni tartibga solardik...

– Ha, ha, – dedi domla Shomurodov. – Tartibga solmoq kerak!.. – U hamon „Fazilat“ so‘zi uyg‘otgan hayajonini yengib ololmas, hamon ayollarga tik qaray olmas edi. Sut bilan kirib, jon bilan chiquvchi mash‘um odat – birda undan ters, undan to‘ng kimsa yo‘q, birda undan jur‘atsiz, undan tortinchoq odam!

Yo tavba! Nima bo‘ldi unga? Nega dovdiraydi? Dovdirash emas, mushtini tugib o‘shqirib berishi kerak emasmi bu ayolga? Biroq... biroq uning yuzidagi bu sarosima, g‘amli ko‘zlaridagi bu unsiz iltijo...

– Yordam beradigan yoshlar bor, – dedi Xolidaxon. – Hamma ishni Fazilatxon opamlar o‘zlari tashkil qiladilar...

– Qizlar ham bor, – dedi Oliya. – Yordamlashib yuborishadi. Bu yoqqa o‘ting, Fazilatxon opa, o‘tiring...

– Ha, ha, marhamat! – dedi domla Shomurodov, – marhamat...

– Rahmat, otaxon... – Fazilat oqargan yuziga qon yugurib, kirgan joyidagi stulga omonatgina o‘tirdi.

– Biz yana bitta qaror qabul qildik, – Xolidaxon divanga o‘tirib, chaqnab turgan sho‘x ko‘zlari bilan domlaga tikildi. – Bir necha brigadalarda siz bilan uchrashuvlar o‘tkazishga ahd qildik...

Normurod Shomurodovning do‘ng peshanasidagi ajinlar qalinlashib, kirtaygan ko‘zlari qisildi.

– Qanaqa uchrashuv? Yozuvchi bo‘lmasam, san’atkor bo‘lmasam...

– Kamtarlik qilmang, Normurod Shomurodovich! – yayrab kuldi Xolidaxon. – Siz hech bir yozuvchidan kam emasiz, mashhur professorsiz. Qishlog‘imizning faxrisiz. Boshingizdan o‘tgan jangovar kurashlar har qanaqa kitobdan a‘lo!

Aftidan, bu yoqimtoy yosh juvon ko'plar bilan muomala qilib juda ustasi farang bo'lib ketgan, ibo va istihola degan tushunchalar, keksalardan iymanish kabi „qusurlar“ uning uchun tamom yot edi. Lekin Xolidaxonning gap-so'zlari, istiholadan yiroq bu dadilligi yosh juvon uchun shunchalik notabiiy ediki, domla Shomurodov ko'zini qayoqqa yashirishni bilmay qoldi.

– Mayli, mayli, – dedi domla negadir xijolat chekib. – Lekin, iltimos, dabdabasiz bo'lsin. Yaxshi emas...

– Hech qanaqa dabdaba bo'lmaydi. Xalq, xususan, yoshlar sizday olimlar bilan uchrashishni orzu qilishadi, Normurod Shomurodovich. Sizning suhbatangiz ular uchun ulkan bir maktab bo'ladi...

„Xuddi to'tiqushning o'zginasi. Hamma gapni yodlab olgan. Qayerdandir o'qib olgan...“ – domla Shomurodov Xolidaga qarashga tortinib, zimdan Fazilatga ko'z tashladi. Fazilat hamon boshini quyi solib, bir nuqtaga tikilib o'tirar, faqat yuzidagi, ko'zlaridagi haligi sarosima allaqanday chuqur bir o'ychanlik bilan almashgan edi.

Nogahon domlanning xayoliga:

„U nobakorni ko'rdimikin bu sho'rlik? – degan fikr keldi. – U nokas bu bechoraniyam qon qaqshatib, ikki farzandi bilan tashlab ketgan, deyishgandi-ku!“

„Sho'rlik“ so'zi negadir yana kampirning xatlarini esiga soldi-yu, ko'ngli bir xil bo'lib ketdi...

– Demak, kelishdik – dedi Xolidaxon. – Siz bugun ishga kirishaverasiz a, Fazilatxon opa?

– Mayli, qizlar kutib o'tirishibdi... – Fazilatxonning ovoziyam o'ziday aziyatli va osuda edi.

– Bo'pti bo'lmasa, Normurod Shomurodovich! – Xolidaxon o'rnidan turib, kichkina chiroyli kaftini uzatdi. – Uchrashuv vaqtini keyin xabar qilaman. Fazilatxon opalar aytadilar...

Ayollar chiqib ketishgach, domlanning esiga to'satdan uy to'g'risidagi gaplar tushdi: „Axir u bu uyda, birovdan tortib olingan bu hovlida turmoqchi emas edi-ku? Otaqo'zi bilan gaplashib, uni o'z egasiga qaytarib bermoqchi edi-ku!“ – domla kalovlanib o'rnidan turdi-yu, yana o'ylanib qoldi:

haqiqatan, aralash-quralash bo'lib yotgan kitoblarni tartibga solib, soha-sohalarga ajratib qo'yishning uy masalasiga nima dahli bor? – domla shu qarorga keldi-da, joyiga borib yotdi. Sal o'tmay, tashqarida qiqir-qiqir kulgi, so'ngra sho'x va mayin ovoz eshitildi:

– Mumkinmi, buvajon? – xonaga birinchi bo'lib Tohira kirdi. Egnida kaltagina guldor chit ko'ylak, oyog'ida ship-pak, kalta qirqilgan sochlari yelkalariga tushgan Tohira qushday yengil, xushchaqchaq, hozir qanot qoqib uchib ketadiganga o'xshardi. Tohiraning ketidan yana ikkita qiz kirdi, ularning biri notanish, lekin shaharlik bo'lsa kerak, juda sipo kiyingan. Ikkinchisi... sochlari baland qilib turmaklangan, katta-katta ma'yus ko'zlari porlab turgan bu qizni ko'rganida domla Shomurodovning yodiga lop etib... Oynisa tushdi... O'sha! Xuddi Oynisaning o'zginasi! E tavba! Odam bolasiyam o'z ajdodiga shunchalar o'xshaydimi?..

– Buvajon, biz hasharga keldik! – dedi Tohira va qo'ng'iroqdek tiniq ovozi bilan uyni yangratib kuldi. – Hasharchilarga qo'y so'yasizmi, buvajon?

Domla Shomurodov: „Qo'y tugul, ot so'ysam arziydi senlarga, opoq qizlarim“, degisi keldi, biroq shirin gapirib o'rganmagan odam, bunday deyishga iymandi.

Tohira eshikdan kirib kelgan Fazilatni ko'rib, qizarinqirab kuldi:

– Mana, xolamlar ham keldilar...

Fazilatning yuzida, xatti-harakatlarida hamon o'sha sarosima aralash bir jur'atsizlik bor edi. U domlaga bir qaradida, darhol ko'zini olib qochdi.

– Mana, hasharchi qizlarni opkeldim, ota... otaxon.

– „O'zini gunohkor sezyapti... Mening oldimda gunohkor...“ – domla nechundir yuragi uvushib, kitob javonlari tomon o'tdi, yuragiga quyilib kelgan alamli hislarni yashirish uchun shosha-pisha qilinadigan ishlarni tushuntira boshladi.

– Kitoblar aralash-quralash bo'lib ketgan. Ularni ajratish, tartibga solish uchun texnikaga oidlarini bir tomonga, falsafa va tarixga oidlarini bir tomonga, badiiy adabiyotni bir tomonga ajratish kerak. O'z navbatida, badiiy adabiyot-

ni ham bir necha guruhga bo'lish lozim: G'arb va jahon adabiyoti klassiklarini bir tomonga, rus klassiklarini bir tomonga, o'zbek va Sharq klassiklarining asarlarini bir tomonga...

Domla qilinadigan ishlarni tushuntirib berdi-da, o'zi ichkariga kirib ketdi. U ish boshida turgisi kelardi, lekin qizlarni, ayniqsa, Fazilatxon bilan uning ko'zlari ma'yus qizi juda iymonib qolganini his etdi. Go'yo ona-bola bu uyga kirishga ma'naviy huquqlari yo'g'-u hayot majbur etgani uchungina kirishgan...

Ha, juda chigal, shafqatsiz ishlar ko'p ekan bu olamda! Agar bundan bir necha yil avval, hatto bir necha oy muqaddam, kampirining vafotidan oldin, birov domlaga: „Shoshma, hali bu xotinga duch kelasan, gaplashasan, hatto unga rahm-shafqat qilasan“ desa, Normurod Shomurodov uni siltab tashlagan bo'lardi.

Domla o'g'limi dog'lab ketgan bu xotinga hech qachon ichi ilimasligiga amin edi. Mana endi ko'rishdियam, salomlashdियam, hatto qalbida unga nisbatan chuqur bir iztirob uyg'ondi. Hammasiga xat sabab, marhumaning xati, o'g'il-lari Jabborga yozgan chalasavod maktublari. Yo'q, gap xat-da emas: Bugun, boya jiyanining darvozasida ana u odam-ni, Jamol Bo'riboyevni ko'rganidan keyin, go'yo domlanning nigohini to'sib turgan allaqanday tuman tarqab ketdi-yu, yangi bir haqiqat namoyon bo'ldi. U o'g'lining hamma ko'r-giliklariga aybdor deb yurgan bu mungli ayol uning o'zi-ga o'xshagan bir jabrdiyda ekanini tushundi, har qalay, tushunganday bo'ldi. Faqat bir narsa yuragini hamon bezil-latib turibdi: „Agar o'sha mash'um voqealar sodir bo'lma-ganda, ehtimol bu qiz, g'amgin ko'zlari allaqanday porlab turgan bu ma'sum qiz, balki o'g'limdan, Jabbordan tug'ilar-midi, balki o'g'limdan qolgan aziz bir yodgorlik bo'larmi-di?“ – degan fikr domlanning ko'nglini hamon o'ksitmoqda, qalbida intihosiz bir armon uyg'otmoqda edi.

Qo'shni xonadan qizlarning kulgisi, goh-gohida Tohiraning:

– Bo'ldi endi, Latif! Avval bir chetga taxla, keyin o'qiy-san! – degan ovozi eshitalardi.

Domla darhol angladi – Tohiraning „Latif“, degani o'sha, shahlo ko'zli o'ychan qiz edi. Sal o'tmay yana Tohiraning:

– Buncha yopishib qolding bu kitobga! – degan xitobi eshitildi. – Shoshmay qo'ya qol! To'ydan keyin bu kitoblarning hammasi seniki bo'ladi.

Qizlarning sho'x qahqahasi uyni larzaga soldi, keyin Fazilatxonning koyingan tovushi keldi:

– Voy qizaloqlarim-ey, qizaloqlarim-ey! Otaxon eshitalar nima deyдилar?..

Tushga yaqin qizlar tanaffus qilishdi. Tushdan keyin esa qizlar bilan birga cho'pday ozg'in, zanjiday qop-qora, sal duduqroq bir odam salom berib kirib keldi...

Eshikdan: „Shogirdim Latofatxondan kutubxonangizning dovrug'ini eshitib, bir ko'ray deb keldim, domlajon!“ – deb kirib kelgan va o'zini Soqijon Obidov deb tanishtirgan bu odam Shomurodovga bir ko'rinishdayoq yoqib qoldi, chunki kutubxonasi haqida yaxshi so'z otaga moydek yoqardi. Keyin suhbat davomida uning kimligi va bu yerga nima maqsadda kelganini eshitib, domla battar ochilib ketdi.

Domla Shomurodov so'nggi yillarda, ayniqsa, nafaqaga chiqqanidan keyin, tabiat muammolariga ko'p qiziqqan, ko'p kitoblar yig'gan, hatto tabiatni muhofaza qilish, buloq va tog' chashmalari, parranda va darrandani e'zozlash to'g'risida bir nechta risolalar ham yozgan edi. Ayniqsa, Proxor bergan g'aroyib hujjat munosabati bilan archa to'g'risida kitobcha yoza boshlaganidan beri biolog olimni uchratib qolgudek bo'lsa, unga shappa yopishar edi. Dotsent Obidov bir zumda domlaga bir olam yangiliklarni gapirib berdi, u Mingbuloqni ko'rib, bir qoyil qolsa, bir u yerda boshlangan qurilishni ko'rib qattiq ranjibdi. Obidov ham xuddi Proxorga o'xshab, „tabiat o'zi yaratgan bu mo'jizani avaylab asrash“ to'g'risida kuyib-pishib gapirdi-yu, domlanning mehri battar tovlanib ketdi. Xullasi kalom, ikkovining o'ylari ham, dardlari ham bir joydan chiqdi-yu, suhbat oxirida ota bilan Soqijon Obidov shunchalik inoqlashib qolishdiki, dotsent shu bugunoq domla Shomurodovning uyiga ko'chib o'tadigan, tajribalarini tugatguncha birga tu-

radigan bo'ldi. Soqijon Obidov, kamoli xursand bo'lib ketganidan, Latofatni chaqirib, bo'lgan gapni unga gapirib berdi. Latofat sal iymaninqirab:

– Bobomlarga malol kelmasmikan? – deb so'ragan edi, domla Shomurodov:

– Yo'q, yo'q, malol kelmaydi, qizim, malol kelmaydi, – dedi. – Menday qariyagayam bir hamsuhbat kerak. Domlangiz juda ajoyib, juda oliyjanob inson ekan!

– Yo'g'-e!.. Juda maqtab yubordingiz, domlajon! – Obidov tirtiq labini himarib kuldi-da, Latofatni qo'ltiqlab, olma panasiga o'tdi. – Kechirasiz, domlajon, Latofatxonga aytadigan bir og'iz gapim bor...

– Xo'p, bo'lmasa men hozir osh buyuraman, – dedi domla Shomurodov. – Bugun men uchun katta bir bayram bo'ldi, inim. Siz bilan gaplashadigan gap ko'p hali.

– Yo'q, yo'q, ovora bo'lmang, bobojon, – Latofat olma tagidan o'girilib qaradi. – Bugun oyimlar sizga... atayin sizga deb osh damlayaptilar.

Shu payt darvoza tomonda Haydar ko'rindi. U shirakayf bo'lsa kerak, sochlari to'zg'igan, og'zi qulog'ida, alpong-talpong qadam bosib kelardi.

– E, buvajon, hamma qizlarni yig'ib olib, qayoqqa yashirib qo'ydingiz? – dedi u, dedi-yu, olma panasida turgan Soqijon Obidov bilan Latofatni ko'rib, labidan kulgi qochdi, ko'zlari birdan ola-kula bo'lib ketdi.

– Menga qara, hey? Nima, bu sening... bu sening jufti halolingmiki, qo'ltig'idan olib panaga tortasan?

Domla Shomurodov o'tirgan joyida toshday qotib qoldi. Latofat nimadir demoqchi bo'ldi-yu, deyolmadi, yuzini kaftlari orasiga yashirganicha, teskari burilib oldi. Soqijon Obidov esa, tirtiq lablari pirpirab:

– M-menga qarang, uka, – dedi.

– Qarab bo'ldim! Yetadi! – Haydar musht o'qталib unga tomon yurdi. – Bu yer sening Toshkenting emas, bunaqa taltayib yuradigan! Yo o'zingni tiy, yoki abjag'ingni chiqarib qo'yaman!..

– B-bilaman, zo'rsiz, k-kuyovto'ra!

– Sen kimni kalaka qilmoqchi bo'lasan, ablah? – Hay-

dar, ko'zlari qon talashib, shartta ko'ylagini yechdi-yu, bir chetga otib yubordi. Uydan yugurib chiqqan Tohira akasiga qarab otildi.

– Akajon!

– Nari tur, Tohir! Jonimga tegdi bu shilqim!

– Bas! – domla Shomurodov, nihoyat, hushini yig'ib, cho'qmorday mushti bilan yog'och karavotni qarsillatib urdi. – Nimalar deysan o'zi, ahmoq?

– Siz aralashmang mening ishimga! – Haydar g'azabi jo'sh urib, domlaga yuzlandi. – Bir marta chalib yiqitganingiz ham yetar! Yo yana oyogimdan olib, go'rga tiqmoqchimisiz meni, aziz tog'ajonim?..

– Akajon! – Tohira kafti bilan akasining og'zini bosmoqchi bo'ldi, biroq Haydar uni siltab tashlab, Soqijon Obidovga qaradi. – Siz darhol... shu bugun tuyog'ingizni shiqillating!..

– M-menga qarang, yaxshi yigit! Agar bu qishloqni sotib olgan bo'lsangiz ham...

– Sotib olganmanmi, yo'qmi, gap bitta! Bu qishloqda yo siz turasiz, yo men!

– Bolam! Bolajonim! – eshikdan kirgan Oliya opa ona tovuqday uchib kelib, o'g'lining bo'ynidan quchoqladi. – Bolaginam, senga nima bo'ldi, bolaginam?

– To'xtang, oyi, to'xtang! Siz bilmaysiz! Bu nokas, bu eski shilqim!..

Haydarning gapi og'zida qoldi. Uning so'zini Latofatning yig'i aralash: „Bo'ldi!“ – degan faryodi bo'ldi. U chiroyli ko'zlari allaqanday o't chaqnab oldinga talpindi.

– Yo hozir bu... bu iflos gaplaringizni bas qilasiz. Yo men... Yo men bir umr yuzingizga qaramayman!

– Latif! – dedi Haydar birdan bo'shashib. – Latif...

– Sizga aytadigan boshqa so'zim yo'q! – Latofat ko'z yoshlarini yuziga ishqaganicha, qoqina-surina darvozaga qarab yugurdi. Shu payt darvozada tovoq ko'targan Fazilat ko'rindi. Lekin Latofat to'xtamadi. Onasini turtganicha tashqariga otildi. Hovliga bir zum og'ir sukut cho'kdi, faqat Haydarning pishillab nafas olishi-yu, teskari burilib olgan Tohiraning piq-piq yig'isi eshitalardi...

Oliya, ko'zlarida yosh, bir olcha tagida bosh egib turgan dotsent Obidovga, bir zinaga o'tirib qolgan Normurod otaga, bir darvozaning ustuniga suyanib, serrayib turgan qudasi Fazilatxonga qaradi, so'ng yig'i aralash:

– Qudajon! – deb xitob qildi. – Domlajon!.. Tog'ajon! Hech kim eshitmadi bu gaplarni! Haydarjon aytmadi, hech kim eshitmadi! Tog'ajon, eshityapsizmi, tog'ajon?

Normurod Shomurodovdan sado chiqmadi. U katta, yaltiroq boshini qo'llari orasiga olib, sukut saqlardi.



Fazilat o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi: Latofat yana tunov kungiday ichkari uyga qamalib, eshikni qulflab oldi. Na yig'i-sig'i qildi, na ko'nglidagi alamlarini aytdi. Bundan ko'ra yig'lagani, ko'nglidagi dard-u hasratlarini aytib, yuragini bo'shatgani ming chandon yaxshi edi.

Yo tavba! Kap-katta yigit, olim odam, o'z qallig'ini ke-lib-kelib o'ttizdan oshib ketgan shu ko'rimsiz domlaga rashk qilib o'tirsa! Ichib kelib bezorilarday to's-to'polon ko'tarsa, el-yurt oldida ayyuhannos solib, to'y arafasida dilozorlik qilsa!

Yo'q, uyam emas, buyam emas, hammasiga sabab Otaqo'zi! Otaqo'zi Fazilatni ham, o'g'li Qodirjonni ham, qizi Latofatni ham odam qatorida ko'rmaydi. Tilida qudag'ay-qudag'ay desa ham dilida sariq chaqaga olmaydi. Xudo biladi, ehtimol, Fazilatga quda bo'lganidan or qilsa ham ajab emas. Qizi Tohira Qodirjon bilan topishib, o'g'li Haydar Latofatni yaxshi ko'rib qolganidan keyin noilojlikdan quda bo'lyapti! Uning Jamol Bo'riboyev bilan og'iz-burun o'pishib qolishining bir sababi ham shu... Demoqchiki, asl qudam sen emas, asl qudam sobiq vazir o'rinbosari Bo'riboyev bo'ladi!

Uning Bo'riboyevni boshiga ko'tarib yurishi, tog'larga olib chiqib mehmon qilishining sababi ham shu. Kecha tog'dan qaytganlaridan keyin qo'y so'yib, mashshoqlar chaqirtirib bog'ida saharmardongacha bazm-u jamshid qurdi, Fazilat bo'lsa, uyda o'tmishini eslab, yostiq tishlab, yig'lab chiqdi.

Rost, o'g'li Qodirjon, umri uzoq bo'lsin ishqilib, otasining yonidan jilmay, birga kayf-safo qildi, ertalab Haydar bilan birga u kishini kuzatgani ketgan edi, qaytib kelmadi. Biroq Latofat... Latofat ham Fazilatga o'xshab kechasi bilan mija qoqmay to'lg'anib chiqdi. Qizi buni bildirmaslikka harakat qildi. Azaldan shunday, u o'z yog'ida o'zi qovurilsa qovuriladiki, dardini birovga ayta qolmaydi. Shunday bo'lsa ham bu safar Fazilat sezdi, qizining uxlay olmaganidan, chiroqni bir o'chirib, bir yoqib, tong otguncha yurib chiqqanidan bildi. Bo'lg'usi qaynatasining bog'idan eshitilayotgan mastona qiyqiriqlar „Qoyil, Jamol Bo'riboyevich! Qoyil!“ – degan xitoblar yolg'iz Fazilatni emas, qizining yuragini ham qiymalab tashladi.

Endi, tunov kungi suhbatdan keyin, Fazilat qizining ko'nglini biladi. Qizi nimaga to'lg'anayotganini, nimaga ezilayotganini biladi. Latofat, boshi toshdan bo'lsin ishqilib, aql-farosati joyida. U endi Haydarga yo'q deyolmasligini biladi. Yo'q, desa faqat oyisi emas, akasining baxtiga ham zomin bo'lishiga aqli yetadi, aqli yetgani uchun ham alamini ichiga yutadi. Lekin qizining indamay iztirob chekishi Fazilatni uvvos tortib yig'lagandan ham qattiqroq ezadi. Voy, tavba, Otaqo'ziga nima bo'ldi o'zi? Axir nahot Fazilat bilan qizining yo'q, deyolmasligini bilgani uchun shunchalik xor qilsa ularni? Yo'qsa... Fazilatni qon qaqshatib, yer bilan barobar qilib ketgan bu odamni ko'klarga ko'tarmidi? U ham mayli, aqalli bu sho'rlik cholni, Normurod otani o'ylasa bo'lmaydimi Otaqo'zi?

Fazilat domlani motam kuni ko'rib, yuragi zirqirab ketgandi. O'shanda uning ko'z oldiga negadir urushdan oldingi Normurod Shomurodov kelgandi. U mahallarda domlanning vajohatida ulkan donishmandlarga xos, kishini o'ziga rom qiluvchi sehrli bir kuch, qandaydir shuur, shijoat bo'lardi. Bugun yaqindan ko'rib, ko'ngli yana vayron bo'ldi. U ko'zlari kirtayib, munkayib qolgan kichkinagina bir cholni ko'rdi.

Bugun u hammasini sezib-bilib turdi, domla dastlab uni ko'rganda kirtaygan ko'zlarida nafrat bo'lmasa ham shunga o'xshash bir ifoda zohir bo'ldi. Chol uni sira kutmagan

bo'lsa kerak, allaqanday sarosimaga tushib, dovdirab qoldi. Keyin... keyin nechukdir yumshadi, ko'zlaridagi qahr osuda bir o'ychanlik bilan almashdi. Tushdan keyin, duduq domla kirgandan keyin esa, hatto bir-ikki og'iz gapirdiyam...

Ha, haliyam bo'lsa, insof bor ekan bu bechora cholda. Uning o'rnida Fazilat bo'lganda... o'sha qabih voqealardan keyin qo'lga tayoq olib uyidan haydab chiqarardi. Axir bu chol o'rtada nimalar bo'lganini qayoqdan bilsin? Bo'lgan voqealarni eshitgan bo'lsa odamlarning og'zidan eshitgan-dir, odamlar esa nimalar demaydi?

Fazilat, yuragi siqilib, o'rnidan turdi, xuddi keng hovli torlik qilayotganday tuyulib, boshiga ro'molini tashladi-da, oyoq uchida yurib ko'chaga chiqdi...

Tun yarmidan oshgan. Ko'chada tirik bir jon ko'rinmas, hamma yoq jimjit, faqat ahyon-ahyonda, olis-yaqinda it-larning akillashi eshitar, ko'cha yuzidagi terak yaproqlari-ning mayin shitirlashi-yu, ariq suvining jildirashi quloqqa chalinardi...

Uylarda chiroqlar o'chgan, faqat ko'chaning u yuzidagi, Fazilatning uyidan sal chaproqdagi domlanning uyida bitta deraza yorug' edi. Ehtimol, ota duduq domla bilan suhbat qurayotgandir, ehtimol, boyagi gaplardan keyin uyqusi qo-chib, bedor o'tirgandir?

Fazilat qandaydir ichki bir tuyg'uga bo'ysunib, bir-bir bosib ko'chaning narigi yuziga o'tdi, so'ng daraxtlarni panalab, yorug' derazaga yaqinlashdi.

Deraza ochiq, domla, oldida qalin kitob, katta yozuv stoliga tirsaklarini tirab, ko'chaga, qorong'i bo'shliqqa tikilib o'tirar, biroq, aftidan, hech narsani ko'rmas, u ma'yus xayol og'ushida edi.

Shundoq ro'parada to'xtagan Fazilat, deraza oldidagi mirzaterakni quchoqlaganicha, jimgina qotib qoldi.

Stoldagi ko'chma chiroq shu'lasida domlanning keng yuzi, bodringday katta burni, kirtaygan ko'zlari tegrasida-gi har bir ajin, har bir chiziq aniq ko'rinib turardi. Uning munkayib qolgan qad-qomatigina emas, hatto bir mahallar odamlarni hayratga soluvchi xumdek katta boshi, butun g'amgin qiyofasi shunday horg'in, shunday ojiz tuyuldiki,

Fazilat, yig'i aralash; „Otajonim-ey!“ – deb yuborganini o'ziyam bilmay qoldi.

Domla o'tirgan joyida bir sapchib tushdi, kirtaygan ko'zlarini katta ochib:

– Bu kim? – deb so'radi.

– Bu men, otajon... Fazilat...

– Fazilat? – dedi domla stoldagi ko'chma chiroqni chetga surib. – Qaysi Fazilat?

– O'sha, o'zingiz bilgan... – Fazilat so'z topolmay du-duqlanib qoldi. U: „O'sha, o'zingiz bilgan baxti qaro Fazilat“, demoqchi edi, biroq uning o'rniga to'satdan o'zini tutolmay ho'ngrab yubordi. Cholning yalpoq, suyakdor yuzida taajjub aralash sarosima aks etdi.

– A, Fazilat? – dedi u qorong'ida hech narsa ko'rmagan ko'zlari pirlirib. – Ha, ha, Fazilat... Nima bo'ldi? Nima qil-di? Yana chiqdimi u tentak?

Fazilat javob bermadi. U ko'z yoshini tiyishga urinib, o'zi bilan o'zi olishar, biroq o'pkasini bosolmas edi.

Domla Shomurodov qo'llarini stolga tirab, butun gavadasi bilan oldinga egildi. U terakni quchoqlab yig'lab turgan ayolni endigina ko'rdi shekilli, qovog'ini uyib:

– Nima gap o'zi? Tinchlikmi? – deb so'radi.

– Tinchlik... – Fazilat ro'molining uchi bilan ko'z yoshlarini artdi. – Men... meni kechiring, ota, kechiring! – dedi u va o'pkasi to'lib, yana ho'ngrab yubordi.

Domla Shomurodov, go'yo teran bir gapning mag'zini chaqayotgan odamday, ko'zlarini zim-ziyo bo'shliqqa qadaganicha bir zum qotib turdi, uning yalpoq, dag'al yuzidagi qat'iyat taraddud bilan, taraddud allaqanday iztirob bilan almashdi.

– Qizim! – dedi u oldidagi kitobni yopib. – Sizga nima bo'ldi, qizim? Qani bu yoqqa kiring-chi! Eshik ochiq. Marhamat...

Fazilat, yuragiga yopirilib kelgan hislar to'liqini sal chekinishi bilan uyat va pushaymondan qayoqqa qochishini bilmay qoldi, ayni zamonda cholning og'zidan chiqqan „qizim“, degan bir og'iz so'z ko'nglidagi muzni eritib, uni go'yo bemajol qilib qo'ydi.

Ko'chaga qaragan darvozaning yon eshigi ochilib, qorong'ida timirskilangan domla ko'rindi.

– Qayoqqasiz, Fazilatxon? Qani, bu yoqqa keling, uyga kiring.

Fazilat ro'molining uchi bilan labini bosib itoatkorlik bilan domlaning orqasidan yurdi. Chol hamon qalashib yotgan kitoblarga qoqilib-suqilib o'z xonasiga kirdi:

– Qani, marhamat, marhamat...

Fazilat eshikdan kirgan joydagi stulga omonatgina o'tirib, ro'moli bilan og'zini to'sdi.

Uydagi nosarishtalik, domlaning qandaydir ayanchli ko'rinishi ko'nglini yana eritib, tomog'ini g'ip bo'g'ib oldi.

– Nima bo'ldi o'zi? Tag'in chiqdimi u tentak?

– Yo'q...

Domlaning o'siq oppoq qoshlari bir-biriga tutashdi, yuzida yana eski, kibor ifoda paydo bo'ldi. Fazilat shu bir-ikki daqiqa ichida cholda qandaydir o'zgarish ro'y berganini, domla uni chaqirib kirganidan pushaymon bo'layotganini payqadi.

– Qorong'ida derazam tagida yig'lab turibsiz... Meni kechiring, deysiz... – dedi domla. – Agar eski gaplarni qo'zg'amoqchi bo'lsangiz... o'tgan ishga salavot. Men sizga bir nima dedimmi?

– Yo'q, yo'q, demadingiz, demadingiz! Men sizdan toabad minnatdorman...

Domla Shomurodov, go'yo yomon bir so'z eshitganday, yuzini burushtirdi.

– Mayli, qo'ying bu gapni? Agar boshqa arzingiz bo'lsa...

– Yo'-yo'q, arzim yo'q! – dedi Fazilat allaqanday yolvorib. – Shunchaki... to'lib ketganimdan qayoqqa borishimni bilmay tentirab yuruvdim. Qarasam chirog'ingiz yonib turibdi. Sizni ko'rdim-u... men sizning oldingizda...

– Qo'ying, qizim, – dedi Normurod Shomurodov, biroq bu safar uning ovozida qandaydir ishonchsizlik sezildi.

– Sizning oldingizda, – dedi Fazilat iltijo bilan. – Marhum oyimlarning oldida, o'g'lingiz Jabborning oldida toabad gunohkorman...

Domla yalpoq kaftlarini musht qilib tugdi. U: „Bas, keragi yo‘q!“ – deb baqirib yubormoqchi edi, lekin yana kampirning xati esiga tushdi-yu, musht bo‘lib tugilgan bar-moqlari asta yozildi.

– Mayli, qizim eski yarani qo‘zg‘ab o‘zingizniyam, me-niyam qiynamang. O‘tgan ishga salavot. Men o‘zimni sut-day oq, sizni qora deyishga haqqim yo‘q!

Domla Shomurodovning esiga nogahon o‘z hovlisida, ariq bo‘yida rayhon o‘tab o‘tirgan kampiri tushdi. Ayaning dardli nigohi, uning g‘azabli o‘shqirig‘idan „shilq“ etib beozorgina yiqilib tushgani ko‘z oldiga keldi-yu, katta boshini ushlab, bu-tun gavdasi bilan silkinib „piq-piq“ yig‘lab yubordi...

Fazilat keksalar tugul, urush yillari ayiqday o‘kirib yig‘lagan yigitlarni ham ko‘rgan. Biroq domlanning hozir-gi yig‘isi... Bir mahallar salobatidan hamma hayiqadigan bu mag‘rur cholning yig‘isi yosh bolaning yig‘isiday beo-zor, kishining ko‘nglini vayron qilgudek ayanchli edi. Fa-zilat munkayib qolgan bu cholning oyoqlariga yiqilib, yali-nib-yolvorgisi, ko‘nglidagi hamma afsus-nadomatlarini bir yo‘la to‘kkisi keldi. Lekin domla, tiyqusdan hushyor tortgan odamday, shosha-pisha o‘rnidan turib, qoziqdagi sochiqqa yuz-ko‘zlarini artди, jo‘rttaga qattiq yo‘talib:

– Mayli, qizim, – dedi. – Bu gaplardan foyda yo‘q!

– Bilaman, otajon, so‘nggi pushaymon, o‘zingga dush-man. Bilaman. Shunchaki... Siz nimalar bo‘lganini bilsan-giz edi!..

– Qo‘ying, bolam. U mash‘um, kunlarni eslab o‘tirmay-lik. Men hammasini bilaman.

– Yo‘q, bilmaysiz, otajon. Bilmaysiz! – Fazilatning yura-gidan otilib chiqqan bu faryod, „Bas qiling bu mashmasha-ni!“ demoqchi bo‘lgan domlanning tilini yana bog‘ladi. Chol ko‘p yillardan beri hazar qilib yurgan bu ayolning dardini, uning dilida qat-qat bo‘lib yotgan armonlarni faqat endi tushunganday bo‘ldi. Ha, yuzini ro‘mol bilan to‘sib, unsiz-gina yig‘layotgan bu mushtipar ayolning ichi birovga ay-tolmaydigan g‘am-g‘ussaga to‘la, hamma dard-u hasratlari ichida edi. Domla hozir uni „qizim“, deb yupatgisi, oqargan sochlaridan silab, taskin-u tasalli bergisi kelar, ammo bun-

ga jur'at etolmas, ko'z yoshi orasidan unga ma'yus tikilib o'tirarkan, yana hayot haqida, uning shafqatsiz qonunlari to'g'risida xayol surardi...

Fazilat, nihoyat, o'pkasini bosib, ko'zini artidi.

– Kechiring, otajon. Eski gaplarni qo'zg'ab, ko'nglingizga ozor berdim shekilli. Men bu gaplarni qo'zg'amoqchi emas edim, shunchaki, qudam, jiyaningizning qilgan qiliqlari...

– Qaysi qiliqlarini aytasiz?..

– Qaysi birini aytay, otajon? O'sha odam... o'sha odamning shuncha nopok ishlari, shuncha xiyonatlaridan keyin... jiyaningizning izzat-ikromlari, u kishini bosh quda qilib, osmonga ko'tarishlari! Nahot bu ishlari menga og'ir tegishini bilmasalar? Axir men ham, biz ham odammiz-ku, otajon?

Normurod Shomurodov chakkalaridagi ukparday mayin, oppoq soch tolalarini silab sukut saqlardi. Ko'nglida: „O, qizim, qizim! – dedi o'ksib, – u faqat seni emas, o'z tog'asini ham odam deyayotgani yo'q. Bu ish o'z tog'asining ham yuragini qon qilishini o'ylayotgani yo'q! Nachora, bolam?“

– O'g'li... bo'lg'usi kuyovimiz ko'rsatgan o'yinlarni aytmay qo'ya qolay. Bir chetini o'zingiz ko'rdingiz.

Domla: „Ha, ko'rdim“, degandek, boshini qimirlatdi. U: „Siz ham eshitdingiz-ku, menga aytgan gaplarini!“ – demoqchi edi, biroq buning o'rniga:

– Men sizdan bir narsani so'ramoqchi edim, bolam, – dedi. – Qizingiz... qizingizning ko'ngli bormi o'zi?

Fazilat sekin „uf“ tortdi.

– Qizim bechora nima ham derdi? Shunchaki... ko'ngil o'lgur ham yaxshi so'z, yaxshi muomalaga qarar ekan-da, otaxon. Bular bizni odam desa bo'ladi-da, ko'ngil! Jiyanlaringiz bilishadi: qizim hech qayoqqa ketolmaydi. Bilishgani uchun odam qatoriga ham qo'shishmaydi!

Domladan sado chiqmadi, u o'z o'ylari bilan band edi.

Nazarida, so'nggi paytlarda eshitgan gaplari bilan bu mush-tipar ayolning arz-holi orasida hech bir farq yo'qday, bu ho-disalarning hammasi chambarchas bog'liqday tuyuldi unga.

„Nima bo'lyapti o'zi? Bu tentak Otaqo'zi nima qilyap-ti? Nega bunchalik hovliqib ketdi? Axir chinakam insofsiz-lik-ku, bu!“

Domlanning sukutini boshqacha tushungan Fazilat:

– Siz mabodo o'ylamang, – dedi bezovtalanib, – qi-zim bir nima deyayotgani yo'q. Hech nima demaydi, qizim sho'rlik.

„Ha, qo'rqitib opti bu bechorani! Juda qo'rqitib opti! Hammani oyoqosti qilib, nima qilmoqchi, bu nobakor?“

Domla Shomurodov quloqlarining tegrasini o'rab olgan oppoq, mayin sochlarini silab o'rnidan turdi.

– Men nima ham deyman, bolam? Har qalay, Otaqo'zi bilan bir gaplashib ko'raman...

Fazilat ham o'rnidan turdi, ro'molining uchini yelkasiga tashlarkan:

– Mayli, shu so'zingizgayam rahmat, – dedi. – Yuragimda zil bo'lib yotgan armonlarimni aytib, yengil tortdim, otajon...

Domla Fazilatni darvozagacha kuzatib chiqdi. Tong yaqinlashib qolgan bo'lsa kerak, itlarning hurishiga eshak-larning hangrashi qo'shilgan, devor kovaklarida sahroda-giday chigirtkalar chirqillar, to'g'onda baqalar qurullar, uzoqdan tegirmon novidan quyilgan suvning sokin shovul-lashi eshitalardi. Borliq, faqat qishloqda bo'ladigan, kishi-ning ruhini allalovchi sal ma'yus va osuda jimlikka cho'm-gan, go'yo butun tabiat, daraxt yaproqlaridan tortib, ko'kni to'ldirgan tiniq, oppoq yulduzlargacha shu osuda sukutni avaylab asramoqda edi... Olamni chulg'ab olgan bu sukut, ko'kni to'ldirgan yulduzlarning ma'yus shu'lasi, chirigan olma, gul va rayhon hidiga to'la havo otaning qalbidagi to'fonni ohista bosganday, muloyim qo'llari bilan asabla-rini sekin silaganday bo'ldi. Ajabo, bu baxti qaro ayolning favqulodda kirib kelishi, uning ko'z yoshlari domlanning ham yuragida ko'p yillardan beri zil bo'lib yotgan bir muzni eritgan, uning ham ko'nglini yumshatgan edi.

Domla bir-bir bosib uyning eshigigacha bordi. U kirib yotmoqchi edi, biroq xuddi shu payt qo'shni hovlida yugurishgan odamlarning dupur-dupur qadami, daraxt shoxining charsillab singani, yerga duv to'kilgan olmalarning tapir-tupuri eshitildi. So'ngra ayol kishining yurakni zirqiratuvcchi zorli ovozi keldi:

– Voy, bolajonim-ey! Senga nima bo'ldi, bolajonim-ey!

Domla Shomurodov Oliyaning tovushini tanib, turgan joyida qotib qoldi. Oliyaning gapini Haydarning bo'g'iq nidosi bo'ldi:

– Qo'ying, oyijon. Siz bilmaysiz. Hech nimani bilmaysiz, oyijon!

– Bilsang... qo'ya qol shu qizni! Husniyam bor bo'lsin uning, bolajonim! O'zingga yarasha birovni toparsan axir. Adoyi tamom bo'lding-ku, toychoq'im!


– Yo'q, oyijon! O'lganim yaxshi bu yurganimdan. O'lganim!

– Nimalar deyapsan, bolaginam? Bo'yginangdan onaginang o'rgilsin... O'rningdan tur. Yurakkinamni qon qilding-ku, qulunim. Yura qol, endi.

Haydar bir nima deb so'kindi, yig'ladi. Oliya yana yalilib-yolvordi, bir nimalarni shivirlab, iltijo qildi, so'ng uzoqlashayotgan oyoq tovushlari eshitildi.

Normurod Shomurodov eshik dastasini ushlagancha uzoq turdi, uning fikrlari yana to'zg'ib ketgan edi.

Yettinchi bob



Oliya Haydarni bazo'r yupatib, aldab-suldab arang yotqizdi. Biroq a'zoyi badani zirqirab og'risa ham ko'ziga uyqu kelavermadi. O'g'li Haydarning oxirgi marta qachon yig'lagani Oliyaning esidayam yo'q. Go'daklik paytida ko'krak so'rab yig'lardi. Esida bor. Shundan keyin uning yig'lashini birinchi ko'rishi, allaqachon er yetgan, peshanasidan o'ptirishga ham tortinadigan farzandining yig'isini ko'rish, sababini tushunib bo'lmaydigan dardlarini eshitish

qiyin ekan onaga! Rost, u qayerdandir ichib keldi, mastlik – rostlik degandek, ichkilik sabab, bir nimalarni aytib, hasrat qildi. Uning gaplarini ilg'ab olish qiyin edi. Biroq Oliya yolg'iz onalarga xos nozik tuyg'u bilan farzandi boshida allaqanday qora soyalar aylanib yurganini, nafaqat farzandi, butun oilasi tepasida qandaydir bir notinchlik hokim ekanini sezyapti. O'g'lining ilmiy ishda pand yeyishi, bechora ayaning nogahoniy o'limi, o'g'li bilan bo'lg'usi kelini o'rtasidagi kishi tushunib bo'lmaydigan nizo, eri atrofidagi sovuq sharpa, mayda, biroq kishini cho'chitadigan gaplar – bularning hammasi qora bulutday quyuqlashib boryapti!

Bir mahallar bunday paytlarda Oliya ko'nglidagi bor hasratini eriga to'kar, Otaqo'zi ham uning so'zlariga e'tibor bilan quloq solar, er-xotin tong otguncha suhbatlashib, dardlashib chiqishar, bu suhbatlardan qalblaridagi hamma g'ubor tarqab, dillari oftob chiqqanday yorishib ketardi. Oliya institutni bitirib, o'qituvchi bo'lib kelganida, Otaqo'zi maktab direktori bo'lib ishlardi. Rayondagi eng yosh, eng uddaburon direktorlardan hisoblanardi. Lekin direktorman, deb o'zini hech qachon boshqalardan yuqori tutmas, nima qilmasin, xoh dars bersin, xoh qurilish bilan shug'ullansin, xoh maktab bog'ini kengaytirib, yangi nihollar o'tqazsin, hammasiga jon-jahdi bilan kirishar, butun qalbi, butun vujudi bilan berilib ishlardi. Ishchilar bilan birga g'isht tashib, loy qorib ketaverar, shu boisdan boshqalar ham bir chetda tomoshabin bo'lib turolmas, hamma baravar ishlar, ammo hech kim undan nolimas, aksincha, hamma uni shu odatlari, g'ayrati, jonkuyarligi uchun yaxshi ko'rardi. Raislikka saylanganda ham dastlabki paytlarda bu odatini tark etmadi. Ish deb, kolxoz deb, bir-ikki oydayoq cho'pday ozib, soch-soqollari o'sib, zangiday qorayib ketdi. U haftalab, hatto ba'zan oylab uyga kelmaydigan, umri dalada, tog'larda, dala-dashtlarda o'tadigan bo'ldi. Lekin haftalab yo'q bo'lib ketganidan keyin, soch-soqollari o'sib, ozib-to'zib uyga kelgan mahalda undan mehribon, undan quvnoq, undan baxtiyor odam bo'lmas, xuddi yosh boladay o'z farzandlari bilan quvlashib o'ynar, jinniliklar qilar, arzimagannarsalargayam bog'ni boshiga ko'tarib kulgani kulkan

edi. Kechalari bir uxlab turgandan keyin esa, Oliyani ham uyg'otib, tong otguncha o'z ishlaridan gapirar, undan hech narsani sir tutmas edi.

Ha, u paytlarda tamom boshqa edi Otaqo'zi. Hozirgiday dovrug'i zo'r bo'lmasa ham qandaydir juda baxtiyor edi. Erining bu baxtini ko'rgan Oliya ham ko'ngli tinch, dili ravshan edi.

Ba'zan Otaqo'zi allamahalda kirib kelib:

– Oliya! – derdi. – Tur, kiyin. Bir joyga borib kelamiz.

– Bemahalda kimning ko'zi uchib turibdi ekan bizga?

– E-e, azizim, falonchi bor-ku, suvchi yigit, taniysan!

Boya ertalab xafa qilib qo'ydim o'shani! Nohaq xafa qildim! Borib uzr so'rab kelamiz...

– Siz xafa qilasiz-u, men...

– E, gap bor-da, xonim. Yaqinda uylangan u! Juft-juft bo'lib, birpas otamlashsak, ko'nglidan chiqib ketadi. Yarim-tang bormi? Yana nimang bor? Ol boringni! Ketdik, jonginam!

Bunday paytlarda Oliya oldinroq borib uy bekasi bilan gaplashar, Otaqo'zi ham ko'p pisib turmas, uzr so'rashga iymanmas, keyin juda g'alati, juda samimiy o'tirish bo'lar, egilgan boshni qilich kesmas, deganlaridek, ikkala tomon ham bir-biridan mamnun, apoq-chapoq bo'lib tarqalishardi.

To'y va ma'rakalarga kiritgan yangiliklari-chi? U eng baobro' qariyalardan „Oqsoqollar kengashi“ni tuzib, ma'rakalarda araq-sharobni man qilgan, „ichmay kayf qilish“, degan gap topgan, to'ylarda dasturxonga faqat mineral suv qo'ydirtirar, Oliya bilan birga borib, o'zi to'yboshi bo'lar, mineral suvdan bir piyolasini „otib“ olib, „kayf“ qilardi-yu, davraga tushib qiziqchiliklar qilar, Oliyadan boshlab, hamma qiz-juvonlarni raqsga tortar, buni ko'rganda boshqalar ham „ichmay mast bo'lar“, o'yin-kulgi rosa avjiga chiqardi. Bunday ma'rakalardan keyin qariyalar ko'zlariga yosh olib, er-xotinga boqiy umr tilashar, „Baxtimizga omon bo'linglar!“ – deb duo qilishardi.

O'limda, ta'zionalarda esa Otaqo'zi belini bog'lab, tik turib xizmat qilar, boshiga musibat tushgan oilaga qo'li-

dan kelgan hamma yordamini berar, u paytlarda odamlar Otaqo'zini tilga olganda doim: „Ko'z tegmasin ishqilib“, deb qo'shib qo'yishardi. Maktab o'qituvchilari davrasida, marosimlarda bo'ladigan bu gaplarni eshitganda Oliya beixtiyor ko'ziga yosh olar, kechalari uyg'onib ketib, yonida uxlab yotgan erining ham tanish, ham allaqanday notanish, soqol bosgan shiddatli yuzidan o'pib, peshanasini silarkan, ichida:

„Aytganlari kelsin. Ko'z tegmasin ishqilib“, deb ko'kka tavallo qilardi. Biroq uni avaylashga qancha urinmasin, bari bir „ko'z tegdi“. Otaqo'zidagi bu o'zgarish birdan bo'lgani yo'q. Birdan bo'lmas ekan bu narsalar. Kishi yoshligi qachon o'tib, qachon qarilikka yuz tutganini sezmay qolgandek, Oliya ham bu o'zgarishlar qachon sodir bo'lganini yaxshi bilmay qoldi. Bilganda-ku, olishar edi. Kurashar edi. Pand yeb bo'lsa ham yo'lga solishga urinar edi erini. Yo'q, Oliya o'zini o'zi aldayapti! U sezgan edi. Ozgina bo'lsa ham sezgan edi.

Dastlabki kolxozni ko'targanida sirayam o'zgarmagan edi Otaqo'zi. Biroq birinchi kolxozni ko'targandan keyin ikkinchisini qo'shib berishdi. O'shanda unda qandaydir qat'iyat, g'urur, yurganda ko'krak kerib, qirg'iy qarash qilib yurish odatlari chiqdi. Yana bir-ikki yildan keyin uchinchi kolxozni qo'shib berishdi. Salkam besh ming kishi yashaydigan ulkan qishloq bitta xo'jalikka uyushdi. Otaqo'zi esa bu hadsiz kolxozning yakka-yu yolg'iz rahnamosi bo'ldi.

Uch kolxoz birlashib, qaddini rostlab olgandan keyin Otaqo'zi buldozer va skreperlar olib kelib, eski qishloqni tag-tugi bilan sidirib tashlab, yangi qishloq qurishga kirishdi. Bu qishloq bo'y cho'zib, qurilish avj olishi bilan gazetalarda uning suratlari chiqa boshladi, markaziy matbuotda u haqda maqolalar bosildi, radio va televizorchilar yopirilib keldi... Hamma gap shundan boshlandi shekilli... U hamon to'y va ma'rakalarda bo'lar, aza va ta'zionalarni kanda qilmas, faqat endi eng baobro', eng „kerakli“ odamlariga borardi. Biroq buning uchun undan gina qilish ham noo'rin, qishloq juda kattayib ketgandi.

U hamon dam olish nimaligini bilmas, na o'ziga, na

Oliyaga orom berar, lekin ilgarigiday kechalari uyg'onib, dard-hasratlarini xotiniga aytmas, amlari bilan, xatolari bilan o'rtoqlashmas edi... Lekin bu narsa Oliyani ko'p ham cho'chitmas, chunki eri endi yosh bola emas, katta tajriba orttirgan, ishbilarmon, uddaburon rahbar hisoblanardi. Faqat bora-bora uncha-muncha odamni, hatto rayon kattalarini ham mensimay qo'rganidagina, to'g'rirog'i, shu haqdagi shivir-shivirlar qulog'iga chalingandagina bir marta eriga bu gaplarning uchini chiqardi. Biroq Otaqo'zi uning gapiga:

– Kerak bo'lsa bergan toj-taxtlarini olishar! O'zim ham qanday qutulishni bilmay yuribman bu g'alvadan! – deb qo'l siltab qo'ya qoldi.

So'nggi yillarda, ayniqsa, uzoq yili Sarsonqum cho'li-da katta yer o'zlashtirishga kirishganidan beri Otaqo'zining obro'si yana ham ko'tarilib ketdi. Obkomga a'zo, oblastga deputat bo'ldi, hatto qahramon bo'ladi, degan gaplar ham tarqadi. Biroq nimadir bo'lib, bu gap ro'yobga chiqmadi. Otaqo'zi anchagacha qattiq xafa bo'lib, bir-ikki hafta ichib yurdi.

Mayli, qahramon bo'lmasa bo'lmas. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar. Boshi toshdan bo'lsin ishqilib. Oliyani faqat bir narsa cho'chitadi: eri shuncha ish qildi, obro'siga obro' qo'shildi, haliyam kecha-yu kunduz tinib-tinchi-maydi, biroq ilgarigi yaxshi tilaklarni, uning yuragini „shig“ ettirguvchi: „Baxtimizga omon bo'lsin, ishqilib“, degan yaxshi duolarni kam eshitadi. Oliya buni bir eridan ko'rsa, bir odamlardan ko'radi. Axir eri bechora salkam yigirma yil bo'ptiki, bir kun orom nima bilmasa, shu kolxozni deb, shu qishloqni obod qilaman deb, umri o'tib ketayotgan bo'lsa-yu, odamlar uning qittakkina erkalgini ko'tarmasa, salgina qaysarligini kechirmasa!..

Bu yoqda Haydarjon bo'lsa... bu ahvolda. Qizlari To'hira bo'lsa Fazilatning o'g'li bilan topishib, ikkiqat bo'lib keldi. Otaqo'zi bundan bexabar, biroq Oliya biladi, bilgani uchun alami ichida... Oliya bu gapni eshitgan kunlari o'zini qo'yishga joy topolmagan edi, biroq tug'gan farzandining bo'lsa nachora? Kishi o'z barmog'ini o'zi tishlay olmas

ekan... Ha, Oliyaning hadiksirashi bejiz emas oilasi tevaragida qandaydir qora ko'lankalar aylanib qoldi! Eri bo'lsa hech narsani pisand qilmaydi. Ilgarigiday parvoyi falak!

Oliya ko'zi ilindimi, yo'qmi – bilmay qoldi. Erining ovozi qulog'iga kirganday bo'lib, ko'zini ochdi.

Tong otgan, hovlining etagidagi terak uchlari yaltillab ketgan, biroq bo'yi past shaftolilar, olmalar hali soyada edi.

Eri, qovog'i soliq, ayvonning shundoq yonida, motor o'rnatilgan quduq bo'yida Tohira bilan gaplashib turardi. Oliyaning uyg'onganini ko'rgan Otaqo'zi qizining gapini bo'lib, ayvonga chiqdi, hamon qovog'idan qor yog'ilib:

– Bu yoqqa qara! – dedi-da, polni g'arch-g'urch bosib uyga kirib ketdi. – Xo'sh? – dedi u, Oliya eshikda ko'rinishi bilan. – Men yo'g'imda... nima mashmasha bo'ldi bu yerda?

– Qizingiz aytib bergandir nima bo'lganini?

– Aytdi! Otaqo'zining mo'ylovi qahr bilan dikkaydi. – O'g'il bola emas, latta tug'ib beribsan menga! Bor, chaqir!

Oliya kechasi bilan o'ylab chiqqan o'ylari esiga tushib, sekin xo'rsindi.

– Sizga nima bo'ldi o'zi, xo'jayin?

– Menga-ku, hech nima bo'lgani yo'q...

– Eshikdan qilichingizni qayrab kirasiz-u, tag'in hech nima bo'lgani yo'q, deysiz! Siz o'sha... sobiq vazir o'rinbosarini topmaganingizda...

– Vazir o'rinbosarining nima daxli bor bu gapga?

– Nega daxli bo'lmas ekan? Siz bu yerda dutor-setor chalib, kayf-u safo qilayotganingizda, u yoqda ular... Fazilatxon bilan qizi tong otguncha yig'lab chiqibdi!

– Yig'lab chiqqanmish! – dedi Otaqo'zi zaharxanda bilan. – O, xotinlar, xotinlar! Qachon tumshug'i tagidan nariroqni ko'rishar ekan bular?

– Siz uzoqni ko'zlayman deb... odamlarning ko'ngliga qaramas ekansiz-da.

– Odamlar deganing kim? Fazilatxonmi? Qo'yib tur uni! Bor, o'g'lingni chaqir!

Oliya eriga bir zum tikilib turdi-da, indamay chiqib ketdi. Otaqo'zi divanga yonboshlab, ko'zini yumdi. U to'satdan juda bemajol, juda yolg'iz his qildi o'zini. Qiziq, Oliya hech

qachon u bilan bunday gaplashmas edi. Unga nima bo'ldi? Bu uyda nima bo'lyapti o'zi? U chindan ham hech kimning ko'ngliga qaramaydigan bir dilozor bo'lib qoldimi?

Otaqo'zi nogahon yuragini chulg'ab olgan ma'yus tuyg'uga bo'ysunib, o'g'li bilan bamaylixotir gaplashishga chog'langan edi, biroq sochlari to'zg'igan, yuz-ko'zi shishib ketgan Haydarni ko'rdi-yu, zardasi qaynab o'rnidan turib ketdi.

– Bu... bu qanaqa yurish?

Haydar yoshli ko'zlarini uqalab:

– Nima qipti? – deb g'o'ldiradi.

– Nima qipti, deydi-ya! O'zingni ko'zguga solib ko'r, fan kandidati!

– Fan kandidati! – dedi Haydar o'ksib. – Piching qilmay qo'ya qoling!

Otaqo'zi etigi bilan polni gursullatib tepdi.

– Bo'lmasang, bo'lasan! Kerak bo'lsa o'zim... O'sha, nima edi? VAKingga borib diplomingni olib beraman! Bo'ldimi endi? Ammo bunaqa yurish, bitta qiyinchilikka duch kelmay turib bunaqa... suvga bo'kkan bo'lka nonday dovdirab qolsa! Hayf senga olim degan nom! – Otaqo'zi bu gapni aytishga aytdi-yu, o'g'lining battar mung'ayib qolganini ko'rib, sal past tushdi.

– Nima bo'ldi o'zi? Yo haligi... savdoyi domla bilan oralarigda bir gap bormi? Yo'q bo'lsa bu nima qiliq? Bu nima g'avg'o? Qizning sha'niga ham yaxshi emas! Ko'rgan ko'z, eshitgan quloq nima deydi?

– To'g'ri-yu, biroq... bu domla o'zi shunaqa... bema'ni odam! Doim uni yo'ldan urmoqchi bo'ladi. Haligi ma'nodan emas! U yoqdayam o'qishni bitirganidan keyin, aspiranturada qol, deb bir chalg'itgan edi. Endi bo'lsa qishloqda turma, rayonga borib, laboratoriya och, degan gaplarni qilayotganmish!

Otaqo'zining labiga kulgi yugurdi.


– Eshitdim. Kecha raykom kotibiyam aytdi. Bo'ladigan ishmi, yo'qmi – Xudo biladi hali! Shunga shuncha vasvasami? Ishlasa ishlar! Yo to'ydan keyin qafasga solib qo'ymoqchimisan xotiningni?

Haydar terlab ketdi.

– Gap unda emas. Shunchaki... oilaviy ishimga aralashmasin demoqchi edim.

– Sening oilaviy ishing o‘z qo‘lingda! Har qanaqa qizning noziyam chimildiqqa kirguncha! U yog‘i o‘zingga bog‘liq! Ammo bunaqa... suvga tushgan mushukdek bo‘lib yursang... xotining ham bir pulga olmaydi seni! O‘zingga qara! Qaddingni tut! Qaddingni rostlab, yigitchasiga gaplash qallig‘ing bilan! Aytib qo‘y unga, ikki haftadan keyin to‘y! Tamom! Vassalom!

Otaqo‘zi polni teshvorgudek gurs-gurs bosib mehmonxonadan chiqdi.



Ayvondagi gaz plitada jaz-buz qilib, tuxum qovurayotgan Oliya eriga savol nazari bilan qaradi.

– Kelmasdan turib, yana qayoqqa shoshdingiz?

– Kichik xotinimnikiga!

Ilgarilari Otaqo‘zi shunday deb hazillashsa Oliya ham hazilga olib: „Mendan salom aytib qo‘ying kundoshimga!“ – deb kulib qo‘ya qolardi. Bugun nechukdir o‘ksib:

– Yo‘q, rost aytaman, – dedi. – Tog‘am yo‘qlayotuvdilar...

Otaqo‘zining lablaridagi tabassum asta so‘nib, tusi o‘zgardi. Uning ko‘z oldiga kecha ertalab Shukurov ko‘rsatgan bir xat lop etib keldi. Bu – Mingbuloq haqida, to‘g‘rirog‘i, qurilmoqchi bo‘layotgan yirik chorva majmuasining u yerga noto‘g‘ri tushayotgani to‘g‘risida yozilgan shikoyat tarzidagi bir narsa edi. Shukurov shikoyatni ko‘rsatarkan, miyig‘ida kulimsiraganicha uning tagidagi qog‘ozlarni qo‘li bilan berkitdi, biroq Otaqo‘zi arzga ko‘z tashlagan zahotiyoq tog‘asining chiroyli dastxatini tanidi, tanidi-yu, go‘yo birov zahar ichirganday a‘zoyi badani achishib ketdi...

Otaqo‘zi o‘z fikridan chekingani yo‘q! Chorva majmuasining Mingbuloqqa qurilishi iqtisodiy jihatdan qanchalik foydali ekanini raqamlar bilan isbotlab berdi. Shunday zo‘r bir mantiq bilan dalillab berdiki, hatto Shukurov ham ik-

kilanib qoldi. Lekin gap Shukurovda emas, gap tog'asida! Nahot, endi tog'asining bir qilmagan ishi uning ustidan, o'z tug'ishgan jiyaning ustidan shikoyat yozish bo'lsa?..

– Nima deydi... jonajon tog'amlar?

– Bilmadim... u kishi siz bilan uy to'grisida gaplashmoqchilar shekilli...

– Padariga la'nat shu uyni! Jonimga tegib ketdi. Yashagisi kelmasa – bo'shatib bersin! Aytib qo'y! Tamom! Vassalom! – Otaqo'zi shartta burilib, darvozaga qarab ketdi. Zum o'tmay ko'chadan mashinaning qahrli o'kirishi eshitildi.

Otaqo'zi katta yo'lga qadalib, „Volga“ni qushday uchirib borar, biroq ko'ziga hech narsa ko'rinmas, notinch o'ylar miyasida sahro quyunidek charx urar edi.

Ha, Otaqo'zining o'rnida boshqa odam bo'lsa ham „dod“ deb yuborardi hozir. Osilmagan bir odam qolmadi unga. Bir yoqda tog'asi, bir yoqda o'zi o'qitib, o'zi bosh mexanik qilib ko'targan ana u lattachaynar Naimjonning shallaqi xotini! Endi bo'lsa... umrida ne balolarni ko'rma-gan otincha qudag'ayi ham, Jamol Bo'riboyevga ziyofat berding, deb ta'na qilarmish!.. Otaqo'zi nazariga ham ilmas edi Bo'riboyevni! Turmush majbur qilyapti uni! Turmush! Yaxshimi, yomonmi, katta bir idoraning boshlig'i! Burun gunoh qilgan bo'lsa qilgandir. Lekin, avvalambor, bu gunohlarini yuvgan! Urushda qon to'kib oqlagan gunohlarini! Oqlamasa, hech kim uni bunday katta lavozimlarga ko'tarmas edi! Qolaversa... uyam hozir ilgarigi Jamol Bo'riboyev emas! Uyam tavbasiga tayanib, insofga kep qolgan. Tunov kuni tunda sal shirakayf bo'lgandan keyin, Jamol Bo'riboyev Otaqo'zini chetga tortib, oh desa afg'oni chiqib gapirdi, o'z turmushidan nolidi, keyingi xotini va undan tug'ilgan bolalaridan hasrat qildi. Yoshlikda qilgan xatolaridan pushaymon chekib, ko'ziga yosh olib gapirdi, mana endi, qarigan chog'ida, mehr-oqibatni shu ikki farzandidan kutayotganini aytdi.

– O'g'limdan roziman, rais! – dedi Jamol Bo'riboyev be-tinim uf tortib. – Toabad roziman. Hamma narsaga tushunadi Qodirjon! Hamma narsaga aqli yetadi. Meniyam dar-dim ichimda ekanini biladi u! Shu sababdan jonimni ham

ayamayman undan! Bilib qo'ying, rais, qizingiz qizim bo'la-
di, o'g'lingiz... o'g'lingiz ham o'g'limdek bo'p ketar, degan
umiddaman! Ammo qizim... o'z pushti kamarimdan bo'l-
gan qizim... dardimga tushunmayapti. Tushunsa, uniyam
boshimga ko'tarardim. Endi bitta-yu bitta umidim sizdan,
rais, yolg'iz sizdan, uka!

Katta odamning, faqat mansab emas, yoshi ham bir
joyga borib qolgan katta odamning ko'ziga yosh olib gapi-
rishi g'alati bo'lar ekan! Chetdan qaraganda o'ta manman,
kamgap, kalondimog' tuyulgan bu odamning tomog'i g'ip
bo'g'ilib, boshini kaftlari orasiga olib, zahar ichgan odam-
day to'lg'anganini ko'rganida... Otaqo'zining eti uvushib
ketdi...

Oliya bo'lsa ko'ngilni aytadi. Jamol Bo'riboyev ham ke-
sak emas, hamma narsaga aqli yetadi. Bitta xato qildi, deb
umrbod badnom qilib bo'lmaydi kishini. U kuni Otaqo'zi
undan yana bir gapi uchun rozi bo'ldiki, Jamol Bo'riboyev
cholni ham esladi. Ha, tog'ani ham esladi!

– Men bilaman, – dedi u, dard bilan tebranib. – O'rta-
da hurmatli otaxonimiz, Normurod Shomurodovich borlar.
Hammasini bilaman. Lekin nima qilay, yoshlikda bo'lgan
xato, rais. Agar dunyoga qayta kelsam... umrimda bu ishni
qilmas edim. Sizga yolg'on, menga chin – bu ishni lagan-
bardorlar qilgan edi o'shanda. Yo'q, yo'q, siz o'ylamang-
ki, aybini boshqalarga to'nkamoqchi deb! Xato qilganim-
ni o'shandayoq tushunganman. Frontga borib, o'lim bilan
yuzma-yuz kelganimda tushundim, rais, tushunib, gunoh-
larimni bir qoshiq qonim bilan yuvishga urindim. Otaning
fe'lini bilaman – u kishi... qahri qattiq odam. Hammasi-
ni bilaman. Ammo... o'rni kelganda bir og'iz aytib qo'ying,
rais! Iltimos qilaman, uka!..

Benuqson parvardigor, degan eskilar. Turmushda xato
qilmaydigan odam bo'lmaydi, degan ekan qaysi bir mash-
hur donishmand. Ammo yomon o'z xatosini o'ylamaydi,
yaxshi esa o'z xatosini eslab vijdoni qiynaladi. Otasiga rah-
mat o'sha allomaning!

Otaqo'zi Jamol Bo'riboyevning intihosiz o'kinchga to'la
bu dard-u hasratlarini eshitganda o'sha mashhur donish-

mandning o'sha mashhur kalomini esladi. Ha, birovga osilaman deyishsa, bahona topilar ekan! Mana uning o'ziga ham arzimagan gaplar bilan osilishyapti-ku!..

Motorning o'kirib yuborganini payqagan Otaqo'zi hushiga kelib, oyog'ini gazdan tortdi.

Qishloq ortda qolgan, mashina asfalt yo'lni yamlab yutib, hadsiz cho'l qa'riga kirib bormoqda edi...

Ufqdagi cho'qqilar uzra ko'tarilgan oftob sahroni qaynoq selga ko'ma boshlagan, bu sel qa'rida bir-biriga tirmashib yotgan qum uyumlari odatdagidan ham sovuq, o'lik bir dengizni eslatardi.

Otaqo'zining o'ylari xuddi mana shu sahro tabiatiga o'xshar, dam oftobda mudrab yotgan shu behad sahroday osoyishta, sokin oqar, dam obkom va raykom kotiblarining gaplari yodiga tushib, tuyqusdan ko'tarilgan cho'l to'foniday, o'ylari alg'ov-dalg'ov bo'lib ketardi... Ayniqsa, kecha ertalab Shukurov qo'zg'agan gaplar qattiq tegdi unga.

Kecha u Shukurov bilan uchrashmoqchi emas edi, rayonga borganlarida Jamol Bo'riboyev:

– Yo'l-yo'lakay salom berib o'taylik, – deb taklif qildi.
– Nima bo'lganidayam raykom kotibi-ku, indamay jo'nab ketsak yaxshi bo'lmas.

Hali barvaqt, raykomda ish boshlanmagan edi. Jamol Bo'riboyev, birpas kutaylik, degan edi, Otaqo'zi tavakkal qilib – gaplashadigan bo'lgandan keyin dasturxon ustida gaplashgan yaxshi-da! – deb mashinani to'g'ri uyiga haydadi.

Shukurov, ayniqsa, uning xotini Mahbubaxon, mehmonlarni ochiq chehra bilan kutib oldi. Egnida bo'liq qad-qomatiga yarashib tushgan ipak xalat, oyog'ida zardo'zi shippak, Mahbubaxon, yosh kelinchaklarday yelib-yugurib, birpasda ishkom tagidagi so'riga joy qildi, dasturxon yozib, meva-cheva, sharoblarning xil-xilidan olib kelib qo'ydi.

Xuddi dadasiday dam-badam xaxolab kulib, yarim soatga qolar-qolmas bir lagan qovurdoq ko'tarib keldi. Gap orasida jindak ginaxonlik ham qilib oldi:

– Bizdan pinhon tutsangiz ham bilib oldik sirlaringizni, Otaqo'zi aka. Jamol Bo'riboyevich bilan quda bo'psiz. Aytmasangiz ham boramiz to'yingizga!

Otaqo'zi ham payt kelganini bilib gapni ilib ketdi:

– Qadamlariga hasanot, Mahbubaxon! Faqat xo'jayindan to'yga ruxsat obersangiz bo'ldi, bosh-oyoq sarpo sizga! Mahbubaxon ham bo'sh kelmadi:

– Bo'pti! – dedi oppoq, bo'liq kaftini uzatib. – To'y qilishning nima aybi bor? Xo'jayin ruxsat bermasalar, o'zim ruxsat beraman!

Abror Shukurovich shundagina birinchi marta kulimsirab:

– Juda yaxshi! – dedi, – javobini ham o'zingiz berasiz!

Gapning po'stkallasi, o'tirishning birinchi qismi yomon bo'lmadi. Mahbubaxonning ochiq-yoriqligi sabab, hazil-mutoyiba bilan, kulgi bilan kechdi, biroq ikkinchi qismiga o'tib, xayr-ma'zur payti kelganda, Shukurov Otaqo'zini sekin chetga tortdi.

U Mingbuloq to'g'risidagi xatni ko'rsatib bir ranjitsa, Nodiraxon bilan gaplashgan-gaplashmaganini surishtirib, ko'nglini yana bir xit qildi.

Otaqo'zi „qittakkina“ qilgani uchunmi, boshqami, to'satdan tutab ketib:

– E, gapga tushunadigan xotin emas u! Oloy bozori-ning shallaqilaridan! – deb g'ijingan edi, Abror Shukurovich „him“, deb qovog'ini soldi-da:

– Har qalay, gaplashing! – dedi e'tirozga yo'l qo'ymaydigan qat'iy ohangda. – Iltimoslarini qondiring! Kerak bo'lsa, uzr so'rang. Gap shu!

Shukurov suhbat oxirida sal „yumshab“, iliq xayrlashgan bo'lsa ham Otaqo'zi shunday ranjidiki, hatto Toshkentga tushish fikridan ham voz kechib, qishloqqa qaytib ketgisi keldi. Biroq o'g'it va zaxira qismlar masalasida yordam bermoqchi bo'lib, qishloqdan birga olib chiqqan qudasi qis-
tab qo'ymadi.

Jamol Bo'riboyev bergan va'dasining ustidan chiqdi. Borgan kuniyoq yuz tonnacha o'g'it bilan ancha-muncha ehtiyot qismlar to'g'rilab berdi...

Rost, bu ishlar o'zi bo'lgani yo'q, bir-ikki mashina meva-cheva, qovun-tarvuz degandek, mayda-chuyda sovg'a-salom qilishga to'g'ri keldi. Lekin birlamchi, uning kolxo-

ziday kolxoz uchun bir-ikki mashina meva-cheva degan narsa cho't emas, sababi dehqonchilik, qovun-tarvuz deganingiz „sen je, men je“ bo'lib, to'lib-toshib yotibdi! Ikki-lamchi, sovg'a-salomsiz ish bitirib ko'ring qani! Ana, o'rtoq Shukurov o'zlariyam o'g'it so'rab boribdilar! Ikki qo'llarini burunlariga tiqib boribdilar-u, qo'yinlarini puch yong'oqqa to'ldirib qaytibdilar!..

Otaqo'zi ahmoq emas. Bu ishlarining qaltisligiga uning ham aqli yetadi. Ammo shu ishni qilmasa yana bo'lmaydi. Sababi... o'g'itsiz paxta undiradigan rais, ehtiyot qismlarsiz mashina yurgizadigan injener onasining qornidan tushgani yo'q hali!..

Albatta, tirnoq orasidan kir axtaradigan ba'zi g'alamislar uning bu ishidan „kir“ qidirib yurishlari ham mumkin. Shunday paytlar bo'lgan ham. Mayli, qidirishsin! Otaqo'zi o'zi uchun qilayotgani yo'q bu ishlarni! Qilsa, shu kolxoz, shu xalq, shu qishloqni deb qilyapti!.. U biladi – paxta planini do'ndirib qo'ysa, birov mushugini „pisht“ deyolmaydi unga, ammo bajarmasin-chi? Ana unda ko'ring tomoshani!..

Otaqo'zi birda adolatli bo'lsa, birda adolatsiz bo'lgan bu o'ylardan miyasi g'ovlab, ko'zlarini uqaladi. Qum uyumlari chekinib, oldinda, go'yo dengiz o'rtasida nogahon ko'ringan mo'jaz orolday, nihollar bilan o'ralgan yam-yashil paykallar, paykal chetida qatorlashib turgan vagonlar, chodirlar, qamish kapalar, undan ham nariroqda esa, qurilayotgan shaharchaning ilk binolari qizarib ko'rindi, ko'rindi-yu, Otaqo'zining dilidagi alam, miyasini g'ovlatib yuborgan notinch o'ylar birdan to'zg'ib, olam ravshan ko'rinib ketdi ko'ziga...



Katta yo'ldan chapga burilib, brigada yerto'lasiga obo-radigan tosh yo'l asfalt qilinmoqda edi. Har joy-har joyga to'kilgan asfalt qop-qora bo'lib uyulib yotar, o'n chog'li ishchi belkuraklar bilan asfaltni yoymoqda, bahaybat katok sekin aylanib, uni shibbalamoqda edi.

- Buni ko'rib yayrab ketgan Otaqo'zi mashinani to'xtatdi.
- Hormanglar, azamatlar!
 - Bor bo'ling! – beligacha yalang'och bo'lib, „shig'-shig“ terlab ishlayotgan yigitlar ishdan to'xtab, unga qiziqsinib qarashdi.
 - Masterlaring qani?
 - Mana, men! – katokdan malla sochlari hurpaygan bir yigit yerga sakrab tushdi.
 - Salom, rais aka!
 - Salom! Qadamingizga hasanot, uka!
 - Ha, – dedi malla sochli yigit. – Zo'rniki tegirmon yurg'izadi, degandek, zo'r chiqdingiz, rais aka! Sakkizinchi sovxozdan olib sizga yuborishdi.
 - Otaqo'zi qah-qah otib kuldi.
 - Zo'rlikdan emas bu, uka! Haligi maqol bor-ku, yig'lamagan go'dakka ona ham ko'krak bermaydi, degan! Biz yig'lab oldik sizlarni, uka, yig'lab...
 - Master yigit qora qurum bosgan yuzida tishlari yarqirab:
 - Ha, – dedi, – yig'laydigan odamga o'xshaysiz, rais aka. Hozir ham mana, ko'z yoshingiz tirqirab oqyapti!
 - Atrofda „gur“ kulgi ko'tarildi.
 - Biz yig'lashniyam bilamiz, kulishniyam, – dedi Otaqo'zi.
 - Asfaltni tugatgan kunlaring bitta ziyofat, yigitlar!..
 - Rahmat, rais aka! Ammo uzoqdagi dumbadan, yaqindagi o'pka yaxshi, degan gap ham bor-a?
 - Bor. Bilaman. Ammo o'pka-o'pka, dumba-dumba, yigitlar!
 - Shtabga kiraverishda uni kolxoz qurilish brigadasining boshlig'i, yosh bo'lsa ham qorin sola boshlagan, cho'lquvarlarga yot bir oliftalik bilan bashang kiyingan sarg'ish yigit kutib oldi. Shlapasini do'ndirib kiygan bu yigitning ham og'zi qulog'ida edi.
 - Namuncha tirjaysan? – dedi Otaqo'zi. – G'isht keldimi?
 - Kelganda qandoq! Kechadan beri to'rtta samosval qatnab turibdi... Siz g'ishtni aytasiz. Haligi jonon bor-ku, „letuchka“da boplagandingiz...

– Maishiy kombinat boshlig'imi? Xo'sh?

– Saharmardon injenerlari bilan kelib, hamma yoqni ko'rib ketdi!

– Kelmay ko'rsin-chi! Kecha hammasini obkomga chaqirtirib, yana bir dumlarini burattirdim! – Otaqo'zining yuragida to'satdan shunday g'olibona bir tuyg'u, shunday shod bir kuy yangradiki, garchi kecha hech kimni obkom-gacha kirg'izmagan bo'lsa ham chaqirtirganiga, chaqirtirib ularning „dumlarini yana burattirganiga“ o'ziyam ishonib ketdi. U qurilish brigadasining boshlig'ini ergashtirib, shaharchani bir aylanib chiqdi. Aftidan, „letuchka“dan keyin cho'lda qandaydir burilish ro'y bergan, chunki faqat Otaqo'ziga qarashli yerlardagina emas, narigi sovxozlarda ham, kanalda ham, katta nasos qurayotgan PMKda ham – hamma joyda ish jonlangan, mashinalar, kranlar, osmonni boshlariga ko'tarib qum surayotgan buldozer va skreperlar ko'paygan, qandaydir notanish odamlar paydo bo'lganida Otaqo'zi mamnun jilmayib orqaga qaytdi. Endi Naimjon bilan gaplashsa ham bo'lardi.

Naimjonni u bundan bir oy avval, xotini uydan ko'chmayman, deb shallaqilik qilgan kuni ertasigayoq bosh mexaniklikdan olib, bu yerga, Ali mo'ylovning o'rniga brigadir qilib yuborgan. Mo'ylovni esa qishloqqa olgan edi, o'shanda Otaqo'zi unga xotinidan ranjiganini aytmagan, uni dashtdagi ishlarni jonlantirish bahonasida o'tkazgan, shuning uchun hech kim gap-so'z qilmagan edi. Keyin bilsa, Nodiraxon buniyam gap qipti.

Otaqo'zi brigada chaylasiga yetib borganida tepaga tik kelgan oftob chinakam olov purkay boshlagan, ovqatga chiqqan odamlar chaylada o'tirishga ham toqat qilolmay, o'zlarini yerto'laga urishgan edi. Chaylada yolg'iz oshpaz qiz o'choq atrofida kuymalanib yurardi.

– Nima ovqat qilding, opoq qizim?

– Mastava, rais ota.

– Menga ham bir kosa suz! Naimjon bormi?

– Bor, rais ota, ichkarida...

Tashqaridagi olov selidan keyin nimqorong'i yerto'la jannatday orombaxsh tuyuldi Otaqo'ziga.

Tagiga bo'ya to'shalgan kattagina yerto'laning bir burchagida uch-to'rtta qiz ovqatlanib o'tirishar, ikkinchi burchagini yigitlar egallagandi.

– Hormanglar, opoq qizlarim! Hormanglar, yigitlar!

Hamma o'rnidan turdi.

– Keling, rais aka!

Otaqo'zi g'ira-shira yorug'likda Naimjonni arang tanidi.

– Qalaysan, brigadir? Ishlar qalay, yigitlar!

– Yuribmiz, mana, soyayi davlatlarida, xuddi kurortda yurgandek yayrab!

Otaqo'zi ovozidan tanidi – bu o'sha, ko'klamgi bo'ron paytida kechasi bitta fonus ko'tarib yurgan, keyinroq esa, cho'ldagi shart-sharoitlardan ko'p shikoyat qilgan soldat yigit edi.

– Sen yana eski diydiyongni boshladingmi? – Otaqo'zi Naimjonning yoniga yonboshladi. Soldat yigit raisga qarab g'alati ishshaydi!

– Kurortda yurganday yuribmiz desam ham diydiyoni boshlagan bo'lamanmi?

– Piching qilma!

– Siz ham qo'ying, do'q uravermang, rais aka! Olsangiz... ana, bergan traktoringizni olarsiz!

– Nima, traktor odamsiz qoladi, deb qo'rqityapsanmi? Yo bu cho'lga kelayotganingda, jannatga kelyapman, deb o'ylovdingmi?

Soldat yigit qo'li qaltirab, qoshig'ini tovoqqa „shaq“ etib qo'ydi.

– Siz ham piching qilmang!– dedi jazavasi tutib. – Men bu yer jannat emasligini yaxshi bilardim. Ammo... bergan va'dalaringiz qani? Mana, kelganimizga bir yildan oshdi... Shuyam turmush bo'ldi-yu! Bizlarga rahmingiz kelmasa, ana u qizlarga rahm-shafqat qiling!

Yerto'laga og'ir jimlik cho'kdi. Hamma yerga qarab sukut saqlar, yolg'iz Naimjonning pishillab nafas olishi eshiltildi...

Otaqo'zi bu gaplarni kutmagani uchunmi yo nihoyatda xushnud bir kayfiyatda kirib kelgani uchunmi, ho'plagan mastavasi tomog'iga tiqilib, bir zum sarosima og'ushida

qoldi. Nihoyat, u, og'zidagi mastavani yutib: „Bas qilinglar bu shikoyatlarni!“ – deb baqirmoqchi edi, biroq shu payt narigi burchakdan, qizlar o'tirgan tomondan, „piq-piq“ yig'i tovushi eshitildi.

Hamma yalt etib, o'sha tomonga qaradi. Qizlar, oyoqlarida beso'naqay kirza etik, ro'mollarini yuzlariga tushirib, g'uj bo'lib o'tirishar, ularning qaysi biri yig'layotganini bilib bo'lmas, yerto'ladagi g'ira-shira qorong'ilikda ular motamga yig'ilgan ayollarni eslatardi.

„Qaysi yuz, qaysi vijdon bilan o'shqirasan bularga? Shular emasmi, niholingni daraxt, chigitingni g'o'za, mak-kangni makka qilayotgan? Sen emasmi, kuni kecha shular to'g'risida gapirib, olqish olgan? U yerda unaqa deb, bu yerda nega pisanda qilasan bularga?“

– Bolalarim! – Otaqo'zining ovozi to'satdan irodasiga bo'ysunmay titrab ketdi. – O'ylamanglarki, meni bilmaydi deb! Bilaman. Senlarga og'ir, hammasini ko'rib turibman. Lekin bugun shtabga borgan odam bormi?

Bir chetda pishillab o'tirgan Naimjon boshini ko'tardi.

– Men bordim...

– Borgan bo'lsang mashina-mashina g'ishtlarni ko'rgandirsan?

– Ko'rdim...

– Ko'rsang, nega aytmading bularga?

– Aytdi, – dedi chetroqda teskari qarab o'tirgan may-kachan yigit. – Ammo lekin...

– Hech qanaqa ammo lekini yo'q! Va'da beraman: shu yil qishga qolmay cho'lda ishlayotgan hamma qiz-yigitlar uy-joylik bo'ladi!

– Esingizdami, rais aka, – dedi soldat yigit tag'in yoqimsiz ishshayib. – Bultur ko'klamda ham aytuvdingiz bu gapni!

– Esimda, uka. Hammasi esimda. Biroq nima qilay? Ko'rib turibsan – qurilish katta! Bu cho'l-u biyobonda bir qarich yer yo'qki, unda qurilish bo'lmasa! Ulgurib bo'lmayapti, inim! Ammo oxirgi marta aytaman: bo'ladi bu yil! Qishgacha kalitini qo'llaringga topshiraman bu uylarning! O'lmasam, so'zimning ustidan chiqaman bu safar!

Qizlar o'tirgan burchakdan yig'i aralash hayajonli bir ovoz keldi:

– O'lmang, rais aka!

Otaqo'zi to'satdan tomog'i g'ip bo'g'ilganini sezib, shaxt bilan o'rnidan turdi, Naimjonga qarab: „Yur!“ – deb imo qildi-da, shitob bilan yurib yerto'ladan chiqdi.

„Nega o'sha kuni bularni „letuchka“ga chaqirtirmadim? Nega birortasini gapirtirmadim? O'sha tantiq jonon ham bir eshitib qo'ysa bo'lardi bu gaplarni!“

Tashqari go'yo sahroga o't tushganday lovullab yonardi. Otaqo'zi darhol o'zini chayla soyasiga urdi. Naimjon yog'i chiqib ketgan do'ppisini taqir boshiga ishqay-ishqan qarshisiga kelib to'xtadi. U baquvvat, daroz gavdasiga mos tushmagan bir tortinchoqlik bilan ko'zlari javdirab turar, aftidan, hozir bo'lib o'tgan gap-so'zlar uchun o'zini aybdor deb bilardi.

– Bu qanaqa bo'ldi, o'rtoq brigadir? Targ'ibot ishlari-ning mazasi yo'q-ku, brigadada?

Naimjon tizzalariga tushgan uzun, katta qo'lini qayoqqa yashirishni bilmay gunohkorlarcha iljaydi:

– Endi... ko'rib turibsiz, rais aka, hammasi yoshlar...

– Yoshlar bunaqa... suvga tushgan mushukday emas, olov bo'lishi kerak! Olov! Tushundingmi?!

Naimjonning oftobda qorayib ketgan uzun yuzida qandaydir yangi, o'jar bir ifoda zohir bo'ldi:

– Bular ham unaqa... siz aytganday suvga tushgan mushuklardan emas! Bu cho'l-u biyobonda g'o'za o'stirayotgan shularmi yo...

– Men ham bularni yomonlayotganim yo'q. Faqat kayfiyatni ko'tarmoq kerak deyapman! Uqdingmi?.. Endi senga bitta savol... – Otaqo'zi tol shoxidan xipchin sindirib, etigini chars-chars urdi. – Bu deyman, kelinni aytaman... qachon bu g'idi-bidisini qo'yadi?

Naimjon sal tusi o'zgarib, orqaga tisarildi.

– Qanaqa g'idi-bidi?

– Nima, o'zingni bilib bilmaganlikka olmoqchimisani? Xotining... kaminaning ustidan yuqori tashkilotlarga shikoyatlar yozadi-yu, sen bexabarman demoqchimisani?

Naimjonning tund yuzida boyagi notanish, qaysar ifoda paydo bo'ldi.

– Men xotinimga bir nima deyolmayman...

– Sen... yigitmisan o'zi? Boshingda do'pping, belingda belbog'ing bormi, yo....

– Menga qarang, rais aka, – dedi Naimjon.

– Axir shu ish sening roziliging bilan bo'lganmidi?

– Men-ku, rozi bo'lgan edim...

– Ota rozi, Xudo rozi, degandek... sen rozi bo'lsang, xotining nega osiladi menga? Uy g'avg'osi yetmagandek, endi seni cho'lga quvdi degan gap tarqatibdi! Yo o'zing rozilik bermaganmiding bu ishga?

Naimjon boshini ko'tarmay „piq“ etib kuldi. Uning bu kulgisi ham ilgarigi Naimjonga, mehnatdan boshqani bilmaydigan, yosh boladay beozor, qo'yday yuvosh Naimjonning kulgisiga sira o'xshamas edi.

– Nega ishshayasan? O'zing rozi bo'lganmiding, yo'q-mi?

– Rozilik ham har xil bo'ladi-da...

– Shunaqami hali? Bundan chiqdi... xotining aytgan-day, men seni bu cho'l-u biyobonga surgun qilibman-da?

– Hech kim sizni surgun qildi degani yo'q...

– Men o'ylovdimki, bu hali yosh, yuragida qo'ri bor, bir-ikki yil ishlasin, o'zini ko'rsatsin, deb!

– Haliyam ishdan qochayotganim yo'q. Ko'rib turibsiz...

– Rahmat! Men ovsar o'ylabmanki, bu sahroda odam o'zini ko'rsatishi oson deb! Bir-ikki yil ishlab, o'zini ko'rsatsa... osmonga ko'taraman deb! Geroy qilaman deb! Sen bo'lsang, og'ziga kuchi yetmagan oyimchangning childirmasiga o'ynab...

– Xotinimga tegmang, rais aka... iltimos! – dedi Naimjon, lekin uning bu „iltimos“idan qo'rqqulik edi.

– Shunaqami? – dedi Otaqo'zi. U titrar, butun vujudi bilan titrar edi. – Siz shunaqa... o'z oyimchasiga so'zi o'tmaydigan bir... landavurmisiz? Ammo men sizdaqa... do'ppi o'rniga ro'mol o'rasa yarashadigan... lattachaynarlarni brigadir qip qo'yolmayman! Brigadir degan odam...

Naimjon ketmonday yalpoq, qop-qora mushtini tugdi, ko'zlari qahr bilan yonib:

– Ko‘p pisanda qilavermang, rais aka! – dedi. – Nari borsa, bergan brigadangizni olarsiz! Bu yer bo‘lmasa, osmonning osti keng, boshqa joyga borib, rizq-u ro‘zimizni topib yeymiz!..

– Bo‘pti! Haddingdan oshib ketibsan! Men seni mo‘min-qobil bir yigit deb yursam...

– Bosaversa, qurvaqa ham „vaq“ deydi...

– Bo‘pti! Yoz arizangni!

Naimjon daroz qaddini rostlab, raisga tik qaradi, qalin lablariga kinoyali kulgi yugurib:


– Yo‘q, kechirasiz! – dedi. – Ariza yozadigan ahmoq yo‘q bu yerda!

– Bo‘lmasa beariza bo‘shataman!

– Mayli, bilganingizni qiling!

– Shu bugun, hozir to‘g‘rilayman kavushingni! Kechqurun idoraga bor. Qo‘lingga tutqazishadi buyruqni!

Otaqo‘zi, go‘yo Naimjonday oqko‘ngil yigitdan shunday gap chiqishiga o‘zi ham ishonmaganday, nimanidir kutib birpas turdi. So‘ng: „Attang!“ – dedi-da, shartta burilib, nariroqda turgan „Volga“ siga qarab ketdi.



„O‘g‘lim Haydarjon!

Men bu maktubni o‘n marta boshlab, o‘n marta yirtib tashladim. Bilaman – yuzma-yuz o‘tirib gaplashish o‘rniga kishi o‘z o‘ylari, o‘z tuyg‘ularini birovga qog‘oz orqali izhor etib o‘tirishi kulgili tuyulishi mumkin. Lekin birinchidan, tarki odat – amri mahol, deganlaridek, men bu o‘jar fe‘lim bois, birov bilan bamaylixotir gaplasholmayman, ikkinchidan, keyingi paytlarda ko‘p obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra oramizga ancha-muncha sovuqchilik tushib qoldikim, bu gina-kuduratlarni bir suhbatda hal qilish mushkul.

Ushbu xat orqali aytmoqchi bo‘lgan birinchi so‘zim shu kim, men sendan, dadangdan emas, yo‘q, sendan Haydarjon – uzr so‘rayman. Men sening oldingda gunohkorman, bolam. Albatta, sening ilmiy ishingdagi xulosaga haliyam qo‘shilolmayman. Aminmanki, bu xulosa, ya‘ni, 5 foizgacha mineral

tuzlari bo'lgan oqova suvlardan foydalanish mumkin, degan xulosa ilmiy jihatdan asossiz bo'lmog'i kerak. Yo'q, men sening tajribalaringni inkor etmoqchi emasman, bolam, biroq, nazarimda, yoshlik qilib bu tajribalarga birmuncha yengil qaragansan, qolaversa, domlang Vohid Mirobidov ham mas'uliyatsizlik qilgan. Sen bu satrlarni o'qiyotganingda: „Eski ham-mom, eski tos, yana o'sha eski adovat boshlandi“, deb o'ylarsan. Aslida esa bu yerda hech qanday adovat yo'q. Men u odamni ko'pdan beri bilaman, uning ko'p kirdikorlarini, ko'p nopok ishlarini bilganim sabab uni xushlamayman, bolam. Vaqtiki kelar, oramizdagi bu sovuqliklar ko'tarilsa, men senga hammasini gapirib berarman. Hozir bu gaplarning o'rni emas. Hozir aytmoqchi bo'lgan birinchi gapim shuki, yo'l qo'ygan xatolaringga qaramasdan, o'sha kuni, ilmiy ishingni himoya qilayotgan kuni, men senga nisbatan katta adolatsizlik qildim, odamiylikda yotmaydigan bir ish qildim, bolam. Men yo'l qo'ygan xatolaringning oldini olmog'im, bu xatolaringga o'z vaqtida e'tiboringni tortib, ularni bartaraf qilishga yordam bermog'im darkor edi. Modomiki, men bu ishni qilmagan ekanman, birda domlang tufayli, birda o'jar fe'lim tufayli bu vazifani ado etmagan ekanman, men o'sha kuni, hayotingdagi katta bir tantana kuni, bu gapni ham qo'zg'amasligim lozim edi. Har holda, ilmiy kengashda bergan savolim, aytgan gaplarim o'z jigarim bo'lgan senday yosh olimga katta zarba bo'lishini tushunmog'im kerak edi. Men buni o'ylamabman, o'ylamasdan turib, do'sti nodonning ishini qilibman. Buning uchun uzr so'rayman. Menday badjohd tog'angni, avval dil-ozorlik qilib, keyin qiynalib, pushaymon yeb yuradigan keksa tog'angni kechirgaysan, bolam. Ehtimol, o'ylarsan, „Qilg'ilik-ni qilib qo'yib, endi kechirim so'rashdan nima foyda, bultur kesilgan barmoqqa bu yil yig'lamaydilar-ku“, dersan. Bunday deyishga haqqing ham bor. Lekin gapimga ishon, bolam. Men seni va otangni o'ylamaydigan darajada beoqibat odam emasman. Axir senlardan boshqa kimim ham bor? Har safar otang „tog'a“, deb, senlar „buva“, deb eshigimni qoqib kirib borganlaringda rahmatlik ayang ikkimiz boshimiz osmonga yetar, xuddi urushda halok bo'lgan o'g'limiz Jabbor tirilib kलगanday quvonib ketardik. Men mehr-oqibat izhor qilishni bil-

mayman va buni lozim ham ko'rmayman. Zotan, mehr degan narsa oshkor qilinadigan tuyg'u emas, bolam. Bu uzoq falsafiy muqaddimaning boisi shundaki, men otang to'g'risida, sen to'g'ringda, kecha bo'lib o'tgan ko'ngilsiz gaplar to'g'risida, umuman, oramizdagi munosabatlar to'g'risida tong otguncha o'ylab chiqdim...

Mei sening samimiyligingga, niyati pok, yuragi pok, yaxshi yigit ekaningga shubha qilmayman, bolam. Yosh olim sifatida o'zingga yarasha iste'doding ham bor, o'qimishli yigitsan. Buniyam yaxshi bilaman. Ammo, nazarimda, otangga, uning qudratiga judayam inonib ketganga o'xshaysan. Shunday otam bor, nima g'amim bor, otam turganda yo'limda hech qanaqa g'ov, mening foydamga hal bo'lmaydigan hech bir ish yo'q, degan bir ishonch tug'ilganga o'xshaydi senda. Bu ishonch, o'zing bilmagan holda, odamlar bilan muomalangda, ishingda, umuman, hayotingda aks etayotgani yo'qmikan? Sening otang mening jigarim, yolg'iz jiyanim, erta bir kun dunyodan ko'z yumsam belini bog'lab, hassakashlik qiladigan, tanamni yerga qo'yadigan bitta-yu bitta suyangan tog'im, bolam. Men buni yaxshi bilaman, bilganim sabab, otang to'g'risida yaxshi gap eshitsam boshim osmonga yetadi, yomon gap eshitsam... shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi, deganlaridek, suyak-suyagimdan o'tib ketadi. Ko'nglimni yaxshi bilavermaydigan otang birda mening to'g'ri gaplarimdan ranjiydi, birda siltab tashlaydi, birda to'nini teskari kiyib, oylab gaplashmaydi. Mayli, omon bo'lsin, ishqilib. Men otangning qishloq uchun qilgan ishlarini, jonkuyarligini juda yuksak qadrlayman, uning noyob iqtidoriga shak keltirmayman, bolam. Otang chindan ham ko'p ish qilgan, kelajakda bundan ham katta ishlar qilishga qodir odam. U bundan ham katta obro', katta izzat-ikromlarga sazovor bo'lishi mumkin. Ammo meni qattiq tashvishga solayotgan narsa shuki... Obro' kelsa misqollab kelar, ketsa qadoqlab ketar, deganlaridek, otangning ko'p yillik mehnat bilan erishgan bu obro', bu izzat-ikromi hozir xatar ostida turibdi. Afsuski, otang bu xatarni sezayotgani yo'q, ammo men, past-balandni ko'p ko'rgan qari tulki, buni ko'rib turibman, ko'rib tashvish tortyapman. Bu xavfga sabab, otangda, mening jigarim bo'lmish otangda, keyingi yillarda orttirgan bitta

katta nuqson bor: otang o'z qobiliyatiga juda katta baho berib yuborgan. Bilishimcha, u: „Mening qo'limdan kelmaydigan ish yo'q, men hamma narsaga qodirman“, – deb o'ylaydigan bo'lgan. Gap bu ishonchda ham emas, balki bu ishonch tufayli paydo bo'lgan xatti-harakatlarida, odamlarga qilayotgan muomalasi, o'zining qayerda, qaysi jamiyatda yashayotганиni unutib qo'rganidadir, uning bu xatti-harakatlari, jigarim bo'lgani uchun, yolg'iz jiyanim bo'lgani uchun, juda qattiq tashvishga solyapti meni!

O'zingga ma'lum, bolam, hayotda, ilm tili bilan aytganda, moddiy faktorning ahamiyati qanchalik katta bo'lsa, ma'naviy faktorning ahamiyati ham shunchalik kattadir. Bas, shunday ekan, har qanday rahbar, turmushni moddiy jihatdan qanchalik yaxshilamasin, ma'naviy faktorni, ya'ni, ko'ngil degan, insof-u adolat, diyonat degan, odamgarchilik degan oddiy tushunchalarni hech qachon unutib qo'ymasligi zarur. Chunki o'tmishda: „Mingta siz-bizdan, bitta jiz-biz yaxshi“, degan maqol bo'lsa ham, hozir, bizning jamiyatimizda, „siz-biz“ning ham qadri ortib boryapti. Bu degan so'z odamgarchilikni, yaxshi muomala, yaxshi so'zni unutib qo'rgan, ilm tili bilan aytganda, jamiyatning ma'naviy va axloqiy qonunlarini oyoqosti qilayotgan odam, ayniqsa, rahbar xodim, el mehridan judo bo'lib, nazar-e'tibordan qolishi hech gap emas. Men bu to'g'rida otang bilan bamaylixtir suhbatlashishga harakat qilaman. Bu suhbatdan bir narsa chiqadimi, yo'qmi, hozircha bir nima deyolmayman, chunki nachora, katta obro', izzat-ikrom, yuksak rutbalar ba'zan kishini shu ko'yga solib qo'yar ekanki, u oddiy haqiqatlarni tushunish qobiliyatidan mahrum bo'lib qolarkan! Bu gaplarni senga aytishimdan muddao, birinchidan, otang to'g'risidagi bu fikr-mulohazalarimni do'ppingni olib qo'yib bundoq bir o'ylab ko'rsang, o'ylab ko'rib, bu xavfning oldini olishga yordam bersang, ikkinchidan, men aytgan nuqsonlar (otang ta'sirida albatta) sening o'zingda ham paydo bo'lmaganmikan? Bu to'g'rida ham chuqurroq bir mulohaza-mushohada qilib ko'rsang deyman, bolam.

Bugun kechasi, tun yarmidan oshganda men sening kechagi mastona qiliqlaringni o'ylab o'tirganimda... oldimga bo'lg'usi qaynanang kirib keldi... Bu ayolning o'tmishidan


xabaring bo'lsa kerak, xabaring bo'lsa, men uni ko'p xushlasligimni ham bilarsan. Lekin kecha bu ayol zor yig'lab bir gapni aytdiki, garchi men uni yoqtirmasam ham u haq deb o'ylayman. Gap Jamol Bo'ribojev ustida ketyapti. Bo'ribojev bilan topishib qolganlaring haqida, uni bosh quda deb ko'rsatgan izzat-hurmatlaring ustida boryapti, bolam.

Mayli, bu masalada otang mening ko'nglimga qaramay qo'ya qolsin. Men bugun bor, ertaga yo'q, qolsa besh kunlik umrim qolgan bir qariyaman. Ammo senlar ona-bolaning ko'ngliga qarashlaring lozim edi-ku? Nahot, ularning g'ururini poymol qilgan bir odam bilan apoq-chapoq bo'lib ketishlaring ona-bolaga qattiq tegishini, zotan, odamgarchilikda yotmasligini tushunmasalaring? Men kecha qallig'ingga qilgan muomalangni ko'rib bir hayratlandim, bir qattiq tashvishga tushdim. Keyin o'ylab ko'rib, bu muomalaning tagida ham o'sha qusur: „Nima qilaman desak qilamiz, birov bizga bir nima deyolmaydi“, degan kamoli ishonch yo'qmikan, degan fikrga keldim. Men kecha qallig'ingni birinchi marta ko'rgan bo'lsam ham u kamtar-kamsuqumgina, aqligina qiz bo'lib ko'rindi menga. Men sening shaxsiy hayoting, shaxsiy ishlaringga aralashmoqchi emasman, muhabbat muammosi nozik muammo ekanini bilaman, bolam. Va agar buni bilib turib pand-u nasihat qilishni lozim ko'rayotgan bo'lsam, seni o'z o'g'lim o'rnida ko'rganim uchun, sening kelajagingga befarq qaray olmaganim uchun aytyapman, jiyanim. Umuman, noqulay bo'lsa ham so'ramoqchiman: bo'lg'usi qallig'ing bilan biror marta chin dildan yozilib gaplashganmisan, ko'nglida nima orzu-armonlari bor – quloq solganmisan, o'tirib dardlashganmisan? Men bu savollarni chuqurroq o'ylab ko'rishingni istar edim, bolam. Chunki: „Menga tegmay ko'rsin-chi, xohlasa-xohlamasa uylanaman“, deb o'ylash senday ziyoli bir yigitga nomunosib bo'lganidan tashqari, uning qizlik hamiyatiga ham qattiq tegadikim, bu narsa yaxshilikka olib bormas, deb qo'rqaman. Bizning qonimizda nasldan naslga o'tib kelayotgan yomon bir qusur – ayol zotini kamsitish, unga ikkinchi darajali bir zot deb qarash qusuri bor. Bu kasal nafaqat avomlar, hatto kaminaga o'xshash, o'zini ziyoli deb bilganlarda ham bor. Tog'ang qonidagi bu kasalning oqibat-

larini o'z ko'zing bilan ko'rib turibsan. Bu kasal bo'lmagani-da, balki tog'ang o'z yostiqdoshining yaxshi kunlarida ham, yomon kunlarida ham birga bo'lgan zabonsiz bir insonning ko'ngliga bunchalar ozor bermaganda, balki bu fojia ro'y bermasmidi, balki u bugun yakkamozor bo'lib qolmasmidi?

Men buni ko'p o'ylab, ko'p afsus-nadomatlar chekkanim sabab senga aytishni lozim ko'ryapman, mening xatolarimni takrorlab, sen ham keyin pushaymon bo'lib yurma, deb ayt-yapman, jiyanim. Odam bolasi yaxshi gapning gadosi, deydi-lar. Bu dono naqlni hech qachon unutmasligimiz kerak, zero, kim bo'lmaylik, o'zimizni qancha „zo'r“ deb bilmaylik, odam-garchilik degan, insof va adolat degan oddiy va ulug' tushun-chalarni, ijtimoiy tuzumimiz, axloqiy talablarimiz negizida yotgan oliy burchlarimizni unutmasligimiz kerak. Yana ayta-man: men bu masalalar to'g'risida uzundan uzoq xat yozib o'tirmasdan, o'zing bilan suhbatlashib qo'ya qolsam bo'lar-di. Biroq marhum ayang kuyib ketgan paytlarida aytganidek, „ho'kizfe'l odam“, qizishib ketib yana qo'rslik qilib qo'ymay deb, bir-birimizning tilimizga yaxshi tushunolmay o'rtada yana o't chiqib ketmasin, deb xat yozib qo'ya qoldim. Agar-chi, sen sabr-toqat bilan bu xatni o'qib chiqsang va boshingdan do'ppingni olib qo'yib, bir o'ylab ko'rishni lozim topsang, be-nihoya mamnun bo'lardim, bolam.

Sendan yana bir bor uzr so'rab, senga hamisha xurshidi saodat tilab, tog'ang Normurod, 30-iyul, 1974-yil.



Ayvonda ko'rpa qavib o'tirgan Oliya darvozadan kirib kelgan erini ko'rib, angrayib qoldi.

Otaqo'zi, xuddi holdan toygan kasalmand odamday, bir-bir bosib ishkongacha keldi-da, quduq yonidagi to'qima kresloga o'zini tashladi. Hovlidagi katta chiroqlar shulasi-da uning rangida rang yo'qligini ko'rgan Oliya eti uvushib, pastga tushdi.

– Sizga nima bo'ldi, xo'jayin?

Otaqo'zi sekin boshini ko'tarib, xotiniga qaradi, go'yo

uni tanimayotganday, uzoq tikilib turdi, so'ng horg'in odimlab quduq yoniga bordi-da, qopqoqda turgan bir che-lak suvni boshiga ag'dardi.

Oliya ishkomdan sochiq olib, eriga tutdi.

– Ziyofat ko'proq bo'lganmi deyman?

– Ha, g'irt mastman! – Otaqo'zi boshini silkitib g'amgin kulimsiradi, keyin sochiqqa artinarkan, to'satdan:

– Qani, kiyin! – deb buyurdi.

Oliya ko'zlarini katta ochdi:

– Kech bo'lganda tag'in nimani topdingiz?

– Ish bor! Yo'q, behazil, darhol kiyin!

– Nima bo'ldi o'zi? Gapirsangiz-chi, axir?

– Hech nima bo'lgani yo'q. Haligi... qo'shning bor-ku, Naimjonning xotini, o'shaning oldiga borib oyog'iga tiz cho'kmasam bo'lasmish! Yalinib-yolvorishim kerakmish! Yuqoridan shunday topshiriq bo'ldi!

– Mayli, – dedi Oliya qandaydir ishonchsiz tovushda. – Mayli, bor desangiz boraveraman-u, u xotin, Nodiraxonni aytaman, gapga tushunarmikin?

– Gapga tushunmasayam borarmishman... Buyruq shu!

– Otaqo'zi shunday dedi-yu, to'satdan qo'lini siltab: – Yo'q!

– dedi. – Gap unda emas! Masala shundaki... men uning erini, Naimjonni besabab haqorat qildim. Nohaq ko'nglini og'ritdim. Boring, kiyining, xonim!

Yo tavba! Oliyaning ro'parasida o'sha, bir narsadan o'kingan paytida juda mo'min, juda samimiy bo'lib qoladigan Otaqo'zi turardi! Oliya birdan yengil tortib:

– Hozir, xo'jayin, hozir, – dedi allaqanday shoshib. – Hozir kiyinaman. Mayda-chuyda olaymi?

– Ol! Konyak-ponyaging bormi? Bor bo'lsa, ol!

Oliya chopganicha uyga kirdi, negadir quyilib kelgan ko'z yoshidan bo'g'ilib dam xolodilnikka yugurdi, dam ka-ravot tagidagi chamadonlarni titkilab, bir nimalarni qidirdi. U kiyinib, sumkasini ko'tarib chiqqanda Otaqo'zi hovlida o'ychan aylanib yurar, uning xatti-harakatlaridagi boyagi shijoat so'ngan, yuzi tund edi.

– Men bo'ldim, – dedi Oliya yuragi zirqirab. – Aytganin-gizning hammasini oldim.

Otaqo'zi uning gapiga javob bermay ko'cha tomonga yurdi, mashinaga indamay o'tirib, indamay haydab ketdi.

Oliya endigina tushundi: bu ilgarigi uzr so'rashlardan emas, hozir eriga juda og'ir, u xuddi o'zini o'zi arqon bilan sudrab ketayotganga o'xshardi. Nechuk muncha qiynaladi? Nechuk muncha eziladi? Axir shunday qilgani yaxshi-ku? Egilgan boshni qilich kesmas, degan gap bor-ku! Ular ham odam-ku, axir!

Otaqo'zi, go'yo uning o'ylarini ilg'ab olganday:

– Ha, egilgan boshni qilich kesmas! – deb g'udrandi g'udrandi-yu, birdan qattiq tormoz berib mashinani shartta to'xtatdi, ko'zlari qandaydir yonib, titrab davom etdi: – Ammo kim kimning oldida bosh egishi kerak? Qaysi gunohlarim, qaysi yoziqlarim uchun bu beibo, shallaqi xotinning oyog'iga tiz cho'kishim kerak? Shu kolxozni deb yigirma yil chekkan azoblarim uchunmi?

– Jon xo'jayin, axir o'zingiz aytdingiz-ku, Naimjonni bekor xafa qildim deb...

– Yo'q! Uyam ilgarigi Naimjon emas! Sen uning nimalar deganini eshitmading! – Otaqo'zi qahr bilan gazni bosib, mashinani orqaga burdi-da, shitob bilan uchirib ketdi.

– Jon xo'jayin...

– Yo'q! Bormayman! Ishdan olishsayam, shu bugun ishdan haydashsayam bosh egib bormayman! Ishdan quvishsa.. maktabga borib xo'jalik mudiri bo'laman! Xo'jalik mudiri bo'lmasa.. qorovullik... qilaman!

– Qayoqdagi gaplarni gapirmang...

– Nima, qorovullikkayam olmayсанlarmi? Olmasalar, oladiganlar topiladi! – to'satdan xaxolab kuldi Otaqo'zi. U darvoza oldida mashinani to'xtatdi-da, sakrab tushib, orqa eshikni ochdi.

– Marhamat, xonim! Boring, bitta quling o'rgilsin osh damlang! Ammo tog'amlar bilmasinlar. Tirik bir jon bilmasin uydaligimni! Halqumimga keldi hammasi. Men ham odamman-ku, axir! Odamga o'xshab bir dam olay men ham!

Sakkizinchi bob



Normurod Shomurodov, qo'lida og'ir cho'qmor, bir guruh yigitlar bilan Qurama tog'larining baland bir cho'qqisida turgan emish.

Pastdagi tog' yonbag'irlarini, qir va adirlar, soy va o'zanlar va hatto undan ham pastroqdagi ko'z ilg'amas keng vodiyni, butun borliqni qandaydir behisob lashkar egallagan emish. Tog' va qir etaklariga tikilgan minglarcha rang-barang chodirlardan, to'ntarilgan kosasimon o'tov tuynuklaridan tutun burqsir, tevarak-atrofdagi behisob otlar kishnar, ot, tuya, qo'y, sigir podalari tog' yonbag'ridagi archazorlarni toptab, yanchib, o'rmalab kelayotgan emish. Lekin eng yomoni – boshlariga tumoq, egnilariga kalta po'stin kiygan qiyg'ochko'z navkarlar, etiklari bilan qon kechib, kalta, egri qilichlari bilan archalarni shafqatsiz qiyratayotgan emish, biri kesib, biri kesilgan archalarni o'tovlarga tashimoqda, yana birlari gulxan yoqib isinishmoqda emish...

Buni ko'rib darg'azab bo'lgan Normurod:

– Bas! Hamma yoqni xonavayron qildi-ku, bu vahshiy-lar! – deb na'ra tortganicha, qo'lida cho'qmorini o'ynatib, yov tomon talpinar emish, biroq shu payt qayoqdandir jiyani Otaqo'zi paydo bo'larmish-u unga tarmashar emish:

– To'xtang, tog'a! Bitta archa deb boshingiz ketadi!

– Qo'yvor, tentak! Senga qolsa hamma yoq qatl-u qirg'in bo'lsayam, baribir! Boshimiz ketadi deb, qo'lni qo'l-tiqqa urib o'tiraversak, bu archa, bu tabiatning ahvoli ne bo'ladi? – Normurod shunday deb, qattiq talpinar emish-u...

Domla Shomurodov bosinqirab uyg'onib ketdi. Tong otgan bo'lsa kerak, hovli yop-yorug', biroq uy ichi g'ira-shira edi.

Domla nafasini rostlolmay shiftga tikilganicha uzoq yotdi. U kechasi allamahalgacha qo'lyozma ustida ishlab qattiq charchagan, shu charchoq sabab kechasi bilan og'ir

bosinqirab, bema'ni tushlar ko'rib chiqdi... Ko'rgan tushlari-ku, chindan ham bema'ni, biroq Otaqo'zi... Otaqo'ziga nima bo'ldi? Sabab, bu masalalar ustida u bilan, o'z tog'asi bilan bir og'iz maslahatlashishni istamay hamon qochib yuribdi? Nahot, u o'z tug'ishgan jiyaniga yomonlikni ravo ko'rsa? Nahot, tug'ishgan jiyani uni shunday beoqibat bir odam deb o'ylasa?..

Domla Otaqo'zini dil-dilidan yaxshi ko'rgani uchun hatto Proxordan ham voz kechib, bu ishlarga ko'z yumib qo'ya qolgisi kelgan edi. Biroq ko'z yumib qo'ya qolay desa... Bir tomonda... umrining eng mas'ud damlari o'tgan bu Mingbuloq, bir tomonda yana o'sha odamlarning gap-so'zi...

Kecha kechqurun dotsent Obidov yana kelgandi, u ham Proxorning gaplarini gapirib ketdi.

– Men bugun yana tog'ga chiqib keldim, – dedi u duduqlana-duduqlana. – O'sha gap – gap, domlajon. Agar bu qurilish amalga oshadigan bo'lsa... Mingbuloq u yoqda tursin, Mingbuloq ustidagi archazorlar ham xonavayron bo'ladi. Nahot, hamma narsaga aqli yetgan millioner rais shu narsaga aqli yetmasa? Axir archa degan narsa... bu... bu bir mo'jiza-ku! Bu tabiatning eng ulug' ne'mati-ku! Bu daraxt ming yil umr ko'radi. Tog'-u toshlarni yemirilishdan asraydi! Havoni musaffo qiladi. Qishda qor yig'ib, buloqlarimizni suvga to'ldiradi. Bizning sharoitimizda hech bir daraxt archaga yetmaydi, tushunasizmi, domlajon!

Domla bu gaplarni Soqijon Obidovsiz ham tushunar, tushunmasa tarixiy manbalargacha o'rganib, bu to'g'rida kitob yozib o'tirmas edi. Tarixiy manbalarga qaraganda esa bir mahallar, Chingizxon qo'shinlari qatl-u qirg'in ko'tarib kelishidan oldin, hamma tog', hamma qir va adirlar archa bilan qoplanib yotgan mahallarda, suv juda bermalol bo'lgan, barcha ko'l va dengizlar, barcha daryo va o'zanlar limmo-lim to'lib oqqan. Hatto ilmiy jihatdan isbotlangan shunday fikrlar ham borki, agar hamma tog' va adirlar qadim-qadimlardagidek yana archa bilan qoplansa... daryolar yana burungiday to'lib oqajak, suv yana serob bo'lajak. Shu

sababdan ham domla archa muammosini Sibir daryolari-ni O'rta Osiyoga burish to'g'risidagi o'zining bosh kitobiga butun bir bob qilib kirityapti.

Sibir daryolarini o'ylashi bilan Otaqo'zi ham, archa ham xayolidan ko'tarilib, eski qadrdoni Vohid Mirobidov esiga tushdi-yu, domla asabi qaqshab o'rnidan turib ketdi.

U o'zini chalg'itish uchun hovliga chiqib suv sepdi, gul-larni qaychilagan bo'ldi, gaz plitaga choy qo'ydi. Biroq qan-cha urinmasin, xayolini boshqa tomonga burolmadi.

Ha, domla Shomurodovning bu masalada o'z fikri, hozir kitobga tushirayotgan o'z qarashlari bor. U olim sifatida bu ishning istiqbolini hech qachon inkor etgan emas! Faqat... Vohid Mirobidovga o'xshagan hovliqma olimlardan farqli o'laroq, bu masalada yetti o'lchab, bir kesish, Sibir daryo-lari havzasidan tortib, bu suvlarning O'rta Osiyo iqlimi-ga ko'rsatadigan ta'sirigacha, ipidan ignasigacha o'rganib chiqish lozim, degan fikrda, xolos. Barcha inshoot va suv tarmoqlarini tartibga solish muammosi ham shu masala-ga bog'liq, toki domla bu ulkan va murakkab ishni amalga oshirmasdan turib, Sibir suvlarini qabul qilib olish mumkin emas, deb hisoblaydi va bunga imoni komil uning! Imoni komil bo'lgani uchun ham har ikkala ilmiy ishini tezlatish-ga urinyapti, kechalar tong otguncha kitob ustida o'tiribdi.

Domla, nihoyat, o'zini sal bosib, uyga kirdi. Biroq endi ishga o'tirgan edi hamki, telefon jiringladi.

Xolidaxon!

Tag'in eski hammom, eski tos: kitobxonlar sizni ko'-rishga mushtoq, uchrashuv o'tkazmasak bo'lmaydi!

Domla jahli chiqib, go'shakni qo'yib qo'ygan edi, bir-ik-ki soat o'tar-o'tmas yoqimtoy tabassumini namoyish qilib Xolidaxon o'zi kirib keldi.

Domla astoydil ranjib:

– Axir men yozuvchi bo'lmasam, – degan gapini ro'kach qilmoqchi edi, Xolidaxon yana tunov kungi so'zini qaytar-di:

– Kamtarlik qilmang, Normurod Shomurodovich! Siz

hech bir yozuvchidan kam emassiz. Bo'la qoling, sizni ajoyib yoshlar kutishyapti!..

Domla sekin „uf“ tortib, stolga yozilgan qo'lyozmalarini yig'ishtira boshladi.

Ko'chada eskiroq „Volga“ bilan „Gazik“ mashinasi kutib turar, „Gazik“ning yonida yoshi elliklardan oshgan, soch-soqoli o'sib ketgan, yo'g'on shopmo'ylov bir odam cho'nqayib o'tirar, mashinada Latofat bilan yana bir-ikkita qiz ko'rinaradi.

Yo'g'on, shopmo'ylov odam domlani ko'rib, apil-tapil o'rnidan turdi. Uning chertsas qon tomadigan qip-qizil yuzida, yog' bosgan qovoqlari ostidagi mitti ko'zlarida muloyim tabassum jilva qildi.

– E-e, assalomu alaykum, domla!

– Alijon aka degan brigadirimiz shu kishi bo'ladilar, – dedi Xolidaxon, dedi-yu, chaqnab turgan sho'x ko'zlari-da to'satdan ranjish alomati aks etdi. – Alijon aka! Necha marta aytdim, a, sizga? Bundoq... ust-boshingizga qarab, soqol-mo'ylovingizni qirtishlab yuring deb! Ilg'or brigadir bo'lsangiz-u yurish-turishingiz bu bo'lsa!

Mo'ylov tavoze bilan qo'l qovushtirdi:

– Kechirasiz, Xolidaxon. Ammo lekin o'zingizdan qolar gap yo'q. Biz bir dehqon odam...

– Bu gaplar endi ketmaydi, Alijon aka! Hozir qaysi zamonada yashayotganingizni bilasizmi o'zi?

Mo'ylov yo'g'on, barvasta gavdasiga mos tushmagan bir itoatkorlik bilan:

– Xo'p bo'ladi, – dedi iljayib, – bu xatoimizni tuzatamiz, albatta.

Xolidaxonning hamma gaplari to'g'ri bo'lsa ham domla Shomurodov negadir o'ng'aysizlanib:

– Xo'sh, nima qildik? – dedi. – Ketdikmi?

– Ha, ketdik! – Xolidaxon „Volga“ning eshigini ochib, mo'ylovga yuzlandi. – Bu kishini oboravering. Shiyponlarni, paxtazorlarni ko'rsating. Umuman, hayot bilan tanishtiring. Men bir soatga qolmay yetib boraman. Uchrashuv yangi shiyponda bo'ladi-ya, hamma narsa tayyormi?

– Hammasi gatop-da, Xolidaxon! – mo'ylov yugurib ke-
lib, domlanning qo'ltig'idan oldi. Domla uning xatti-hara-
katlaridan o'ng'aysizlanib, mashinaga chiqarkan, orqada
o'tirgan Latofatga ko'zi tushdi. Latofat ko'zlari javdirab:

– Assalomu alaykum, otajon, – dedi.

– Salomat bo'ling, qizim... Siz qayoqqa ketyapsiz?

– Biz ham shu brigadada tajriba o'tkazyapmiz-ku! –
dedi Latofat ko'zini yashirib.

„U kungi gaplar esiga tushdi, shekilli...“ – Normurod
ota shofyorning yoniga o'tirib ko'zini yumdi. Uning xa-
yoliga negadir yana o'sha fikr: „Jabbordan tug'ilishiyam
mumkin edi-ku, bu qiz!“ – degan fikr keldi-yu, yuragi
zirqirab ketdi.

Domla bu o'rinsiz fikrdan anchagacha o'ziga kelolmay
xayolga cho'mib o'tirdi. Nihoyat, sal o'zini bosib, ko'zini
ochganda mashina Mingbuloqqa yetmasdan o'ng qo'ldagi
ko'm-ko'k paxtazor orasiga sho'ng'igan edi.

Chap qo'lda qolgan Mingbuloq raykomga yozilgan xatni
yana eslatdi. Xatni Otaqo'zi o'qisa nima derkin, degan o'y-
dan ko'ngli avval g'ash bo'ldi, keyin jiyanidan yana ranjidi:
axir, nahot, bir o'tirib gaplashishni istamasa?

Mo'ylovning brigadasi Mingbuloqning o'ng tomoni-
da, O'rozqulning uzumzoriga yondosh edi. O'rozqulning
uzumzori qir yonbag'rida bo'lsa, paxtazor pastda, yalang-
likda bo'lib, uning chek-chegarasi ko'rinmas edi.

Qalin tolzor orasiga joylashgan brigada shiyponida bir
jon yo'q, faqat mo'ylovning o'ziga o'xshagan yo'g'on bir
odam hovuz bo'yida samovarga cho'g' tashlab, kalovlanib
yurardi.

Mashina ikki qavatli ko'rkam shiypon qarshisida to'x-
tashi bilan ichkaridan egnida eskiroq pijama, oyog'ida latta
shippak, dotsent Obidov chiqib keldi, domlani ko'rib, xuddi
eski qadrdonini ko'rganday, quvonib ketdi.

– E-e, keling, domla, keling! Qaysi shamol uchirdi siz-
ni?

Domla ham juda sevinib ketdi, Obidovning nimjon yelkasida qopday osilib turgan eski pijamasiga qarab xitob qildi:

– E, xuddi kurortda yurgan odamga o'xshaydilar-ku, o'rtoq Obidov?

Obidov miyig'ida kulib, mo'ylovga ishora qildi:

– Mana, brigadir akamlardan minnatdormiz. Hamma shart-sharoitlarni yaratib berganlar...

Soqijon Obidov domlani qo'ltiqlab paxtazorga boshladi. Dotsentning aytishicha, uning otryadi „hujum“ga tayyor, biroq afsuski, „dushman“dan darak yo'q, shuning uchun ham Obidov asabiy holatda edi.

Ma'lum bo'lishicha, paxtazorda ko'sak qurti bo'lmaguncha, dotsentning bu yerda yotishidan foyda yo'q, chunki uning shishalarida mudrab yotgan „trixogramma“ degan hasharot ko'sak qurti paydo bo'lmaguncha o'z kuchini namoyish qilolmas, uning nasli faqat ko'sak qurtining nasli hisobiga kun ko'rar ekan. Obidov buni kuyunib gapirayotgan edi, sal orqaroqda kelayotgan mo'ylov:

– Tup deng, domlajon, tup deng! – dedi jundor ko'ksiga tuplab. – Iloyo shu ko'sak qurti degan ofat-u balodan asrasin!

Obidov asabiy kuldi:

– Gapingiz to'g'ri-yu, ammo lekin tajriba...

– Qo'rqmang, domla! „Tajriba yaxshi o'tdi“, degan ma'lumotnoma yozib beramiz!

– Ko'rib turibman, ma'lumotnoma yozishda ustasi farangsiz! – piching qildi Obidov. Ali mo'ylov uning pichingiga bir kulib qo'ydi-da, Normurod otadan ruxsat so'rab qayoqqadir ketdi. Dotsent uning orqasidan qarab qolarkan, xuddi o'ziga o'zi gapirayotganday:

– Ha, juda qiziq ekan-da, hayot!– deb qo'ydi.

– Nimaga ajablanasiz? – dedi Normurod ota. – Hayot g'alati narsa ekanini endi bilyapsizmi, uka?

– Yo'q, gap unda emas, ammo... g'alati narsalar ko'p-da, domla!

– Masalan?..

– Masalan... mana, siz katta olimsiz. Ko'p narsani boshingizdan kechirgan odamsiz. To'g'rimi?

Domla to'xtab, yonida kelayotgan dotsentga o'girilib qaradi:

– Xo'sh?

– Demoqchimanki, bu odamlar kitob o'qishga vaqti bormi, yo'qmi – buni bir o'ylab ko'rdingizmi?

Domla Shomurodovning chakka tomirlari bo'rtib chiqdi, shiddatli yalpoq yuzidan qoni qochib:

– Nima demoqchisiz? – dedi. – Kitob to'g'risidagi bu suhbat kerak emas, demoqchimisiz?

– Yo'q, nega? Demoqchimanki, bular... ya'ni, paxtakorlarni aytaman, erta tongdan qora shomgacha dalada ishlaganlaridan keyin... kitob o'qishga hafsala bo'larmikin bu-larda, demoqchi edim, xolos.

– Menga qarang, o'rtoq dotsent! – dedi Normurod Shomurodov. Uning yalpoq yuziga qon yugurib, do'ng peshanasi yaltillab ketdi. – O'qiyman degan odam har qanaqa muhitdayam o'qishga vaqt topadi. O'qimayman degan odam, kecha-yu kunduz bo'sh bo'lsayam, yotadi xurrakni otib!

– Shunaqami? – Obidovning yupqa lablariga kinoyali tabassum yugurdi. – Umuman olganda, ya'ni, nazariy jihatdan bu gapingiz to'g'ri bo'lsa to'g'ridir. Biroq sakkiz-to'qqiz soat bu jaziramada ketmon chopib ko'ring-chi, kitob-pitobga hafsalangiz qolarmikin, yo'qmikin?

– Men yana aytaman! – Normurod Shomurodovning ovozi g'azabdan qaltirab, momaqaldiroqday qaldirab ketdi, – o'z turmush tajribamdan kelib chiqib, yana aytaman. Ilmga tashna odam har qanaqa muhitdayam o'qishga vaqt topadi, o'qigisi kelmagan odam...

– Xo'p, domla! – dedi Soqijon Obidov qandaydir aziyatli ohangda. – Biz bilmas ekanmiz. Kechirasiz...

– Mumkin bo'lsa, kinoya qilmang. Yoshsiz hali! – domla Shomurodov, azbaroyi qaynab ketganidan, tekis

yo'lda qoqilib ketib, ariq bo'yidagi terak shoxlarini ushlab qoldi.

Aftidan, domla qattiq yanglishgan, archa to'g'risidagi gaplari uchun yaxshi ko'rinib qolgan, aftidan qop-qora bu cho'p-ustuxon odam turmushda hech bir yaxshi narsani ko'rmaydigan, hamma joydan faqat kamchilik qidirib yuradigan g'alamislar toifasiga kirardi. Qildan qiyiq axtaradigan, pashshadan fil yasashga o'rganib qolgan bunaqa g'arazgo'ylar turganda jiyani Otaqo'ziga ham oson emas!

– To'xtang, o'rtoq Obidov! Gapimiz tugagani yo'q hali!

Obidov istar-istamas to'xtadi.

– Kechirasiz, domla! Men siz bilan gaplashishni xohlamayman!

– Nima?– domla Shomurodovning ko'zlari olayib ketdi.

– Nima dedilar?

– Siz bilan gaplashishni istamayman. Vassalom!

– Sabab?

– Sababi... – dedi dotsent tirtiq labi titrab. – Sababi... siz mening to'g'ri gapimga teskari ma'no berdingiz! Men sizni ulkan olim deb, professor deb, ko'nglimdagini ayt-sam-u, siz bo'lsangiz...

Soqijon Obidov shunday o'ksib gapirdiki, ota boya qanday darg'azab bo'lgan bo'lsa, endi shunday dovdirab, bir zum gap topolmay qoldi.

– To'nglik qilgan bo'lsam uzr. Ammo siz ham qaltis gapirdingiz-da!

– Nimasi qaltis? Siz madaniyat masalasini qo'zg'adingiz. Men ham bir haftadan beri mana shu shiyponda yotib shu to'g'rida o'ylayman. O'ylay-o'ylay, bitta-yu bitta xulosaga keldim...

– Xo'sh?

– Bizda mehnat madaniyati juda past ekan! Misol uchun, qo'l mehnati masalasini oling. Paxtakorga deb davlat qanchadan qancha mashina o'ylab chiqargan. Shunday ajoyib traktorlar, seyalkalar, kultivatorlar, terim mashinalari va hokazo, va hokazo... To'g'rimi?

– Xo'sh? Xo'sh?

– Lekin misol uchun, mana shu mo'ylovni oling. Hali-hanuz odamlarni tong otmasdan ishga haydaydi, kun botmasdan paxtazordan chiqarmaydi. Go'yo bu qudratli texnika yo'q! Go'yo bu mashinalar paxtakorning qo'l mehnatini osonlashtirish uchun emas, ketmonga zo'r berish uchun chiqarilgan! Ana, akamlar o'zlari kelyaptilar! – dedi Obidov paxtazor tomonga qarab. – Siz undan so'rang-chi! Odamlar ishga qachon chiqadi-yu, ishdan qachon qaytadi, deb bir so'rang-chi, nima derkin?

– Nima deydi?

– Kun chiqmasdan chiqadi, kun botmasdan qaytmaydi, deb javob beradi. Nega deng?

– Nega? – dedi domla Shomurodov. Bu asabiy, tili zahar odam uni yana qiziqtirib qoldi.

Chunki, avvalambor, bu odam hanuz o'ttizinchi yillar tasavvuri bilan yashaydi. Mehnat asli shunday bo'ladi, deb o'ylaydi. Mehnatdan tashqari madaniy hordiq degan, ruhiy olam degan gap bor-ku, degan fikr xayoliga ham kirib chiqmaydi bu odamning! Ammo raisga kerak bu odam! Yuqoridan birov kelsa – hamma dalada! Ish qaynayapti. Lekin bunaqa ekan, bu mashinalarning hojati nima? Davlatimiz nega chiqargan bu texnikani?

Domla Shomurodov indamadi. U to'satdan a'zoyi badani bo'shashib, oyoqlari qaltirab ketganini sezib, ariq yoqasiga majolsizgina cho'kdi. Obidov ham uning yoniga cho'nqayib, mug'ambirona shivirladi:

– Ana, kelyaptilar akamlar! So'rang, so'rang boyagi gapni!..

Egnida yangi oq neylon ko'ylak, soch-soqoli qirtishlangan mo'ylov, og'zi qulog'ida, mamnun iljayib kelardi.

– E-e, domlajon! Shiyponda hordiq olmay bu yerda o'tiribsiz? Qani, qani, marhamat, domla...

– Rahmat, uka... Bu deyman... odamlar qachon tushlikka chiqishadi?

– Odamlar... – mo'ylov munchoq ko'zlarini bir osmondagi oftobga, bir daraxt soyasiga tikdi. – Picha borroq,

domla. Biror soatlarda kep qolishadi...

– Ertalab-chi? Ertalab qachon chiqishadi ishga?

Mo'ylov gapning mazmuni qayoqqa og'ayotganini bilolmay, yangi chust do'ppisini taqir boshiga ishqadi. – Odamlarimiz... oltin odamlar, domlajon. Kun chiqmay chiqishadi ishga.

– Kechqurun-chi? Kechqurun qachon qaytishadi?

– Kechqurun?.. Kechqurun ham shu, domlajon. Ishla desak, qorong'i tushgandayam ishlayverishadi odamlarimiz!..

Soqijon Obidov to'satdan o'rnidan sapchib turdi-da, qo'llari bilan sonlarini shapatilab, xaxolab kulib yubordi. Mo'ylov nima bo'lganini tushunolmay bir qah-qah otib kulayotgan dotsentga, bir domla Shomurodovga qaradi. Domla dotsentga bir o'qrayib qo'ydi-da:

– Yaxshi, – dedi. – Kun chiqmay ishga chiqib, kun botganda qaytishsa... qachon dam olishadi bular?

– Ha... – mo'ylov: „Gapingizga endi tushundim“, degandek xushnud jilmaydi. – Mana, hozir, tushda dam olishadi. Hamma shart-sharoitlarni yaratib qo'yibmiz, domlajon.

– Masalan?

– Masalan, issiq ovqat, – dedi mo'ylov. – Issiq ovqat doim bo'ladi, domlajon.

Aftidan, yuzlari yog' surilgan shirmoy nonday yaltilab turgan bu yo'g'on, barvasta odam uchun turmushda „issiq ovqat“dan katta baxt yo'q, uning hayot haqidagi, inson baxti to'g'risidagi tasavvuri „issiq ovqat“dan nariga o'tmas edi.

Ha, aftidan, bu tili zahar, zahil dotsent haq, Ali mo'ylovning turmush to'g'risidagi tasavvurlari o'ttizinchi yillar darajasida qotib qolgan edi. Bu-ku, bor-yo'g'i o'zi shudir! Biroq Otaqo'ziga nima bo'ldi? Qishloq uchun shuncha ish qilgan, butun bir shaharcha qurgan, obodonchilik uchun jonini fido qilayotgan Otaqo'ziga nima bo'ldi? Nahot qulog'im tinch bo'lsin deb, bu qoloq odamni shunday katta joyda ushlab o'tirgan bo'lsa?

Mo'ylov domlanning xayolga tolganidan foydalanib: „Qani, marhamat, domlajon, dam olamiz“, dedi-da, shiyponga qarab yo'rg'alab ketdi. Soqijon Obidov uning orqasidan tikilib, boshini sarak-sarak qildi:

– Tavba! Bu yoqda shuncha texnika tursa-yu, ish boshiga mana shunaqa... chalasavod bir nodonni qo'yib qo'yishsa! Agar men shu odamning o'rnida brigadir bo'lsam, Xudo haqqi, ayollarga haftada ikki kun dam berardim. Ikki kun dam berib yana planni do'ndirib bajarardim! Shunga hamma imkoniyatlar bor, tushunyapsizmi, domlajon, hamma imkoniyatlar bor!

Domla Shomurodov javob berib ulgurmadi, shu payt orqadan: „Otajon!“ – degan ovoz eshitildi. Boshidagi ro'moli bir tomonga og'ib ketgan yosh bir juvon ularga qarab jadallab kelardi.

„O'rozqulning kelinimi? – dedi Normurod ota. – Ha, o'sha, Nodiraxon...“

Nodiraxon otaga yaqinlashgan sayin qadamini sekinlatib, nihoyat, ariqning u tarafiga kelib to'xtadi, erkaklarnikiday katta, qavargan qo'llarini ko'ksiga qo'yib, bosh egdi:

– Assalom, otajon!

– Ko'p yashang, bolam... – dedi domla. – Dadangiz qalaylar?

– Dadamlar... biroz bo'ldi, sizni qidirib ketuvdilar...

– E, shunaqami? Men hali Otaqo'zi bilan gaplasholmovidim-ku? Uyam band odam, bilasiz...

Nodira nimadandir hadiksirab Obidovga bir qarab qo'ydi. Uning bu qarashini sezgan Obidov: „Xo'p, domlajon“, dedi-da, shiyponga qarab ketdi.

– Siz ana gaplashaman, mana gaplashaman deb yurganingizda, – dedi Nodira entikib. – Jiyaningiz yana yaxshilik qildilar. Erim bechorani ishdan haydadilar, oldin bosh mexaniklikdan bo'shatib cho'lga quvgandilar, endi cho'ldan ham haydabdilar!

– Nega?

– Buni jiyaningizdan so'rasangiz bo'lardi! – dedi Nodi-

ra ko'zlari chaqnab. – Bilmasam, men yuqori tashkilotlarga arz qiluvdim, uy-joy to'g'risida yozuvdim, shungadir-da! „Qarigan chog'imda eshitadigan gapim shu bo'ldimi? Bu uyni deb, tog'angni malomatga qoldirding-ku, noshud! Yo keksaygan chog'imda el-yurt oldida sharmandayi sharmisor qilmoqchimisan meni? Ham meni beobro' qilib, ham o'zing sharmisor bo'lmoqchimisan, tentak!“

– Jiyaningizga aytib qo'ying – dedi Nodira. Uning sovuq yangragan taqdidli ovozi juda uzoqdan eshitilayotganday tuyuldi otaga. – Endi men ham qaytmayman! Arz qilish ham gapmi, kerak bo'lsa markazgacha boraman! Bolalarimni yetaklab tushib boraman!..

Nodira keta boshladi shekilli, uning uzoqlashayotgan qadamlari eshitildi. Normurod Shomurodov og'ir tebranib o'rnidan turdi. Nodiraxon eski shiypom tomonga jadallab borar, shiypomga birov kelgan bo'lsa kerak, hovuz yonida „Volga“ ko'rinardi. Domla ham bir-bir bosib shiypomga qarab ketdi. U shiypomga yaqinlashib qolganida Xolidaxonning tanish, o'ktam ovozi eshitildi:

– Odamlarga tayinladingizmi, Alijon aka? Yaxshi kiyinib kelinglar, dedingizmi?

– Aytdim, qattiq tayinladim!

– Tayinladim deysiz-u, shiyponingizda tartib yo'q! Mana bu axlatlarga qarang. Uyat emasmi? Domla ko'rsalar nima deydilar?

„Kamina yuqoridan kelgan rahbar xodim bo'lsamki, buncha yugurishsa!..“

Shang'illab gapirayotgan Xolidaxon domlani ko'rib, tez yurib yoniga keldi.

– Sizga nima bo'ldi, domlajon? Rangingizda rang yo'q! Oftobga bekor chiqibsiz. Shiypomga kiring, dam oling...

– Rahmat, qizim. Agar iloji bo'lsa... mashinangizda uyga oborib qo'ysangiz.

– Nega? Axir uchrashuv bor-ku?

– Yo‘q, yo‘q! Uchrashuv boshqa kun bo‘lar. Men oldin... bir odam bilan gaplashishim kerak! – dedi domla Shomurodov va Xolidaxonni lol qoldirib, mashinaga qarab ketdi.



Vohid Mirobidovning kuyovinikiga mehmon bo‘lib kelishidan ko‘zlagan bir emas, bir nechta muddaosi bor edi. Avvalambor, kuyovi birinchi kotib bo‘lgan rayon bilan batafsil tanishish, qolaversa, bu rayonga qarashli yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarni ko‘rish, sug‘orish sistemalarini o‘rganish va nihoyat, bir-ikki hafta miriqib dam olish... U o‘zining „kamtaringina“ hayot tajribasidan bilar, kuyovi bilan qizini yo‘qlab borsa, „kavushi yerda qolmas“, boshlariga ko‘tarib izzat qiladigan odamlar doim topilardi. Bu odamlardan bittasi, albatta, qilo‘tmas qadrdoni, shogirdining otasi, mashhur millioner rais Otaqo‘zi. To‘g‘ri, Haydarning ilmiy ishi munosabati bilan oralariga jindak sovuqlik tushgandek bo‘ldi, lekin avvalambor, bunga Vohid Mirobidov emas, Otaqo‘zining o‘z tog‘asi, Normurod Shomurodov aybdor. Buni Otaqo‘zi ham, Haydarjon ham yaxshi bilishadi, qolaversa, Vohid Mirobidov kerakli odamlar bilan zimdan gaplashyapti va bu gaplarning oqibati yomon bo‘lmasligiga imoni komil. Chunki bu dunyoda hamma narsa murosaga bog‘liq. Murosa qilingan joyda hal bo‘lmaydigan ish yo‘q. Har qalay, Vohid Mirobidov bosib o‘tgan salkam oltmish yillik xayot yo‘li shuni ko‘rsatib turibdi.

Bu umumiy rejalardan tashqari, Vohid Mirobidovning yana bitta pinhoni, har holda hozircha o‘zidan ham sir tutayotgan yana bir katta niyati bor. Bu niyat – shu yil bahorda chop etilgan va O‘rta Osiyoda suv muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitobiga bog‘liq. Bu kitob, faqat suv xo‘jaligi mutaxassislari o‘rtasidagina emas, adiblar tili bilan aytganda, keng kitobxonlar ommasi orasida ham ancha-muncha shov-shuvlarga sabab bo‘ldi, bir nechta ijobiy taqrizlar e‘lon qilindi, yor-birodarlari orasida esa mukofotga, respublika miqyosidagi Davlat mukofotiga loyiq ekani e‘tirof etildi. Garchi bu fikr-mulohazalar, xususan,

ijobiy taqrizlar Vohid Mirobidovning shaxsiy tashabbusisiz bo'lmagan bo'lsa-da, bora-bora muallifning o'zi ham asarning ahamiyatiga to'la ishonch hosil qildi.

Ishongandan keyin esa, mukofot haqidagi gaplar ham ro'yobga chiqarilsa bo'ladigan muayyan bir tadbir ekaniga amin bo'la boshladi. Faqat kimdir bu ishga turtki bo'lmog'i, kimdir boshlab bermog'i lozim, xolos. Ehtimol, bu tashabbus Otaqo'zidan chiqar! Haqiqatan, bu kitob Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish muammolaridan tashqari, cho'lni o'zlashtirish, yerning sho'rini yuvish, zovurlar qurish kabi muhim dolzarb masalalarni ham keng ko'lamda qamrab olganki, agar cho'lquvarlar davrasida birorta uchrashuv o'tkazib unda birorta ilg'or mexanizatori, suvchimi, quruvchimi mukofot masalasini ko'tarib chiqsa, buning notabiiy joyi bo'lmas, aksincha, judayam chiroyli chiqadi.

Xullasi kalom, Vohid Mirobidov mashinadan tushib, qizi bilan ko'rishgandan keyin birinchi bo'lib surishtirgan, telefon qilib, bir kelib ketishni so'ragan odam – Otaqo'zi bo'ldi.

Vohid Mirobidov kelganda kuyovi Abror Shukurov qaysi bir kolxozga ketgan ekan, Mahbuba uni kechqurun soat yettilarga yaqin zo'rg'a „qidirib topdi.“

Mahbuba telefon qilganda kolxozdan endi qaytgan Abror Shukurovich kabinetiga kirib, kotiba qiz bergan xatlarni ko'zdan kechirayotgan edi.

– Voy, ertalabdan beri qidiramiz, qayoqlarda yuribsiz, o'rtoq Shukurov?

Abror Shukurovich xotining xiyol erka va qandaydir juda quvnoq ovozi eshitib, ajablendi. O'sha mash'um telefon voqeasidan keyin u Mahbuba bilan juda qattiq gaplashgan va shundan beri er-xotin ikkovi og'izlariga tolqon solib olishgan edi.

– Ha, tinchlikmi?– dedi Shukurov sovuqqina.

– Tinchlik, tinchlik... Mehmon yog'ildi uyingizga! Dadamlar, oyimlar kelishdi Toshkentdan!

Mahbubaning tovushi shunday baxtiyor, shunday samimiy bir quvonchga to'la ediki, Shukurov beixtiyor yumshab:

– E, ko'z oydin sizga, o'rtoq Mirobidova!– deb kuldi.

– Rahmat! Qishloqdan Otaqo‘zi akamlar keldilar. Tez yetib keling, majlis-pajlisingiz yo‘qmi ishqilib?

– Yo‘q, – dedi Shukurov. – Hozir yetib boraman...

U tikka turganicha papkadagi qog‘ozlarga ko‘z yugurtira boshladi.

Birinchi xat obkomdan, Bekmurod Xolmurodovichdan bo‘lib, Shukurovning rayonda biologik laboratoriya ochish to‘g‘risidagi maktubiga javob edi. Javobda laboratoriya ochish uncha maqsadga muvofiq emasligi, lekin agar rayonda ko‘sak qurti juda ko‘payib ketgan bo‘lsa, unda bu masala Qishloq xo‘jaligi vazirligi oldiga qo‘yilishi mumkinligi aytilgan edi. Boshqacha qilib aytganda, agar u, Shukurov biologik laboratoriya ochaman desa, rayonda ko‘sak qurti ko‘payib ketganini tan olmog‘i lozim edi.

Shukurov Bekmurod Xolmurodovichning „usta“ligiga ichida bir kulib qo‘ydi-da, boshqa xatlarni ham tez ko‘zdan kechirib chiqdi. Xatlarning ichida yana bittasi uning e‘tiborini jalb etdi. Bu maktub yana o‘sha mexanizatorning xotinidan bo‘lib, unda Otaqo‘zining zug‘um qilishda davom etayotgani arz qilingan edi.

Abror Shukurovich bir oydan beri birda o‘zi borsa, birda ijrokom raisini yuborib, obkom kotibini o‘rtaga solib, Gosplan va oblirokom orqali biroz qurilish materiallari undirgan, hatto rayonda g‘isht zavodi qurish to‘g‘risida qaror chiqarilishiga muvaffaq bo‘lgan, shundan beri kolxozma-kolxoz yurib, bolalar bog‘chalari va dala shiyponlari bilan tanishmoqda, maqsadi – shu masalada katta kengash o‘tkazish edi. U barcha kolxoz va sovxozlarni aylanib chiqqandan keyin, bugun, nihoyat, kengashni Otaqo‘zining kolxozida o‘tkazishga qaror qilgan, chunki kim nima demasin, uning bu sohadagi ishlarini hammaga ibrat qilib ko‘rsatsa arzirdi!.. Shukurov bu yoqda ne rejalarni tuzib yursa-yu, Otaqo‘zi bo‘lsa u yoqda...

Abror Shukurovich ensasi qotib, papkani yopdi-da, kabinetidan chiqdi. U, Mahbuba aytgandek, o‘n daqiqaga qolmay yetib bordi, bordi-yu, o‘z hovlisini tanimay qoldi: hovlida qandaydir katta bir tantana boshlangan, qo‘ni-qo‘shnilar bo‘lsa kerak, uch-to‘rtta xotin yozgi oshxonaga

o'rnatilgan ko'tarma tandirlarda non yopmoqda, ulardan beriroqda, egnilariga oq xalat kiygan ikki yigit qo'y so'ymoqda, qishki oshxonadan jaz-juz ovozlari eshitilardi.

Shukurov eshikdan kirishi bilan uydan chiqqan qaynanasi Nazokatbibi, semizligiga qaramay, pildirab kelib, peshanasidan o'pdi, oppoq qo'llari bilan yelkasini siladi.

– Voy, kuyovto'ramdan o'zginam o'rgilay! O'ynab-kulib yuribsizmi, aynanib ketay bo'yginangizdan...

Nazokatbibining ketidan Mahbuba ko'rindi. Egnida bo'y-bastiga yarashgan nafis havorang xalat, soch tolalari oppoq yuziga, peshanasiga shoirona bir „tartibsiz“lik bilan sochilgan Mahbuba qandaydir ochilib, o'n yashar yasharib ketgan edi.

Shukurov bu o'rinsiz dabdabani ko'rib, g'ashi kelgan bo'lsa ham xotinini ko'rib, beixtiyor kulimsiradi:

– Tabriklayman, xonim!

– Rahmat... sizniyam!– Mahbuba oyisining oldida erkalanib erini qo'ltiqlab oldi-da, uyga boshladi. – Yuring, kiyimlaringizni almashtirib oling!

Shukurov xotinining ketidan uyga kirarkan, qaynanasining ko'ziga ko'zi tushdi. Nazokatbibining nigohida, ajinsiz silliq yuzida mislsiz bir g'urur, qizining erkalgisi, eri bilan inoqligi tufayli tug'ilgan onalik g'ururi porlab turardi.

– Xo'sh, bugun ja... ishlar katta-ku, xonim?

– Qanaqa ish? – dedi Mahbuba kaftining orqasi bilan qosh-kipriklariga tushgan mayin soch tolalarini tuzatib.

– Butun bir to'y qilib yuboribsizmi?

– To'y qilsam arzimaydimi? Shuncha joydan ota-onam yo'qlab kelishsa-yu...

– Men arzimaydi deyayotganim yo'q! – Abror Shukurovich hozir yana o'sha ko'ngilsiz gap boshlanishini tuyib, yuragi bezillab ketdi. – Lekin bu qo'y, bu qassoblar....

– Qo'yni bozordan oldirdim, qo'rqmay qo'ya qoling!

– Gap qo'ydayam emas. Nahot, tushunmasangiz? Nahotki hammaning ko'zi bizda ekanini tushunmasangiz?

– Yo'q, tushunmayman! – dedi Mahbuba birdan bo'zarib.

– O'ttizinchi yillardagi ocharchilik bo'lsaki, tushunsam! Biroq hozir, bu to'qchilik zamonda... birovdan pora olmasak,

boshqa qilmasak, kimdan qo'rqaman? Oshing halol bo'lsa ko'chada ich, degan gap bor.

– Xo'p, mayli, bilganingizni qiling!

Vohid Mirobidov bilan Otaqo'zi hovlining to'rida, kun botmasdanoq soya tushadigan ishkorn tagida qat-qat shoyi ko'rpachalar to'shalgan katta so'rida yonboshlab yotishar, o'rtadagi bir-biriga biriktirib qo'yilgan qo'sh xontaxtada qovurilgan go'sht, somsa, butun pishirilgan tovuqlar, patirlar tog'day qalangan, rang-barang shishalar askarday saf tortgan, qadahlar limmo-lim edi.

So'ridan beriroqda, favvorali kichikroq hovuzcha bo'yidagi chiroyli yasatilgan stol atrofiga qaynanasi bilan Otaqo'zining xotini Oliyaxon choy ichib o'tirishar, yuzlari gul-gul yongan Mahbuba o'choqboshidagi oshpazlarga ko'rsatma berib turardi.

Otaqo'zi uydin chiqqan Shukurovni ko'rib, xaxolab kuldi:

– Sizdaqa mezbondan o'rgilib ketdim, o'rtoq Shukurov! Bu yoqda mehmon chaqirib qo'yib, o'zlari majlis o'tkazib yuribdilar!

Vohid Mirobidovning og'zi to'la oltin tishlari bilinar-bilinmas yaltilladi.

– Mayli, rais, mayli! Al ma'murin – ma'zurin, deganlar eskilar. Ya'niki, rahbar xodimlar hamisha ma'zurlidir!

– Xah! Kuyovingizni oqlash kerak bo'lsa, gap topasiz, a, domla! – Otaqo'zi o'z gapidan o'zi mast, yana hovlini boshiga ko'tarib qiyqirib kuldi. – Xo'sh, qaysisidan quyaylik, o'rtoq mezbon? Oqidanmi, qizilidanmi?

Shukurov Oliyaxon bilan so'rashib, so'riga chiqdi, chiqarkan, Otaqo'zining xatti-harakatlari, besabab xaxolab kulishlari qandaydir notabiiy, sun'iy ko'rindi... U bir nimadan juda asabiylashgan, biroq bu holatini yashirib, o'zini xurram ko'rsatishga urinayotgan odamga o'xshardi.

Abror Shukurovich: „Shoshmang, avval bir piyola choy ichib, nafasni rostlab olaylik“, deb kulgan edi, Otaqo'zi:

– Yo'q, kechirasiz! – dedi uning qo'lidan piyolani olib.

– Bugun siz emas, biz xo'jayin bu uyda! Mehmonning amri vojib, deganlar eskilar! Katta bo'lsangiz, idorangizda

kattasiz. Idorangizda hamisha bo'ysunamiz sizga! Ammo bugun bu yerda... bu yerda siz bizga bo'ysunasiz, shunaqami, domlajon?

Abror Shukurov ichimlikni ko'p xushlamagani uchunmi, bunaqa o'tirishlarga tobi yo'qroq, umuman, u bunaqa ziyofatlardan zavq oladigan odamlarga ko'p „tushunavermas“ edi. U ayniqsa, „qittay-qittay“ qilishib, shirakayf bo'lib olgan odamlar bilan muomala qilishdan qiynalar, chunki o'zi zavq qilolmagan joyda haddan ziyod zavqlanib ketgan odamlar bilan gaplashib huzur qilishi amri mahol.

– Rahmat, Otaqo'zi aka, hozir olamiz!

– Avval oling, keyin rahmat aytasiz! Qani, domla, kuyovto'rangizga bir ko'rsatib qo'ying olish qanaqa bo'lishini! – Otaqo'zi o'zini sal orqaga tashlab, domlanning yelkasini qoqdi. – Parvo qilmang, Vohid Mirobidovich! Haligi iltimosingizni albatta bajo keltiramiz. Cho'lquvarlar aytdimi, bas! Ro'yobga chiqmagan ish bo'lmaydi. Bitta majlis chaqirib, taklifni o'rtaga tashlaymiz – qarsak bilan o'tib ketadi! Mukofot cho'ntakda, deb hisoblayvering, ha! Cho'lquvarlar taklif qiladi-yu, bermay ko'rishsin-chi mukofotni!

– Qanaqa mukofot? – Shukurov hayron bo'lib bir Otaqo'ziga, bir qaynatasiga qaradi. Otaqo'zi: „Domlanning kitobi bor-ku“, deb so'z boshlagan edi, Vohid Mirobidov:

– O'zaro gap, keyin aytib beraman, o'g'lim! – dedi-da, oldidagi qadahni bir ko'tarishda bo'shatib, hovuz tomonga yuzlandi:

– Dutorni opchiq, qizim! Rais aytmoqchi... bu dunyo-ning tashvishlarini unutib, bir o'ynab-kulaylik bugun!

– E, bormisiz, domlajon!– Otaqo'zi yayrab ketib, qadahlarni yana to'ldirdi. Mahbuba chopqillab kirib, uydan dutor ko'tarib chiqdi. Vohid Mirobidov, yeng shimarib, dutorni sozlarkan:

– Qani, xonim!– dedi Nazokatbibiga qoshini uchirib.– Nimadan boshlaymiz, „Rohat“ danmi yo „Tanovar“ danmi?

– Qo'ying, domlajon! Mana, Oliyaxondek yoshlar turganda... mening davraga tushishim uyatdir! – dedi

Nazokatbibi, biroq Vohid Mirobidov „Rohat“ni eshib chalib: „Qani, xonim, o‘yin qanaqa bo‘lishini ko‘rsatib qo‘ying bu yoshlarga!“– deb xitob qilganda ingichka qoshlarini chimirib o‘rnidan turdi.

Hanuz yosh ko‘rinishga urinib, qosh-ko‘zlarini bo‘yab yuradigan, yumaloqdan kelgan silliq yuzi qaymoqday oppoq Nazokatbibi, durkun gavdasini yengil tebratib, qo‘sh-qo‘sh tilla uzuklar taqilgan yo‘g‘on, kalta barmoqlarini qarsilatib, „Rohat“ga shunday sho‘x, shunday quvnoq yo‘rg‘alab ketdiki, Otaqo‘zi kamoli zavqlanganidan:

– Yashang! Bormisiz, ayajon! – deb qichqirib yubordi. Mahbuba yugurib borib, oyisining ikki yuzidan cho‘lp-cho‘lp o‘pib oldi. Yolg‘iz Oliya bilinar-bilinmas kulimsirab o‘tirar, uning kulgisiyam qandaydir nolon, yomon bir tashvishda o‘tirgan odamning dardli tabassumiga o‘xshardi.

Abror Shukurov qaynanasi bilan qaynatasining quvnoqligiga, ularning hayotdan zavqlana olish qobiliyatiga doim havas qilib yurardi. O‘zi hech qachon miriqib dam olishni bilmagan, dam olishga borgan paytlarida ham qandaydir notinch o‘ylar, bitmas-tuganmas tashvishlar girdobidan sira qutula olmaydigan odam, u o‘zining bu kamchiligini tan olardi. Bu nuqsoni sabab, u faqat o‘zini emas, eng yaqin kishilarini, hatto ota-onasiga tortgan umr yo‘ldoshini ham sababsiz qiynayotganini tushunar, shu boisdan quvnoq kishilarga, fursat g‘animat deb, o‘ynab qolish qobiliyatiga ega bo‘lgan odamlarga havas bilan qarardi. Lekin hozir... hozir qaynatasining zavq bilan tebranib dutor chertishi ham, qaynanasining, qaynanasidan keyin davraga tushgan xotinining „Lazgi“ga sho‘x dikanglab, yayrab-yashnab o‘ynashlari ham, Otaqo‘zining „Yashang, Mahbubaxon! Dunyo turguncha turing!“– degan shirakayf qiyqiriqlari ham – hammasi g‘ashini keltirmoqda, hammasi qandaydir juda xunuk, juda bachkana ko‘rinmoqda edi ko‘ziga. Yozgi oshxonada kuymalanib yurgan qo‘shni ayollar, kabob pishirayotgan qassob yigitlar ishlarini yig‘ishtirib qo‘yib, tomosha qilib turishar, ularning ko‘zlari zavq bilan porlar, biroq Shukurovning nazarida, hozir faqat shu yigitlarga emas, butun olam bu bachkana o‘tirishni

kuzatib turganday, jumlayi jahon bu hovlida bo'layotgan bazm-u jamshidni ko'rib, uyalib ketayotganday tuyulardi...

U oqqushning bo'yniday oppoq qo'llarini havoda noz bilan silkitib, kelishgan qaddini chiroyli qilpillatib, kabobpaz yigitlarning ko'zlarida hayrat uyg'otib raqs tushayotgan xotinidan ko'zini uzib, yerga qaradi. U hozir bir narsadan – xotining erkalaniib kelib, uni davraga tortishidan qo'rqr, chunki Mahbuba shunday qilsa, o'zini tutolmay portlab ketishini bilardi...

Yo'q, xayriyat, xotini uning fe'li aynab turganini sezdi shekilli, yoniga yo'lamadi, qiyqirib kulganicha, yugurib borib Oliyaxonga tarmashdi...

Iymanibgina o'rtaga tushgan Oliyaxon, o'ynamoqchi bo'lib, bir-ikki marta qo'lini ko'targan bo'ldi, biroq uning o'yini ham labidagi tabassumiday nogiron, davraning, xususan, erining qandaydir yasama, asabiy ko'tarinki kayfiyatiga tamom zid edi.

Shukurov Oliyaxonning dutor kuyiga uncha qovushmagan uyatchan harakatlarini zimdan kuzatarkan, esiga negadir lop etib tunov kungi qiz tushdi. Ko'zlari ma'yus o'sha o'ychan qiz bilan Oliyaxon o'rtasida qandaydir g'alati bir o'xshashlik bor edi. Ajabo, bir-ikki hafta o'tibdi-yu, u qiz, ayniqsa, uning sal g'amgin katta-katta ko'zlari hanuz esidan chiqmabdi. Ha, u qizning orzusini ro'yobga chiqarish kerak. Mayli, o'rtoq Xolmurodov nima desa der, kerak bo'lsa ko'sak qurti ko'payib ketyapti, deb bo'lsa ham bitta laboratoriya ochib berish kerak unga!..

Oliyaxon o'yinni oxiriga yetkazmay, yuzini yashirganicha joyiga borib o'tirdi. Otaqo'zi jahli chiqib: „Shuyam o'yin bo'ldi-yu!“ deb o'rnidan tura boshlagan edi, hayriyat shu payt kabobpaz yigitlardan biri „Kabob tayyor, kennoyi!“ – deb xitob qildi-yu, raqs o'z-o'zidan to'xtadi.

Mahbubaning talabi bilan hamma hovuz bo'yiga ko'chdi. U yerda chiroqlar yoqilgan, hovuzchaga quyilayotgan favvora suvlari lampochka shu'lasida tovlanib, ajib manzara kasb etgan, havoyam salqinlashib, hovlida mayin, osuda bir muhit vujudga kelgan edi.

Tobora „ochilib“ borayotgan Otaqo‘zi, hamon o‘sha asabiy xushnud alfozda, „jonon“larning qadahlariga shampän, „yigit“larga konyak quyarkan:

– Qani! – dedi qo‘lidagi qadahni baland ko‘tarib. Bu besh kunlik omonat dunyoda yayrab qolish uchun, g‘am-g‘ussa degandan forig‘ bo‘lib, doim o‘ynab-kulib yurish uchun ko‘taraylik bu sharobni!

Abror Shukurovich yer ostidan kabobpaz yigitlarga bir qarab qo‘ydi. Nazdida Otaqo‘zi bu gaplarni jo‘rttaga hammaga eshittirib aytayotganday, go‘yo: „Ko‘rib qo‘yinglar, men raykom kotibining tantig‘i bo‘laman, bu uyda istagan erkalgimni qila olaman!“ – deyayotganday tuyuldi. U shu xildagi odamlarni, rahbarlarga o‘zlarini juda yaqin qilib ko‘rsatadigan va bu bilan ma‘lum maqsadlarni ko‘zlaydigan odamlarni yaxshi bilardi....

Lekin Otaqo‘zi!.. „Nahot Otaqo‘zi hozir shu maqsadni ko‘zlayotgan bo‘lsa? Bu odamga nima bo‘ldi o‘zi?“

Shukurov birdan xuruj qilib kelgan shaytonga hay berib, yerga qaradi, mezbonlik majburiyati uni tishini tishiga bosishga majbur etdi.

Otaqo‘zining salobatli odamga nomunosib qiligidan yolg‘iz Shukurov emas, hatto qaynatasi ham o‘ng‘aysizlana boshladi chog‘i, allaqanday g‘imirsib, chetroqqa surilib o‘tirdi. Otaqo‘zi o‘z qadahini „oq qilib“, yana quya boshlagan edi, Oliyaxon qadaha kaftini qo‘yib:

– Qo‘ying, – dedi yolvorib. – Bugunga yetar endi, xo‘jayin!

– Labbay? – Otaqo‘zi yana o‘sha sovuq, yasama xushnud kulgisini namoyish qildi. – Bugun qancha yesam haqqim bor! Qancha o‘ynab-kulsam haqqim bor manim!

Abror Shukurovich gapni hazilga burmoqchi bo‘lib:

– Qaysi xizmatlari uchun bu huquqqa ega bo‘ldilar, rais? – dedi. – Paxta planini bajardilarmi bugun?

– Yo‘q! Paxta plani bo‘lmasayam... obkom va raykom kotiblarining muhim topshirig‘ini do‘ndirib keldim bugun!

– Qanaqa topshiriq?

– Iye, hali eslaridan chiqdimi? Keksa olimni hovli-joyidan haydab chiqarib, uyni o‘sha... kolxozga o‘tkazib qo‘ygan bir... alvastiga qaytarib berish to‘g‘risidagi buyruqlari bor-

ku? O'sha buyruqni bajo keltirdim bugun! Keksa olimning kitob-pitoblarini ko'chaga otib, uyni o'sha, o'zlariga arz qilib kelgan jononga bo'shatib berdim bugun!

– Menga qarang, Otaqo'zi aka!– Shukurov shaxt bilan o'rnidan turdi. Bu safar uni mezbonlik tuyg'usi ham to'xtata olmadi. – Nima kerak bu maynabozchilik? Mening uyim sahna, siz artist emassizki, bunaqa qiziqchilik qilsangiz?

– Nega qiziqchilik bo'larkan? – Otaqo'zi ham stullarni sharaq-shuruq surib, o'rnidan turdi.

Uning vajohatidan odam qo'rqulik, mushtlari tugilgan, ko'zlari qon talashgan edi. – Bundan chiqdi... bugun aytgan gaplari ertaga eslaridan chiqadigan odatlari bor ekan-da, hali?

– Xo'jayin! Jon xo'jayin! – Oliya lablari titrab, eriga tashlandi.

Abror Shukurovich stul suyanchig'ini changallaganicha yerga qarab qoldi. Davraga chuqur sukut cho'mdi. Bu sukutni Otaqo'zining og'ir hansirashi-yu, favvora suvlarining so-kin shovullashi buzardi, xolos.

Shukurov yer ostidan oshxona tomonga ko'z tashladi. Xayriyat, u yerdagilar qozon-tovoq bilan band ko'rinar, biroq chindan ham bandmi yo o'zlarini ko'rib ko'rmaganlikka olishyaptimi – buni bilib bo'lmas edi.

– Xo'p, mayli, qo'ying bu gaplarni! Men sizni... jiddiy bir odam deb o'ylardim.

– Yo'q! – dedi Otaqo'zi. – Men siz o'ylagan yaxshi odam emasman! Men eng nopok, eng vijdotsiz, eng noinsof odamman! – U yana stoldagi shishaga qo'l cho'zdi. Lekin Abror Shukurov uning qo'lidan shishani shartta yulib oldi.

– Bas! Yetadi!.. Nima bo'ldi o'zi? Gapirsangiz-chi, axir!

Otaqo'zi uning savoliga javob bermadi, o'zini stulga tashlab, boshini changallab oldi.

Shukurov savol nazari bilan yana Oliyaga qaradi. Oliyaxonning ko'zi jiqqa yosh edi.



Tog'a-jiyanlarning to'qnashuvi hech kutilmagan bir payt, kutilmagan bir vaziyatda ro'y berdi.

Otaqo'zi ertalab naridan beri nonushta qilib endi uydan chiqayotgan edi, bog' eshikda Normurod Shomurodov ko'rindi.

– Otaqo'zi!

Otaqo'zi istar-istamas orqaga qaytdi. Normurod ota egnida kampir hayot chog'laridan qolgan yo'l-yo'l pijama, oyog'ida eski shippak, odatdagiday yalangbosh, qovog'i soliq, xo'mrayib kelardi. Tog'a-jiyan quduq yonida uchrashib qo'l berishib ko'rishishdi.

– Seniyam ko'radigan kun bor ekan-ku?

– Nima qildi?– dedi Otaqo'zi, u shoshib turgani uchun hozir tog'asi bilan gaplashib o'tirishga, uning uzundan-uzoq pand-u nasihatlarini eshitishga na toqati, na istagi bor edi.

– Gap ko'p!– dedi domla Shomurodov qovog'i ochilmay.

– Gap ko'p bo'lsa... boshqa kun gaplasharmiz. Hozir cho'lga ketyapman...

Domlanning ukparday mayin soch tolalari bilan o'ralgan yaltiroq boshi qizil siyoh tomganday ohista qizarib, ko'zlari qisila boshladi.

– Cho'l-po'ling bir yoqqa qochib ketmas! – dedi u ovozi sovuq yangrab.

Tog'asining yoqimsiz bir gapni qo'zg'amoqchi ekanini sezgan Otaqo'zi:

– Bo'lmasa sizning gapingiz bir yoqqa qochib ketadimi? – dedi ensasi qotib. – Aytyapman-ku, qaytib kelaman deb!

– To'xta! – dedi Normurod ota kutilmagan bir qahr bilan.
– Uyimda hozir O'rozqul kutib o'tiribdi!

Otaqo'zi avval tog'asining Mingbuloq masalasini qo'zg'ashidan qo'rqqandi. Biroq O'rozqulning nomini eshitishi bilan hamma gapga tushundi-yu:

– Tog'a! – dedi bo'g'ilib. – Men u odamning nima maqsadda kelganini yaxshi bilaman. Biroq hozir...

kelamiz: Otaqo'zi akaning qurilish va obodonchilik sohasida qilayotgan ishlari nafaqat shu rayon, balki butun oblastga ibrat bo'lg'usidir!

Obkom kotibining bu gapini majlis ahli yana xushnud qarsaklar bilan kutib oldi-yu, cho'ldagi „letuchka“ paytidagiday Otaqo'zining ko'zidan yana yosh chiqib ketdi... Ha, kim nima demasin, kishining ezgu ishlari, yaxshi niyat bilan to'kkan peshana terlari zoye ketmas ekan!

Otaqo'zi Bekmurod Xolmurodovichning ehtirosli nutqi-ga quloq solib va negadir so'nggi kunlarda yuragini qon qilgan voqealarni eslab, tirband zalga tikilib o'tirarkan, shu haqda o'yladi, nimadandir o'ksib, kimlardandir ranjib, ko'z yoshi aralash o'yladi.

Kengashdan keyin Otaqo'zi bog'da ziyofat berdi. Ziyofat ham juda g'alati bo'ldi. Shu yil ko'klamda o'rmon xo'jaligi rahbarlari Otaqo'ziga nahangsimon bir baliq hadya qilish-gandi. Katta daryodan to'r solib tutilgan bu baliq o'sha paytning o'zida ikki puddan oshiq, bo'yi ham salkam ikki metr kelardi. Otaqo'zi bu baliqni bog'dagi katta hovuzga tashlab, non, don-dun, mayda baliq berib boqtirayotgan edi...

Tomog'idan changak o'tkazib, tolga bog'lab qo'yilgan bu nahangni hovuzdan tortib olish huquqi Bekmurod Xolmu-rodovichga berildi. Uyam bu sharaflı vazifadan mamnun bo'lib, yechinib suvga tushdi. Uch oyda xo'p semirib, bo'yi ikki metrga yetgan nahang avval simga ilashib itoatkorlik bilan hovuz chetiga yaqinlashib keldi, biroq qirg'oqqa ozgina qolganda xatar borligini payqab qoldi-yu, dumini bir siltab hovuz bo'yidagi olomonni shalabbo qildi-da, suvga sho'ng'idi. Bo'ldi kulgi! Bo'ldi qiyqiriq!

Baliqning epkini bilan suv tagida qolgan va xaxolab kulayotgan Bekmurod Xolmurodovichning yoniga Abror Shukurovich yechinib tushdi. Buni ko'rib yana bir-ikkita yosh raislar kiyim-piyimlari bilan hovuzga kalla tashlashdi. Xullasi kalom, o'n chog'li odam simga tarmasha-tarmasha, hamon suvni to'fon qilib, hamon olishayotgan baliqni zo'r-bazo'r qirg'oqqa sudrab chiqishdi. O'ziyam, balig'i tushmagur, uch oy tekin yeb, toza semirgan ekan, bol tomgan qovurdoq bir dunyo odamga yetdi.

Lekin ziyofat ayni qizib, Otaqo'zining sha'niga aytilayotgan qadahlar ayni avjiga chiqqanda Abror Shukurovich obkom kotibini qo'ltiqlab, sekin bog'ning ichkarisiga olib kirib ketdi.

Otaqo'zi gap o'zi haqida bo'lishini sezdi, sezdi-yu, kengashdagi maqtovlar, dasturxon tepasidagi alyorlardan tog'day o'sgan ko'ngli yana namozshom bo'lib, pitirlab qoldi. U kotiblarning qaytishini birpas kutdi-da, mehmonlarning ko'zini shamg'alat qilib, sekin olmazorga kirdi.

Shukurov bilan Bekmurod Xolmurodovich bog' etagidagi anhor bo'yida tippa-tik turib suhbatlashmoqda, olma shoxlari orasidan yuzlari aniq ko'rinmas, biroq „san-manga“ borib qolishgani ovozlaridanoq bilinib turardi.

– Siz o'zingizni o'ta odamshavanda, o'ta insonparvar hisoblab, bizni aksincha, inson qadrini bilmaydi, demoqchimisiz? Bekmurod Xolmurodovichning bo'g'iq, titroq ovozi tuyqusdan tahdidli yangrab ketdi.

– Gapni burmang! – dedi Shukurov ham kutilmagan bir ohangda.

– Burmasam... maqsadingizga tushuna olmay qoldim! Siz o'ylagan muammolarni biz ham o'ylayapmiz, o'rtoq Shukurov. Ammo bu muammolardan tashqari, xususan, tabiat muammolaridan tashqari, iqtisodiy omil, degan gaplar ham borkim, biz bu omilni hisobga olmasdan ilojimiz yo'q! Men bu odamni maqtasam, shu jihatlari uchun maqtayapman, xolos. Rahbar xodimlarning qadrini bilmoq kerak, o'rtoq Shukurov.

– Hech kim kamsitayotgani yo'q bu odamni! Biroq... ortiqcha maqtov har qanaqa odamniyam yo'ldan uradi. Buni ham unutmashimiz kerak.

– Bo'pti!

– Yaxshi!

Otaqo'zi gap tugaganini sezib, asta orqaga chekindi. Ketma-ket kotiblar ham qaytib kelishdi. Yuzlari qizargan, qovoqlari uyulgan, bir-biriga qarashmas edi. Sal o'tmay Shukurov bir ish bilan Toshkentga taklif qilinganini bahona qilib, uzr so'rab, jo'nab ketdi. Biroq uzr so'rasin-so'ramasin, uning obkom kotibini tashlab ketishi kamdan

kam uchraydigan g'ayritabiiy bir holat edi. Shu sabab, noqulayroq bir vaziyat vujudga keldi-yu, sal, o'tmay Bekmurod Xolmurodovich ham ruxsat so'radi. U birpas mehmonlarning tarqalishini kutib turdi-da, Otaqo'zini qo'ltiqlab bog'ga o'tdi.

Rayon rahbarining uni go'yo nazarga ilmaganday tuyqusdan jo'nab qolishi chindan ham qattiq tekkan shekilli, Bekmurod Xolmurodovichning xatti-harakatlari asabiy, yumaloqdan kelgan xushsurat yuzida Otaqo'zi ilgari ko'rmagan g'urur aralash sovuq bir ifoda paydo bo'lgandi.

– Bu deyman, – dedi u, qalin jingalak sochlarini qo'sh qo'llab silarkan, – nega bunaqa... oralaringdan qora mushuk o'tib qoldi?

Otaqo'zi yelkasini uchirdi.

– O'zim ham hayronman, o'rtoq obkom kotibi. Mushugini „pisht“ degan joyim yo'q. Davlatimizning topshirig'ini qo'limizdan kelgancha bajarib yuribmiz. Haligi uy masalasi bo'lsa... o'sha bezbet shallaqiga, kechirasiz, Bekmurod Xolmurodovich, tavba-tazarru qilib, qaytarib berdik. Ammo bu odam, hayronman, negadir ja-a... to'nini teskari kiyib oldi.

Otaqo'zi sal iymanib, inqillab-sinqillab gapira boshlagan bo'lsa ham bo'lgan voqealarni eslagan sayin yuragi o'rtanib, ko'nglidagi bor dardini bir yo'la to'kib soldi.

Bekmurod Xolmurodovich hamon boshini bir tomonga osiltirganicha, gulzordan yulib olgan qizil gulni iskab, uzoq sukut saqladi, so'ng:

– Mayli, qizishmang, Otaqo'zi aka, – dedi katta rahbarlarga xos bir vazminlik bilan. – Bu odam o'zicha zo'r bir yangilik yaratmoqchi bo'lyapti! Yaratib ko'rsin. Siz ham o'z ishingizga puxta bo'lavering. Uyni qaytarib berib to'g'ri qilibsiz. Mingbuloq masalasida esa... haliyam bo'lsa loyihachilar bilan bir maslahatlashib ko'ring. O'n-o'n besh mingning bahridan o'tib bo'lsa ham qurilishni biror chaqirim nari siljitsangiz yomon bo'lmaydi. Bu odam bilan ham hisoblashmoq kerak...

– Aytyapman-ku, hisoblashmoq tugul... etagida namoz

o'qiyapmiz deb!.. Tag'in nima qilaylik axir? Bo'lmasa mana, marhamat, bergan raisligini olsin!

– Bekmurod Xolmurodovich tishi og'riganday yuzini burushtirdi.

– Nima deyapsiz o'zi? Kap-katta odam yosh bolaning gapini gapirasiz! Obkom doim sizni qo'llab kelgan va bundan keyin ham qo'llab-quvvatlaydi!

– Rahmat! – dedi Otaqo'zi beixtiyor ko'ngli erib. – Sizdan to abad minnatdorman. Ammo lekin ko'klamda maslahatimga kirmadingiz-da, Bekmurod Xolmurodovich! Maslahatimga kirib, shu odamning o'rniga kelganingizda olam guliston edi. Obkom kotibi bo'lish katta gap, to'g'ri. Ammo bu yerda o'zingizga o'zingiz xo'jayin bo'lardingiz. Birga qo'l ushlashib ishlashardik...

Otaqo'zining gapi Bekmurod Xolmurodovichning usiz ham bezillab turgan yarasiga tegdi shekilli:

– Mayli, qo'ying bu gapni! – dedi-da, suhbatga nuqta qo'ydi.

Otaqo'zi qolgan rahbarlar bilan birga Bekmurod Xolmurodovichni shahargacha kuzatib qo'ydi. Obkom kotibining muomalasidan ko'ngli ancha yorishib, orqaga qaytarkan, to'g'ri Fazilatxonning oldiga borishga ahd qildi. Nazarida, so'nggi kunlarda osmonni qoplagan qora bulutlar bugun xiyol tarqab, oftob charaqlab ketgan, endi to'yni boshlayversa ham bo'lardi. Faqat ko'nglini sal xira qilib turgan bir narsa bor, u ham bo'lsa – tog'asi! Lekin bu muammoni qanday hal qilishni o'ziyam bilmas, bitta-yu bitta umidi ana shu to'ydan! To'y boshlansa, o'rtaga odam qo'yar, uzr so'rar, kerak bo'lsa oyog'iga yiqilar, egilgan boshni qilich kesmas, degan gap bor-ku, boshimni egib borsam u ham sal yumshar, gunohimdan o'tar, u ham odam-ku, axir, deb o'ylardi Otaqo'zi.

O'ninchi bob



Vohid Mirobidov bilan Nazokatbibi mana, uch-to'rt kundirki, „Sharq yulduzi“ kolxozining sanatoriysida dam olishmoqda.

O'n besh-yigirma kishiga mo'ljallangan bu sanatoriy Mingbuloqning tepasida bo'lib, bir tomoni ko'kalamzor o'zan, bir tomoni o'rmon xo'jaligining archazor va bodomzorlariga tutashib ketardi.

Kolxozda hanuz ish qizg'in bo'lgani uchun dam olish uyida ulardan boshqa hech kim yo'q, sanatoriyning qorovulidan tortib, oshpazigacha, sharqirab oqqan suv bo'ylariga qurilgan ko'rkam, bahavo kottejlar, o'zanga tushovlangan biyalarning serko'pik qimizlari, shundoq qo'l cho'zib olsa bo'ladigan olma-yu uzumlar – hammasi muhayyo, hammasi er-xotinning ixtiyorida edi. Shunday bo'lsa ham Vohid Mirobidovning negadir ko'ngli to'lmas, musaffo tog' havosiga qaramasdan, u qandaydir lanj, hamma narsaga loqayd edi.

Vohid Mirobidov bu ko'rkam, xushmanzara joylarga birinchi kelishi emas. Avval ham ko'p kelgan, ko'p dam olgan. Biroq ilgari hech qachon bu safargiday yolg'iz bo'lgan emas. Burungi kelishlarida bir yonida shogirdi Haydar, bir yonida Otaqo'zining o'zi bo'lar, „professor Vohid Mirobidov qadam ranjida qilibdilar“, deb hatto raykom kotibigacha tashrif buyurar, qo'ylar so'yilib, xonanda va sozandalar taklif qilinib, xilvat bodomzorlarda, guvullab oqqan sharsharalar tagida tongotar bazmu jamshidlar qurilar, bu o'tirishlarning guli, hokimi mutlaqi uning o'zi bo'lar, professor Vohid Mirobidovning aytgani aytgan, degani degan edi. Bu safar... er-xotinni sanatoriya Haydar olib keldi, keldi-yu, o'zi turmadi. Bir nimani bahona qilib, ertasigayoq qishloqqa tushib ketdi. Otaqo'zi bo'lsa... uch-to'rt kundan beri bir marotaba ham kelib xabar olmadi. Faqat bir-ikki marta telefon qilib, hol-ahvol so'radi, ish ko'pligini, kolxozda katta kengash o'tayotganini bahona

qilib, uzr aytdi, oshpazlarni chaqirib, telefonda topshiriqlar berdi. Biroq Otaqo'zi qancha bahona topmasin, uning munosabati o'zgarib qolgani yosh bolaga ham ayon edi.

Ammo Vohid Mirobidovga Otaqo'zidan ham burun kuyovining muomalasi qattiq tegdi. Otaqo'zi-ku, har qancha yaqin bo'lganda ham yetti yot begona, o'z kuyoviga nima bo'ldi? O'z kuyovi bir marta kelib xabar olmasa-ya! Qizlari Mahbuba o'zi kelolmasa ham har qalay telefon qilib, oyisi bilan gaplashib turibdi. Abrorjon esa, omon bo'lsin ishqilib, hatto telefon ham qilmadi.

Kuyovi raykom kotibi bo'lishidan oldin ham Vohid Mirobidovning bu yerlarda o'ziga yarasha obro'si bor edi. Ayniqsa, kanal qazilib, cho'lga suv kela boshlagandan keyin obro'si ortib ketgandi. Institut ishlari bilan cho'lga kelsa, kolxoz-sovхоз kattalari u yoqda tursin, hatto rayon va oblast rahbarlari ham izzatini bajo keltirib, qo'yarga joy topolmay qolishardi. Endi o'z kuyovi katta bo'lib keldi-yu, izzat-ikrom bundoq bo'ldi.

Otaqo'zi-ku, o'g'lining ishi uchun Isoning alamini Musodan olib, tog'asining alamini undan olayotgan bo'lishi ham mumkin. Unday desa, tog'asi bilan ham bo'laricha bo'libdiku!.. Ha, yaxshida gina bo'lmas, yomondan gina ketmas, dedanidek, ginaxonligini sira qo'ymaydigan bu ho'kizfe'l chol omon bo'lsa, ko'p o'yinlar ko'rsatadi hali! Tunov kuni fotihaga kirganda Vohid Mirobidov uning ahvol-ruhiyatini ko'rib, yuragi zirqirab ketgandi, biroq it fe'lini ko'rib, uniki ham tutdi, ichidagini sirtiga chiqarmadi-yu, ammo lekin „bu kuningdan battar bo'l“, deb chiqib ketdi... Mayli, Vohid Mirobidov tog'a-jiyanlardan gina qiladigan joyi yo'q, ming yaqin bo'lgandayam yot yotligiga boradi. Lekin o'z kuyovi... qaynata-qaynana mehmon bo'lib kelishibdiki, bir kun birga bo'lmadi, yayrab-yozilib, chaqchaqlashib o'tirmadi. Vohid Mirobidov uning kamgap, kamsuqumroq bir odam ekanini bilardi-yu, biroq bunchaligini bilmagan edi. U bir o'yi qizi bilan kuyovining orasiga sovuqlik tushmadimikin, degan xayolga ham bordi, yo'q Nazokatning gapiga qaraganda tinchlik emish. Balki, Mahbuba bildirmagandir. Biroq bildirsin-bildirmasin, agar

bugun kuyovi yo'qlab kelmasa, Vohid Mirobidov ketadi. Otaqo'zidan bitta mashinani so'rab oladi-da, jo'nab ketadi, hatto kuyovining uyiga ham kirmaydi. Qizlari o'ksisa o'ksir? Tashakkur! Vohid Mirobidov unaqa... kalishi ko'chada qolganlardan emas. O'ziga yarasha izzat-obro'si bor!

Pastda, sharqirab oqayotgan suv bo'yida o'yga cho'mib o'tirgan Vohid Mirobidov tepada motor ovozi eshitib o'rnidan turdi.

Haqiqatan, xuddi uning ko'nglidagini bilgandek, sanatoriya kimdir keldi shekilli, tepada qandaydir shov-shuv ko'tarilib, chop-chop boshlandi, so'ng pastga tushadigan yolg'izoyoq yo'lda... Otaqo'zi ko'rindi.

Yelkasida banoras to'n, ko'kragi chapanilarcha ochiq, yangi chust do'ppisini peshanasiga do'ndirib qo'ndirib olgan Otaqo'zi jundor ko'kragini silab, xushnud iljayib kelardi.

– E-e, domlajon! Egilgan boshni qilich kesmas, deb bosh egib kelyapmiz. Bir qoshiq qonimizdan kechasiz endi! – Otaqo'zi qo'llarini qanotdek yozib keldi-da, Vohid Mirobidovni quchoqlab, gir aylantirib yerga qo'ydi. Astoydil xafa bo'lib o'tirgan Vohid Mirobidovning ko'nglidagi bulut bir zumdayoq tarqab, chehrasi yorishib ketdi.

– Bir gap aytsam, xafa bo'lmaysizmi, rais?

– Qani? Qani? – dedi Otaqo'zi ko'zlari chaqnab.

– Hozir o'ylab o'tiruvdim, shu bugun rais kelmasa... ketaman deb!

– Biz mana shunaqa ichingizdagini bilamizda, o'rtoq professor! – Otaqo'zi tog'larda aks sado uyg'otib, sharaqlab kuldi-yu, darhol jiddiylashdi. – Ketish-petish degan gap yo'q, Vohid aka! Bir haftadan keyin, kelgusi shanba, vadavang to'y!

– E, shunaqami?

– Xuddi shunaqa! O'zlari piri jamshid bo'lib, to'yda soqiylik qiladilar!

– Rahmat. Ammo lekin orada bir hafta bo'lsa... vaqt masalasi...

– Yo'-o'q! Vaqt-paqt degan bahonayi sabablar ketmaydi. Bir hafta... nima degan gap? Tog' havosi joningizga tekkan bo'lsa cho'lga chiqamiz. Aytmoqchi, hali cho'lquvarlar bilan uchrashasiz! Mukofot masalasi bor!..

Vohid Mirobidov xijolat chekkanday, qip-qizil yumaloq yuzini silab:

– Shu masalada biroz o‘ylanib qoldim, uka, – dedi qandaydir sirli va samimiy ovozda,– zarurmikin shu ish?

– Juda zarur-da! – dedi Otaqo‘zi va sanatoriy tomonga bir qarab qo‘ydi. U yoqdan, qo‘lida barkash to‘la noz-ne‘mat, oshpaz yigit tushib kelardi. – Boya Abror Shukurovich bilan gaplashdim. U kishiyam Mahbubaxon bilan hozir kep qoladilar. Men ham keliningizni opkelganman...

– Yashang, uka!..

– Bitta maslahat... – Otaqo‘zi oshpaz yigitning qo‘lidagi barkashni olib, suv bo‘yidagi katta xarsangtoshga qo‘ydi, besh yulduzli konyakni ocharkan, gapida davom etdi.– Hadeb ish-ish deb, o‘lib ketamizmi, domlajon, juft-juft bo‘lib, bitta otamlashaylik deb, bir-ikkita mashshoqlarni oldirmoqchi edim...

Vohid Mirobidov barkashdagi tillarang husaynidan bittasini olib og‘ziga otdi.

– Buning savobiga nima yetsin?

– Savobini aytasiz-u, ammo lekin, to‘g‘risini aytsam... kuyovbolangizdan qo‘rqyapman. Hozir o‘quvchilar dam oladigan bu sanatoriyda kayf-safo qilib o‘tirishga kim sizlarga huquq berdi deb, do‘q urmasa deb qo‘rqyapman!– Otaqo‘zi yana tog‘larni larzaga solib, sharaqlab kuldi.– Qani, salomat bo‘laylik, Vohid aka!

– Omon bo‘ling, uka!

Otaqo‘zi qadahni bir ko‘tarishda bo‘shatdi-da, barkashdan bir shingil uzum olib, suv bo‘yidagi xarsangtoshga o‘tirdi. Uning ko‘zlaridagi sho‘x uchqunlar so‘nib, peshanasi va lablarining chetida chuqur chiziqlar paydo bo‘ldi.

– Yaqinroq keling, domlajon, sizdan bir narsani so‘ramoqchi bo‘lib yuruvdim...

– Xo‘sh? – Vohid Mirobidov qovurilgan tovuqning oyo‘g‘ini sindirib olib, Otaqo‘zining yoniga o‘tib o‘tirdi.

– Bu deyman, kuyovbolangizni aytaman, qanaqa odam o‘zi, Vohid aka?

Vohid, Mirobidov go‘sh t chaynashdan to‘xtab, bo‘ynini qashidi.

– To'g'risini aytaymi?
– Aytavering-da!
– To'g'risini aytsam... o'zim ham hayronman. Sal g'ala-
tiroq yigit!

– G'alati deysiz-qo'yasizmi? Juda qiynab yubordi-da
odamni, domlajon!

– Nima deydi?

– Nima deyishini bilolmay xunobmiz-da, akajon! Tuppa-
tuzuk odam – hayronman! Haligi... „bilib turib suvga...“
degan gap bor-ku! Xuddi shuning o'zi-da! Hamma narsani
bilib turib osiladi-da, kuyovto'rangiz! – Otaqo'zi alangayi
otash bo'lib, o'rnidan turib ketdi-yu, yana qadahlarni
to'ldirdi. – Hay, mayli, hasrat qilish uchun mehmonga
chaqiribdi-da, demaysiz. Sizni o'z og'amday yaqin tutib
aytyapman, domlajon!

– Albatta-albatta! – Vohid Mirobidov ikkinchi qadahdan
keyin ko'zlari mehr bilan chaqnab, Otaqo'ziga yaqinroq
surilib o'tirdi. – Bunday qilamiz, uka. Mana bu ishlar... –
u „mukofot masalasi“, deyishga tili bormadi, – cho'ldagi
ishlar hal bo'lsin. Siz ham to'y tashvishidan qutulung. Keyin
men o'zim Abrorjon bilan bir gaplashaman. Ko'nglingiz to'q
bo'lsin, hammasini tushuntiraman, uka...

Otaqo'zi, go'yo uning so'zini eshitmaganday, g'amgin
bosh egib:

– Juda qiynab yubordi-da, odamni! – deb takrorladi.
Shu payt yuqorida, olmazor orasidan oqarib ko'ringan uylar
tomonda, mashina ovozi eshitildi.

– Keldilar shekilli! – Otaqo'zi og'ir tebranib o'rnidan
tura boshlagan edi, Vohid Mirobidov etagidan tortdi.

– O'tiring, uka, uning mansabi, ulug' bo'lsa, sizning
yoshingiz ulug'! Hozir keladi o'zi!

Haqiqatan, sal, o'tmay, yolg'izoyoq yo'lda Shukurov
ko'rindi.

Otaqo'zi anchagina qizishib qolgan bo'lsa ham mehmon
hurmati uchun o'rnidan turdi. U, garchi Abror Shukurovich
bilan bir necha marta telefonda gaplashgan bo'lsa ham
o'sha kungi ko'ngilsiz voqealardan keyin hali ko'rishmagan
edi, shu sababdanmi, boshqami, hech qachon his etmagan
bir hayajon bilan uni kuzatib turardi.

Shukurov, go'yo dam olishga emas, rasmiy bir joyga rasmiy ish bilan kelgan odamday, yangi kulrang kastumshim kiygan boshida shlapa, oyog'ida tufli, biroq o'zi, odatdagiga qarshi, qoshlarini chimirib, kulimsirab kelardi.

– Hormanglar! Bu deyman... butun boshli sanatoriyni bitta o'zlaringiz egallab, bazm-u jamshid quryapsizlar-ku!..

Otaqo'zi yalt etib Vohid Mirobidovga qaradi, qaradi-yu, sonlarini shapatilab, xaxolab kulib yubordi.

– Hozirgina domlaga aytib turuvdim, a, kuyovingiz shunday deb ta'na qilmasalar deb!

– Ko'nglingizdagini topibman-da!

– Topgandayam xuddi nishonga urdingiz, o'rtoq Shukurov!

Abror Shukurovich qaynatasining yonidagi xarsangtoshga o'tirarkan, shlapasini olib maysaga tashladi, oq oralay boshlagan qalin sochlarini silab, qandaydir sho'x kulimsiradi:

– Bugun jiddiy gapga tobim yo'q edi-yu, ammo lekin ko'nglingizdagi yana bir gapni topib aytaymi?

Bu dahanaki jangdan o't chiqib ketishidan qo'rqqan Vohid Mirobidov: „E, qo'yinglar shu hazillaringizni!“ – degan edi, Otaqo'zi betoqat bo'lib:

– Xo'sh, xo'sh? – dedi. – Ayting, qani!

– Aytsam, bu odam... nega menga balo-qazoday yopishib oldi, deb o'ylayapsiz!

– O'ziam shunday bo'lyapti-da, uka! – Otaqo'zi qah-qah otib kuldi-da, darhol lab-lunjini yig'ishtirdi. – Men ham ko'nglingizdagi bir gapni topib aytaymi?

– Mayli, – dedi Abror Shukurovich, uning ko'zlarida hamon o'sha sho'x uchqunlar jilva qilardi.

– Aytsam, siz meni... yutuqlardan esankirab, bosar-tusarini bilmay qolgan bir odam deb o'ylaysiz!

– Siz bo'lsa.. o'ta kamtar, qo'y og'zidan cho'p olmaydigan bir odamman, degan fikrdasiz!

– Kamtar bo'lmay nima qippan, xo'sh?

– E, qo'ysalaring-chi, shu gapni! – dedi Vohid Mirobidov jig'ibiyron bo'lib. Lekin to'satdan qandaydir jo'shib ketgan Otaqo'zi unga e'tibor bermay, peshanasiga qo'ndirgan do'ppisini to'g'rilab, Abror Shukurovichga qirg'iyqarash qildi:

– Xudosini aytdingiz, endi berdisini ham aytavering, o‘rtoq Shukurov!

Abror Shukurovich barkashdan bitta olma olib ikkiga bo‘larkan, to‘satdan:

– Qani, bizgayam bitta quying! – deb iltimos qildi.

– E bormisiz, Abrorjon? Otaqo‘zi, kamoli xursand bo‘lib ketganidan „Abrorjon“, deb yubordi.– Mana buni o‘g‘ilbola gap desa bo‘ladi, uka!

Abror Shukurovich hamon kulimsirab qadahni qo‘liga oldi, biroq ichishdan oldin Otaqo‘ziga qandaydir ma’yus tikilib:

– Agar men sizning ko‘nglingizga ozor bergan bo‘lsam... kechirasiz, Otaqo‘zi aka! – dedi. – Men sizdan yoshman. Lekin yosh bo‘lsam ham turmushda ancha-muncha zahmat chekkanman, ko‘p narsani ko‘rganman. Boshda ishni yaxshi boshlab, keyin... hovliqib ketib yomon qoqilgan katta rahbarlarni, ishbilarmon raislarni ko‘p ko‘rganman, Otaqo‘zi aka...

Abror Shukurovichning gaplarida, sal bo‘g‘iq ovozida, Otaqo‘ziga tikilgan ko‘zlarida shunday zo‘r bir samimiyat barq urib turardiki, bir-ikki marta uning so‘zini bo‘lishga chog‘langan rais, birdan boshini osiltirib, sukutga toldi.

– Yana, aytaman: agar dag‘allik qilib ko‘nglingizga ozor bergan bo‘lsamuzr, Otaqo‘zi aka. Biroq, mana, dasturxon ustida aytaman, men sizni juda hurmat qilaman. Sizni hali ko‘p yaxshi ishlar qiladigan uddaburon bir rahbar deb bilaman. Shuni o‘ylab, to‘g‘risini aytsam, sal qo‘rqaman. O‘zingiz bilmasdan turib xato qilib qo‘ymasangiz, deb qo‘rqaman... Umuman, biz bamaylixotir o‘tirib bir dardlashishimiz kerak. Siz qachon desangiz, men tayyorman. Lekin bugun emas, bugun men ham juda charchadim. Bugun bir yozilib dam olaylik...

Shukurov Otaqo‘zining „Yashang! Mana shu gapingizga borman-da!“– deyishini kutgandek, so‘zida to‘xtadi. Biroq Otaqo‘zi nogahon ovozi titrab:

– Rahmat, uka, – dedi sekin. – Men o‘zim ham siz bilan xoli o‘tirib bir gaplashsam, bir dardlashsam, deb yuruvdim.

Bu hafta o'tsin. Kelgusi shanba, nasib qilsa, eson-omon to'yni o'tkazib olsam... To'yga kelarsiz, axir?

– Katta qilyapsizmi to'yni? – Abror Shukurovichning ovozidagi samimiyat birdan so'nib, Otaqo'ziga tikildi.

– Yo'q. Qirq-ellik kishidan oshmaydi. Kelasizmi?

– Unaqa bo'lsa kelaman!

– Qo'ldi bering! – Otaqo'zi Shukurovning kaftini kaftiga olib, sharaqlatib urdi. – Rahmat, uka. Omon bo'ling, qani, oldik buni!

Shu payt yuqorida, sanatoriy xiyobonida yana oshpaz yigit ko'rindi:

– Rais aka! Telefonga chaqirishyapti sizni!

– Kim?

– Qaydam. Telefonda kutib turishibdi!

Otaqo'zi negadir yuragi „shig“ etib, Abror Shukurovichga qaradi.

– Kechirasiz, men hozir... – u halloslab sanatoriyga chiqib borganida telefon o'rnatilgan uydan Oliya chiqdi, chiqdi-yu, ranjigan bir alfozda eriga tikildi.

– Juda g'alati ishlar qilib yurasiz, a, xo'jayin?

– Nima qippan?

– Qudangizni chaqiribsiz, Jamol Bo'riboyevni... Bir o'zi bo'lsayam mayli, xotininiyam opkepti!

– Kim aytdi senga ularni chaqirdi deb?

– Chaqirmasangiz nima qiladi kelishib?

– Kuyoving keptimi? O'sha chaqirib kelgandir-da, bo'l-masa?

– Bilmasam, dedi Oliya. – O'g'lingiz ham ranjiyapti...

– O'g'ling emas, kelining ranjiyotgandir! O'g'ling halitdan xotinining childirmasiga o'ynaydigan bo'lsa...

– Qo'ying, – dedi Oliya xo'rsinib. – Oralari endi iliy deganda bunaqa qilmang! Nima bo'lsayam to'yga qoldirmang ularni. Tog'amlar ham... – u labini tishlab jim qoldi. Otaqo'zi o'ziyam hozir Jamol Bo'riboyevning kelishi o'rinsiz ekanini bilib turardi. Biroq yo'qlab kelgan mehmonni eshikdan qaytaradimi?

– O'g'lingga ayt! – dedi u anchadan keyin. – Bu yoqqa opkelsin ularni! Keyin bir gap bo'lar!..

Oliya lom-mim demay ichkariga kirib ketdi.



Haydar mehmonlarni tog'ga eltib qo'ydi-da, darhol qishloqqa qaytdi. U „Moskvich“ni garajga qo'yib, hovliga kirishi bilan telefon jiringladi.

– Latofat!

– Haydar aka! Qayoqlarda yuribsiz? Boyadan beri telefon qilaman... Bobomlar... betob bo'p qoldilar!

Haydar halloslab yetib borganida „Tez yordam“ mashinasi endi qo'zg'algan, domla Shomurodovning xonasi oldida qattiq sarosimaga tushgan bir guruh o'qituvchilar nima haqdadir qizg'in bahslashmoqda edi. Haydarni ko'rganda ular xuddi bo'rini ko'rgan qo'ylarday har tomonga potrab ketishdi.

Normurod ota aya hayot chog'idan qolgan eski charm divanda chalqancha yotar, bir tomonida Latofat, bir tomonida maktab direktori Azizzoda o'tirardi. Haydar yuragi zirqirab yaqin bordi.

– Tuzukmisiz, tog'a?

– Shukur, bolam...

– Azizzoda o'rnidan turib, Haydarga joy berdi.

– Siz xafa bo'lmang, otaxon, – dedi u qo'l qovushtirib. – U yigit o'zi shunaqa... sal to'poriroq. Biz uning chorasini ko'ramiz. O'qituvchilar kengashida muhokama qilamiz. Albatta muhokama qilamiz, otaxon.

– Keragi yo'q... zinhor! – domla, go'yo yomon bir gap esiga tushgan odamday, afti burushib, ko'zini yumdi.

Tunov kuni Shukurov kelganda domlanning kutubxonasi uchun tuzukroq joy berishni maktab direktoriga topshirib ketgan edi. Shu kuniyoq maktab direktori domlanning „hujrasi“ ga yondosh kattagina bir xonani ajratib, bundan bir-ikki kun avval ta'mirlash ishini boshlab yuborgandi.

Ta'mir boshlagan uch-to'rtta yosh yigit oldin devorni teshib, domlanning xonasiga eshik ochishdi, keyin qo'shni xonaga javon o'rnatishib, uni moylashga kirishishdi.

Domla Shomurodov avval bu yigitlarni duradgor ustalar deb o'yladi, keyin bilsa, chap oyog'ini sudrab bosgan bitta

keksarog'i usta ekan-u, qolganlari o'qituvchi ekan. Buni eshitgan domla elektr samovarga choy qo'yib mayda-chuyda xizmatlarini qilib yurdi.

„Ustalar“ oldin domladan ancha iymanib, har qadamda bir ta'zim qilishib, tavoze bilan qo'l qovushtirib yurishdi, keyin asta-sekin „o'rganib“ ketishdi, shekilli, bermalol chaqchaqlashib, gurunglashib o'tiradigan bo'lishdi.

Domla ularga choy tashib, u yoq-bu yoqdan suhbatlashib, kirib-chiqib yurarkan, bir narsadan xiyol ranjidi: uch-to'rt kun davomida oliy ma'lumotli bu yosh o'qituvchilar na qo'shni xonalarda tog'-tog' bo'lib uyulib yotgan kitoblar bilan qiziqishdi, na biror marta ilm-fan to'g'risida gaplashishdi!

Bu uch yigitning suhbat mavzusi bitta – u ham bo'lsa mashina, to'g'rirog'i, qanday qilib ko'proq pul topish-u yaxshiroq mashina olib, ayshini surib qolish edi. O'zlariyam mashina ishqida hech narsadan tap tortishmasa kerak, gaplarining mazmunidan, yaqinda Qozog'istonning Qarag'anda va Jezqazg'an tomonlariga uch mashina meva-cheva olib borib, pullab kelishgan, endi bu pullarga jindak qo'shib, iloji bo'lsa „Volga“ yo „Moskvich“, jilla bo'lmasa, „Jiguli“ olish payida edilar. Ayniqsa, ularning mutasaddisi bo'lmish novcha, ovozi do'rildoq tepakal yigitning ishtahasi karnay edi. Gapining mazmuniga qaraganda, tepakal yigitning eski „Volga“si bor, biroq tepakal uni yangi „Volga“ga almashtirish orzusida edi, buning uchun esa kuzda, qovuntarvuz pishganda, Jezqazg'an tomonlarga yana bir borib kelish niyatida edi...

Tepakalning mashinaga bog'liq orzulari, savdo, narx-navo, mullajiring to'g'risidagi safsatalari, uning tinimsiz do'rillagan yo'g'on ovozi, ayniqsa, har gapning birida: „Hozir o'zi shunaqa, lo'lining eshagini sug'orgin-u, pulini ol!“ – deb safsata sotishlari domlaning kekirdagiga kelgan bo'lsa ham u tishini tishiga bosib, ikki kun chidadi. „Yosh bo'lgandan keyin aysh-ishratni o'ylamaydi-da!“ – dedi u ichida. – Mashina minib kataysa qilgisi, o'ynab-kulgisi kelsa aybmi? Olim degan noming bor. Bu gaplarga ko'p jig'ibiyron bo'lavermay, faylasuflarcha kulib qaramog'ing darkor. Chuqur daryo sokin oqar, deydilar, sal vazmin bo'lg'in,

mulla Normurod!“ – domla Shomurodov shu gaplar bilan o‘ziga o‘zi taskin berib, bir haftadan beri qo‘liga olmagan qo‘lyozmalarini tortmadan oldi.

Tog‘ archasi, umuman, tabiatni muhofaza qilish masalalari to‘g‘risidagi kitobchasi uchun domlanning ko‘ngli to‘q. Uni nihoyasiga yetkazdim, deya oladi, faqat oqqa ko‘chirib, Toshkentga, nashriyotga yuborish ishi qoldi, xolos. Sibir daryolari muammolariga bog‘liq ikkinchi qo‘lyozma esa hali chala. Uning mehnati bor hali.

Domla Shomurodov shu ikkinchi qo‘lyozmani olib, uni o‘qishga urinib ko‘rdi. Biroq ochiq tuynukdan qo‘shni xonadagi gap-so‘zlar barala eshitilib turar, gap-so‘zlar esa, yana o‘sha mashina, pul, savdo-sotiq, narx-navo ustida borardi. Axiri bu gaplar ota tugul ustaning ham joniga tegdi chamasi:

– Hoy, yigitlar! – dedi xiyol ranjib. – Shu padar la‘nat mullajiring bilan mashinadan boshqa gap qurib qoldimi?

– Nega endi padar la‘nat bo‘larkan?– do‘rilladi tepakal.– Siz nima, tekinga qilyapsizmi bu ishlarni?

– Tekinga emas-u, ammo lekin domladan uyat-ku...

– Nega endi uyat bo‘larkan? Hozir zamon o‘zi shunaqa! Hammaning o‘ylagani mullajiring! Aysh-ishrat!.. O‘qish-po‘qish-u ilm-fanni o‘ylayotgan kim bor hozir? – dedi tepakal va ovozi pasaytirib davom etdi: – O‘qib olim bo‘lganlarning bittasi mana shu... nomi ulug‘, suprasi quruq cholmi? Professor degan nomi bilan eski divanidan boshqa nimasi bor uning, usta aka? Bitta yig‘gani kitob bo‘lsa... hozir kimga kerak, kim o‘qiydi bu kitoblarni?..

Normurod Shomurodov o‘rnidan qanday turib, ochiq tuynukka qanday borganini bilmay qoldi.

– Sen! – dedi domla, olaygan ko‘zlarini tepakal mualimga nayzaday qadab. – Sen nodon... shu aql-farosat, shu imon-u e‘tiqoding bilan yosh avlodni tarbiyalamoqchi bo‘l-yapsanmi hali?

Maykachan, yalangoyoq, yalangbosh cholning vajohati, o‘qraygan ko‘zlari shunday qo‘rqinchli ediki, xona suv quyganday jim bo‘lib, hamma joy-joyida qotib qoldi. Tepakal anchadan keyin hushiga keldi.

– Men... men nima qildim o'zi...

– Harom qilding! – o'shqirdi domla. Senga o'xshagan mol-dunyoga hirs qo'ygan kalta binlar maktab deb atalmish bu muqaddas dargohni harom qilyapsanlar! Kitob emas, mol-dunyo kerak ekan... nima qilasan bu ilm dargohini bulg'ab? Latta bozoriga borib chayqovchi bo'l! Mol bozoriga borib dallollik qil!..

Tepakal najot so'rab, yonidagi sheriklariga qaradi.

– Meni kechirasiz-u, ammo lekin o'ziyam... nomimiz o'qituvchi-yu, qiladigan ishimiz– ketmon. Erta-indin, o'qish boshlandi deguncha dalaga haydashadi!

– Yomon ho'kizga bo'yinturuq bahona!

– Ha, albatta! Jiyaningiz rais bo'lgandan keyin shunday deysiz-da! Ammo mard bo'lsangiz, jiyaningizga ayting. O'qituvchi emas, ketmonchi qilib oldi bizni! – O'zini o'nglab olgan tepakal tobora dadillashib kekirdagini cho'zdi. – Siz bo'lsa... kitobdan gapirasiz!..

– Til tekkizma kitobga! – dedi domla.

Biroq uning ovoqidagi boyagi qahr birdan so'ndi, Ota-qo'zining ismini eshitishi bilan yuragiga go'yo o'tmas pichoq qadalganday devorga suyandi, suyanarkan:

– Bor! – dedi ko'zini yumib, – senday molparast bilan gaplashishga toqatim yo'q!..

Tepakal yana bir narsa demoqchi bo'lib, og'zini ochdi, biroq shu payt eshikdan tovoq ko'targan Latofat, uning ketidan shovqin-suronni eshitib, ko'zlari ola-kula bo'lib ketgan Azizzoda ko'rindi. Keyin domla sal behol bo'p qoldi shekilli, to's-to'polon boshlandi, doktorlar kelishdi, ukol qilishdi...

– Bobojon! Tag'in behuzur qilyaptimi yuragingiz?

Domla Shomurodov Latofatning besaranjom ovozi eshitib ko'zini ochdi.

Azizzoda chiqib ketgan, tepasida ma'yus ko'zlari ayanchli mo'ltirab Latofat turar, Haydar grafidan piyolaga suv quymoqda edi.

– Yo'q, yo'q, yaxshi-yaxshi... – domla Haydarni ko'rishi bilan negadir yana tepakalning pichingi esiga tushdi: –

Dadang qani? Qayoqlarda yuribdi?

– Dadamlar... tog'dalar, – dedi Haydar. – Mehmonlar bilan tog'dalar... chaqirtiraymi?

– Yo'q...

Normurod Shomurodovning xayolidan: „Mehmonlar bilan birga bo'lsa... mukofotning rejasini tuzishyapgandirda! – degan fikr o'tdi, o'tdi-yu, yana o'zidan ranjidi. – Besh kunlik umring bormi, yo'qmi, shu mayda, o'tkinchi o'ylarni o'ylaysanmi? Undan ko'ra o'z g'aming, o'z tashvishingni qil! Ertangi kuningni o'yla!“

U ko'zini yumganicha uzoq sukutga toldi. Yuragining og'rig'i xiyol bosilgan, faqat notinch o'ylar xuruj qilganida bir sanchib qo'yardi...

Ha, u qarigan chog'ida bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda turganida ko'p odamni ranjitdi, dag'allik qilmagan, baqirib-chaqirmagan bir kimsa qolmadi... Mana, tepasida o'z jiyani turibdi. U hamisha to'g'ri bo'laman, hamisha haq gapni gapiraman deb, o'z jiyani ham o'ksitdi, quvonchli damlarida ko'ngliga og'u soldi!.. Yo'q, odamlarda insof-u adolat qolmadi, degan gaplar bekor ekan! Bekor bo'lmasa bu **yigit**, undan, Normurod Shomurodovdan umrida bir og'iz muloyim gap eshitmagan bu bola bechora hozir uning, tepasida ko'zlari javdirab, gap poylab o'tirarmidi?..

Domla Shomurodov to'satdan besaranjom bo'lib: – Haydarjon deb chaqirdi. – Ko'pdan beri so'ramoqchi edim, ishlaring nima bo'lyapti, bolam?

– Ishlarim... – Haydar stulini yaqinroq surib o'tirarkan, miyig'ida bir kulib qo'ydi. – U ishlar dissertatsiya-pisser-tatsiya degan gaplar meni ko'p qiziqtirmay qo'ydi, bobo!..

„Ana, aytmadimmi? Bu bechoraniyam mayib qilding! Bitta qaltis gaping bilan endi parvoz qilayotgan olimning qanotini qayirib, qaddini bukib qo'yding!“

– Meni kechir, o'g'lim, senga yaxshi maslahatlar berib to'g'ri yo'lga solish o'rniga...

– Mayli, tog'a, – dedi Haydar.

– To'xta! – Normurod Shomurodov betoqat bo'lib, joyida bir qimirlab qo'ydi. – To'xta, bolam! Gap shundaki, o'sha muammo, Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish muammosi...

bu chindan ham o'ta muhim, o'ta katta muammo. Ammo lekin bu muammo ustida uning dolzarbligidan foydalanib, soxta obro' orttiradigan shuhratparastlar emas, butun umrini, aql-zakovatini ilm-fanga bag'ishlagan chin olim, chin injenerlar ishlagan kerak!.. Men sening qanotingni qayirgan bo'lsam kechir, bolam, ammo lekin o'z sohangedan ketmasliging kerak, o'z ishingni davom ettirishing kerak... O'zi nechaga kirding hozir?

Haydar yer ostidan Latofatga bir qarab qo'ydi. U jimgina devorga suyanib turardi.

– Biz ham qarib qoldik... Yigirma beshdan yigirma oltiga qarab ketdik, tog'a...

– Yigirma oltida bo'lsang, – dedi ota Haydarning ovozdagi kinoyaga e'tibor bermay, – agar bu ishlar, agar qurilish o'n yildan keyin boshlansa ham endi o'ttiz oltiga kirasan! Ehtimol, loyihachilar safida bo'larsan, ehtimol qurilishda qatnasharsan... Men seni nohaq...

– Tog'a!

– Agar meni go'rida tinch yotsin desang... va'da ber, bolam...

– Haydar Latofatning „qult“ etib yutinganini ko'rib:

– Yaxshi-yaxshi, – dedi shoshib. – Ko'nglingiz to'q bo'lsin, tog'a! Meni bu sohaga siz boshlab kirgan edingiz... Yoshlik ekan, men ham yanglishdim...

– U yog'ini qo'yaver, – dedi domla Shomurodov. – Ana, stolimda ikkita qo'lyozma turibdi. Bittasi archa to'g'risida, uning hikmatlari to'g'risida. U tayyor! Uni oqqa ko'chirtirib, nashriyotga yuborasan. Ikkinchisi o'sha – Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish muammolariga bog'liq o'ylarim, tilaklarim... Bu ishimni nihoyasiga yetkaza olamanmi, yo'q-mi, bilmadim...

– Yetkazasiz, tog'ajon, albatta yetkazasiz...

– To'xta, gapimni bo'lma. Ana u papkaning ichida bitta xat bor. O'sha xatni ol, bolam.

Haydar papkaning bog'ichini yechib, xatni olarkan, uning tepasidagi „O'zbekiston Markaziy Komiteti“, degan yozuvni ko'rib, cholga yalt etib qaradi.

– O'qib chiq, – dedi domla qovog'ini solib. Uning xayolida

shu yil ko'klamda, kampirning vafotidan burunroq bo'lib o'tgan bir suhbat jonlandi. O'shandan sal oldin Normurod Shomurodov Shimol daryolariga qilgan safar taassurotlari va bu taassurotlar asosida tug'ilgan fikr-mulohazalarini izhor etib, yuqori tashkilotga xat yozgan edi. U xatimga tezda javob olaman deb o'ylamagan edi. Oradan uch-to'rt kun o'tmasdanoq to'satdan telefon jiringlab, uni yuqoriga taklif qilishdi...

...Domlaning ko'z oldiga sochlariga qirov qo'ngan bo'lsa ham o'zi yosh ko'ringan xushqad, xushsurat odam keldi, quloqlari ostida uning vazmin, o'ychan tovushi yangraganday tuyuldi.

– Xatingiz bilan tanishib chiqdim, Normurod Shomurodovich. Ko'p gaplaringiz, takliflaringiz juda o'rinli. Bu ish yetti o'lchab, bir kesiladigan ish ekanini davlatimiz yaxshi biladi. Bu ishda hamma fikrlar, ayniqsa, sizga o'xshagan katta olimlarimizning fikri inobatga olinajak. Shuning uchun siz o'z fikr-mulohazalaringizni batafsilroq yozib bersangiz...

Shundan keyin domla bir oy o'tirib, ko'nglidagi bor gapini qog'ozga tushirib, o'zi olib borib bergan, bu javob uning o'sha xatiga kelgan minnatdorlik maktubi edi.

Normurod Shomurodovning xayolini Haydarning:

– Juda qiziqsiz a, tog'ajon! – degan xitobi bo'ldi.

– Nega endi?

– Shunday... katta odamdan xat olasiz-u indamaysiz, a?

Domla yana qosh-qovog'ini uyib, yuzini chetga burdi.

– Bundan chiqdi, shunday xat oldim deb, olamga jar solar ekanman-da? Men bu xatni senga kerilish uchun ko'rsatayotganim yo'q! Bu ishning butun mohiyatini tushun-sin deb aytyapman o'g'lim. Uqdingmi? Uqqan bo'lsang senga ruxsat. Sengayam, qizim...

Devorga suyanib jimgina turgan Latofat oyoq uchida yurib, divanga yaqinlashdi, ko'zlari allaqanday chaqnab:

– Bobojon! – dedi. Qayoqqa ham boramiz, yoningizda bo'lamiz, bobojon! Ovqat isitdim, bobojon suzib beraymi?

– Rahmat, qizim, ovqatga tobim yo'q, qorong'i tushib qoldi, boraveringlar...

Latofat labini tishlagancha indamay chiqib ketdi. Uning

ketidan eshikka borgan Haydar ikkilanib to'xtadi. U chol bilan to'y to'g'risida gaplashmoqchi edi. Buni undan Latofat iltimos qilgandi. Haydar orqasiga qaytmoqchi ham bo'ldi-yu, esiga Jamol Bo'riboyev tushib, qaytishga jur'at etmadi.

Qishloq tun qo'yniga cho'mgan, qoq peshanada, baxmalday tiniq, seryulduz osmon qa'rida uch kunlik oy yaltillab turardi.

Latofat darvozada Haydarni kutib turardi. Bu osuda, oydin kechada Haydarga u negadir adashib qolgan yolg'iz kiyikni eslatdi-yu, ko'ngli iliq mehrga to'lib, qizning qo'lini oldi.

-Latif...

Latofat yosh to'la ko'zlari bilan Haydarga mo'ltirab qaradi, so'ng yuzini uning ko'ksiga yashirib, o'ksib-o'ksib yig'lab yubordi.

- Latif! Sizga nima bo'ldi, Latif? - Haydar yuragiga quyilib kelgan iliq mehrdan entikib qizning nozik yelkasidan quchdi, o'ziga tortib, yosh bilan yuvilgan yuzlaridan, ko'zlaridan o'pdi. Latofat allanimalarni aytib, kimgadir iltijo qilar, ko'zlarini yumib, hamon o'ksib-o'ksib yig'lardi.

Ajabo shu topda, yuzini Haydarning ko'ksiga yashirib, o'ksib-o'ksib yig'layotgan bu qiz keyingi paytlarda yuziga sovuq niqob kiyib olgan Latofat emas, ilgarigi, ilk bor tanishgan paytlaridagi Latofatning o'zginasi edi. Ko'zlarida o'sha yosh, o'sha mehr, ovozida, gaplarida, chehrasida Haydarni rom qilgan o'sha, nur bilan yo'g'irilgan tiniq mung...

G'alati narsa ekan hayot! Nega Haydar shu qiz qalbidagi bu cheksiz mehrning qadrini bilmadi? Nur bilan yo'g'irilgan bu pok tuyg'ularni e'zozlamadi? Nega soxta manmanlikka ketib, uni ham ezdi, o'zi ham ezildi? Oddiygina insoniy muomala, insoniy mehr har qanaqa odamni ham eritib yuborishga qodir ekan-ku? Nega yigirma oltiga kirib, shu oddiy haqiqatni bilmadi?

- Latif! - dedi Haydar ko'ngli nur tushganday yorishib.
- Yig'lamang, Latif! Yaxshi bo'ladi, hammasi yaxshi bo'ladi!

Latofat bir zum boshini ko'tarib Haydarga qaradi-da, yana yuzini uning ko'ksiga bosdi.

- Men xudojo'y emasman, - dedi qandaydir dard bilan

pichirlab. – Xudojo'y emasman-u ko'kdan bitta-yu bitta tilagim bor.

– Bobomlar... iloyo omon bo'lsinlar. To'yimizga bosh bo'lsinlar bobomlar...

– Bo'ladi, Latif, albatta bo'ladilar... – Haydar qizning belidan quchib, katta ko'chaga boshladi.

Latofat uning pinjiga kirib, bir-bir bosib borardi.

Ular tepadan tushib Haydarlarning hovlisiga yaqinlashib qolganlarida orqada mashina motorining qandaydir asabiy o'kirishi eshitildi-yu, zum o'tmay darvozalari ro'parasiga „Volga“ kelib to'xtadi.

– Dadamlar! Latofat Haydarning quchog'idan chiqib o'zini panaga oldi. Haydar ham uning ketidan intilgan edi, mashina eshigi sharaqlab ochildi-da:

– Bu kim? – degan ovoz eshitildi. – Senmisan, Haydar!

– Men... – Haydar dadasining ovozini tanib, noiloj orqaga qaytdi.

– Bu yoqqa yur! Gap bor!..

Otaqo'zi hovlida to'xtamay, to'g'ri uyga kirdi. Uning ketidan kirgan Haydar dadasining vajohatini ko'rib qo'rqib ketdi: rangi oppoq oqarib, sochlari to'zg'ib ketgan Otaqo'zi xolodilnikdan bir shisha suv oldi, stolning qirrasiga urib tiqinini ochdi-da, qultullatib icha boshladi.

– Men hozir oblastga ketyapman...

– Nima qildi?


– Bu ablah! – Otaqo'zi bo'shagan shishani derazadan zimiston bog'ga qarab otdi. – Bu ablah... Jamol Bo'riboyevni aytaman, bekorga kelmagan ekan! Ko'klamda besh-o'n tonna o'g'it bilan biroz ehtiyot qismlar beruvdi. Shu narsalar endi gap bo'layotgan emish!..

Haydarning vujudidan ilonday sovuq bir vahima o'rmalab o'tdi..

– Jiddiy gapmi o'zi?

– Bilmasam! Boshimni olishmas! O'zim uchun emas, shu kolxoz uchun olgandirman olsam. Ammo bir gap bordirki, bu nokas o'zi bosdi-bosdi qilolmay, bu yoqqa qarab chopibdi. Har ehtimolga, qarshi Bekmurod Xolmurodovichni ogohlantirib qo'ymoqchiman... Bu – o'zaro gap! Og'zingdan. chiqmasin!

Ertaga tog'dan oyingni olib tush! Ammo mehmonlarni opkelma! Men qaytguncha tog'da bo'lib turishsin. To'yga tayyorgarlik to'xtamasin. Gap shu! – Otaqo'zi polni larzon-larzon qilib, uydan chiqdi.



Fazilat ko'rpa qavishga kirgan xotinlarni kuzatib chiqqanda, xuddi jo'rttaga shuni kutib turganday, eshigi oldiga tanish „Moskvich“ kelib to'xtadi-da, undan Latofat tushdi. Kutilmagan joyda bir to'da xotinga duch kelgan Latofat bilan Haydar pitirlashib qolishdi: Haydar mashinaga gaz berib, jo'nab qoldi, shahardan yangi atlas ko'ylak kiyib kelgan Latofat esa, ko'zlarini qayoqqa yashirishni bilmay, o'zini ichkariga urdi. Yoshliklari eslariga tushgan ayollar, biri g'amgin, biri sho'x kulimsirab, Fazilatga qarashdi.

– Iloyo baxtli bo'lishsin!

– Bir-biriga juda munosib!

– Biri yulduz bo'lsa, biri oy deysiz! Qo'sha qarishsin iloyo!

Og'zi bilan yuradigan ba'zi hasadgo'ylar har xil gap tarqatib yurganda qizi bilan kuyovining apoq-chapoq bo'lib bir mashinada kelishi shunday yaxshi, shunday yaxshi bo'ldiki, Fazilat hasharchi xotinlarni kuzatib qaytib kirarkan, ko'zidan, tirqirab yosh chiqib ketdi.

Mana, to'y taraddudi boshlanganiga bir hafta bo'ptiki, qizi bilan kuyovi juda boshqacha, ulardan yaxshi, ulardan inoq odam yo'q! Fazilat bu yaxshilikka nima sabab bo'lganidan bexabar, biroq farzandlarining chin oshiqma'shuqlarday, ahil bo'lib ketishganini ko'rib, quvonchdan terisiga sig'maydi. Uch-to'rt kundan beri Latofat, rayonda laboratoriya ochilyapti deb, shaharga qatnaydi. Shaharga uni Haydar o'zi olib borib, o'zi olib keladi. Ilgari domla Obidovni ko'rarga ko'zi, otarga o'qi yo'q odam, u ba'zan mashinasida domlani ham olib keladi, uchovi birga tongotar suhbatlar qurishadi... Fazilat esa... Fazilat bu kutilmagan baxtdan boshi aylanib, bir kuladi, bir yig'laydi.

Boshqalarning to'yini ko'p ko'rgan bo'lsa ham o'zi uch-to'rt odamning boshini qovushtirib, yig'in qilmagan tirik beva, bu yaxshi tashvishlarning quvonchidan olamga sig'maydi. Otaqo'zi, garchi „as'asa-yu dabdabani zamon ko'tarmaydi, to'yni kamtarroq qilamiz, qudag'ay“, degan bo'lsa ham, kiyim-kechak, meva-cheva, go'sht-yog' degandek, hamma narsani to'kib tashladi. Shundan beri uyda har kun yig'in – qo'ni-qo'shnilar kirib ko'rpa qavishgan, yigitlar bog'da o'choq qazishgan, kechqurunlari Latofatning dugonalari yig'ilishib yor-yor aytishib, biri o'ynab, biri kulishgan.

Rost, bir-ikki kun avval ta'tilga kelgan o'g'li Qodirjon, omon bo'lsin, ishqilib, to'yga... dadasi bilan birga o'gay onasini ham boshlab keldi. Buni eshitgan Fazilat tong otguncha tikanda ag'anaganday ag'anab chiqdi. Biroq kecha Latofat yaxshi gap aytdi: Jamol Bo'riboyev to'yga qolmas emish, bir-ikki kun tog'da dam olib, erta-indin qaytib ketarmish... Haydar aytibdi, u odamni dadamlar ham uncha xushlamaydilar, debdi...

Fazilat xotinlarni kuzatib qo'yib, qaytib kirganda Latofat lampochkani yoqib, ishkombi tagidagi so'rada dasturxon bezamoqda, hozir qizlar yig'ilishib, kiyim tikishlari kerak edi.

Fazilat olisroqda to'xtab, qizining xatti-harakatlariga birpas suqlanib tikilib turdi, so'ng ham yuragiga quyilib kelgan onalik mehri, ham allaqanday notinch tuyg'ulardan – bu notinch tuyg'ular ertalabdan beri uning yuragini ezmoqda edi – ko'ngli bir xil bo'lib, Latofatning yoniga bordi. U qizidan shahardagi ishlarini so'ramoqchi edi, biroq shu payt ko'chada yengil mashinaning vahimali g'iyqillashi eshitildi-yu, hovli eshigi sharaq-shuruq ochilib, kimdir kirdi.

Yo'q, bu „kimdir“ emas, Qodirjon edi.

U xuddi balo-qazodan qochganday qochib, gandaraklab kirdi. Uning vajohati, to'zg'ib savat bo'lib ketgan sochlari, yoqavayron ko'ylagi, butun qiyofasi shunday vahimali ediki, Fazilat o'g'lini tanimay qolib, avval jon holatda orqaga tisarildi, keyin tanib, unga qarab talpindi.

– Voy, bolaginam-ey, bolaginam-ey...

Qodirjon eshikka suyanib, yoqavayron ko'ylagini bir

yulqishda kindigigacha yirtirdi, besh panjasi bilan afti basha-rasini siypab:

– Tamom! – dedi, kulganini ham, yigʻlaganini ham tushunib boʻlmaydigan bir xirildoq tovushda. – Hammasi asfalasofilinga ketdi!

Oʻgʻliga qarab talpingan Fazilat qoʻllarini choʻzganicha oʻrta yoʻlda toʻxtadi.

– Gapirsang-chi, bolaginam! Nima boʻldi senga?

– Nima boʻlardi? Bir odamni qoqib ketdim! Oʻldi bir odam! Tamom. Toʻy-tomosha, baxt-saodat – hammasi kunpayakun boʻldi!

Fazilat, goʻyo najot axtarganday, ishkombi tagida taxta boʻlib qolgan qiziga qaradi-yu, toʻsatdan „shilq“ etib yerga yiqildi. Goʻyo yomon tush koʻrib uygʻonib ketgan odamday bir sapchib tushgan Latofat ariq labidagi choydushni olib, oyisiga qarab chopdi.

Qodirjon mastona chayqalib ishkombi tagiga oʻtdi, kranni ochib, kiyim-kechagini shalabbo qilib, boshini suvga tutdi, soʻng kran yonidagi toʻnkaga choʻnqayib, xuddi oʻz-oʻziga gapirayotgan telbaday bir nuqtaga tikilib, gʻoʻldiradi:

– Mehmonlar bilan ovga chiquvdik. Togʻda bitta arxar otuvdik, haligi... bir qulogʻi yoʻq oʻris bor-ku, les-xozni qorovuli! Oʻsha Azroil bilib qolib, mototsiklda quvsa boʻladimi? Gazni bosib, yuzda uchib kelyapsam... Mingbuloqda tuyqusdan haligi padar laʼnat giyohvand.. Quadratxoʻja bor-ku, oʻsha daydi-devona chiqib qolsa-ya!.. Qarib-chirib, adoyi tamom boʻlganingda Mingbuloqda pishirib qoʻyibdimi senga? Oʻtirmaysanmi uyingda, qoqbosh!

Fazilat yer paypaslab, oʻgʻliga qarab emakladi:

– Qaysi Quadratxoʻja? Nimalar deyapsan, bolam?

– Qaysi boʻlardi? Oʻsha... dor tagidan qochgan piyand, nashavand Quadratxoʻja! Quloqning dumi! Eski dushman. Endi shu ablahni deb, men... Yoʻq! Nega endi men... bu yot unurni deb, bu dushmani deb, umrim xazon boʻlishi kerak manim? Oʻzi tish-tirnogʻigacha bizga qarshi ashaddiy dushman boʻlsa-yu!.. Yoʻq, dadamlar, Otaqoʻzi aka tushunishlari kerak buni! U kishining qoʻlidan kelmaydigan narsa yoʻq! Istasa bosdi-bosdi qilib yuborishi hech gapmas!

O'zi g'irt mast edi u bangi! Quloqni dumi!.. Oyi! – Qodirjon to'satdan dik etib o'rnidan turdi. Bir siltanishda shalabbo ko'ylagidan tanasini ozod qilib, kiyimlarini gulzorga qarab otib yubordi-yu, besh panjasi bilan sochlarini, yuzlarini ishqaladi. Oyi! Otaqo'zi akamlarga chiqing, jon oyi! Tushuntiring hammasini! Axir nahot meni qamatib, qizini... suyuqli qizini baxti qaro qilsa!


Fazilat, go'yo o'g'lining telba-teskari gaplarini eshitmaganday, Latofatni quchoqlab, uvvos tortib yig'ladi.

– Voy, bolajonim-ey, bolajonim-ey...

– Bolajonim, bolajonim! – dedi Qodirjon kalaka qilib. U qo'llarini tugib, onasi tomon yurdi-yu, yana to'xtab, telba ko'zlarini singlisiga tikdi.

– Latif! Singlim! Bor! Tohirani chaqirib ber menga, Tohira o'zi gaplashadi dadasi bilan! Chop! Darhol chaqirib ber uni! Men hozir kiyinib chiqaman! Sen uni chaqirib bersang bo'ldi. Men o'zim gaplashaman.

Qodirjon shunday dedi-da, Latofatning javobini kutib turmasdan, alpong-talpong yurib, uyga kirib ketdi.



Jamol Bo'riboyev bilan Vohid Mirobidov darvozadan yov quvganday, qoqinib-suqinib, hansirashib kirib kelganlaridan keyin chorak soat o'tmasdanoq mudhish voqeaning mudhish yakuni Otaqo'ziga ayon bo'ldi: Quدراتxo'ja qishloq kasalxonasiga keltirilgan. Uni o'rmon xo'jaligining nazoratchisi Proxor Polikarpov olib kelgan. Biroq Quدراتxo'ja kasalxonaga yetmasdanoq yo'lda jon bergan.

– Proxor qani? O'tiribdimi?

– Yo'q, ketdi,– dedi bosh shifokor.

– Qayoqqa?

– Bilmadim. Kerak bo'p qolsam... Normurod Shomurodovning uyidan topasizlar, dedi. U kishi maktabda shekilli?

Otaqo'zi javob bermadi. Xayolidan: „Shum xabarni og'aynisiga yetkazgani ketibdi-da! – degan fikr o'tdi. – Yana bir dastak topildi bu ikki qoqboshga!“

– Nima qilamiz, rais aka? – dedi bosh shifokor. – Qonun bo'yicha darhol militsiyaga xabar berishimiz kerak...

– A? – dedi Otaqo'zi hushini bazo'r yig'ib. – Aytmoqchi, u odam... Qudratxo'jani aytaman, g'irt mast emish-ku? Tekshirib ko'rdingizmi?

– Yo'q...

– Tekshiring! Yaxshilab tekshirib, g'irt mastligini ta'kidlab qog'ozlarini to'g'rilab qo'ying.

– Mast bo'lsa, albatta...

– Aytyapman-ku, g'irt mast, ekan deb! Bo'ldimi?

– Bo'ldi... ammo lekin haligi... militsiya masalasini nima qilamiz? E, mana, nozir ham keldilar! Go'shakni beraymi, rais aka?

– Yo'q yo'q! – dedi Otaqo'zi qandaydir ijirg'anib. – Nozirga ham aytib qo'ying: ko'p hovliqmasin! Shov-shuv ko'tarmay tursin! Siz ham... gapni ko'paytirmang! Men o'zim aytaman...

– Kechirasiz, tushunmay qoldim, rais aka o'zingiz xabar qilasizmi rayonga? – dedi bosh shifokor, biroq Otaqo'zi uning gapini eshitmagan bo'lib, go'shakni „shaq“ etib joyiga qo'yib qo'ydi.

Jamol Bo'riboyev hovlida qo'llarini orqasiga qilib quduq tevaragida betoqat aylanib yurar, Vohid Mirobidov esa, to'qima kresloda, boya Otaqo'zi kirib ketganda qanday bo'lsa shunday, boshini changallab o'tirardi. Otaqo'zi uydan chiqishi bilan Jamol Bo'riboyev yurishdan to'xtab, Vohid Mirobidov esa egilgan boshini ko'tarib, bab-baravar o'girilib qarashdi, qarashdi-yu, ko'zlarida iztirob aralash ayanchli bir umid porladi.

– Nima yangilik bor, rais? – Jamol Bo'riboyev qaltiroq qo'llarini chelakka cho'zdi, biroq suv ichishga ham majoli yetmay, quduqqa suyanib qoldi.

Otaqo'zi uning chehrasidagi bu ayanchli ifodaga, qandaydir bo'shashib, talmovsirab qolgan xatti-harakatlariga zimdan razm solarkan, o'tmishdagi gaplar, bu odam tufayli tog'asiga ozor berganlari, so'nggi paytlardagi ko'ngilsizliklar, hammasi birdan yodiga tushdi-yu:

– Yangilik shuki, – dedi kutilmagan bir shafqatsizlik

bilan, – keksa bir odamni qoqib o'ldirib, o'rta yo'lga tashlab ketibsizlar!

Vohid Mirobidov g'ingshishga o'xshash ayanchli tovush chiqarib, yana boshini changallab oldi. Jamol Bo'riboev esa turgan joyida chayqalib ketib, ishkorning ustunini ushlab qoldi.

– O, yoshlar, yoshlar! – dedi u ingrab. – Aytdim-a, Qodir-jonga!

– Qodirjon-ku, yosh ekan, sizlar qayoqda edilaringiz bu falokat yuz berganda? Zotan, ovga balo bormi? Arxar ov qiladigan paytmi hozir?..

– Ha, bizdan ham o'tdi! O'tdi! – ingradi Jamol Bo'riboev. – Xato o'tdi bizdan! Ammo lekin... bir yo'lini topasiz, rais! Bir yo'lini topib, tinchitasiz. Qo'lingizdan keladi bu ish! Bu gap tergovga tushadigan bo'lsa... yo'q-yo'q, bir yo'lini topasiz, uka!

Jamol Bo'riboev, ikki qo'li ko'ksida, ishkorn tagidan chiqdi. Uning ilgarigi salobati, uncha-muncha odamni shoshirib qo'yadigan ulug'vor vazohatidan asar ham qolmagan, xuddi boshiga katta musibat tushib, qaddi yoy bo'lgan qariyaday egilib, timirskilanib qolgandi! Nahot, Otaqo'zi do'st tutingan, uddaburon rahbar deb, boshiga ko'tarib yurgan Jamol Bo'riboev shu odam bo'lsa? Nahot, mudhish jinoyatga yo'l qo'yib, mardona turib berish o'rniga o'z jonini, soxta obro'sini saqlab qolishga urinayotgan bu xudbin, quyoniyurak odamni deb, u o'z jigari, eng yaqin kishisini qon qilgan bo'lsa? Ro'parasida titrab-qaqshab o'tirgan mana bu allomayi davron-chi?

Otaqo'zi yana boyagiday ijriganib, orqaga tisarildi:

– Ha, hamma baloni siz qilasiz-u, javobini biz beramiz! – dedi bo'g'ilib. – Esingizdami, ko'klamda, o'g'it bilan ehtiyot qismlarni berayotganda... Xuddi o'z cho'ntagingizdan chiqarib berayotganday kerilgan edingiz! Mening oldimda o'z shaxsiy do'koningizdan berayotganday bo'lib, orqavorotdan rayon hisobiga yozdirib qo'yibsiz! Sizni deb, kecha obkomda mulzam bo'ldim, erta-indin, raykom byurosida tippa-tik turib javob beraman siz uchun! Hali o'zim nima bo'lishimni bilmayman-u...

– Jon do'stim! – dedi Jamol Bo'riboyev Otaqo'zining qo'li-dan ushlashga urinib. – U yog'i bir gap bo'lar, jon do'stim! Bu yog'idan gapiring! Bu ish militsiyaga tushsa sizgayam yaxshi bo'lmaydi, bizgayam! Rayonda, o'rtoq Shukurovning oldida obro'yingiz bor...

Abror Shukurovichning nomini eshitishi bilan Vohid Mirobidov sapchib o'rnidan turdi.

– Ha, ha, – dedi talmovsirab. – Men ham gaplashaman Abrorjon bilan. Mashina bersangiz hozir ketardim...

Otaqo'zi unga javob berib ulgurmadi. Shu payt kimdir ko'cha tomondagi eshikni sharaq-shuruq qilib ochdi-da, oshxonaga kirdi, uyda chiroqlar yonib, birov bo'g'ilib-bo'g'ilib yig'ladi...

Otaqo'zi bo'g'ziga kelgan gapni ichiga yutib, uyga yugurdi. Biroq dahlizga kirganda ichkaridan Oliya chiqdi-da, yo'lini to'sdi.

– Tag'in nima gap? Kim bu yig'layotgan?

– Qizingiz, Tohira...– Oliya eshikka suyanib, ko'ziga yosh oldi.

Usiz ham hovlidan tutab kirgan Otaqo'zi to'satdan yonib ketdi.

– Namuncha motam tutmasa qizing? Otasiga o'xshagan o'sha lo'ttibozdan boshqa yigit topilmay qoladimi unga?

Oliya erining qon talashgan ko'zidan ko'zini uzib, yerga qaradi.

– Siz hech narsani bilmaysiz, xo'jayin...

– Yana nima baloni topding?

– Qizingiz... qizingiz...

– Gapir, yamlanmay!

– Bo'yida bor...

– Ablah! – Otaqo'zi peshanasini devorga tirab, tishini tishiga bosdi. – Ablah! Bitta mana shu ishi uchunoq qamoqda chiritish kerak u muttahamni! To'xta! Qani u... gulday qizimni harom qilgan u mal'un? – Otaqo'zi ko'zlari o't yonib, xotiniga qaradi. – O'z qo'lim bilan bo'g'ib o'ldiraman u nopokni!..

Otaqo'zi gapini tugatmagan ham ediki, mehmonxona-ni eshigi jur'atsizgina ochilib... Tohira ko'rindi.

Har doim yelkasiga tushib turadigan go'zal, tim qora sochlari betartib to'zg'igan, ko'zlari yig'idan shishib ketgan Tohira indamay kelib, dadasining oyog'iga tiz cho'kdi-yu, yosh bilan yuvilgan yuzini uning etigiga bosdi.

– Dadajon! Dadajonim manim!

Keyin, bo'lar ish bo'lib, bo'yog'i singib bitgandan keyin, Otaqo'zi tog'asi bilan bo'lgan so'nggi gap, so'nggi uchrashuvni o'ylarkan, uning oldiga qanday kirib borganini sira eslay olmas edi. Uydan qanday chiqdi, yo'lda kimlarni uchratdi, tog'asining oldiga qay alfozda kirib bordi – buning bittasi ham yodida yo'q, faqat sochlari parishon qizining, suyukli, erkatoy qizining yosh bilan yuvilgan yuzi-yu, uning unsizgina yurib kelib, oyog'iga tiz cho'kkanini bilardi, xolos.

Otaqo'zi kirib borganda tog'asi, domla Shomurodov tirsaklarini katta yozuv stoliga tirab, og'ir boshini changallab o'tirar, Proxor Polikarpov, oyog'ida katta kirza etik, egnida eski gimnastorka, boshida bo'yog'i xiralashib qolgan qizg'ish kaska, tor xonani gir aylanib yurar, derazaning oldida devorga suyanib Haydar turardi.

Otaqo'zi kirishi bilan xuddi birov farmon berganday, hamma baravar o'girilib qaradi.

Normurod Shomurodovning kirtaygan ko'zlarida hadixsirash alomati zohir bo'ldi, Proxor Polikarpov yurishdan to'xtab, kemptik qulog'ini ushlab-ushlab qo'ydi, Haydarning yuzida esa qo'rquv aralash taajjub ifodasi aks etdi.

Otaqo'zi eshikda to'xtab, qandaydir vishillab nafas oldi.

– Tog'a! Men sizning oldingizda gunohkorman...

Domla Shomurodovdan sado chiqmadi. Haydar yerga qaradi, Proxor esa negadir gimnastorkasining etagini tuza-tib, charm kamarini to'g'rilab qo'ydi.

– Sizning oldingizda qattiq gunohkorman! – dedi Otaqo'zi va hayajonini bosish uchun bir yo'talib oldi. – Ammo men hozir sizdan uzr so'ragani kelganim yo'q! Uzr so'ragani boshqa payt kelaman, kelib oyog'ingizga yiqilaman!

Domla Shomurodov kirtaygan ko'zlarini yashirishga urinib:

– Qo'y, shu gapingni, – dedi sekin.

– Hozir men sizlardan... otam o'rnidagi ikki mo'tabar qariyadan maslahat so'rab keldim... Maslahat so'rab va bitta narsani iltimos qilib keldim...

Otaqo'zi yana ko'kragini to'ldirib tin oldi-da, uydagilarga bir-bir qarab chiqdi, biroq hech kimdan xayrixohlik topolmay, ovozi qaltirab, davom etdi:

– Bilaman, yomon ish bo'lgan! Juda yomon, kechirilmas bir ish bo'lgan! Ammo... avvalambor, u bangi... Qudratxo'jani aytaman, u piyanista o'ziyam o'lgudek mast ekan!.. Mast bo'lmagan, ichmagan kuni yo'q edi bu odamning! Ichib olib, yot unsurlarning gapini gapirib, yoshlarni yo'ldan ozdirib yuruvdi u!

– Bo'ldi-bo'ldi! – dedi to'satdan Proxor. – U – nopok! Piyanista! Quloq qilingan yot unsur u! Shuning uchun yopig'lik qozon yopig'lik qilib qo'ya qolaylik! Tuya ko'rdingmi – yo'q! Biya ko'rdingmi – yo'q! – Proxor boshini g'alati likillatib, bir Normurod Shomurodovga, bir Haydarga qaradi. Lekin ulardan sado chiqmadi, tog'a-jiyanlar boshlarini osiltirib, sukut saqlashardi.

Otaqo'zi rangi o'chib, ro'parasida xo'rozday kekkayib turgan mushtdekkina cholga yeb qo'ygudek o'qrayib qaradi.

– Xo'sh? Yo uning quloq qilingani yolg'onmi?

– Quloq qilingan bo'lsa... hukumat gunohidan o'tgan uning! Sen bilan men emas, hukumat kechirgan uni, Otaqo'zi!

– Bundan chiqdi, shu bitta... isqirt piyanistani deb, sassiq qo'ng'izday hamma joyda sasib, yosh avlodni yo'ldan urib yurgan bir ig'vogarni deb, shuncha odam, oliy ma'lumotli ikki yosh juvonmarg bo'p ketaveradimi?

– Iye?– dedi Proxor, go'dakning ko'zlariday ma'sum ko'zlarini pirpiratib. – O'lgan odamni piyanista deb, qabih bir jinoyatni bosdi-bosdi qilib yubormoqchimisiz hali? U yoqda oshna-og'aynilaringiz odam o'ldirib, qonunni oyoqosti qilib, arxar otib yurishsin-u, siz bo'lsa bu yoqda...

– Bitta arxar odamdan aziz bo'ptimi?

– Iye? – dedi Proxor yana. – Sizning qarindosh-urug'laringiz odam-u, boshqalar odam emasmi? Siz uchun qonun-qoida bormi o'zi? Yo bu qonunlar boshqalar uchun

yozilgan-u siz istagan noma'qulchiligingizni qilaverasizmi? – chol ma'sum ko'zlari chaqnab, og'aynisiga qaradi. Biroq Normurod Shomurodovdan yana sado chiqmadi. U chakka tomirlari bo'rtib chiqqan ulkan boshini osiltirib, churq etmay o'tirar, faqat tizzalaridagi katta, qoramtir kaftlari yaproqday titrardi.

– Xo'p! – dedi Otaqo'zi. – Nima ham deymiz. Ammo lekin...

– Dada! – dedi Haydar.

Domla Shomurodov, go'yo Haydarning shu bir og'iz so'zini kutib o'tirganday, tizzalari qaltirab, og'ir qo'zg'alib o'rnidan turdi. Yalpoq, suyakdor yuzidan qoni qochib:

– O jiyan, jiyan! – dedi tili g'o'ldirab. – Bo'lib o'tgan shuncha hangomalar sen uchun bir saboq bo'lar, deb o'ylovdim. Nadomatlar bo'lg'aykim, saboq bo'lmabdi! Sen hozir nimalar deyayotganingni bir o'ylab ko'rdingmi? Senda insof degandan zig'irdek qolganmi o'zi?

Otaqo'zi tishini tishiga bosdi. U tog'asining tutqanoq tutgan odamday qaltiray boshlaganini ko'rgani uchun ham bo'g'ziga kelgan g'azabni ichiga yutib, indamay chiqib ketmoqchi bo'ldi, lekin shu payt yana Tohira esiga tushdi, uning unsizgina yurib kelib, oyoqlari ostiga tiz cho'kkani ko'z oldiga keldi-yu:

– Insof! – dedi fig'oni chiqib. – Mayli, tog'a! Tanasi boshqa dard bilmas ekan! Dunyoda eng noinsof, eng nomard odam men ekanman! Mayli... Ammo... qadr bilmas qarindoshdan qadr bilgan yot yaxshi deganlari ham rost ekan!

Haydar to'satdan rangi bo'zday oqarib, otasiga qarab yurdi.

– Bo'ldi, dada! Haddingizdan oshmang!

– Nari tur, lapashang!.. Rahmat, tog'ajon! Burgut qaris qarchig'ay bo'lar deb, qarchig'ayday qirib bo'ldingiz hammani! Rahmat! – Otaqo'zi o'g'lini siltab tashlab, eshikni bir tepib ochdi-da, zimiston qorong'ilikka sho'ng'idi. U Normurod otaning turgan joyida chayqalib ketganini, so'ng ko'kragini g'ijimlaganicha divanga mukkasidan tushganini ko'rmadi.

O'n birinchi bob



„O, Otaqo'zi aka, Otaqo'zi aka! Men karomat qilish qobiliyatim bor, deb da'vo qilmoqchi emasman, biroq mana shunday bo'lishidan qo'rquvdim... Siz nega bu odam menga yelimday yopishib oldi, nega meni tergagani tergagan, deb ranjir edingiz. Men bo'lsam mana shunday... oxiri voy bo'lishidan qo'rqardim... Bilaman, bo'lar ish bo'lib, ko'za sinib bitgandan keyin „Men shunday bo'lishini bilar edim“, deb o'zimni go'yo valiy qilib ko'rsatishim adolatdan emas, biroq qo'lingizni ko'ksingizga qo'yib ayting-chi, Otaqo'zi aka, siz ham mening gaplarimni to'g'ri tushunib, to'g'ri yo'lga tushishni istamadingiz-ku!..

Esingizdami, shu yil bahorda Toshkentga tushganimizda, tog'angiz domla Shomurodovning uyida mana shu Jamol Bo'riboyev to'g'risida qabih bir voqeani gapirib bergandingiz. Meni kechirasiz, Otaqo'zi aka, lekin men o'shandayoq bu odamning nopok kirdikorlarini bilar ekan, nima qiladi unga yaqinlashib, axir yomonga yondashgan yiqilmay qolmas, degan gap bor-ku, deb o'ylagan edim... Nima qilardingiz shu odamga yaqinlashib? O'g'it uchun pora berib?“

„Pora emas, meva-cheva, sovg'a-salom, degandek, arzimagan bir yo'qlov, Abror Shukurovich...“

„Tekin bergandayam nima qilardingiz shu ishni qilib? Nima qilardingiz o'z do'stlaringizning cho'ntagiga qo'l solib?“

„E, u nokasning va'dasi boshqa edi, o'rtoq Shukurov! Bu o'g'itlarni rayon hisobiga berishini bilganimda...“

„Bilmas emishsiz! Osmondan olib beradigan o'g'it zavodi yo'q-ku uning? Baribir kimningdir nasibasidan uzib berardi-ku sizga?“

„To'g'ri, yaxshi qilmadim. Buni bo'ynimga olaman. Ammo lekin... men buni o'zim uchun qilganim yo'q-ku, o'rtoq Shukurov?“

„O'zingiz uchunmi, yo'qmi, lekin hamma sizga o'xshab ko'karsam yolg'iz men ko'karay, bo'lsam bir o'zim bo'lay, deb tursa... ahvolimiz nima bo'ladi?“

„Rahmat, o‘rtoq Shukurov! Siz bugun ja... to‘g‘ri gaplarni gapiryapsiz! Bu gaplaringizni eshitib qoyil qolyapman – umringizda biror-bir noto‘g‘ri ish qilmagan odamga o‘xshaysiz! Ammo sizga bitta savolim bor, o‘rtoq Shukurov: siz menga o‘xshagan raislarning ishiga nimaga qarab baho berasiz?“

„Hosilga qarab! Rejaga qarab! Shunday demoqchimisiz?“

„Balli! Sizdan ham adolatli gap chiqar ekan-ku, o‘rtoq Shukurov! Ammo hayot-mamotimiz shunga bog‘liq bo‘lsa... nechuk osilasiz? Nechuk boshimga malomat toshini yog‘dirasiz?“

„Malomat toshi emas, haq gap bu! To‘g‘ri, biz sizga rejaga qarab baho beramiz! Chunki... „Paxta bizning faxrimiz“, degan gap shunchaki bir shior emas! Yeb o‘tirgan nonimiz, dasturxonimiz shu narsaga bog‘liq! Biroq kim sizga faqat rejani o‘yla dedi?“

„Deganlar bo‘lmaganmi? Tilimni qichitib, yaramga tuz sepib nima qilasiz, o‘rtoq Shukurov? Kallamni shartta uzib tashlasangiz ham aytaman – shu bugun ham bor unaqa odamlar!“

„Bor bo‘lsa davri o‘tyapti ularning! Balandparvoz gaplarim uchun kechirasiz, lekin bu ulug‘ boylikni yaratayotgan odamlarning turmushi, mehnati, madaniyatini ko‘proq o‘ylaydigan payt kelmadimikin, Otaqo‘zi aka!..“

„Bundan chiqdi biz o‘ylamapmiz-da, buni! Kamina emas, boshqa odam ko‘taribdi-da, bu kolxozni! Boshqa odam quribdi-da, bu qishloqni!“

„Yo‘q, siz qurgansiz! Siz ko‘targansiz bu kolxozni. Biroq...“

„Biroq hovliqib ketganmiz, hovliqib ketib, bosar-tusarimizni bilmay qolganmiz! Shunaqami?“

„Kinoya qilmay qo‘ya qoling! Hovliqib ketmagan bo‘lsangiz shunday qilarmidingiz? Avvalgi xatolaringizni aytmay qo‘ya qolay, bu mashina fojiasidan keyin qilgan ishlaringizni bir o‘ylab ko‘ring, axir! Kasalxona shifokorlariga o‘lim to‘g‘risida noto‘g‘ri akt tuzdirasiz, nozirning aktlarini yirtib tashlaysiz, keksa qorovul Proxor Polikarpovga bo‘lib o‘tgan gaplarni yashirasan, deb do‘q urasiz! Qonunni oyoqosti qilasiz-u, tag‘in piching qilasiz!.. Bu gaplardan

keyin, insof bilan ayting-chi qani: men nima qilay endi?“

„Nima qilaman desangiz o‘zingiz bilasiz! Taqdirimiz qo‘lingizda! Bizni o‘ylamasangiz qaynatangizni o‘ylang!“

„Qaynatam bilan gaplashib bo‘ldim!“

„Shunaqami?.. Ammo bilib qo‘ying, o‘rtoq Shukurov: tayoq to‘g‘ri, men to‘g‘ri qabilida ish tutib, qattiq ketyapsiz! Pand yeb qolmang tag‘in! Buni hayot deydilar, uka! Haliyam bo‘lsa bir o‘ylab ko‘ring! Bundan mushkul ishlarniyam hidini chiqarmay, yopig‘lik qozon yopig‘lik qilib yuborganlar bor...“

„Bor bo‘lsa bordir, lekin men bu ishni qilolmayman!“

„Ha, siz qilolmaysiz! Mansab shirin siz uchun!..“

„Mansab! Kampirning dardi g‘o‘zada! Mayli, nima ham deyman? Ammo bolaligingiz urush yillarida o‘tgan ekan, bir voqeani aytib beray: urushning so‘nggi yillari. Otam frontda vafot etgan, oyim yosh edi, boshqa er qilib ketgan... Men ko‘zi ojiz qari buvimning qo‘lida qolganman. Qahatchilik zamonlar. Yalangoyoq, yalangbosh degandek, o‘zimga o‘xshagan yetimchalar bilan yozda dashtga chiqib mashoq teraman. O‘shanda kolxozda zo‘r qorabayirga minib yuradigan shopmo‘ylov bir barzangi bo‘lardi. Tunov kuni Ali mo‘ylovingizni ko‘rganda o‘sha odam esimga tushdi. Urushdan qochib, cho‘lda qorovul bo‘lib yuradigan bu ablah har kuni kechqurun ot o‘ynatib bostirib kelardi. Biz uni ko‘rganda yalangoyoq tikan bosib, tirqirab qochardik. Lekin otdan qochib bo‘ladimi? Barzangi quvib yetib, biz yetimchalarni chirqiratib, qo‘llarimizdagi mashoqlarimizni tortib olardi. Bu mashoqlarni xirmonga ham topshirmas edi, u palid! To‘rvalarni yig‘ib olib, o‘z odamlariga ulashib berardi, berardi-yu, kechalari – u bizga qo‘shni edi – o‘ziga o‘xshagan dordan qochgan quzg‘unlar bilan tongotar ziyofatlar qurardi. Shunda biz, yalangoyoq yalangbosh, och-yalang‘och yetimchalar barzangining mast-alast qo‘shiqlarini eshitib yotib, xoh ishonib, xoh ishonmang adolat to‘g‘risida o‘ylardik! Akalarimiz, tog‘alarimiz urushdan qaytib kelishsa-yu, bizni och qoldirib, o‘zlari aysh qilayotgan bu ablahlardan o‘ch olishsa edi, deb orzu qilardik... Ha, adolat tuyg‘usi – bu ulug‘ tuyg‘u, Otaqo‘zi

aka! Agar men endi, bu xunuk voqealardan keyin, xuddi hech nima bo'lmagandek hamma narsaga ko'z yumib qo'ya qolsam... odamlar nima deydi?"

„Odamlarning gapidan qo'rqsangiz nima qilasiz mening boshimni og'ritib? Ishdan oling? Qamating! Badarg'a qiling! Tamom-vassalom!“

„Yana ranjiyapsiz! Bu gaplarni o'ylab ko'rish o'rniga nuqul ranjiysiz. Bir gap bo'lsa darrov o'rtoq Xolmurodovga qarab yugurasiz! Meni kechirasiz, Otaqo'zi aka, lekin sizning bu ahvolga tushishingizga o'sha og'ayningiz ham aybdor! Yashirmayman, men bu gapni u kishiga ham aytdim! Qirg'oqni asov daryo, odamni ortiqcha maqtov buzadi, deyдилar, ortiqcha maqtovlaringiz yo'ldan uryapti Otaqo'zi akani, dedim!“

„Yaxshi aytibsiz, rahmat sizga!“

„Agar meni o'zingizga dushman, u kishini do'st deb o'ylasangiz, xursand bo'lishingiz mumkin: haliyam yoningizni olyaptilar u kishi! Otaqo'zi akani ishdan olganda o'rniga kimni qo'yasiz, deyaptilar!“

„Siz bo'lsa... bizda almashtirib bo'lmaydigan rahbar yo'q, deb javob berdingiz!“

„Yo'q, bu safar yanglishdingiz! Sizni ishda qoldirishning iloji yo'q, buni bilaman, biroq o'rningizga kim bo'ladi? Buni haliyam bilmayman. Xolidaxonmi? Lekin u ham sizning childirmangizga o'ynab yurgan bir qo'g'irchoq-ku!..“

„Boshqalar-chi? Boshqalarda...“

„Boshqalarni qo'yib turing! O'zingizni o'ylang avval!“

„Oling! Payt kepti opqoling, o'rtoq Shukurov! Doim shunday bo'lgan o'zi: bir odam qoqilib yiqilsa, bas, ustiga chiqib tepmagan odam qolmagan!“

„Siz ham tan bering-da, axir! Mard yengilsa maydonda qoladi, degangapbor... Mard bo'ling, Otaqo'zi aka! Xabaringiz bor, ertaga byuro... Balki siz ham shu topda menga o'xshab, shiftga tikilib, o'zingiz bilan o'zingiz olishayotgandirsiz? Men bir inson sifatida sizning dardlaringizni tushunaman, biroq aldashni istamayman: ishda qolishingizga umid yo'q...“

„Nahot chorasi bo'lmasa? Men qaysarlik qilib hozir sizga betgachoparlik qilyapman, to'g'ri, ammo lekin shu kunlarda

ko'p o'yladim. Agar o'rnimda qoldirsangiz... Hamma gunohlarimni ish bilan yuvarдим, ish bilan oqlardim o'zimni!"

„Yo'q. Otaqo'zi aka, iloji yo'q buning! Qilgan xatolaringiz shuni taqozo etsa ne chora? Faqat bitta ukalik maslahatim bor: mard bo'ling, Otaqo'zi aka! Er yigitning boshiga nelar kelib, nelar ketmas! Mard bo'ling..."

Abror Shukurovich Mahbubaning ovozini eshitganday bo'lib, ko'zini ochdi-yu, anchagacha hushini yig'olmadi. U miyasini g'ovlatib yuborgan bu g'alati bahs-munozara tushida bo'ldimi, o'ngidami – buni xiylagacha o'ziyam bilolmadi. Har qalay, Mahbubaning ovozini eshitib, ko'zini ochganida u kechasi divanda qanday o'tirgan bo'lsa, shunday o'tirar, hatto kiyimlarini ham yechmagan edi.

Tong otgan, uy yop-yorug', aftidan, qaynatasi bilan qaynanasi jo'nashga shaylanayotgan bo'lsa kerak, hovlida gangir-gungur ovozlar eshitilar, biroq Mahbubaning o'zi ko'rinmas edi.

Shukurov ko'zini ochishi bilan kechasi bo'lib o'tgan yoqimsiz to'qnashuv esiga tushib, ko'ngli yana g'ash bo'ldi. Odatda, bunday to'qnashuv paytlarida Abror Shukurovich ko'p qizishmas, junbushga kelgan tuyg'ularini jilovlay olar, ba'zan hatto gapni hazilga burishga ham qurbi yetar edi. Biroq bu kecha... bu kecha yana o'sha, tog'da ro'y bergan ov mojarosini tinchitib yuborish to'g'risidagi iltimoslar qo'zg'alib, bu iltimoslarga Mahbuba ham qo'shilganda birdan portlab ketdi-yu, yaxshi-yomon ancha gaplarni gapirib yubordi. Yaxshiyam bu „suhbat“da qaynatasi ishtirok etmadi. U xotini bilan qizini ishga solib qo'yib, o'zi chetda yurdi. Qilg'ilikni esa Nazokatbibi qildi.

Nazokatbibi oldin... bu dunyoda hech qachon yaxshilikka yaxshilik qaytmaganidan nolidi, keyin... gulday qizimizni qo'yingizga solganimizda ko'rgan mehr-oqibatimiz shu bo'ldimi, deb uvvos tortib yig'ladi. Unga Mahbuba qo'shilib, bo'ldi yig'i, bo'ldi to'polon! Oxirida Mahbubaning yig'isi „ketaman“ga aylanib, qo'shni xonalar taraqa-turuq bo'lib, to's-to'polon tun yarmigacha davom etdi... Nahot Mahbubaning ketaman, degani rost bo'lsa? U ketib qolsa... bolalar nima bo'ladi?

Eshik sekin ochilib Mahbuba kirdi. Sal qizargan ko'zlarining chetiga ko'kimtir bo'yoq surgan, o'ziga juda yarashadigan parcha gulli yangi ko'ylagini kiygan.

– Dadamlar yo'lga chiqyaptilar. Hayrlashasizmi yo...

– Siz-chi?– Abror Shukurovich bu gapni bekor aytganini aytib bo'lganidan keyin tushundi-yu, tilini tishladi.

– Men...– Mahbuba lablari pirpirab ko'ziga yosh oldi. – Agar ket, desangiz ilojim qancha, ketaveraman...

– Mahbub! – dedi Abror Shukurovich. – Menga qarang, Mahbub...

– Dadamlar siz bilan bir og'iz gaplashmoqchi ekanlar, qabul qiladilarmi yo...– Mahbuba kipriklarida miltirab turgan ko'z yoshlarini ko'rsatkich barmog'i bilan artib tashladi-da, erining javobini kutmasdan uydan chiqdi, chiqishi bilan eshikda Vohid Mirobidov ko'rindi.

– Mumkinmi, o'g'lim? – U xuddi gunoh qilib qo'yan yosh boladay jur'atsizgina kirib keldi-da, sekin uf tortib, poygahda to'xtadi.

– Yaxshi yotib turdingizmi, bolam?

– Rahmat...

Vohid Mirobidovning, odatda, har bir tolasiga jilo berib taraladigan siyrak sochlari shoirona to'zg'igan, soqoli qirtishlanmagan, o'ziyam eshikda g'arib-u g'urabolarcha bosh egib turardi. Abror Shukurovich beixtiyor yuragi achishib:

– O'tiring, dada, – dedi muloyim gapirishga tirishib.

– Tashakkur sizga. Biz endi ketyapmiz... Kaminani hadeb bir gapni gapiraverib jonimga tegdi demaysiz. Qarigan chog'imda mengayam qiyin. Tushunmog'ingiz kerak, bolam...

– Bilaman, dada...

– Billsangiz... bu militsiyangizni aytaman, bizni tinch qo'yisharmikin yo... qarigan chog'imda yana ovora qilisharmikin?– Vohid Mirobidov kuyoviga o'g'rincha ko'z tashladi-yu, darhol ko'zini olib qochdi.

Shukurov indamay ochiq derazadan tashqariga qaradi.

„Yo tavba! Yana o'sha gap! Eski belbog', eski to'n! Ajabo, bu o'y, uning qo'lidan hamma narsa keladi, istasa

har qanaqa qonunni oyoqosti qilib, har qanaqa jinoyatni ham bosdi-bosdi qilib yubora oladi, degan bu chirkin fikr bu odamlarning ongida qachon tugʻilib, qachon qon-qoniga singib ketdiyin? Davlat militsiyasi emas, uning, Abror Shukurovning militsiyasi emish! Yoshi oltmishdan oshgan kap-katta bir olimning gapi shu boʻlsa!.. Olim emish! Olim boʻlsa, hozir shu gapni gapirarmidi?– Abror Shukurovichning esiga yana lop etib, Toshkentda, domla Shomurodovning uyida boʻlib oʻtgan gaplar tushdi, tushdi-yu, koʻnglida joʻsh urgan tugʻyon afsus-nadomatga oʻxshash bir tuygʻu bilan almashdi.– Qani endi bu odam ham domla Shomurodovday mard, tanti, diyonatli bir inson, pok bir olim boʻlsa! Abror Shukurovich undan faxrlanib, boshiga koʻtarib yurmasmidi? Bu odam esa... oltmishdan oshganda orttirgan imon-u eʼtiqodi bu boʻlsa? Nafaqat turmush, ilm-fanda ham qingʻir yoʻllardan borib, izzat-ikromga erishish mumkin deb oʻylasa? Pala-partish yozilgan yuzaki bir asarini oʻzi koʻtar-koʻtar qilib, oʻziga oʻzi mukofot uyushtirib yursa. Oʻz yoshiga, olim degan sharaflı nomga nomunosib ishlar qilib yursa? Qachon aql kiradi, qachon insofga keladi bu odam?”

Abror Shukurovich xayolida quyunday charx urgan bu alamli oʻylarni arang jilovlab qaynatasiga qaradi.

Vohid Mirobidov, ikki qoʻli koʻksida, hamon koʻzlari javdirab, termilib turardi. Aftidan, poygahda gʻariblarcha mungʻayib turgan bu odamga hozir gap uqtirish qiyin edi. Abror Shukurovich buni bir qarashdayoq tushundi, biroq xayolidagi alamli oʻylar yana xuruj qilib keldi-yu:

– Men sizga hayronman, dada, – deb yubordi.

– Sabab?

– Sababi... siz tushungan, katta odam boʻlsangiz-u, har qanaqa qonunni oyoqosti qilish mumkin, deb oʻylasangiz?..

Vohid Mirobidov kuyovining gapidan darmoni qurigan-day eshikdan kirgan joydagi kresloga choʻkdi, choʻkarkan:

– Mayli, bolam,– dedi yolvorgan tovushda. – Masalaning falsafiy tomoniga oʻtmay qoʻya qolaylik!..

– Men ham sizga falsafa sotmoqchi emasman. Biroq hayronman: bu eʼtiqod, bu fikr qachon tugʻilgan sizda? – Abror Shukurovich toʻsatdan qoni qaynab ketganini oʻziyam

sezmay qoldi. – Yo Mirzacho‘lni o‘zlashtirishga qarshi maqolalar yozib yurganingizda boshlanganmidi bu gaplar?

Vohid Mirobidovning ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi:

– A? Labbay? Qaysi maqolani aytyapsiz?

– Qaysi bo‘lardi? O‘sha, o‘ttizinchi yillarning o‘rtasida domla Shomurodovga qarshi yozgan maqolalaringizni aytyapman!..

– Domla Shomurodov! – Vohid Mirobidov ingrab yubordi. Normurod Shomurodov! Yo Rab! Siz, mening o‘g‘lim, ichi qora bir odamning bo‘htonlariga ishonib mayli, nima ham deyman, zorim bor, zo‘rim yo‘q bolam...

Vohid Mirobidov ko‘ziga yosh oldi. Bu yosh tomchilari Abror Shukurovichning bo‘g‘ziga kelgan qahrli gaplarini ichiga yutishga majbur etdi.

– Qo‘ying, dada! – dedi u o‘zini bosishga urinib. – Loaqal endi yoshingiz bir joyga borganda bu gaplarni gapirmang! To‘g‘rilikni, insof-u adolatni o‘ylaydigan paytingiz keldi-ku, axir!..

– Xo‘p, bolam, xo‘p! Bizga ruxsat bo‘lmasa... – Vohid Mirobidov, go‘yo kuyovining bundan ham yomonroq gaplarni aytib yuborishidan qo‘rqqanday shosha-pisha orqaga tisarildi. – Omon bo‘ling, bolam, omon bo‘ling ish-qilib...

Abror Shukurovich holsizlanib o‘zini kresloga tashladi. Zum o‘tmay tashqaridan Mahbubaning: „Dadajon!“ – degan zorli xitobi eshitildi.

– Yig‘lama, qizim, yig‘lama! – derdi Vohid Mirobidov, o‘ziyam yig‘lamsirab. – Yo‘q, yo‘q, bu gapingni qo‘y, qizim. Hech qayoqqa ketmaysan. Farzandlaringni o‘yla. Bunday paytda sabot qilmoq darkor, qizim, sabot...

Abror Shukurovichning xayolidan: „To‘g‘ri bo‘laman deb, men ham quyushqondan chiqib ketdim shekilli? – degan fikr o‘tdi, biroq shu zahotiyoq bu fikridan qaytdi. – Har kim ekanini o‘rar, degan gap bor-ku? – dedi ichida. – Bu odam ham ekanini o‘rsin-da, endilikda!“ – u xo‘rsinib o‘rnidan turdi, istasin-istamasin, mehmonlarni kuzatib qo‘yishi ham farz, ham qarz edi.



Domla Shomurodov uyqu aralash tubsiz bir jarlikka qulab tushayotganday bo'ldi-yu, cho'chib ko'zini ochdi. Uy g'ira-shira, stoldagi ko'k abajurli chiroq shu'lasida Latofat iyagini qo'llariga qo'yib, kitob o'qib o'tirardi. U domlanning bezovtalanganini sezib, kitobdan boshini ko'tardi.

– Tuzukmisiz, bobojon?

Shukur – dedi domla eshitar-eshitilmas bir tovushda.

– Haydar qani?

– Haydar akamlar... shaharga chaqirishgan ekan, hali-zamon kep qoladilar...

„Bu qizaloq nima qilib o'tiribdi bu yerda? – dedi domla ichida. – Nega har kuni keladi? Har kuni tun yarmigacha o'tiradi... Haydar tayinlagan-ku! Tentak! O'lim bilan talashib yotgan bir cholning yoniga shu qizaloqni qo'yib ketasanmi, esi past? O'lib qolsam esxonasi chiqib ketmaydimi bu qizaloqning?“

U bir haftadan beri qimir etmay divanda yotar, oppoq yostiqa uning tuksiz ulkan boshi artilgan mis ko'zaday yaltirar, o'ziyam ko'zlari ichiga botib qoqsuyak bo'lib qolgan, faqat katta burni yalpoq yuzida xuddi sahrodagi o'tovday qo'ng'ayib turardi...

– Choy-poy beraymi, bobojon?

– Yo'q...

– Gersenni o'qib berasan degandingiz...

– Ha, ha, – dedi domla. – O'qib berasan. Keyinroq o'qib berasan... – U go'yo Latofatni ranjitib qo'yishdan qo'rqqanday, yana bir marta „keyinroq“ deb takrorladi-da, ko'zini yumdi.

Keyingi yillarda domla Shomurodovning eng sevimli yozuvchisi Tolstoy bo'lib qolgan edi, ayniqsa, uning „Ivan Ilichning o'limi“ degan asarini qayta-qayta mutolaa qilar, Ivan Ilichning so'nggi daqiqalardagi iztiroblari, o'lim oldidagi falsafiy fikrlari domlani ham o'ylashga undar, ham ko'ngliga tasalli berardi. Biroq to'shak yozib yotib qolganidan beri o'lim haqidagi o'ylardan qutulish uchun birda Umar Hayyom, birda Navoiy, birda Gersenga murojaat qiladigan bo'ldi. U Gersenning „O'tmish va o'ylar“ degan kitobini ilgarilari ham qo'ldan qo'ymas, o'qib to'ymas edi. Hozir esa, eng og'ir kunlar, hatto eng musibatli damlar

to'g'risida ham allaqanday iliq nur bilan, birda shafqatsiz qahr, birda ma'yus tabassum bilan hikoya qilguvchi bu ajoyib kitob domla uchun dono bir hamsuhbat vazifasini o'tab, tizginsiz g'am-anduhlarni xayolidan ko'targanday bo'lardi... Lekin bugun...

U bugun o'zini sal bardam sezgandi, biroq kampir...

Domla ko'zini yumishi bilan nigohi oldida yana o'sha zimiston jarlik namoyon bo'ldi. U hozirgina xayolida jar tubida bir nimalarni terib, timirskilanib yurgan ayani ko'rgan, aya surma tortilgan ma'yus ko'zlarini javdiratib „bu yoqqa tushing“, deb imlagan, domla, aksincha, uning qo'lidani ushlab, yuqoriga tortib olmoqchi bo'lgan, biroq aya bilan birga o'pqonga qulab tushayotgan bir paytda hushyor tortgandi... Mana, oyoq-qo'llari ham muzlab qolibdi. Bu muz bamisoli bir jonli maxluqday asta-sekin g'imirlab ko'kragi tomon ko'tarilib borardi. Domlani nazarida uning badani asta so'nayotgan cho'g'ga o'xshar, shifokorlar bu cho'g' batamom so'nib qolmasin deb, ukollar qilib, zo'r berib „puflashar“, biroq bu „puflash“lar yordam bermas, nazarida, tanasi tobora sovib borar, faqat bitta-yu bitta joyi – miyasining bir cheti kul orasidagi uchqunday yallig'lanib, yaltillab turardi. Lekin bu uchqunni so'ndirmay turgan narsa shifokorlarning ukollari emas, vujudini zirqiraturvchi armonli o'ylar edi. Bu o'ylarning aksariyati esa yana o'z jigari, yolg'iz jiyani Otaqo'ziga borib taqalardi...

Yo'q, u jiyani nisbatan vijdoni qiynaladigan bir yomonlik qilgani yo'q, nima desa ham, nima qilsa ham, yaxshi bo'lsin deb qildi, lekin Otaqo'zining qismati, oilasining boshiga tushgan musibat domlani yuragini misoli bir qurt bo'lib kemirar, ruhiga bir zum orom bermas edi.

„Nahot, tog'a-jiyanlar bir marta, loaqal bir martagina ko'ngillaridagi bor gaplarini, gina-kuduratlarini to'kib, chin yurakdan dardlashishga muyassar bo'lmasalar? Nahot, u eng ezgu niyatlarini o'z jiyani aytolmay o'lib ketsa? Nahotki, ko'nglidagi mehr-muhabbatini izhor etolmay, barcha dard-u alamlarini o'zi bilan birga sovuq go'rga olib ketsa?“

Domla Shomurodovning nazarida bir haftadan beri yuragini changallab turgan sovuq panja o'tkir tirnoqlarini yana bir botirib olganday bo'ldi-yu, og'riq bosilguncha tishini tishiga bosib yotdi, so'ng:

– Qizim, – deb Latofatni chaqirdi. – Stol tortmasidan qog‘oz-qalam olib, yaqinroq kelib o‘tir, bolam, gapim bor...

Latofat abajurni divanga yaqinroq surdi, stoldan qog‘oz-qalam olib domlaga yaqinroq o‘tirdi. Uning bezovtalanib ko‘zlari mo‘ltirab qolganini ko‘rgan ota ko‘ngli erib:

– Qo‘rqma, bolam, – dedi. – Bir-ikkita gapim bor, shularni aytaman, sen yozib olasan. Yoz!

Domla shunday dedi-yu, ko‘zini yumib, yana uzoq sukutga toldi. Qiziq, u xayolan Otaqo‘zi bilan bir haftadan beri gaplashar, unga aytadigan dard-u hasratini aytib ham bo‘lgan edi. Mana, hozir ham aytadigan gaplari tilining uchida turgandi, biroq Latofatga „yoz“, deyishi bilan hamma so‘zlari yodidan ko‘tarilib, gung bo‘ldi-qoldi, to‘g‘rirog‘i so‘zlar-ku, bor, lekin bu so‘zlar ko‘pdan beri o‘ylab yurgan fikrlarini, ko‘nglidagi armonlarining o‘ndan birini ham ifoda etolmas edi.

Latofat uning jimib qolganidan xavotirlanib:

– Bobojon! – dedi sekin. – Doringizni beraymi?

– Yo‘q, – ota ko‘zini ochib Latofatga qaradi, xuddi to‘satdan esiga bir narsa tushganday betoqat bo‘lib „Yoz!“ – dedi. – O‘g‘lim Abrorjonga! Yo‘q, shoshma, bunday degin.

Normurod Shomurodov bir zum jim qolib, nafasini rostlab oldi-da, bir nuqtaga tikilganicha, sekin davom etdi:

– Tuman rahbari o‘rtoq Shukurovga.

Hurmatli o‘rtoq Shukurov!

Xabaringiz bor, kamina ko‘p yillar ilmiy ish bilan shug‘ullangan bir olim sifatida ilm-fan, falsafa va ayniqsa, adabiyot va san‘atga oid kichikroq bir kutubxona yig‘ishga muyassar bo‘lganman. Salkam o‘n ming jilddan iborat bu kutubxonamni „Sharq yulduzi“ kolxoziga qarashli o‘rta maktabga in‘om etganimdan boxabarsiz. Bu maktubni yo‘llashdan birinchi tilagim shukim, umrim davomida yig‘gan bu kutubxonam duch kelgan odamga emas, kitobning qadrini biladigan, fan va adabiyotga tashna bir kishiga topshirilsakim, toki bu nodir asarlardan o‘qib kelayotgan yosh avlod bahramand bo‘lsa... Ikkinchi tilagim shukim...

Domla yana so‘zida to‘xtab, bir xo‘rsinib oldi-yu, ovozi xiyol o‘zgarib davom etdi:

Ma‘lumki, shu kecha-kunduzda mening jiyanim, „Sharq yulduzi“ kolxozining raisi Otaqo‘zi Umarov... yo‘l qo‘ygan xatolar ustida taftish bo‘lyapti. Keksa olim sifatida men

bu xatolarga prinsipial munosabatda bo'lganimdan xabaringiz bor. Haliyam shu prinsipda turganim holda Otaqo'zi Umarovning o'z qishlog'i uchun, o'z kolxozi uchun qilgan xizmatlarini bir eslatib qo'yishni lozim ko'rdim. Uning hayot-mamoti hal bo'layotgan shu kunlarda, turmushda ba'zan bo'lib turadigandek, bugungi xatolari uchun o'tmishda qilgan hamma xizmatlaridan ko'z yumish holi yuz bermasa deb qo'rqaman. Xalqimizda ot surinmay yo'l topmas, degan gap bor. Shu dono fikrga amal qilib uni suringan paytida suyab yuborsangiz, ya'ni, har jihatdan haqqoniy baho bersangiz, aslini olganda, ko'nglida kiri yo'q bu pok va iste'dodli odam hali ko'p foyda keltirarmikan, deb o'ylayman. Turmush taqozosi shunday bo'ldikim, biz tog'a-jiyanlar bafurja o'tirib bir dardlasha olmadik. Ko'pni ko'rgan odam, jiyanim baland kelganda men past bo'lib, uning ko'nglidagi dardlariga quloq solmog'im lozim edi. Bukrini go'r tuzatar, deganlaridek, tabiatan ters odam, kamina shu ishni qilolmay, yolg'iz jiyanimni qon qilib, o'zim ham og'ir ahvolda to'shakda yotibman... Agar jiyanimning boshiga og'ir musibat tushgan shu kunlarda... men qoqbosh qiladigan ishni... („qoqbosh“ degan so'zni o'chirib tashla!) Men qiladigan ishni siz qilib, uning dardlariga quloq solsangiz... o'lsam go'rimda tinch yotardim, o'g'lim...

Men hozir sababini aytib berolmayman. Lekin birinchi marta sizni ko'rganimda xuddi o'g'lim Jabborni ko'rganday bo'lgandim... Azaldan dilozor odam, agar biror joyda ko'nglingizni og'ritgan bo'lsam, rozi bo'ling, o'rtoq Shukurov... „O'rtoq Shukurov“, degan so'zni o'chirib, „o'g'lim“, deb yoz... rozi bo'ling, o'g'lim...

Sizga hurmat bilan professor Normurod Shomurodov... „Professor“ so'zini o'chirib tashla! Normurod Shomurodov.

– Yozdingmi, qizim?

– Bobojon! – Latofat qalamini daftarga tashlab o'rnidan turdi. U pirpirab uchgan lablarini tishlab, domlaga engashdi, biroq domlaning suyakdor yuzida norozilik aralash bir iltijo aks etdi:

– O'tir, qizim. Gapimni aytib olay. O'tir. O'tirdingmi? Boshqa qog'oz ol!

Normurod Shomurodovning shiftga tikilgan ko'zlari xuddi ilhomi kelgan baxshining ko'zlariday yonar, quruqshab

qolgan lablari bir nimalarni pichirlardi. Ko'kimtir nurga cho'mgan jimjit xonada uning og'ir hansirashi eshitilar, go'yo birov bilan gaplashayotganday qorong'i shiftga tikilib shivirlashlari, butun vajohati allaqanday vahimali tuyulardi.

– Qog'ozni oldingmi? Olgan bo'lsang yoz!

„Jiyanim... yo'q, aziz jiyanim Otaqo'ziga!

Dunyoda birovga ozor berib, ketidan uzr so'rab yuruvchi odamdan yomon ko'rganim yo'q edi, ammo hayot taqozosi bilan xastalik g'oliblik qilayotgan mavridda yor-do'stlarim bilan rozi-rizolashish nasib etadimi, yo'qmi, bilolmay, o'zim ham shu ishni qilmoqqa majburman.

Men sendan roziman, toabad roziman, jiyanim. Ayang ikkimizga qilgan yaxshiliklaring, keksaygan chog'imizda yolg'izligimizni bildirmay ruhimizga madad, belimizga quvvat bo'lganing uchun toabad minnatdorman. Eskida mendan qaytmasa Xudodan qaytgay, degan gap bo'lg'usu edi, mendan qaytmasligiga ko'zim yetib turibdi, bu yaxshiliklaring farzandlaringdan qaytgay, eldan qaytgay, jigarim.

Men kelinim Oliyabibidan roziman, abadul abad roziman. Kelin bo'lib tushibdiki, bir marotaba qovog'ini uyganini ko'rmadim. Bu dunyoda yaxshilik ham, yomonlik ham qaytg'usi, bizga qilgan yaxshiligi ming chandon ortiq bo'lib qaytgay...

Domla to'satdan yuzi qattiq bujmayib, bir daqiqa jim qoldi, so'ng, ovozidagi titroq bilan olishib davom etdi:

Jiyanim Haydarjon!

Men sendan ham roziman. Diydasi qattiq, o'jar tog'angdan qancha gina qilsang haqqing bor edi, ginang bo'lsa ham uni ichingga yutib, yonimga kelding, yorug' dunyo bilan vidolashish onlarida tepamda turding! Omon bo'lgaysan, topishgan ma'shuqang bilan qo'sha qarigaysan, saodatli bo'lg'aysan, bolam...

Jiyanim Otaqo'zi!

Omonat kassada uch ming so'mcha pulim bor. Bu pulning ikki mingini maktabga ber, kitoblar uchun yangi javonlar olishsin, yaxshi jihozlar buyurishsin... Qolgan ming so'mini yorug' dunyodan ko'z yumsam (ne chora – o'lim haq!) marosimimga yaratgin. Olamdan o'tgan kishiga as'asa-yu dabdabaning hojati yo'q. Marosimni el qatori o'tkazgin...

Toshkentdagi hovli-joyim Haydarjonga bo'lsin. O'sha yerda tursin, ilmiy ishini davom ettirsin, olim bo'lsin. Qo'lyozmalarim – xoh yozilib bitgan bo'lsin, xoh yozilib nihoyasiga yetmagan bo'lsin, uning ixtiyorida bo'lgay...

Qabrimga sag'ana-pag'ana qo'yaman, deb ovora bo'lmanglar. Ayang ikkimizga atab ikki tup sada yo shotut o'tqazsalarig bo'ldi, shuning o'zi kifoyadir...

Tug'ma qaysar odam, kamina salkam sakson yillik umrimda ko'plarni ranjitdim, hayot ekan, birda bilib, birda bilmay ko'plarga ozor berdim. O'lsam arzimni ularga yetkazgaysan, bilmay qilgan dilozorligimni kechirgaylar... Men hammadan, hammangdan roziman, hammadan, hammangdan rozilik so'rayman."

Domla Shomurodov ichiga suv ketgan odamday tomog'i qulqillab, so'zidan to'xtadi. Latofat ham qalamini otib yubordi-da, cholning ko'ksiga yiqildi.

– Nega bunday qilasiz, bobojon. Siz hali o'lmaysiz! To'yimiz bo'ladi hali, to'yimiz!

Domla Shomurodov bazo'r qimirlagan o'ng qo'lini asta ko'tarib, qizning to'zg'igan sochlarini, peshanasini siladi.

– Ha, to'ylaring bo'ladi. Men shunchaki, har ehtimolga qarshi yozdirib qo'ydim-da, bolam...

– O'lmaysiz, bobojon! O'lmaysiz.

Latofatning xiyol to'zg'igan sochlaridan qandaydir nozik gullarning nozik bo'yi kelar, termilib boqqan katta ko'zlarida ham cheksiz mehr, ham iltijo, ham kishi qalbini eritib yuboradigan yorug' bir mung porlab turardi. Nogahon otaning yodiga yana o'sha alamli o'y tushdi: „Nega shunday pok, shunday mehribon qiz Jabbordan tug'ilmadi? Nega? – dedi domla armon bilan, biroq bu achchiq alam shu daqiqaning o'zidayoq boshqa tuyg'u bilan almashti. – Jabbordan tug'ilmasa ham Jabbordan tug'ilgandan ortiq mehribonlik qilayotgani yo'qmi? O'ziyam nimasi bilandir Jabborga o'xshab ketmaydimi bu qiz?"

Ajabo, bir haftadan beri yuragini kemirib yotgan armonlarini shu qizga aytib yozdirishi bilan go'yo ko'nglini zimiston qilib turgan qora dud to'zg'ib ketganday bo'ldi-yu, birdan yengil nafas oldi.

Domla Shomurodov majolsiz qo'lini asta ko'tarib Latofatning boshini siladi.

– Bolam, mening Jabbor degan o'g'lim bor edi...

Latofat ko'z yoshini qult-qult yutib, bosh irg'adi.

– Bilaman, bobojon, bilaman, mard yigit, ajoyib inson bo'lgan, o'g'lingiz...


– Men seni birinchi daf'a ko'rganimda.. nega o'g'limdan tug'ilmadi bu yaxshi qiz deb, taqdirdan noligan edim. Mana endi, o'z nevaram, o'z qizimdan ko'proq mehribonlik qilding. Nabiram o'rniga nabira bo'lding. Nega yig'laysan? Yig'lama, bolam... Men senga ulkan saodat tilayman. Hammasi joyiga tushadi, hammasi yaxshi bo'ladi... Bor, damingni ol, qizalog'im...

Latofatning yosh bilan yuvilgan yuzida yana o'sha cheksiz iltijo aks etdi.

– Haydar akamlar kelsinlar, bobojon...

– Yo'q-yo'q, Haydar ham dam olsin. Hech nima bo'lmaydi. Men yaxshiman. Ancha yaxshiman. Chiroqni o'chir, men ham dam olay, oppog'im.

Normurod ota tepasida egilib turgan qizga, ko'kimtir shu'laga cho'mgan xonaga, javonlardagi kitoblarga go'yo vidolashayotganday termilib qaradi. Xayolidan: „Nahot, umrning intihosi shu bo'lsa? Nahot, bor-yo'q ko'rganim shu bo'lsa?“ – degan fikr o'tdi. Biroq bu fikr birdan yengil tortib, orom tilagan yuragiga misoli bir tig' bo'lib sanchilgani uchun domla uni xayolidan haydadi-da, ko'zini yumdi.



Kolxoz bilan shahar o'rtasi o'ttiz chaqirimcha kelardi. Urush yillari, Otaqo'zi aravakashlik qilib, g'alla tashib yurgan chog'larida, qishloq bilan shahar o'rtasi salkam bir kunlik yo'l hisoblanardi. Hozir u yangi „Volga“da bu masofani yarim soatga qolmay bosib o'tar, biroq, odatda, shu fursat ham unga ko'p tuyular, „Uchar“ degan shofyorini qistab, uni shoshirgani shoshirgan edi. Bugun u umrida birinchi marta shoshmayapti, birinchi marta Ucharni „tez hayda“, deb qistamayapti. Qani endi bu o'qday to'g'ri asfalt yo'l bolalik chog'laridagi tuproq yo'lga, qushday uchib borayotgan „Volga“ ho'kiz aravaga aylansa-yu, asta imillab shaharga kechasi kirib borsa! Otaqo'zi aravakashlik qilgan bolalik paytlaridagiday ho'kizlarni o'z holiga tashlab qo'ysa-

yu, aravadagi yuklarga chalqancha yotib, uzoq xayolga tolsa! Bulutsiz, beg'ubor osmonga tikilib, salkam ellik yillik umriga bafurja bir nazar tashlasa...

Soat o'n ikki. Raykom byurosi. Otaqo'zi jo'rttaga yarim soat qolganda yo'lga chiqdi. Ilgari soyasiga salom berib yurgan odamlarning achingan nigohlarini, raqiblarining kinoyali tabassumlarini ko'rmaslik, yor-birodarlarining tasallilarini eshitmaslik uchun to'g'ri majlis boshlanganda kirib borishga ahd qildi. Chunki so'nggi kunlardagi tekshirishlar, tergovlar, qonunsiz olingan o'g'it-u ehtiyot qismlardan boshlab, kolxoz „Gazik“ini bo'lajak kuyoviga berib, halokatga yo'l qo'yanlarigacha bo'yniga ayb qilib qo'yildi. Otaqo'zi shuning o'zidanoq masala hal bo'lganini tushundi.

Masalasi hal bo'lmaganda ilgari uning oldida qo'l qovushtirib turadigan, uncha-muncha kamchilik va nuqsonlarni ko'rib-ko'rmaganlikka oladigan raykom vakillari, militsiya va prokuratura xodimlari endi hamma narsaga e'tibor berib, qildan qiyiq axtarishib o'tirisharmidi? Eng yomoni – u bilan, kimsan Otaqo'zi Umarov bilan bunaqa pisanda qilib gaplashishga jur'at etisharmidi? Yo'q, ilgari Otaqo'zi o'zi ular bilan o'rnidan turmay, divanda yonboshlab yotib gaplashardi!

Mayli, bo'lganicha bo'lar! Bu ish o'zining ham joniga tegib bitgan, Otaqo'zi o'ziyam raislikdan ketaman, degan gapni necha marta aytgan. Lekin... kishi mansabni qo'ldan bermasligini, hech kim uni o'z ishidan ololmasligini bilib turib, ketaman, deb gerdayishi bir boshqa ekan-u, undan so'rab o'tirmasdan olib tashlashlari bir boshqa ekan!


Birinchi holda odam qancha gapirsa yarashar ekan! Rahbarlar: „Yo'q-yo'q, siz ketsangiz ahvolimiz nima kechadi? Siz bo'lmasangiz osmon ag'darilib yerga tushadi“, deb yolvorib turganda „ketaman“, deb nisanda qilishning yo'rig'i boshqa ekan-u, o'sha rahbarlarning o'zlari xatolaringizni yuzingizga solib, xor qilib, o'tirgan kursingizdan ag'darib tashlashlari bir boshqa ekan! Eng muhimi – yo'l qo'yan xatolarining mohiyatini ham, o'zi hali nimalarga qodir ekanini ham Otaqo'zi mana endi, bo'lar ish bo'lib, bo'yog'i singanidan keyin tushundi!

Qani endi uni o'z joyida qoldirishsa! Xatolarini yuziga solib bo'lsa ham, qattiq jazolab bo'lsa ham o'z ishida

qoldirishsa! Otaqo'zi bu xatolariga barham berib, shunday mehnat qilar, shunday ulug' ishlar qilardiki, butun olam qoyil qolardi!

Otaqo'zi hamma narsaga aqli yetar, hech bir ilinji yo'qligini tushunar, shunday bo'lsa ham ko'nglining bir chetida umidga o'xshash bir narsa hamon miltirab turardi. Axir, nahot, uning salkam chorak asrlilik mehnatini inobatga olishmasa, nahot, qilgan shuncha xizmatlari evaziga uni suyab qolishmasa!

Mashina asfalt yo'lni yamlab yutib qushday uchib borar, yo'lning ikki yonida hadsiz paxta dalalari, ko'm-ko'k bog'lar, bedazorlar yastanib yotar, biroq Otaqo'zi hech narsani ko'rmas, olam uning ko'ziga qorong'i ko'rinardi...



Domla Shomurodov bexosdan uyg'onib ketdi-yu, go'yo har kungi uy emas, boshqa bir notanish joyda yotganday, anchagacha hushini yig'ib ololmadi...

Kun chiqqan, xona charog'on, deraza tokchasidagi choynak-piyola, shiftagi lampochka, shkafdagi idish-tovoqlar – hammasi zar sochilganday yaltillab ketgan, domlanning ko'ngli ham oftobday ravshan edi. Go'yo kimdir birov bir haftadan beri ko'ragini bosib yotgan og'ir toshni olib tashlagan-u, jismi ham, ruhi ham ukparday yengillashib qolgan!

Domla bunchalik bo'lishiga ishongisi kelmay, avval qo'l-oyoqlarini qimirlatib ko'rdi, keyin tirsaklarini divanga tirab, qaddini rostlab o'tirdi.

Vo ajabo, sal boshi aylangani demasa, unga hech nima qilmadi. U, nima bo'lganini o'ziam tushunolmas, faqat bir narsani bilar, kechasi Otaqo'ziga atalgan vasiyatnomani yozdirib bo'lgandan keyin o'zini birdan yengil sezdi, yengil sezib, qandaydir juda osoyishta, juda tiniq uxladi. Go'yo bu vasiyatnomalarda aytgan gaplari bir haftadan beri vujudini karaxt qilib olgan muzni tamom eritib yubordi-yu, jismiga madad, ruhiga ajib bir tiniqlik ato qildi...

Aytmoqchi, bu vasiyatnomalar qani? Birovning ko'zi tushmasin ularga!

Normurod Shomurodov asta o'rnidan turib, bir-bir bosib

divan yonidagi stolga o'tdi, o'tarkan, o'zidan yana ajablanib qo'ydi; oyoqlarining majolsizligi-yu, ko'nglining bir lahzalik behuzurligi bo'lmasa hech narsa qilmadi unga!

Vasiyatnomalar stol tortmasiga solingan, stolda esa, katta eski siyohdon bilan bostirilgan bir varaq qog'oz yotardi:

„Bobojon! Biz kelsak uxlab yotgan ekansiz. Uyqungizni buzgimiz kelmadi. Xolodilnikda qaymoq, termosda choy bor. Biz dadamlarga uchrashib, kechroq kelarmiz. Haydar, Latofat...

Bu ikki og'izgina xat domlanning ko'nglini boyagidan ham ravshan qildi. U qumg'ondagi suvga yuz-qo'llarini yuvdi, xolodilnikdan qaymoqni olib, bir haftadan beri birinchi marta ishtaha bilan nonushtaga kirishdi, kirisharkan, nigohi yana xatga tushdi. Biroq boya ko'nglini ravshan qilgan: „dadamlarga uchrashib, kechroq kelarmiz“, degan so'zlar bu safar boshqacha ta'sir etib, nimadandir yuragi „shig'“ etdi...

„Mabodo ishdan haydolib, yomon bir kori hol... Yo'-yo'q, yomon bo'ladigan nima jinoyat qildi u? Yo'l qo'ygan xatolari uchun ishdan olishsa olishar, ammo lekin... tinchlik bo'lsin-da, ishqilnb, tinchlik bo'lsin...“

Domla to'satdan jiyani oldida o'zini juda gunohkor sezdi. Haqiqatan, yolg'iz jigarining boshiga og'ir kulfat tushgan bir mahalda uning bu yerda hech narsani bilmaganday bamaylixtir yotishi insofdanmi axir? Jiyani unga quloq solsin-solmasin, yuzma-yuz o'tirib u bilan gaplashish, dard-u armonlarini eshitish, eshitib yaxshi maslahatlar berish o'rniga izzat-nafsga ketib, orqavorotdan xatlar yozib yurishi adolatdanmi axir? Zotan, jiyani unga qanchalik hurmatsizlik qilmasin, jahlga ketib, qancha dilozorlik qilmasin, nima bo'lganda ham yolg'iz jigari-ku, u? Ot tepkisini ot ko'taradi, deganlaridek, birda notanti bo'lsa, birda tanti, mard, oqko'ngil jiyanining tersligini o'z tug'ishgan tog'asi ko'tarmasa kim ko'taradi? Kim seni ko'pni ko'rgan mo'ysafid, ko'pni bilgan olim deydi, mulla Normurod?“

Domla yegan qaymog'i tomog'iga tiqilib, o'rnidan tura boshladi-yu, hovlida mototsiklning tanish pat-patini eshitib, qulog'ini ding qildi. Zum o'tmay tapir-tupur oyoq tovushi eshitilib, uyga Proxor kirdi.

Boshida siri ko'cha boshlagan qizg'ish kaska, egnida oftobda oqarib ketgan gimnastorka, oyog'ida og'ir soldatcha etik, Proxor ostonada to'xtab, ko'zlarini lo'q qildi.

– Iye, iye, o'rtoq professor? Biz sizni Gulsarabibini sog'inib, uning yoniga shoshyapti deb yursak, o'tiribdilar-ku, miltiqni o'qidek bo'lib! Qoyil, mulla Normurod, qoyil!

Proxor ko'm-ko'k, ma'sum ko'zlari hayrat bilan porlab, og'aynisi bilan quchoqlashib ko'rishdi.

– Balli, jigarim! Mana endi mardikorlikda sotnik bo'lganingga ishonsa bo'ladi! Nima bo'lgandayam qari bo'risanda, iligingda yog'ing bor!

– Sen-chi?

– Men ham sog'lig'imga arz qilayotganim yo'q, Xudoga shukur! – Proxor domlaning qo'lidan termosni olib, choyni o'zi quyarkan, do'stiga yana bir bor boshdan oyoq razm solib chiqdi.

– Ammo to'g'risiyam, malades ekansan, og'ayni! Biz seni chindan ham Gulsarabibini sog'inib qoldi deb...

– E gap Gulsarada emas, hamma gap senda, oshna! – dedi Normurod Shomurodov. – Og'aynim Proxor aytgan kitobni tugatmay jo'nab qolsam narigi dunyoda yuz ko'rishganimizda boshimga yana malomat toshini yog'dirmasin deb, o'rnimdan turdim! – domla ichki bir g'urur bilan kulimsirab, qo'lyozmasini tortmadan olib stolga qo'ydi. – Istasang o'qib ko'rishing mumkin, oshna.

U mamnun jilmayib, og'aynisiga qaradi. Biroq Proxor qo'lini bir siltab, yuzini teskari burdi.

– Mayli, keragi yo'q! Bu kitobingdan foyda yo'q endi!

Domla Proxordan har narsani kutsa ham bunday loqayd muomalani kutmagan edi. U birdan yosh boladay o'ksib:

– Ha, nechuk endi foydasi bo'lmas ekan? – deb so'radi.

– Negaki... haligi ishlar baribir bo'lyapti Mingbuloqda! Hech kim to'xtatgani yo'q bu ishlarni! Meni kechirasan-u, og'ayni, ammo jiyaning ketmaydigan bo'lsa... bitta emas, o'nta kitob yozsang ham to'xtamaydiganga o'xshaydi bu noma'qulchiliklar! – Proxor asabiylashib o'rnidan turib ketdi-da, kemptik qulog'idan tortqilaganicha ochiq deraza oldiga o'tdi.

Domlaga uning kitob to'g'risidagi gapidan ham Otaqo'zi to'g'risidagi gapi og'ir botdi. U birdan ko'tarilib ketgan yurak urishiga quloq solganicha boshini egib, bir lahza sukut saqladi, so'ng:

– Gap mening jiyanimda bo'lsa, – dedi ranjib. – Uning ham boshiga yetdik shekilli... Ko'rarmiz, u ketib boshqasi kelganda olam guliston bo'lganini!..

– Ketib bo'пти jiyaning! Boya ko'rdim, yuribdi Mingbuloqda ko'k „Volga“sini uchirib! – Proxor shunday deb shartta burilib qaradi, qaradi-yu, turgan joyida qotib qoldi.

Domla Shomurodov qalt-qalt titrab o'rnidan turmoqda, uning dag'al, yalpoq yuzi, qo'llari dokaday oqarib ketgan edi.

– Normurod! Men shunchaki...

– Qani, ketdik! – dedi domla hansirab.

– Menga qara, Normurod! Xudo haqqi, kechirim so'rayman...

– Ketdik deyapman senga! – o'shqirdi domla. – O'z ko'zim bilan ko'raman Mingbuloqdagi ishlarni! O'z ko'zim bilan ko'rib, o'zim yuzma-yuz turib gaplashaman jiyanim bilan!..

Domla Shomurodov g'azab va alam ustida bu ishga jazm etib to'g'ri qilmaganini yo'lga chiqqanlaridan keyin bildi, biroq orqaga qaytishni istamadi. Mototsikl har silkinganda a'zoyi badani bir zirqirab, ko'z oldi qorong'ilashib ketar, oyoq-qo'llari betinim titrar edi. Faqat Mingbuloqqa yaqinlashib, yuziga salqin shabada, dimog'iga giyoh va archalarning xushbo'y atri gup-gup urgandagina xiyol yengil tortdi...

Yo rab! Mingbuloq, umrining eng mas'ud damlari o'tgan, yalangoyoq, yalangbosh shudring kechib, do'ppi-do'ppi jiyda terib yurgan baxtiyor onlarining guvohi bo'lgan suyuqli Mingbuloq bundan bir oy avval qanday bo'lsa shunday turar, go'yo tizzadan keladigan bo'liq pichanzorlarga saraton oftobi tegmagan, kumushrang jiydalar yosh kelinchaklarday nozik archalar go'yo shu bugun, shu subhidam yuvib qo'yilganday yashnab ketgandi.

Domla bolalikdan tanish bu ko'rkam manzaraga qarab to'ymas, o'rilgan pichan va bedaning sal taxir xushbo'y hidini to'yib-to'yib simirarkan, u endi xasta holda buloqqa kelganiga pushaymon qilmas, aksincha, ich-ichidan sevindi. Faqat yurak... yurak negadir betoqat urardi.

Ular Mingbuloq jiydazorlariga sho'ng'ib, chapga buri-lishlari bilan yam-yashil pichanzorni kesib o'tgan shag'al yo'lda qator turgan besh-oltita samosvallar, og'ir „MAZ“lar, tumshuqlarini ko'kka cho'zgan ulkan kranlarga duch kelishdi. Ular kesilgan daraxtlarni ortishyaptimi yo yo'g'onligi qulochga sig'maydigan bahaybat trubalarni tushirishyaptimi

– buni tushunib bo‘lmas, biroq odamlar g‘ala-g‘ovur ko‘tarib ishlashmoqda, birinchi kranning yonida... ishchilarga ko‘rsatma berib... shopmo‘ylov, barvasta bir odam turardi. Boshiga yog‘i chiqib ketgan eski do‘ppi, ustiga kir-chir ko‘ylak kiyib olgan, ikki yuzi naqsh olmaday qip-qizil bu yo‘g‘on, shopmo‘ylov odam – Ali mo‘ylov edi.

Domla uni tanishi bilan ko‘nglidan: „Paxtadan haydalib, Mingbuloqni quritgani kepti-da, bu azamat!“– degan fikr o‘tdi-yu, Proxorga „to‘xta“, deb ishora qildi.

Mototsikl xuddi kranning yoniga borib to‘xtadi. Undan tushayotgan ikki cholni ko‘rgan ishchilar ishlarini qo‘yib, chollarga qiziqsinib qarashdi. Ali mo‘ylov esa... narigi safargi „xosiyatsiz uchrashuv“ hamon yodida bo‘lsa kerak, domlani tanidi-yu, oyog‘i kuygan tovuqday pitirlab qoldi.

– E-e... kelsinlar, domlajon, kelsinlar..

Yerga tushgan domla qulab ketmaslik uchun mototsiklning rulini mahkam changallab:

– Otaqo‘zi qani?– deb so‘radi.

– Rais otamlar... u kishi shaharga ketdilar hali...

– Siz nima qilib yuribsiz bu yerda?

– Men... biz, – dedi mo‘ylov, ikki yuzi bo‘yalgan ulkan qo‘g‘irchoqning yuziday yaltillab,– ishlayapmiz, domlajon.

– Ishlayapsanmi yo? – domla qalt-qalt titrab, mo‘ylovga qarab bir qadam yurdi.

– Normurod! To‘xta, Normurod!.. – Proxor uni to‘xtatib qolishga urindi, biroq domla qo‘lini uning qo‘lidan tortib oldi-da, yuragiga quyilib kelgan issiq bir to‘lqindan bo‘g‘ilib:

– Gumroh! – deb baqirdi. – Qachon bu el, bu yurt senday gumrohlardan qutuladi? Qachon? To‘... to‘xtat bu... yovuz ishingni!– Domla so‘zini tugatolmadi, nogahon ko‘z oldini qora tuman bosib, nimanidir ushlab qolmoqchi bo‘lganday qo‘llarini ko‘tardi-yu, orqasidan yetib kelgan Proxorning qo‘liga quladi, qularkan, Ali mo‘ylovning ingichka, chiyildoq ovozi qulog‘iga chalindi:


– Biz ko‘chyapmiz! Molxona Mingbuloqdan ko‘chyapti, domlajon, ko‘chyapti!..

Osmon artilgan shishaday musaffo edi. Bu osmonni to‘sib tepasida sarosimada qolgan Proxorning ayanchli yuzi ko‘rindi.

– Nima bo‘ldi, Normurod? Ahmoq bo‘lmasam, nega opkeldim seni? Nega?..

„Yurak kasalida bu zarba uch marta bo‘lardi shekilli? Uchinchi yiqilishimmi bu, yo...“

Normurod Shomurodov so'nib borayotgan oxirgi kuchlarini yig'ib yoni-veriga, Mingbuloq jiydazorlariga, to'p- to'p o'sgan yam-yashil archalarga, tepasida yig'lab turgan eski qadrdonining yuziga so'ng bor termilib qaradi-da, chuqur xo'rsinib ko'zini yumdi...



Odatda, to'liq yig'ilavermaydigan byuro a'zolari bu safar yuz foiz to'plangan edi. Otaqo'zi buni eshikdan kirishi bilan oqolg'ab oldi-yu, indamasdan eng orqadagi joyga borib o'tirdi.

Otaqo'zi kirganda hali davom etayotgan kulgi, g'alg'ovur birdan tinib, xona suv quyganday jimjit bo'lib qoldi.

Shukurov horg'in qo'zg'alib o'rnidan turdi. U ko'zlari ichiga botib, yuzi cho'yanday qorayib ketgan Otaqo'ziga qarashga yuragi dov bermay:

– O'rtoqlar! – dedi. Lekin shu payt telefon jiringladi. Abror Shukurovich ijirg'anib go'shakni oldi. U jahl bilan: „Byuro bo'lyapti!“ – deb go'shakni joyiga qo'ymoqchi bo'ldi-yu, to'satdan rangi o'chib:

– Nahotki? – dedi. – Qachon?

Shukurovning ovozi shunday vahimali eshitildiki, hammaning ko'zi unga qadaldi.

Abror Shukurovich go'shakni joyiga qo'yib bir zum boshini xam qilib turdi, so'ng:

– O'rtoqlar! – dedi sekin. Jonkuyarlardan biri, katta olim, professor Normurod Shomurodov... olamdan o'tibdilar. Majlis boshqa kunga qoldiriladi... Bir daqiqa sukut saqlashlaringizni so'rayman...

Otaqo'zi kimdir yelkasini tutganini sezib boshini ko'tardi. Tepasida Haydar turardi.

– Bo'ldi! Yuring, dada. Odamlar uyga fotihaga borishadi-ku!

Otaqo'zi qon talashib, shishib ketgan ko'zini o'g'lining, ko'zidan uzib, yoni-veriga qaradi. Qabriston, nafaqat qabriston, butun Qorovultepani to'ldirgan izdahom pastga qarab yopirilgan, botayotgan oftobning qonli shu'lasida, birov piyoda, birov mashina, birov otga minib qishloq tomon oqqan bu olomon qandaydir betartib qadimiy lashkarni eslatardi.

Mayli, sen boraver, o'g'lim, men keyinroq tushib boraman...

– Qandoq bo'larkin, dada?

– Qandoq-pandog'i yo'q! Gap tamom! – Otaqo'zining

xirildoq ovozi, butun vajohati shunday dahshatli ediki, Haydar lom-mim demay katta yo'lga qarab ketdi.

Otaqo'zi bir Qorovultepa ustidagi qonli shafaqqa, bir oldidagi ulkan qabrga qaradi-yu, ko'zini yumdi, shu zahoti quloqlari ostida Abror Shukurovichning sal bo'g'iq, haya-jonli ovozi yangraganday tuyuldi:

„Dunyoda shunday odamlar bo'ladiki, ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o'tgan yo'llari biz uchun abadulabad yuksak bir namuna bo'lib qoladi. Dunyoga kelib, yonib yashab, yonib o'tgan ulkan olim, otaxonimiz Normurod Shomurodov shunday ulug' insonlar jumlasiga kiradi“.

Shukurovning ovozini Proxor Polikarpovning ko'z yoshi aralash nidosi bosib ketgandek bo'ldi:

„Mardikorlik mashaqqatlarini birga chekuvdik, kurash-lardayam, musibatdayam birga edik, hamdard, hamnafas edik, u dunyoga ham birga ketsak bo'lmasmidi, qadrdonim Normurod? Umring bino bo'ptiki, insof-u adolat deb yurarding-u shu safar qari Proxorni bo'taday bo'zlatib ket-ganing adolatdanmi, azizim Normurod?

Hamma zarbalarga ko'krak tutib o'rgangan odam, o'lim navbati kelganda ham bizni ayab, ajalga o'zingni qalqon qilding-ku, birodarim Normurod! Tirigingda qadringni bilmovdik, o'lganingda qabring tepasida bo'zlaganimiz uchun afv et, mehribonim, oltmish yillik do'stligimiz hurmati gunohkor og'ayningni kechir, jigirim!“

Proxor bilan O'rozqulning nolayi nidolari go'yo miya-sidagi allaqanday bir murvatini burab yuborganday bo'ldi-yu, Otaqo'zining esiga lop etib tog'asining xati tushdi.

Peshindan beri har eslaganda bir larzaga solayotgan bu xat yuragini yana tilka-pora qildi... Tog'asi-ku, xatda bo'lsa ham o'z dard-u dunyosini, alam-iztiroblari, armonlari, mehri, yaxshi tilaklarini unga, jiyaniga aytib ketdi. Armonsiz ketdi. U-chi? Otaqo'zi-chi? Yuragini kemirayotgan dard-u hasratlarini, birda gina-kudurat, birda g'urur sabab, tog'a-siga qo'rslik qilgan bo'lsa ham uni dil-dilidan yaxshi ko'r-ganini, axir bir kun oyog'iga tiz cho'kib, ko'nglidagi hamma orzu-armonlarini to'kmoqchi bo'lib yurganini endi kimga aytadi? Bu sovuq qabr, bu tog'-u toshlargami?

Nahot, bu gaplar uning ko'nglida toabad armon bo'lib qolsa? Nahot, u endi umrbod afsus-nadomat chekib o'tsa?

Afsus-nadomat emish! Hey, Otaqo'zi! Loaqal endi, bu

ulug' insonning qabri tepasida, o'z vijdoning oldida munofiqlik qilmagin. Ilgarilari o'ksitganing yetmagandek, umrining eng so'nggi daqiqalarigacha betgachoparlik qilmadingmi bu halol va xokisor odamga? Soxta obro', yuksak lavozim va o'tkinchi shon-shuhratni deb, uning yaxshi niyatlarini rad etib, yaxshi gaplarini oyoqosti qilmadingmi? Hatto peshanang devorga borib tekkanda ham, hatto shu bugun ham hayotning bu shafqatsiz saboqlaridan xulosa chiqarish o'rniga manmanlik qilib hamon o'z obro'-e'tiboring uchun olishayotganing yo'qmi? Bas! Bo'ldi! Loaqal endi, bu muqaddas qabr tepasida munofiqlik qilma, loaqal endi, hayotning bu rahmsiz hukmi oldida halollikni, diyonatni o'yla, Otaqo'zi!..

Ha, odam bolasidan faqat yaxshilik qolarkan bu dunyoda! Boshqa hamma narsa – shon-shuhrat istagi, yuksak lavozim yo'lidagi kurashlar, obro'parastlik, manmanlik – buning hammasi o'tkinchi va nohalol bir narsa ekan! – Otaqo'zi buni tushundi, kech bo'lsa ham tushundi. Faqat... nachora, tog'asiga buni ham aytolmadi, bu gaplarning hammasi yuragida abadulabad so'nmas bir dard bo'lib qoldi? Na chora?..“

Otaqo'zining xayolini mashina motorining gurullashi bo'ldi. Go'riston zimiston qorong'ilikka cho'mgan, osmon yulduzlarga to'lib ketgan edi.

Mashina eshigi sharaqlab ochilib, birin-ketin ikki odam tushdi, so'ng go'riston sukutini gurs-gurs oyoq tovushlari buzdi.

– Otaqo'zi aka!

„Shukurov!“

– Sizga nima bo'ldi, Otaqo'zi aka? Yaxshi emas, turing o'rningizdan!

Otaqo'zi qo'llarini yerga tirab o'rnidan turdi.

„Kechiring, tog'ajon! Xom sut emgan jiyaningizni kechiring!“ – U qorong'ida qappayib turgan ulkan qabrga so'nggi bor termilib qaradi-da, bir-bir bosib, nariroqda kutib turgan Shukurov bilan o'g'li tomon ketdi.

Endilikda boya o'ylagan o'ylarini, insof-u adolat, diyonat, halollik va yaxshilik to'g'risidagi o'ylarini ro'yobga chiqarishi lozim edi. Bu mushkul, ammo ro'yobga chiqarishi shart bo'lgan insoniy bir burch edi, faqat hayot emas, Otaqo'zining o'z vijdoni ham shuni taqozo etardi.

„O‘zbek adabiyoti oltin fondi“ turkumi

ODIL YOQUBOV

DIYONAT

ROMAN

„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“

Toshkent – 2019

Muharrir *Rustam Mirzayev*

Badiiy muharrir va

kompyuterda sahifalovchi *Oygul Fozilova*

Musahhih *Zulfiya G‘ulomova*

**„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“ MCHJ va
„YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE“ MCHJ**
hamkorligida chop etildi

Nashriyot litsenziyasi AI № 210, 26.03.2012.

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.05.2019.

Bichimi 84x108^{1/32}. „PT-Serif“ garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Nashr tabog‘i 23,5.

Adadi 5000 nusxa.

98-19-sonli buyurtma.

„Yangiyul Poligraph Service“ MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Samarqand ko‘chasi, 44.

4000,-

4



**«QALDIRG'UCH
NASHRIYOTI»**

ISBN: 978-9943-5710-2-0



9 789943 571020